

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

12/2.2023

**Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan**

Urganch – 2023

“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent **YO'LDOSHEV Ro'zimboy**

TAHRIR HAY'ATI:

ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
ABDULLAYEV Ravshanbek, tibbiyot fanlari doktori, professor (TATU UF),
ABDULLAYEV O'tkir, tarix fanlari doktori (UrDU),
ATADJANOV Ilxam, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
ATAYEV Shokir, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),
DAVLETOV Sanjarbek, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),
DO'SCHONOV Tangribergan, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
ERMETOVA Jamila, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),
IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (PhD, UrDU),
IMOMQULOV Sevdiyor, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),
JUMANAZAROV Doniyor, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
JUMANIYAZOV Maqsud, texnika fanlari doktori, professor (UrDU),
JUMANIYOZOV Otaboy, filologiya fanlari nomzodi, professor (UrDU),
KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, mas'ul kotib, UrDU),
KAVALYAUSKAS Vidas, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),
NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
OTAMURODOV Sa'dulla, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),
PRIMOV Azamat, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (UrDU),
QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
RUZMETOV Surojbek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
RO'ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O'zMU),
SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori (O'zMU),
SALAYEV San'atbek, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),
SALAYEVA Muxabbat Soburovna, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SATIPOV G'oiqnazar, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor (UrDU),
XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari doktori, dotsent (bosh muharrir o'rinbosari, UrDU),
YAKUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),
O'ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori (UrDU),
O'ROZBOYEV G'ayrat, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
G'AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI• 2023 12/2 (200)**

MUASSIS: Urganch davlat universiteti•Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro'yxatdan o'tgan•**GUVOHNOMA № 1131.**

Sayfulloyeva Gulnoz Sayfulloyevna (Navoiy davlat Pedagogika instituti “Matematika” kafedrasida katta o‘qituvchisi; f.-m.f.f.d., PhD; email: sayfullayevagulnoz@gmail.com)

**SENZURLANISHNING UMUMLASHGAN MODELIDAGI APPROKSIMATSIYA
TEOREMALARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada biz tasodifiy senzurlanishli umumlashgan modelda Kats empirik protsesslarining Gauss protsesslari yordamida approksimatsiya masalasini ko‘rib o‘tilgan va ular bilan bog‘liq asosiy natijalar keltirilgan.*

***Аннотация.** В данной статье рассматривается задача аппроксимации эмпирических процессов Каца с гауссовыми процессами в обобщенной модели со случайного цензурирование и приводим основные результаты, связанные с ними.*

***Annotation.** This article considers the problem of approximating empirical Kac processes with Gaussian processes in a generalized model with random censoring and presents the main results related to them.*

***Kalit so‘zlar:** tasodifiy senzurlanish, raqobatlashuvchi risklar modeli, empirik baholar, Kats baholari.*

***Ключевые слова:** цензурированные данные, модель конкурирующих рисков, эмпирические оценки, оценки Каца.*

***Key words:** censored data, characterization of proportional hazards, empirical estimators, Kac estimators.*

Tasodifiy senzurlanishli umumlashgan model, dastlab, [1.4] da quyidagicha aniqlangan. Faraz qilaylik, $\{\Omega, \mathcal{F}, P\}$ ehtimolliklar fazosida kuzatilayotgan $\{Z_m, m \geq 1\}$ bog‘liq bo‘lmagan va bir xil $H(x) = P(Z_1 \leq x)$ taqsimot bilan berilgan tasodifiy miqdorlardan tashqari, parametri n ga teng bo‘lgan Puasson taqsimotiga ega, bog‘liqsiz $\{v(n), n \geq 1\}$ tasodifiy miqdorlar ketma-ketligi ham berilgan bo‘lsin. Har ikkala ketma-ketlik o‘zaro bog‘liqsiz deb faraz qilamiz. Bundan tashqari, $\{v(n), n \geq 1\}$ ketma-ketlik $\{(A_m^{(1)}, A_m^{(2)}, \dots, A_m^{(k)}), m \geq 1\}$ ketma-ketlik bilan ham o‘zaro bog‘liqsiz deb hisoblaymiz. Fiksrlangan butun son $k \geq 1$ uchun, $A^{(1)}, \dots, A^{(k)}$ juft-jufti bilan birgalikda bo‘lmagan, to‘la gruppahodisalarib, $H(x; i) = P(Z \leq x, A^{(i)})$, $i = \{1, \dots, k\} = J$ lar esa ularga mos subtaqsimotlar bo‘l-sin. Biz $H(x)$ va $H(x; i)$, $i \in J$ funksiyalarni uzluksiz deb hisoblaymiz. U holda $H(x)$ va $H(x; i) = P(Z_m \leq x, A^{(i)})$, $i \in J$ taqsimotlar uchun $H_n^*(x)$ va $H_n^*(x; i)$, $i \in J$ lar orqali ularning Kats empirik baholarini quyidagi ko‘rinishda kiritishimiz mumkin:

$$H_n^*(x) = \begin{cases} \frac{1}{n} \sum_{m=1}^{v(n)} I(Z_m \leq x), & \text{agar 1 ehtimollik bilan } v_n \geq 1 \text{ bo'lsa,} \\ 0, & \text{aks holda,} \end{cases}$$

$$H_n^*(x; i) = \begin{cases} \frac{1}{n} \sum_{m=1}^{v(n)} I(Z_m \leq x, \delta_m^{(i)} = 1), & \text{agar 1 ehtimollik bilan } v_n \geq 1 \text{ bo'lsa,} \\ 0, & \text{aks holda.} \end{cases}$$

Bu yerda $\delta_m^{(i)} = I(A_m^{(i)})$ ekanligini hisobga olsak, $H_n^*(x;1) + \dots + H_n^*(x;k) = H_n^*(x)$ $x \in R$. Eslatib o'tamiz, bu ikkala baho, mos ravishda, $H(x)$ va $H(x;i)$ lar uchun siljimagan baho bo'ladi va har bir $x \in R$ da

$$E[H_n^*(x)] = \sum_{i=1}^k E[H_n^*(x;i)] = \sum_{i=1}^k H(x;i) = H(x),$$

chunki

$$\begin{aligned} E(H_n^*(x;i)) &= \frac{1}{n} E \left[\sum_{m=1}^{v(n)} I(Z_m \leq x, \delta_m^{(i)} = 1) \right] = \frac{1}{n} \left\{ \sum_{k=1}^{\infty} E \left[\sum_{m=1}^n I(Z_m \leq x, \delta_m^{(i)} = 1) \right], v(n) = k \right\} = \\ &= \frac{1}{n} \left\{ \sum_{k=1}^{\infty} E \left[\sum_{m=1}^n I(Z_m \leq x, \delta_m^{(i)} = 1) / v(n) = k \right] \cdot P(v(n) = k) \right\} = \\ &= \frac{1}{n} \sum_{k=1}^{\infty} H(x;i) k P(v(n) = k) = \frac{1}{n} H(x;i) \sum_{k=1}^{\infty} k \cdot \frac{n^k e^{-n}}{k!} = \\ &= H(x;i) e^{-n} \sum_{k=0}^{\infty} \frac{n^k}{k!} = H(x;i), \quad (x;i) \in R \times J. \end{aligned}$$

Quyidagi empirik protsesslarni kiritamiz:

$$a_n^{(0)*}(x) = \sqrt{n} (H_n^*(x) - H(x)), \quad x \in R,$$

$$a_n^{(i)*}(x) = \sqrt{n} (H_n^*(x;i) - H(x;i)), \quad x \in R, \quad i \in J.$$

Bu protsesslar uchun quyidagi teorema o'rinalidir.

Teorema. Agar asosiy ehtimollik fazosi $\{\Omega, \mathcal{F}_t, P\}$ yetarlicha boy bo'lsa, u holda shunday $k+1$ ta $W_n^{(0)}(x), W_n^{(1)}(x), \dots, W_n^{(k)}(x)$ - Gauss protsesslari ketma-ketliklarini aniqlash mumkinki, $a_n^*(t) = (a_n^{(0)*}(t_0), a_n^{(1)*}(t_1), \dots, a_n^{(k)*}(t_k))$ va $W_n^*(t) = (W_n^{(0)}(t_0), W_n^{(1)}(t_1), \dots, W_n^{(k)}(t_k))$, $t = (t_0, t_1, \dots, t_k)$ lar uchun quyidagi o'rinni:

$$P \left\{ \sup_{t \in R^{k+1}} \|a_n^*(t) - W_n^*(t)\|^{(k+1)} > C^* n^{-1/2} \log n \right\} \leq K^* n^{-r}, \quad (1)$$

bu yerda $r \geq 2$, $C^* = C^*(r)$ va K^* lar musbat sonlar. Bundan tashqari, $W_n^*(t)$ ning o'zi $(k+1)$ - o'lchovli vektor-qiyamatli Gauss protsessi bo'lib,

$$EW^{(i)}(x) = 0, \quad (x,i) \in R \times \bar{J}$$

va ixtiyoriy $i, j \in J$, $i \neq j$, $x, y \in R$ uchun

$$\begin{aligned} EW_n^{(0)}(x)W_n^{(0)}(y) &= \min\{H(x), H(y)\}, \\ EW_n^{(i)}(x)W_n^{(j)}(y) &= \min\{H(x;i), H(y;j)\}, \\ EW_n^{(i)}(x)W_n^{(0)}(y) &= \min\{H(x;i), H(y)\}. \end{aligned} \quad (2)$$

Teoremaning isboti. Ushbu teoremani isbotlash uchun, dastlab, ikki parametrli $\mathbb{Q}^{(0)}(x;n), \mathbb{Q}^{(1)}(x;n), \dots, \mathbb{Q}^{(k)}(x;n)$ Gauss protsesslarini hamda mos $\mathbb{Q}(t;n) = (\mathbb{Q}^{(0)}(t_0;n), \mathbb{Q}^{(1)}(t_1;n), \dots, \mathbb{Q}^{(k)}(t_k;n))$, $t \in R^{k+1}$ vektorlarni tuzib olamiz, bu yerda

$$\mathbb{Q}(t;n) \stackrel{d}{=} n^{1/2} a_n^*(t).$$

Demak, $E\mathbb{Q}^{(i)}(x;n) = 0$, $(x,i) \in R \times \bar{J}$ va ixtiyoriy $i, j \in \bar{J}$, $i \neq j$ hamda $x, y \in R$ uchun:

$$\begin{aligned} E\mathbb{Q}^{(0)}(x;n)\mathbb{Q}^{(0)}(y;m) &= \min(n,m) \{ \min\{H(x), H(y)\} - H(x)H(y) \}, \\ E\mathbb{Q}^{(0)}(x;n)\mathbb{Q}^{(i)}(y;m) &= \min(n,m) \{ \min\{H(x;i), H(y;i)\} - H(x)H(y;i) \}, \\ E\mathbb{Q}^{(i)}(x;n)\mathbb{Q}^{(i)}(y;m) &= \min(n,m) \{ \min\{H(x;i), H(y;i)\} - H(x;i)H(y;j) \}, \\ E\mathbb{Q}^{(i)}(x;n)\mathbb{Q}^{(j)}(y;m) &= -\min(n,m) H(x;i) \cdot H(y;j). \end{aligned} \quad (3)$$

U holda ([3] dagi 3.1-teorema isbotidan) quyidagi approksimatsiya o‘rinli bo‘ladi:

$$\sup_{t \in R^{k+1}} \left\| a_n^*(t) - n^{-1/2} \mathbb{Q}(t;n) \right\|^{(k+1) \partial.x} = O\left(n^{-1/2} \log^2 n\right), \quad (4)$$

Hisoblab ko‘rish mumkinki,

$$\mathbb{Q}^{(i)}(x;n) \stackrel{d}{=} W^{(i)}(H(x;i);n) - H(x;i)W^{(i)}(1;n), \quad (x,i) \in R \times \bar{J} \quad (5)$$

tenglik o‘rinlidir, bu yerda $\{W^{(i)}(y;n), 0 \leq y \leq 1, n \geq 1, i \in J\}$ ikki parametrli Viner prot-

sessi bo‘lib, $EW^{(i)}(y;n) = 0$ va

$$EW^{(i)}(y;n)W^{(i)}(u;m) = \min(n,m) \min(y,u), \quad i \in J.$$

(5) tenglikdagi aniqlangan protsesslar Kifer protsesslari. Ular quyidagi tengliklarni qanoatlantiradi ([3] dagi 3.1-teoremaning isbotidan):

$$\mathbb{Q}^{(1)}(x;n) \stackrel{d}{=} \tilde{K}(H(x;1);n),$$

$$\mathbb{Q}^{(2)}(x;n) \stackrel{d}{=} \tilde{K}(H(x;2) - H(\infty;1);n) - \tilde{K}(H(\infty;1);n),$$

.

...

.

$$\mathbb{Q}^{(i)}(x;n) \stackrel{d}{=} \tilde{K}(H(x;i) + H(\infty;1) + \dots + H(\infty;i-1);n) - \tilde{K}(H(\infty;1) + \dots + H(\infty;i-1);n), \quad i \in J,$$

bu yerda $H(\infty;i) = \lim_{x \uparrow +\infty} H(x;i)$ va $H(\infty;1) + \dots + H(\infty;k) = 1$ hamda

$\{\tilde{K}(y;n), 0 \leq y \leq 1, n \geq 1\}$ Kifer protsessi ikki parametrli $\{W(y;n), 0 \leq y \leq 1, n \geq 1\}$ Viner protsessi orqali quyidagicha ifodalanadi:

$$\left\{ \tilde{K}(y;n), 0 \leq y \leq 1, n \geq 1 \right\} \stackrel{d}{=} \left\{ W(y;n) - yW(1;n), 0 \leq y \leq 1, n \geq 1 \right\} \quad (6)$$

Demak, $\{W^{(i)}, i \in J\}$ Viner protsesslari esa quyidagi ifodalanishga ega:

$$W^{(1)}(H(x;1);n) \stackrel{d}{=} W(H(x;1);n),$$

$$W^{(2)}(H(x;2);n) \stackrel{d}{=} W(H(x;2) + H(\infty;1);n) - W(H(\infty;1);n),$$

.

...

.

$$W^{(i)}(H(x;i);n) \stackrel{d}{=} W(H(x;i) + H(\infty;i-1);n) - W(H(+\infty;1) + \dots + H(\infty;i-1);n).$$

Endi $\{W^{(i)}, i \in \mathfrak{J}\}$ Viner protsesslarining kovariatsiyasini hisoblash natijasida (2) munosabatga ega

bo'lamiz.

Demak, 1-teoremani isbotini yakunlash uchun $a_n^*(t)$ empirik protsessni quyidagicha ifodalab olamiz:

$$a_n^{(i)*}(x) = \sqrt{\frac{\nu(n)}{n}} a_{\nu(n)}^{(i)}(x) + H(x;i) \frac{(\nu(n) - n)}{\sqrt{n}}, \quad i \in J. \quad (7)$$

Approksimatsiyalovchi protsess uchun esa (2.1.7) ning quyidagi analogini yozib olamiz:

$$W_n^{(i)}(x) = B_{\nu(n)}^{(i)}(x) + H(x;i) \frac{W^*(n)}{\sqrt{n}}, \quad i \in J. \quad (8)$$

Endi (7) va (8) protsesslarning farqi uchun ([5-6] dagi 8-tengsizlik) tengsizliklarni qo'llaymiz:

$$\begin{aligned} & P \left\{ \sup_{t \in R^{k+1}} \|a_n^*(t) - W_n(t)\|^{(k+1)} > Mn^{-1/2} \log n \right\} \leq \\ & \leq \sum_{i=0}^k P \left(\sup_{t_i \in R} \left| \sqrt{\frac{\nu(n)}{n}} a_{\nu(n)}^{(i)}(t_i) - B_{\nu(n)}^{(i)}(t_i) \right| + \left| \frac{\nu(n) - n}{\sqrt{n}} - W^*(n) \right| \geq \frac{M \log n}{(k+1)\sqrt{n}} \right) \leq \\ & \leq \sum_{i=0}^k \left\{ P \left(\sqrt{\frac{\nu(n)}{n}} \sup_{t_i \in R} |a_{\nu(n)}^{(i)}(t_i) - B_{\nu(n)}^{(i)}(t_i)| > A_6 n^{-1/2} \log n \right) + \right. \\ & \quad \left. + P \left(\left| \frac{\nu(n) - n}{\sqrt{n}} - W^*(1) \right| > A_8 n^{-1/2} \log n \right) \right\}. \end{aligned}$$

[8] (422-bet) ga asosan,

$$\begin{aligned} & P \left(\sqrt{\frac{\nu(n)}{n}} \sup_{t_i \in R} |a_{\nu(n)}^{(i)}(t_i) - B_{\nu(n)}^{(i)}(t_i)| > A_6 n^{-1/2} \log n \right) \leq A_7 n^{-r}, \quad i \in \bar{J}, \\ & P \left(\left| \frac{\nu(n) - n}{\sqrt{n}} - W^*(1) \right| > A_8 n^{-1/2} \log n \right) \leq A_9 n^{-r}. \end{aligned}$$

Bu yerda $A_6 = A_6(r)$ va $A_8 = A_8(r)$. Demak, (1) tengsizlik shu oxirgi ikki tengsizliklardan kelib chiqadi. 1-teorema isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) Abdushukurov A.A. Statistics of incomplete data. Tashkent, "University Press", 2009, 269 p.
- 2) Abdushukurov A.A., Sayfulloyeva G.S. Asymptotic properties of modified empirical Kac processes under general random censorship model. Tomsk State University Journal of Control and Computer Science, 2022, № 61, p. 26–36.
- 3) Burke M.D. Approximations of some hazard rate estimators in competing risks model. Stock. Proc. Appl. 1983, v.14, p. 157 – 174.
- 4) Burke M.D., Csörgő S., Horváth L. Strong approximations of some biometric estimates under random censorship. Z.Wahrschein. Verw. Gebiete. 1981, v. 56, p. 87 – 112.
- 5) Burke M.D., Csörgő S., Horváth L. A correction to and improvement of "Strong approximations of some biometric estimates under random censorship". Probab. Th. Rel. Fields. 1988, v. 79, p. 51 – 57.
- 6) Kac M. On deviation between theoretical and empirical distributions. Proc. Nat. Acad. Sci. USA 1949, v. 35, p. 252 – 257.
- 7) Klassen A.J., Welner J.A. Kac empirical processes and the bootstrap. 1990. Technical Report, №192, 12 p.
- 8) Csörgő S. Strong approximation of empirical Kac processes. Ann.Inst.Statist.Math. 1981, 33, p. 417 – 423.

Gulyamov Gafur (Namangan muhandislik-qurilish instituti, fizika-matematika fanlari doktori, professor; e-mail: gulyamov1949@mail.ru)
Majidova Gulnoza Nurmuxamedovna (Namangan muhandislik-qurilish instituti, fizika-matematika fanlari nomzodi; e-mail: m.gulnoza.1985@gmail.com),
Feruz Muxitdinova Rustam qizi (Namangan muhandislik-qurilish instituti doktoranti; e-mail: feruzafizik1991@gmail.com)

MAGNIT MAYDONDAGI P-N O'TISHLI DIODLARNING XARAKTERISTIKALARI

***Annotatsiya.** Bu ishda p-n o'tishli diodlarni magnit maydonga qo'yilganda undagi o'zgarishlar ko'rib chiqilgan. Tajribada p-n o'tishli diodlar va magnitdiodlarning turli magnit maydonlarda bo'lganda volt-ampere xarakteristikalarini va volt-tesla xarakteri o'rganilgan. Biz esa nazariy ifodalarimiz orqali ular-dagi fizik jarayonlarni asoslashga harakat qildik. Tajriba natijalari bilan bizning ifodalar orqali olingan natijalar mos ekanligidan tegishli xulosalar oldik.*

***Аннотация.** В данной работе рассмотрены изменения диодов с p-n переходом при помещении их в магнитное поле. В эксперименте были изучены вольтамперные характеристики и вольт-тесловые характеристики диодов и магнитодиодов с p-n переходом в различных магнитных полях. Мы попытались обосновать физические процессы в них через наши теоретические выражения и получили соответствующие выводы о том, что результаты, полученные по нашим выражениям, согласуются с экспериментальными результатами.*

***Annotation.** This work examines the changes in p-n junction diodes when placed in a magnetic field. In the experiment, the current-voltage characteristics and volt-tesla characteristics of diodes and magnetodiodes with p-n junctions in various magnetic fields were studied. And we tried to substantiate the physical processes in them through our theoretical expressions. We obtained the corresponding conclusions that the results obtained from our expressions are consistent with the experimental results.*

***Kalit so'zlar:** p-n o'tish, volt-ampere xarakteristikasi, magnitoqarshilik, Xoll effekti, volt-tesla xarakteristikasi, diffuziya uzunligi.*

***Ключевые слова:** p-n переход, вольтамперная характеристика, магнитосопротивление, эффект Холла, вольттесловая характеристика, диффузионная длина.*

***Key words:** p-n junction, current-voltage characteristic, magnetoresistance, Hall effect, volt-tesla characteristic, diffusion length.*

Kirish. p-n o'tishli diodlar va magnitodiodlar texnikada keng qo'llaniladi. Ularning xarakteristikalarini turli ish rejimlarida va turli tashqi ta'sirlarda o'zgarib boradi. Bu o'zgarishlarni tajribalarda ko'p o'rganilgan [1.2]. p-n o'tishga tashqi ta'sirlar temperature ta'siri [3], mikroto'lqin ta'siri [4], yorug'lik ta'siri [5], magnit maydon ta'sirlari [6] ham tajribalarda juda ko'p ko'rilgan. Bu ta'sirlarning nazriy asoslari ham ishlab chiqilgan [7.8]. Ushbu nazariyalar asosida p-n o'tishga tashqi ta'sir bo'lgan paytda qanday o'zgarishlar bolishini aytish mumkin. Ularning tajriba bilan mosliklaridan [9.10] asosli ekanligini bilishimiz mumkin. Biz ushbu nazariyalar orqali qanday sharoitlarda pribor xarakteristikalarida qanday o'zgarishlar bo'lishini

tajribalarsiz taxmin qilishimiz mumkin. Bu ishlar pribor effektivligini va chidamliligini oshirishda juda muhim rol o'ynaydi. Masalan, temperature ortganda p-n o'tishli diodning toki va kuchlanishida qanday o'zgarish bo'lishini va effektivligini oshirish uchun uni qanday o'zgartirish kerakligini nazariy ishlar asosida [11] oldidan aytib berish mumkin. Magnit maydonda p-n o'tishning volt-amper xarakteristikasi (VAX) qanday o'zgarishini tajribada va nazariy ko'rib chiqilgan [12.13]. Tajribada magnitodiodlarning magnitosezgirli va kuchlanishining magnit maydonga bog'liqligi ko'rilgan [14]. Bu ishda biz magnit maydondagi p-n o'tishning magnitosezgirli va volt-tesla xarakteristikasini nazriy asoslashga harakat qilamiz.


p-n o'tishli diod volt-amper xarakteristikasiga magnit maydonning ta'siri. Bizga ma'lumki, p-n o'tishning volt-amper xarakteristikasi quyidagicha bo'ladi [15]:

$$j = j_s \left(e^{\frac{qU}{ckT}} - 1 \right) \quad (1)$$

Bu yerda c -noideallik koeffitsiyenti. Diodning baza qarshiligi va magnit maydon ta'sirida hosil bo'ladigan Xoll kuchlanishini hisobga olsak (1), ifoda quyidagi ko'rinishga keladi:

$$j = j_s \left(e^{\frac{q\varphi_0}{ckT} - \frac{q(\varphi_0 - U + J(R_b + R_x B/l))}{ckT}} - 1 \right) \quad (2)$$

Bu yerda: q -elementar zaryad, φ_0 - p-n o'tishning potensial to'siq balandligi, R_b -baza qarshilik, R_x -Xoll doimiysi, B -magnit maydon induksiyasi, l -p-n o'tish qalinligi. (2) ifoda asosida quyidagi VAXni olamiz:



a) turli magnit maydonlardagi tajribadagi VAX.

b) turli magnit maydonlardagi nazariy olingan VAX.


1-rasm. Magnit maydon induksiyalari turli bo'lganda tajribada va nazariy olingan VAXlari.

1-rasmdagi grafik nazariy grafikni (2) ifoda asosida olingan. Magnit maydon induksiyalarini tajribadagi qiymatlarini olingan. Baza qarshilikni esa magnit maydon ortishi bilan qo'shimcha magnitoqarshilik hisobiga ortib boradi deb hisoblangan. Ya'ni, magnit maydon induksiyasi $B=0$ T bo'lgandan $B=0.5$ T bo'lgan hol uchun baza qarshilikni kattaroq qiymatda olingan. $B=1.1$ T bo'lgan magnit maydon uchun baza qarshilikni undanda kattaroq hisoblangan. Tajriba natijasi bilan bizning nazariy olingan VAXlar mosligidan nazriy asoslarimiz to'g'ri ekanligiga ishomch hosil qilishimiz mumkin.

p-n o'tishli diod kuchlanishining magnit maydonga bog'liqligi. 1-rasmdan ko'rish mumkinki, magnit maydon ortgani sari kuchlanish ham ortib boradi. Kuchlanishning magnit maydonga bog'lanishining ifodasini olamiz. (2) ifodadan foydalanib, kuchlanish uchun quyidagi ifodani hosil qilamiz:

$$U = \frac{ckT}{q} \ln\left(\frac{j}{j_s} + 1\right) + \frac{RjB}{l} + jR_b \quad (3)$$

(3) ifoda asosida kuchlanishning magnit maydonga bog'liqligining grafigini hosil qilamiz. Bunda tok kuchining aniq bir qiymatini tanlab olib, turli magnit maydon induksiylarida kuchlanishning o'zgarishini nazariy kuzatishimiz mumkin.



2-rasm. Magnit maydomdagi p-n o'tishning volt-tesla xarakteristikasi.

p-n o'tishli diodga magnit maydon ta'sir ettiradigan bo'lsak, uning qarshiligi ortib, tok kuchi kamayadi. Kuchlanish esa ma'lum bir tok kuchida magnit maydon yoqligida kichik, magnit maydonga qo'yilganda esa katta qiymatlarni qabul qiladi. 2-rasmdan ko'rish mumkinki magnit maydon induksiyasining qiymati ortgani sari kuchlanish ham katta qiymatlarni qabul qiladi.

Barcha ifodalarda kelgan c -noideallik ko'effitsientini quyidagicha olamiz [14]:

$$c = 2 \frac{b + ch \frac{d}{L}}{b + 1} \quad (4)$$

Bu yerda: d -baza uzunligi, L -diffuziya uzunligi, b -zaryad tashuvchilar xarakatchanligining nisbatidir: $b = \frac{\mu_n}{\mu_p}$. μ_n va μ_p mos ravishda elektronlar va kovaklarning xarakatchanliklari. Baza uzunligi bilan

diffuziya uzunligining nisbati birdan juda kichik bo'lganda, ya'ni $\frac{d}{L} \gg 1$, noideallik ko'effitsiyentini quyidagicha yozish mumkin:

$$c \approx \frac{e^{\frac{d}{L}}}{b + 1} \quad (5)$$


Nomuvozanat zaryad tashuvchilarning diffuziya uzunligi L magnit maydonda o'zgaradi. Biz bu o'zgarishni quyidagicha deb hisoblaymiz:

$$L = L_0(1 - (\mu B)^2) \quad (6)$$

L_0 – magnit maydon bo'lmagandagi diffuziya uzunligi. (6) ifodani hisobga olib, (3) ifodani quyidagicha yozish mumkin:

$$U = \frac{e^{\frac{d}{L_0}(\mu B)}}{q} \cdot kT \ln\left(\frac{j}{j_s} + 1\right) + \frac{RjB}{l} + jR_b \quad (7)$$

(7) ifodaga kerakli qiymatlarni qo'yib, kuchlanishni magnit maydonga bog'liqlik grafigini olamiz.



3-rasm. Magnit maydondagi p-n o'tishli diodning tajribadagi (a) va nazariy (b) volt-tesla xarakteristikalarini.

3-rasmda tajribada (a) va nazariy (b) olingan p-n o'tishli magnitdiodning volt-tesla xarakteristikasi keltirilgan. Ularning mosliklarini tekshirish uchun tajribadagi va nazariy hisoblashlardagi tok kuchini va magnit maydon induksiya qiymatlarini bir xil olingan. Ularning mosliklari va sifat jihatidan yaqinligini ko'rish mumkin. Demak, bizning nazariya to'g'ri ekanligiga xulosa qilish mumkin.

Xulosa. p-n o'tishli diodni magnit maydonga joylaganimizda uning VAX va volt-tesla xarakteristikalarini ko'rib chiqdik. Tajribada olingan xarakteristikalarini o'rganib chiqib, unga nazariy asos berishga harakat qildik. Tajriba natijalari bilan bizning nazariy ifodalarimiz natijalari mosliklaridan quyidagi xulosalarni olamiz:

1) p-n o'tishli diodga magnit maydon ta'sir etganda uning qarshiligi ortib, tok kuchi kamayadi. Buning sababi magnit maydondagi magnitoqarshilik hisobiga ortadi, deyish mumkin;

2) p-n o'tishli diod magnit maydonda bo'lganda maydon ortgani sari kuchlanish ortib boradi. Buni magnit maydon ta'siridagi Xoll effekti hisobiga paydo bo'lgan xoll kuchlanishi bilan tushuntiramiz. Naziriy Xoll kuchlanishi hisobga olingan VAX tajriba bilan mos tushgan;

3) p-n o'tishli diodga ta'sir etayotgan magnit maydon ortib borgani sari kuchlanish ham ortib borgan. Kuchlanishning magnit maydonga bog'liq ifodasini ishlaganimizda nomuvozanat zaryad tashuvchilarning diffuziya uzunligiga bog'liq deb hisoblaganimiz. Ya'ni, magnit maydoni diffuziya uzunligini o'zgartiradi va bu p-n o'tishda kuchlanish tushuviga va tok kuchiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ushbu xulosalarni va nazariy asoslarni tajriba va bizning nazariy hisoblashlar natijalari mos tushganligidan oldik. Tajriba va nazariy garfiklar sifat jihatidan yaqinligidan to'g'ri va ilmiy asoslangan deb xulosa olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] J.Kaur, V.Sharma, V.Veerakumar. Fabrication and Characterization of Magnetically Tunable Metal-Semiconductor Schottky Diode using Barium Hexaferrite thin film on gold. AIP Advances 6, 055820 (2016); doi: 10.1063.1.4944522.

[2] M.Delmo, S.Kasai, K.Kobayashi. Space-charge-effect-induced large magnetoresistance in silicon. Journal of Physics: Conference Series 193 (2009) 012001 doi:10.1088/1742-6596/193/1/012001.

[3] G.Gulyamov, A.Gulyamov, U.Erkaboyev. Investigation of influence of high temperature and low magnetic fields on oscillations of the magnetic susceptibility in semiconductors. Uzbekiston Fizika Zhurnali, v. 17(5), p. 288–294.

[4] G.Gulyamov, B.Shahobiddinov, G.Majidova, F.Muxitdinova. Влияние сверхвысокочастотных полей на фотоэлектрические характеристики p-n проводящих полупроводниковых диодов. Semiconductor Physics and Microelectronics. v. 3(2), p. 29–32.

[5] G.Gulyamov, A.Gulyamov, B.Shahobiddinov, G.Majidova. Changes in Fermi quasi levels in silicon pn transitions under exposure to light and deformation and their influence on volt-ampere characteristics of diodes. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, v. 2(8); p. 10 – 19.

- [6] D.Yang, F.Wang, Y.Ren, Y.Zuo..., A Large Magnetoresistance Effect in p–n Junction Devices by the Space-Charge Effect. *Adv. Funct. Mater.* 2013, 23, 2918–2923 DOI: 10. 1002/adfm.201202695.
- [7] Y.Cao, W.Sui, T.Wang..., Light-Induced-Magnetoresistance in p-n Junction Device. *IEEE Electron Device Letters*, Vol. 41, № 3, March 2020 doi:10.1109/LED.2020.2969998.
- [8] G.Gulyamov, A.Gulyamov, G.Majidova. Влияние деформации на фототоки в р-п-переходах. *Международный научный журнал «Альтернативная энергетика и экология»*. № 15–16. Ср.24–30. doi: 10.15518/isjaee.2016.15-16.024-030.
- [9] G.Gulyamov, G.Majidova, F.Muhitdinova. Influence of a magnetic field on the characteristics of a p-n junction diode. *Journal of Applied Science and Engineering*, Vol. 27, p. 1911–1917. [http://dx.doi.org/10.6180/jase.202401_27\(01\).0007](http://dx.doi.org/10.6180/jase.202401_27(01).0007).
- [10] B.Shakhobiddinov, G.Majidova and F.Mukhiddinova. Effect of ultrahigh frequency fields on the photoelectric characteristics of pn conducting semiconductor diodes. *Euroasian Journal of Semiconductors Science and Engineering* 3.2 (2021), p. 29 – 34.
- [11] G.Gulyamov, G.Majidova. Influence of electron and phonon heating on the characteristics of solar photocells. *Romanian Journal of Physics* 68, 607 (2023).
- [12] J.Chen, X.Zhang, Z.Luo..., Large positive magnetoresistance in germanium. *Journal of Applied Physics* 116, 114511 (2014); doi: 10.1063/1.4896173.
- [13] G.Majidova, M.Adasheva. Diodning effektiv magnitoqarshiligi va volt-amper xarakteristikasini o‘rganish. International conference on learning and teaching 1(8), p. 116–119.
- [14] G.A.Egiazaryan and V.I.Stafeev. Magnetodiodes, magnetotransistors and their application (Radio and communication, Moscow, 1987).
- [15] G.E.Pikus. Principles of the Theory of Semiconductor Devices. “Nauka”, Moscow, 1965).

Axmedov Sohib Sayimovich (Navoiy Innovatsiyalar instituti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası o‘qituvchisi; ahmedov-s@internet.ru)

JALOLIDDIN RUMIYNING IJTIMOY-FALSAFIY QARASHLARIDA ADOLAT VA TENGLIK MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Jaloliddin Rumi ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarining jamiyatda ijtimoiy munosabatlar tizimini ta’minlashdagi konstruktiv ahamiyati xususida so‘z boradi. Shuningdek, mutafakkirning falsafiy qarashlaridagi Olam va Odam muammosi masalalari, ijtimoiy qarashlari, insonning ruhiy kamoloti kabi masalalar qiyosiy-analogik tahlil qilingan.

Аннотация. В данной статье говорится о конструктивном значении социально-философских идей великого мыслителя Джалалуддина Руми в обеспечении системы социальных отношений в обществе. Также сравнительно и по аналогии анализировались вопросы философских воззрений мыслителя, такие как проблемы Вселенной и Человека, его социальные воззрения, духовное совершенство человека.

Annotation. This article talks about the constructive significance of the socio-philosophical ideas of the great thinker Jalaliddin Rumi in ensuring a system of social relations in society. Also, issues of the thinker’s philosophical views, such as the problems of the Universe and Man, his social views, and the spiritual perfection of man, were also analyzed comparatively and by analogy.

Kalit so‘zlar: antropologiya, substansiya, panteizm, adolatparvarlik, insonparvarlik, tenglik, haqiqat, haqparlik, xalqparvarlik.

Ключевые слова: антропология, субстанция, пантеизм, справедливость, человечность, равенство, истина, праведность, патриотизм.

Key words: anthropology, substance, pantheism, justice, humanity, equality, truth, righteousness, patriotism.

Kirish. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning asosiy tamoyillaridan biri – bu inson erki va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Barchamizga yaxshi ayonki, inson manfaatlarini yurt tinchligi, jamiyatimizdagi o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitidan ajratgan holda tasavvur etolmaymiz. Bularning barchasi bizning bebaho boyligimiz va uni ko‘z qorachig‘idek asrash har birimizning muqaddas burchimizdir” [8.24].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Tarixdan ma’lumki, o‘tmishdagi barcha mutafakkir va donishmandlar o‘zlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlarida jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, osoyishtalik, hamjihatlik hamda bag‘rikenglik masalalariga alohida to‘xtalib o‘tganlar. Antik davr faylasuflaridan tortib, Markaziy Osiyo allomalari, shuningdek, bugungi kundagi faylasuf olimlarning ijtimoiy qarashlarida ham tolerantlik va altruistik g‘oyalar hamda emerjentlik xususiyatlari yetakchilik qiladi.

Markaziy Osiyoning ulug‘ mutafakkirlaridan hisoblanmish Jaloliddin Rumiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari tizimida tinchlik va hamjihatlik, jamiyat va davlat boshqaruvi, millatlararo totuvlik hamda insonparvarlik haqidagi falsafiy g‘oyalar alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mutasavvifning ta’kidlashicha, jamiyatda yashayotgan har bir inson eliga, yurtiga sadoqat bilan xizmat qilmog‘i va xalq orasida bo‘lmog‘i darkor. Al-loma o‘zining falsafiy qarashlarida inson qadri va manfaatini barcha narsadan ustun qo‘yadi. Shu sababdan u o‘z davrida barcha din va millat vakillari – musulmon, yahudiy, nasroniy, fors, hind hamda arablar bilan birdek do‘stona munosabatda bo‘lib, ularni o‘z birodarlari deb bilgan [9.79]. Rumiyni tili, dini, irqi va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, barchaga, avvalo, insonni oliy deb qaragan hamda el orasida bo‘lishni, xalqparvar bo‘lish g‘oyalarini targ‘ib etgan. Jaloliddin Rumiyning shaxsi va bashariyat shoiri sifatida dong taratishiga omil bo‘lgan jahoniy yuksakligi haqida so‘z borar ekan, uning jamiki insoniyatga, avvalo, Insonni Oliy deb qarashi hamda ular orasida tenglik va bag‘rikenglikni, barchamiz bir oilaning farzandlari, bir daraxtning butoqlari, bir qo‘lning barmoqlarimiz degan mushtaraklik g‘oyalari sababidan bugungi kunga qadar Mavlono shaxsiyatini atrofida u bizning ajdodimiz, bizning dindoshimiz degan bahslar avj olmoqda. Jaloliddin Rumiyning shaxsiyatini va ijodiy olami bilan tanishar ekanmiz, mutasavvifning hayot faoliyatini, boy ilmiy merosida ijtimoiy hayot bilan bog‘liqlik va xalqonalik xususiyatlari yetakchilik qilganligiga amin bo‘lamiz. Shuningdek, Jaloliddin Rumiyning ijtimoiy qarashlarida bir makonda yashovchi kishilarning o‘zaro bir-birlarini qo‘llab-quvvatlovchi jamoa bo‘lib birlashishi lozimligi haqida ham to‘xtalib o‘tiladi. Uning fikricha, jamiyatda bitta rahbar bo‘lishi kerak va davlat hamda xalqni adolat mezonini bilan boshqarishi lo-

zim. Mavlononing ta'kidlashicha, zulm va zo'ravonlik hukmronlik qilgan jamiyatda yaxshilik hamda yomonlik o'rtasida doimiy kurash mavdoni mavjud bo'ladi [2.3]. Jaloliddin Rumi adolat kategoriyasini haqiqat kategoriyasi bilan tenglashtiradi. Jamiyatda o'zaro birdamlik bo'lishi darkor va fuqarolar o'z vazifasini sidqidildan bajarsa, bunday jamiyatda barqarorlik bo'lishi tabiiydir deydi. Uning ijtimoiy qarashlarining yana bir e'tiborli jihati shundaki, jamiyatda yashovchi kishilarda til birligidan ko'ra dil birligi, ya'ni, yakdillik va hamjihatlik tamoyillari yetakchilik qilishi lozimligi ham e'tirof etiladi. Jamiyatdagi mavjud muammolarni zo'ravonlik va nizolar bilan hal etish holatlarini Mavlon qattiq qoralaydi. Rumiyning fikri-cha, jamiyatda turli tartibsizliklar, adolatsizliklar va urushlarning bo'lishi o'sha davlatning ma'rifatli, ilmli kishilari o'z mamlakatlarini tark etishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham mutasavvif o'z ijtimoiy qarashlarida xalqning ziyoli qatlami har doim davlat rahbari e'tiborida bo'lishi hamda qo'llab-quvvatlanishi lozimligini ta'kidlaydi va shu orqali o'z melioristik qarashlarini ham rivojlantiradi. Shuningdek, davlat va jamiyat ishlarida faol bo'lgan kishilar yurtning fidoyi kishilaridir deyiladi Jaloliddin Rumi falsafasida. Shu o'rinda Abu Homid al-G'azzoliyning quyidagi fikrlarini keltirib o'tmoq o'rinalidir: "Dunyo (yurt) obodligi to'rtta narsa sababidan: rahbarlar adolati, olimlar ilmi, boylar saxovati, muhojirlar duosi". Jaloliddin Rumi davlat va jamiyat boshqaruvi haqida so'z yuritarkan, shunday deydi:

*Shoh bo'lsa, yurtga ogoh bo'lsin ul,
Xos bo'lsin, xosi Alloh bo'lsin ul* [3.15]

Ya'ni, bu yerda yurtni boshqarayotgan rahbarning asosiy vazifasi ogohlik va hushyorlik bo'lishi lozimligi ta'kidlanmoqda. Davlat rahbari qo'l ostidagi xalqning holidan ogoh bo'lsin va Alloh ishq bilan yashasin. Rumi davlat rahbarini hovuzga, uning qo'l ostidagi vazirlar, ya'ni boshqa mansabdor kishilarni ariq va irmoqlarga qiyoslaydi. Rahbar adolatli va xalqparvar bo'lsa, uning qo'l ostidagi kishilar ham vatanga sadoqat bilan xizmat qiladi. Talabchan va mahoratli rahbar qo'l ostidagi xodimlariga ham, xalqiga ham namuna bo'la oladi.

Mavlon Jaloliddin Rumi davlat rahbarining yonidagi yaqinlariga qarata, sen shohing va xalqning sirini bironing so'ylama, sotma, agar bunday tubanlikka qo'l ursang moling va joning tahlkada qoladi, xalqning nafratiga duchor bo'lasan, deydi. Agar rahbar o'z amrida va jamiyat ishlari rivoji bilan bog'liq masalalarda sustkashlikka yo'l qo'ysa, oqibatda u xalqning ishonchini yo'qotadi hamda obro'sidan mosuvo bo'ladi. Bunday rahbar buyrug'iga xalq ham itoat etmaydi, ya'ni:

*Gar amir o'z amrida sustlik qilur,
Oqibatda xor-u sargardon bo'lur* [4.274]

Jaloliddin Rumi o'z ijtimoiy qarashlarida jamiyatdagi har bir kishiga qobiliyati va iqtidoriga qarab ish taqsimlamoq kerak degan fikrni ham ilgari suradi. Agar ilmga iqtidori bor kishini temirchi yoki taqachi qilib qo'ysangiz, undagi iste'dodning so'nishiga, agar omi bir kishini yuqori mansabga qo'ysangiz, unda nafsi ammoraning bo'y cho'zishiga sababchi bo'lasiz. Har ikki holatda ham bu kabi hodisalar jamiyat va millat tanazzuliga sabab bo'ladi, deydi alloma. Ba'zi hollarda, rahbarning g'azab otiga minishini xalqqa g'amxo'rlik, yuz berajak parokandalikning oldini olish deb izohlaydi va shu holat orqali xodimlariyu xalqni tartibga chaqirib, turli ko'ngilsizliklarning oldini oladi, bu tabiiy holdir deb izoh beradi. Abu Bakr Qaffol Shoshiy shunday yozadi: "Yurt rahbarini behurmat qilmanglar. Chunki u Allohning yerdagi soyasidir" [1.209]. Yurt rahbari xalq bilan muloqotda bo'lishdan, hamsuhbat bo'lishdan bosh tortmasligi lozim, shuningdek, o'zining barcha aholisini teng ko'rishi kerak, chunki ularning barchasi o'sha davlatning fuqarolaridir. Agar davlat rahbari fuqarolari bilan muloqotda adolat va tenglik mezoniga amal qilmasa, bunday jamiyatda beqarorlik vaziyati vujudga keladi. Bunday saltanat umrboqiy emas va bu jarayonda taraqqiyot ham bo'lmaydi, deya o'z falsafiy ta'limotida ijtimoiy strafikatsiya tamoyili xususida ham fikr yuritadi.

Jaloliddin Rumi, shuningdek, tenglik haqida so'z yuritarkan, payg'ambarlar va valiyalar to'g'risida fikr bildirib, ularning barchasi alohida shaxslardir, har birining o'z yo'llari bor, lekin barchasida asosiy maqsad insoniyatni Allohni anglashga, unga ishonishga da'vat etishdir. Zero, payg'ambar va valiyalar farishtalar ruhi hamda nuriga egadir [10.519] deya ta'kidlaydi. Payg'ambarlarning barchasi Tangrining ilohiy topshirig'ini bajarishda ko'plab qiyinchiliklarga duch keldilar, chunki ularning g'oyalarini tarafdorlari va ular missiyasini anglamagan, rad etadigan kishilar jamoasi ham bor edi. Payg'ambarlarning barchasi bu yo'lda Tangri sinovidan o'tdi va ular ichida oxirgi payg'ambar Muhammad (s.a.v.) barcha o'zidan oldingi payg'ambarlarning ezgu g'oyalarini birlashtirgan holda, bashariyatni Allohning yagonaligiga, taqdiri azalning muqarrarligiga bo'lgan ishonch-e'tiqodlarini yanada mustahkamladi, deydi mutafakkir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Jaloliddin Rumiyning fikricha, o'zini jamiyatning faol a'zosi deb hisoblagan inson, albatta, xalqqa xizmat qilmog'i kerak. Xalqqa xizmat qilmagan, xalq uchun jon kuydirmagan inson esa Haq xizmatiga ham noil bo'lolmaydi. Bu xususida alloma shunday deydi:

“Parvona o‘zini shamga urishi bilan yonadi. Biroq haqiqiy parvona yonguncha sham ziyosidan ayrilmaydi. Xuddi shunday, xalq dardi bilan qiziqmagan, aksincha, undan noligan, uning uchun jonini kuydirmagan inson inson emasdir. U Haqni anglab his etsa ham, u tushunib, idrok etgan Haq – Haq emas. Inson ishlamoqdan, g‘ayrat ko‘rsatmoqdan qochmagan, Alloh ulug‘ligi atrofida tinimsiz, huzursiz aylangan kishidir” [5.49].

Ma‘lumki, Jaloliddin Rumiy yashab ijod qilgan XIII asrda butun Sharq mamlakatlarida tasavvuf ta‘limoti keng quloch yoygan edi. Mamlakat hukmdorlaridan tortib, oddiy xalq vakillari ham tasavvuf namoyandalarini hurmat qilishar, shu bilan birga, davlat va jamiyat boshqaruvi ishlarida tasavvuf shayxlari bilan kengashishga tom ma‘noda majbur edilar. Chunki o‘sha davrlar shart-sharoitiga nazar solgan holda shuni ta‘kidlash joizki, oddiy xalqni boshqarishda va turli ijtimoiy nizolarning oldini olishda xalq ko‘proq amirlarga emas, balki tasavvuf ahliga ergashardilar. Jaloliddin Rumiy ham o‘z davrida xalq ishonchi va mehrini qozongan valiy zotlardan hisoblanadi. Mutasavvifning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida ilgari surilgan haqparvarlik g‘oyasi naqshbandiya tariqatidagi haqparvarlik g‘oyalari bilan o‘zaro uyg‘unlik kasb etadi. Naqshbandiya tariqatining asosiy g‘oyasi bo‘lmish “Qo‘ling mehnatda, diling Allohda bo‘lsin” da‘vati va Jaloliddin Rumiyning “Xalqparvar bo‘lmaguncha Haqparvar bo‘lolsan” [6.128] g‘oyalari o‘rtasida mantiqiy mushtaraklik mavjud.

Jaloliddin Rumiy yoshligidanoq otasi Bahovuddin Valad da‘vati bilan Shom, Halab, Damashq, Qaysari kabi o‘z davrining yirik ilm-ma‘rifat taraqqiy etgan davlatlarida turli yirik mutafakkirlardan tahsil oladi, o‘sha mamlakatlarning boy madaniy-ma‘naviy merosini o‘zlashtiradi. U o‘z davrining yetuk shayxlaridan hisoblanmish Kamoliddin ibn al-Adim, Suhravardiy Maqtul va Ibn al-Arabiylardan tahsil olib, ulardan olgan ta‘limi natijasida tasavvuf ta‘limotining eng asosiy tamoyillari hisoblanmish – bag‘rikenglik, xalqparvarlik, insonparvarlik, adolat, haqiqat, hamjihatlik, totuvlik va birlik g‘oyalari o‘z zamondoshlariga hamda umrboqiy asarlari, boy ilmiy merosi orqali o‘zidan keyingi avlodlarga ham targ‘ib etmoqda.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-bo‘lim, 5-bob, 18-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar teng huquqli bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat‘iy nazar qonun oldida tengdirlar”, deb qat‘iy belgilab qo‘yilgan. Jamiyat osoyishtaligi va barqarorligi bevosita unda yashayotgan turli millat va elat vakillari bilan do‘stona munosabatlar o‘rnatish, ularning haq-huquqlari poymol bo‘lmasligini oldini olish kabi siyosiy jarayonlarga ham bog‘liqdir.

Bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik masalalari barcha davrlar etnik madaniyati hamda taraqqiyotida asosiy masalalardan biri bo‘lib kelgan. Mashhur alloma Abdulloh Ro‘dakiy shunday deydi: “Kishilar o‘rtasidagi do‘stlik va o‘zaro hamkorlik kishilik jamiyati uchun muhim ahamiyatga ega ishdir. Haqiqiy do‘stlik uchun kishilarning, hatto turli dinda bo‘lishlari ham xalaqit bermaydi” desa, samarqandlik fiqh, mufassir Abu Lays as-Samarqandiy o‘zining “Bahr al-ulum” asarida “Sizlar bilan dinda urush qilmagan o‘zga din vakillari bilan bordi-keldi qiling, ular bilan adolatli muomalada bo‘ling”, deb qayd etadi. Movarounnahrlik yana bir mashhur fiqh mufassir Abul Barakot an-Nasafiy o‘zining islom olamidagi ma‘lum va mashhur “Madorik at-tanzil” asarida: “O‘zga din vakillariga ehtirom ko‘rsating hamda ularga so‘zda va amalda yaxshilik qiling”, deya ta‘kidlaydi [9.7]. Abu Homid al-G‘azzoliyning fikriga ko‘ra: “Faqat kalta-binlargina “bu meniki, bu seniki...” deb ajratadi. Teran fikrlilar uchun zamin bir xonadondir”. Jaloliddin Rumiy esa o‘zining “Ichindagi ichindadir” asarida: “Pargor (sirkul) kabi bir oyog‘im birla shariat uzra turib, ikkinchi oyog‘im birla 72 millat oralab kezugayman...”, deya xitob qiladi. Jaloliddin Rumiy o‘zining ijtimoiy-falsafiy qarashlarida insonlar bilan hamjihatlikda til birligidan ko‘ra, dil birligini ustun qo‘ygan holda, dunyodagi barcha insonlarni o‘zaro ittifoqda va totuvlikda yashashga da‘vat etadi.

Mutafakkirlarimizning jamiyatdagi barqarorlikni ta‘minlashda davlat rahbari va fuqarolar orasidagi munosabatlar xususidagi fikrlari bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada teran anglashimizda va o‘z kelayotgan yosh avlodga tushuntirishimizda alohida ahamiyat kasb etadi. Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek: “Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak va bu haqiqatni, avvalo, barcha bo‘g‘indagi rahbarlar yaxshi tushunib olishi zarur” [7.16].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa o‘rnida shuni qayd etmoq joizki, Jaloliddin Rumiy qoldirgan boy ma‘naviy meros, uning falsafiy-irfoniy qarashlaridagi altruistik va gumanistik g‘oyalar shu sababdan bugungi kunda ham o‘z qiymatini yo‘qotmagan. Biz Jaloliddin Rumiy ilmiy merosini, falsafiy qarashlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilar ekanmiz, bugungi murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tizimida alloma asarlarida ilgari surilgan ortodaksal g‘oyalar bir necha asrlardan buyon insoniyatni tenglik, adolat, o‘zaro hamfikrlik va hamkorlik kabi umuminsoniy qadriyatlar tizimida birlashtirayotganligiga guvoh bo‘layapmiz. Mavlono Jaloliddin Rumiy falsafiy g‘oyalari mohiyatini yanada teran-

roq anglash har qanday insonni ruhiy kamolotga, qalb xotirjamligiga, ma'naviy yetuklikka undashi, shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Bakr Qaffol Shoshiy. Javomi' ul-kalim. T., "Movarounnahr", 2014, 209-bet.
2. Айзенштейн И.А. Тюркологический сборник. М., "Наука", 1978, с. 3.
3. Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma'naviy. T., "Meriyus", 2010, 1-daftar, 15-bet.
4. Ko'rsatilgan asar. 3-daftar, 274-bet.
5. Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadir. T., "Yangi asr avlodi", 2013, 49-bet.
6. Jaloliddin Rumiy. Majolisi sab'a. T., "Yangi asr avlodi", 2018, 128-bet.
7. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir. T., "O'zbekiston", 2017, 16-bet.
8. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. T., "O'zbekiston", 2021, 24-bet.
9. Reynold A. Nicholson. Mystics of Islam. London, G. Bell and sons LTD, 1914, p. 79.
10. Читтик У. В поисках скрытого смысла. Суфийский путь любви. Духовное учение Руми. М., "Ладомир", 1995, с. 519.
11. "Hidoyat", 2015, 12-son, 7-bet.

Axatov Lutfillo Karamatilloevich (Chirchiq davlat Pedagogika universiteti dotsenti) ABDURAHMON JOMIY ASARLARIDA TASAVVUF VA ILM TAHLILI

Annotatsiya. *Tasavvuf va ilmga oid qarashlar mohiyati so'fiylar hayoti va tasavvufiy qarashlar yordamida tahlil qilingan. Tasavvufning rivojlanishi so'fiylar axloqi qa falsafiy mushohada irratsional yondashuv asosida tatbiq qilinadi. Bunda axloqiy qarashlarni anglash uchun tasavvuf va so'fiylarga ilmiy yondashuvlar misolida qaraldi.*

Аннотация. *Сущность суфизма и науки анализируется в статье через суфийскую жизнь и суфийские взгляды. Развитие суфизма основано на иррациональном подходе к философскому осмыслению суфийской этики. Для понимания этических воззрений был рассмотрен пример научных подходов к суфизму и суфиям.*

Annotation. *The essence of Sufism and science was analyzed through Sufi life and Sufi views. The development of Sufism is based on an irrational approach to the philosophical understanding of Sufi ethics. To understand ethical views, an example of scientific approaches to Sufism and Sufis was considered.*

Kalit so'zlar: *Jomiy, tasavvuf, so'fiy, ilm, islom, idrok, irfon, falsafa, Naqshband.*

Ключевые слова: *Джами, суфизм, суфий, наука, ислам, восприятие, мысленно, ирфан, философия, Накибанд.*

Key words: *Jami, ethics, Sufism, Sufi, science, Islam, perception-mentally, Irfan, philosophy, Naqshband.*

Nuriddin Abdurahmon Jomiy Naqshbandiya tariqati "bayrog'i"ni osmonlarga ko'targan, bashariyat shoiri va orifi deb dong taratgan daho ijodkoridir. Uning tasavvufiy-irfoniy merosini metodologik va nazariy asoslash esa har bir davrning o'ziga xos ilmiy yutug'i sanalgan. Jamiyatdagi adolatli boshqaruv va xalqning farovonligiga bo'lgan e'tibor ham mutafakkirlar ilmiy merosida o'z aksini topgan.

Bugungi shiddat bilan tobora jadallashib borayotgan vaqt masofasining talablaridan biri bu jamiyatda malakali mutaxassislarni, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, barkamol avlodni voyaga yetkazib, mamlakat va jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadigan, shuningdek, jamiyat ma'naviy kamolotining ilhomlantiruvchi manbayi sifatida namoyon bo'ladigan avlodni kamol toptirishdan iboratdir. Bu esa ayni mo'tabar – xayrli ish demak.

Ilm-fan dolzarbligi doim uning ilmiy tadqiqotlar zamiridagi ma'naviy-axloqiy konsepsiyalar bilan baholanib kelinadi. Abdurahmon Jomiy tasavvufiy-irfoniy merosini tadqiq etishning o'ziga xos nazariy-metodologik asoslari bugungi yosh avlod tafakkur taraqqiyoti va yangi O'zbekistonning qadriyatlariga boy ilmiy merosga bo'lgan qiziqishni ortishiga xizmat qiladi. Tasavvufiy-irfoniy qarashlarning bugungi kundagi ahamiyati tushinish uchun yangi metodologik aspektlar bilan boyitish orqali amaliy natijalarga erishiladi. Tahlilda Jomiy ilmiy merosi va bugungi davr ilmiy manzarasiga bo'lgan e'tibor nuqtayi nazaridan qaraladi.

Tasavvufiy-irfoniy qarashlarning shakllanish bosqichlari, mazmun va mohiyati ratsional yondashuv asosida namoyon bo'ladi. Ratsional yondashuv orqali irratsional qarashlarga bo'lgan tahliliy yondashuv ham irfon ilmi orqali amalga oshiriladi. Irfon ilmi o'laroq, mutafakkir (orif)lar ta'limotining axloqiy normalar timsolida shakllanganligi muhim ahamiyatga ega.

Mavlono Jomiyning «Nafahot ul-uns» tazkirasidagi so‘fiy-avliyolar hayoti haqidagi ma‘lumotlar tahlili ham zamon va makonga muvofiq yoritilgan.

Yevropa, shuningdek, musulmon mintaqa davlatlarida tasavvuf-so‘fiylik bo‘yicha ko‘plab manba-adabiyotlar yaratilgan. Bugungi kundagi holatga qaraydigan bo‘lsak, asosan, (bizdagi holat L.Axatov) Sharqshunoslik manbalari adabiyotlarida qisman ma‘lumotlar berilgan. Tasavvuf va so‘fiylik bo‘yicha bunday salmoqti manba-adabiyotlar ham, aslida, barmoq bilan sanaguchilik, xolos. Ayni vaqtda, bizdagi fondlarda tasavvuf va so‘fiylik (irfon ilmi) borasida hali o‘rganilishi lozim bo‘lgan (o‘rganilmagan) ko‘plab qo‘lyozmalar bor.

Tasavvuf – «So‘fizmni har tomonlama o‘rganish – O‘rta asrlarda O‘rta Osiyo xalqdarining ma‘naviy-madaniyati rivojini to‘liqroq, mos va xos ravishda tasavvur qilish imkonini beradi».¹

Abdurahmon Jomiyning ijodiy faoliyati ko‘p qirrali bo‘lsa ham, u Sharq xalqlari madaniyati tarixida ko‘proq genial shoir va mutafakkir olim sifatida talqin etilgan. Bu esa, o‘z navbatida, tadqiqotchilar tomonidan uning ilmiy merosini faqatgina shoirlilik mahoratini kengroq yoritishga o‘ringanligidadir. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Alisher Navoiy «Hayrat ul-abror» dostonida uchta «Xamsanavis» shoirga o‘z munosabatini bildirib, Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviylarni bayoni haqida to‘xtalganida asarning bir bobida tasvir etib, Mavlono Jomiy uchun esa asarning XIII bobini butunlay bag‘ishlagan.

Ilm (tasavvufiy-irfoniy ilm) tatbiq qilish uchun har bir davrning ijtimoiy-ma‘naviy muhitini ham alohida o‘rganish lozim. Jomiy ilmiy merosi orqali Naqshbandiya suluki (tariqati) ilm o‘rganish va ilm orqali yuksalishga qaratilgan yo‘l² bo‘lganligini ko‘ramiz. Zero, tariqat «shior»laridan biri bu «Dil ba Yor-u, dast ba kor» deb nomlangan bo‘lib, har qanday ishda ham Dil–qalb Yor (Alloh)da bo‘lishga chorlovdir. Demak, qalb Alloh-Yor bilan ekan, mukammal ilmga bo‘lgan intilish va yuksalishga ruju qo‘yishning in‘ikosidir. Tasavvuf va so‘fiylikning asl mohiyati ham ilmga bo‘lgan intilish va yuksalishga qaratilgan ta‘limotdir.

Tasavvufning islom olamida keng tarqalishi va rivojlanishida va ijtimoiy hayotga uyg‘unlashuvida Naqshbandiya tariqatiga asos solgan Bahouddin Balogardon Muhammad Jaloliddin muhim rol o‘ynagan. Tariqatning (sakkizta rashhasiga qo‘shimcha) yana Vuqufi zamon, Vuqufi adadiy, Vuqufi qalbiy kabi uchta shartni ham joriy qilganligini ko‘ramiz.

XIII asr – XIV asr boshlari tasavvuf ham nazariy jihatdan, ham amaliy harakatchilik jihatdan yuksak cho‘qqiga ko‘tarilgan. Irfon ilmi va tasavvuf haqida bahs ketganda birinchi so‘fiylar kimlar bo‘lgan, tasavvuf va irfon ilmi qanday shakllangan, degan savollarga ham turli xil javoblar bo‘lganligini ko‘ramiz. «Nafahot ul – uns min hazarot al-quds» asarida birinchi marta el orasida so‘fiy laqabini olgan kishi Abu Hoshim Kufiy tilga olinadi. Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat min shamoil ul-futuvvat» asarida birinchi so‘fiy Muhammad Payg‘ambarimiz (sallallohu alayhi vasallam) zamondoshlari Uvays Qaraniy tilga olinadi. Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomayi sultoniyy» asarlarida birinchi so‘fiy Hazrat Odam alayhissalomning farzandlaridan biri Shish degan kishi tilga olinib, Shish oq po‘stin kiyib yurgani uchun shu nomni olganligi bayon etiladi.

Bular orasida Jomiy yozgan Abu Hoshim Kufiy Sufyon as-Savriy degan yana bir boshqa nomdor darvesh (sufiy) bilan zamondosh bo‘lgan. Abu Hoshim 788 da vafot etgan bo‘lsa, Sufyon as-Savriy 807-yilda vafot etgan ekan. Sufyon as-Savriy «Men Abu Hoshimni ko‘rganimga qadar so‘fiy nima ekanini bilmas edim va ungacha ham zuhd va muomala va vara‘da, tavakkul tariqi va muhabbat tariqida sobit bu-zurgvorlar bor edilar, lekin, avval, kishikim uni so‘fiy deb atadilar ul edi va ungacha biror kishini bu nom bilan atamagan edilar»³ deb baho bergan.

Abu Molik al-Ash‘ariy (roziyallohu anhu)dan rivoyat qilingan hadisda Nabiy (sallallohu alayhi va-sallam)ning «Poklik iymonning yarmidir»⁴... degan. Poklikni o‘zlariga dastur qilib olgan so‘fiylarni tariqatga va irfon ilmiga qo‘shgan hissalarini Jomiy o‘zining «Nafahot ul-uns min hazarot al-quds» asarida bayon qilib o‘tar ekan, bu kitobda 664 ta shayx – so‘fiylarning nomlarini zikr qilib o‘tganligini ko‘rishimiz mumkin.

Jomiy asarlaridagi tolerantlik–diniy bag‘rikenglik tamoyillarini tatbiq qilish orqali bugungi yosh avlodga dunyo siyosiy maydonida yuz berayotgan turli yot guruhlar qarama-qarshiligini keltirib chiqaruvchi

¹ Пулатов Х., Маматов М. Тасаввуф тарихидан лавҳалар. Ўзб. миллий кутубхонаси, Тошкент, 2011, 6-бет.

² Муаллиф Ахатов Л. Тариқат маъноси ҳам йўл (мукамал йўл)дир.

³ Нафаҳот ул-унс мин ҳазарот ал-қудс. Т., 1913, 27-бет.

⁴ Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва ҳаёт. 4-жуз (поклик китоби). Т., “Hilol-nashr”, 2016, 18–19-бетлар.

asl sabablari (Falastin va Isroil mojarosi) nimadan iboratligini tushuntirishga erishishning bir yo‘li sifatida qarashimiz kerak.

Hikmat shuki, Jomiyning tasavvufiy merosini tahlil va tadqiq etish orqali quydagi natijalarga erishish mumkin:

–mavlon Jomiy ilmiy merosi, falsafiy-tasavvufiy qarashlarini tahlil va tadqiq etish natijasi yuqoridagi ko‘rsatilgan mulohaza va tavsiyalardan tashqari, yana quydagi natijalarga ham erishish mumkin:

–mavlon Jomiyning tasavvufga oid ma‘lumotlarni yangicha talqinda (mazmunan, o‘z davriga xos) mohiyatini ko‘rsatib berganligini aniqlash;

–falsafiy qarashlardan tasavvufiy qarashlarning farqli tomonlarini aniqlash va tasavvufning falsafiy jihatdan tadqiq qilish usullarini bilish;

–Jomiy irfoniy qarashlarida Vahdoniyat masalasiga bo‘lgan qarashlarda mazhablar birligiga qilgan e‘tiborli tomonlarini aniqlash;

–tasavvufiy-ilmiy qarashlarning agiografik asarlar orqali tahlil qilishni o‘rganish;

–mavlon Jomiyning o‘zigacha (VIII asrdan – XIV asrgacha) bo‘lgan davrda yashab o‘tgan tasavvuf vakillari – so‘fiy (avliyo)lar hayoti haqidagi muhim tazkira–ma‘lumotlarning jamlanganligi va boyitilganligi haqida ma‘lumotlarni komparativistik tadqiq qilishni o‘rganish.

Hakimov Akmaljon Mirzag‘aniyevich (Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat Texnika universitetining Qo‘qon filiali katta o‘qituvchisi)

JAMIYAT TARAQQIYOTINI O‘RGANISHDA SIVILIZATSION YONDASHUVNING METODOLOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyat taraqqiyotini sivilizatsion yondashuv asosida har tomonlama chuqur o‘rganishning dolzarbligi, formatsion yondashuv insoniyat tarixini anchayin bir chiziqli, monistik tasavvur qilishdan iborat ekanligi va jamiyatning sivilizatsion yondashuvi haqida dunyo olimlarining fikrlari yoritilgan.

Аннотация. В данной статье рассмотрена актуальность всестороннего углубленного изучения развития общества на основе цивилизационного подхода. Раскрыты мнения учёных о том, что формативный подход представляет собой достаточно линейную, монистическую концепцию человеческой истории, а также о цивилизационном подходе общества.

Annotation. In this article the relevance of a comprehensive in-depth study of the development of society based on the civilizational approach, the fact that the formative approach is a rather linear, monistic conception of human history, and the opinions of world scientists about the civilizational approach of society are highlighted.

Kalit so‘zlar: jamiyat, taraqqiyot, sivilizatsiya, sivilizatsion yondashuv, formatsion yondashuv, ijtimoiy bilish, gnoseologik tahlil.

Ключевые слова: общество, развитие, цивилизация, цивилизационный подход, формативный подход, социальное знание, гносеологический анализ.

Key words: society, development, civilization, civilizational approach, formative approach, social knowledge, epistemological analysis.

Kirish. Jamiyat taraqqiyotini sivilizatsion yondashuv asosida har tomonlama chuqur o‘rganishning dolzarbligi keyingi o‘n yilliklar mobaynida zamonaviy jamiyat rivoji va ravnaqining shiddat bilan sodir bo‘layotganligi va buning oqibatida jamiyatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni tahlil qilish ehtiyojining tobora ortib borayotganligi bilan izohlanadi.

Ijtimoiy taraqqiyotning o‘ta tezkorligi bilan ajralib turadigan hozirgi zamon turli xildagi sivilizatsiyalarning yaqinlashuvi, umumiy madaniyat va qadriyatlarga ega bo‘lgan yaxlit dunyoviy tizimning shakllanayotganligi xos bo‘lgan hamjamiyat ko‘rinishini kasb etmoqda. Obyektiv va qaytarilmas jarayondan iborat butunjahon integratsiyasi hozirga kelib, ichki va tashqi siyosatdagi tafovutlarning yemirilishi va ko‘hna sotsial strukturalarning barham topishi evaziga sayyoramizning barcha xalqlari va davlatlari orasidagi o‘zaro uzviy bog‘liqlikning vujudga kelishi hamda kuchayishiga olib kelmoqda. Shuningdek, alohida ta‘kidlash lozimki, axborot-kommunikativ texnologiyalarning avj olishi, muammolar yechimi yo‘lida sun‘iy intellekt yaratish kabi yondashuvlarning ilgari surilayotganligi, dunyo miqyosida erkin bozor iqtisodiyoti g‘oyasining ustuvor ahamiyat kasb etib borayotganligi singari yumushlar esa insoniyat oldiga yangi qiyinchiliklar paydo bo‘lishi uchun sabab bo‘lmoqda.

Insoniyat o'z o'tmishi davomida, hatto bu dunyoda mavjud bo'lishini ham tahlikali xavf darajasida kurashishga majbur qilgan qanchadan qancha murakkab jarayonlarni bosib o'tgan. Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari, jahon kolonial tizimining yemirilishi, sobiq Ittifoq tuzumining parchalanishi, tez-tez takrorlanib turgan sivilizatsiyalararo ziddiyatlar, dunyodagi katta ko'pchilikni sarosimaga solayotgan xalqaro terrorizm, tinchlik va xavfsizlik masalasini jiddiy xavf ostiga ko'yish uchun intilayotgan fundamental oqim va kuchlar, global muammolarning tobora keskinlashib borayotganligi (tinchlikni asrash muammosi, termoyadro urushi xavfi, Yer yuzidagi iqlim rivojida global isib borish holatining kuzatilayotganligi, atrof-muhit ekologik holatining yomonlashib borayotganligi, xomashyo va energetika resurslari ta'minotining tang ahvol kasb etib borayotganligi, demografik inqiroz, narkomaniya, koronavirus pandemiyasi, qashshoqlik, ochlik va savodsizlik muammolari va b.) butun insoniyat sivilizatsiyasining yashab qolishini katta xavf ostiga qo'ydi.

O'z navbatida, hozirgi zamon taraqqiyotida sodir bo'layotgan o'zgarishlarning tezkorligi va keng qamrovligi insoniyatning bundan keyingi taraqqiyoti va rivoji, qolaversa, odamzotning yashab qolishi uchun yangi yo'llarni izlab topish zaruriyatini ko'ndalang etib qo'ydi. Globalashuv jarayonlarining avj olishi va sivilizatsion o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan muammolarning ijobiy hal etilishi uchun, shuningdek, hozirgi davrdagi mavjud murakkab va ziddiyatli an'analar xos bo'lgan xilma-xilliklarni ham chuqur anglab yetish zarur. Ijtimoiy falsafada jamiyat taraqqiyotini o'rganishda ko'plab yondashuvlar o'rin olgan bo'lsa-da, biroq ularning orasida formatsion va sivilizatsion yondashuvlar ancha e'tibortalab ekanligini esda tutish lozim. Ularning har biri ijtimoiy taraqqiyot dinamikasiga oid o'ziga xos jihatlarni e'tiborga olgan holda sotsial tizimlarning juz'iy xususiyatlari bilan birga bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish sabablari va imkoniyatlarini tahlil qilish taxminlarini ham taqdim etadi. Bunda formatsion yondashuv insoniyat tarixini anchayin bir chiziqli, monistik tasavvur qilishdan iborat ekanligi ko'zga tashlanadi. Formatsion yondashuvga zid ravishdagi sivilizatsion yondashuv esa o'ziga xos sifat xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadigan muayyan sivilizatsiyalar asosidagi ijtimoiy tizimlar tipologiyasini anglatadigan tushunchadir. Shuning uchun ijtimoiy taraqqiyot tahliliga nisbatan sivilizatsion yondashuv nafaqat jamiyatdagi o'zgarishlar sodir bo'lishini tadqiq etish bilan bog'liqligi bois, balki insoniyat rivojining bungacha bo'lgan davrlari va bosqichlarining tahlili bilan ham bog'liq bo'lganligi uchun ham katta ilmiy ahamiyatga ega. Bundan tashqari, sivilizatsion yondashuv yordamida hozirgi zamon sivilizatsiyasi (informatsion, texnikaviy) rivoji va muammolari doirasida jamiyat taraqqiyoti istiqbollari bashorat qilish ham mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Mavzu yuzasidan chop etilgan ilmiy adabiyotlar bilan yaqindan tanishish mazkur muammo juda ko'plab jamiyatshunos olim va mutaxassislarining e'tibori va qiziqishi juda yuqori bo'lganligidan darak beradi. Xususan, falsafa, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik, iqtisodiyot, tarix kabi fanlarda o'z sohalarining gnoseologik ehtiyoji va vazifalaridan kelib chiqqan holda, jamiyat taraqqiyotini o'rganishda sivilizatsion yondashuv masalasining mohiyati xilma-xil yo'nalishlarda talqin etilganligining guvohi bo'lamiz.

Shuningdek, ayni paytda klassik marksizmi tushunish va tushuntirishda bolsheviklarning inqilobiy faoliyatlarida amaliy jihatdan joriy etgan izchil merosxo'r izdoshlari bo'lgan K.Kautskiy, G.V.Plexanov, I.V.Stalin, L.D.Trotskiy [2] kabilarning asarlarida ham ushbu muammo keng o'rganilganligini ko'ramiz.

Kezi kelganda shuni ham alohida ta'kidlash o'rinliki, marksistik ta'limotni o'z faoliyatining nazariy-metodologik asosi deb bilgan kommunistik partiya hukmronligi davrida formatsion yondashuvni jamiyatning kommunizm tomon taraqqiyotining zaruriy bosqichi sifatida isbotlab berish uchun urinishlar aks etgan adabiyotlar ham oz emas. Tabiiyki, bu o'rinda ularning barchasini sanab o'tish imkoni ham, zaruriyati ham yo'qligini e'tiborga olgan holda, sho'rolar davrida B.E.Bixovskiy, A.M.Deborin, F.V.Konstantinov. I.K. Luppol, M.B.Mitin kabilarning bir qator asarlarida formatsion rivojlanish g'oyasi har tomonlama ma'qullanganligi va rivojlantirish uchun harakat qilinganligini qayd etish kifoyadir [3].

L.B.Alayev, A.Y.Gurevich, R.I.Kapelushnikov, V.L.Inozemsev, T.I.Oyzerman, Y.I.Semenov kabilardan esa formatsion yondashuvning metodologik ahamiyati masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Bizningcha, ijtimoiy bilishda sivilizatsion yondashuvlar muammosi tadqiq etilgan manbalar orasida N.Y.Danilevskiy, O.Shpengler, A.Toynbi, P.A.Sorokinalarning asarlarini alohida ko'rsatish mumkin [4]. Gap shundaki, ulardagi alohidalikning mohiyati jamiyat taraqqiyoti davomida madaniy-tarixiy an'analar, axloqiy norma va qadriyatlar, qolaversa, diniy e'tiqod va qarashlar yordamida shakllanadigan betakror va o'ziga xos lokal sivilizatsiyalar g'oyasini birinchilardan bo'lib ishlab chiqishganligi bilan izohlanadi. Ushbu g'oyalarning zamonaviylashib, yangilanib borayotganligi bilan bog'liq bo'lgan tomonlarini esa N.Elias va Sh.Eyzenshtadt singari mutaxassislarining ishlarida uchratish mumkin.

Jamiyat taraqqiyotida sivilizatsion yondashuvning mohiyatini «sivilizatsiya» tushunchasining tahlili orqali erishish mumkinligi to'g'risidagi urinishlar orasida Y.M.Amelina, A.C.Babushkin, M.A.Barg, E. Benvenist, B.S.Yerasov, I.N.Ionov kabilarning asarlarini qayd etish mumkin. Shuningdek, ushbu toifadagi adabiyotlar qatoriga o'sha davrda chop etilgan izohli lug'atlarni ham sanab o'tish mumkin.

Jamiyat taraqqiyotiga bag'ishlangan adabiyotlar orasida sivilizatsion va formatsion yondashuvlarni taqqoslash mumkinligi masalasi V.J.Kelle, Y.K.Pletnikov, E.A.Pozdnyakov, L.I.Reysnera, V.N.Studentsov va boshqalarning tadqiqotlarida ko'tarilgan.

Hozirgi kunda jamiyat o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga zamonaviy sivilizatsiyaning informatson va postindustrial davri ko'rinishlarida transformatsiya etilishi mumkinligi masalalari ham ilmiy adabiyotlardan keng o'rin egallamoqda. Xuddi shunday qarashlarni axborot va bilimlarni insonning maqsadga muvofiq faoliyatining asosiy mevasi va ishlab chiqarish mahsuli sifatida talqin etilayotgan D.Bell (postindustrialnoe obshestvo) [5], 3.Baumana, M.Kastels, Y.Masuda, E.Toffler (informatsonnoe obshestvo)larning ilmiy ishlarida o'qishimiz mumkin.

Shu o'rinda aytish mumkinki, bugungi kunda ijtimoiy taraqqiyotda sodir bo'layotgan o'ziga xos o'zgarishlar esa zamonaviy jamiyatning globallashuv jarayonlari bilan uzviy bog'liqligi masalalarini tadqiq etishga bag'ishlangan ishlarning paydo bo'lishiga ham olib kelmoqda. Jumladan, U.Bek, V.Buyanov, K.S.Gadjiyev, M.G.Delyagin, Y.V.Lyubimov, V.A.Mixaylov, M.Negreponi-Delivani, V.I.Pantin va boshqalarning ishlarini ana shular qatoriga qo'shish mumkin.

Muhokama va natijalar. Ma'lumki, jamiyat rivoji va taraqqiyoti o'z-o'zini tashkil etadigan hamda o'z-o'zidan harakatlanadigan tizim sifatida juda murakkab darajada tashkil topgan mohiyatdan iborat. Jamiyat mohiyati va mazmunini o'rganishga bag'ishlangan adabiyot va manbalar bilan atroflicha tanishish, garchi, uning taraqqiyotini o'rganishga bag'ishlangan yondashuvlarning anchagina ekanligini sanash mumkin bo'lsa-da, biroq ularning orasida jamiyatning murakkab mohiyat sifatidagi mazmunini ochib berishda, bizningcha, formatsion va sivilizatsion yondashuvlar ko'pchilikning e'tiborini ko'proq tortishganligini alohida qayd etib o'tish zarur. Jumladan, fanda jamiyat taraqqiyotini o'rganishda madaniyatshunoslik, diniy, geografik determinizm kabi nuqtayi nazarlardan yondashuvlar ham keng tarqalgan bo'lib, mazkur yondashuvlar tomonidan ham insoniyatning tarixiy taraqqiyoti juda murakkab kechishi qayd etilishini ta'kidlab o'tish zarur. Biroq bunday metodologik yondashuvlarning hech biri, fikrimizcha, ijtimoiy taraqqiyotga xos bo'lgan umumiy manzarani to'liq yoritib bera olmaydi, balki har bir urinishda jamiyat taraqqiyotiga xos bo'lgan juda juz'iy jihatlari asos qilib olinganki, natijada bunday yondashuv yordamida jamiyat va uning taraqqiy etishi to'g'risida anchayin tor tushuncha va tasavvurlardan iborat manzara hosil bo'ladi. Xuddi shu bois biz formatsion va sivilizatsion yondashuvlarni taqqoslash metodologiyasiga tayanishni muayyan mantiqqa ega usul deb o'ylaymiz.

Ayni paytda, bizningcha, jamiyat taraqqiyotini ijtimoiy bilish obyektini sifatida sivilizatsion yondashuv muammolari tadqiq etilgan adabiyotlar bilan atroflicha tanishish ushbu muammolar yetarli darajada o'rganilmaganligi, ba'zi hollarda bir yoqlamaligi va cheklanganligi, ko'p hollarda esa ma'lumotlarning oddiy bayonidan nariga o'ta olmay qolganligi singari kamchiliklari bilan hozirgi zamon jamiyatini tadqiq etish metodologiyasi uchun manba bo'la olishga da'vogarlik qila olmaydi. Zero, ularda jamiyat taraqqiyotini tadqiq etish borasidagi turlicha yondashuvlar ijtimoiy bilish ko'rinishlari sifatida o'rganilmagan, formatsion va sivilizatsion yondashuvlar o'rtasida gnoseologik tahlil amalga oshirilmagan, sivilizatsion yondashuvning evristik gnoseologik mohiyati ochib berilmagan, zamonaviy jamiyat taraqqiyotining istiqbollari yetarli darajada tahlil etilmagan. Bu esa mazkur dissertatsion ish uchun tadqiqot maydoni bo'lib xizmat qildi.

Xulosa. Ijtimoiy taraqqiyot tahliliga nisbatan sivilizatsion yondashuv nafaqat jamiyatdagi o'zgarishlar sodir bo'lishini tadqiq etish bilan bog'liqligi bois, balki insoniyat rivojining bungacha bo'lgan davrlari va bosqichlarining tahlili bilan ham bog'liq bo'lganligi uchun ham katta ilmiy ahamiyatga ega. Bundan tashqari, sivilizatsion yondashuv yordamida hozirgi zamon sivilizatsiyasi (informatson, texnikaviy) rivoji va muammolari doirasida jamiyat taraqqiyoti istiqbollarini bashorat qilish ham mumkin.

Bugungi kunda jamiyat hayotida ro'y berayotgan tezkor o'zgarishlar hozirgi davrning jiddiy va munozarali muammolaridan biri bo'lganligi bois ushbu masalani chuqur va har tomonlama o'rganishni taqozo etmoqdaki, bizningcha, bunday yondashuvni o'z vaqtida va zaruriy amalga oshirilgan gnoseologik tadqiqot sifatida baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маркс К., Энгельс Ф. Соч. изд-е 2-е. Т. 6; Т. 39; Маркс К. Восемнадцатое брюмера Луи Бонапарта. Маркс К., Энгельс Ф. Соч. изд-е 2-е. Т.16; Маркс К. К критике политической экономии. Предисловие. К. Маркс, Ф.Энгельс. Соч. изд-е 2-е. Т. 13; Маркс К. Наброски ответа на письмо В.И.Засулич. К.Маркс, Ф. Энгельс. Соч. изд-е 2-е. Т. 13.
2. Каутский К. Экономическое учение Карла Маркса. 1886 г.; Он же. Размышляя о марксизме. 1886 г.; Плеханов Г.В. Основные вопросы марксизма. М. «Московский рабочий», 1922.
3. Быховский Б.Э. Враги и фальсификаторы марксизма. М.–Л., 1933.
4. Данилевский Н.Я. Россия и Европа. М., «Книга», 1991.
5. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования. М., «Академия», 1999.

Mirzayeva Nigina Olimovna (SamDCHTI mustaqil tadqiqotchisi; mirzayeva.nigina@bk.ru) OILA DAVLAT VA JAMIYAT BARQARORLIGINING ASOSI SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat va jamiyat hayoti ishtirokidagi fuqarolik burchlarining yuzaga kelishi, shakllanishida bevosita oila muhim omil ekanligi xususida soʻz boradi. Oila jamiyat bilan uzviy bogʻliq ekan, undagi munosabatlar ham jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, maʼnaviy-axloqiy munosabatlar bilan bogʻliq boʻlgan holda jamiyatdagi oʻzgarishlar va yangiliklar tasarrufi ostida mustahkamlanib boraveradi. Oila va jamiyat uygʻunligidagi bu mushtaraklik inson maʼnaviy kamolotidagi muhim ortodoks tamoyillardan biridir. Shu tufayli oila hamjihatligi, uning ijtimoiy hayotdagi faoliyati, undagi maʼnaviy-axloqiy muhit barcha davrlarda jamoatchilik eʼtiborida boʻlgan. Xususan, Jaloliddin Rumiyning oila, ayol va erkak munosabatlari, farzand tarbiyasi, ayollarga ehtirom koʻrsatish kabi masalalarga boʻlgan allegorik munosabatlariga ham toʻxtalib oʻtilgan. Shuningdek, oilaviy munosabatlarni tartibga solishda ijtimoiy murosa, meʼyor kategoriyasi va oʻzaro ishonch tamoyillari hamda oilaning maʼnaviy-axloqiy kontekstlar oʻrnidagi ahamiyati xususida ham soʻz boradi.

Аннотация. В данной статье упоминается, что ближайшие родственники являются важным фактором возникновения и формирования гражданских обязанностей, связанных с жизнью государства и общества. Поскольку семья неразрывно связана с обществом, отношения в ней связаны также с социально-экономическими, духовно-этическими отношениями в обществе и укрепляются под управлением изменений и инноваций в обществе. Эта общность гармонии семьи и общества является одним из важных православных принципов духовной зрелости человека. В связи с этим единство семьи, ее деятельность в общественной жизни, ее духовно-нравственная среда всегда находились в центре внимания общественности. В частности, было затронуто и аллегорическое отношение Джалалуддина Руми к таким вопросам, как семья, отношения мужчины и женщины, воспитание детей, уважение к женщине. Также говорится о социальном компромиссе, категории норм и принципах взаимного доверия, а также о значении семьи вместо духовно-нравственного контекста в регулировании семейных отношений.

Annotation. This article mentions that the immediate family is an important factor in the emergence and formation of civic duties involving the life of the state and society. Since the family is inextricably linked with the society, the relations in it are also connected with the socio-economic, spiritual-ethical relations in the society and are strengthened under the management of changes and innovations in the society. This commonality in the harmony of family and society is one of the important orthodox principles of human spiritual maturity. Because of this, family unity, its activities in social life, and its spiritual and moral environment have always been in the public's attention. In particular, Jalaluddin Rumi's allegorical attitude to issues such as family, male and female relations, child rearing, and respect for women were also touched upon. It also talks about social compromise, the category of norms and the principles of mutual trust, as well as the importance of the family in the place of spiritual and moral contexts in the regulation of family relations.

Kalit soʻzlar: nikoh, oilaviy mulk, farzand tarbiyasi, gʻamxoʻrlik oilaviy munosabatlar, ijtimoiy murosa, rashk fenomeni, milliy mentalitet, jamiyat, axloq.

Ключевые слова: брак, семейная собственность, воспитание детей, уход, семейные отношения, социальный компромисс, феномен ревности, национальный менталитет, общество, мораль.

Key words: marriage, family property, child rearing, care, family relations, social compromise, jealousy phenomenon, national mentality, society, morality.

Jamiyat taraqqiyotining rivoji va barqarorligi bevosita oilaga bog'liqdir, chunki oila bevosita jamiyatning muhim bo'g'ini hisoblanadi. Er-xotinning hamjihatlikda yashashi, oiladagi ma'naviy muhitning yuksakligi jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy hayoti ravnaqidagi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Jamiyat ma'naviy taraqqiyotida oilaning ahamiyati beqiyosdir. Oila bu ikki qarama-qarshi jins va killarining o'zaro ma'naviy, huquqiy va tabiiy-biologik jihatlardan birikuvidan hosil bo'ladigan Vatan ichra kichik Vatandır. Jamiyat va atrof-muhitda yuz beradigan har qanday jarayonlar bevosita oilada ham o'z in'ikosini ko'rsatadi. Aslan olib qaralganda, oila qurish va oilaviy munosabatlarni tashkil etish har bir fuqaroning shaxsiy huquqlari turkumiga kirsa-da, lekin bularning barchasi bevosita davlat tomonidan ishlab chiqilgan huquqiy normalar yordamida tartibga solinadi, nazorat qilinadi. Oila bu har bir fuqaroda burch hamda mas'uliyat tushunchasini shakllantiruvchi maskan hisoblanadi, ya'ni, er-xotinlikning, ota-onalikning, farzandning, qavm-qarindoshlar bilan qardoshlik rishtalarining bog'lanishi, shuningdek, davlat va jamiyat hayoti ishtirokidagi fuqarolik burchlarining yuzaga kelishi, shakllanishida bevosita oila muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Oila jamiyat bilan uzviy bog'liq ekan, undagi munosabatlar ham jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan holda jamiyatdagi o'zgarishlar va yangiliklar tasarrufi ostida mustahkamlanib boraveradi. Oilaning asosi quyidagi 3 jihatdan tashkil topadi, bular: nikoh, oilaviy mulk va farzand tarbiyasi hamda ularga g'amxo'rlik qilishdan iborat. Oilalarning tinch va farovonligi, farzandlarning sog'lom va barkamolligi, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik hamda oila mustahkamligi borasidagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizga sodiq bo'lish kabi komponentlar jamiyat ma'naviy hayoti rivoji yo'lidagi muhim omillardan hisoblanadi. Oila borasidagi e'tiborli jihatlardan yana biri shundaki, oila insoniyat naslining davom etishi, o'tmish merosimiz va boy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizni avloddan avlodga bezavol o'tishini ta'minlovchi muqaddas maskan hamdir. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar hisoblanish sabrlik, mardlik, ahillik, hamjihatlik, halollik, yaxshilik qilish, oilaga sadoqatli bo'lish kabi oliyjanob fazilatlar ham, dastlab, oilada shakllanadi. Farzand tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish va uni ma'nan, jismonan sog'lom qilib tarbiyalash ham oilaning asosiy funksiyalaridan biridir, chunki bundan nafaqat o'sha oila, balki butun jamiyat ham manfaatdor hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasiga ko'ra, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi va u jamiyat hamda davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Oilani jamiyatning ravnaq topishida tutgan o'rni va ishtirokini yanada oshirish, oilalarning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy manfaatlari va farovonligini yaxshilashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini kuchaytirish hamda izchil ta'minlash maqsadida oilaviy hayot masalalarini huquqiy tartibga solishga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi qabul qilindi [12.215].

Oila va jamiyat uyg'unligidagi bu mushtaraklik inson ma'naviy kamolotidagi muhim ortodoksal tamoyillardan biridir. Shu tufayli oila hamjihatligi, uning ijtimoiy hayotdagi faoliyati, undagi ma'naviy-axloqiy muhit barcha davrlarda jamoatchilik e'tiborida bo'lgan. Oilada er-xotinning haq-huquqlari, mulkiy munosabatlari, ota-onaning farzand oldidagi, farzandning ota-ona oldidagi burch va majburiyatlari, oilada sodir bo'ladigan turli oilaviy nizolarni hal etish bilan bog'liq muammolari ham bevosita davlat tomonidan ishlab chiqilgan qonun-qoidalar doirasida ko'rib chiqiladi hamda nazorat qilinadi.

Oilaning jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayoti taraqqiyotidagi o'rni haqida yunon faylasufi Arastu shunday degan: "Oilada yaxshi (solih, xushxulqli, sofdil, mard, mehnatsevar, pahlavon, oliyjanob) farzandlar ko'p bo'lishi – davlatning ham qudratini tashkil etadi: chunki, mamlakatda yaxshi tarbiya ko'rgan (ruhiy, ma'naviy) va jismoniy jihatdan ham go'zal, bo'ydor, pahlavon, chaqqon yigitlar ko'p bo'lishi davlatni kuchli qiladi, obro'yini oshiradi. Davlat uchun ham, ayrim oila boshlig'i uchun ham fozil (fazilatli) yigit va qizlar bo'lishi baxt-saodatdir. Qizlar uchun jismoniy jihatdan go'zal, xushqomat bo'lish, ma'naviy jihatdan kamtarin, mehnatsevar, oliyjanob bo'lish eng yaxshi fazilatlaridir. Har bir inson, umuman, davlat shunday ajoyib yigitlar va qizlarga ega bo'lishi (baxt-saodatdir), har bir inson shunga intilishi kerak" [1.240]. Farididdin Attor esa shunday yozadi: "Voqean, agar ming olam bilan payvand bo'lsa ham, u farzand payvandchalik bo'lmas, farzand g'amidan forig' faqat Parvardigorning o'zidir, bandasi bolam – farzandim deb umr o'tkazadi. Farzand kishini dunyo bilan bog'laydi, farzand g'ami ham dunyo g'amining bir qismidir" [11.38].

Sharq xalqlarida oila qadimdan muqaddas hisoblangan va ko'plab didaktik manbalarda ham oila masalalariga to'xtalib o'tilgan. Bu masalalar haqida antik davr faylasuflari, Sharq mutafakkirlari, Markaziy Osiyo allomalari va G'arb faylasuflari ham o'z konsepsiyalarini yaratganlar. Mana shunday o'z konsepsiyasiga ega buyuk allomalardan biri bu Jaloliddin Rumi hamdir hisoblanadi.

Jaloliddin Rumiyaning oila haqidagi ijtimoiy qarashlarida ota-ona, xususan, ona obraziga ham alohida o'rin ajratilgan. U ona haqida shunday deydi: "Onalar haqqiga diqqatli bo'! Uni boshingga ko'tar! Zero,

agar onalar to'lg'oq og'rig'i chekmaganlarida chaqaloqlar dunyoga kelish uchun yo'l topisha olmas edi...". Darhaqiqat, barcha davrlarda ona siymosi ulug'lanib kelingan. Hech bir alloma, shoir-u shuaro yo'qki, Ona sharafini madh etmagan, uni e'zozlamagan. Alloh onalarni zohiran turfa qilib yaratgan bo'lsa-da, botinan ular birdir. Ularning tashqi qiyofasi, millati, surati, fe'l-atvori turfa bo'lsa-da, lekin vazifasi, fazilati bir xil. Farzand necha yoshga kirgan bo'lishidan qat'i nazar, ota-ona uchun u bolaligicha qolaveradi. Ular har doim farzandiga parvona, bolasi uchun mehnat qiladi, bor kuch-quvvatini farzandi kamoli uchun sarflaydi, bor-buduni bolasi kamoloti yo'lida beminnat nisor aylaydi.

Senga ko'ngildir nechuk, men ham chunon,

Onalarning poyi ostida jinon.

Elga ota-ona ermishdir ko'ngil,

Baxtlidir ko'ngilni ko'rgan kimsa ul [5.531]

Jaloliddin Rumiyni fikricha, insonning fe'l-atvori unga ona suti orqali kiradi va takomillashadi. Farzand ota-onasidan arazlashi mumkin, lekin ota-ona har doim farzandini kechiradi. "Ey farzand, ota-onangga araz qilma, ular sening davlating. Kishi hech davlatdan yuz buradimi" [3.114], deya farzandlarni ota-ona haqqiga nisbatan e'tiborli va mehrli bo'lishga da'vat etadi. Ota-onadan, oila a'zolaridan yiroqlashgan kishining ko'nglini mahshar tark etadi, yuragini zang egallaydi. Yosh bola vaqtingda ota-onang ursa ham, tanbeh bersa ham, baribir, unga suykalaridg, nechun endi voyaga yetib, ko'nglingdagi mehrning o'rnini qahrga bo'shatib berayapsan, ey farzand [6.33], deydi Rumi. Mutafakkir ota-onani bog'bonga, farzandni esa bog'ga qiyoslaydi. Bog'bon bog'ini parvarish qilib, unga ishlov berib yashnatib, uning hosilidan el-u yurtni bahramand etganidek, ota-ona ham farzandini dunyoga keltirib, uni parvarishlab, tarbiyalab voyaga yetkazadi, jamiyat uchun kerakli shaxs qilib tarbiyalaydi. Vaqti kelib, bog'bon o'zgaradi, bog'ga yangi nihollar ekiladi, xuddi shunday, vaqti-soati yetib o'sha farzandlarning o'zi ota-onaga aylanadi, ular ham oila qurib, farzandlarini tarbiyalaydilar. Shu tariqa, hayot zanjiri davom etaveradi, deydi Rumi. Bir o'rinda Jaloliddin Rumi ota-onani asalariga qiyoslaydi va shunday yozadi: "Ota-onalarimiz xuddi asalari kabidirlar. Ular ham istagan (oshiq)ni istalgan (ma'shuq) bilan birlashtiradilar va o'zlari uchib ketadilar. Ulug' Alloh ularni asal va mum to'plamakka vosita qilgandir. Ular ketgandan keyin mum, bol va bog'bon qoladi. Bularning o'zlari bo'stondan tashqari chiqolmaydilar. Chunki tashqari chiqsa, bo'ladigan joy emas. Ular bo'stonning bir burchagidan ikkinchi burchagiga arang borib kelib turadilar. Bizning vujudimiz asalari sandig'iga o'xshaydi. Sandiqdagi mum va bol Allohning ishqidir. Ota-onalar-asalari va vosita sifatida bog'bondan tarbiya oladilar. Chunki sandiqni yasagan bog'bondir" [7.224].

Bu yerda ota-ona farzandi voyaga yetgach, uni o'z tengi bilan oila qurishini nazorat qilishda ularning mas'ulligi to'g'risida fikr yuritilgan holda, farzand asal va mumga qiyoslanmoqda. Asal va mum deyilganda esa qarama-qarshi jins vakili hamda boshqa oilalar (sandiq)dagi farzandlarni qovushtirib, boshqa bir oilaning jamiyatda shakllanishi nazarda tutilmoqda. Zero, Alloh ota-onani farzandni dunyoga keltirmoq uchun vosita qilgandir. Bu yangi oila ham vaqti kelib bog'bonga aylanadi va boshqa mum hamda asalni, farzandlarni dunyoga keltiradi. Keksaygan ota-ona kuch-quvvatdan qoladi, avvalgidek yelib-yugurib mehnat qilolmaydi, ya'ni "bo'stonning u burchagidan bu burchagiga arang borib-kelib turadi" [8.225].

"Oila quradigan ikki begona kishining birgina dasturxon vositasida o'zaro bog'lanishi, oralarida paydo bo'lgan muhabbat va marhamat munosabatlari, jiddiy tushunilishi lozim bo'lgan ilohiy qudratning ko'rinishini o'z ichiga olgandir. Butun mavjudot ilohiy nizomga ko'ra vahdatga, ya'ni birlikka intiladi"[10.190].

Jaloliddin Rumiyning shoh asari hisoblanmish "Masnaviyi ma'naviy" asari tarkibida turli mazmundagi hikoyatlaru masallar mujassamlashtirilgan, shuningdek, undagi voqealar rivoji ta'sirchanligini oshirishda, kulminatsion nuqtasini belgilashda Qur'oni karim oyatlaridan ham samarali foydalanilgan. Xususan, oila, ayol va erkak munosabatlari, farzand tarbiyasi, ayollarga ehtirom ko'rsatish kabi masalalarga Rumi ko'p o'rinlarda to'xtalib o'tgan. Bunday mavzudagi hikoyalar va masallar tarkibida ba'zan behayo, g'ayriaxloqiy munosabatlar haqida ham so'z ketsa-da, ularning yakunida Mavlonon bu mavzuga boshqa to'xtalishga hojat qoldirmaydigan ravishda xotima yasaydi va bunday axloqsizliklarni qattiq qoralaydi.

Jaloliddin Rumiyning falsafiy qarashlarida oila mustahkamligi masalalariga oid tarbiyaviy ahamiyatga molik fikrlarni ko'p uchratamiz. Rumiyning fikricha, oilani tuzish va buzish, ya'ni oiladagi totuvlik ham, oiladagi notinchlik ham, avvalo, er-xotinga bog'liq. Agar er-xotin o'zaro ittifoqlikda yashashsa, ularga hech qanday tashqi omillar ta'sir o'tkazolmaydi. Mutasavvif shunday deydi: "Sen uni sevib talpinsang, u ham seni sevib, talpinadi. Sen uni yo'qotish tadbirini qilsang, u ham zimdan sendan qutulish rejasini tuzadi. Devorni bir yog'iga o'tvolib buzishga kirishsang, u hadeganda ag'anay qolmaydi. Modomiki, uni har ikki tomondan teshishga chandon urinsang, ikki yondan o'yib kelayotgan ikkala aslaha ko'p o'tmay bir-biriga qovushadi. Endi sen bilan u ayol orasidagi do'st-dushman, begonalarning yaxshi-yomon nazaridan hosil bo'l-

gan parda bir devorga o‘xshaydiki – bu ayol bilan sening orangdir”. Darhaqiqat, oila devorining mustahkam bo‘lishi, yoki aksincha, nurashi er-xotinning o‘zaro munosabatlariga bog‘liq bo‘lgan jarayondir.

Jaloliddin Rumiyning axloqiy qadriyatlarga oid qarashlarida ota-onaning mukarramligi, oilaning muqaddasligi masalalariga ham alohida to‘xtalib o‘tilgan. U insonning buyuklik darajasini uni qanchalar asl xonadonda tavallud topganiga qarab aniqlab bo‘lmaydi, ammo insonni so‘nggi manziliga kuzatish darajasiga qarab, uning kimligini tasavvur etish mumkin deya insoniylik xususiyatlari xususida ham fikr yuritadi. U otalik burchi haqida so‘zlarkan, shunday deydi: “Bir kishi o‘g‘lini sevib erkalkar, otalik, oqibatlilik, vafo, marhamat, shafqat kabi tuyg‘ularni xayoliga keltirmasa-da, bularning barchasi uning mehridan pinhondir” [9.228], deya nasihat qiladi. Onaning buyukligi, mukarramligi xususida Abdurahmon Jomiy: “Men onamni nega sevmayki, u meni bir muddat o‘z jismida, so‘ng uzun hayot quchog‘ida va o‘lgunga qadar qalbining shafqat xonasida tashigandir. Unga hurmatsizlik qilishdan ham yomonroq narsa bo‘lishi mumkinmi?” desa, Bahovuddin Naqshband: “Bizning qabrimizni ziyorat qilgani kelganlar oldin onamizning qabrini ziyorat qilsinlar” [4.20], deya vasiyat qilgan ekan. Abulboqi Go‘lpinarli esa: “Onalar Yaratuvchining marhamatidan eng ko‘p nasiba olgan zotlardir” [2.206], deya onalarga bo‘lgan ehtiromini izhor etadi.

Xulosa o‘rnida shuni qayd etish kerakki, Jaloliddin Rumiyning falsafiy qarashlaridagi ma‘naviy-axloqiy va umuminsoniy qadriyatlarga oid fikr-mulohazalar oradan necha asrlar o‘tishiga qaramay, o‘z qadriyatini yo‘qotmay, insoniyatni fikrlashga, milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhini yuksaltirishda muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu esa Mavlononing jahoniy shuhratini oshishiga, “bashariyat shoiri” deya e‘tirof etilishiga sabab bo‘ladigan asosiy tamoyillardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arastu. Ritorika. T., “Yangi asr avlodi”, 2015, 240-bet.
2. Go‘lpinarli A. Masnaviy bog‘chasidan bir ko‘za suv. M., “SAD”, 2010, 206-bet.
3. Джан Ш. Мевляна Джалалиддина Руми. Жизнь, личность, мысли. М., “Новый свет”, 2008, с. 114.
4. Durdona. Mir Kulol va shohi Naqshband maqomati. T., “Movarounnahr”, 1993, 20-bet.
5. Jaloliddin Rumi. Masnaviyi ma‘naviy. T., “Meriyus”, 2010, 5-daftar, 531-bet.
6. Jaloliddin Rumi. Ichindagi ichindadir. T., “Yangi asr avlodi”, 2018, 33-bet.
7. Ko‘rsatilgan asar. 224-bet.
8. Ko‘rsatilgan asar. 225-bet.
9. Jaloliddin Rumi. Hikmatlar. T., “Sharq”, 2008, 228-bet.
10. Usmon Nuriy Tupbosh. Masnaviy bog‘chasidan bir ko‘za suv. M., “SAD”, 2010, 190-bet.
11. Farididdin Attor. Ilohiynoma. T., “Yozuvchi”, 1994, 38-bet.
12. Falsafa. Ensiklopedik lug‘at. T., “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, 2010, 215-bet.

Tadjibayev Muzaffar Turamirzayevich (NamDU doktoranti; abdugaffor16@gmail.com)
ILMIY-OMMABOP MATNNING LISONIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada matn, uning turlari, uning o'ziga xos vositalari, mashur tilshunoslarining matnga bergan ta'riflari, ilmiy-ommabop matnda qo'llaniladigan turli darajadagi birliklarga ko'ra, uning lisoniy o'ziga xosliklari kabi masalalar o'rganilgan. Shuningdek, ilmiy-ommabop matnning soha mutaxassisi va nomutaxassis retseptiyent o'rtasida bog'lovchi ko'priklar va yuqori darajada murakkab ixtisoslashgan matnlarning mazmun-mohiyatini sodda va tushunarli tilda yetkazishdan iborat pragmatik vazifasi, bu vazifani bajarishda qo'llaniladigan leksik, stilistik va sintaktik vositalarga misollar keltirilgan va tahlil qilingan.

Аннотация. В данной статье изучаются такие вопросы, как текст, его виды, его специфические средства, определения, данные тексту известными лингвистами, его лингвистические особенности по разным уровням единиц, используемых в научном и популярном тексте. Также прагматическая функция научно-популярного текста заключается в том, чтобы выступить связующим мостом между специалистом и реципиентом-неспециалистом и передавать содержание сложнейших специализированных текстов простым и понятным языком. Примеры стилистических и синтаксических приемов представлены и проанализированы.

Annotation. This article studies issues such as text, its types, its specific means, definitions given to the text by famous linguists, its linguistic features at different levels of units used in pop-science texts. Also, the pragmatic function of a pop-science text is to act as a connecting bridge between a specialist and a non-specialist recipient and convey the content of complex specialized texts in simple and understandable language. Examples of stylistic and syntactic devices are presented and analyzed.

Kalit so'zlar: matn, ilmiy-ommabop matnlar, terminlar, leksik, stilistik va sintaktik vositalar, pragmatik vazifa, stilistik figuralar, konnotativ ma'no.

Ключевые слова: текст, научно-популярные тексты, термины, лексические, стилистические и синтаксические средства, прагматическая задача, стилистические фигуры, коннотативное значение.

Key words: text, popular science texts, terms, lexical, stylistic and syntactic means, pragmatic task, stylistic figures, connotative meaning.

Tilda har bir matn alohida ma'no anglatish va ifodalash maqsadlariga xizmat qiluvchi fonetik, sintaktik vositalari, o'ziga xos lug'ati, frazeologik birlikmalari, jumla va sintaktik qurilmalari, boshqacha aytganda, ekspressiv vositalari va boshqa o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa turdagi matnlardan tafovut qiluvchi lisoniy sistemadir. Ushbu maqolamizda ko'rib chiqayotganimiz ilmiy-ommabop matn ham bu xususiyatlardan xoli emas. Avvalambor, matnning lingvistik xususiyatlari tushunchasiga to'xtalib o'tsak.

Matnni chuqur tahlil qilish asosida o'rganish uni tilshunoslikning og'zaki va yozma nutq jarayoni mahsuli sifatida ko'rib chiqish, lingvistik jihatdan o'rganish tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biriga aylangan va lingvistik xususiyatlar chuqur tahlil va izlanishni talab qiladi. Bu borada ko'plab qarama-qarshi fikrlarga ham duch kelish mumkin. Turli tilshunoslarning fikrlarini o'rganish, albatta, umumiy xulosaga kelishga yordam beradi. Masalan, chex olimi K.Gauzenblaz matnni nutq faoliyati mahsuli va natijasi sifatida izohlaydi. Shu bilan birga, yozma nutq nutq faoliyati mahsuli. Og'zaki nutq esa nutq jarayoni degan fikrni ilgari suradi [1.38].

Rus tilshunosi I.R.Galperinning talqiniga ko'ra, matn xarizmatik bo'lib, mukammal holatga keltirilgan yozma nutqning mahsulidir [2.144]. Og'zaki nutqda turli takror va mazmunsiz jumlar ham qatnashishi mumkin, shu sababdan uni tadqiqot obyekti bo'lishi mumkin bo'lgan matn sifatida tan olish unchalik to'g'ri kelmaydi.

Amsterdam universiteti professori T.van Deyk matn va uning o'ziga xosligini pragmatika bilan bog'liq holda o'rganadi. Uning tadqiqotlarida asosiy e'tibor matnning kommunikativ va pragmatik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. T.van Deyk, dastlab, matnning grammatik tomonlarini mantiqiy-analitik falsafa qoidalari bilan bog'lab o'rganishga harakat qilgan. Keyinroq, matn semantikasi bilan ham shug'ullangan. Uning matn semantikasiga jiddiy e'tibor qaratishiga Kaliforniya universiteti professorlari R.Lakof va Fillmorlar katta ta'sir ko'rsatgan. T.van Deyk o'z tadqiqi davomida matn faqat gaplar munosabati emas, balki nutqiy harakatlarning munosabatidan iborat bo'lib, u o'zaro munosabatlardan hosil bo'ladi, degan to'g'ri xulosaga keladi [3.108].

Oldin aytib o‘tganimizdek matnlar, albatta, qaysidir funksional uslubga tegishli bo‘ladi. Har bir uslubning lisoniy (lingvistik) o‘ziga xosliklari matnda qo‘llanilgan tilning turli darajadagi birliklarini o‘z ichiga oladi. Masalan, fonetik (tovushlar, intonatsiya), morfologik (so‘z qismlari: o‘zak, qo‘shimcha va boshqalar), leksik (leksik birliklar va ularning ma‘nolari), sintaktik (gap tuzilmalari). Lingvistik standartlar (til kodlari) va ulardan foydalanish qoidalari grammatika, lug‘at va boshqa lingvistikaga oid kitoblarda belgilab (kodlashtirib) qo‘yilgan. Har qanday matn og‘zaki yoki yozma, dialog yoki monolog, qaysidir funksional uslubga xosligidan qat’iy nazar, faqat shu matn uchun xarakterli bo‘lgan lingvistik o‘ziga xosliklarga ega bo‘ladi.

Ilmiy-ommabop matnlarning vazifasi soha mutaxassisi va nomutaxassis retsepiyent o‘rtasida bog‘lovchi ko‘prik vazifasini o‘tash va yuqori darajada murakkab ixtisoslashgan matnlarning mazmun-mohiyatini sodda va tushunarli tilda yetkazishdan iborat. Ilmiy-ommabop matnlarning ushbu kommunikativ-pragmatik vazifasini amalga oshirish uchun ilmiy tushunchalarni batafsil tushuntirish va ularni hamma uchun ma‘lum bo‘lgan narsa, voqea-hodisalarga qiyoslash kabi usullardan foydalaniladi. Til vositalaridan, birinchi navbatda, leksik va sintaktik vositalardan foydalanish ilmiy ommabop matnni tushunish osonlashtirish uchun foydalaniladi. Bunda sohaga oid ilmiy terminlarni anglash yengilroq bo‘lgan muqobillari, ma‘nodoshlari bilan almashtirish yoki ularni perifraza yo‘li bilan o‘quvchiga yetkaziladi, murakkab sintaktik tuzilmalarni qo‘llashdan qochiladi, soddaroq tuzilmalardan foydalanishga va jumalarga ortiqcha ma‘no yuklamaslikka harakat qilinadi.

20-asrning boshlaridayoq rus olimi D.I.Pisarev, “birinchi navbatda, ilmiy ommabop matn sof ilmiy matndagi kabi fikrlar oqimining tezligiga yo‘l qo‘ymaydi. Bunda har bir fikr mufassal tushuntirilishi kerak, toki o‘quvchi matnda berilgan o‘sha fikrlardan kelib chiqadigan mantiqiy xulosalarga tayyor bo‘lsin. Ikkinchidan, ilmiy-ommabop matn har qanday mavhumlikdan ehtiyotkorlik bilan chetlanishi kerak, har bir pozitsiya aniq faktlar bilan tasdiqlanishi va misollar bilan tushuntirilishi kerak”, deb ta‘kidlagan edi [4]. Shunday qilib ilmiy-ommabop matnlar sof ilmiy matnlar bilan solishtirganda, uzatilayotgan axborotning mavhumlik darajasi pastligi bilan, emotsional-ekspressiv vositalar mavjudligi bilan tavsiflanadi. Publitsistik matnlarni ilmiy-ommabop matnlar bilan uslubining soddaligi, anglashga osonligi va ommabopligi birlashtirib turadi. Ammo ularni ommaviy axborot vositalari matnlaridan ilmiy mavzularga oidligi va o‘ziga xos kommunikativ-pragmatik funksiyalari ajratib turadi. Masalan, The copper telephone wire already in use across the UK might be able to achieve data rates three times higher than currently seen with fibre-optic cables [5.12].

“New Scientist” ingliz ilmiy-ommabop jurnalidan olingan ushbu ilmiy-ommabop maqola matni shuni ko‘rsatadiki, fan va texnika sohasiga oid muloqotning o‘ziga xos xususiyatlarini yetarli darajada yetkazish uchun umumadabiy vositalar to‘plamidan kommunikativ maqsadlarga muvofiq ma‘lum lingvistik vositalar tanlangan. Bu, birinchi navbatda, keng ma‘nodagi ilmiy-texnik terminologiya, jumladan, umumilmiy lug‘at so‘zlari (data rates, fibre optic cables,) va ayrim sintaktik tuzilmalar, xususan, birdan ortiq ish-harakat ifodalangan sodda gaplar, birdan ortiq kesim qatnashgan qo‘shma gaplardir.

Umuman olganda, ilmiy uslub uchun, shu bilan bir qatorda, ilmiy-ommabop uslub uchun ham xarakterli bo‘lgan mavhumlik va umumlashtirish kabi uslubga xos bo‘lgan xususiyatlar, asosan, hozirgi zamon-dagi ko‘makchi, yordamchi va modal fe‘llar (might be able to, is currently used), qaysi zamonga mansubligi ko‘rsatilmagan kesim bilan (in use, seen, used) berilishi mumkin.

Ilmiy-ommabop uslubda ilmiy uslubda ham keng qo‘llaniladigan passiv konstruksiyalar (majhul nisbat)dan ham foydalaniladi: “These cables are actually very old, invented by Alexander Graham Bell, and since then no one has looked into the theoretical limits”, says Dinc. (Nature Communications, DOI: 10.1038/s41467-022-29631-8) [5.12].

Ilmiy-ommabop matnning sintaktik sathi uchun sodda yoyiq gaplar, shu jumladan, shaxsi no‘malum gaplar xosdir: Swapping the meat and dairy products that make up a typical European diet for insect meal and laboratory grown produce could cut food-related greenhouse gases, as well as water and land use, by over 80 per cent, a study suggests [5.13].

Bundan tashqari, ilmiy-ommabop matnlarda kirish so‘zlari keng qo‘llaniladi: Meanwhile, the world's oceans, which capture 90% of the excess heat from global warming and are less prone to short-term temperature fluctuations, again had their hottest year on record in 2022—as they have nearly every year since the 1990s [6.220].

Ma‘noviy uzviylikni ta‘minlash uchun bog‘lovchi xususiyatga ega gaplar va jumalar ishlatiladi: But as Fiona Fox, head of the UK's Science Media Centre, says on page 27, government science must truly be science, not just political spin [5.5].

Ilmiy-ommabop matnlarning o'ziga xos lingvistik xususiyati, shuningdek, sodda yoyiq gaplar tarkibida keladigan izohlar bilan ham tavsiflanadi, bu ularning sof ilmiy taguslubi bilan bir katta uslub ostiga birlashishlarini ko'rsatadi: Enhanced rock weathering, a process in which rocks such as basalt are ground up to increase their surface area and accelerate the natural reactions through which they absorb carbon from the air, is thought to be a potential large-scale option for those removals [5.16].

Ilmiy-ommabop matnlarda nafaqat bayonni tasviriy kuchini oshirish, balki unga ifodalilik berishga yordam beradigan vositalardan biri savol-javob uslubidir: What do endometriosis, premenstrual syndrome, perimenopause and polycystic ovary syndrome (PCOS) have in common? They are all hormonal conditions that affect millions, but are poorly understood and managed due to a chronic lack of research funding [7.5].

Ilmiy-ommabop matnlarda, ko'p hollarda ilmiy-ommabop maqolalarda ularning o'ziga xos lingvistik xususiyatlaridan biri shundaki savollar paragraflar boshida to'g'ridan to'g'ri muallif tomonidan beriladi, so'ngra paragraf davomida ularga bosqichma-bosqich javoblar beriladi. Masalan, How have child care issues affected your ability to do fieldwork? How do kids on site affect the work? How are these challenges affecting your area of science? [7.18].

Zamonaviy ilmiy-ommabop matn savol-javob uslubini bilan bir qatorda, javob talab qilmaydigan, lekin u yoki bu faktning emotsional ta'kidlash yoki inkor etishga xizmat qiladigan ritorik yoki emotsional savoldan foydalanish bilan tavsiflanadi. Albatta, retsiyentga salmoqli semantik va hissiy ma'noni ifodalaydigan savol bilan murojaat qilish unga ta'sir o'tkazishning eng samarali usullaridan biridir. Misol uchun, One major unknown is that there isn't data on how many people are told that they were conceived using a donor, as disclosure isn't a legal requirement in any country. "Even if there was a law, how would you go about it?" says Ettinghausen [7.15].

So'roq va undov gaplar, avvalambor, jumalarning semantik uyg'unligini ta'minlab, ilmiy-ommabop matnning ta'sirchanligi va ifodaliligini vujudga keltirishga ham xizmat qiladi. Perm funksional stilistika maktabi vakillarining asosli ta'kidlashlaricha, nutqning kommunikativ yunalganligi va uni qabul qiluvchini inobatga olish zarurati kabi omillar suhbat jarayonida e'tiborga olinadi, suhbat esa "nutqning adresatga yo'nalganlik va javob qaytarishda uning fikr ifodasidagi reaksiyalarigacha hisobga olish" kabi tushuniladi (Kojina, Duskayeva, Salimovskiy 2010. 298).

Ilmiy-ommabop matnlarning yana bir eng asosiy o'ziga xos jihatlaridan biri stilistik vositalardan foydalanishdir. Jumladan, o'xshatish, jonlantirish, metafora, epitet va sanab o'tishlar keng qo'llaniladi. Masalan: "It's like a billiards table", says Meenakshi Wadhwa, MSR principal scientist at Arizona State University, Tempe. "It's as good as it gets in terms of a place to land a sample retrieval mission" [8.1367].

Ilmiy-ommabop matnlar uchun kontekstual sinonimlardan foydalanish tipik xarakterga egadir. Ular ilmiy-ommabop matnning boshqa lingvistik xususiyatlari qatorida eng ahamiyatli laridan biri bo'lgan stilistik figura – gradatsiyani yaratish uchun ishlatiladi. Bu sinonimik birikmalar qatori har biri oldingi birikmaning ma'nosini kuchaytirib keladi. Sinonimlardan bunday usulda foydalanish hodisaning turli ko'rinishlarini tasvirlash, harakat intensivligi, ularning namoyon bo'lish xilma-xilligini ifodalash uchun xizmat qiladi [Solganik. 2008.111].

Ilmiy-ommabop matnida so'zlashuv uslubiga xos bo'lgan rang-barang lingvistik vositalardan ham foydalaniladi. Xususan, "o'sha" ko'rsatish olmoshi matnda oldin o'tgan qaysidir ma'lumotga ishora qilish uchun ishlatiladi: That means gentle heat and constant stirring are the way to go. It is important to turn off the heat just before the eggs reach the desired consistency, as residual heat in the pan will keep them cooking a little longer [7.51].

Yana bir shunday lingvistik o'ziga xosliklardan biri kiritmalar (parenteza)dir. Undan ilmiy-ommabop matnda uchraydigan, o'quvchi uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin bo'lgan leksik birliklarga aniqlik kiritish uchun yoki o'quvchiga qo'shimcha ma'lumot berish uchun qo'llaniladi. Shu bilan birga, ilmiy-ommabop matnlarda so'zlashuv uslubiga oid rang-barang leksik birliklar, ellipsis va uyushiq bo'lakli sodda gaplarning qo'llanilishi ekspressivlikni oshirishga va ixchamlikka erishishga yordam beradi va bu ilmiy-ommabop matnlarni nafaqat publitsistik matnlar bilan, balki so'zlashuv uslubini matnlari bilan ham yaqinlashtiradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ushbu maqolada ko'rib chiqqanimiz ilmiy-ommabop matndagi ma'lumot bayonini shakllantirish uchun mo'ljallangan lisoniy vositalar matnning o'ziga xos lisoniy xususiyatlarini aks ettiradi, matnni idrok etishga yordam beradi, fikrlash jarayonini individual ketma-ket bosqichlarini ko'rsatadi, zarur mantiqiylik va aniqlikni ta'minlaydi. Shunday qilib, ilmiy matn qurishning umumiy tamoyillari, jumladan, konnotativ ma'no, hissiy-ekspressiv va baholovchi leksikaning mavjud

emasligi, bayon usulining qat'iy cheklanganligi va obyektivligi ilmiy-ommabop matnlarda unchalik rioya qilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гаузенблас К. О характеристике и классификации речевых произведений. Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск УШ. Лингвистика текста. М., «Прогресс», 1978, с. 38.
2. Гальперин И.Р. О понятии “текст”. “Вопросы языкознания”, 1974, № 6, с. 144.
3. Ван Дейк. Т. Вопросы прагматики текста. Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск VIII. Лингвистика текста. М., «Прогресс», 1978, с. 108.
4. http://az.lib.ru/p/pisarew_d/
5. New scientist. Copper wire could achieve gigabit broadband speeds. 30 April 2022, p. 5, 12, 13, 16.
6. Science. Unlucky numbers. 20 January 2023, vol 379, ISSUE 6629, p. 220.
7. New Scientist. Hormonal hope. With the tools now at hand, there is no reason to neglect hormonal conditions. 28 January 2023, pp. 5, 15, 18.
8. Кожина М.Н., Дускаева Л.Р., Салимовский, В.А. Стилистика русского языка [текст]. 2-е изд., М., “Наука”, 2010, с. 298.

Musayev Abduvali (JDPU “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” kafedrası dotsenti) JARGON, ARGO VA SLENG TERMINLARINING FARQLI XUSUSIYATLARI

***Annotatsiya.** So‘zlashuv nutqi jamiyatdagi yangiliklar hisobiga juda tez o‘zgarib bormoqda. Turli kasb egalari nutqida uchraydigan jargon, argo, slenglarni maqolada farqli xususiyatlarini ko‘rsatib tahlil qildik.*

***Аннотация.** Разговорная речь очень быстро меняется в связи с изменениями в обществе. В статье мы проанализировали сленг, жаргонизмы, встречающиеся в речи различных специалистов, показав их разные характеристики.*

***Annotation.** Conversational speech is changing very quickly due to the news in society. In the article, we analyzed the slang, argo, slang found in the speech of various professionals, showing their different characteristics.*

***Kalit so‘zlar:** jargon, argo, sleng sotsialektlar, sleng so‘zlar, kent, fenyā, kollokvializm, nostandart leksika, dialekt, yasma til, tarixiy jargon, zamonaviy jargon, ijtimoiy jargon, professional jargon.*

***Ключевые слова:** сленг, арго, социалекты сленга, кент, феня, просторечие, нестандартная лексика, диалект, письменная речь, исторический сленг, современный сленг, социальный сленг, профессиональный сленг.*

***Key words:** slang, argo, delete social objects, delete words, kent, fenyā, colloquialism, non-standard lexicon, dialect, written language, historical slang, modern slang, social slang, professional slang.*

Jonli so‘zlashuv tili shunchalik rivojlanib bormoqdaki, sotsiolektlar ham kundan kunga hayotimizga kirib bormoqda va ulardan qo‘llanish urf bo‘lmoqda. Radio, televideniya, gazeta, jurnallar, internet – barcha OAVlarida nostandart so‘z va so‘z birikmalarini qo‘llayotganliklari ko‘zga tashlanadi. Tilshunos olimlar ularni o‘rganish va turli lug‘atlarini tuzishga shoshmoqdalar, ammo ularning til tizimiga kirib kelish oqimi shunchalik tez amalga oshayaptiki, yangi so‘z, yangi ibora bilan lug‘at boyligimiz yangilanmoqda. Bu yangilanishlar sotsiolekt tarkibida o‘z aksini topadi. Turli kasb egalari nutqida uchraydigan jargon, argo, slenglarni sotsiolektning tarkibiy ko‘rinishlari sifatida baholash mumkin. Chunki tilning bu variantlari ham turli ijtimoiy sohada ma‘lum darajada joriylanib, o‘ziga xos emotsional-ekspressiv, semantik-stilistik ma‘no kasb etadi. Tilshunoslar «jargonizmlar, argotizmlar» termini o‘rniga mazkur leksik qatlamni «sleng so‘zlar» deb ham atay boshladilar.

Olimlar «jargon va argo», «maxsus slengmi» yoki «nostandart leksikaning alohida bir qismimi», degan savol uchun hali-hanuz bir to‘xtamga kelishgani yo‘q. Nostandart leksika milliy tilning bir qismi va uning qoidalari va tashqi ta‘sir doirasida rivojlanadi. Ba‘zida esa bu holatda tildagi so‘zlarga chet tilidan ham ibora yoki so‘zlar o‘zlashishi mumkin. Nostandart leksika lug‘atidagi so‘zlar asosan adabiy tildagi so‘zlarning tor yoki keng doirada turli ma‘no tashishi orqali asl ma‘nosidan to‘liq chiqib ketmagan holda, turli vaziyatlarda qo‘llanadi va rivojlanib boradi. Ta‘kidlab o‘tish joizki, tildagi bunday holatlar tasodifiy emas. Masalan, ingliz tilining nostandart leksikasining rivoji, asosan, olmon tillarining kelib chiqishi tarixi bilan xarakterlanadi. Shu jihatdan ham, leksika tarkibiga kiruvchi «kollokvializm», «jargon», «argo», «sleng», «kent», «fenyā» kabi terminlarning o‘rtasiga barobar alomatini qo‘ya olmaymiz.

Kollokvializm (ing. colloquialism < lot. colloqui – gapirmoq) – faqatgina so‘zlashuv nutqida qo‘llaniladigan so‘z va birikmalar.

Kollokvializmlar standart va nostandart leksika orasida turadi. Ba’zi tilshunoslar kollokvializumni ko‘proq nostandart leksika xos deya ta’rif beradi. Misol uchun, ingliz tilshunosi E.Partridj o‘zining «So‘zlar dunyosi» kitobida kollokvializumni standart leksika nisbatan «quyi»da, lekin slenglardan yuqorida turishini aytib o‘tadi¹.

«American Dictionary of the English Language» (Ingliz tilining Amerika xos lug‘ati, 1828) lug‘ati mualliflari esa kollokvializumni og‘zaki nutq va norasmiy yozma uslubga xos deb qaraydi va uni noadabiy yoki nostandart leksikaga bog‘liq yoki bog‘liq emasligiga fikr bildirishmaydi.²

Ko‘pgina tilshunos olimlar bu terminlar ostidagi hodisa bir narsa degan fikrda qolishmoqda. Asosiy lug‘atlarda ham «argo aynan jargon», «sleng aynan jargon» degan satrlarni o‘qiymiz. Demak, bu terminlar yo sinonim, yo teng huquqli, yo birini o‘rniga ikkinchisi qo‘llana oladigan so‘z sifatida qaralishi lozim. Jargon, argo va sleng terminlarini farqlash uchun, avvalombor, ularni kelib chiqishi va birlamchi ma’nosi o‘rganilishi zarur. «Jargon», «argo» tilshunoslikka fransuz tilidan, «sleng» ingliz tilidan kirib kelgan. Fransuz tilshunosligida «jargon» va «argo» terminlari qarama-qarshi termin sifatida uchraydi. Argo umumqo‘llaniladigan so‘z sifatida «kriminallar tili» va «maxsus sotsial guruh tomonidan qo‘llaniladigan notexnik leksika», etimologik jihatdan «jinoyatchilar jamiyati» («corporation des gueux») ma’nolarida qo‘llaniladi.³ Jargon «noto‘g‘ri, buzilgan til»,⁴ «yasama til»,⁵ «dabdabali yoki yashirin «dialekt»⁶ yoki sun‘iy o‘ylab topilgan, aniq bir guruh a’zolari uchun tushunarli bo‘lgan so‘zlar. Ayrim lug‘atlarda argo va jargon bir termin bo‘lib, «ijtimoiy birlashmalar fonida ijtimoiy va professional guruhlar qo‘llaydigan so‘z va iboralar majmuidir». Sleng esa, «inglizcha argo»⁷ yoki umuman bu xususda fikr bildirilmagan.⁸

Mazkur terminlar ta’rifiga nazar tashlasak, jargon (frans. *jargon*. – safsata) – biror ijtimoiy guruhning o‘ziga xos leksikasi, fonetikasi va grammatikasi bilan umumso‘zlashuv tili va mahalliy dialektlardan farq qiladigan tili. Jargon muayyan ijtimoiy muhitda yuzaga keladi va shular manfaatiga xizmat qiladi (mas, talabalar, harbiy xizmatchilar, turli kasb, mashg‘ulot egalari orasidagi jargon). Bunday jargonlarni kuchli rivojlangan va aniq terminlarga ega biror kasb tili bilan aralashmaslik lozim. Jargon ham leksik, ham uslubiy jihatdan turli-tuman, tezda o‘zgaruvchan, barqaror bo‘lmaydi. Mac, yoshlar orasida «ketdim» o‘rnida «sirpandim», «pul» o‘rnida «soqqa», «dollar» o‘rnida «ko‘ki»; san’atkorlar orasida «xizmat uchun haq olmaslik» o‘rnida «tom suvoq», «pul» o‘rnida «yakan» va hokazo jargonlar uchraydi⁹.

Boshqa adabiyotlarda, jargon – bu umumxalq tilidan o‘ziga xos leksikasi va frazeologiyasi bilan farqlanuvchi ijtimoiy nutq turi ekanligi ta’kidlangan. S.Ojegov va A.Shvedovaning «Rus tilininig izohli lug‘ati»da, bu «umumiy tildan farqli, jumladan, sun‘iy, ba’zan esa shartli ko‘plab so‘z va iboralar ega biror bir ijtimoiy yoki boshqa umumiy qiziqishlari bilan birlashgan guruh nutqi»¹⁰.

Tilshunoslikdagi barcha ta’riflarda jargonni yoshi jihatidan bog‘liq umumiy qiziqishlari bilan birlashgan biror bir muayyan ijtimoiy guruh nutqida namoyon bo‘lishi aytib o‘tiladi. T.G.Nikitina jargonga quyidagicha ta’rif beradi: *jargon* – «umumxalq tilidan farqli (ko‘pincha ekspressiv jihatdan qayta anglangan) o‘ziga xos leksikasi va frazeologiyasi hamda so‘z yasovchi vositalarning o‘ziga xos ravishda ishlatilishi bilan xarakterlanadigan ijtimoiy nutq turi»¹¹.

Y.M.Skrebnev tadqiqotida: jargon – professional va ijtimoiy guruhlarining nutqidagi adabiy tilning betaraf, norasmiy xarakterdagi va hazil-mutoyibaga boy so‘zlaridir, deb ta’kidlaydi. Uning fikricha, formal

¹ Partridge E. The World of Words. London, 1938.

² American Dictionary of the English Language.

³ <http://annababina.narod.ru/termin1.html>

⁴ Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik, Toshkent, “O‘qituvchi”, 2003, 31-bet.

⁵ Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik, Toshkent, “Talqin”, 2005, 201-bet.

⁶ Ўринбоев Б., Ўринбоева Д. Хозирги ўзбек тилининг сўзлашув услуби. Тошкент, “Фан”, 1991, 69-бет.

⁷ Petit Robert. 1: Dictionnaire alphabetique et analogique de la langue francaise. Paris: Les Dictionnaires LE ROBERT, 1992; Le Dictionnaire du Francais: Langue Francaise avec Phonetique et Etimologie. Hachette, 1992.

⁸ Dictionnaire du Francais Contemporain. Manuel et Travaux Pratiques pour L’Enseignement de la Langue Francaise. Paris, Librairie Larousse, 1971.

⁹ Ўзбек миллий энциклопедияси. Тошкент, «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 3-том, 2002, 567-бет.

¹⁰ Ожегов С., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. Москва, “Азъ”, 1992.

¹¹ Никитина Т.Г. Толковый словарь молодежного сленга. Слова, непонятные взрослым. М., “Астрель”, АСТ, 2003 (736 с), с. 4.

va hatto, betaraf soʻzlar jargon yaratuvchilar tomonidan oʻta bachkana, balandparvoz deb tan olmoqda. Jargondan foydalanish lisoniy xulq-atvoriga muayyan ravishda boʻysunmaslikni taqozo etadi¹.

P.V.Lixolitovning taʼkidlashicha, jargon – bu biror-bir kasb yoki biror-bir faoliyatga xos leksika hisoblanadi. Jargonlar nisbatan ochiq ijtimoiy yoki professional guruh nutqi, u adabiy tildan alohida soʻz va iboralari tarkibi bilan farqlanadi.² Olim jargonlarni deyarli professional nutq bilan tenglashtiradi.

D.N.Satimovanning yozishicha, «Jargon – qoʻllanishi kasb yoki boshqa tor doiradagi kichik ijtimoiy guruh bilan chegaralangan, umumtildagidan oʻzgacha leksik maʼno anglatuvchi, faqatgina oʻzi xizmat qiluvchi guruhdagi kasb-kor egalari yoki tabaqa vakillari nutqida ularning didlari va talablari yoki kasb-koriga oid turli tushunchalarni anglatuvchi ogʻzaki nutqqa xos soʻz va iboralar³».

N.S.Nasrullaeva esa, jargon borasida shunday xulosaga keladi: «Jargon – bu oʻxshash kasbiy va maishiy sharoitlarda qiziqishlari umumiy boʻlgan va oʻz vaqtlarini birgalikda oʻtkazadigan kishilar orasida yuzaga keluvchi soʻzlashuv nutqi xususiyatlari majmuyi; bu boshqa til vositalaridan bemeʼyoriyligi, harakatchanligi, qisqa davr ichida oʻzgarishga qodir til vositalarining kattagina sohasi. Jargon zamonaviy tilning leksik zaxirasini boyituvchi manba hisoblanadi».⁴

Jargoniizm – jargon soʻzlar va iboralar.⁵ Jargon leksikasi – bir emas, bir necha (ayrim yoʻqolib borayotgan guruhlar) ijtimoiy guruhlarga xos boʻlgan soʻzlar. Soʻzlarning bir qatlamdan ikkinchi qatlamga koʻchishi ularning maʼnosi va shaklining oʻzgarishiga ham olib kelishi mumkin. Masalan, rus tilidagi «*temnit*» – «*qoraytirmoq*» argo qatlamiga mansub boʻlib, «*skrivat dobichu*» – «*oʻljani yashirmoq*» yoki «*xitrit (na doprose)*» – «*(soʻroq paytida) nimanidir yashirmoq*», yoshlar jargonida esa «*govorit neponyatno, uvilivat ot otveta*» – «*tushunarsiz gapirmoq, gapni chalgʻitmoq/javobdan qochmoq*» maʼnolarini anglatadi. Demak, bir soʻz argo qatlamida ham, jargon qatlamida ham qoʻllanib, boshqa-boshqa maʼnolarni anglatadi.

Jargon soʻzlarni qoʻllovchi kishilar guruhi turli-tuman boʻlganligi sababli kelib chiqish xarakteriga koʻra turli boʻladi. Jargonlarning koʻpchiligi oʻtkinchi, vaqtincha boʻlib, ular davr, sharoit oʻzgarishi bilan oʻzgaradi. Baʼzan jargonlar oddiy soʻzlashuv nutqiga, baʼzan adabiy tilga oʻtib ketishi ham mumkin. Umuman, jargonlarga xos xususiyatlar quyidagicha:

1. Jargonlar adabiy tilda nomi boʻlgan narsa va hodisalarning boshqacha juda tor guruhdagi atamasidir.

2. Jargonlar har doim ekspressiv-stilistik buyoqqa ega boʻladi.

3. Koʻpchilik jargonlar oʻtkinchi, vaqtincha boʻlib, asta-sekin butunlay unutilib ketadi yoki emotsional-stilistik boʻyogʻi tufayli oddiy soʻzlashuvga undan umumqoʻllanishga, yaʼni chegaralanmagan leksikaga oʻtishi mumkin.

Jargonlarda soʻzlovchi jamoalar turlicha uyushadilar:

1. Qiziqishlariga, oʻrganib qolgan odatlariga qarab birlashgan guruhlarga xos jargonlar: ichuvchilar (*novcha, oqidan – aroq, qizilidan – vino*), bezorilar (*shuher – qoch, atanda – xavf-xatar*) kabi.

2. Yoshlariga va jinslariga koʻra birlashgan guruhlarga xos jargonlar: yosh bolalar (*fantik, juba-juba*) kabi.

3. Mashgʻulotlariga koʻra birlashgan guruhlarga xos jargonlar: talabalar (*yiqilmoq, shpori, X variant*).

4. Maʼlum kasb-hunar kishilar nutqida qoʻllaniladigan jargonlar: tikuvchilar (*romantik, klassik uslub, moda, ip, igna*) kabi.

Ayrim adabiyotlarda jargonlarning ikki tipini ajratishadi:

1. **Tarixiy jargonlar:** a) tarixiy asarlarda davr ifodasi sifatida; b) tarixiy temadagi asarlarda davr koloritini berish, qahramonlar nutqini individuallashtirish uchun qoʻllanilgan. Masalan, **omoch** esk.q.x. Ulov qoʻshib yer haydaladigan, metall tishli qadimgi eng oddiy yogʻoch yoki temir asbob. Omoch bilan yer haydamoq. *Hoʻkiz kallasini egib, omochni tortishga urinar, qoʻshchi esa hadeb qistar edi* (M.Ismoiliy. Fargʻona t.o.). *Dastlab, Olaxoʻjaning sigirlarini boqadi, keyin omoch qulogʻini ushlaydigan boʻlgach, qoʻshga chiqadi* (P.Tursun. “Oʻqituvchi”).

¹ Скребнев Ю.М. Основы стилистики английского языка. М., 2000, с. 66–72.

² Лихолитов П.В. Компьютерный жаргон. “Русская речь”, 1997, № 3, с.12–13.

³ Сатимова Д.Н. Инглиз ва ўзбек ёшлар сленгининг киёсий таҳлили: Филол. ф.бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. автор., Андижон. 2020, 11-бет.

⁴ Насруллаева Н.С. Ўзбек ва инглиз тилларида компьютер ва интернет жаргонларининг чоғиштирма тадқиқи. Филол.ф.бўйича фалсафа докт. (PhD) диссер. автор., Самарқанд, 2021, 47-бет.

⁵ Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка. М., 1958, с. 459.

Omoch-bo'yinturuq. Yer haydash uchun kerakli bo'lgan omoch, bo'yinturuq va boshqa asboblarni majmuyi.

2. **Zamonaviy jargonlar.** Zamonaviy asarlarda tilimizdagi kichik ijtimoiy guruhlarga oid so'zlar qahramonlar xarakteri, saviyasini ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Zamonaviy tilda jargon, asosan, yoshlar tilida keng tarqalgan va qo'llanilmoqda. Masalan, **sehrGAR** (o'g'rilar jargoni) – dasturlash jarayoni bilan bog'liq hodisa bo'lib, bir kun davomida boshqa dasturchilar bajara olmagan vazifani, bir necha daqiqada tuzatishga qodir bo'lgan dasturchiga nisbatan qo'llaniladi. **Cho'ntak** – qattiq diskni kompyuterga ulash uchun qurilma ma'nosida keladi.¹

Jargonlarni qo'llanishiga ko'ra ham ikki guruhga bo'linadi:

1. **Ijtimoiy jargon** ilk bor XVIII asrda feodallar tilida shakllangan («oqsuyaklar, aristokratlar» jargoni). O'tmishda mehnatkash xalqni ezish, ekspluatatsiya qilish maqsadida mansabdor shaxslar, din ahllari, savdogarlar, qalandarlar faqat o'z guruhlari uchun tushunarli bo'lgan sun'iy so'z va turg'un iboralar yaratganlar. Bunday so'z va iboralar yuqorida qayd etilgan guruhlarning to'laqonli obrazini yaratish uchun muhim stilistik vosita bo'lib xizmat qilgan. Jargon so'zlarning ma'nosi shartli va subyektiv xarakterga ega bo'ladi: *janobi oliy, davlatpanoh, hazrati oliy, zoti oliy* kabi turlicha balandparvoz so'zlar o'tmishda birgina «*amir*» tushunchasini ifodalash uchun xizmat qilgan.

2. **Professional jargon** kasbiy qiziqishlari bir bo'lgan bir guruh kishilar uchun tushunarli bo'lgan so'zlar. Ko'p holatlarda tushuncha va terminlarni ifodalash uchun soddalashtirilgan (qisqartirilgan, obrazli qisqa) so'zlar majmuidan iborat bo'lib, ma'lum kasb bilan shug'ullanuvchi kishilar tomonidan keng qo'llaniladi (uzun, qo'llanishga qiyin bo'lgan adabiy, umumqo'llaniladigan va aniq terminlar yoki ularning o'ziga xos, adabiy tilda umuman qo'llanmaydigan so'zlar). Bunday so'zlar deyarli barcha kasb egalari tomonidan qo'llaniladi.

Jargonlar mazmun jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi: *harbiy jargon, matbuotchilar jargoni, kompyuter slenglari, o'yin jargoni, tarmoq jargoni, razil, tuban kishilar jargoni, fidonet jargoni, yoshlar slengi, narkomanlar slengi, futbol fanantlarining slengi, mahbuslar jargoni, fenyas*.²

Jargonning lisoniy mohiyati – so'z o'yini, ekspressiv, emotsional bo'yoqdorli lisoniy ifoda vositalarini yaratish maqsadida so'z ma'nolarining metaforizatsiyalashuvi hamdir. Shunday qilib, jargon – bu o'xshash kasbiy va maishiy sharoitlarda qiziqishlari umumiy bo'lgan kishilar orasida yuzaga keluvchi so'zlashuv nutqi xususiyatlari majmui bo'lib, zamonaviy tilning leksik zahirasini boyituvchi manbai hisoblanadi.

Jargon badiiy ijodda asar qahramoni xususiyati, tabiatini ochib berish uchun xizmat qiladi. Jargonlar turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar vakillarining bir-birlari bilan aloqa qilishida yoki turli xalq vakillari yig'iladigan joylar (mas, chegara, portlar)da ham paydo bo'ladi. Jargonlar qaysi ijtimoiy guruh orasida yuzaga kelgan bo'lsa, deyarli faqat shu guruh vakillari uchun tushunarli bo'ladi, shu toifadagilarning vaziyat, sharoit taqozosiga ko'ra boshqalardan yashirin tutiladigan maqsadlariga xizmat qiladi.

Demak, bir so'zning o'zi shaklan o'zgarib turli davralarda turlicha ma'nolarda qo'llanishi mumkin. Ammo badiiy adabiyotda jargon va argolarni me'yoridan ortiq ishlatish adabiy tilni buzadi, soddalik o'rnini chalkashlik egallaydi.³

XX asr oxirlarida tilshunoslarning fikricha, jargonni to'ldiruvchi hodisalardan biri **argo** sanaladi.⁴

Tilshunoslikka oid adabiyotlarda **argo** xususidagi bahs-munozaralar turli tuman. Fransuzlarda argo XV asrda shoir Fransua Viyon balladalarida keltirilgan bo'lib, ma'lum kishilar guruhi uchungina tushunarli bo'lgan so'zlar sifatida qaralgan. Germaniyada argo – yevrey va italyan tilidan kirgan so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilinishidan hosil bo'lganligini ta'kidlab, XX asrning o'rtalarida talabalar nutqida keng foydalanishini keltirishadi. Amerikada argo turli ijtimoiy guruhlarning boshqalarga tushunarli bo'lmasligi uchun qo'llagan o'ziga xos so'zlar majmui sifatida qarashadi.

Argo (fr. *argot*) – ma'lum bir ijtimoiy kelib chiqishi jihatdan bir guruhga mansub kishilar tili bo'lib, o'ziga xos leksikasi va qo'llanishi bilan xarakterlanadi, ammo o'zining fonetik va grammatik tizimiga ega bo'lmagan so'zlar majmuyi.⁵ Jahon tilshunosligida argo terminini turlicha keltirishadi: Italiyada *furbesco*

¹ Насруллоева Н.С. Ўзбек ва инглиз тилларида компьютер ва интернет жаргонларининг чоғиштирма тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалс.докт. (PhD) диссер., Самарқанд, 2021, 48-бет.

² <https://ru.wikipedia.org/wiki/жаргон>.

³ Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. Тошкент, 1985, 58-бет.

⁴ https://www.yaneuch.ru/cat_03/anglijskij-sleng-i-osobennosti-ego/420234.2809208.page1.html.

⁵ <https://ru.wikipedia.org/wiki/апро>.

(ital. furbo – sirli, ayyor) «kent» termini, Fransiyada – *argot*, Ispaniyada – *calu*, Germaniyada – *Rotwelsch* (ya'ni o'g'rilar tili), portugal tilidagi «*kalao*» (Calao) deb atashadi.¹

Y.Andreevskiy yozishicha, «podolsk lirnklari (qadimgi Ukraina va Belorussiyada lira chalib kuylovchi xonanda) chambarchas bog'liq korporatsiya tuzib, o'zaro muloqot tillarini boshqalardan sir saqlashgan, begona kishi bo'lmagan paytda, biror begona kishiga eshittirmaydigan qilib suhbatlashishgan²». Ammo zamonaviy tilshunoslar mazkur o'xshash qarashlarni inkor etganlar. Jumladan, «sun'iy tilni yaratish mutaxassis bo'lgan kishidan ham murakkab mehnat talab qiladi, shunday ekan, niyati buzuq kishilar so'z o'yinidan holi bo'lgan oddiy vulgar tilda suhbatlashadilar»,³ «ekspressiv buyoqqa ega bo'lmagan, manfaat asosiga qurilgan nutq»,⁴ «qadim an'analarga tayanadigan, buzilmaydigan qonun-qoidalarga ega, temir shtamp, cheksiz reglament va ijodiy yangilik zarur bo'lgan «lager nutqi»,⁵ «o'g'ri, qimorbozlar nutqi», «yangi so'z ijod qilish tizimi, poetik usullar orqali matn, ibora, so'z yaratish tizimi, poetikaning bir turi... Argo nafaqat «sotsial dialekt» ...argo madaniyat va tilning munosabat birligidir».⁷

Argo mazmun jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi: *umumjinoiy argo, qamoqxona argosi, maxsus argo, antikvar buyumlar o'g'risi argosi, kissavurlar argosi, shulerlar argosi, narkomanlar argosi, ot o'g'rilar argosi*.

Shundan kelib chiqib, argo quyidagi leksik-mavzuviy guruhlariga ajratiladi: a) sinfsizlashgan elementlar; b) jinoyatchilar qurboni; d) jinoyatchilar quroli va jinoiy qurol; e) jinoyat; f) jinoiy faoliyat; ye) huquqni himoya qiluvchi organlar vakili; g) ozodlikdan mahrum qilingan joy; h) qamoqxonada kundalik buyumlar; i) ijtimoiy, professional, yosh va psixologik tavsifiga ko'ra kishilar; j) kishining tana a'zolari; l) pul va qimmatbaho buyumlar; k) spirtli ichimliklar va narkotiklar.

M.Mirtojiyev bu borada quyidagilarni ta'kidlaydi: «Jargon jamoadagi tabaqalanish bo'yicha o'z ta-baqasi va qarshi tabaqaga qo'llanadigan terminlardir. Masalan, *aslzoda, oqsuyak, yalangoyoq, qoracha, xo'ja, janob, hazrati oliy* kabi terminlarini ko'rsatish mumkin»; «Argo ma'lum soha vakillarida qo'llanilib, boshqalar uchun sir tutiladigan terminlardir. Masalan, o'g'rilar argosida pul *loy*, narsasini o'g'irlatgan shaxs *harf* va h.k.»⁸

Ayrim tilshunoslar esa *sleng jargon, professionalizm, so'zlashuv nutqi, vulgarizm, jonli so'zlashuv nutqi* bilan tenglashtiradi va adabiy tilga qarama-qarshi qo'yishadi (I.V.Arnold, A.I.Smirkinskiy, V.A.Xomyakov, A.D.Shveyser),⁹ ba'zilar sinonim sifatida qo'llashadi.¹⁰ Sleng sifatida qo'llanilib kelingan ko'pgina oborotlar bugungi kunda adabiy til me'yoriga o'tganlar.¹¹ Masalan, rus tilidagi «*shpargalka*», «*shumixa*», «*provalitsya*» («*poterpet neudachu*» ma'nosida) kabi so'zlar. Biroq ko'pgina tilshunoslikka oid adabiyotlarda, slengga berilayotgan ta'riflarda, *sleng* tarqoq sotsiolektlarning til elementlari yig'indisini yaxlit

¹Заграевская Т.Б. Этносоциолексиграфический инструментарий стратификации английского афроэтносубъязыка: опыт Дж.Хоттена. Филология и культура. Philology and Culture. 2013, № 1 (31), с. 44–48.

² Воровской язык. Энциклопедический словарь. 1892, с. 45.

³ Липатов А.Т. Русский сленг и его соотносительность с жаргоном и арготом. Семантика и корни ее реализации. Краснодар, 1994, с. 87.

⁴Салеев В.А. Об основных этапах эволюции арготического слова. “Русский язык в школе”, М., “Флинта”, 1996, с. 102.

⁵ Довлатов С.Д. Зона. Записки надзирателя. СПб., “Азбука-Классика”, 1993, с. 80.

⁶ Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik, T., “O'qituvchi”, 2003, 31-bet; Ўринбоев Б., Ўринбоева Д. 1991, 69-bet.

⁷Елистратов В.С. Русское арготом в языке, обществе и культуре. “Русский язык за рубежом”, М., № 1, 1995, с. 40.

⁸Миртожиев М.М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. Ўқув қўлланма, Тошкент, ЎзМУ, 2000, 54 – 58-бет; Раҳимов Ф.Х. Британия ва Америка сленгининг социолингвистик хусусиятлари. Фал. фан.номз. ... дисс., Самарқанд, 2006, 37-бет.

⁹ Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. М., Изд-во лит-ры на ин. яз., 1973, с. 90; Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. М., “Высшая школа”, 1956, с. 246; Хомяков В.А. Структурно-семантические и социально-стилистические особенности английского экспрессивного просторечия. М., “Высшая школа”, 1974, с. 105; Швейцер А.Д., Введение в социолингвистику. М., “Высшая школа”, 1983, с. 92.

¹⁰Калита И.В. Стилистические трансформации русских субстандартов или книга о сленге. М., “Дикси Пресс”, 2013, 240 с.

¹¹Орлова Н.О. Сленг и жаргон: проблема дефиниции. Ярославский педагогический вестник. Ярославль, Ярославский государственный педагогический университет имени К.Д.Ушинского, 2004, № 3 (40).

tizimidir, deb berilgan. The Dictionary of American Slang ta'kidlashicha, *sleng* muayyan ijtimoiy kichik guruhlarga xos bo'lgan ko'pgina til tashuvchilarining nutqiga singib borgan so'zlarda yuzaga keladi.¹

Demak, tahlillardan ko'rinib turibdiki, *jargon*, *argo* va *sleng* tushunchalarini bir-biridan farq qilish lozim. Adabiyotlarda keltirilishicha, ularni o'zaro farqlashda har bir leksik qatlamning funksional xususiyatlariga diqqat qaratish lozim.

Safarova Umida Aliaskarovna (Samarqand davlat Chet tillar instituti, filologiya fanlari doktori;

e-mail: umidalolik@mail.ru)

KONTAMINATSIYALASHGAN SO'ZLARNING RASMIY MODELLARINING LEKSIK VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada muallif struktur tiplar va kontaminatsiya modellari nafaqat nazariy ma'noga, balki amaliy ma'noga ham ega ekanligi ko'rib chiqqan. Ushbu tiplarni va modellarni o'rganish so'zlarning aniq tarkibini ajratish imkonini beradi va yangi kontaminatsiyalashgan so'zlarning shakllanish yo'llarini aniqlash mumkin. Muallif ta'kidlashicha, kontaminatsiyalashgan birlikning paydo bo'lishi tildagi mavjud so'zlarning ma'nosini kuchaytirishni talab qilishi bilan bog'lanadi, o'ziga xos, bir mazmunli bo'lmagan ma'no kuchining kengligi tilni stilistik jihatdan aniq sayqallangan so'zlar bilan to'ldiradi va bir qator konnotativ xususiyatlarni ifodalaydi.

Аннотация. В статье автор рассматривает структурные типы и модели контаминации, которые имеют как теоретическое, так и практическое значение. Изучение данных типов и моделей даёт возможность выделить точный состав слова и предсказать пути, по которым пойдёт образование новых контаминированных слов. Автор отмечает, что появление контаминированных единиц связывается с потребностью усилить семантику бытующих в языке слов, придать новообразованиям своеобразный, неоднозначный заряд семантической емкости, пополнить язык стилистически ярко окрашенными словами, выражающими целую гамму коннотативных признаков.

Annotation. In the article, the author considers structural types and models of contamination that have both theoretical and practical importance. The study of these types and models makes it possible to highlight the exact composition of the words and predict the ways in which the formation of new contaminated words will go. The author notes that the appearance of contaminated units is associated with the need to strengthen the semantics of the words in the language, to give the neoplasms a kind of ambiguous charge of semantic capacity, replenish the language with stylistically brightly colored words, expressing a whole range of connotative signs.

Kalit so'zlar: so'z birikmasi, tarkibiy model, kontaminatsiyalangan birlik, rasmiy model, dastur, lug'atni yangilash.

Ключевые слова: словослияние, структурная модель, контаминированная единица, формальная модель, аппликация, лексическое новообразование.

Key words: word combinations, structural model, contaminated unit, formal model, application, lexical renewal.

Kontaminatsiya (lotincha contaminatio – tutashtirish, aralashish) so'zining ma'nosi ostida (yoki undan ortiq) natijasi yangi lingvistik (yoki nutq) birlik shakllanishiga olib keladigan til birliklari elementlarining tarkibiy o'xshashligi yoki o'ziga xosligi, funksional yoki semantik yaqinligi asosida birlashishi tushuniladi.

Yangi kontaminatsiyalangan so'zlarni shakllantirish yo'llari, ularning modellari va strukturaviy komponentlarini o'rganish nazariy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Zamonaviy fransuz tilining olimlari va tadqiqotchilari uchun dastlabki qada, odatda, o'ziga xos birlik – kontaminatsiyani yaratish uchun asos bo'lgan asl so'zlarni kesishish tabiati hisoblanadi. Aynan shu tamoyil tilshunoslar tomonidan taxmin va taklif qilingan kontaminatsiyalangan so'zlarning tasnifini yoritib berishda yetakchilik qiladi.

Bizning fikrimizcha, kontaminatsiyalangan so'zning tarkibiy qismlarini kesish va uni birlashtirish tabiati modellar va turlarni ajratib ko'rsatish uchun asosiy mezon ekanligini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Shu munosabat bilan, dastlabki nazariy asoslarga asoslanib, tadqiqotchilar har xil raqamli va tarkibdagi modellarni taklif qilishdi.

Biz tanlangan ilmiy tadqiqot mavzusi ustida ishlash davomida ikkita tarkibiy modelini aniqlagan T.R.Timoshenko (1976) [5] hamda S.V.Raylyan va A.Y.Alekseyevlarning frantsuz tilida stilistik fe'l so'z

¹ The Dictionary of American Slang.

birikmasini o'rganib, kontaminatsiyalangan tuzilmalarning xususiyatlarini ta'kidlab, ularni to'qqizta tarkibiy modelga ajratgan nuqtayi nazariga e'tiborni qaratish lozim deb hisoblaymiz.

Strukturaviy modellar soni tarkibiy qismlarga, ya'ni, kontaminatsiyalangan so'zning tarkibiy qismlarini boshlang'ich/oxirgi qismlarga, so'zning birinchi-ikkinchi yarmiga, so'zning to'liq shakli va leksik asosiga bo'linishi tufayli ortib boradi.

V.M.Leychik, A.Y.Muradyan, S.V.Raylyan va A.Y.Alekseyev, A.P.Sokolenko, T.R.Timoshenko, shuningdek, J.Algeo, A.Goossaning tadqiqotlarida kontaminatsiyalangan so'zlarni klassifikatsiya qilishning o'ziga xos chuqur urinishlari kuzatiladi.

Yuqorida qayd qilinganlardan kelib chiqqan holda, fransuz tilida kontaminatsiyalangan so'zlarning quyidagi rasmiy modellarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir:

– birinchi so'zning bosh qismi va to'liq ikkinchi so'z: *mosamétal=mosaique+métal, Sénégal = Sénégal+Gambie*;

– birinchi so'zning bosh qismi va ikkinchi so'zning oxirgi qismi: *mobotmobile+robot, Parly = Paris+Marly; phalanstère=phalange+monastère*;

– birinchi so'zning bosh qismi va ikkinchi so'zning bosh qismi: *Nickinox=nickel+inoxidable, plastisol=plastique+solide, cinévog = cinéma+vogue*;

– to'liq birinchi so'z va ikkinchi so'zning bosh qismi: *bétonac = béton+acier, duralumin = Düren/dur+aluminium, vidéotex = vidéo+textes*;

– birlashuv joyidan to'liq birinchi so'z va butun ikkinchi so'z: *libérationnement = libération+ rationnement, Parissec=Paris+sec, voyageance = voyage+agence*;

– to'liq birinchi so'z va ikkinchi so'zning oxirgi: *cinématurge = cinéma+dramaturge, Reagonomie = Reagan+économie, savanturier=savant+aventurier*;

–to'liq ikkinchi so'z birinchi so'zning o'rtasiga uning bosh va oxirgi qismlari orasiga “joylashtirilgan” bo'ladi: *écrivaineux = écrivain+vain+-eux, ridicoculiser=ridiculiser+cocu*;

– ikkinchi so'zning bosh qismi birinchi so'zning o'rtasiga ya'ni uning bosh va oxirgi qismlari o'rtasida “joylashtirilgan” bo'ladi: *consombrition=consomption+sombre, -conjabuler=confabular+jaser/jaboter/jacasser*;

– uch yoki undan ortiq dastlabki so'zlarning birikmasi, ularning qismlari bilan ifodalanadi, qoidaga ko'ra kesishgan asoslari bilan: *se rebimbeler = rebiffer+regimber+serebeller* [2.3.6].

Fransuz tilining leksik kontaminatsiyasining rasmiy modellarining yuqorida qayd qilingan turlari turli xil mahsuldorligi bilan ajralib turadi. So'z boyligini shakllantirish usuli sifatida kontaminatsiyaning yuqori darajadagi hayotiylikini ta'kidlagan holda, biz unda ikkita eng samarali rasmiy modellarni ajratib ko'rsatamiz:

1) birinchi so'zning bosh qismi va butun ikkinchi so'z;

2) birinchi so'zning bosh qismi va ikkinchi so'zning oxirgi qismi.

Tuzilishi jihatidan ular ikki bo'lakli bo'lib, ularning oldingi va keyingi qismlarga bo'linishi ba'zi hollarda shaklni ikki tomonlama talqin qilishga imkon beradigan ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi [1].

Tuzilishning ushbu ikki tomonlamaligi ularning tarkibida haplologik “chok”ning mavjudligida, ya'ni, turli xil uzunlikdagi bo'g'inlarda bir xil tovushlar (yoki harflar)ning qo'shilishi bilan izohlanadi. Rasmiy kontaminatsiya modeli *nostalgérie=nostalgie+Algérie* varianti, birinchi so'zning bosh qismi va to'liq ikkinchi so'z boshqa bo'linish varianti bilan bo'lishi mumkin; birinchi so'zning bosh qismi va ikkinchi so'zning yakuniy qismining rasmiy modeli, xuddi quyidagi so'zlardagi kabidir: *télévoyageur=télévision-voyageur, volumétre=volume+métre*. Unumdorlik nuqtayi nazaridan, birinchi ikkita model ikkinchi so'zning to'liq birinchi va yakuniy qismiga qo'shiladi [1].

Prefragmentning yaxlitligi ko'p hollarda gaplologik chok va avtonom bo'lmagan yunon-lotin formantlariga to'liq shaklning shartli maqomini berish orqali aniqlanadi. Aks holda, ushbu tuzilmaning kontaminatsiyalangan so'zlari rasmiy modelga tegishli hisoblanar edi. Masalan: *aquatel=aqua+hotel* yoki ikkinchi so'zning to'liq birinchi va oxirgi qismi modeliga mos keladigan *tachypfaylaxie=tachy+prophylaxie* va strukturaviy jihatdan boshlang'ich qismi sifatida modellashtirilgan *tachyarythmie=tachycardie+arythmie* so'zlarini solishtirish mumkin.

“To'liq birinchi so'z va to'liq ikkinchi so'z” modeli o'ziga xosdir. Uning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, dastlabki so'zlar paydo bo'lgan kontaminatsiyalangan so'zda ularning yaxlit shakllarining ifodalanganiligi kuzatiladi va ularning moddiy shaklining pasayishiga faqat birinchi so'zning cheklangan elementlarini ikkinchi so'zning bir xil boshlang'ich elementlari bilan qo'shilishi tufayli erishiladi. Bunday

soʻzlar eng muvaffaqiyatli shakllanishlar qatoriga kiradi. Qoʻshiladigan soʻz shakllarining reduksiyasi soʻz gapologiya orqali amalga oshirilganligi tufayli ikkala prototipning barcha shakllarini aniqlashni osonlashtiradi, masalan: *libérationnement=libération+rationnement*, *vacuumxêtre=vacuum+mètre*, *voyagence=voyage+agence* [2].

Postfragment sifatida soʻzning oxirgi qismini oʻz ichiga olmadigan kontaminatsiyalangan soʻzlarining rasmiy ogʻzaki “toʻliqsizligi” – fleksiyaning yoʻqligi tufayli eng munozarali mulohazalarga sabab boʻladi. Ushbu shakllanishlar “birinchi soʻzning bosh qismi va ikkinchi soʻzning bosh qismi” va “butun birinchi soʻz va ikkinchi soʻzning bosh qismi” rasmiy modellariga mos keladi.

Ushbu namunalardagi keyingi fragment ikkinchi soʻzning ixtiyoriy kesilishi bilan boʻlishi mumkin: *bétonac=béton+acier*, *cinéac=cinéma+actualité*, *vidéotex=vidéo+textes*, grek-lotin formantlari: *Clignauto=clignot+automobile*.

Koʻrib chiqilayotgan modellarning kontaminatsiyalangan soʻzlari, baʼzi tilshunoslar tomonidan boʻgʻin abreviatsiyasiga tarkibiy yaqinligi tufayli murakkab qisqartirilgan birliklar toifasiga kiradi. Shubhasiz, bu holda soʻzlarning boshlangʻich boʻlaklari yoki butun birinchi va ikkinchisining boshi bilan tuzilgan soʻzlarning maqomini aniqlashda faqat oxiri maʼlum boʻlgan xulosa birliklarining rasmiylashtirilmaganligidan kelib chiqish yetarli emas. Birinchidan, postfragmentning yakuniy elementlari bir nechta soʻzlarda, hatto bir nechta tillarda takrorlanadi, masalan: *Platinox*, *duralinox*, *télex*, *gym-relax*, *chloral*, *lanital*, ikkinchidan, yakuniy elementlar oddiy soʻzlarning odatiy natijalari bilan shaklga mos keladi, masalan, *Météosat=météorologie+satellite*, *motofore=moteur+foreuse*.

Ikkinchi soʻzni birinchi soʻz bilan birlashtirish yoki uni ikkala manba soʻzlari uchun umumiy boʻlgan bir xil tovushlar (harflar)ni oʻz ichiga olgan elementda qoʻllash, masalan: *famillionosire=familier+millionnaire*, yaʼni, soʻzlararo qoplama yoki oddiy biriktirma, birinchisiga “qoʻshish” orqali *tuponnel & tunnel+pont* amalga oshiriladi [4].

Olingan kontaminatsiyalangan shakllanishda uning qismlari bilan ifodalangan uch yoki undan ortiq dastlabki soʻzlarining kombinatsiyasi, qoida tariqasida, kesilgan asoslar, yanada murakkab tarkibiy tuzilish bilan tavsiflanadi, koʻp boʻlakli hisoblanadi, chunki hosil boʻlgan qorishma bir nechta leksik birliklarning parchalarini oʻzlashtiradi, masalan, kontaminatsiyalangan *pitrécranthrope* soʻzi quyigadi soʻzlardan *pitre+écran+pithécanthrope*, kontaminatsiyalangan soʻzi *copocléphile-collection deporte-clé+philedan* iborat.

Mustaqil shakllangan soʻzlar orasida *agendarme=agent+agenda+gendarme+arme* (PFI, II qism) soʻzi kontaminatsiyalangan soʻzga qiziqarli misol boʻlishi mumkin.

Kontaminatsiya yordamida yangi soʻzlar hosil boʻlgan barcha hollarda eng tabiiy shaklga, soʻzning eng keng tarqalgan klassik belgilariga ega boʻlgan soʻzlarga yaqin boʻlgan lingvistik birliklarini yaratishda aniq tendentsiyaning namoyon boʻlishi kuzatiladi. Umuman olganda, kontaminatsiyalangan soʻz oddiy soʻzlar kabi hosil boʻladi (natijada bitta boʻlib qoladi), ammo ularning strukturaviy tuzilishi va tovushining gʻayrioddiyligi, ayniqsa ularni yasalishining keyingi davrida, ularning murakkab ikki yoki undan ortiq tarkibiy qismlaridan iboratligini koʻrsatadi.

Olingan leksik birliklarning grammatik toifalarga mansubligi nuqtayi nazaridan olib qaralsa, kontaminatsiyalangan soʻzlarning aksariyat qismi ot soʻz turkumiga tegishlidir [5].

Kontaminatsiya usuli bilan hosil boʻlgan lugʻatning grammatik bir xilligi (uning, asosan, substantiv xususiyati), asosan, namuna olish massivining asosini ilmiy-texnik tushunchalar va predmetlilikni kontaminatsiyaning asosiy leksik-grammatik vositasi sifatida ifodalanihini atamalar tashkil qiladi.

Har bir leksik yangi hosil boʻlgan birlik kontaminatsiya jarayonida oʻziga xos grammatik kategoriya sifatida shakllanadi. Dastlabki soʻzlarning boʻlaklariga umumiy qoʻshiladi, ot yoki sifat suffiksi, feʼl qoʻshimchasi, agar hosil boʻlgan birlik uning qisman bogʻliqligini oʻzgartirsa, masalan: *raffi-ner+fignoler+-esque=raffignolesque*, *béguéule+gueulard+-er=béguéularder*. Biroq yangi kontaminatsiyalangan soʻzning grammatik tuzilishi, kamdan kam hollarda, shakllanishning ikkinchi tarkibida ikkinchi soʻzning bosh qismi boʻlganida odatiy holat hisoblandi.

Qoidaga koʻra, rasmiy model–bu birinchi soʻzning bosh qismi va ikkinchi soʻzning bosh qismi, shuningdek, toʻliq birinchi soʻz va ikkinchi soʻzning bosh qismi mohiyatan, otlar bilan toʻldirilgan va natijada paydo boʻlgan qorishmalar nutqning bir qismiga ham tegishli, masalan, *Nickalumin=nickel+aluminiumo*, *nifé=nickel+fer*. Tez-tez ot va sifat qismlarining birlashishi natijasida hosil boʻlgan otlar kuzatiladi, masalan, *Manuplas=manuel+plasma*, *radiosol=radiation+solaire*, *autoplas=automatique+plasma*.

Shunday qilib, biz tomonimizdan oʻtkazilgan tahlildan kelib chiqadiki, fransuz tilidagi barcha kontaminatsiyalangan soʻzlarni quyidagilarga boʻlish mumkin:

–toʻliq, ikkala soʻzning kesilgan shakllari birlashganda toʻliq, ularning prefragmentlari va postfrag-

mentlari turli pozitsiyalarda;

–qisman, fragmentlardan biri qisqartirilmagan shaklda ifodalanganda,

–gaplogik, bo‘lingan va bir vaqtning o‘zida ustma-ust qo‘yilgan kontaminatsiyalangan so‘zlarga va birlashtirilgan so‘zlarning moddiy shaklini kamaytirmasdan ustma-ust qo‘yilgan kontaminatsiyalangan so‘zlarga aratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Leychik V.M. Об одном малоизученном способе словообразования («Телескопные слова» современного французского языка). Filol. fanlar., 1966, № 3, с. 14 – 20.
2. Mamatov A.E. Проблемы лексико-фразеологической нормы в современном узбекском литературном языке. Dok. diss.avtoref., T., 1991, с. 46.
3. Muradyan A.Y. Словослияние в современном английском языке (специфика, динамика, теория). Dok. diss. Avtoref., L., 1978, с. 15.
4. Railyan S.V., Alekseyev A.Y. Некоторые проблемы стилистического словообразования. Kishinyov, “Shtiintsya”, 1980, с. 200.
5. Timoshenko T.R. Телескопия в словообразовательной системе английского языка. Filol. fan.nomzodi diss. avtoref., Kiyev, 1976, с. 26.

**Xudjayeva Ra’nohon Mitalibjonovna (A.Navoiy nomidagi TDO‘TAU “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”
kadefrasi dotsenti, PhD; e-mail: bagira81@inbox.ru)**

O‘ZBEK VA INGLIZ TILI IZOHLI LUG‘ATLARIDA OMONIMLAR VA POLISEMIYASINING BERILISH MASALASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz izohli lug‘atlarida omonim va ko‘p ma’noli so‘zlarni uzatish muammosi o‘rganiladi. Maqolada, asosan, o‘zbek va ingliz tilidagi izohli lug‘atlarni yaratishda qo‘llanilgan yondashuvlarni qiyoslash va tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, omonim va polisemiya ma’no-larini yetkazishning samaradorligi va to‘g‘riligiga asosiy e’tibor qaratilgan.

Аннотация. Данная статья исследует проблему передачи омонимов и полисемии в узбекских и английских толковых словарях. Статья в основном сосредоточена на сравнении и анализе подходов, используемых при создании узбекских и английских толковых словарей, с основным упором на эффективность и точность передачи значений омонимов и полисемии.

Annotation. This article explores the problem of transmitting homonyms and polysemy in Uzbek and English explanatory dictionaries. The article mainly focuses on the comparison and analysis of the approaches used in the creation of Uzbek and English explanatory dictionaries, with the main emphasis on the efficiency and accuracy of conveying the meanings of homonyms and polysemy.

Kalit so‘zlar: omonimlar, polisemiya, o‘zbek tili, ingliz tili, izohli lug‘atlar, ma’no ko‘chirish, samaradorlik, aniqlik.

Ключевые слова: омонимы, полисемия, узбекский язык, английский язык, толковые словари, передача значений, эффективность, точность.

Key words: homonyms, polysemy, Uzbek language, English language, explanatory dictionaries, transfer of meanings, efficiency, accuracy.

Im fanda ekvivalentlik, shu jumladan, polisemiya va omonimiyani chegaralash masalasiga oid boy va qiziqarli materiallar to‘planganligiga qaramay, ko‘plab olimlar uchun ushbu til hodisalari sohasidagi tadqiqotlar dolzarb bo‘lib bormoqda. Qolaversa, tilshunoslik rivojining yangi bosqichida ko‘p ma’nolilik muammosiga, polisemiya va omonimiya o‘rtasidagi munosabat tabiatiga bag‘ishlangan asarlar bugungi kunda, ehtimol, avvalgidan ham ko‘proq talabga ega. Albatta, bu muammoga qiziqish til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatlarga, tilni bilishning asosi bo‘lgan jarayonlarga, jumladan, gaplarni yaratish va tushunish jarayonlariga qiziqishning natijasidir.

Omonimlar, bir qarashda, tilshunoslikning sof nazariy muammosidek ko‘rinsa ham, aslida, uning pragmatik tomonlari tildagi muammolarga yechim topilishida muhim amaliy ahamiyatga egadir. Shu o‘rinda ayrim omonimlarga alohida to‘xtalishni lozim topdik.

Birinchidan, omonimlar til tarixini o‘rganishda muhim ma’lumotlar bazasi va arxiv manbalar sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ularni o‘rganishda ham sinxron, ham diaxron tahlil parallel amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, ma’lum bir til materialida omonimlarni o‘rganish o‘sha tilning tarixiy taraqqiyoti evolutsiyasini va dinamikasini ilmiy asoslashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, hozirgi kunda til tarixi, diaxron tilshunoslik va tarjimashunoslik sohasidagi tadqiqotlar soni juda ozchilikni tashkil etadi. Bizningcha, omonimlarning elektron lug‘atini yaratish to‘liq bo‘lmas ham, qisman shu “bo‘shliq”ni to‘ldirishga xizmat qiladi. Ya’ni o‘zbek va ingliz tillari leksikonining tashqi manbalari asosida boyishi jarayonining tadrijiy taraqqiyoti omonimlar bilan ham uzviy aloqadordir. Bunda til tarixining turli bosqichlarida omonimlarning miqdoriy tarkibidagi o‘zgarishlar, omonimik qatorlarda yuz bergan turli o‘zgarishlar, til tarixining muayyan davrida tilga kirib kelgan va iste’moldan chiqib ketgan omonimlarning aniq miqdoriy munosabati, omonimlarning til taraqqiyotidagi o‘ziga xos o‘rni kabi jihatlarga alohida e’tibor qaratilishi lozim. Chunki qayd etilgan muammolar tilshunoslikda haligacha o‘zining aniq yechimini topmagan va maxsus tadqiq etilmagan. Shu bois bizning tadqiqotimizning bir qismini leksikografiya bilan bog‘lashga jazm etdik.

Ko‘p asarlarda muammoning rivojlanmaganligi haqida bayonotlar beriladi, bu, asosan, leksikografik amaliyotda o‘z aksini topadi. Bu haqida R.S.Ginzburg shunday yozadi: “Leksikografiya tishunoslik fanining darajasini aks ettiradi va ko‘p jihatdan ma’lum nazariy pozitsiyalarning haqiqatini tekshiradigan “amaliyot”idir. Masalan, omonimiya talqinidagi nomuvofiqlik va turli xil nazariyalar barchaga ma’lum. Shunday ekan, ingliz tilidagi polisemiya, asosan, semasiologiyaning haligacha hal etilmagan muammolarning obyektiv murakkabligi, xususan, omonimiya va polisemiyaning o‘rtasidagi farq hamda so‘zlarning individual ma’nolarini ajratishning ishonchli mezonlarining yo‘qligi bilan izohlanadi”.¹

I.R.Galperin BARS so‘z boshida shunday yozadi: “...hatto juda obro‘li ingliz va amerika lug‘atlarda, masalan, buyuk Oksford va Vebster lug‘atlarida ham omonimlarning taqsimlanishida hayratlanarli darajada nomutanosiblik mavjud”.²

Omonimlar xorijiy badiiy asarlarni tarjima qilishda, tillarni mukammal egallashda o‘ziga xos “to‘siq” bo‘ladi, ma’lum qiyinchilik va murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Bir xil lisoniy shakl turli xil ma’no-larga ega bo‘lishi va omonimlarning matnni idrok etishda o‘quvchini qiyin ahvolga solishi mazkur birliklarni tadqiq etishning yana bir pragmatik tomonini ko‘rsatib beradi.

Til o‘qitish jarayonida omonimlar bilan bog‘liq muammolar asta-sekin tilni mukammal kontekstga bog‘lab o‘rganish asosida hal etilishi mumkin. Lekin omonimlar bilan bog‘liq muammolarni mazkur metod bilan hal etib bo‘lmaydi. Bu jarayonda omonimlar ro‘yxatini aniq belgilab olish hamda ularning ishlatilishi va ma’nolari bilan bog‘liq etimologik izohlar, sharhlar yordamida tavsiflash, so‘ng yagona lug‘atga jamlash lozim. Bir so‘z bilan aytganda, omonimlarning kitob shaklidagi lug‘atini va maxsus elektron lug‘atini yaratish lozim. To‘g‘ri, shu kunga qadar ko‘plab omonimlar lug‘ati yaratilgan, lekin ularning birida omonimlar o‘ziga o‘xshash hodisalar bilan yondash va aralash holda tavsiflangan. Xususan, R.Bridjzning omonimlar ro‘yxatida 800 omonimik guruh keltirilgan.³ Ushbu asarning ahamiyati shundaki, unda faqatgina talaffuz jihatidan bir xil bo‘lgan omonimlar ajratib berilgan.

Bir turkum doirasida yuzaga kelgan omonimik qatorlardan ko‘ra turli so‘z turkumlari doirasida shakllangan omonimik qatorlarda yoki omonimik qatorlarning ichki strukturasi va o‘sha qatoridagi omonimik so‘zlar o‘rtasida polisemiyaning tarmoqlanishini ko‘plab holatlarda kuzatish mumkin. Masalan, etimologik jihatdan bir tilga oid va turli so‘z turkumlariga tegishli bo‘lgan o‘zbek tilidagi *dov* omonimik qatorini olsak. Bunda *dov*₂ va *dov*₃ so‘zlari qolgan so‘zlarga, ya’ni *dov*₁, *dov*₄ va *dov*₅ so‘zlariga nisbatan polisemiya hisoblanadi. *Dov*₁, *dov*₄ va *dov*₅ so‘zlari esa omonim hisoblanadi (Ushbu misol lug‘atdan aslidek olindi).

Dov I [tojikcha] *ot.* Qimorda katta tikish.

Dov II [tojikcha] *sifat.* Qo‘rqmas, jur‘atli, dadil.

Dov III [tojikcha] *ot.* Jur‘at, dadillik.

Dov IV [tojikcha] *ot.* talab, da‘vo.

Dov V [tojikcha] *sifat.* Bo‘ychan, katta.

Dov VI [tojikcha] *dov-daraxt.*⁴

¹ Лексикология английского языка. Учебник для ин-тов и фак. иностр. яз., р. 3. Гинзбург С.С., Хидекель Г.Ю., Князева и А.А.Санкин. 2-е изд., испр. и доп. М., “Высш. школа”, 1979, с. 269.

² R.Galperin. Stylistics. Vol. 7, № 2 (Spring 1973), p. 181–183 (3 pages). Published By: Penn State University Press.

³ Bridges R.S. On English Homophones. Society for Pure English. Oxford. 1919, vol. 1, p. 3–48. On English homophones. L., 1922.

⁴ Cambridge Advanced Learner’s Dictionary. 2013.

Polisemiya nafaqat ma'nolar o'rtasida, balki omonim qatorlarining ichida ma'nolari ichida ham uch-rashi mumkin. Xuddi shunday misolni ingliz tilidagi omonimik qatorda ko'rib chiqsak (ushbu misol lug'atdan aslidek olindi).

Table¹ – *piece of furniture consisting of a flap top with (usu. four) supports (called legs).*

Table² – *(sigh only) people seated at a table.*

Table³ – *(sigh only) food provided at a table.*

Table⁴ – *list of orderly arrangement of facts, information, etc. (use in columns).*

Ko'rib turganingizdek, *table* omonimik qatoridagi *table*,¹ *table*,² *table*³ omonim so'zlari o'rtasida polisemiya mavjud, *table*⁴ omonimi esa bundan mustasno bo'lib, boshqa so'zlarga nisbatan omonimdir. Bu muammo juda ko'plab tilshunoslar tomonidan tadqiq etilganligiga qaramay, lug'at tuzishda bu so'zlarning berilishi, tanlab olish prinsiplari, farqlari to'liq aks etmagan.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, tarjimonning asosiy quroli – bu lug'at. Uning ishlatayotgan lug'ati mukammal bo'lmasa, tarjima muqobil chiqmaydi. Aynan omonim va polisemantik so'zlarni lug'atda berilishi esa tarjimonga yo "chin do'st", yoki "soxta do'st" vazifasini bajaradi. Natijada badiiy tarjima jarayoni o'z ichki kechinmalarini kitobxonga yetkazib bera olmaydi.

O'zbek tili uchun yagona to'la qonli lug'at hozircha "O'zbek tilining izohli lug'ati"dir. Ammo fundamental lug'atimiz ham kamchiliklardan mustasno emas. Keling, ushbu lug'atimizda omonim va polisemantik so'zlarni berilishida ayrim muammolarni tahlil etsak (Ushbu misol lug'atdan aslidek olindi).

HILOL [a. – yangi oy] 1. kt. Yangi chiqqan oy.

2 HILOL (erkak va xotin-qizlarning ismi).

Ushbu lug'at tarkibidagi so'z, aslida, omonimik qatordir, ammo lug'atimizda ushbu polisemantik so'z kabi berilgan. Aslida, o'zbek tilidagi "hilol" so'zi o'zidan omonimik qatorni paydo qilgan (muallif tahlili).

HILOL I – yangi chiqqan oy.

HILOL II – Erkak va ayollar ismi.

HILOL III – kechki hilol, hiloldoshlarga mansub ko'p yillik o't turi.

HILOL VI – tog'da yashovchi, chipor rangli sayroqi qush.

HILOL VII – ekinlar orasida chiqadigan begona o't (salamallik o'ti og'zaki nutq, assalom-u alaykum deb ham aytiladi).

Muallif tahlilidan ko'rish mumkinki, barcha "hilol" so'zlari o'rtasida hech qanday funksiyadoshlik yo'q. Shunday ekan, ushbu so'zni omonim qator deya qo'shish darkor. Shularni hisobga olgan holda, ushbu so'zni lug'atda berilishi ham tadqiqotlarimizda keltirilgan mezonlar asosida kiritilish va o'zining omonimik qator sifatida izohlanishi kerak.

Bilamizki, til rivojlanishdan to'xtamaydi, tashqi va ichki omillar ta'sirida turli so'zlar paydo bo'ladi yoki, aksincha, iste'moldan chiqib ketadi.

Ma'lumki, omonim so'zlar va ulardan paydo bo'lgan yangi so'zlar, iboralar, terminlar, ko'chma ma'nolar har bir millat tilning kuchini, ifoda imkoniyatlarini ko'rsatadi, qolaversa, tilning yashash shakllari bo'lgan rasmiy, ilmiy, publitsistik va badiiy uslublarning rivojlanganligi, istalgan fikrni istalgan uslubda ifodalash mumkinligi ham tilning omonimik fondining boyligi, adabiy me'yorlarning shakllanganligi bilan belgilanadi.

Ingliz tili leksikografik amaliyotida omonimlarni taqdim etishning aniq qoidasi yoki prinsiplari yo'q. Odatda, lug'atdagi so'zlarni tanlash tamoyillari va so'zlarning ma'nolarini ko'rsatish yo'llari batafsil bayon etilgan, ammo omonim leksemalarni tavsiflashning umumiy tamoyili yo'q, bu ingliz tilining barcha izohli va o'quv lug'atlari uchun bir xil. Bundan tashqari, leksikograflar tomonidan e'lon qilingan lug'at yozuvini tashkil qilish tamoyillari, ko'pincha, inobatga olinmaydi, bu hol ayniqsa omonimlarning ma'nolarini lug'at talqiniga murojaat qilganda sezilarli bo'ladi. Ingliz va o'zbek tillari turli tuzilishdagi tillar bo'lib, lug'atlarining mikrotuzilmasini tashkil etishda o'z aksini topadi.

Tilning eng mufassal xususiyatlari nufuzli leksikografik manbalarda aks etadi deb taxmin qilish, tabiiy. Keling, ingliz tilining beshta eng mashhur izohli lug'atlariga murojaat qilaylik: Longman Dictionary of Contemporary English (1995); Cambridge Advanced Learner's Dictionary (2013); Collins English Dictionary (2000); Oxford Dictionary of English (2003); Macmillan English Dictionary for Advanced Learners (2007).

Zamonaviy “Longman”¹ lug‘ati shuni ko‘rsatadiki, omograflar “bir xil imloga ega, ammo u yoki bu jihatdan bir-biridan farq qiladigan so‘zlardir. Ular turli lug‘at yozuvlarida o‘z aksini topgan”. Ushbu lug‘atda nutqning turli qismlariga tegishli so‘zlar omograf sifatida ko‘rib chiqiladi. Omograflar foydalanish chastotasining kamayish tartibida keltirilgan. Masalan, ot. “face” so‘zi “face” fe‘liga qaraganda tez-tez uchraydi, shuning uchun ot birinchi lug‘at yozuvida aks ettirilgan. Gapning bir qismiga tegishli omograflar turli lug‘at yozuvlariga beriladi. Masalan, row [rəu] “qator” va row [rau] “janjal” lug‘at yozuvlarida turlicha talaffuz qilingani alohida qatorlarda berilgan. Xuddi shu lug‘atda yana ma‘nosi bo‘yicha sezilarli farqlarga ega bo‘lgan omograflar, agar ulardan biri bosh harf bilan yozilsa, turli lug‘at yozuvlarida ham o‘z aksini topadi. Masalan, “catholic”–sifat, “Catholic”–ot.

Agar so‘z ko‘plikdagi ot bo‘lsa-da, lekin boshqa ma‘noga ega bo‘lsa (birlikdagi otdan farqli), unda bu so‘zlar, odatda, bir xil lug‘at yozuvida uchraydi. Masalan, “blue” “siniy”, “blues” “blyuz”, “the blues” “qayg‘u hissi”. Biroq, agar ko‘plik shakli birlik shaklidan muhimroq bo‘lsa va bu so‘zlar bir nechta ma‘noga ega bo‘lsa, keyin ularning har biri o‘z lug‘at yozuviga ega bo‘lsa, “goods” “tovar”, “good” “yaxshi”. Ko‘p ma‘noli so‘zlarning ma‘nolari ham qo‘llanish chastotasi bo‘yicha berilgan: birinchi ma‘no eng ko‘p uchraydi. Tahlil jarayonida ma‘lum bo‘ldiki, lug‘atlarda omonimlarni ifodalashning asosiy tamoyili so‘z bo‘lagidir (ingliz tilida konversiya hodisasi keng tarqalganligi sababli). Biroq, bu qoida har doim ham kuzatilmaydi.

Shunday qilib, ko‘rib chiqilayotgan lug‘atda “ring” so‘zi uchta lug‘at yozuviga bag‘ishlangan: biri “halqa”, “aylana” ma‘nosini anglatuvchi otning ma‘nosini, ikkinchisi fe‘lni tasvirlaydi “qo‘ng‘iroq qilmoq”, “qo‘ng‘iroq chalmoq”, uchinchisi “atrofni o‘rash”, “qushning sayrashi” va “bir narsa atrofida doira chizish” fe‘llari.

Shuningdek, “present” so‘zining to‘rt ma‘noda ifodalanganligiga e‘tibor qaratamiz, bunda ikkitasi otga, biri fe‘lga, ikkinchisi esa sifatga bag‘ishlangan. “lie” so‘zi o‘z aksini topgan uchta qator: biri “yotmoq” fe‘liga, ikkinchisi “yolg‘on so‘zlash” fe‘liga, uchinchisi esa “yolg‘on” otiga bag‘ishlangan. Buning sababi, “yolg‘on so‘zlash” fe‘li standart (muntazam) fe‘l, “yotmoq” esa nostandart (noto‘g‘ri) fe‘l bo‘lishi mumkin.

Uchta so‘zdan iborat bo‘lgan yana bir misol “can” omonimik qatoridir: biri “konservalash” va “ishdan bo‘shatish” (fe‘l), ikkinchisi “qalay quti” (ot.) ma‘nosi bilan bog‘liq, uchinchisi ma‘nosining mavjudligi esa “can” fe‘lining modalligini ko‘rsatish zarurati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin: “qila olmoq”, “bajara olmoq” ma‘nolariga to‘g‘ri keladi.

“Cambridge Advanced Learner’s Dictionary”² lug‘atining asoschilari ushbu lug‘atlarida omonimlar, omograflar yoki omofonlarning ajratilishi haqida ma‘lumot bermaganlar, lekin agar so‘z ko‘p ma‘noli bo‘lsa, uning ma‘nolari ularning chastotasiga qarab belgilangan. Ushbu lug‘at tahlili shuni ko‘rsatadiki, unda omonimlar ajratilmagan, lug‘at tuzuvchilari ham so‘zlarni aks yetirishning lug‘at tuzish prinsipiga amal qilmagan, bunda barcha so‘zlarni polisemant sifatida ifodalaydilar. Tahlil qilingan so‘zlarning har birida bir qatorida berilgan. Istisno sifatida ikki qatorida berilgan “can” omonimik qatoridir: biri “qalay quti” (ot), ikkinchisi “bajara olmoq”, “qila olmoq” modal fe‘liga bag‘ishlangan. E‘tibor bering, “can” so‘zi boshqa barcha lug‘atlarda ta‘kidlangan “konservalash” ma‘nosiga ega, ammo bu lug‘atda bu ma‘no qayd etilmagan.

“Collins English Dictionary”³ inglizcha lug‘ati mualliflarining ta‘kidlashlaricha, “turli xil so‘zlardan olingan, lekin bir xil imloga ega so‘zlar (omograflar)” lug‘atda alohida qayd etilgan va yuqori chiziqdagi raqam bilan bosh so‘z bilan ifodalangan. Agar katta harf bilan yozilgan so‘z lug‘atda alohida sanab o‘tilgan bo‘lsa, u kichik harf bilan boshlangan so‘zdan keyin keltiriladi. Shunda so‘z nutqning turli so‘z turkumlariga tegishli bo‘lsa, lug‘at ularni “romb” shaklidagi belgi bilan ajratib, bitta qatorida yozuvida beradi.

Polisemantik so‘zlarning ma‘nolari ularning qo‘llanish chastotasi tartibida o‘z aksini topadi. Ammo lug‘at tuzuvchilar “ma‘nolardan biri boshqa ma‘nolarni ham o‘z ichiga oladi (asosiy ma‘nodir) deb hisoblasa, avval uni taqdim etish mumkin. Keyingi ma‘nolari shu tarzda aks ettiriladi va birinchi (asosiy) ma‘noning asliyatini ochib beradi”. Agar so‘z turli gap bo‘laklariga tegishli bo‘lsa, unda har bir gap bo‘lagining barcha ma‘nolari bir qatorida birlashadi.

Taxmin qilish mumkinki, “Collins English Dictionary” lug‘ati o‘quvchilar uchun idrok etish va tushunish uchun eng qiyin lug‘atlardan hisoblanadi, chunki u lug‘atda so‘zlar berilish tartibi, prinsiplariga ri-

¹ Longman Dictionary of Contemporary English. 1995.

² Cambridge Advanced Learner’s Dictionary. 2013.

³ Collins English Dictionary. 2000.

oya qilinmagan. Misol uchun, lugʻatda omonimlarning maʼnolarini ifodalash uchun har doim ham “omonimlarni lugʻatda berish” prinsipidan doimiy ravishda foydalanmaydi. Shunday qilib, “jumper” soʻzi faqat bitta lugʻat yozuvida aks etadi, aniqki, “jumper”,¹ “sakrovchi-akrobat” va “jumper”,² “sviter” (ot) maʼnolariga ega, “kind” omonimik qatori ikkita soʻzdan iborat. Lugʻat maqolalarining birinchi maʼnosi “mehribon, yumshoq, xushxulq inson” sifatlarini, ikkinchisi esa “tur, sort, sinf” ot shaklida aks etadi. Boshqa hollarda, turli soʻz turkumlaridagi soʻzlar bitta qatorda beriladi: masalan, “general” soʻzi bir qatorda polisemantik soʻz sifatida taqdim etilgan, aslida esa uning maʼnolari “general”, “unvon” (ot) va “umumiy” (sifat) kabi maʼnolariga ega.

Baʼzi hollarda soʻzlarning qatorlarga boʻlinishi leksik maʼnoga koʻra sodir boʻladi. Masalan, “bank” soʻzi lugʻatda uchta qatorga ega: biri “moliya muassasasi”, ikkinchisi “daryo qirgʻogʻi” va shunga oʻxshagan leksik-semantik variantlarga, uchinchisi esa “ketma-ket, qator qilib terilgan” soʻzlariga bogʻishlangan. Ikkita qatorda ifodalangan “firm”, biri “qatʼiy, qattiq” tushunchasi bilan bogʻliq feʼl va sifatarga, ikkinchisi esa “firma, tashkilot” maʼnosiga bogʻishlangan.

Ayrim lugʻat mualliflari soʻzlarni biron-bir xususiyatiga koʻra ajratmaydilar va barcha leksik-semantik variantlarni oʻz ichiga olgan bir qatorni qoldiradilar. Masalan, koʻrib chiqilayotgan lugʻatlarning birida “coach” omonimik qatorini koʻp maʼnoli soʻz sifatida “murabbiy, murabbiylik qil-moq”, “arava”, “vaqon” va “avtobus (sayyoh uchun yoki shaharlararo)” maʼnolari bilan aks ettirilgan.

“Express” soʻzi ham xuddi shunday bir qatorda berilgan, garchi uning maʼnolari turli soʻz turkumlariga tegishli, bundan tashqari, ular leksik jihatdan farqlanadi: “express” “tezkor”, “express” “ifoda”.

“Oxford Dictionary of English” lugʻati mualliflari soʻz boshida yozadilar: “Agar soʻz bir nechta soʻz turkumlariga tegishli boʻlsa, unda birinchi navbatda ushbu soʻz uchun asosiy boʻlgan qismi aks ettiriladi”. Agar soʻz bir nechta maʼnoga ega boʻlsa, bir-biridan sezilarli darajada farq qiladigan boʻlsagina, lugʻatda ularni har birini qalin harf bilan raqam ostidagi yangi qatordan yoziladi. Mualliflar, shuningdek, “omonimlar soni bir xil imloga ega boʻlgan boshqa soʻzni aks ettiradi”.

Oʻzbek yoki ingliz leksikografik manbalarida omonim leksemalarning maʼnosini tavsiflashning yaqona tamoyili mavjud emas. Baʼzi hollarda, lugʻatlar mualliflari polisemantik va omonimlar bilan bogʻliq maʼlumotlarni taqdim etish usullarini tushuntirishlariga qaramay, amalda koʻrsatilgan prinsip, koʻpincha, lugʻatshunoslikda kuzatilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, lugʻatdagi ushbu vazifalarni hal qilish qoʻshimcha tushuntirishlar bilan aniq kontekstlardan foydalanish orqali amalga oshirilishi lozim. Kontekst taʼrifi esa omonimik soʻzning qayerda va qanday ishlatilishi haqidagi maʼlumotlarni oʻz ichiga olishi kerak. Qoʻshimcha tushuntirishlar asosiy, sinonimlar, antonimlar, tarjimalar va boshqa tillarni oʻz ichiga oladi. Bundan tashqari, omonimik soʻzlarning, aslida, nimani anglatishini koʻrsatish uchun kontekstda turli diagramma, sxemalaridan foydalanish mumkin.

Tadqiqotimiz natijasida shunga amin boʻldikki, omonimlarning izohli, tarjima lugʻatlari foydalanuvchilar uchun oson va tushunarli mezonlar ostida yaratilishi muhim. Lugʻatshunoslar omonim soʻzlarning yangi maʼnolarini moslashtirish uchun qoʻshimcha soʻzlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishlari va koʻp maʼnoli soʻzlarning maʼnolarini aniqlashning aniqligini oshirishlari kerak.

Uzoq yillik tajriba, omonimiya hodisasi boʻyicha olib borilgan leksikografik tadqiqotlarimiz natijasida omonim va polisemantik soʻzlarni lugʻatlarda berish tartiblarini quyidagicha tamoyillar orqali ilmiy asosladik:

1. Kontekstuallik tamoyili. Lugʻatlarda omonim va polisemiyaning farqlash hamda lugʻat tarkibida berishda muhim tamoyillardan biri kontekstuallik tamoyilidir. Bu tamoyil soʻzning maʼnosi nafaqat uning leksik xususiyatlari bilan, balki kontekstda qoʻllanishi bilan ham belgilanishini nazarda tutadi. Shuning uchun lugʻatda soʻzlarning leksik xususiyatlarinigina emas, balki ularni qoʻllash mumkin boʻlgan turli kontekstlarni ham koʻrsatish kerak.

2. Ikkinchi tamoyil – iyerarxiya prinsipi. U soʻzlarni qoʻllanish chastotasiga qarab maʼnosiga koʻra tasniflash bilan bogʻliq. Koʻproq ishlatiladigan soʻzlar iyerarxiyaning yuqori qismiga, kamroq qoʻllaniladigan soʻzlar esa pastki qismiga joylashtirilishi kerak.

3. Uchinchi tamoyil – semantik munosabatlar tamoyili. Bu lugʻatdagi soʻzlar semantik yaqinligiga koʻra tartibga solinishi va kontekstual qoʻllanilishi boʻyicha farqlanishi kerakligini anglatadi. Masalan, kontekstga qarab turli maʼnoga ega boʻlgan bir xil soʻzlar mos ravishda belgilanishi kerak, shunda foydalanuvchilar mos maʼnoni tanlashda muammoga duch kelmaydi.

4. To'rtinchi tamoyil – istisno qilish prinsipi. Bu bir necha xil ma'noga ega bo'lgan so'zlarni kontekstual qo'llanilishiga qarab tartiblash kerakligini anglatadi. Bundan tashqari, lug'at so'zlarni turli kontekstlarda qanday ishlatish haqida aniq tushuntirishni o'z ichiga oladi.

5. Beshinchi tamoyil – aks etish tamoyili so'zlarning kam qo'llanilsa ham, barcha mumkin bo'lgan ma'nolarini lug'atga kiritish. Shunday qilib, foydalanuvchilar biron-bir kontekstda so'z bilan duch kelganlarida, tegishli ma'noni tezda topishlari mumkin. Bundan tashqari, lug'at foydalanuvchilarning kontekstual ishlatilishini tushunishga yordam beradigan turli ma'noga ega so'zlardan foydalanish misollarini o'z ichiga olishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, omonim lug'atlaridan foydalanish tarjimonlar uchun, ayniqsa, leksik va grammatik tuzilmalari juda xilma-xil bo'lgan tillar o'rtasida tarjima qilishda juda muhimdir. Ular tarjimonlarga kontekstga asoslangan holda so'zning eng mos ma'nosini aniqlash imkonini beradi, bu ularning xato qilish ehtimolini kamaytiradi va tarjimaning muqobilligini saqlaydi.

Bundan tashqari, omonimik lug'atlar tarjimonlarga huquq, tibbiyot yoki muhandislik kabi ixtisoslashgan sohalarida atama va terminologiyaga duch kelganda, ayniqsa, foydali bo'ladi.

Shunday qilib, omonim lug'atlardan foydalanish, ayniqsa, turli leksik, grammatik tuzilmalarga ega bo'lgan tillar o'rtasida tarjima qilishda tarjimalarning aniqligi va sifatini ta'minlash uchun muhim vositadir.

**Rasulova Munajat Akmaljonovna (Oriental universiteti "G'arb tillari" kafedrsi katta o'qituvchisi;
e-mail:munojatruxwona@gmail.com)**

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI DRAMATIK DISKURSDA METAFORALARNING LINGVOMADANIY TASNIFI

Annotatsiya. Ushbu maqolada metafora lingvomadaniy xususiyatlarini bilish, turkumlash, konsepsiyalash, baholash va tushuntirish usullari dolzarbligi va nazariy asoslari aks ettirilgan. Maqolada, shuningdek, o'zbek va ingliz tillaridagi dramatik diskursda metaforalarning lingvomadaniy va etnik xususiyatlari va tarkibiy qismlari ko'rsatilgan.

Аннотация. В данной статье отражена актуальность и теоретическая основа методов познания, категоризации, осмысления, оценки и объяснения метафорических лингвокультурных особенностей. В статье также показаны лингвокультурные и этнические особенности и компоненты метафор в драматическом дискурсе узбекского и английского языков.

Annotation. This article reflects the relevance and theoretical foundations of methods of knowledge, categorization, conception, assessment and explanation of the linguistic features of metaphor. The article also shows the linguistic and ethnic characteristics and components of metaphors in the dramatic discourse in Uzbek and English.

Kalit so'zlar: lingvomadaniy, lingvokulturologik, etnik, konsepsiya, metafora, lingvistik.

Ключевые слова: лингвокультурный, лингвокультурологический, этнический, концептуальный, метафорический, лингвистический.

Key words: linguocultural, linguoculturological, ethnic, conception, metaphor, linguistic.

Kirish. Lingvokulturologiyada tadqiqot predmetining kengayishi va til haqidagi yangi bilim sohalarining, masalan, kognitiv lingvistikaning paydo bo'lishi til, madaniyat va tafakkur o'rtasidagi munosabatlarni muammosi hozirgi kunga qadar to'liq tadqiq etilgan emas. Bizning fikrimizcha, empirik yo'naltirilgan tadqiqotlar uchun mavjud bo'lgan til, madaniyat va tafakkur kesishish nuqtalaridan biri metafora va metaforik nutqlarni tahlil qilishdir. Shunday qilib, zamonaviy kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan, metafora bu konseptual tuzilmalar bo'yicha ma'lum bir aqliy operatsiya bo'lib, u bilimlarni bir konseptual sohadan boshqasiga proyeksiya qilishdan iborat.

Darhaqiqat, metafora dunyoni bilish, turkumlash, konsepsiyalash, baholash va tushuntirish usullaridan biridir. Konseptual metafora nazariyasi mualliflari ta'kidlaganidek, metafora ong hodisasi sifatida nafaqat tilda, balki fikrlash va harakatda ham namoyon bo'ladi, chunki bizning kundalik konseptual tizimimiz mohiyatan metaforadir. Bu shunisi bilan izohlanadiki, odam ma'lum bo'lgan narsa orqali noma'lum tushunchani idrok etishga intiladi va metafora bu borada eng qulay kognitiv mexanizmdir [1].

Metafora nafaqat til hodisasi, balki madaniy hodisa bo'lib, insonning aqliy tafakkuri va madaniy faoliyati metafora bilan bog'liq bo'lgan jarayondir. Metafora tadqiqi qadimgi yunon davriga borib taqaladi. Aristotel kabi faylasuflar metafora tabiati va funksiyasini ritorik nuqtayi nazardan tizimli nazariy jihatdan tadqiq qilishgan. 20-asrda G'arb falsafasida yuz bergan "madaniy burilish" (jumladan, "lingvistik burilish", "ekzistensial burilish", "germenevtik burilish", "postmodern burilish", "madaniy tanqidiy burilish") tufayli

metafora falsafiy tadqiqotlarning dolzarb mavzusiga aylandi. Buning natijasi o'laroq, "semiotik burilish", "axloqiy burilish", "siyosiy burilish", "teologik burilish" va boshqa falsafiy oqimlar yuzaga keldi.

Adabiyotlar tahlili. Falsafiy tadqiqot obyekti doimo fikr va haqiqat o'rtasidagi uyg'unlik, "haqiqat"ni o'rganish masalasi bo'lib kelgan. Nitsshening fikriga ko'ra, "haqiqat" – bu metafora, metonimiya yoki antropomorfizmning she'riy va ritorik mustahkamlash orqali ishlab chiqilgan oltin qoidadan boshqa narsa emas. Keydeggerning metaforik qarashi esa haqiqat va falsafaga nisbatan uning ekzistensialistik qarashini aniq ifodalaydi.

Xaydeggerning ekzistensial nazariyasiga ko'ra, metafora inson borlig'ining madaniy o'lchovida ham muhim o'rin tutadi va she'riy ma'no taraqqiyotida muhim omil hisoblanadi. Metafora obyektiv dunyoda mavjud bo'lmagan lekin inson tasavvurining yaratilishi bo'lgan mantiqiy makonni, tilni moslashtirishga imkon beradi. Metaforaning mavjudligi lingvistik sohada ko'proq ochiqlikni ta'minlaydi va metafora mavjudligi so'zlardan foydalanishni o'zgartirish orqali e'tiqodlarni o'zgartirishga, tushunchalarni, qoidalarni va e'tiqodlarni o'zgartirishga imkon beradi.

Kassirerning haqidagi qarashlari madaniy falsafaning puxta tizimi doirasida taqdim etilgan. U insonning asl tili sifatida metafora orqali o'rnatilgan inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar birlamchi bir xillikka ega ekanligini ta'kidlaydi. Richards ta'kidlaganidek, "metafora hamma joyda mavjud bo'lgan insoniylik tamoyilidir" [Richards. 1936.115–138]. U metaforaviy o'zaro ta'sir g'oyasini kiritdi va metaforani til falsafasi nuqtayi nazaridan o'rganishga kirishdi. Viko "Yangi ilm" asarida turli milliy madaniyatlarning qonuniyatlari odamlarda shakllangan majoziy tafakkurga katta ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi, bu fikrni u insonning "poetik zakovati" deb hisoblaydi.

Metafora tadqiqotlarining fanlararo tabiati miyalar, tanalar, tillar va madaniyatning o'zaro ta'siridan kelib chiqadigan murakkab usullarni ko'proq tan olishga imkon beradi. Xabermasning so'zlariga ko'ra, falsafa kundalik amaliyotlar va hayot dunyosi bilan to'qnash kelishi kerak, shuning uchun insoniyatni madaniy o'lchovda o'z-o'zini anglashni chuqurlashtirishga undaydi.

Tahlil va natija. Milliy tilni o'zlashtirish sohasida madaniy metaforalarni tushunish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar yaratilgan, ammo chet tilini o'zlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar talab darajasida emas. Akerman tomonidan ilgari surilayotgan psixolingvistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, metaforik bayonotlar ona tilida so'zlashuvchilar tomonidan tom ma'nodagi kabi osonlik bilan qayta ishlanishi mumkin, ammo o'zga til vakillari uchun ona tilida so'zlashuvchilarning kundalik turmushda qo'llaydigan metaforaning o'ziga xos madaniy ma'nosini tushunish birmuncha qiyinchilik tug'diradi.

Barcha tabiiy tillarning tarkibiy xususiyatlaridan biri nomni bir obyektidan ikkinchisiga o'tkazish imkoniyatidir, bu ifodali vositalar tizimida metafora kabi stilistik vosita mavjudligida namoyon bo'ladi. V.G. Gak: "Metafora zarur bo'lgani uchun emas, balki usiz fikrlarni obrazli tarzda ifodalashning iloji bo'lmagani uchun paydo bo'ladi, u inson tafakkuriga va tiliga xosdir" [2]. Metafora – bu dunyoni aniq-hissiy shaklda bilishga yordam beradigan fikrlash vositasi. Murakkab konseptual sohalarni bilish uchun allaqachon o'zlashtirilgan va aqlga oson singishi mumkin bo'lgan obyektlar va tushunchalardan boshlash kerak. J.Ortega, Gasset: «Metafora intellektning «qo'li»ni uzaytiradi, uning mantiqdagi rolini qarmoq yoki miltiq bilan taqqoslash mumkin. Bundan kelib chiqadiki, u tasavvur qilinadigan chegaralarni chetlab o'tadi. U faqat o'zining uzoq chegaralarida ko'rinadigan narsalarga kirish imkonini beradi" [3].

Zamonaviy tilshunoslik til hodisalarini kommunikativ-pragmatik aspektda o'rganish bilan tavsiflanadi, bu tadqiqotchiga til tizimidagi til birliklarining strukturaviy-semantik xususiyatlarinigina ochibgina qolmay, balki ularning ekstralingvistik xususiyatlarini, til o'rtasidagi funksional munosabatni aniqlash imkonini beradi. So'nggi paytlarda lingvokulturologik tadqiqotlarga, til va madaniyatning o'zaro ta'sirini o'rganishga, milliy lingvomadaniy makon xususiyatlarini talqin qilishga qiziqish ortib borayotgani lingvokulturologiyaning alohida lingvistik fan sifatida ajratilishi haqida gapirish imkonini beradi. Ikki nufuzli lingvokulturologlarning paydo bo'lish sanalarini turlicha ifodalashi fanning bu sohasi hali shakllanish bosqichida ekanligiga bir dalildir. V.V.Vorobyov lingvokulturologiya 1960-yillarning oxiri – 1970-yillarning boshlarida rivojlanganligini yozsa, V.A.Maslova esa uning alohida fan sohasi sifatida paydo bo'lishini 1990-yillar bilan bog'laydi.

Boshqa nuqtayi nazarlar ham lingvokulturologiyani mustaqil ilmiy fan sifatida tan olmaslik, hatto inkor etish ham mumkin. Metafora tilda xalq hayotining in'ikosi o'laroq voqelanadi. Demak, unda xalqning etnik xosligini ifodalovchi muyyan belgilar mavjud bo'ladi. Qiyoslanayotgan tillarda umumiy va individual metaforik komponentlarni kuzatish mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, biz metaforalarni lingvomadaniy aspektga muvofiq ikki yirik guruhga ajratishni joiz topdik.

Xulosa. Demak, ingliz dramatik diskursida individual etnik xoslangan metaforalar millatning tarixi, e'tiqodi turmush tarzi bilan bevosita bog'langan. O'zbek dramatik diskursida voqelangan metaforalarga xos bo'lgan asosiy jihat sifatida subyektiv bahoning ustunligini ta'kidlash lozim. Umuman olganda, so'zlovchining obyektiv borliqqa yoki o'z nutqiga o'zi tomonidan belgilanadigan salbiy yoki ijobiy munosabati grammatikada modallik kategoriyasi termini bilan yuritiladi [4].

Dramatik diskursda voqelangan metaforalarning lingvokulturologik belgilariga muvofiq ularni umumetnik va individual tipdagi metaforalarga ajratish mumkin. Ushbu tasniflash metaforalarning lingvokulturologik belgisiga ko'ra amalga oshiriladi. Umumetnik tipdagi metaforalar qiyoslanayotgan tillarga birday xos bo'lgan umumiy mavzu va tushunchalarni qamrab olgan metaforalarni nazarda tutadi. Individual metaforalar esa boshqa etnik qatlamda takrorlanmaydigan va bir etnik qatlam madaniyatigagina xos bo'lgan metaforalarni bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Лакофф Д., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. Теория метафоры. М., 1990.
2. Гак В.Г. Метафора: универсальное и специфическое. Метафора в языке и тексте. М., "Наука", 1988, с. 11 – 26.
3. Ортега-и-Гассет Х. Две великие метафоры. Теория метафоры. М., "Прогресс", 1990, с. 68 – 81.
4. Ўзбек тили грамматикаси. 1. Тошкент, 1975, 585-бет.
5. Mo'minov S.M. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Filol. fan. nomz. diss. avtoref., Тошкент, 2000, 24-бет.
6. Rahimov G'. Zamonaviy sotsiolingvistikaning dolzarb masalalari. CamDCHTI, 2007, 11 – 20-бетlar.
7. Raupova L. Dialogik nutqning diskursiv talqini (polipredikativ birliklar misolida). Monografiya, T., "Fan", 2010, 206-бет.

Салахидинова Зилола Одилжоновна (старший преподаватель Узбекского государственного университета мировых языков, д.ф.ф.н.)

РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ ОСНОВНЫХ ТИПОВ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОГО ВАРЬИРОВАНИЯ ВО «ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОМ СЛОВАРЕ РУССКОГО ЯЗЫКА»

Аннотация. *Ушбу мақолада фразеологик ўзгарувчанликнинг асосий турларини акс эттириши муаммоси кўриб чиқилади, фразеологик ўзгарувчанликни тилишуносликда ўзгарувчанликнинг алоҳида муаммоси сифатида ифодалаш, айниқса, долзарбдир, лингвистик бирлик архитектоникасининг мураккаблашиши ортидан унинг ўзгарувчанлиги турларининг хилма-хиллиги ортади.*

Аннотация. *В данной статье рассмотрена проблема репрезентации основных типов фразеологического варьирования, представляя фразеологическую вариантность как частную проблему вариантности в языкознании особенно актуальной, с усложнением архитектоники языковой единицы возрастает многообразие видов ее варьирования.*

Annotation. *This article examines the problem of representing the main types of phraseological variation, presenting phraseological variation as a particular problem of variation in linguistics, which is especially relevant; with the complication of the architectonics of a linguistic unit, the variety of types of its variation increases.*

Калим сўзлар: *фонемалар, фразеологик бирликларнинг ўзгарувчанлиги, компонентларнинг ўзгариши, фразеологик бирликларнинг бир хиллиги.*

Ключевые слова: *варьирование фонем, фразеологических единиц, вариантность компонентов, тождество фразеологических единиц.*

Key words: *variation of phonemes, phraseological units, variation of components, identity of phraseological units.*

Представляя фразеологическую вариантность как частную проблему вариантности в языкознании, отмечаем, что для фразеологизмов, как единиц более сложных по сравнению со словом, проблема вариантности является особенно актуальной, поскольку с усложнением архитектоники языковой единицы возрастает многообразие видов ее варьирования. Действительно, «если варьирование фонем, главным образом, проявляется в потенциальном присутствии фонологически несущественных признаков, варьирование морфем состоит в комбинаторике фонем, варьирование в лексике заключается в семантически несущественных отличиях, то во фразеологических единицах объединяются все эти виды формального и формально-смыслового варьирования, не исключая варьирования на лексическом и синтаксическом уровнях» [1.91].

Вариантность в области фразеологии – это результат проявления общих языковых закономерностей, актуальных для всех уровней языка, а именно: адаптация к определенным языковым нормам, подчеркивание аналогии, передача колорита времени, создание эффекта новизны единицы, а также стремление усилить эмоционально-экспрессивные тенденции.

Воззрения лингвистов на проблему вариантности подразделяются на две группы. Одни исследователи рассматривают варианты как избыточную категорию в языке (Лукьянова. 1970), как недостаток естественного языка (Аврорин. 1974), как аномальное явление (Горбачевич. 1975). Другие пишут о вариативности как о фундаментальном свойстве языка, присущем всем его единицам и уровням (Кодухов. 1974), подчеркивая, что способность к варьированию является неотъемлемым свойством функционирующего языка, без которого его изменение и развитие немислимы (Болгова. 1974; Воронов. 1976). Мы полностью разделяем вторую точку зрения.

«Вариантность – одно из важнейших условий развития языка, – утверждает Ф.П. Филин, – поскольку через изменение соотношений между вариантами ... происходят многие сдвиги на всех языковых уровнях» (Филин. 1982). Вариантность оценивается многими лингвистами как «имманентное функциональное свойство языка» (Абрамов. 1982), как «непременное условие функционирования языка» (Литвин. 1988), как «способ существования и функционирования всех единиц языка» (Солнцев. 1982).

Что касается динамики развития категории вариантности в целом, выявляемой при сравнении отдельных языковых систем, то здесь также не наблюдается единства точек зрения. Одни исследователи делают вывод о преходящем характере вариантности, утверждая, что вариантность в целом постепенно и окончательно убывает (Семенюк. 1965; Горбачевич. 1978). Приверженцы отличной точки зрения склоняются к признанию прогрессирующего характера языкового варьирования, играющего большую роль в развитии языка (Краморенко. 1962; Супрун. 1966; Федосов. 1974; Воронов. 1976). Полностью разделяя мнения лингвистов о непреходящем характере языкового варьирования, подчеркиваем, что без варьирования и вне варьирования невозможно себе представить изменение и развитие языка.

Тем не менее, все лингвисты, исследующие проблему фразеологического варьирования, отмечают чрезвычайную сложность этого явления. В самом деле, фразеологическая единица является такой структурой, в которой означающее представлено, по терминологии А.И. Смирницкого, «специфически употребленными словами», или лексическими компонентами. Этот факт, естественно, и ведет к разнообразию фразеологической вариантности, так как позволяет фразеологической единице совмещать в себе все виды вариантности, присущие фонетическому, морфологическому, лексическому, синтаксическому и семантическому уровням анализа. Показательно в этом смысле наблюдение А.И. Федорова, который утверждает, что «... по направлению от низших единиц к высшим, от низших уровней языка к высшим возрастает количество конструктивных единиц уровня, увеличивается архитектурная сложность данных единиц, возрастает сложность их парадигматических и синтагматических отношений, возрастает степень их вариативности» [2.62].

Фразеологические варианты характеризуются одной образной основой, общей частью (компонентом) и возможной заменой компонентов. Такая трактовка предполагает наличие у фразеологических вариантов следующих признаков: происхождение из одного источника, общность денотативного значения, совпадение количества значений, совпадение выполняемой в языке функции и категориальных значений, совпадение (полное или частичное) лексического состава при несовпадении грамматической структуры или наоборот.

При таком подходе фразеологические варианты – это фразеологические единицы с одной образной основой, с общей частью (компонентами) и возможной заменой компонентов: Сесть в лужу-калошу «опозориться, попасть в неудобное положение»; во весь дух-опор «быстро».

Выделяют следующие типы фразеологических вариантов, представленные во «Фразеологическом словаре русского языка» под ред. А.И. Молоткова [3]: 1) варьирование по форме.

– фонетические и орфографические варианты, отличающиеся фонетическими особенностями (чередование фонем, исчезновение или вставка фонем) либо особенностями правописания: калиф-халиф на час «человек, наделенный или завладевший властью на короткое время»; сесть в калошу «попасть в неудобное положение, опозориться»; дохнуть-дыхнуть некогда «совершенно нет времени» (этот тип представлен единичными примерами):

– словообразовательные варианты: чистой воды «самый настоящий, истинный, доподлинный»; подставить подножку «исподтишка, с умыслом вредить, пакостить; строить каверзы». Словообразовательная вариантность представлена следующими типами:

а) суффиксальная: на глаз (глазок), забубённая голова (головушка), живот (животик, животишко) подводит; свистеть (свистать) в карманах, ломить (ломать) шапку;

б) префиксальная: подрезать (обрезать) крылья, давать (отдавать) себе отчет;

в) корневая (связанная с одним и тем же префиксом): подрубить (подкосить, подрезать, подсесть) под корень;

– морфологические варианты, отличающиеся морфологическими категориями, особенностями склонения или спряжения): бросить камень/камнем «осуждать, обвинять, чернить, порочить кого-нибудь»; высунув/высунувши язык «1. поспешно, очень быстро (бегать, убегать, улепетывать и т.п.); 2. в хлопотах до изнеможения (делать что-либо)». Морфологическая вариантность возникает вследствие неразличения дифференциальных грамматических значений в морфологической парадигме фразеологизмов:

а) видовых форм глаголов: видать (видывать) виды, валить (сваливать) в одну кучу;

б) категорий залога, наклонения, времени, лица, числа у глагольных фразеологических единиц: не ударить (удариться) лицом в грязь, водой не разольешь (разлей), пальчики оближешь (облизать), есть просят (просят);

в) категории числа грамматически зависимых имен существительных: подносить пилюлю (пилюли), море по колено (колена), тугой на ухо (уши);

г) вариантных форм рода, числа, падежа (в том числе и архаических) у именных фразеологических единиц: гог и магог (гога и магога); аналогично в составе глагольно-именных фразеологизмов: праздновать труса (трусу), построить дом на песке (песце), будь хоть семи пядей (пядень) во лбу, во все (вся) тяжкие (тяжкая);

д) полных/кратких форм имен прилагательных и причастий: эзоповский (эзопов) язык, без малого (мала), из-за угла мешком прибитый (прибит) и др.;

– синтаксическая вариантность основана на нейтрализации дифференциальных грамматических значений в синтаксической парадигме фразеологических единиц -словосочетания и фразеологических единиц -предложения. В синтаксической парадигме фразеологических единиц -словосочетаний вариантность основана на синонимии падежных форм компонентов:

а) один и тот же предлог употребляется с разными падежными формами: сидеть между двух (двумя) стульев (стульями), пара на отлете (отлет);

б) разные предлоги и разные падежные формы: пускать на ветер (по ветру), капля за каплей (по капле).

Синтаксическая вариантность фразеологических единиц – предложений образовалась в результате совпадения грамматических значений предикативных сочетаний:

а) наклонения, времени, рода, числа в глагольных компонентах: вожа под хвост попала (попади), и не говори (говорите), кондрашка хватил (хватила);

б) числа и падежа в именных компонентах: карта бита (карты биты), хоть в глаз (глаза) коли, ветер свистит в кармане (карманах).

2) лексическое варьирование (варьирование по составу компонентов): сердце болит «1. кто-либо испытывает тревогу, беспокойство, душевные страдания; 2. кто-либо беспокоится, страдает, переживает и т.п. за кого-либо, испытывает тревогу за что-либо»; обливаться слезами «горько, безутешно плакать»; выводить в расход «убивать, уничтожать»; крепкий на ухо «глухой, с плохим слухом»; коту под хвост «1. впустую, даром, зря, напрасно (выбрасывать, расходовать и т.п.); 2. не стоит внимания что-либо, заслуживает пренебрежение».

Лексическая вариантность возникает в результате следующих парадигматических замен:

а) синонимической замены: бить (ударять) в нос, пустая голова (башка), в буквальном смысле (значении), взять назад (обратно) свои слова;

б) тематической замены: уплыть (уйти) сквозь пальцы, давать руку (голову) на отсечение, седьмая (десятая) вода на киселе, ни на грош (копейку, полушку);

в) гиперо-гипонимической замены: извиваться ужом (змеей), пересчитать кости (ребра), на склоне лет (дней);

г) антонимической замены: Бог (черт) знает, сам большой (маленький).

Лексическая вариантность на базе семантических связей слов-компонентов возникает при нейтрализации их различительных признаков:

а) на основе метонимии: мешать (путать) карты, вдалбливать в голову (мозги), мизинца (ногтя) не стоит, старый (стреляный) воробей; б) на основе метафоры: ногтя (подметки) не стоит, кричать не своим (дурным) голосом, пустая (дубовая) голова.

3) смешанные варианты: во всю силу есть силы «с предельным напряжением, интенсивностью (делать что-либо)»; вертеться на глазах перед глазами «своим присутствием назойливо напоминать о себе, надоедать кому-либо»; видеть на три [на два] аршина/под землей (землю) «отличаться большой пронизательностью». В данных примерах наблюдается лексическое варьирование одного компонента и морфологическое варьирование другого:

4) полные/сокращённые варианты: и нашим и вашим <за пятак спляшем> «одним и другим одновременно (служить, угождать и т.п.), через пень колоду <валить> «делать медленно, неповоротливо, неумело или кое-как», пьяному море по колено, <а лужа – по уши> «все нипочем, ничто не страшно для кого-либо».

Важнейшими критериями отнесения фразеологических единиц к вариантным являются следующие:

1) семантическое тождество (полная предметная и понятийная идентичность, общность денотативного значения) предполагает, что фразеологические варианты в семантическом плане вполне равноценны, хотя могут иметь различную стилистическую окраску;

2) тождество морфологических признаков и синтаксических функций (фразеологические варианты должны относиться к одному классу (некоммуникативных или коммуникативных фразеологизмов), подклассу (номинативных, служебных, междометных или модальных), лексико-грамматическому разряду (субстантивных, адъективных, глагольных или адвербиальных) и выполнять идентичную роль в предложении;

3) наличие лексического инварианта при частичном различии компонентного состава – наличие у фразеологических вариантов, по крайней мере, одного общего компонента при всех их структурно-грамматических различиях;

4) общность образа, т.е. единство ассоциаций, вызываемых исходным переменным сочетанием. Этот фактор регламентирует границы вариантности компонентов фразеологических единиц качественно и количественно. Опираясь на факт идентичности ассоциаций (образности), свойственной вариантным фразеологическим единицам, логично допустить, что по своей семантике варьируемые компоненты образуют незначительное количество групп;

5) этимологическая общность – фразеологические варианты всегда восходят к одному и тому же источнику. Выявление этого источника особенно важно для установления вариантных форм необразных фразеологических единиц, а также фразеологических единиц, варианты которых, в результате развития синонимии, в синхронном плане не совпадают по образу.

Таким образом, подобно тому, как отдельное слово может иметь морфологические, фонетические и орфографические варианты, фразеологические выражения также обладают вариантностью. Оставаясь в пределах одной единицы, варианты вместе с тем не абсолютно тождественны.

Использованная литература:

1. Телия В.Н. Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М., «Языки русской культуры», 1996.
2. Фёдоров А.И. Развитие русской фразеологии в конце XVIII – начале XIX в. Новосибирск, 1973.
3. Фразеологический словарь русского языка. Под ред. А.И.Молоткова. М., 1967.

**Boltaboyev Omonboy Yo‘ldosh o‘g‘li (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti o‘qituvchisi)
80-YILLAR O‘ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGIDA ESTETIK TAFAKKUR YANGILANISHI**

Annotatsiya. Maqolada XX asrning 80-yillarida o‘zbek adabiy tanqidchiligida estetik idrok yangilaniishi, adabiy talqinda badiiy asarni baholash mezonlari o‘ziga xosligi prof. B.Nazarov nazariy qarashlari timsolida tahlilga tortiladi. Unda ilmiy mushohada va mantiqiy sillogizm nisbati, matnda obyekt va subyekt aloqasi yaxlitligi, munaqqid kuzatish miqyosi va tahlil malakasi uyg‘unligi xususida so‘z boradi. Aslida, har mutaxassis adabiy mahorati yuksak intellektual tayyorgarlik hamda ijodkor eruditsiyasi birligini taqozolaydi, hissiy-estetik anglam teranligi uning xarakterini belgilaydi.

Аннотация. В статье рассматривается обновление эстетического восприятия в узбекском литературоведении в 80-е годы XX века, своеобразии критериев оценки художественного произведения в литературной интерпретации, мнения по данному вопросу проф. Б.Назарова будут проанализированы в форме его теоретических воззрений. Речь идет о соотношении научного наблюдения и логического силлогизма, целостности связи объекта и субъекта в тексте, масштабе критического наблюдения и гармонии аналитических способностей. Действительно, литературное мастерство каждого специалиста требует сочетания высокой интеллектуальной подготовки и творческой эрудиции, глубина эмоционального и эстетического смысла определяет его характер.

Annotation. In the article the renewal of aesthetic perception in Uzbek literary criticism in the 80s of the 20th century, the uniqueness of the criteria for evaluating an artistic work in literary interpretation, prof. B.Nazarov will be analyzed in the form of his theoretical views. It talks about the ratio of scientific observation and logical syllogism, the integrity of the connection between object and subject in the text, the scale of critical observation and the harmony of analytical skills. In fact, the literary skill of every specialist requires a combination of high intellectual preparation and creative erudition, the depth of emotional and aesthetic meaning defines his character.

Kalit so‘zlar: 80-yillar o‘zbek adabiy tanqidchiligi, estetik tafakkur, poetik talqin, fan metodologiyasi, idrok, ilmiy tajriba, an‘ana, obyekt, subyekt, badiiylik mezonlari, tahlil malakasi, tasvir ruhiyati, mantiq, falsafa, ifoda uslubi, munosabat.

Ключевые слова: узбекское литературоведение 80-х годов, эстетическое мышление, поэтическая интерпретация, методология науки, восприятие, научный опыт, традиция, объект, субъект, критерии художественности, аналитические способности, мысленный образ, логика, философия, стиль выражения, мироощущение.

Key words: Uzbek literary criticism of the 80s, aesthetic thinking, poetic interpretation, science methodology, perception, scientific experience, tradition, object, subject, criteria of artistry, analytical skills, mental image, logic, philosophy, expression style, attitude.

O‘zbek adabiy tanqidchiligi XX asrning 80-yillarida ikki vazifa – barqaror fan metodologiyasida estetik tafakkurni yangilash va ilg‘or ilmiy tajribani o‘zlashtirishni barobar olib bordi. Binobarin, antik davr yunon madaniyatidan ibtido olgan, rus adabiyotshunosligi hamda tanqidchiligi an‘analariga tayangan fan joriy bosqichda tubdan o‘zgardi. Jiddiy islohot o‘tkazish ehtiyoji, ayniqsa, idrokda milliy tushuncha bo‘y ko‘rsatishi bilan yanada jadallashdi. Aslida, “adabiy tanqid, birinchi navbatda, badiiy asar yutuq va kamchiliklari, mahorat sirlari, hayot bilan adabiyotning chambarchas aloqasi haqida fikr yuritadi.

Demak, u, ayni zamonda, ma‘lum ijtimoiy tuzum, ma‘lum muhitda faoliyat ko‘rsatgan ilg‘or ziyolilarning falsafiy, huquqiy, axloqiy qarashlarini ham o‘zida mujassam etadi. Adabiy tanqidida san‘at turlari va estetikaning uyg‘unligini tabiiy hol deb qaramoq lozim. Bu uyg‘unlik adabiyot va san‘atning obrazlilik asosidagi fikrlash doirasini yanada kengaytirishga xizmat qiladi va adabiy tanqidning ba‘zida san‘at darajasiga ko‘tarilishiga ham olib keladi”.¹ Estetik idrok yangilanishi, aslida, nazariy muammo psixologik hamda falsafiy asoslarini o‘zlashtirish, davrlar kesimida adabiy rivojlanish qonuniyatlari takomili bilan o‘lchani, millat adabiy-madaniy va ijtimoiy-siyosiy ehtiyoji ijod umumiy, mushtarak tamoyillari sifat jihatdan o‘zgaruviga imkon yaratadi.

Har bir fan metodologiyasi tadqiqot predmetiga kompleks yondashuvni talab qiladi, ilmiy-nazariy qarashlar yaxlit tarixini shakllantirish esa ta‘limot istiqbolini belgilaydi. 1987-yili O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti jamoasi ikki jildidan iborat “O‘zbek adabiyoti tanqidi ta-

¹ Йўлдошев Б. Ўзбек адабий танқиди тарихи. Тошкент, “Фан”, 2023, 12-бет.

rixi” asosiy loyahasini nashrga tayyorlashi bu borada dadil qadam hisoblanadi. Kitobda ijodkor-tanqidchi faoliyati, ayni tanqidchilikda mahorat va ifoda uslubi xilma-xilligi, muammoga tarixiy-biografik yondashuv usullari, ijodiy ta’sir hamda adabiy aloqalar tarixi uzviy bog‘lamda umumlashtiriladi, salmoqdor adabiy xulosalar chiqariladi.

Filologiya fanlari doktori, professor, O‘zR FA akademigi Baxtiyor Aminovich Nazarov tanqidchilik faoliyati 80-yillarda malakaviy jihatdan ancha takomillashdi. Ayniqsa, olim Til va adabiyot instituti huzuridagi ixtisoslashtirilgan ilmiy kengash majlisida «O‘zbek adabiy tanqidchiligi metodologik prinsiplarning shakllanishi va qaror topishi» mavzusida doktorlik dissertatsiyasi (1984) himoya qilishi samarali mehnat mahsuli hisoblanadi. Bu davrda tadqiqotchi zukko va talabchan o‘quvchiga «She’rlari – oq to‘shli qaldirg‘och» (1981), «Ibrat» (1981), «Adabiy tanqidchilik haqida» (1982), «Ko‘p millatli, yagona, yakdil» (1982), «Shukrullo mahorati» (1984), «Qorachiqqa singgan chehralar» (1984), «Zamonaviylik va mahorat» (1985), «Izlanish samaralari» (1986), «She’r – qalb jasorati» (1987) hamda «Adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalari» (1987) kabi bir qator ilmiy izlanishlarni taqdim etadi. Ayniqsa, uning yetuk mutaxassis tarzida namoyon bo‘lishida «Hayotiylik – bezavol mezon» (1985) hamda «Xamza abadiyati» (1988) risolalari salmoqli o‘rin tutadi. Ikki kitobda o‘zbek adabiyotida tur va janrlar tadriji, XX asr o‘zbek adabiy tanqidchiligi taomillari, badiiy mahorat va poetik tafakkur yangilanishi xususida fikr yuritiladi:

Uning she’rlari o‘ziga nisbatan ancha talabchan. Bu she’rlarni bir emas, bir necha marta, qayta-qayta o‘qish kerak. Bu xususiyat, ba’zan shoir she’rlardagi o‘ta murakkablik tufayli bo‘lsa, aksar she’rlarining zamirida fikriy tig‘izlik, chuqur ramziy ma’nolar, ramziy obrazlar yashirinib yotishi tufaylidir. Ular kishini mushohada yuritishga, fikrlashga, o‘ylashga, uning g‘oyasi va mazmuni mag‘zini chaqishga, shoirning tub maqsadini chuqurroq va asl ma’noda anglashga, mantiqiy jihatdan takroran idrok etishga undaydi.¹

Mamlakatimizda she’r tili va ijod ruhiyatini yaxlit tarzda tahlil qiladigan olimlar barmoq bilan sanoqli sanaladi. Muallif yosh ijodkor uslubiy izlanishlariga baho berarkan, shoir she’riyatini tengdoshlaridan tafovutlaydigan asosiy jihatlarni nozik ilg‘aydi hamda xolis yoritadi. «O‘ta murakkablik» asosiy omili tig‘iz mushohada o‘rin almashinuvi bilan bog‘liq, unda teran ma’no va ramziy mohiyat bir-biriga qorishib ketadi. Aynan poetik g‘oya ijodkor fitratida xususiylashuvi masalani ochiqalaydi, hayotiy mantiqdan yiroq ijodiy mantiq ifodani mustaqillashtirishga keng yo‘l ochadi. Individual talqin va original tuyg‘u shoir badiiy mahoratidan dalolat, muallif poetik kashfiyotlari kitobxon idrokini ham o‘zgartiradi.

Haqiqiy tanqidchi bilan vositachi orasida yer bilan osmoncha farq bor. Tanqidchining o‘z ovozi, be-takror uslubi, ijodkor shaxs ekanligi haqiqiy badiiy asarni kuyib-yonib himoya qilishida, aksincha, soxta asarning yaroqsizligini ishonarli isbotlab berishida ko‘zga tashlanadi. Haqiqiy badiiy asar, iste’dodli san’at-korga tuhmat qilinganida tanqidchi adolat uchun jangga kiradi. Tanqidchining mas’uliyati adabiyot dargohini soxta, yuzaki matnlardan tozalash uchun olib borgan kurashida seziladi,² yozadi prof. A.Rasulov. Aslni soxtadan ajratish, saralash munaqqid zimmasiga tushadi, haqiqiy yoki qalbaki mohiyat aniqlovchisini badiiylik mezonlari belgilaydi. Tafovutni ko‘ra bilish hamda to‘g‘ri yondashuv mahoratga bog‘liq, bunda adabiyotshunoslikka oid bilim qatoriga falsafa, mantiq, axloq, tilshunoslik, psixologiya va sotsiologiya tajribasi qo‘shiladi. Fanlararo integratsiyalashuv badiiy asar mohiyatiga teranroq kirishga imkon beradi.

60–80-yillar adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligida yutuqlar bilan bir qatorda, qator nuqsonlar ham mavjud edi. Ayrim adabiy-tanqidiy maqolalarda ziddiyatli fikrlar va bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan xulosalar ham ko‘rinib qolardi. Shuningdek, ayrim tanqidchilar tomonidan aytilgan zo‘raki yoki obdon o‘ylanmagan xulosa va fikrlarga kitobxonni hadeb ishontirishga harakat qilish hollari ham uchrab turdi. Tanqidchi bilan kitobxon o‘rtasida, yozuvchi va tanqidchi o‘rtasidagi ziddiyatli, bir-birini inkor etuvchi subyektivizm asosida tor, yanglish fikr va xulosalarga o‘ralib qolish holatlaridan ham 60–90-yillar adabiy tanqidchiligi bebahra qolmadi. Ayniqsa, 70-yillar tanqidchiligida ba’zi bir bo‘sh asarlarni oshirib maqtashga qaratilgan taqriz va maqolalar ham e’lon qilindi.³ Unda mafkura va badiiylik yonma-yon yashadi, ba’zi olimlar hukmron siyosat aqidalarini targ‘ib qilishgan bo‘lsa, ayrim mutaxassislar g‘oyaviylikni badiiylikka payvandlashga intilishdi. B.Nazarov o‘z ilmiy talqinida asl mohiyatni estetik tamoyillar asnosida ochib berishga intiladi, xolislik va tahlilga mayl uning butun tanqidchilik faoliyatiga singib ketadi. Adabiy kuzatishlarda qabarib ko‘rinadigan shoirona ijodiy yondashuv, yuksak aqliy daraja va intuitiv tafakkur mushohadani amaliy jihatdan dalolatlaydi.

¹ Назаров Б. Хаётийлик – безавол мезон. Тошкент, “Ёш гвардия”, 1985, 167-бет.

² Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. Тошкент, “Шарк”, 2007, 109 – 110-бетлар.

³ Йўлдошев Б. Ўзбек адабий танқиди тарихи. Тошкент, “Фан”, 2023, 26-бет.

Zotan, “munaqqid tahlil qilinayotgan asar yutuq va kamchiliklarini ko‘rsatish maqsadida uni boshqa asarlarga qiyoslaydi, «yaxshi» va «yomon» tomonlarini ko‘rsatadi. Qiyos, monand orqali tanqidchi asarning betakror tomonlarini ko‘rsatadi. Talqin, aksincha, asarning ich-ichiga kirib boraveradi. Talqinchi o‘z qarashlarini chuqurlashtiravergani sayin asar mohiyati ochilaveradi. Talqinchi zarur bo‘lmagan qiyos, monandlashlardan o‘zini tiyadi. Talqinda asar badiiy yutuqlarini ko‘rsataverish asos emas.¹ Olim nazdida, talqin va ijod qo‘sh qanot, bir-birini to‘ldirishga xizmat qiladi. San‘at va ijod tanqidchi faoliyatida o‘ziga xos o‘rin tutadi, ikki tushunchani mahorat qirralari birlashtiradi. Aynan munaqqid pozitsiyasi matnga izchil va tugal, yaxlit va to‘laqonli baho berishda muhim omil demak.

Umuman, 80-yillar o‘zbek adabiy tanqidchiligida poetik tafakkur yangilanishi O.Sharafiddinov, M. Qo‘shjonov, N.Karimov, S.Mamajonov, B.Nazarov, N.Rahimjonov, Sanjar Sodiq faoliyatiga bog‘lanadi. Islohot missiyasi badiiy asarga sog‘lom munosabat shakllanishi, estetik baholash mezonlari ustuvorlashuvi, muammo va uning talqinida ijtimoiy belgilar kamayishi bilan izohlanadi. Joriy holat, birinchidan, demokratik o‘zgarishlar hosilasi sifatida vujudga kelgan bo‘lsa, ikkinchidan, iliqlik va ma‘naviy mezon kun tartibiga chiqqanligi bilan bog‘lanadi. Adabiy tanqidchilik tizimida kuzatilgan ijobiy o‘zgarishlarda 80-yillar avlodi salmoqli o‘rin tutadi, eng muhimi, joriy bosqichda tavsifiylik va siyosiy tarafdashlik o‘rnini milliy manfaat hamda badiiylik aqidalari egalladi.

Karamova Shohida (Qarshi davlat universiteti “Yangi o‘zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi” kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi; 3145445@mail.ru)
HAYOTIY TAFSILOTLAR VA IJODKOR USLUBI

Annotatsiya. *Hayotiy tafsilotlar muayyan ijodkor uslubining individualligi va iste’dodi darajasini ko‘rsatadi. Takror qo‘llangan, siyqasi chiqqan, umumiy tafsil yoki tafsilotlar she’rning so‘z san’ati sifatidagi qimmatini tushirib yuboradi. Ushbu maqolada mustaqillik davri o‘zbek aruzida hayotiy tafsilotlarni lirik matnga katta mahorat va iste’dod bilan uyg‘unlashtira olgan shoirlarimizdan biri Abdulla Oripovning she’rlari misolida tahlilini ko‘rsatishga harakat qilingan.*

Аннотация. *Важные детали показывают индивидуальность и уровень таланта того или иного стиля художника. Повторяющиеся, клишированные, общие детали или детали умаляют ценность стихотворения как устного искусства. В данной статье предпринята попытка показать анализ стихотворений одного из наших поэтов Абдуллы Оripова, сумевшего с большим мастерством и талантом соединить в лирическом тексте жизненные подробности в узбекской мечте периода независимости.*

Annotation. *Important details show the individuality and level of talent of this or that style of the artist. Repetitive, clichéd, general details or details detract from the value of the poem as an oral art. This article attempts to show an analysis of the poems of one of our poets Abdulla Oripov, who managed with great skill and talent to combine life details in the lyrical text in the Uzbek dream of the period of independence.*

Kalit so‘zlar: *tafsilot, lirik matn, bayonchilik, prozaizm, mushohada, mulohaza, ijodkor uslubi, individuallik.*

Ключевые слова: *деталь, лирический текст, повествование, проза, наблюдение, размышление, творческий стиль, индивидуальность.*

Key words: *detail, lyrical text, narration, prose, observation, reflection, creative style, individuality.*

Kirish (Introduction). Hayotiy tafsilotlar shoirni bayon, mushohadadan qutqaradi, tasvirni yuzaga keltiradi. Chunki bayonchilik, prozaizm, quruq mushohada, mulohaza, didaktika – so‘z san’atining “dushmani”. Badiiy adabiyot tasvir san’atidir, so‘z bilan surat chizishdir. Hayotiy tafsilotlar – badiiy adabiyotning mohiyatini tashkil qilgan obrazlilikni yuzaga chiqaradigan muhim vositalardan biri.

Bundan tashqari, biz “hayotiy tafsilot” deganda umumiy, ko‘p shoirlar tomonidan takror qo‘llanadigan tafsilotlarni emas, o‘ta individual, o‘ta juz‘iy, muayyan ijodkorning o‘zigina ko‘rgan va lirik matnga tatbiq etgan, ikkinchi ijodkor qo‘llashi bilan plagiatlik bo‘lmasa-da, taqlid, takrorga aylanib qoladigan hayotiy tafsilotlarni nazarda tutdik. Faqat mana shunday hayotiy tafsilotlarga lirik obrazning yorqin ifoda etilishi, she’rni asl san‘at asari darajasiga ko‘tarish uchun xizmat qilishi mumkin, ayni vaqtda, faqat o‘sha xil hayotiy tafsilotlarga muayyan ijodkor uslubining individualligi, qolaversa, iste’dodi darajasini ko‘rsa-

¹ Расулов А. Танкид, талқин, баҳолаш. Тошкент, “Фан”, 2006, 11-бет.

tadi. Chunki takror qo‘llangan, siyqasi chiqqan, umumiy tafsil yoki tafsilotlar she‘rning so‘z san’ati sifatidagi qimmatini tushirib yuboradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Mustaqillik davri o‘zbek aruzida hayotiy tafsilotlarni lirik matnga katta mahorat va iste’dod bilan uyg‘unlashtira olgan shoirlarimizdan biri Abdulla Oripovdir. U tabiat, xalq hayoti, maishiy turmushga oid uncha-muncha shoirning nigohlari ilg‘ay olmaydigan, she‘r matniga olib kirish mushkuldek bo‘lib tuyuladigan tafsilotlarni dadillik bilan badiiy tasvir doirasiga tortadi.

*Mendan ko‘ngil uz deysan, qandoq qilib uzurman,
Qandoq qilib bu ko‘ngil imoratin buzurman.
O‘zingga ham, azizam, rahm etsang-chi bir qadar,
Ne bo‘lurin bilmassan sendan ko‘ngil uzsam gar.
O‘ylaysanki, bir taraf omon qolur, sog‘ qolur,
Uzilgan ul joyda ham chandiq qolur, dog‘ qolur. [1.50]*

She‘r lirik qahramonning sevgilisiga murojaati tarzida yozilgan. Mahbuba ishq rishtalarini uzib ketmoqchi. Shoir bu muhabbat tarafayn ekaniga juda nozik ishora bilan, yorqin hayotiy tafsilot vositasida ishora qiladi: “Uzilgan ul joyda ham chandiq qolur, dog‘ qolur”. Odam jismidan jarrohlik yo‘li bilan biror uzv olib tashlansa, o‘rnida chandiq qoladi – shoir shu hayotiy tafsilot orqali oshiq va ma‘shuqning bir butunligiga ishora qilayпти.

Quyidagi g‘azalda matla‘da keltirilgan hayotiy tafsilot she‘rning yozilishiga turtki, impuls vazifasida kelgan:

*Senga peshvoz chiqmasam gar kelmasin hech bir malol,
Oftobga tik qarashga bormi hech ko‘zda majol. [1.50]*

She‘r ishqiy mavzuda, manzara, tasvirlar, hatto ishqiy mazmun pardasi orqali ijtimoiy mazmunni ifoda etishi bilan mumtoz g‘azallarga nihoyatda yaqin. Lekin A.Oripov eski tashbehu tasvirlarni qalashtirib, bee‘tibor, dilozor va sho‘x ma‘shuqadan sentimental yig‘loqilik bilan shikoyat qilmaydi. Bayon, mushohadaga kuch bermaydi. Balki har bir baytda konkret, original tasvirlarni izchil bera boradi. Mahbuba quyoshdek yuksak va porloq, unga tik qarab bo‘lmaydi, unga peshvoz chiqmakka oshiqda jur‘at ham, kuch ham yo‘q. A.Oripov g‘azalning keyingi baytlarida hayotiy tafsilotlarni yana qatorlashtiradi:

*Saf qator oshiqlaring ko‘rganda yayrar barg kabi,
Bilmagaylar, cho‘pga ildiz yetkazur ko‘rk-u jamol. [1.50]*

Bu yerda barglarning ildizdan oziqlanishi bilan bog‘liq fanniy hodisadan tashbeh sifatida foydalanilgan. Ma‘lumki, barglar shoxda yo navbatma-navbat, yo parallel usulida simmetrik tarzda qat‘iy tartib bilan joylashadi. Shoir botanikada aniqlangan mana shu simmetriyaviylik va qat‘iy tartibni ham biladi va uni “saf qator” degan sifatlash orqali ifoda etadi. Keyingi baytdagi tafsilot tufayli ma‘shuqaning tashrifi bilan bog‘liq manzarani nihoyatda yorqin hayotiy tus oladi:

*Ahli bazming tik turarlar shay bo‘lib, amring kutib,
Kingadir “O‘ltur!” deding, o‘ldim deya qildim xayol.*

Bu bayt she‘rga yengil yumoristik ruh bergan. Shoir “o‘ltur” so‘zining omonimligidan foydalanib, mumtozruh bir bayt yaratgan. Amr-u farmon kutganlarning tik turishi, qatl-o‘lim motivi ma‘shuqaga qattol bir hukmdor tusini beradi, u mumtoz she‘riyatda “husn shohi” deya ulug‘langan dilbaru dilrabolarga o‘xshab ketadi. Keyingi bayt esa shu mazmunni izchil davom ettiradi:

*Men senga bir so‘z demay, o‘tdim mudom boshim egik,
Qaysi quldir, xojasiga jahd etib bergay savol.*

Mazkur ikki bayt ma‘shuqani hokimi mutlaq bo‘lgan sharqona hukmdorlarning sifatleri ila tavsiflaydi. U shunday hukmdorki, tashrif buyursa – peshvoz chiqmoqqa yurak dov bermaydi, qarshisida qo‘l qovushtirib, tik turiladi, og‘zidan chiqqan gap o‘lim hukmiday yangraydi, savol berib bo‘lmaydi... Chunki u – xoja, qolganlar – qul! Qulning xojasiga savol berishga-da hadd-u ixtiyori yo‘qligi bilan bog‘liq hayotiy tafsilot g‘azalga, bir tarafdin, mumtoz she‘riyat ruhini bergan. Ikkinchi tarafdin, yuqoridagi tabiat bilan bog‘liq, maishiy va ijtimoiy tafsilotlar uzoq va yaqin o‘tmishimizga ishoar qilib, g‘azal ijtimoiy mazmunga ham ega ekaniga ishora qilayotgandek. Shoir ishqiy she‘rlarga xos ramziylikni, mumtoz she‘riyatimizda muvaffaqiyat bilan qo‘llangan usulga yangi hayot bag‘ishlagandek.

*Sochlarining atridan ham bahrasizdirman hanuz,
Bois ulki, kezganingda sen tomon esgay shamol.*

Ma‘shuqa yana hukmdori oliy kabi tasavvur beradi: odamlar-ku odamlar, hatto shamol ham u tarafga qarab esadi!

Mumtoz adabiyotda quyuq qo‘llangan “tosh” tafsilini ham Abdulla Oripov ohorli shaklda qo‘llagan: “Bag‘ri toshsan, xasta aylab, ham yiroq ketding nechun, //Tibda derlar: gohi dardga tosh davo, bir kelmading”. Baytdagi tosh bilan bog‘liq hayotiy tafsilot sharhini shoirning o‘zidan eshitasak: bir suhbatda muxbir yuqoridagi baytni eslatib, shoirga “Noma”dagi Abdulla yorga murojaat qilganmi yoki ilhomgami? Bu misrani irsoli masal deyish kerakmi yoki haqiqatda shundaymi?” deya savol beradi [2.3]. Shoirning javobi: “Yaxshi anglabsiz. Ibn Sino haqida “Hakim va ajal” nomli doston yozganman. “Tibbiyotda bir tosh bor shuni kukun qilgin, ichsang, dardga davo”, – deydi Ibn Sino. Mineral toshlardan dori qilgan-da u kishi. Yoki chayonni qaynoq qozonda qizdirib, kukunidan dori tayyorlagan. Bag‘ri tosh, o‘zing xasta qilding, uzoq ketding, deb g‘azalda aytadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). G‘azalni xohlagan tomondan tahlil qilish mumkin. Lekin uni, birinchi galda, his qilish kerak. G‘azal – odamning ruhiy komillikka intizorligi. Shunday ekan, dunyoga real yondashishni Firdavsiydan, Hofizdan, ayniqsa, Navoiydan o‘rganish kerak» [2.3].

Ko‘rinadiki, Abdulla Oripov she‘rlarida oddiy badiiy tafsilotni ham tasodifan qo‘llamagan; she‘rda real dunyo tafsilotlarini qo‘llashni mumtoz shoirlardan o‘zlashtirgan.

Bunday misollarni Abdulla Oripov aruzidan yana ko‘plab keltirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Орипов А. Ишонч кўприклари. Т., Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989, 50-бет.
2. Замон, шоир ва ғазал. Абдулла Орипов билан суҳбат. “Шарқ юлдузи”, 2015, 1-сон.

Kurbaniyazov Maxsud (Berdaq nomidagi QODU “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi dotsenti) “QISASI RABG‘UZIY” ASARIDA JANRLARARO ALOQALAR

Annotatsiya. Maqolada XIV asrda yaratilgan “Qisasi Rabg‘uziy” asarida qissalar tarkibidagi hikoya, savol-javob kabi janrlarning o‘rni va vazifasi o‘rganilgan. Rabg‘uziyning buyuk nasr ustasi, turli adabiy janrlardan foydalanish mahorati, ayni paytda, uning manbalarni saralash tamoyili tadqiq etilgan.

Аннотация. В статье исследуется роль и функция таких жанров, как рассказ, вопрос-ответ в рассказах в произведении «Кисаси Рабгузи», созданном в XIV веке. Рабгузи был великим мастером прозы, изучались его умение использовать разные литературные жанры, принцип отбора источников.

Annotation. The article deals with the role and objective of genres such as short stories and questionnaire in “Qisasi Rabg‘uziy” (“Stories of Rabguziy”) created in the 14th century. The great poetry ability, the skill in using various literary genres of Rabguziy, meanwhile the way of his sorting out resources are investigated.

Kalit so‘zlar: «Qisasi Rabg‘uziy», qissa, hikoyat, savol-javob, adabiy janr.

Ключевые слова: «Кисаси Рабгузи», повесть, повествование, вопрос-ответ, литературный жанр.

Key words: “Stories of Rabguziy”, story, short story, questionnaire, literary genre.

Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari takrorlanmas agiografik asar. Zotan, har bir payg‘ambarga bag‘ishlangan qissalarda ularning hayotiga oid turli lavhalarni, ular ko‘rsatgan mo‘jizalarni, muqaddas buyum kabilarni ko‘rishimiz mumkin. Bugun “Qisasi Rabg‘uziy”ning agiografik asar sifatidagi alohida belgilari bilan bir qatorda, asardagi janrlar o‘rtasidagi munosabatlar haqida so‘z yuritmoqchimiz. “Qisasi Rabg‘uziy”dagi har bir qissa alohida mustaqil asar bo‘lgani bois, turli janrlardan foydalanish imkoniyati katta edi. Odatda, agiografik asarlar ma‘lum tarixiy avliyolar haqida o‘quvchiga to‘laqonli ma‘lumot berish, uning hayoti va faoliyatiga oid ayrim qirralarni turli janrlar orqali ochish va kitobxonga yetkazishni maqsad qilib qo‘yadi. Agiografik asarlar yana shu jihatlari bilan diqqatga sazovorki, bu asarlar zimmasiga, bu turdagi asarlarning janr va funksional parametrlari bilan bir qatorda, qator diniy maqsadlarni o‘rtaga chiqarish va omma tomonidan bu maqsadlarni amalga oshirish vazifasi ham yuklatiladi. Shu bilan birga, “jafokashlarning otashin muhabbati, avliyolarning hayoti, tabarruk narsalarga erishish va o‘sha narsalarni boshqa joyga ko‘chirish, avliyolarning mo‘jizalari haqidagi voqealar” [1.9] ham mazkur turkum asarlari vazifasida, jumladan, “Qisasi Rabg‘uziy” vazifasiga ham kiradi. Albatta, agiografik asarlar, birinchi navbatda, badiiy asarlar hisoblanadi. Agiografik asarlar tarkibidagi janrlar xilma-xilligi ularni badiiy asar sifatida qarashga asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Sharq adabiyotida payg‘ambarlar, avliyolar obrazi ko‘chib yurishi natijasida ommalashdi, ayni paytda, bu obrazlar ideallashtirilishi tufayli, ularning yangi qirralari kashf etildi. Payg‘ambarlar va avliyolar

obrazini ijodkorlar shunchaki ko'chirib qolmadilar, balki ularning to'laqonli obrazini yaratishni maqsad qilib qo'ydilar. To'laqonli obraz faqat qahramonning hayotiga oid voqealarni uzundan-uzoq bayon qilish natijasida yuzaga kelmay, balki ijodkorlar bir qator janrlarni agiografik asar tarkibiga olib kirish bilan ham kitobxonni ishontirishga, ham asarning yangi bir ruhda va mazmunda yaratilishiga erishdilar. "Qisasi Rabg'uziy" turkiy adabiyotda ana shunday agiografik asar sifatida shuhrat qozondi. Turkiy adabiyotda "Qisasi Rabg'uziy" yaratilgandan so'ng bir necha yuz yillar davomida qator "Qisas ul-anbiyo"larning yaratilgani [2.16] buning dalilidir. "Qisasi Rabg'uziy" payg'ambarlar tarixi haqidagi asar bo'lgani uchungina emas, balki mazkur obrazlarga yangi nuqtayi nazar bilan qarash, e'tiqod va maslakni adabiy janrlarga bog'lash bilan ham omma tomonidan qabul qilindi va shuhrat qozondi. Payg'ambarlarni, bir tomondan, tarixiy shaxs sifatida talqin qilish, ikkinchi tomondan, ularning ideallashtirilgan obrazini yaratish va keng ommaga yetkazish maqsadi borligi uchun ham turli janrlarni mazkur obrazlarga bog'lash holatlari kuzatiladi.

Rabg'uziy qaysi janrdan foydalanmasin, albatta, qissa qahramonining biron qirrasiga o'sha janrni bog'laydi, qahramonning to'laqonli obrazini yuzaga chiqaradi. Ayni paytda, Rabg'uziyning manbalarga, qolaversa, o'zi olib kirgan barcha janrlarga munosabati ham agiografik asarlarning shakllanish qonuniyatlariga mos keladi. Zotan, agiografik asarlarning mazmun-mohiyati payg'ambarlarning to'laqonli obraziga va avliyolikning fenomenini interpretatsiya qilishga qaratilgan. Albatta, bitta janr, masalan, qissa yoki hikoya janrining o'zi bu vazifalarni qamrab ololmaydi.

Rabg'uziy bu asariga o'zbek mumtoz adabiyotida yoki turkiy adabiyotda o'zigacha uchramaydigan latifa, foyda, savol-javob, naql kabi bir qator janrlarni olib kirdi. Bu janrlarni Rabg'uziy mazkur asariga qayerdan olgani to'g'risida biron ma'lumotga ega emasmiz. Shu bilan birga, ta'kidlash kerakki, Rabg'uziygacha bo'lgan turkiy adabiyotda hikoyat, rivoyat janrlari bor. Ammo latifa, foyda, savol-javob singari janrlardan asarda istifoda etishda Rabg'uziy qaysi manbalarga tayangani noma'lum, u bu haqda u biron so'z aytmaydi. Biz quyida Rabg'uziy istifoda etgan bu janrlarning paydo bo'lishini qissalar tarkibidagi vazifasidan kelib chiqqan holda baholaymiz.

Biz hikoyadan boshqa hamma janrlarni qamrab ololmaymiz. Biz "Qisasi Rabg'uziy" tarkibidagi qissa va hikoyat janridan boshqalarini "kichik janrlar" deb qarar ekanmiz, bu janrlarning hammasini tahlil qilish niyatidan uzoqmiz. Bular alohida tadqiqotni talab qiladi. Biz hikoyat janriga bog'liq bo'lgan ayrim kichik janrlar to'g'risidagina so'z yuritamiz. Mazkur kichik janrlardan "savol-javob" ko'proq hikoyatga va obrazlarni aniqlashtirishga qaratilgani uchun shu janrga oid ayrim mulohazalarimizni o'rtaga tashlaymiz.

Asarda "savol-javob" har bir qissa tarkibida mavjud. "Savol-javob"ning maqsadi va vazifasi, aksariyat holatlarda, ma'lum voqea, qoida va udumlarni insoniyat hayotiga tatbiq qilish yoki cheklash, ularning tatbiq etilishi yoki ta'qiqlanishiga asos bo'lgan omillar, voqealar tizimiga aniqlik kiritish, kitobxonda savolga o'rin qoldirmaslikka harakat qilish (1-jild, 22, 25, 103 va b. sahifalar) kabilardan iboratdir. Misol tariqasida asardagi "Qissai Yusuf Siddiq alayhissalom" qissasi va uning tarkibidagi janrlarga e'tibor beraylik. Rabg'uziy Sharq adabiyotida Yusuf haqidagi barcha manbalardan xabardorligi, Yusufning ma'lum bir jihatlari yoritilgan deyarli aksariyat manbalarni puxta o'rgangani ana shu kichik janrlar orqali ayon bo'ladi. Ayni paytda, Rabg'uziy Yusuf qissasining asardagi boshqa qissalardan "telimrak (ya'ni ko'proq -M.Q.), foydasi ukushrak...ul yo'ldin "Ahsan ul-qasas" temak" [1.100] ekanini dalillaydi. "Ahsan ul-qasas" - "Qissalarning eng go'zali" demakdir. Rabg'uziyning Yusuf qissasiga bergan bu ta'rifidan shu narsa ang-lashiladiki, bayon uslubida ham voqealarning keskinligi, Yusuf kechirgan voqealarning o'ta fojiali va dardli ekani o'z ifodasini topgani bilan bir qatorda, bir necha janrlar - g'azal, bayt, rivoyat, latifa, hikoyat, foyda, savol-javob kabilar "Qissai Yusuf alayhissalom" tarkibidan o'rin olgan. Sharq adabiyotida eng qadimiy va mashhur bo'lgan Yusuf obrazini yanada to'laqonli qilib yaratish, anglanmagan qirralarini kitobxoniga etkazish Rabg'uziyning maqsadi edi. Buni anglatish uchun kitobxonni ishontirishi kerak edi.

Rabg'uziy janrlarni bir-biridan farqlar ekan, shunchaki o'z davridagi janrlar tabiatiga oid kuzatuvlari doirasida muhokama qilib qolmaydi, balki janrlarga, umuman, adabiyotga nozik didli adabiyotshunos, tanqidchi sifatida munosabatda bo'ladi. Qissa ishonchli, kitobxonda shubha qoldirmaydigan bo'lishi uchun, voqealar oqimida zo'rma-zo'rakilikka barham berish maqsadida Rabg'uziy bir rivoyat tarkibiga turli manbalardan turli detallarni olib kirar ekan, u detallarning qanchalik haqiqat ekaniga, qissa qahramoni Yusufning qaysidir qirralarini ochishiga alohida diqqat qaratadi. Jumladan, mazkur qissadagi an'anaviy sujetga ko'ra, Yusuf yetti yoshda tush ko'radi: aka-ukalarning hammasi cho'lda qo'llaridagi tayoqlarini yerga suqadilar, hammalarining tayoqlari ko'kardi, ammo o'smadi. Faqat Yusufning tayog'i ko'karib, ko'kka bo'y cho'zdi va akalarining tayog'idan o'zib ketdi [3.16].

Qissaning shu parchasini o'qigan kitobxonda, Rabg'uziy bu sujetga dalilni qayerdan olgan ekan, degan fikr uyg'onishi, tabiiy. Zotan, "Yusuf" yoki "Yusuf va Zulayho" qissalarining hammasida ham shu detal bor emas. Masalan, bizga ma'lum bo'lgan Musoning Ibtido kitobida (Bibiliyaning "Eski Ahd" qismida), Ibn Sinoning "Yusuf" qissasida, Durbekka nisbat berilgan "Yusuf va Zulayho" dostonida aynan Yusuf tayog'ining ko'karishi va ko'kka bo'y cho'zishi lavhasi berilmagan.

Shu o'rinda, Rabg'uziy "Yusuf" va "Yusuf va Zulayho" qissalarining boshqa variantlarini ham sinchiklab o'rganganiga oid bir dalilga duch kelamiz: u boshqa xalqlarda mazkur sujetning keng tarqalgani va ayrim lavhalarda farq borligini dalillash maqsadida ilmiy dalil qilib "*Ba'zilar aymishlar, inichilarining tayoqlari Yusuf tayoqiga sajda qildilar*" [1.102] degan jumlaning kiritilgan ketadi va so'ngra voqealar rivoji bundan oldingi sujetga bog'lanib ketaveradi. Bitta shu jumlaning kiritilgani, bir tomondan, Yusuf qissasining variantlari keng tarqalganiga, ikkinchidan, o'z davrida mazkur turkum qissalari tarkibida qaysi detal yoki lavhalar yuzasidan odamlar va ilm ahli o'rtasida bahslar bo'lganiga, bu rivoyatning ishonchli yoki ishonchsiz ekaniga ishora qiladi. Yoki Yusuf ikkinchi marta – o'n bitta yulduz kun va oy bilan birga Yusufga sajda qilayotganlari voqeasini tushida ko'rganda, Rabg'uziy bu rivoyatning aynan shu lavhasi variantlarini keltiradi. Aynan yulduzlarning nomlari va yulduzlar qaysi vaziyatda turib sajda qilganlari voqeasi Rabg'uziyning diqqat markazida bo'ladi: "*...ul yulduzlar oti...bir rivoyatda zayyol, zulunudon, zulfara', zulkifon. Bu o'n bir yulduzlar oy kun birla ko'k etaginda Yusuf(g'a) sajda qildilar. Yana bir rivoyatda ko'kdan inib sajda qildilar*" [1.102]. Rivoyatning boshqa janrlardan farqli ravishda, tarixiylik tamoyiliga tayanishi Rabg'uziyning diqqat markazida bo'lgan. Aks holda, o'quvchi qissadagi bu lavhalarga ishonmagan bo'lar edi. Shu bois Rabg'uziy ikkala variantini ham keltirib o'tadi va kitobxon hukmiga havola qiladi.

Asar tarkibidagi turli janrlarda bir-birini takrorlamaydigan detallarning vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, hikoyat janriga oid keltirilgan detal bu janrni boshqa janrlardan – xabar, rivoyat janrlaridan farqlab turadi. Rabg'uziy bitta qissa tarkibida bir necha janrlardan istifoda etganda, qanday voqealar hikoyaning materiali, qanday voqealar xabar yoki rivoyatning materiali bo'lishi kerakligini o'ziga xos tarzda – ilmiy mushohada va munosabat bildirish orqali namoyon qiladi. Rabg'uziy "Xabarda kelur" deya bayon qilganda, ma'lum bir sujetni hikoya qilmaydi, balki qissa qahramonining fe'l-atvori va doimiy a'moliga oid qisqa dalillarni keltiradi. Rabg'uziy "xabar"da ko'proq tarixiylik tamoyiliga urg'u qaratadi. Rabg'uziy keltirgan rivoyatning maqsadi va vazifasi esa ma'lum bir tarixiy voqealarga asoslangan holda sujet yaratishdan, kitobxoniga voqealarning ishonchli ekanini ta'kidlab ko'rsatishdan iboratdir. Misol tariqasida Muso yalavoch qissasida keltirilgan xabar va hikoyatga e'tibor qaratamiz.

Rabg'uziy bu qissada "xabar" janriga oid voqeani keltirganda, doimiy, takrorlanuvchi sifatga e'tibor beradi: "*Muso yalavoch har kunda bani Isroilni yig'ib, minbarga oshib, majlis tutar erdi, va'z va nasihat aytur erdi. Qorunma oltun piyola chiqarub, Muso o'trusunda qo'yub, mutriblar hozir qilib, qullari o'nginda, so'nginda o'lur, o'lturtub xamr ichar erdi. Muso taxammul qilib turar erdi*".

Asarda xabar janri shu lavhadan iborat. Yuqorida aytganimizday, Musoga xos sifatlar va u doimiy mashg'ul bo'lgan ish-a'mol bu janrga asos bo'lgan. Shu "xabar"dan so'ng keltirilgan hikoyatda esa Musoning hayoti bilan bog'liq uzundan-uzuuq voqea, aniqrog'i, u ko'rsatgan mo'jiza bilan bog'liq voqea bayon qilinadi. Hikoya mavzusi – Isroil xalqining shakkokligi, Olloh taolo Musoga bergan mo'jiza ko'rsatish qudrati orqali shakkok Qorunni va uning jamiki mol-mulkini yer yutib yuborishi haqida. Ana shu motiv asosida (bu motiv Tavrot tarkibidagi "Chiqish" kitobida ham bor) Rabg'uziy "meros qolgan sujet" [4.496]-ni qayta ishladi, yangiladi. Buning natijasida o'zbek hikoyachiligi Sharqda keng tarqalgan Muso payg'ambar hayotining muhim qirrasiga – mo'jiza ko'rsatish qobiliyatiga oid hikoya bilan boyidi. Mo'jiza – "Qisasi Rabg'uziy" hikoyalarida qat'iy o'rin topgan detallardan biri. Mo'jiza ko'rsatishga oid hikoyatlar Ibrohim, Muso, Iso Masih, Muhammad s.a.v haqidagi va boshqa qator hikoyatlarda bor. Mo'jiza ko'rsatish haqidagi hikoyatlar bo'lmaganda edi, Rabg'uziy qissalari oddiy xabarlardan farq qilmagan bo'lar edi.

Hikoyatda aytilishicha, Iso bir xumdan suv ichgan edi, suv achchiq ekan, to'kib tashladi. So'ng ariq suvidan ichgan edi, suv chuchuk ekan. Hayron bo'lib so'radi: "Ariq suvi chuchuk, xumning suvi achchiq. Buning hikmati nimada ekan?" Shu lahzada: "Xumdan so'ra", degan nido keldi. Olloh Taolo xumga til ato qildi va Iso boyagi savolini berdi. Xum shunday javob berdi: "Men inson edim, o'ldim. Ko'p yillar o'tdi. Yetim, tanam, suyaklarim chiridi, tuproqqa aylandi. O'sha tuproqdan xum yasadilar. Suvning achchig'i jonning achchig'idir". Ayishlaricha, Isoga bir xilda turish ravo emas edi. U yurganda, xastalar manfaat topar edilar. Iso qachon harakatda bo'lib, yurganda, xaloyiq ozor topar edi [2.86].

Bu hikoya Iso Masihga Olloh taolo tomonidan mo'jiza ko'rsatish qobiliyati berilgani haqidagi voqealarning bittasi: u shunchaki harakat qilganda – yurib, xastalarning yonidan o'tganda, yo xastalarga qo'

lini tekizganda yo bo'lmasa tug'ma xastalar ham uning kiyimiga qo'lini tekizganda, shifo topganlar; u hatto o'liklarni tiriltirish qobiliyatiga ega bo'lgani haqidagi hikoyatlardan namunalar ham bor [2.88].

Muso haqidagi hikoyatlarda ham, xuddi Iso Masihga oid hikoyatlardagi singari, mo'jizakorlik qobiliyati hikoya qilinadi. Bu hikoyatlarni Rabg'uziy keltirishidan maqsad – Musoni payg'ambar sifatida ulug'lash bilan bir qatorda, hikoya qahramoni obrazini qissaning sujetiga bog'lash, qissada bayon qilingan ayrim detallarga aniqlik kiritishdan iborat. Bu hikoyalarni qissa qahramonlarining ayrim qirralariga "sharh" deb aytish mumkin.

Umuman olganda, "Qisasi Rabg'uziy"dagi har bir qissa alohida mustaqil asar sifatida o'z mohiyatiga ega. Qissalar tarkibidagi turli janrlarning o'ziga xos vazifasi bor bo'lib, qissa qahramoni – payg'ambarlarning to'laqonli va ishonchli obrazini yaratish, keng ommada shubhaga o'rin qoldirmaslik edi. Rabg'uziy buyuk nasr ustasi sifatida bu vazifani bajardi. Boshqa "Qisas ul-anbiyo"lardagi payg'ambarlar obrazi va janrlarga "Qisasi Rabg'uziy" qiyoslanganda, bu ijodkorning mahorati yanada kengroq ochiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Парамонова М.И. Агиография. Словарь средневековой культуры. М., «Российская политическая энциклопедия», под ред. А.И Гуревича, 2003, с. 9.
2. Ismat Jamil o'g'li. XIV yuzyila ait bir KISAS-I ENBIYA nusxasi uzerinde sentaks injelemesi. Ankara, 1994, s. 16.
3. Qavs ichidagi birinchi raqam "Qisasi Rabg'uziy"ning (Toshkent, "Yozuvchi" nashriyoti, 1990) jildini, ikkinchi raqam kitob sahifasini bildiradi.
4. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. Москва, 1940, с. 496.

Bayniyazov Azatbay Tursinbayevich (Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi) BADIYYAT VA TARIXIY HAQIQAT QIYOSI

Аннотация. *Mazkur maqolada Erkin Samandar qalamiga mansub "Sulton Jaloliddin" romanida tasvirlangan tarix haqiqati, davr manzarasi, qahramonlar qiyofasi qanchalik to'g'ri va ishonarli tasvirlanganini Jaloliddin Manguberdi hayotini aks ettiruvchi birlamchi, ishonchli manba sifatida e'tirof etilgan Shihobiddin Muhammad an-Nasaviyning "Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti" asari bilan qiyosiy tahlil qilinadi.*

Аннотация. *В данной статье точно и убедительно описаны детали жизни "Султана Джалалуддина" правда истории, пейзаж эпохи, образ героев, описанных в романе Эркина Самандара "Султан Джалалуддин Мангуберди" Шихобуддина Мухаммада ан-Насави, который признан первостепенным и достоверным источником, отражающим жизнь Джалалуддина Мангуберди.*

Annotation. *This article accurately and convincingly describes in detail the life of "Sultan Jalaluddin" the truth of history, the landscape of the era, the image of the heroes described in Erkin Samandar's novel "Sultan Jalaluddin". Manguberdi" by Shikhobuddin Muhammad al-Nasawi, which is recognized as a primary and reliable source reflecting the life of Jalaluddin Manguberdi".*

Калит so'zlar: *xorazmshohlar, mo'g'ullar, tarixiy manba, qo'lyozma, tarixiy kolorit, sujet izchilligi.*

Ключевые слова: *хорезмшахи, монголы, исторический источник, рукопись, исторический колорит, сюжетная последовательность.*

Key words: *Khorezmshahs, Mongols, historical source, manuscript, historical color, plot consistency.*

Tarixiy mavzuda yozilgan asarlarni mutolaa qilish, ulardagi tarixiy haqiqat hamda ijodkor badiiy to'qimasini anglash va uqish kitobxondan favqulodda iste'dod hamda ziyraklik, bilim va tajriba talab qiladi. Shu ma'noda biz mazkur maqolada Erkin Samandar qalamiga mansub "Sulton Jaloliddin" romanida tasvirlangan tarix haqiqati, davr manzarasi, qahramonlar qiyofasi qanchalik to'g'ri va ishonarli tasvirlanganini Jaloliddin Manguberdi hayotini aks ettiruvchi birlamchi, ishonchli manba sifatida e'tirof etilgan Shihobiddin Muhammad an-Nasaviyning "Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti" asari bilan qiyosiy tahlil qilishni joiz deb bildik.

Xorazmshohlar tarixining suronli yillarini aks ettiruvchi bebaho qo'lyozma Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy qalamiga mansub "Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti" ("Siyrat as-sulton Jalol ad-din Mengburniy") asari arab tilida yozilgan. Asarning ikkita to'liq bo'lmagan qo'lyozmasi bugungi kungacha yetib kelgan. Ulardan biri 1260-yilda yozilgan qo'lyozmasi Parij Milliy kutubxonasida, ikkinchisi Britaniya muzeyida saqlanadi. Bu asar haqida g'arb tarixiga ilk ma'lumotni XIX asr o'rtalarila K.D.Osson olib kiradi. Olimning 1852-yilda Amsterdam shahrida nashr etilgan "Mo'g'ullarning Chingizxondan Amir

Temurgacha bo'lgan tarixi" deb nomlangan asarida bu haqda mufassal ma'lumot berilgan. Keyinchalik, sharqshunos olim Oktav Udas "Siyrat"ni fransuz tiliga tarjima qiladi va nashr ettiradi. Bu asarning jahon tarixidagi o'rni haqida bir qancha maqolalar yozadi. Shundan keyin g'arb tarixida Jaloliddin Manguberdi to'g'risida A.Myuller, J.Boyl, V.Fishel, V.Allen, X.Xorst, Kl.Kaen, G.Gottshalk, B.Shpuler kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari paydo bo'ladi. Ular Nasaviy asari bilan birgalikda Jaloliddin Manguberding tarixidagi o'rniga ham munosib baho beradilar.

Ushbu asarning yana bir qimmatli tomoni shundaki, agar o'sha davrda xorazmshohlar va mo'g'ullar o'rtasidagi kurash voqealarini ko'pchilik tarixchilar mo'g'ullar tomonida turib yoritgan bo'lsalar, bu asarda tarixga xorazmshohlar tomonidan turib nigoh tashlanadi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, o'sha davrning boshqa tarixchilari ko'ra olmagan teran haqiqatini An-Nasaviy yaxshi bilgan va asarida ko'rsatib bera olgan. Jumladan, xorazmshohlar davlatining ichki hayoti, Turkon xotunning mamlakat hayotida tutgan o'rni, saltanatning ichdan yemirila boshlashi, qipchoqlarning Alovuddin Muhammadga nisbatan sotqinligi, Bog'dod xalifasining xorazmshohlarga nisbatan salbiy munosabati, adolatli va jasur sarkarda Jaloliddinning Gruziyaga yurishi sabablari, uning ayyubiy, ismoiliy sultonlar bilan o'zaro aloqasi, ularning sultonga xiyonatkorligi kabi masalalar borki, Nasaviy ularni yangicha asosda yoritadi. Shuning uchun ham o'sha davrda va undan sal keyin yashab o'tgan tarixchilardan aksariyati, jumladan, Al-Maqdisiy, Abul Fido, Ibn Xoldun, Al-Fuvatiy, Al-Ayniy, Al-Xazrajiy, Ibn Shaddod, Az-Zahabiy, As-Safadiy to'plamlarida An-Nasaviyning bu asariga Jaloliddin Manguberdi hayotini aks ettiruvchi birlamchi, ishonchli manba deb baho berganlar hamda undan iqtiboslar olganlar.

Yozuvchi, dramaturg, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Erkin Samandarning "Sulton Jaloliddin" romanida ham ayni yuqorida qayd qilingan tarix silsalasi badiiy bo'yoqdor tasvirlarda aks etadi. Ikkala manbani qiyosiy tadqiq qilishimiz natijasi shundan darak beradiki, muallif Erkin Samandar asarni yozishda aynan An-Nasaviy qalamiga mansub tarixiy manbaga tayangan va unda berilgan voqeliklarni obrazli jonlantirgan. Romanning dastlabki sahifalarida Alouddin Xorazmshoh bilan sulton Jaloliddinning Xorazm, Buxoro va Samarqand qal'asini mo'g'ul hujumidan himoya qilishda saltanat lashkarini hududlarga bo'lmasdan yaxlit kuch bo'lib shiddat ila yopirilib kelayotgan dushman ustiga suronli yurish qilish borasidagi bahs-munozaralari aks etadi. Fikrimiz isboti uchun quyida asardan parcha keltirishni joiz deb bildik:

"...– Meni to'g'ri tushungaysiz, padari buzrukvor, – vazminlik bilan dedi Jaloliddin, –yog'iy dovul yanglig' bostirib kelayotgan asno oqimga qarshi chiqmoqlikdin o'zga chora bo'lg'aymi? Bori lashkarni o'sha oqimga qarshi otlantirmoqdin o'zga yo'l yo'qtur axir..."

Jaloliddin bori lashkar deganda qudratli qo'shin – Samarqanddagi oltmish ming, Buxorodagi ellik ming, Urgandagi yetmish ming, jami besh yuz ming lashkarni ko'zda tutayotgan edi...

...O'g'li ko'nglidan o'tayotgan xayollarni shoh ilg'ab turgani bois, yog'iyning mash'um rejasiga qarshi ne to'siqlar hozirlaganini eslatib qo'yimoqchi bo'ldi:

– Samarqand va Buxoro devorlarini zudlik ila qayta qurdiranim bilursen. Birgina Samarqand devori qurilishining o'zida oltmish ming kishini kechasi-yu kunduzi qandoq ishlatganimdan ham ogohsen. Qalamravimdag'i to'rt yuz ellik qal'aning bari ana shundoq, ular o'zini-o'zi himoya aylashga qodirdur".

Ota-o'g'il o'rtasidagi mazkur tortishuv jarayoni, Sulton Alouddinning himoya uchun qal'a devorlarini qayta qurdirishi, besh yuz ming lashkarga ega qudratli saltanatning parokandalikka yuz tutishi, mo'g'ul istilochilarining qo'li baland kelishi uchun sabab bo'lgan mamlakatdagi ichki nizolar, davlat boshqaruvidagi adolatsizlik kabi tarixiy voqealar Nasaviy kitobning "Chingizxon qo'shinlari hujumini bilgandan keyin sulton ularga qarshi qanday noto'g'ri tadbirlar qo'llagani bayoni" deb nomlangan 16-bobida quyidagicha beriladi:

"Sulton og'ir ahvolga tushib, zulmat singari tashvishlar girdobida qolganida birinchi amalga oshirishga qaror qilgan rejasi Samarqand shahri atrofiga devor qurdirish fikri bo'ldi. Shahar atrofini o'rab oladigan bu devor uzunligi o'n ikki farsaxdan iborat bo'lishi kerak edi (bir farsax 6–7 kilometr). Devor ichkarisiga esa o'zi bilan turkiylar o'rtasida bo'ladigan chegarada xizmat qiladigan odamlarni joylashtirishni niyat qilli. Bu odamlar uning qo'l ostidagi boshqa o'lkalarga boradigan yo'llarni ham to'sishi mo'ljallangandi. U mamlakatning hamma nuqtalariga qo'l ostidagilarni, soliq yig'uvchilarni (amillarni) jo'natdi va ularga Samarqand devorini qurish uchun, olti yuz o'n beshinchi yil uchun soliq to'plashni (ikkinchi marta) buyurdi. Soliq qisqa muddatlarda yig'ildi, ammo totorlar uning bu maqsadini amalga oshirishga imkon bermadi. Bu mablag'dan biror qismi ham to'siqlar barpo etish ishiga sarflanmadi" [1.58].

Fikrimizcha, yozuvchi Erkin Samandarning yutug'i shundaki, tarixiy asar mohiyatini yoritishdan oldin xorazmshohlar tarixi bilan bog'liq manbalarni chuqur tadqiq qilgan. Xususan, Nasaviy qalamiga man-

sub “Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti” asarini sinchiklab o‘rgangan hamda roman sujetidagi izchillik va tarixiy xronikada aynan shu qo‘lyozma manbaga asoslangan. Negaki, romandagi tarixiy shaxslar Turkon xotun, Xonsulton, Oychechan, vazir Shamsulmulk, suyukli nabira Komahishoh obrazlari, Chingizxon va uning o‘g‘illari taqdiri bilan bog‘liq hodisalarni Nasaviy qo‘lyozmasida ham o‘qish mumkin. Jumladan, romanda Turkon xotun o‘z qalamvaridagi saltanat ahli bilan Urganjni tark etib, Ilol qal‘asida mo‘g‘ul qo‘shinidan bekinadi. To‘rt oy davom etgan qamal dahshati romanda, asosan, Turkon xotunning davlat boshqaruvidagi yanglish siyosati, malikaning Jaloliddindan najot istamagan holda suyukli nabirasi Komahishohni dushman domidan asrab qolish haqidagi murosasiz xayollari va qal‘a ahlining malikaga nisbatan cheksiz nafrati misolida tasvirlangan. Ayniqsa, malikani so‘ngsiz azobga solgan, pichoqsiz so‘ygan narsa bu Ilol qal‘asi ahlining Turkon xotunni har kuni tinimsiz qarg‘ashi edi. “Xorazmshohning onasini yer yutsin”, “Yo‘qolsin Turkon xotun” kabi qarg‘ishlar har kuni qal‘a ahli tomonidan baralla aytilar, hatto bu qarg‘ishlar qal‘adagi eng ichkari xonalarga qadar eshitalardi. Qal‘a ahli boshlariga tushgan bu kulfat – mo‘g‘ul qo‘shinining qal‘a ostonasini qamal qilishi, qal‘a ahlini vahimaga solish uchun turli hiyla-tadbirlar qo‘llashi, Ilol qal‘asidagi qurg‘oqchilik, ocharchilik, “to‘rt oydirki, Ilolga yomg‘ir yog‘mas”ligi, Urganj qal‘asining zabt etilishi kabi adoqsiz kulfatlarga yagona aybdor Turkon xotun deb bilishar va uni qal‘adan chiqib ketishini talab qilishar edi. Ilojsiz, tang ahvolda qolgan Turkon xotun butun haram ahli bilan qal‘ani tark etib, dushmanga taslim bo‘lganida: “sharros yomg‘ir quya boshladi, havzalar suvga to‘ldi. Chorbog‘lar, bog‘larga hayot kirib keldi”. Mazkur voqelik, ya‘ni, Turkon xotunni qal‘adan chiqishi bilanoq, yomg‘ir yog‘ishi, bir qarashda, yozuvchi yaratgan badiiy to‘qimadek tuyuladi. Lekin tarix sahifalarining guvohi bo‘lgan nodir qo‘lyozma Nasaviy kitobining “Turkon xotunning olti yuz o‘n oltinchi yilning oxirgi kunlarida (1220-yilning mart oyi boshlarida) Xorazmni tashlab chiqishi bayoni” deb nomlangan 18-bobida mazkur voqelik shunday bayon qilinadi:

“Turkon xotun yonidagilarni – Sulton xotinlari, boylıklarini olib, Ilol qal‘asi tomon yo‘lga tushdi. Ilol Mozandarondagi eng mustahkam, egallab bo‘lmaydigan qal‘alardan biri hisoblanardi. Ular bu yerda totorlar Sultonni mamlakatdan quvib chiqarib, u orolda panoh topib, vafot etgunga qadar yashashdi. Ilol qal‘asi to‘rt oy qamal qilindi. Totorlar qal‘a atrofiga devor qurishdi va darvoza o‘rnatishdi. Darvoza kunduz ochilib, tunda yopilardi. Ularning egallab bo‘lmaydigan mustahkam qal‘alarni qamal qilish odati shunday edi. Bu hol qal‘ada og‘ir ahvol, oziq-ovqat, suv tanqisligini yuzaga keltirardi. Yana shu narsa ajablanarli ediki, Mozandaroning ushbu qal‘asi boshqalaridan bu yerga yomg‘ir ko‘p yog‘ishi, nam ko‘p bo‘lishi bilan ajralib turardi. Qal‘a ustida havo kamdan kam hollarda ochiq bo‘lar, yomg‘ir deyarli tinimsiz yog‘ardi. Bu esa odamlarning chanqog‘ini kamaytirardi. Ollohning buyurgani shu bo‘ldiki, qamal paytida havo nihoyatda ochiq keldi. Bu uni (Turkon xotunni) totorlardan shafqat so‘rashga majbur qildi, ular va‘da berdilar. U va uning vaziri Muhammad ibn Solih qal‘adan chiqdilar. Aytishlaricha, u qal‘adan tashqariga chiqqan paytda kuchli suv oqimi darvozadan ichqariga quyilganmish va shu kuni barcha havzalar to‘lib-toshganmish. Bu ham, ehtimol, birini buzib, ikkinchisini tuzadigan yagona va qudratli Olloh taoloning karomatidir” [2.63].

Romanda bu kabi qo‘lyozma bilan taqqoslash zarur bo‘lgan parchalar va sujet tizimlari, tarixiy shaxslar xarakteri va hayot tarzi bilan bog‘liq uyg‘un jihatlar nihoyatda ko‘p. Asarning yana bir yutuqli jihat shundaki, yozuvchi Erkin Samandar tarixiy davr koloritini jonli aks ettirishda eski o‘zbek adabiy tilining jilolari, turkiy tilning nafis tovlanishini yaxshi o‘zlashtirgan holda qaratqi (yasama qo‘riqchi), qalamrav (qo‘l ostidagi mulk) dag‘i, kelg‘onimizg‘a, tuyulg‘oy, topg‘aymen, o‘lum, emdi, ersa, yemasmusen, nedin, solg‘aymusen, ertan, savash, g‘orat etg‘ay [3.284] kabi leksik birlik va grammatik qo‘shimchalarni qahramonlarning o‘zaro dialog va monologlarida o‘rinli qo‘llagan. Natijada mutolaa jarayonida kitobxon shuurida bevosita o‘sha davr tili namoyon bo‘ladi. Asarning badiiy til xususiyati haqida biz keyingi tadqiqotlarimizda batafsil to‘xtalamiz.

Umuman, o‘zbek adabiyotida tarixiy manbalar asosida qayta badiiy talqin qilingan shoh asarlar Oybekning “Navoiy”, Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi”, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovoni”, “Ona lochin vidosi” asarlari tadqiqotchilar tomonidan turli yo‘nalishlar va aspektlarda qanchalik keng tadqiq qilingan bo‘lsa, obyekt sifatida tanlaganimiz Erkin Samandar qalamiga mansub “Sulton Jaloliddin” romanida ham ayni shu asarlar singari keng ko‘lamda tadqiq qilinmog‘i lozim. Zero, muallif romanda tarixiy haqiqatni bugungi va kelajak avlod uchun butun bo‘y-basti bila yoritishga harakat qilgan. Tarixiy manbalarga, asosan, yozilgan bu kabi asarlar hali ko‘plab tolibi ilmlar uchun ajdodlarimiz asli kim bo‘lgan, shonli tarix sahifalarida qanday sinovlarni boshdan kechirganligi haqida moziydan so‘z-laydi, ularning qalbida faxr-u iftixor tuyg‘usini uyg‘otadi. Ayni shunday asarlar orqali ulug‘ ajdodlarimiz siyosi, ular haqidagi tarixiy haqiqat kelgusi avlod uchun o‘zlikni anglashda dasturilamal bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti. Matyoqubov tarj. T., “O‘zbekiston”, 2006, 58-bet.
2. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti. Matyoqubov tarj. T., “O‘zbekiston”, 2006, 63-bet.
3. Erkin Samandar. “Sulton Jaloliddin”. Tarixiy roman. T., G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2007, 284-bet.
4. <https://n.ziyouz.com/>

**Sharipova Maxbuba Baxshilloevna (Buxoro davlat universiteti “Maktabgacha ta’lim” kafedrası
o‘qituvchisi, PhD; maxbuba013@gmail.com)**
EPOS HAMDA MAROSIM MUNOSABATINING QADIMIYLIGI VA AN’ANAVIYLIGI

Annotatsiya. Maqolada marosim va doston munosabatlari, marosimlarning arxaik-badiiy ifodasi, uning badiiy-estetik va poetik tafakkuri jo bo‘lgan bu lirik merosining badiiy tili nuqtayi nazaridan o‘rganish xalqimizning milliy madaniyati, yashash tarzi va urf-odatlarini, qadriyatlarini chuqur anglashda munosib manba sifatida xizmat qilib kelayotgani xususida fikr yuritilgan.

Аннотация. В статье исследование соотношения обряда и эпоса послужило для архаико-художественного выражения обряда, его художественно-эстетического и поэтического мышления с точки зрения художественного языка этого лирического наследия, что является достойным источником для глубокого понимания национальной культуры, быта и традиций, ценностей нашего народа.

Annotation. In the article, the study of the relationship between ritual and epic, the archaic-artistic expression of the ritual, its artistic, aesthetic and poetic thinking from the point of view of the artistic language of this lyrical heritage is a worthy source for a deep understanding of the national culture, life and traditions, the values of our people. It is believed that what did it do.

Kalit so‘zlar: xalq dostonlari, folklor, folklorshunoslik, ishq-muhabbat, milliy madaniyat, marosim, urf-odat, marosim va doston munosabatlari.

Ключевые слова: народный эпос, фольклор, фольклористика, любовь, национальная культура, обряд, традиция, соотношение обряда и эпоса.

Key words: folk epic, folklore, folkloristics, love, national culture, ritual, tradition, relationship between ritual and epic.

“Alpomish” dostoni o‘zbek xalqi qadimiy qahramonlik eposining yorqin namunalaridan biridir. Unda Alpomishning o‘z yaqinlari tinchligi, baxtu saodati yo‘lida ko‘rsatgan qahramonliklari madh etiladi. Shu bilan birga, ushbu dostonida jamiyat va inson hayoti masalalari o‘ziga xos reallikda – qahramonlik va go‘zallik haqidagi xalq ideallari doirasida kuylanadi.

“Alpomish” dostoni turkiy xalqlar patriarxat hayotining o‘ziga xos poetik ko‘zgidir. Bu doston bir qancha turkiy va ularga yaqin yashagan ayrim turkiy bo‘lmagan xalqlar orasida juda keng tarqalgan. Uning o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq, oltoy versiyalari doston holida; tojik, tatar, boshqird, O‘rta Osiyo arablari versiyalari ertak va rivoyatlar tarzida mashhurdir. O‘rta asr o‘g‘iz eposining muhim yodgorligi “Kitobi Dada Qo‘rqut” tarkibidagi “Bamsi Bayrak” asari o‘zining sujeti va kompozitsion qurilishi jihatidan “Alpomish” dostoniga juda ham yaqin turadi.

V.M.Jirmunskiy o‘zining “Turk qahramonlik eposi” kitobida Alpomish mazmunidagi asarning qo‘ng‘irot, o‘g‘iz, qipchoq, oltoy versiyalari mavjudligini ko‘rsatib o‘tadi. “Alpomish” dostoni o‘zbek xalqi orasida ikki (o‘zbek va qoraqalpoq) versiyada va ko‘plab variantlarda juda keng tarqalgan. O‘tgan asrda uning variantlari o‘ttizga yaqin xalq baxshisidan qirqqa yaqin variantda yozib olingan. Uning to‘la variantlari Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan, Berdi baxshi, Bo‘ri Sodiq o‘g‘li, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li, Abdulla Nurali o‘g‘li, Saidmurod Panoh o‘g‘li, Umir Safar o‘g‘li kabi yetakchi dostonchi baxshilardan yozib olingan. Shular orasida eng mukammali, badiiy jihatdan eng yuksagi atoqli xalq shoiri Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olingan nusxa hisoblanadi. Unda shoirning yuksak dostonchilik mahorati to‘la namoyon bo‘lgan. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li “Alpomish” dostonini butun umr bo‘yi kuylab kelgan. Atoqli shoir Hamid Olimjonning obrazli iborasi bilan aytganda, bu doston uning shoirlik beshigi bo‘lgan.

Sevimli yor, oila va shu bilan bog‘liq ravishda yangi tipdagi urug‘ birligi uchun kurash hamda bunga to‘sqinlik qiluvchi barcha qora kuchlarni yengish “Alpomish” dostonining asosiy g‘oyaviy mazmunini tashkil etadi.

Dostonda xalqimizning qahramonlik haqidagi g'oyalari, mardlik tuyg'usi yorqin tasvirlanadi. Dostonda yorga erishish uchun mard bo'lish va dushmanga qarshi kurashish kerak, degan g'oya bo'rtib turadi:

*Dushman ko'rsam, kesib bag'rin tuzlayman,
Aslim sherman, o'zim yo'lbars izlayman.¹*

Dostonda qahramonlik, jasurlikni ulug'lash, mardlik tuyg'ulari vatanparvarlik g'oyasi bilan uzviy bog'langan holda tasvirlanadi. Doston qahramonlari o'n olti urug' Qo'ng'irot eli, Boysun-Qo'ng'irot diyori bilan mahkam bog'langandir. Ular qaerda bo'lmasinlar, shu el, shu diyorning g'am-alamiga sherik bo'ladi- lar, shu el, shu diyor sog'inchi bilan yashaydilar. Doston qahramonlarining o'z qabilasi, xalqi va yurtiga bo'lgan vatanparvarlik hislari, xususan, dostonning ikkinchi qismida juda ta'sirli tasvirlangan. Bu hissiyot qahramonning tutqinlik davrida g'oz orqali vataniga salom yo'llashida; Barchin, Qaldirg'och, Yodgorlar- ning hijron amlari tasvirida, qahramonning yo'ldagi uchrashuvlari epizodlarida yanada yorqin aks etgan. Umr bo'yi tug'ilib o'sgan yurtini, xalqini sevgan Alpomishdagi bu hissiyot yetti yillik asirlikdan keyin ona tuproqqa qadam qo'yganda yanada yuqori nuqtaga ko'tariladi, vatani, eli haqida turli xayollarga boradi. Dostonda elu yurtga muhabbat motivlari urug' birligi g'oyasi bilan birlashib ketadi. Ajralish qabila a'zolari boshiga og'ir kulfatlar keltiradi. Barchin, Qaldirg'och, hatto Boysarining o'zi ham o'zga mamlakatda xor- zor bo'lishlarini takror-takror aytadilar. Dostonning har ikkala qismida ham Alpomishning Barchinga uy- lanishi qo'ng'irot urug'ining yangidan birlashishiga olib keladi.

“Alpomish” dostonining bosh qahramoni sahroyi bahodir, qo'ng'irot urug'ining umidi va ishonchi Hakimbek – Alpomishdir. U mehnatkash xalqning qahramonlik kuchlarini o'zida mujassamlashtirgan, yo- vuzlik va yomonlikning ashaddiy dushmani, el-yurt farovonligi yo'lida mardliklar ko'rsata olgan bahodir, xalq eposining quyma obrazidir.

Alpomish yurtiga qaytgach, kamsitilgan ota-onasiga hamdardlik qiladi, xo'rangan o'g'li Yodgorning boshini silaydi. Ultontozga xushomadgo'y bakovul va oshpazlarning ta'zirini beradi. O'zining kuch-qudrati- ni, Barchinga hamda oilasiga sodiqligini namoyish qiladi.

Alpomishning Ultontozga qarshi kurashi qahramonning uzoq muddatli tutqunlik davrida o'z vata- nida hokimiyatini zo'rlik bilan tortib olib, xotini Barchinni olmoqchi bo'lgan zo'ravon shohga qarshi o'z hokimiyati, o'z oilasi uchun olib borgan qahramonlik kurashidir. Alpomishning yori Barchin, singlisi Qal- dirg'och, do'sti Qorajon, ota-onasi va qaynatasiga nisbatan iliq munosabatlarida, mashhur yilqichi, qadr- doni va tarbiyachisi Qultoy bilan ota-bola, cho'pon Qayqubod bilan do'st tutinishi tasvirida uning chin in- soniy sifatleri yaqqol namoyon bo'lgan.

Dostonning yetakchi obrazlaridan yana biri Barchindir. Barchin o'zbek eposida har tomonlama mu- kammal ishlangan ayol obrazi hisoblanadi. Vatan va oilani sevish, xalqqa va qarindoshlariga hurmat, mus- taqillik va jasorat bu obrazning ichki mazmunini tashkil qiladi. U oqila, tadbirli ayol sifatida ijtimoiy ha- yotda erkak bilan ayolni teng deb biladi. Dushmanlarning “qirq mingini bir deb sanab qirishga” tayyor tur- gan jasur Barchin obrazida qahramonlik eposlariga xos botir qiz (“alp qiz”) haqidagi an'anaviy tushuncha ham o'z ifodasini topgan. Undagi jasurlik, mardlik va dovyuraklik, o'z kuch-qudratiga ishonish Toychixon alp- lari zo'rlik bilan olib ketmoqchi bo'lgan epizodlarda yaqqol gavdalanadi. Uning jismoniy salohiyati qal- moq pahlavoni Ko'kaman bilan yakkama-yakka olishuv lavhasida mahorat bilan kuylanadi.

Umuman aytganda, nikoh tahdidiga uchragan qiz (ayol) obrazi va uning taqdiri masalasi jahon epo- schiligiga ham xosdir. Aynan buning yorqin dalilini yunon rapsodi Gomerning “Odisseya” dostonida Odis- seyning xotini go'zal va oqila Penelopa taqdirida kuzatish mumkin. Dostonda Alpomish bilan Qorajon o'r- tasidagi do'stlik haqqoniy va hayajonli epizodlarda san'atkorona kuch bilan tasvirlangan, katta insoniy do'stlik darajasiga ko'tarilgan. Shunday qilib, Qorajon obrazida turli el-elatlar orasidagi do'stlik va qar- doshlik kuylangan, oliyjanob insoniy fazilatlar – do'stga sadoqat, va'daga vafo va qat'iylik ulug'langan.

“Alpomish” dostonida nikohning ikki xil tartibi ifoda etilgan.

1. Nikohning ekzogamik va endogamik tartibi mavjud. Ekzogamiya (qadimgi yunoncha εξω, exo – tashqarida+γάμος/gamos) – begona bilan nikohlanish ma'nosini bildiradi. Ammo “Alpomish” dostonida nikohning endogamiya turi tasviri keltirilgan. Endogamiya (qadimgi yunoncha endo – ichkarida,+γάμος /gamos) – yaqin qarindoshlar, urug'doshlar, nasl-nasab, fratriyalar yoki mahalliy jamoa a'zolari o'rtasidagi nikoh munosabatlarini anglatadi. “Alpomish” dostonida bu 14 yoshli Alpomishning, dastlab, amakisining qizi bo'lgan Barchinga uylanishni xohlamasligi, biroq keyin rozi bo'lishi va u bilan nikohlanishi, farzandli bo'lib, nasl-nasabini davom ettirishi misolida talqin qilingan. Dostonda endogam nikoh shakli (qarindosh-

¹ Алпомиш. 209-bet.

lar, aka-uka (Boybo'ri bilan Boysari)ning bolalari (Hakimbek va Barchin) orasidagi nikoh asosiy o'rin tutadi. Bu esa tarixiy-etnografik ahamiyatga ega voqea hisoblanadi.

“Alpomish” dostonida kuyovning turli xil sinovlardan o'tishi, kuyov va kelin tomonning alohida-alohida va birgalikda tasvirlanishi doston yaratilgan ijtimoiy davr voqeliklari, sotsial munosabatlar mohiyati bilan bog'liqdir. Aslida, hayotda endogamik nikohdan ekzogamiyaga o'tishning uch sababi mavjudligi qayd qilinadi. Bular quyidagilardir: a) qon-qarindoshlar o'rtasidagi nikoh tug'ilajak bolalar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi yoki yana boshqa zararli oqibatlari tufayli undan qochish zarurati; b) ijtimoiy aloqalarni yanada kengaytirish va boshqa jamoalardan qiz olib kelish, ular bilan quda-anda bo'lish hisobiga ular bilan munosabatlarni o'rnatish istagi; d) jamoada, oilada ijtimoiy tinchlikni o'rnatish ehtiyoji.¹

2. Nikohning matrilokal nikoh tartibi. Matrilokal (lotincha mater – ona va locus – joy degani) nikoh bu – nikohdan so'ng ko'chib o'tish shakllaridan biri sifatida matriarxat davrda paydo bo'lgan.² Matrilokal nikohda er xotinning jamoasiga ko'chib o'tib, ular xotin jamoasida birga yashashgan. Hozir ham kuyovning kelin uyiga kelib ichkuyov sifatida yashashi saqlanib qolgan. Ammo “Alpomish” dostonida nikohning bu turi tasvirlanmagan.

Epos bilan bog'liq umumiy qonuniyatlarda ko'proq quyidagilarga amal qilinadi:

1. Xalq hayotiy tajribalari va o'lmas an'alarini tasvirlashga epik an'ana sifatida yondashiladi.
2. Epik idealizatsiyaga muvofiq, tasvirga olingan narsalar ideal tarzda taqdim etiladi.
3. Eposda tavsiflanayotgan yoki obrazlantirilayotgan har bir hodisa epik an'ana, epik matn tuzish tamoyillariga ko'ra tipiklik, barqarorlik, takrorlanuvchi (an'anaviy) tarzda beriladi.
4. Epik hikoya qilishda tasvirlanayotgan yoki tavsiflanayotgan voqea-hodisalar, obrazlar konvensiyaga (dinamik rivojlanishning epik norma shartlariga bo'ysunadi).

Ushbu qonuniyatlarda eposdagi marosim motivlarini etnografik hamda folkloristik tavsiflar asosida o'rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning tasviri va talqini funksional xususiyatga ega bo'lib, bizningcha, ikkita vazifa bajarib keladi:

- a) xalq marosimlari haqidagi ma'lumotlarni avloddan avlodga taqdim qiladi;
- b) xalq marosimlarining tuzilishi, maqsadi, mazmun-mohiyati bo'yicha bilimlarni ongda shakllantirish va umumlashtirishga xizmat etadi.

Bunda marosimlarning tasviri nima natijaga qaratilgani muhim hisoblanadi. U orqali qanday g'oya ilgari surilayotgani kishini o'ylantiradi. Shuning uchun eposdagi marosimga munosabat bir necha xilda kechada:

- a) tarbiyaviy o'g'itish;
- b) sujetdagi o'rni, vaziyati, poetik vazifasini baholash;
- d) genezisini, sujetga kiritilish sabab va oqibatiga qiziqish kabi.

Eposdagi marosim sujetdagi o'rni va mavqeyiga ko'ra, ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi:

- a) sujetni harakatga keltiruvchi marosim motivlari;
- b) sujetni harakatga keltirmaydigan marosim motivlari;
- d) berilgan sujet holatidan tashqarida tavsiflangan marosim motivlari.

B.N.Putilov aytganidek, eposdagi marosim hech qachon shunchaki obyektiv ma'noga ega bo'lgan qandaydir neytral harakat sifatida ko'rinmaydi. U qahramonga yoki uning dushmaniga xizmat qiladi va shunga ko'ra, ifodada ramziy ma'noga ega bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, xalq ma'naviy xazinasidan o'rin olgan aksariyat dostonlarda ma'lum bir marosim bilan bog'liq tasavvur-tushunchalarning izlari saqlanib qolganligi yoki muayyan bir marosimning o'tkazilishi badiiy tasvirlab berilganligi kuzatiladi. Bu esa doston (epos) va marosim munosabatini, ularning bog'liq jihatlarini o'rganishga undaydi. “Alpomish” dostoni badiiy strukturasi shakllantirishda oilaviy-maishiy marosimlarning o'rniga alohida e'tibor qaratilgan. Buni dostonidagi voqealar bayoni struktural jihatdan bevosita marosimlar mazmuni bilan uyg'un kelishi to'liq tasdiqlaydi. Marosim bilan bog'liq poetik aytilarning, urf-odat va an'analarning epos sujetiga singdirilishi ularning avloddan avlodga o'tishini ta'minlash maqsadini ko'zlagan. Shundan eposlarning marosimlarda ijro etilishi, shu orqali ularning targ'ibini amalga oshirish ko'zda tutilgan. Bu esa eposning marosimdagi o'rni va vazifasini belgilagan bosh omildir. “Alpomish” dostoni sujetidan juda ko'p oilaviy-maishiy marosimlar o'rin olgan, ammo ularning hech biri batafsil tasvirlanmagan. Bundan ularning epos sujetini yuzaga keltirish uchun qo'llangani ayonlashadi. Doston sujetini to'liq anglash uchun o'zbek xalq marosimlarini, urf-odat va an'alarini yaxshi bilish talab

¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Экзогамия>

² <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/matrilokal-nikoh-uz/>

etiladi. Aks holda, doston mazmunini to'liq anglash iloji bo'lmaydi. Xalqimiz taqdiri, vatanimiz tarixida yuz bergan muhim voqea-hodisalar, ajdodlarimizning o'z mustaqilligi, tinch va farovon hayot uchun kurashi haqida hikoya qilishi, o'z elini qadrlash, go'zal urf-odatlaru o'lmas an'analarga ergashish to'g'risida hikoya qiluvchi bu doston yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda bugungi kunda ham muhim amaliy ahamiyat kasb etishi bilan e'tiborga loyiq.

Jamoliddinov Mirxojiddin G'iyosiddinovich (QDPI dotsenti, p.f.n.)

ABDULLA QODIRIY – MILLIY UYG'ONISH DAVRI SATIRASINING YANGI IJODKORI

Аннотация. *Jamiyat rivojida, kishilarning kundalik turmush tarzida satiraning roli beqiyos. Chunki taraqqiyotga to'siq bo'layotgan dangasalik, boqimandalik, ishsizlik, savodsizlik va boshqa muammolar insonning tashqi qiyofasida, ichki siyratida namoyon bo'ladigan axloqsizlik, tamagirlik, sudxo'rlik va boshqa holatlarni satira orqali yo'q qilish mumkin. Shu jihatdan adabiyotda kulgi san'ati satira va yumor qadimiy tarixga egaligi yoritilgan.*

Аннотация. *В статье раскрыта ни с чем не сравнимая роль сатиры в развитии общества, в повседневной жизни людей. Потому что с помощью сатиры можно устранить лень, бедность, безработицу, неграмотность и другие проблемы, мешающие развитию, безнравственность, жадность, ростовщичество и другие состояния, проявляющиеся во внешности и внутреннем поведении человека. В этом отношении искусство смеха, сатиры и юмора имеет древнюю историю в литературе.*

Annotation. *In the article, the role of satire in the development of society, in the daily life of people is incomparable. Because laziness, poverty, unemployment, illiteracy, and other problems that hinder development, immorality, greed, usury, and other conditions that appear in a person's appearance and inner behavior can be eliminated through satire. In this respect, the art of laughter, satire and humor have an ancient history in the literature.*

Kalit so'zlar: *jiddiy tanqid, hajviy tanqid, paremik, piching, kesatish, kinoya, tag'ofil, xarakter kulgisi.*

Ключевые слова: *серьезная критика, юмористическая критика, паремия, намёк, подача, резка, аллегория, сарказм, делать вид, характер смех*

Key words: *serious criticism, humorous criticism, sarcasm, humor pitching, cutting, sarcasm, character laugh.*

O'zbek satirasining paydo bo'lishi, shakllanishi va rivoji uzoq tarixga borib taqaladi. Uni ilmiy o'rganish bo'yicha ko'plab nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yoqlangan. Jumladan, 30–40-yillarda yaratilgan ilmiy tadqiqotlarda akademik Oybek, professor A.Sa'diy va M.Shayxzodalar ijodida Navoiyning satiraga munosabati, asarlaridagi “Satirik kulgi” haqida ayrim fikrlarini yozadilar.

Jumladan, A.Sa'diy: “Alohida ta'kidlash zarurki, Navoiy, shubhasiz, o'zbek adabiyotida badiiy satiraning ilk ijodkorlaridan biridir. Xuddi, u o'zbek adabiyotida satirik realizmgga asos soldi va Turdi, Mahmur, Muqimiy, Zavqiy kabi shoirlar uning izidan boradilar”, deb yozadi [1.77]. Satirada ijodkor yashagan muhit aks etadi. Hamda satira lirikada, epos va dramada ham yaratilishi mumkin. Haqqoniy, adolatli va to'g'ri aytilgan satira jamiyat taraqqiyoti va inson tarbiyasida komillik uchun xizmat qiladi.

20 -yillar adabiyotida “Yangi jamiyatni qurish” yo'lida Abdulla Qodiriy satiraning xalq og'zaki ijodi jarayonida asrlardan asrlarga, avloddan avlodga o'tib rivojlanib kelayotgan lof, askiya, parodiya janrlari va yozma adabiyot manbalariga suyanganda, nazariy jihatdan o'rganib, yuqori darajaga ko'tardi. Adibning “Kulgi haqida” (15-iyun 1926-yil), “26-nchi yilda kulduruvchilarimiz” (1926-yil, 24-oktabr), “Yozishg'uvchilarimizga” (“Mushtum”, 1926-yil, 17-son), “O'qish – o'rganish” (“Sovet adabiyoti” (4), 1936, 3-son) va boshqa maqolalarida satira haqida ilmiy qarashlarini bayon etdi. Jumladan, “Kulgulikning boshlanishi tarixi juda eskidir. Kulgulik insonlar bilan tug'ilgan, uning boshqa xususiyatlari, ya'ni kamolot va ruhiy holatlari ila yondashdir. Shuningdek, biz, o'zbeklarning kulguligimiz ham o'z tarixini eskidan boshlaydi. Ammo yangi inqilobiy kulguligimiz o'z tarixini Buyuk Oktyabrdan so'ng yozdi... Kulgulik ham tug'ulishda shaxsiy hangoma yo'linigina o'tab, takomil qoidasi bo'yicha bu kungi holatga keldi”, deb yozadi [2.181].

Adib adabiyot dunyosida tanqidni ikkiga bo'ladi. Jiddiy tanqid va hajviy tanqid. Jiddiy tanqid bahs qilingan masalalar sinfiy jamiyatga bog'liq turmush tarzimizdagi kamchilaklar bo'lib, uning sababchisi, vakillari yuqori tabaqa kishilaridir, deb ta'kidlaydi.

Shu jihatdan, u ommaviylik xususiyatidan yiroqroqdir. Buning uchun yozuvchida vatanparvarlik, jasurlik, fidoyilik, qo'rqmaslik kabi fazilatlar bo'lishi lozim (M.J.).

Abdulla Qodiriy (Ovsar) 1926-yil “Mushtum” jurnalini 27-sonida “Yig‘indi gaplar” satirasida “O‘zbekiston oqsoqoli” Y.Oxunboboyevni tanqid qiladi va jinoiy javobgarlikka tortiladi [5.270].

Ikkinchi tanqid: “hajviy bo‘lib (satira ma‘nosi bilan), ommaviy deyilsa bo‘ladi. Chunki kulgi tanqid, turmush bo‘lib, uchuvchi burgutdir. Hayot sharoitiga yaramagan zaif, qizg‘anch, manfur, muzir va shu si-ngari unsurlar unga yemdir... .

Hajviy tanqidni tabiatidagi kulgulik unsuru avomning mahbubi, tag‘in to‘g‘risi uning o‘z ijodidir” [2.184].

Adib bu kulgini “yetishtiruvchi bosh omil buzuq sharoit edi” deydi hamda “buzuq sharoit” millatning “kulgulik daholari” bo‘lgan buyuk yozuvchilarni yetishtirdi. Xususan, Italiyada (Dante), Ispaniyada (Servantes), Rossiyada (Gogol) kabilar deb misollar keltiradi.

Abdulla Qodiriy o‘zbek romanchiligining asoschisi, 20-yillar o‘zbek adabiyotida turmush tarzimiz va kundalik hayotimizda o‘rnashib qolgan, taraqqiyotimiz uchun to‘siq bo‘layotgan turli xil bid‘atlarni jasurlilik bilan qalamga olgan birinchi satirik ijodkordir.

Sharqshunos olim Yevgeniy Eduardovich Bertels ta‘rifi bilan aytganda, “Dunyoda beshta, ya‘ni, fransuz, rus, ingliz, nemis romanchiligi maktablari bor edi, endi oltinchisini, ya‘ni, o‘zbek romanchilik maktabini Abdulla Qodiriy yaratib berdi”. Yoki Cho‘lpon ta‘biri bilan ta‘riflaganda, “O‘zbek onasi yaqin o‘rtada ikkinchi Abdulla Qodiriy tug‘masa kerak”.

Jamiyat rivojida, kishilarning kundalik turmush tarzida satiraning roli beqiyos. Chunki taraqqiyotga to‘siq bo‘layotgan dangasalik, boqimandalik, ishsizlik, savodsizlik va boshqa muammolar insonning tashqi qiyofasida, ichki siyratida namoyon bo‘ladigan axloqsizlik, tamagirlik, sudxo‘rlik va boshqa holatlarni satira orqali yo‘q qilish mumkin. Shu jihatdan adabiyotda kulgi san‘ati satira va yumor qadimiy tarixga ega.

Abdulla Qodiriy o‘zbek adabiyotida satira, yumorning rivojiga katta hissa qo‘shdi. O‘zining o‘tkir qalami bilan 20-yillar adabiyotida satira janrini yuqori darajaga ko‘tardi. Jamiyat rivojiga to‘siq bo‘lgan konkret shaxslarni fosh qilishda ma‘naviy jasorat egasi “felyetonlar qirol” deb nom oldi.

Abdulla Qodiriy satirik kulgini uch turga bo‘ladi. Birinchisi mutoyaba (sajiya ma‘nosida), ikkinchisini yumor (hajv) kulgiga olib tanqid qilish va uchinchisini satira (ibrat) jiddiy suratda achchiq namuna qilib tanqid qilish deb ko‘rsatadi. Shu uch turli kulgilikni ifoda qilishda yordamchilik-vositachilik xizmatini o‘taguvchi unsurlar deb: “Hazil, kinoya, mubolag‘a, tasfir, tashbiya, tamsil, istiora, tatoqqul, tajahhul, xalq maqollari va ta‘birlari va shunga o‘xshashlarni” oladi. Shuning uchun ham asarlarida hazil ham, kinoya ham, mubolag‘a ham va shu kabilarning hamma-hammasi baravar ishtirok etadi. U, ayniqsa, sajiya (xarakter) kulgisi usulini eng maqbul yo‘l, deb biladi.

Adibning hajviy asarlari “Kalvak maxzunning xotira daftaridan”, “Toshpo‘lat tajamg nima deydi?”, “Sharvon xola nima deydi?”, “Ovsar”, “Og‘zinga qarab gapir” (hangoma), “Po‘skallasi”, “Ro‘za, iftor, xatim zakot”, “Uzr”, “Zamonning zayli” va “Mushtum” jurnalida bosilgan tanqidiy publisistikasi, felyetonlarida mazkur satira turlari to‘la aks etadi. Buni yozuvchining “O‘tkan kunlar” (1926) romanidagi O‘zbek oyim obrazida yaqqol ko‘ramiz. Bizning adabiyotimizda xarakterli narsalar oz, balki yo‘q darajasida bo‘lganlikdan buning uchun misolni faqat o‘z asarlarimdan oldimki, bunda meni ma‘zur ko‘rsinlar” [2.39], deb yozadi. Jamiyat taraqqiyotiga to‘siq bo‘layotgan, dunyoda ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rolmayotgan, “qayta tug‘ilayotgan” dindorlar obrazini “Kalvak maxzunning xotira daftaridan” asarida keskin fosh etadi. Kalvak maxzum eski dunyo kishisi – hayot bilan aloqasi uzilgan, imomgarchilik, duxonlik, hayotdagi to‘qib chiqarilgan turli bid‘atlar bilan savodsiz sodda kishilarni qurshovida yashab yurgan “miyasi g‘ovlagan”, tekinxo‘r shaxs.

Toshpo‘lat esa “ishsiz, biri bit, biti sirka bo‘lmagan va shu faqirlik orqasida o‘g‘rilik va fahshiyat dengizida suzib, tajanglangan xolis bir chapani”.

Jamiyatda bo‘layotgan o‘zgarishlar go‘yo “oxir zamon”ning belgisi odamlarning “gunohi kasofatidandur” deb tushunadi. “Bul fitna zamonda jadid bo‘lib va yana soch qo‘yub yurgan haromzodalar ilm deb ko‘p bema‘ni nimarsalarni aytar ekanlar. Va yana tabiiyot, falakiyot degan ilmlarga ko‘p e‘tiqod qilur ekanlar. Ul bema‘nilar yerni yumaloq deb, da‘voyi behuda qilg‘onlari barobarida, oftob qayerda, yulduzlar necha dona, giyohlar nimadin paydo bo‘lgan, ra‘d nima, oy nega kuydi-yu, yer nima boisdan qimirladi, deb taajjub qilur erkanlar” [2.48].

Abdulla Qodiriy mazkur satirasida o‘zbek folklorida eng ko‘p tarqalgan piching priyomidan ustalik bilan foydalanadi hamda xalqchillik bilan sug‘orilgan “Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit”, “To‘qayga o‘t ketsa, ho‘l-u quruq birday yonadi” kabi xalq maqollari zamiriga yashiringan usuldan ustalik bilan foydalanadi.

Abdulla Qodiriy asarlarini chuqur tahlil qilsak, xalq donishmandligining nodir namunalari bo'lgan satiraga boy yuqorida aytilgan paremik turga mansub maqol janridan mohirona foydalangan. Inson xarakteriga baho berishda badiiyatiga ko'ra to'g'ri, ramziy va majoziy ma'noga ega bo'lgan satirik maqollardan samarali foydalangan. Masalan, "O'g'ri kulib yengar, g'ar yig'lab", "Shoshgan qiz erga yolchimas", "O'n karra o'lehab, bir martaba kesmoq yaxshi", "It suyak chaynamasa, tishi qichiydi", "O'rgangan ko'ngil o'r-tansa qo'yimas" va boshqa falsafiy ma'noga ega maqollarni ishlatadi.

Sajiyali (xarakterli), kulgili obrazlarni yaratishda "O'tgan kunlar" romanida O'zbekoyim obrazi orqali ochib beradi. Romanning ikkinchi bo'lim birinchi faslida "Ota-ona orzusi", "Jodugor hindi" (ikkinchi bo'lim, to'rtinchi fasl) "O'zbekoyim og'ma, Zaynabning dardi" (uchinchi bo'lim, oltinchi fasl) kabi fasllarida Yusufbekhojining "55 yoshlar chamaliq chaladumbul tabiatlik xotinning eriga o'tkirligi bilan mashhurligini kulgili satira bilan ifodalaydi". Ayniqsa, uning tilidan "Kavshim ko'chada qolg'on emas", "O'g'lingiz Marg'ilondan uylanmadi, bir balodan uylandi!", "Issiq sovuqchi domla", "Marg'ilonlik andi" [3.141] kabi so'zlashuv odobidagi satiraga boy so'zlar asarni qiziqarliligini yanada oshirgan.

Adibning satirasi va asarlarini o'rganish jarayonida asrlardan asrlarga o'tib ketayotgan ilg'or milliy an'ana va qadriyatlarimizni "sho'ro" mafkurasi ta'sirida yo'q bo'lib kelayotganligini, "yangicha" qadriyatlar sifatida Yevropadan kirib kelayotgan urf-odatlarini piching orqali tanqid qiladi. Sinchkov kitobxon asarni o'qish orqali mustaqil fikrlaydi hamda o'z kamchiligini sezadi. Xususan, "Sharvon xola nima deydi?", "Hoy, yer yutkur... kabi satirik asarlarida o'zbek xotin-qizlaridagi ayrim unsurlarni kulgi ostiga oladi: "Bir vaqtdan osh-suvdan qutulib, Norpochcha Xanim minan bir piyola zaharni ichib o'ltsam, eshikdan nortuyadek bo'rtib ikkita yallachi o'lgur kelvotti. Bosh yalang, og'zi o'lgurda popiriska, har balo bo'lsayam musulmon farzandi-ku, turib ko'rishay, dedim. O'rnimdan turib ko'rishishga ko'targan qo'lim ko'tarilgan-cha qolaverdi" [2.79], deya ayollardagi andishasizlikni ochib beradi. Yoki "erkaklardan hayiqmaydurgan" xotinlar bor, deya ularni satira ostiga oladi.

Xullas, Abdulla Qodiriy XX asr adabiyotida satira janrini yuqori pog'onaga ko'tardi. Unga yangicha ruh, yangicha uslubiy talqin berdi. O'zbek satirasini jahon adabiyotiga tanitdi. Shuning uchun Qodiriy satirasidagi muallifning davr illatlariga nisbatan murosasiz pozitsiyasini yangicha ilmiy nazar bilan o'rganish, yosh avlod ongiga o'tmish qadriyatlarimizni singdirish jarayonida ijodiy foydalanishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Abdug'afurov. Navoiy ijodida satira. T., "Fan", 1984, 6-bet.
2. Abdulla Qodiriy. Kichik asarlar. T., G'.G'ulom nashriyoti, 1969, 182-bet.
3. Abdulla Qodiriy. O'tgan kunlar. T., "Ilm-ziyo-zakovat" nashriyoti, 2019.
4. A.Nasriddinov. Adibning yo'li. T., G'.G'ulom nashriyoti, 1971, 39-bet.
5. Nabijon Boqiy. Qatlnoma. Hujjatli qissa. "Muharrir", T., 2020.

Qarshibayeva Uljan Davirovna (SamDCHTI professori, f.f.d.)

BALZAKNING "SAG'RI TERI TILSIMI" ROMANIDAGI RAFAEL OBRAZI TALQINI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Balzakning "Sag'ri teri tilsimi" romanidagi bosh qahramon Rafael obrazi orqali ijtimoiy muhit ta'sirida bilimdon yoshlarga bo'lgan munosabat, ularning ayanchli taqdiri va fojiali o'limi ochib berilgan.*

***Аннотация.** В данной статье раскрывается отношение к образованным молодым людям под влиянием социальной среды, их печальная судьба и трагическая смерть через образ Рафаэля, главного героя романа Бальзака "Шаргреновая кожа".*

***Annotation.** This article reveals the attitude towards educated young people under the influence of the social environment, their sad fate and tragic death through the image of Raphael, the main character of Balzac's novel "Shargren Skin".*

***Kalit so'zlar:** fantastik obrazlar, falsafiy, sujet, ijtimoiy, fantastik janr, ertak janr.*

***Ключевые слова:** фантастические персонажи, философский, сюжет, социальный, фантастический жанр, жанр сказки.*

***Key words:** fantastic characters, philosophical, plot, social, fantasy genre, fairy tale genre.*

XIX asrning buyuk realist yozuvchisi Balzak asarlarining birinchi guruhidagi an'anaviy fantastik obrazlar, motivlar va sujetlar ijodkorning borliq ma'nosini, shaxsning jamiyatdagi taqdiri haqidagi keng falsafiy mulohazalarni tushuntirish uchun xizmat qilgan. Bunday ijod namunalariga "Yuz yillik yoki ikki Beringeld" (1822), "Umrni uzaytiruvchi eliksir" (1830), "Sag'ri teri tilsimi" (1831), "Iisus Xristos Flandriyada"

(1831), “Iblisning merosxo‘ri” (1831), “O‘n uch hikoya” (1833–1835), “Avf etilgan Melmot” (1835) kabi asarlari kiradi.

“Inson komediyasi” epopeyasidan muhim o‘rin egallagan “Sag‘ri teri tilsimi” asari insonlarga ma‘naviy ozuqa berish bilan birga, inson qadri, bilimi, ma‘naviy barkamolligini birgina jamiyat kirdikorlari va boylikga hirs qo‘yish orali hayotini barbod qilishi mumkinligini falsafiy ertak janrida yozilgan asarning uchinchi faslidagi sujet rivoji yordamida ko‘rsatib beradi. U qahramonlari faoliyatini romanning umumiy ruhidan mohirlik bilan foydalangan holda keltirib chiqarishga erishgan.

Fransiyada nashr etilgan va O.de Balzakka bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar ichida, birinchi navbatda, P.Barberisning “Balzak va asr kasalligi” kitobini ta‘kidlash lozim.¹ Bunga yozuvchining tarjimai holi, ijodini tarixiy voqealar va Fransiyada XIX asrning birinchi yarmidagi adabiy jarayondagi voqealarni keng kontekstida joylashtiradi. P.Bayar “Balzak va xayoliy almashinuv” nomli monografiyasida: “Sag‘ri teri tilsimi”ni o‘qish orqali² mavzu tahlilini, Balzak matnining tuzilishini, unda mavjud bo‘lgan ramzlar va allegoriyalarni o‘rganadi. V.Yungning keyingi maqolasi “Sag‘ri teri tilsimi” vaqtning romantik nazariyasi³ asarida vaqt tushunchasining nomuvofiqligi muammosini o‘rganadi. A.Mishelning “Balzak romanidagi haqiqat va go‘zallik” kitobida⁴ Xrist obrazining qiziqarli talqini va uning Rafael de Valentin obrazi bilan aloqasi tasvirlanadi.

“Sag‘ri teri tilsimi” romani qahramoni Rafael jamiyatdagi o‘rni, qarashlari teng bo‘lmagan insonlar orasida bo‘lish istagi uning ma‘naviy tanazzuliga sabab bo‘ladi. Ushbu istak zamirida ma‘naviyati puch odamning psixologiyasi ko‘zga tashlanadi, uning asar boshida qimorxonaga borishi tasvirlangan voqealar hayotidagi muammolarning asosi bo‘layotganini hikoyada anglash mumkin. Rafael o‘zining bilimi, o‘zoq yillik mehnatlari evaziga barcha orzu qilganlariga erishishga harakat qiladi. Shu sababli kuniga bir frank sarflab bo‘lsa-da, g‘aribona kun kechirib maqsadiga erishmoqchi bo‘ladi.

Masalan: L'étonnement manifesté par le jeune homme en recevant une fiche numérotée en échange de son chapeau, dont heureusement les bords étaient légèrement pelés, indiquait assez une âme encore innocente.⁵ Yigit ko‘p tutilganidan soyaboni sal yag‘irlashgan shlapasini berib raqam olayotganida yuzida ajablanish ifodasi paydo bo‘ldi.⁶

Balzak asarlarida xarakterlar o‘ta hayotiy bo‘lib, yorqin chizilgandir. Yozuvchi biron-bir hikoyada qahramon xarakterini to‘lig‘icha tarixi bilan yoritmaydi, uning rivojlanib borishi bilan butunlay tafsilotlari bilan bermaydi. Ta‘kidlash lozimki, qahramonlar psixologiyasini tasvirlaganda, aniqrog‘i, ularning xatti-harakatini psixologik jihatdan ochib berganda, adib biror joyda noo‘rin tafsilot, sababsiz cheklovlarga o‘rin goldirmaydi. U asosli qandaydir aniq detal bilan yoki ayrim harakatlar yordamida xakterni ochib beradi.

Masalan, Ilmdan xabarsiz odamlar yolg‘iz sayrga chiqib qoya toshlar orasidagi tip-tiniq ko‘lda, o‘rmonlarda va gulzorlar orasida g‘ir-g‘ir esayotgan mayin shabadaga yuzlarini tutib lazzatlanishadi. Ammo bu lazzat nima bo‘libdi? Ruhim allaqanday nur shu‘lalarida cho‘milar, ilhomning qaldiraqli mubham ovozi eshitilar, allaqanday noma‘lum chashmadan xayolotlar jilg‘asi jonsarak miyamga quyilib kelar ekan, o‘zimni shu qadar baxtiyor his etardimki, boyagi sayyohning lazzatlanishi mening shodligim oldida daryodan tomchi ham bo‘lmas edi.⁷

Balzakning Rafael hayoti haqidagi fikrlari keltirilgan yuqoridagi misolda hikoya uslubi turli badiiy priemlarga boy, romandagi ko‘plab sahnalarda adib monolog usulini tanlaydi, birinchi shaxs tilidan keltirilgan hikoyalar emotsionallikni ko‘taradi va hikoyaga individul tus beradi, falsafiy mushohadalar, maishiy hayot tasvirlari, go‘zal tabiat manzaralari bir-birlari bilan uyg‘unlashib ketadi. Shu bilan birga, jamiyatda har bir shaxsning hayot yo‘li, qarashlari va bilim doirasiga tayangan holda, dunyoni ko‘rish qobiliyati mavjudligini, bir shaxs misolida butun bir toifa insonlar hayotini yoki butun bir xalq misolida bir jamiyatni ko‘rsatadi.

¹ Barbéris P. Balzac et le mal du siècle. Contribution à une physiologie du monde moderne: en 2 tomes. P., Gallimard, 1970, t. 1, 1799 – 1829, 1190 p.

² Bayard P. Balzac et le troc de l’imaginaire: lecture de “La Peau de chagrin”. P., Lettres modernes, 1978, 190 p.

³ Jung W. La peau de chagrin: une théorie romantique du temps. L’Année balzacienne. 2007, vol. 8, p. 105 – 115.

⁴ Michel A. Le réel et la beauté dans le roman balzacien. P., Champion, 2001, 327 p.

⁵ Balzac O de. La peau de chagrin Adaptation d’un texte électronique provenant de la Bibliothèque Nationale de France :<http://www.bnf.fr/> R. 5.

⁶ Balzak O.de. Sag‘ri teri tilsimi. Mirziyod Mirzoidov va Mahkam Mahmudov tarjimai. T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1981, 62-bet.

⁷ Shu manba. 134-bet.

Asardagi bosh qahramon Rafael va do'sti Rastenyakning ijtimoiy muhitni qabul qilishi va qarashlari turli xil bo'lsa-da, ikkala yosh yigit ham iste'dodli edilar. Ammo ular o'zlari kirib borishni xohlayotgan tabaqa vakillari borasidagi fikrlari va yondashuvlari butunlay o'zgacha edi. Rafael o'z qadr-qimmatini, g'ururi va aqli-zakovati bilan mashhur bo'lishni, Rastenyak esa ularga xos bo'lgan jirkanch bo'lsa-da, odatlarini, qiziqishlarini o'rganish orqali ularga xayrixohlik bilan kirib borishga urinar edi.

Yozuvchi bu yosh yigitlar obrazlari orqali o'sha davrda ilm-fanga qiziqqan o'qimishli shaxslarga nisbatan hech qanday eshiklar ochilmasligini Rafaelning ayanchli taqdirida ochib beradi.

–Hayolimda, ko'pincha, general, imperator bo'lardim: yo Bayronday dong'im chiqsin, yo changim chiqsin, derdim. Insonlar shuhrati bilan o'ynashar ekanman, barcha davonlar, cho'qqilar oldinda ekanligini tushunardim. Ichimga sig'mayotgan cheksiz shuhratparastligim, daho bo'lishimga go'zal ishonchim menga madad berardi.¹

Moi! J'ai souvent été general, empereur; j'ai été Bayron, puis rien. Apres avoir joue sur le faite des choses humaines, je m'apercevais que toutes les montagnes, toutes les difficultes restaient a gravir.²

Rafael yoshligidan o'qishga dunyoviy bilimlarni puxta o'rganishga harakat qiladi. Boylik haqiqiy hayoti deb tushunuvchi qoloq, uyqudagi shaxslarga o'zining bilimi ortidan erishgan yutuqlarini qarshi qo'yish va isbotlash maqsadida uch yil qorong'i xonaga qamalib ijod qiladi. Balzak yosh, g'ayratga to'la qahramonini jamiyat kirdikorlariga qarshi qo'ymoqchi bo'ladi. Kitobini chiqarish maqsadida nashriyotlarga uzoq yugurgan Rafael pulsiz, obro'siz bu maqsadga erishib bo'lmashligini tushinadi va joniga qasd qilishni rejalashtiradi. Asardagi falsafiy fantastik janrga xos bo'lgan antikvar mollar sotadigan so'qir chol bilan boshlangan sujet real obrazlar taqdiriga singdiriladi.

O'tgan asrning 70-yillari boshlarida bir qator rus adabiyotshunoslari "Sag'ri teri tilsimi" romanining falsafiy muammolarini ham, uning romantik xususiyatlarini ham jiddiyroq va chuqurroq tahlil qildilar. E. P. Kuchborskaya "Balzak ijodi"³ kitobida birinchi marta "Sag'ri teri tilsimi" romanida romantik motivlarga batafsil tavsif beradi: unda mo'jiza va fantastika so'zsiz mavjudligi, o'zgaruvchan, shunga qaramay, ratsionalistik talqin qilishi va T.A.Gofman asarlarining Balzak romaniga ta'sirini alohida ta'kidlaydi. D.D.Oblo-mievskiy "Balzak: ijodiy yo'lning bosqichlari"⁴ kitobida "Sag'ri teri tilsimi" romanida romantizm xususiyatlari alohida, uning fantastik xususiyati qayd etilgan, bu xayolot mahsuli emas, xayolot mavzusidan kelib chiqqan, ammo irodasidan qat'i nazar, ongdan tashqarida amalga oshiriladigan jarayon va insonning xohishi, obyektiv jarayondir.

Terini qo'lga kiritgan Rafael hak o'tmishini unitgan holda, bugungi kuni bilan yashaydi: u o'zi eng yaxshi deb hisoblagan hayotiga erishadi va unda yashaydi, avvalgi hayot tarziga nisbatan sog'inch hissi yo'q. Ammo barcha orzulariga erishganida, hayot qadrini tushuna boshlaydi. Haqiqiy sevgisi yonida bo'lganini, inson hayoti boyluk, hissiz hoy-u havaslardan ustun ekanligini anglaganda umri tugaydi.

Roman epilogi asarning ikki asosiy ayol bosh qahramon obrazi ostiga chiziq tortadi: sof, muloyim, ulug'vor, samimiy mehribon Polina, ramziy ma'noda bizning atrofimizni o'rab olgan dunyo go'zalligi va shafqatsiz, sovuq, xudbin Feodora, u qalbsiz va hisob-kitobli jamiyatning umumlashtirilgan ramzidir.

Yana romanning ayol obrazlari sifatida ikkita yengil tabiatli shaxslar bo'lgan ikkilamchi obrazlar kiradi. Rafael ular bilan yosh olimlar, rassomlar va shoirlarning taniqli homiysi bo'lgan baron Tayfernikidagi kechki ovqatda uchrashadi. Go'zallikda tengi yo'q sohibjamol Akilina va uning nozik dugonasi Yefrasiya sevgiga ishonmasliklari sababli erkin hayot kechirishadi.

Balzakning tasavvuri bilan yaratilgan tilsim umumiy ramzga aylandi va butun e'tiborni o'ziga jalb qiladi. U hamma vaqt turli kontekstlarda, nutqda va adabiyotda obrazning zaruriy umumiy tushunarli tasvirini beradi va beqiyos obyektiv qonun sifatida namoyon bo'ladi. Tilsim romanda aynan nimani o'zida mujassam etgan? Ramz bir ma'nolilikdan ancha yiroq va bu savolga juda ko'p turli xil javoblar berilgan. Shunday qilib, F.Berto Rafaelni yemirayotgan Sag'ri terisi romandagi ramziylikda ertak tipidagi allegoriyaga aylantirilganlik timsolini ko'radi. B.Gyuyon sivilizatsiyani, har qanday ijtimoiy tuzumning tub buzuligi va axloqsizligining ramzi deb hisoblaydi. M.Shaginyan va B.Raskinlar terining kuchini "xurofot", narsalarning odamlar ustidan hukumronlik qilishi bilan bog'lashadi. I.Lileeva romanda "Sag'ri terisi obrazida

¹ Balzak O.de. Sag'ri teri tilsimi. Mirziyod Mirzoidov va Mahkam Mahmudov tarjimasini. T., G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1981, 128 – 129-betlar.

² Balzac O. de. La peau de chagrin Adaptation d'un texte électronique provenant de la Bibliothèque Nationale de France: <http://www.bnf.fr/> R. 46.

³ Кучборская Е.П. Творчество Бальзака. М., "Высшая школа", 1971, с. 255.

⁴ Обломиевский Д.Д. Бальзак: этапы творческого пути. М., Гослитиздат, 1971, 590 с.

burjua hayotini umumlashtirilishi berilgan, faqat boylik va zavq olishga intilish, pul kuchini umumlashtirish, bu dunyoning dahshatli kuchi, u inson shaxsiyatini vayron qiladi va nogiron qiladi” degan fikrni ta’kidlaydi. “Taklif etilgan yechimlarning aksariyati bir-birini istisno qilmaydi va roman matnida o’z asosini topadi, bu o’zining badiiy boyligi tufayli tabiiy ravishda ko‘plab talqinlarga yordam beradi. Barcha qarorlar bitta umumiy asosga ega: sag‘ri terisi – obyektiv qonunning o‘zgarmasligi ramzi bo‘lib, unga qarshi shaxsning har qanday subyektiv noroziligi kuchsizdir. Ammo muallifning rejasiga ko‘ra, bu qanday qonun? Balzak o‘z romanining muammoli o‘qi sifatida nimani ko‘rdi?”¹

I. Lileeva fikrini keltirib shuni ta’kidlash lozimki, har bir jamiyatda ham boylikga bog‘liq bo‘lgan munosabat, shaxsga nisbatan bir tomonlama yondashuv bo‘lib, ma’naviyati oqsashiga olib keladi. Ushbu asarda ham aynan yosh o‘ta ma’rifatli bo‘lgan ijodkor shaxs taqdiri o‘z aksini topgan va uning o‘limi bilan yakunlangan.

Balzak ijodida falsafiy muammolar chuqurligi jihatidan o‘xshashi bo‘lmagan “Sag‘ri teri tilsimi” romani g‘oyat ulkan darajada ulug‘vor “Inson komediyasi” g‘oyasini tayyorlab berdi. Bu sehrli Sag‘ri terisi yordamida barcha istaklarini bajarish uchun g‘ayrioddiy imkoniyat berilgan va shu kuch tufayli vafot etgan yosh yigit Rafael de Valentinning hikoyasidir. Balzakning ish kundaligida topilgan “Sag‘ri teri tilsimi” bilan bog‘liq dastlabki parcha-parcha eslatmalar romanning falsafiy tamoyillarini aforistik shaklda tushuntiradi: “hayotni o‘zida mujassam etgan teri ixtiro qilingan... “Sag‘ri teri tilsimi” Sharq ertagi. Inson hayotining ifodasi, chunki bu hayot va bu mexanizm, uning mexanikasining aniq shakli. Shu bilan birga, shaxs tasvirlangan va baholangan, lekin she’riy mavhum emas”.² Nihoyat, aniqroq tushuntirilsa: “bu (falsafiy ertak) bizning 1392-yilgi xorijiy mamlakatlar xalqlari adabiyoti, endigi asr egoizmimizning formulasi bo‘lib qoladi. Romanning grafik epigrafi – muyulish va burilishlarni o‘z ichiga olgan inson hayoti kabi qora gorizontol to‘lqinli chiziq. L.Sternning “Tristram Shendi” romanidan olingan bo‘lib, muallifning niyatini ham tushuntiradi”.

“Sag‘ri teri tilsimi” romanining kompozitsion markazi Rafael de Valentinning e’tirofi – qahramonning o‘tmishi haqidagi retrospektiv hikoyasi, uning ichki dunyosi xotirjamligidir. Romantik davr fransuz adabiyotida yaratilgan va Balzak romanida mavjud bo‘lgan yangi janr bo‘lgan romantik e’tirofga, shubhasiz, sentimentalizm an‘anasi, J.J.Russoning “e’tiroflari” ta’sir qiladi. Qutb holatlarining kombinatsiyasi: ehtiros va sovuqlik, yuksak va asosiy istaklar... Qahramon nafaqat o‘zini kuzatadigan va o‘zini tahlil qiladigan darajada harakat qilmaydi, shu bilan birga, kuzatuvchan auditoriyani tashkil etuvchi boshqa personajlar yoki muallif tomonidan tahlil obyektiga aylanadi”.³

Ta’kidlash lozimki, “Sag‘ri teri tilsimi” romanida Balzakning romantik ijodiy uslubining asosiy xususiyati sifatida qarama-qarshiliklardan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Qarama-qarshi qo‘shimchalar bosh qahramon obrazining evolutsiyasini, uning fikrlari va ruhiy holatlarini tiklashni ko‘rsatishga xizmat qiladi; ular romanning bosh qahramonlarini tavsiflash va harakatning joylashishini, asosiy sujet burilishlarini tasvirlash uchun ishlatiladi, ular realistik obrazda ham muhim rol o‘ynaydi va asarning fantastik elementining talqinini ham ochib beradi. O.de Balzakning “Sag‘ri teri tilsimi” romanida romantik ijodiy uslubning ustunligi ko‘zga tashlanadi.

¹ <https://studbooks.net/586808/literatura/roman/onore-de-balzaka-shagrenevaya-kozha>.

² Бахмутский В.Я. «...Наш век...наш эгоизм...». Бальзак О. Шагреневая кожа. М., “Книга”, 1983, с. 5.

³ Тертерян И.А. Введение. Романтизм. История всемирной литературы, В 9-ти т., М., “Наука, 1989, т. 6, с. 16 –27.

Karimov Amrullo Ashurovich (O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti xalqaro jurnalistika fakulteti dekani, filologiya fanlari doktori; karimov.amrullo@mail.ru)
TELEMAHSULOTLARNING AUDITORIYAGA TA'SIRI MASALALARI

Аннотация. *Telejurnalistlar tomonidan tayyorlanadigan ijodiy mahsulotlarning auditoriyaga ta'siri masalalari borasida ilmiy jamoatchilik ham o'z nuqtayi nazarini muntazam bildirib keladi. Ularning kimga, qaysi yoshdagi, qaysi jinsdagi auditoriya vakillariga mo'ljallanishi kabi keng mavzulardan tor qiziqishlarga qamrab olinadi. Mazkur maqolada bolalarning salomatligi va rivojlanishiga salbiy ta'sir etadigan axborotlardan ularni himoya qilish teleseriallar misolida ko'rib chiqilgan.*

Аннотация. *Научное сообщество регулярно высказывает мнение о влиянии на аудиторию творческой продукции, подготовленной тележурналистами. Они варьируются от вопросов ориентации по признаку возраста, пола и других специфических особенностей аудитории, таких как, к примеру, интересы. В данной статье на примере телесериалов рассматривается проблема защиты детей от информации, негативно влияющей на их здоровье и развитие.*

Annotation. *The scientific community often offers its perspective on the impact of creative items created by TV journalists on the public. They range from broad topics to specific interests, such as who they are aimed at, what age group, and what gender audience members. The safeguarding of children from information that is harmful to their health and development is discussed in this article using TV shows as an example.*

Kalit so'zlar: *televideniya, teleserial, format, reklama, kontent, rekreatsiya.*

Ключевые слова: *телевидение, телесериал, формат, реклама, контент, рекреация.*

Key words: *television, television series, format, advertising, content, recreation.*

90-yillarda Rossiya kanallarida maishiy xarakterdagi "Boylar ham yig'laydi", "Oddiy Mariya" seriallari namoyish etila boshlandi. Shu davrgacha o'zbek auditoriyasi hozirgi ko'rinishdagi seriallar haqida to'liq tasavvurga ega emasdi. Ko'p qismli mazkur seriallar o'zbek tomoshabinini mahliyo qildi va nihoyat milliy televideniya seriallar kirib keldi. Teleseriallarga bu jurnalistika emas deb ayb qo'yiladi. Ular jurnalistik asar emas, albatta. Ammo ma'lum telekanal orqali efirga uzatilayotgan seriallar ommaviy axborot vositasi mahsuliga aylanadi. Shuning uchun mazmun jihatdan u san'atshunoslikka tortsa ham, shaklan media mahsuli. OAVning auditoriyaga ta'siri o'rganilar ekan, jamoatchilik bu kino yoki telemahsulot deb ajratib o'tirmaydi. Seriallar va badiiy filmlar televideniyaning rekreativ vazifasini a'lo darajada bajarmoqda, teledasturlarning asosiy qismini band etgan va bu jihatdan tok-shoudan ham ustun turadi. Ayniqsa, xorij seriallariga aholining qiziqishi katta bo'lib, amaliyotchi I.Abduxoliqov: "Chet el mahsulotlari yaxshi: senariylarning saviyasi yuqori, sujetlarining dinamikasi tezkor, teletomoshabinlarni ekran oldida mahkam ushlab tura oladi, rejissurasi puxta, aktyorlari ham ancha xushbichim",¹ degan fikrni bildiradi. Seriallar ta'sirida tomoshabinlar psixologiyasida o'zgarishlar kuzatildi. Bunga javoban 90-yillarda o'zbek kino ustalarining "Ko'ngil ko'chalari", "Domla", "Charxpalak" kabi seriallar yaratilgan bo'lsa-da, ham son jihatdan, ham sifat jihatdan ularning g'aribligi sezilardi. Milliy telekanallar mutasaddilari tomoshabinni yo'qotib qo'ymaslik, qarashlarni to'g'ri yo'naltirish, milliy tilni asrash, efir vaqtini to'ldirish maqsadida tarjima asarlar, xususan, seriallar namoyishiga zo'r berildi. Bu shu davrda vaziyatdan chiqishning yagona yo'li edi.

O'zbekistonlik tomoshabin deyarli har kuni kechagi seriyadagi voqealar davomini kutadigan, maishiy mavzulardagi xorij seriallari tomoshasi uchun ekran qarshisida mixlanib o'tiradigan bo'ldi. Ular orqali uning psixologiyasiga o'zga davlatning urf-odatlarini, qadriyatlarini, qarashlari ham singib boradi. Jamoatchilik vakillari, jurnalistlar tomonidan seriallarning aks ta'siri haqida milliy matbuot sahifalarida chiqishlar qilindi: "Axir o'sha Braziliya, Koreya, Amerika seriallarida milliy auditoriyamizga, tomoshabinlarimizga singdirilayotgan qadriyatlarni ijobiy va salbiy salmog'ini kim o'rgandi va kim ularni beozor deb hisoblaydi. Yaponiyadek mamlakatda esa milliy telekanallarda namoyish etiladigan chet el tele-, kino mahsulotlari uchun qat'iy kvota belgilangan. U kunlik ko'rsatuvlarning 5–10 foizidan oshmaydi. Bizda ayrim paytlarda bir necha davlat, nodavlat va xususiy telekanallarda bir paytning o'zida hamon o'sha seriallar namoyish etilmoqda".² Ular namoyishi uchun kvota belgilash "ommaviy madaniyat"ga berilish tahdididan qutulish-

¹ Abduxoliqov I. Aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish yo'lida. "Sado", 2007, 29-mart.

² O'sha manba.

ning choralaridan yana biri sanaladi. Ammo, hali-hanuz bunga axloqiy, ma'muriy yoki huquqiy jihatdan yetarli asos yaratilgani yo'q.

Teleekran orqali xonadonlarimizga kirib borgan bir qator yapon, koreys filmlari, ko'p jihatdan, o'zbek teletomoshabinlari dunyoqarashiga mosligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, koreys filmlari bu xalqning hayot tarzi, urf-odatlarini, milliy taomlari, liboslari, umuman, sharq tabobati, saroylar hayoti haqida ma'lumot beradi. Shugina emas, ular tomoshabinni fikrlashga, hayotiy voqea-hodisalar to'g'risida mulohaza yuritishga undaydi. Yapon kinoijodkorlarining "Oshin" serialining tarbiyaviy ahamiyatini misol sifatida keltirish mumkin.

Ammo, barcha xorij seriallari haqida bunday fikr bildirib bo'lmaydi. Jumladan, internet saytlar, ijtimoiy tarmoqlardagi postlarda turk seriallari qattiq tanqid ostiga olinib, milliy ma'naviyatga mos kelmaydigan bunday telemahsulotlarning berilishi ketma-ket e'tirozlarni keltirib chiqardi. "G'iybatchi ayollarning diydoylaridan ortiq bo'lmagan" bu seriallar tomoshabinga na estetik zavq, na ma'naviy ozuqa bera olishini ular hech qanday san'at asari emas degan fikrni ilgari suradi. Mazkur seriallar bepul kelsa ham, ma'naviyatimizga katta zarar keltirmoqda. Barkamol avlodni tarbiyalash yo'lida talay ishlar qilinayotgan bir paytda, bunday seriallar yoshlar tarbiyasiga aks ta'sir etishini yoddan chiqarmaslik lozim.

Aholining maroqli dam olishiga ko'maklashayotgan seriallar, yoshlar tarbiyasiga aks ta'sir o'tkazib, ularda koreys, turk kinoasarlari qahramonlariga taqlidni kuchaytirmoqda. Yigitlarda soqol qo'yib yurishning ommalashayotgani turk seriallarining ta'siri hisoblanadi. "Ichkarida", "Chuqur", "Sevgi iztirobi" singari seriallar jamiyatda "ommaviy madaniyat"ning urchishiga sabab bo'lyapti. Natijada xayoldan oila tashvishlari ko'tariladi, ma'naviy yetuklik, barkamollik haqidagi qarashlarga darz ketadi, odamlarda befarqlik, loqaydlik yuzaga keladi. Farzandlar ham ota-onalar yonida turib, seriallar namoyishini intiq bo'lib kutishni boshladi. Har ikki kunning birida ko'chada ovqatlanish targ'ib qilinayotgan seriallar qahramonlariga taqlidan ayol(ona)da ko'chada ovqatlanish, eng so'nggi modadagi kiyimlarni kiyish, turmush o'rtog'iga turli-tuman shartlar qo'yish istagi paydo bo'ladi.

Televideniya amaliyotchilari tomonidan tayyorlanadigan telemahsulotlarning auditoriyaga ta'siri masalalari borasida ilmiy jamoatchilik ham o'z nuqtayi nazarini muntazam bildirib keladi. Ularning kimga, qaysi yoshdagi, qaysi jinsdagi auditoriya vakillariga mo'ljallanishi kabi keng mavzulardan tor qiziqishlarga gacha qamrab olinmoqda. Ammo ba'zi o'rinlarda muvozanat buzilayotganini inobatga olib, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlod ma'naviyatiga, tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan televideniya chiqishlar uchrayotgani tomoshabinlar ommasini birozgina cho'chitib qo'yayotgani ham, ayni haqiqat. Bu muammo dunyo jamoatchiligini ham tashvishga solmoqda.

1996-yil 19-dekabrda AQSH Kongressi va aloqa bo'yicha Federal komissiyasi ota-onalarga yordam ko'rsatish maqsadida televideniya industriyasiga e'tibor qaratib, televideniya ko'rsatuvlar tizimi klassifikatsiyasini taqdim qildi. Yetti kategoriyadan iborat bo'lgan bu tizim quyidagilarni o'z ichiga oladi va har bir kategoriya alohida belgida o'z ifodasini topgan.

1. Istalgan yoshdagi bolalarga mo'ljallangan televideniya ko'rsatuvlar (All Children). Ko'rsatuvlarda aktyorlar ishtiroki, animatsion sahnalar va boshqa bolalar auditoriyasiga mo'ljallangan usullardan keng foydalaniladi, ikki yoshdan oshgan bolalar ko'rishi mumkin bo'lgan dasturlar kiritilgan.

2. 7 va undan katta yoshdagi bolalarga mo'ljallangan televideniya ko'rsatuvlar (Directed to Older Children). Odatda, bu yoshdan boshlab bolalarda tabiiy ravishda turli ko'nikmalar shakllanib, fantaziya qilishga, fikrlashga intilish kuchayadi.

3. Katta yoshdagi bolalarga mo'ljallangan televideniya ko'rsatuvlar (Directed to Older Children – Fantasy Violence). Bolaning rivojlanishiga qarab dasturlardagi qahramonlar faoliyati ham rivojlanib boradi. Bolalarda superqahramonlarga, kuchli fantaziya, qattiqqo'llikka, ur-yiqit filmlarga bo'lgan qiziqish ortib boradi.

4. Hech qanday yosh inobatga olinmay, umumiy tomoshabinlar auditoriyasiga mo'ljallangan televideniya ko'rsatuvlar (General Audiences). Garchi mazkur dasturlar aynan bolalar uchun tayyorlanmasa-da, bolalar auditoriyasiga hech qanday taqiq qo'yilmaydi. Ya'ni, oila, tabiat, vatanparvarlik, tarbiya va boshqa mavzulardagi suhbatlar, har kuni ularga uqtiriladigan pand-nasihatlar o'z ifodasini topgan chiqishlar, hujjatli filmlarni o'z ichiga olgan.

5. Ota-onalar nazorati va kuzatuvda ko'rish uchun tavsiya qilinadigan ko'rsatuvlar (Parental Guidance Suggested). Mazkur kategoriyadagi ko'rsatuvlarni bolalarning yolg'iz ko'rishlari qat'iy man qilinadi. Voyaga yetmaganlarning bunday ko'rsatuvlarning ko'rishi tarbiyaga salbiy ta'sir o'tkazadi. Ko'rsatuvlar V, S, L, D belgilar bilan e'firga chiqadi va ularning o'z ma'nolari mavjud (zo'ravonlik sahnalari o'z ifodasini topsa V, fahsh va intim holatlar aks etganda S, vulgar leksika ishlatilsa L, yoki qo'pol dialoglar

qo'llanilsa D). Odatda, ota-ona bolaning rivojlanishi hamda dunyoqarashiga qarab, ko'rsatuvni tomosha qilish-qilmasligini aniqlashtiradi. Aytilayotgan gap-so'zlar va turli munosabatlarga izoh beradi. Bu kategoriyadagi dasturlar tomoshasidan so'ng bolada qator savollar tug'ilishi, ota-ona ularga oqilona javob berishi lozim. Bizningcha, bu tajribani milliy televideniyalarga ham joriy etish kerak.

6. Ota-onalarning qat'iy nazoratlari ostidagi ko'rsatuvlar. Mazkur dasturlarni 14 yoshdan kichik bo'lgan auditoriya mutlaqo ko'rishi mumkin emas (Parents Strongly Cautioned). Mazkur kategoriyadagi ko'rsatuvlar ham yuqoridagi kategoriya singari V, S, L, D belgilari ostida beriladi. Agar 14 yoshdan kichik bo'lgan auditoriya mazkur ko'rsatuvlar tomoshasiga shaylansa, dastur ta'sirida uning ruhiyatida kutilmagan o'zgarishlar sodir bo'ladi, ayni paytda, bu salbiy oqibatlariga ham olib kelishi mumkin.

7. Yoshlar auditoriyasiga to'g'ridan to'g'ri mo'ljallangan ko'rsatuvlar (Mature Audience Only). Mazkur kategoriyadagi ko'rsatuvlar yoshlar auditoriyasi uchun maxsus tayyorlanadi va 17 yoshga to'lmaganlar ko'rishi mumkin emas. Bunda ham translatsiyalar jarayonida V, S, L belgilaridan foydalaniladi, Ko'rsatuvlarda bir yoki undan ortiq bo'lgan quyidagi uzvlardan: namoyishkorona qattiqqo'llik (subreyting V), ochiq jinsiy munosabatlar (subreyting S), vulgar leksikadan (subreyting L) foydalanilishi mumkin.

Elektron OAV orqali olinadigan, bolalarning salomatligi va rivojlanishiga salbiy ta'sir etadigan axborotlardan ularni himoya qilish maqsadida Rossiya Federatsiyasida maxsus qonun qabul qilingan. Rossiya telekanallaridagi dasturlar maxsus belgilar orqali (6+, 12+, 16+ i 18+) efirga uzatilmoqda. Mazkur belgi ekran maydonining 5 foizdan kam bo'lmagan qismini egallashi va har bir ko'rsatuv boshlanishidan avval 8 soniyadan kam bo'lmagan vaqt davomida namoyish qilinishi qonunda belgilab qo'yilgan. Dastur davomida beriladigan reklama blogidan so'ng ham bu belgi ekrandan o'rin egallashi shart qilib qo'yilgan. Mazkur qonun jamoatchilikda keng qiziqish uyg'otdi. Ayniqsa, bolalar auditoriyasiga mo'ljallangan dasturlarda ham bo'linish paydo bo'ldi. Misol uchun, katta-yu kichikning sevimli tomoshasiga aylanib ulgurgan "Senimi, shoshmay tur!" ("Nu, pogodi") multfilmining 12 yoshga yetmaganlarga ko'rish taqiqlab qo'yildi. Chunki unda bolalarda havas uyg'otuvchi tamaki mahsulotlari targ'iboti ham bor edi. Bu kabi misollarni nafaqat Rossiya, balki boshqa jahon animatsion filmlaridan ham keltirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Bolalarning jismoniy va ma'naviy rivojiga zararli ta'sir ko'rsatuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunida bolalarni ularning ongini buzuvchi, ruhiy jarohat yetkazuvchi axborot ta'siridan himoya qilish, OAVda shafqatsizlik va zo'rvonlik targ'ibotiga yo'l qo'ymaslikning ta'sirch yosh, hatto voyaga yetmagan bola hali oq-qorani yaxshi ajrata olmaydi. Bunday paytda uni o'z holiga tashlab qo'yish, tarbiyasiga e'tiborsizlik xunuk oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ularning yashash sharoiti, ta'lim-tarbiya olishi, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi bilan bog'liq masalalar jiddiy e'tibor talab qiladi. Bo'sh vaqtning bir qismi ekran qarshisida o'tar ekan, bolani o'z holiga tashlab qo'yish yaramaydi. Shuning uchun ham har bir telemahsulot efirga berilishidan oldin yosh (7+, 12+, 16+) belgilanadi. Bundan tashqari, OAV orqali berilayotgan axborotlar, xususan, rekreatsiya ustuvor bo'lgan loyihalarni tushunish, tahlil qilishda mediata'limning naqadar zarurligini bugungi globallashuv davri yaqqol ko'rsatib turibdi. Shu sohada ish olib borgan olimlardan biri A.Jurin fanga uch nuqtayi nazardan baho beradi.

Birinchiidan, OAVning bolalar va o'smirlarga ta'sirini o'rganuvchi, nazariy masalalarini ishlab chiquvchi, yosh avlodni media dunyosi bilan muloqotga tayyorlovchi pedagogik fan sifatida qaraydi.

Ikkinchiidan, bolalar va o'smirlarni OAVdan foydalanish, mediamadaniyat va dunyoni tushunishdagi rolini anglashga undovchi amaliy faoliyat deb baho beradi.

Uchinchiidan, medialarning madaniyat va dunyoni tushunishdagi roli haqida bilim beruvchi va mediaaxborotlari bilan samarali ishlash ko'nikmasini shakllantiruvchi ta'limning bir qismi ekanligini aytib o'tadi.¹ Rekreativ xarakterdagi mediamahsulotlarni tayyorlash bilan shug'ullanuvchi ijodkorlar tomoshalinga yaxshi kayfiyat taqdim etish asnosida me'yorni unutib qo'yishlari mumkin. Shuning uchun ham mediata'lim fan sifatida o'quv dasturlaridan joy olishi, ayni paytda, juda zaruran tashkiliy-huquqiy mexanizmlari ko'zda tutilgan.

¹ Журин А.А. Интеграция медиаобразования с курсом химии средней общеобразовательной школы. "Медиаобразование", 2005, № 1.

Barakayev Fazliddin Ismatovich (Termiz Muhandislik-texnologiya instituti “Transport muhandisligi va logistikasi” kafedrası assistenti; e-mail: ismatovichfazliddin28@gmail.com)

RAQAMLI TA'LIM RESURSLARI VA ULARNING OLIY TA'LIM MUASSASALARIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada pedagogik texnologiyaning qisqacha mazmuni hamda raqamli texnologiya resurslari, ularning ta'lim tizimida qo'llanilishi, o'qitishda ilm oluvchi va professor-o'qituvchiga yaratiladigan sharoitlar, tabalarni o'qitishda raqamli texnologiya resurslarining ta'siri va o'qituvchiga qo'yiladigan talablar haqida to'xtalib o'tilgan.

Аннотация. В статье содержится краткое изложение педагогических технологий и ресурсов цифровых технологий, их использование в системе образования, условия, созданные для студентов и преподавателей в преподавании, обсуждается влияние ресурсов цифровых технологий на обучение студентов и требования учителей.

Annotation. The article contains a summary of pedagogical technology and digital technology resources, their use in the educational system, the conditions created for students and professors in teaching, the impact of digital technology resources in teaching students and the teacher requirements are discussed.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, mahorat, raqamlashtirish, raqamli ta'lim resurslari, 3D video, virtual o'qitish resurslari, Wi-Fi zonalar, smart doska, ta'lim usullari, modern.

Ключевые слова: педагогические технологии, навыки, оцифровка, цифровые учебные ресурсы, 3D-видео, виртуальные учебные ресурсы, зоны Wi-Fi, смарт-доска, методы обучения, современность.

Key words: pedagogical technology, skills, digitization, digital learning resources, 3D video, virtual learning resources, Wi-Fi zones, smart board, educational methods, modern.

Kirish. Ta'lim jarayonini samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning nazariy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish maqsadida o'quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr taqozosi hamda ijtimoiy zarurat sifatida va davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

“Pedagogik texnologiya” atamasining mohiyati nimada? «Texnologiya» – yunoncha so'z bo'lib, «teche»–mahorat, san'at, «logos» – tushuncha, o'rganish. demakdir. “Pedagogik texnologiya” so'zlar birikmasining asosida «texnologiya», «texnologik jarayon» tushunchalari yotadi. Ushbu tushunchalar orqali sanoatda tayyor mahsulotni olish uchun bajariladigan ishlarning ketma-ketligi haqidagi texnik hujjat, ta'limda esa fan bo'yicha uslubiy tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Nega bugungi kunga kelib, pedagogik texnologiyaga qiziqish shunchalik darajada kuchaydi, degan mulohaza tug'ilishi, tabiiy. Jamiyatimizga qanchadan qancha bilimli va malakali kadrlarni yetishtirib kelgan pedagogikaning o'ziga xos uslublari mavjud. Pedagogik jamoatchilikning aksariyati mana shu yo'ldan bormoqda, ammo mustaqillik va kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo'l kutilgan samara bilan xizmat qila olmaydi. Chunki buning zamirida ma'lum sabablar mavjud, ya'ni:

1. Rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olish uchun aholi ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurligi.

2. Fan-texnika taraqqiyotining o'ta rivojlanganligi natijasida axborotlar tizimi hajmining tobora ko'payib borayotganligi.

3. Zamonaviy texnika va texnologiyalarni ta'limga tatbiq etish, ta'lim jarayonini raqamlashtirish, o'quv-tarbiya jarayonida axborot texnologiyasi (AT) va texnik vositalar (TV)dan foydalanish kerakligi.

4. Talaba va o'qituvchi faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish, o'qituvchi ta'lim maqsadi va mazmunini puxta bilishi, ta'lim usullari, metodlari va vositalarini yaxshi egallagan bo'lishi, talabaning qiziqish va intiluvchanligini to'g'ri yo'lga yo'naltira olishi lozimligi.

5. O'qituvchi ta'lim jarayonini yuqori darajada, samarali tashkil etish uchun maqsad va vazifalarni aniq belgilashi, ta'lim natijasini oldindan qayd etishi, o'quv predmetlarini to'liq o'zlashtirishga erishish uchun zaruriy ta'lim vositalari, shart-sharoitlarini tayyorlashga erishishi kerakligi.

6. O'quv jarayoni uchun zarur moddiy-texnik bazaning yaratilgan bo'lishi.

7. Ta'lim-tarbiya jarayoni natijalarini xolisona va obyektiv baholash, talabalarning bilim va malakalarini egallash jarayonini nazorat qilish va baholashni avtomatlashtirishga erishilganligi.

8. O'sib kelayotgan yosh avlodni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisoblangan obyektiv borliqqa majmuyi yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishi kabi muammolardadir [2].

Hozirgi kunda zamonaviy pedagogikada ta'limning shunday modellari yaratildiki, ular ta'limga texnologik jarayon sifatida yondashilib, ma'lum sharoitlarda va belgilangan vaqt ichida ko'zlangan maqsadlariga erishishni kafolatlaydi va keng imkoniyatlar beradi. Pedagogik innovatsiyalashuvni ta'limning ilmiy bilimlar, metodologiyalarini jamiyat rivojlanishi, ta'limga qo'yilayotgan ijtimoiy buyurtmaning jahon tablari darajasiga bog'liq holda moslashuvchanligi deb talqin etish mumkin. Ta'limni texnologiyalashtirishning asosini ta'lim jarayoni va uning samaradorligini oshirish hamda ta'lim oluvchilarni berilgan sharoitlarda, ajratilgan vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o'quv natijalarga erishishlarini kafolatlash maqsadida to'liq boshqarish g'oyasi tashkil etadi. Pedagogik texnologiya – ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va uslublari majmuyidir. Ta'lim va tarbiya jarayonini optimal tashkil etish hamdir. O'quv materiallarini tanlash, qayta ishlab, o'qituvchi va o'quvchilarning kuchiga, o'zlashtirish xususiyatlariga moslab shakl hajmini o'zgartirish ham ta'lim texnologiyasiga daxldor.

Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiyaning obyektiv qonuniyatlari, diagnostik maqsadlar asosida o'quv jarayonlari, ta'lim-tarbiyaning mazmuni, usul va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimi: fan va texnika yangiliklarini o'zida mujassamlashtiradigan o'quv jarayonidir. Pedagogik texnologiya ta'limning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatishi mumkin: o'quvchi va pedagog shaxsining jadal rivojlanishi; o'quvchi va pedagogning hamkorlikdagi faoliyati va muloqotining demokratlashuvi; barkamol insonni shakllantirish faoliyati, o'quv-tarbiya jarayonining yanada insonparvarlashuvi, ijodiy o'qitishga yo'nalganlik, o'quvchining kreativ tafakkurini shakllantirishga yordam beradigan vositalar, metodlar va texnologiyalarning modernizatsiyasi [3].

Maqsad. Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun hamda o'qitish sifatini yaxshilash maqsadida pedagogik texnologiyaning yangi bosqichga "raqamli texnologiya resurslari"ga o'tish lozim.

Raqamli ta'lim resurslari (RTR), boshqacha aytganda, "virtual o'qitish resurslari", "onlayn oqish resurslari", "onlayn ta'lim resurslari" kabi atamalarda ham ishlatilishi mumkin. RTR, ta'lim va o'qish jarayonlarini raqamli vositalar orqali olib borilishi yoki ular orqali tashkil etishni ifodalaydi. RTR, o'qish va o'qitishni, ilmiy tadqiqot va o'quvchilarning o'zlashtiri hamda sifatli ta'limga aylantirishni maqsad qilgan modern texnologiyalardan iboradir.

Raqamli ta'lim resurslari turlari o'rtasida, virtual o'quv dasturlari, interaktiv darsliklar, video darsliklar, xavfsizlik va turli sohalarda o'zlashtirilgan o'quv modullari va online kurslar kabi bir nechta tur mavjud. Bu resurslar o'quvchilarga o'rganishda yanada keng qamrovlilik yaratadi va ularning o'ziga xos usullari bor. Raqamli ta'lim resurslarini tushunish va ularni to'g'ridan to'g'ri qo'llash uchun kerakli kalit so'zlar jihatdan, "virtual darslik", "interaktiv darslik", "online kurs", "o'quv modullari", "baholash" "monitoring" va "sledovanie" kabi so'zlar kiritilishi kerak.

Raqamli ta'lim resurslari, o'qitish usullariga raqamli yondashuvni o'rnatish orqali o'qituvchilar va o'quvchilar uchun ko'plab foydali qulayliklar taqdim etadi. Bu resurslar interaktiv darsliklar, video darslar, testlar, audio va ko'p boshqa turlardagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Raqamli ta'lim resurslari, o'quvchilar uchun o'rganishni osonlashtiradi, o'qituvchilar uchun esa o'qitish jarayonini ko'proq qulay qiladi. Raqamli ta'lim resurslari qisqa muddatda, qulay va samarali o'rganish usullarini taqdim etadi, bundan tashqari, ularning turli xil turlari mavjud. Bu turdagi resurslar o'quvchilar uchun turli xil qulayliklar taqdim etadi, masalan, kelajakda ish qidiruvchilarga yordam berish uchun kerakli ish ko'nikmalarini o'rganish uchun mo'ljallangan dasturlar yoki biznes dasturlashni o'rganish uchun tayyorlangan kurslar. Raqamli ta'lim resurslarining tushunchasi keng va ko'p hisoblanadi, ular o'rganish jarayonini yanada qulaylashtiradi va talabalarni motivatsiyalash uchun ishlatiladi. Raqamli ta'lim resurslarining turli xil turlari mavjud bo'lib, ularning kelajakda o'quvchilar uchun o'rganishda muhim ahamiyati mavjud.

Raqamli ta'lim resurslari, ayniqsa, qiziqishli va qulay o'rganishni xohlaganlar uchun mo'ljallangan. Bu resurslar, o'rganish jarayonini yanada qulay va samarali qilish uchun o'quvchi va o'qituvchilarga yordam beradi. Raqamli ta'lim resurslari, o'quvchilar uchun matematika, fizika, informatika, tili va ko'p asosiy fanlarda qulay ko'rsatmalarni taqdim etadi. Bu resurslar, o'quvchilar va o'qituvchilar uchun yanada yaxshi tanlov bo'lib, ularning o'qitish va o'rganish jarayonlarini yanada qulay qiladi. Raqamli ta'lim resurslari, o'quvchilar uchun turli xil turlarda taqdim etilishi mumkin va ularning qisqa vaqt ichida o'rganish uchun foydali bo'ladi [4].

Metodlar. Raqamli ta'lim resurslari ko'pgina internetda taqdim etiladi va o'quvchilar uchun tez va oson qidirish uchun axborotlarni to'plab berish imkoniyatini beradi. Buning yaxshi va samarali usuli bo'-

ladi. Raqamli ta'lim resurslarining har xil turlari mavjud, masalan, onlayn kurslar, web-saytlar, forumlar, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn maqolalar kabi. Bu resurslarning har biri o'quvchilarga o'z xususiyatlarini taqdim etadi. Misol uchun, onlayn kurslar o'quvchilar uchun turli dasturlarni o'rganishda uydin, ish joyidan, yoki yo'lda harakatlanayotgan vaqtda yordam beradi, web-saytlar esa o'quvchilarni qisqa vaqt ichida bilim olishga yordam beradi. Raqamli ta'lim resurslarining bir turi, masalan, kichik biznesni boshlash uchun mo'ljallangan. Bu resurslar, o'quvchilarga biznes tadbirlari, korxonalar va startaplar haqida ma'lumotlarni taqdim etadi. Ular o'quvchilarni o'z bizneslarini boshlash va rivojlantirishga yordam berishga xizmat qiladi. Raqamli ta'lim resurslarining boshqa bir qancha foydali xususiyati ham shundaki, ularning ko'plab turlari mavjud. Bu resurslar, o'quvchilarni qiziqishli va yanada foydali ma'lumotlarni olishga chiqiradi. Raqamli ta'lim resurslari, o'quvchilar va boshqa foydalanuvchi qatlamiga axborotni o'zlashtirish va izlanishga yordam beradi [5].

Muhokama va natijalar. Bugungi kunda ayrim kishilar pedagogik texnologiya – bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llashi zarur bo'lgan kompyuter, proyektor, masofali o'qitish yoki turli xil texnik vositalardan foydalanish deb tushunishadi. Bu to'g'ri fikr emas. Pedagogik texnologiyaning asosiy negizi – bu o'qituvchi – trener va talaba – o'quvchilarning belgilangan maqsadga kafolatlangan natijaga qadar hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog'liq.

Raqamli texnologiyalar orqali ta'lim berilsa, ta'lim oluvchilarga ta'lim olish usullari osonlashadi. Bunda esa ta'lim tizimi vositalari rolini (pedagogik texnologiya) multimedialar, kodoskopik qurilmalar, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar, 3D video vositalari bajarib beradi. Ta'lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg'ulotlarini o'tkazish ta'lim sifatini oshirishni ta'minlaydi.

Onlayn darslarda raqamli texnologiyalar qo'llanilishi yaxshi samara berishi hammamizga ma'lum.

Raqamli texnologiya resurslaridan foydalanib o'qitish ta'lim beruvch va oluvchiga bir qancha qulaylik va natijalarga erishishiga yordam beradi.

- istalgan joyda va istalgan vaqtda ta'lim berish hamda olish;
- axborot tarmoqlaridan foydalanish madaniyatining shakllanishi;
- ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarish;
- mablag' sarfining kamayishi;
- ilm-fanga ajratiladigan vaqtni oshirishga;
- fanni tushunish (texnika mexanizmlarini 3D videolar orqali);
- “raqamli dunyo”da yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo'lish kabilar.

Raqamli ta'lim tizimini yuksalishiga Wi-Fi zonalar, IT parklar ochilishi katta xizmat qiladi. Ta'lim beruvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini o'stirish, onlayn darslar tashkil eta olishi, turli dasturlarni foydalana olishi va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish imkoniyati tug'iladi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim beruvchilarni o'z ustida ko'proq ishlashi va raqobat tufayli ta'lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalarning ayrim turlarining xususiyatlarini quydagilardan iborat.

PISA – (Programme for International Student Assessment) 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash.

PIRLS – (Progress in International Reading Literacy Study) boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash.

TIMSS – (Trends in Mathematics and Science Study) 4-sinf va 8-sinf o'quvchilarining tabiiy-ilmiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonligini baholash.

ICILS – (International Computer and Information Literacy Study) kompyuter-axborot texnologiyalar bo'yicha savodxonlikni baholash.

TALIS – (Teaching and Learning International Survey) rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish.

ICCS – (International Civic and Citizenship Study) fuqarolik ta'limini xalqaro baholash; PIAAC – (The Programme for the International Assessment of Adult Competencies) katta yoshli aholining kompetensiyalarini baholash.

Ushbu loyihalar o'quvchi-yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari, egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatiga turli xil topshiriqlar orqali baho berish, keyinchalik, bu ko'nikmalar rivojlanishiga turtki berishga xizmat qiladi. Hozirgi kunga qadar Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiya hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti bilan Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi o'rtasida imzolangan kelishuvlarga muvofiq, 2021-yilda PISA va PIRLS xalqaro dasturlarida ishtirok etish rejalashtirilgan. Mazkur tadqiqotlar doirasida O'zbekiston Respublikasi o'quvchi-yosh-

larining savodxonlik darajalari ilk bor sinab ko‘rilar ekan, bunga o‘ta mas‘uliyat bilan tayyorgarlik ko‘rish talab etiladi. Buning uchun xalqaro tadqiqotlar talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan topshiriqlar asosida tajriba sinovlar o‘tkazish, o‘quv jarayonlariga bosqichma-bosqich integratsiya qilib borish orqali o‘quvchilarda maxsus ko‘nikmalarni rivojlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Xalq ta‘limi vazirligi tizimida xalqaro baholash dasturlarini joriy etish bo‘yicha amaliy ishlar amalga oshirmoqda. Hozirgi kunda vazirlik o‘quvchilarning o‘qish (EGRA) va matematika (EGMA) bo‘yicha qobiliyatlarni baholash tadqiqotlarini tizimga joriy etish bo‘yicha AQSHning USAID tashkiloti bilan hamkorlik qilmoqda.

EGRA – Early Grade Reading Assessment – o‘quvchilarning o‘qish bo‘yicha savodxonligini erta aniqlash;

EGMA – Early Grade Mathematics Assessment – o‘quvchilarning matematika bo‘yicha savodxonligini erta aniqlash hisoblanadi.

Avvalo, xalqaro baholash natijalarini o‘rganish, tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqarish, baholash natijalari bo‘yicha yuqori natijalarga erishgan davlatlar ta‘lim tizimidagi tajribalarni o‘rganish va bu ilg‘or tajribalarni o‘zimizning ta‘lim tizimimizga tatbiq qilish kerak bo‘ladi.

2019-yilning 3-dekabr kuni Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan PISA-2018 natijalari rasman e‘lon qilindi. 2010-yildan buyon har 3 yilda o‘tkazib kelinayotgan, jami 10 million nafardan ortiq o‘quvchilar ishtirok etgan ushbu tadqiqotlarda 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar yo‘nalishlari bo‘yicha savodxonligiga baho berildi. PISA tadqiqotlarida o‘quvchi dasturni o‘zlashtirganligini emas, balki bilim va ko‘nikmalarni hayotda qay darajada qo‘llay olishini baholaydi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining ta‘lim va ko‘nikmalar direksiyasi direktori, PISA dasturining asoschisi Andreas Shlyaxerning ta‘kidlashicha, tadqiqotda qatnashgan dunyo o‘quvchilarining aksariyati o‘qish savodxonligi bo‘yicha test savollariga javob berishga qiynalgan. Shunga qaramay, tahlillar xitoylik o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi bo‘yicha natijalari dunyo bo‘yicha o‘rtacha darajadan yuqoriroq ekanligini namoyon qilmoqda. O‘quvchilarning har o‘ntadan bir nafarigina topshiriqlar mazmunidagi dalillar bilan fikrlarni farqlay olish ko‘nikmalariga ega ekanligi ma‘lum bo‘lgan. Shuningdek, davlatlarning mazkur reytingda yuqori natijalarga erishishi hamda ta‘lim sifat ko‘rsatkichlari ortishida kam imkoniyatga ega bo‘lgan oilalar farzandlarini qo‘llab-quvvatlash alohida o‘rin tutishi ma‘lum qilindi. Shunday ekan, davlat tomonidan kam imkoniyatga ega bo‘lgan qobiliyatli o‘quvchilar uchun alohida sinflar tashkil qilish, ularning salohiyatlarini oshirish uchun tajribali o‘qituvchilarni tayinlagan holda mashg‘ulotlar olib borish lozimligi taklif etildi. PISA da doimiy ravishda qatnashib borish orqali ko‘plab mamlakatlar o‘zlarining ta‘lim tizimidagi o‘zgarishlarni kuzatish va tahlil qilib borish imkoniyatiga ega bo‘lishlari mumkin. Misol uchun, tadqiqotlarda uzluksiz ravishda ishtirok etib, Portugaliya, Albaniya, Qatar, Moldaviya, Peru mamlakatlari 2003-yildan 2018-yilgacha barqaror o‘sish sur‘atlariga ega bo‘ldi. Xalqaro baholash natijalari bo‘yicha olib borilgan tahlillar va tadqiqotlar o‘quvchi-yoshlar savodxonligining shakllanishiga ta‘sir etuvchi omillardan biri maktab-oila hamkorligi ekanligini ko‘rsatmoqda PISA dasturida ishtirok etayotgan Qozog‘iston Respublikasining Fan va ta‘lim vazirligi qoshidagi «Informatsion-analitik markaz» AJ tomonidan amalga oshirilgan “O‘quvchilarning funksional savodxonligining shakllanishida ota-onalarning ta‘sirini baholash” nomli loyiha orqali xalqaro dasturda ishtirok etgan o‘quvchilarning natijalari boshqa davlatlardan ishtirok etgan o‘quvchilarning natijalari asosida qiyosiy tahlil qilinib, atroflicha o‘rganilgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida o‘quvchilarning funksional savodxonligining shakllanishiga ta‘sir etuvchi omillar sifatida quyidagilar belgilangan:

1. Oilaning ziyolilik darajasi.
2. Oilada o‘quvchining bilim olishi uchun yaratilgan qulay sharoit.
3. Axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri va maqsadli foydalanish.
4. O‘quvchining bolalar bog‘chasida tarbiyalangan bo‘lishi va ta‘lim olishni, mumkin qadar, erta yoshdan boshlaganligi.
5. Oilada ta‘lim muhitining yo‘lga qo‘yilishi.
6. O‘quvchining qo‘shimcha darslarga, repetitorga qatnaganligi.
7. Ota-onalarning farzandlari o‘qiydigan maktabni tanlashga mas‘uliyat bilan yondashuvi.
8. Ota-onalarning maktab hayotida faol ishtirok etishi.
9. Ota-onalarning o‘z farzandlari bilan ijtimoiy yoki siyosiy masalalarda tez-tez suhbatlashib turishi.
10. Ota-onalarning o‘qish va matematika fanlariga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lishi.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinadiki, bolalarning funksional salohiyatga ega bo‘lishlari ko‘p jihatdan ularning ota-onalariga hamda oilada shakllantirilgan muhitga bog‘liq ekan.

Xulosa. Ta'lim jarayonida masofali, ya'ni, internet, televideniya, kino, video, telefon va boshqa aloqa vositalari o'z samarasini ko'rsatmoqda. Mutaxassislar fikricha, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quvchilarni diqqatini jamlashga, qiziqtirishga, mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini yanada rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Ta'lim jarayonida elektron darsliklar qanchalik mukammal bo'lsa, u yosh avlodning dunyoqarashini, intellektual salohiyatini shunidek mustaqil fikrlash qobiliyatini shunchalik rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotlarimdan kelib chiqib, ta'lim berish jarayonida raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalansh nafaqat talabalarining mavzuni tushunishi, balki o'qituvchining ham pedagogik qobiliyati ortib, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish qanchalik zarurligini tushunib yetadi. Ayniqsa, texnika fanlarini, xususan, "Texnik xizmat ko'rsatish texnologiyasi"ni o'qitishda 3D formatdagi videodarslar talabalarga, avtomobil detallari va mexanizmlarining konstruksiyasi va ishlash prinsipini tushunishga juda katta yordam beradi. Demak, bugun elektron multimedia sirlarini nazariy jihatdan puxta o'rganib, amaliyotda yetarli darajada qo'llash, shu bilan birga, pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 19-oktabr kuni maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqi.
2. H.T.Omonov, N.X.Xo'jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. «Iqtisod-moliya», T., 2009.
3. Ahmedova Z.M. "Maxsus ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar samarasi". Scientific bulletin, 2020, p. 22 – 26.
4. Xurramov A.J. "Raqamli ta'lim resurslari: tushunchasi va turlari". Science and innovation, vol. 2, Special Issue 3, 2023, p. 921 – 924.
5. Ibragimova S. (2019). O'qituvchilar uchun raqamli ta'lim resurslari: yangi format, turlari va ularni qo'llash usullari. "Pedagogika" ilmiy-elektron jurnali.

**G'oiyova Nargiza Ziyoxonovna (Namangan Muhandislik-texnologiya instituti "Fizika" kafedrasida assistenti;
e-mail: ziyoxonovnan820@mail.com)**

FIZIKA DARSLARIDA BO'LAJAK MUHANDISLARINING TEXNIK QOBILIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA FOYDALANILADIGAN USULLAR TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada qobiliyat, uning kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari, texnika oliy o'quv yurti talabalarida texnik qobiliyatni fizika darsi davomida takomillashtirishning ahamiyati va usullari haqida bayon qilingan. Oliy ta'lim tizimida mustaqil va erkin fikrlaydigan tashabbuskor irodali mutaxassis kadrlarni tayyorlash juda muhim va dolzarbli ko'rib chiqilgan. Shu maqsadda texnika oliy o'quv yurtlari talabalarida texnik qobiliyatni shakllantirishda fizika darslarida texnik ta'limni amalga oshirishning zamonaviy usullari va shakllari bayon qilingan.

Аннотация. В данной статье описаны способности, их происхождение, этапы развития, значение и методы совершенствования технических способностей студентов технического вуза на уроке физики. Подготовка независимых, свободомыслящих, инициативных и волевых специалистов в системе высшего образования очень важна и актуальна. С этой целью описаны современные методы и формы технического образования на уроках физики при формировании технических способностей студентов технических вузов.

Annotation. This article describes the abilities, their origin, stages of development, significance and methods of improving the technical abilities of technical university students in a physics lesson. The training of independent, free-thinking, proactive and strong-willed specialists in the higher education system is very important and relevant. For this purpose, modern methods and forms of technical education in physics lessons are described in the formation of the technical abilities of students of technical universities.

Kalit so'zlar: maxsus qobiliyat, texnik qobiliyat, texnik ta'lim, texnik ta'limda integratsiya.

Ключевые слова: специальные способности, технические способности, техническое образование, интеграция в техническое образование.

Key words: special abilities, technical abilities, technical education, integration into technical education.

Kirish. Oliy ta'limning texnika yo'nalishi mutaxassislarini tayyorlash bosqichida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish negizida tayanch fan sifatida fizika fani yotadi, fizika darslari esa uning vositasi hisoblanadi. Bo'lajak kadrlarning dunyoqarashi, tabiat haqidagi tushunchalari fizika fani qonunlarini o'rganish

jarayonida amalga oshirilsa, ikkinchidan, bu jarayonda ularga bilim berishda texnik va ijodkorlik qobiliyatlarini hosil qilish davomida amalga oshiriladi. Ushbu sabablarga ko'ra, ilmiy izlanishlar olib borish taqozo etiladi. Globallashuv sharoitida mamlakatning innovatsion rivojlanishi raqobatbardosh bo'lishning hal qiluvchi omillaridan biriga aylangan paytda aholining yuqori ta'lim darajasi mamlakatning "oliy" jamiyatga taalluqlikni his etish imkonini beradigan nufuzlilik belgisi emas, balki yashovchanlik omili va iqtisodiy taraqqiyoti, bundan tashqari, uning mustaqillik garovidir [4].

Mamlakatimiz ta'lim tizimida kompetensiyaviy talablarga javob beradigan mustaqil va erkin fikrlaydigan, ilg'or texnik-texnologik tajribalarni puxta o'zlashtirgan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash tizimi isloh qilinmoqda. Zamonaviy sharoitda texnika oliygohi bitiruvchisi innovatsion muhandislik faoliyatiga tayyor bo'lishi kerak, ya'ni yangi iqtisodiy va ijtimoiy samarani ta'minlaydigan va shu vaziyatda raqobatbardosh bo'lgan bozor mahsuloti ko'rinishiga keltiriladigan yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish va yaratishga qobiliyatli bo'lishi lozim [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-sonli "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda fizika fanining ta'lim sohasida alohida e'tiborli o'rinni egallaganligini ko'rishimiz mumkin [1.2].

Bajarilayotgan ilmiy izlanishlarni takomillashtirish va maqsadlarni yangi zamonaviy kadrlar yetishtirishga qaratish, kadrlar salohiyatini yuksaltirish, malakali, fidoyi bakallavr darajasiga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash ta'lim tizimining asosiy maqsadidir. Bunda ularga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

– bakalavr darajasidagi kadrlarning o'z ishiga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirish;

– ularda tashabbuskorlik va o'z faoliyatiga bo'lgan ijodiy munosabatni, shaxsiy javobgarligini oshirish;

– ularning o'z sohasida izlanuvchan va o'z ishining ustasi bo'lishi;

– sohasi bo'yicha bilimlarini har tomonlama chuqur bilishi zarurligi.

Adabiyotlar tahlili. Olib borilgan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar, yoritilgan ilmiy-metodik manbalarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, oliy ta'lim muassasalarida umumiy fizika kursiga tegishli bilimlarni o'qitishning pedagogik, metodik hamda didaktik jihatlari metodist fizik olimlar Sh.Shaxmayev, D.Sh. Shodiyev, M.Djorayev, K.Tursunmetov, B.M.Mirzaahmedov, O.Ahmadjonov, K.T.Temirqulova, U.Tolipov, S.Qahhorov, M.Qurbonov, G.Yunusova, X.Mahmudova, U.Begimqulov, D.A.Begmatova, L.Boltayeva, M.Haydarova, B.Nurillayev va boshqalar tomonidan umumiy didaktik va metodik aspektda o'tkazilgan tadqiqotlarda ta'lim jarayonini tashkil qilish, ta'lim muassasalarida fizika o'qitishni takomillashtirish, zamonaviy talablarga javob beradigan metodik va o'quv qo'llanmalar ishlab chiqish, tatbiq etish o'z aksini topgan.

B.B.Mayer, A.A.Pokrovskiy, N.M.Makishev, A.B.Savelyev, M.M.Kalashnikov, M.N.Shaxmayev kabi MDH hamda xorijiy davlatlar olimlari fizika fani bo'limlari bo'yicha nazariy va eksperimental masalalarga e'tibor qaratgan bo'lsa, M.M.Terentyev, P.I.Medvedskiy, M.N.Zvereva kabilar fizikani o'qitishda bilim olish yuqori ko'rsatkichlariga erishishning akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun fizika o'qitish samaradorligini oshirish, faol va jadal o'qitish borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. Tadqiqot muammosini hal qilishning psixologik-didaktik jihatlari I.Lerner, A.Leontyev, N.Menchinskaya, S.Rubinshteyn, V.G.Razumovskiy, N.Kalashnikov, S.Savelyev, A.B.Usova kabi olimlarning ishlarida o'z aksini topgan.

Tadqiqot maqsadi. Olimlarning bir qator ilmiy izlanishlarini ko'rib chiqishimiz va tahlil qilishimiz natijasida shuni guvohi bo'ldikki fizika fanini texnika oliy o'quv yurtlarida o'qitish davomida talabalarning texnik qobiliyatlarini hisobga olish haqida batafsil ilmiy izlanish olib borilmagan. Bizga ma'lumki, ta'limning samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash ilmiy ishlarning muhim vazifasi hisoblanadi. Mohiyatan olib qaraydigan bo'lsak, talabalarning texnik qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda, fizika o'qitishda samaradorlikka erishish orqali yuqori natijalarga erishishimiz mumkin. Chunki texnik qobiliyat bugungi ilm-fan rivojlanib borishi davomida yoshlarning ongini anchagina boyitganligini hisobga olishimiz lozim. Muhandislik-texnologiya institutlarida bo'lajak mutaxassislarining ilmiy salohiyati va kreativligi o'z kasbiy faoliyatini yuritish davomida asosiy ahamiyatni kasb etadi. Talabaning texnik ta'lim asosida ilmiy izlanish qobi-

liyatini rivojlantirish zamonaviy ta'limning eng muhim vazifasidir. Texnik qobiliyatni tushuntirishdan avval, qobiliyatning asosi bilan tanishib chiqamiz.

Qobiliyatlar, odatda, umumiy va maxsus turlarga bo'linadi. Maxsus qobiliyatlar – bu insonga unda yuqori natijalarga erishishda yordam beradigan muayyan faoliyat uchun xizmat qiladi. Maxsus qobiliyatlarning barcha turlari insoniyatning moddiy va ma'naviy madaniyati rivojlanishi va insonning o'zini fikrlaydigan va faol mavjudot sifatida rivojlanishining natijasidir. Maxsus qobiliyatlarning rivojlantirilishi murakkab va uzoq jarayondir. Maxsus qobiliyatlardan biri va biz uchun eng ahamiyatlisi texnik qobiliyatdir.

Texnik qobiliyat, nisbatan kechroq namoyon bo'ladi. Bunga sabab shuki, texnik faoliyat, texnik ixtiro yuqori yoshdagi aqliy funksiyalarni, birinchi navbatda, tafakkurni keyingi yoshida o'spirinda shakllanadigan o'ta yuqori darajada rivojlanishini talab qiladi.

Texnik qobiliyat maktab yoshidagi bolalarda ma'lum fanlar o'qitilishi asosida shakllanadi, rivojlanadi va faoliyati va ijtimoiy aloqada namoyon bo'ladi. Bilim, ko'nikma va malakalarga nisbatan qobiliyatlar ma'lum bir imkoniyat sifatida harakat qiladi.

Texnika oliy o'quv yurtlarining fizika darslarida texnik ta'limni amalga oshirish bugungi kunda fan va texnikaning rivojlanishini e'tiborga olgan holda, butun fizika kursining amaliy yo'nalishini chuqur va intensiv yo'lini hamda uning mazmuni va maqsadiga mos keluvchi o'qitish uslubini qo'llashni talab qiladi.

Tadqiqot metodi. Texnika oliy o'quv yurti talabalarida kasbga yo'naltirilgan holda fizika darslarida texnik qobiliyatni takomillashtirish omili sifatida quyidagi usullarni qo'llash samara beradi:

– talabalarni hozirgi zamonaviy ishlab chiqarishda fizika faniga bog'liq tomonlari bilan tanishtirib borish asosida ilmiy-texnik tafakkurlarini rivojlantirish va amaliyotga qo'llash samaradorligini muhokama qilish;

– talabalarining shaxsiy sifatlarini, mehnatga, tabiatga va texnikaga to'g'ri munosabatda bo'lishlarini, jamoa bilan ishlay olish va o'z ilmini amaliyotga tatbiq qila olish qobiliyatini shakllantirish;

– talabalarda tashabbuskorlik, o'z vazifasini sidqidildan bajarish, zamonaviy ilmlarini takomillashtirib borishda ko'nikma hosil qilish;

– fizik-texnik mazmunga ega bo'lgan yangi videodarsliklar bilan tanishtirib borish;

– fizika va texnika o'zaro bog'langan adabiyotlar bilan uzviy tanishtirib borish;

– pedagog tomonidan fizik hodisa va qonunlarning qo'llanishlarini tushuntirish va talabaning o'qiyotgan sohasi bilan bog'lash;

– talabalarda mutaxassislik sohasi bo'yicha eng ko'p ishlatiladigan qurilmalarni, energiya manbalarini boshqarish asboblarni qo'llay olish mahorati va malakasini hosil qilish;

– mashina va texnik qurilmalarning ishlash prinsiplarini tajribada namoyish qilish;

– ishlab chiqarishga ekskursiyalar uyushtirish;

– talabalarining mustaqil kuzatishlarini va o'z ustilarida mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirish, mustaqil ishlar tashkil qilish;

– talabalarni fizika-texnika masalalarini yechishda nazariy bilimlarni qo'llay olish qobiliyatlarini rivojlantirish;

– fizik-texnik masalalar ishlash ko'nikmasini rivojlantirish.

Texnika oliy o'quv yurti talabalarining amaliy mahorat va malakalarini shakllantirish jarayonida texnik qobiliyat rivojlanib boradi. Talabalarda texnik va kasbiy mahoratni shakllantirishda quyidagi usullarni qo'llash o'z samarasini beradi:

– avval o'rganilgan asboblardan foydalaniladigan laboratoriya ishlari sonining orttirib borish;

– turli qurilmalarda o'z aksini topadigan qisqa muddatli frontal tajribalarni o'tkazish;

– yangi pedagogik usullardan dars davomida foydalanish;

Fizika darslarida quyidagi interfaol usullardan foydalanilgan holda o'quv jarayonlarini tashkil qilish orqali texnik qobiliyatni shakllantirish va ta'lim samaradorligini oshirishi mumkin:

– ma'ruza darslarida muammoli ta'lim usulidan foydalanish;

– masala yechish darslarida aqliy hujum usulidan foydalanish;

– tajriba darslarida keys-stadi metodidan foydalanish.

Mahoratli pedagogning ushbu usullardan o'rinli va samarali foydalanishi ta'lim sifatining yanada oshishiga xizmat qiladi.

Natija va muhokama. Texnik ta'limning muhim vazifalaridan biri talabalarining ilmiy-texnik tafakkurini rivojlantirishdan iboratdir. Ta'limda pedagogik texnologiyalar, jumladan, ta'limni kompyuterlashtirish va axborotlashtirish kabi vositalar muhim tashkil etuvchi sifatida namoyon bo'lishi mumkinligini alohida ta'kidlaymiz. Chunki bunday texnologiyalar barcha predmetlar bo'yicha ularning tabiiy yoki ijtimoiy-

gumanitar bo'lishidan qat'iy nazar, keng qo'llanilishi hozirgi zamon uchun oddiy va tabiiy holligi bilan tushuntiriladi [7].

Muhokamalar natijasida aytadigan bo'lsak, texnik qobiliyatni takomillashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'quv predmetlarining uzviy bog'liqligini ta'minlash;
- mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- texnik jihozlar bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish;
- kasbiy ko'nikma hosil qilish.

Xulosalar. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi o'qituvchi yoki talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq. O'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi yoki talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erishsa, o'quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o'zlar xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa bularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu - o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-sonli «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni. 2019-yil 8-oktabr. www.lex.uz.
3. N.Sadriddinov, A.Rahimov, A.Mamadaliyev, Z.Jamolova. Fizika o'qitish uslubi asoslari. O'quv qo'llanma, T., "O'zbekiston", 2006.
4. M.Ochilov, N.Ochilova. Oliy maktab pedagogikasi. Darslik, T., "Aloqachi", 2008.
5. N.Z.G'oibova, S.S.Qahharov. Fizika o'qitish samaradorligini belgilovchi omillar. NamDU, 2021, 1-son, 312 – 316-betlar.
6. Planida S.I. Приемы и средства формирования у студентов с вуза конструктивно-технических способностей. Методический поиск: проблемы и решения. № 4, 2008, с. 31 – 32.
7. N.Z.G'oibova, D.H.Mahmudova. Fizika darslarida talabalarning texnik qobiliyatlarini rivojlantirishda tabiiy fanlarning o'zaro aloqadorlik va uzviylik masalalari. "Образование и наука в XXI веке", № 34, январь, 2023, с. 225 – 233.

**Karimov Muxammadrahim Salimjon o'g'li (Andijon Qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
"Gumanitar fanlar" kafedrasasi assistenti; kmuhammadrahim1212@gmail.com)
AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA MA'NAVIY-MA'RIFIY, AXLOQIY
MADANIYATNI YOSHLAR ONGIGA SINGDIRISHDA MUSTAHKAM TA'LIM-TARBIYA
TIZIMINING O'RNI**

***Annotatsiya.** Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana bilish, sun'iy intellekt tizimi bilan muloqot qilish, "gibrid intellekt" odam-mashina tizimida dialogik muloqot yuritish, telematika vositalari, global va lokal axborot-hisoblash tarmoqlaridan foydalanish jarayonlari o'rganilgan.*

***Аннотация.** В статье рассмотрены умения пользоваться современными информационными технологиями, исследованы процессы общения с системами искусственного интеллекта, диалогического общения в человеко-машинной системе «гибридный интеллект», использование телематики, глобальных и локальных информационных и компьютерных сетей.*

***Annotation.** Ability to use modern information technologies; communication with the artificial intelligence system, dialogic communication in the "hybrid intelligence" man-machine system, telematics tools, processes of using global and local information and computing networks were studied.*

***Kalit so'zlar:** axborot, nou-xau, ibrid intellekt, axborot olish madaniyati, "Axborot tanqisligi", davlat, jamiyat, boshqaruv, davlat xizmati, davlat xizmatchisi, kompetentlik, model, tarkibiy qismlar, baholash, bosqichlar.*

***Ключевые слова:** информация, ноу-хау, гибридный интеллект, информационно-поисковая культура, «информационный дефицит», государство, общество, управление, государственная служба, государственный служащий, компетенция, модель, компоненты, оценка, этапы.*

***Key words:** information, know-how, hybrid intellect, information retrieval culture, "Information*

scarcity”, *state*, *society*, *management*, *civil service*, *civil servant*, *competence*, *model*, *components*, *evaluation*, *stages*.

Zamonaviy jamiyatda oliy ta’limning mohiyati – insonning ma’naviy-axloqiy faoliyatini qamrab olgan madaniyatning turli sohalarini mutanosibli sifatida namoyon bo’ladi. Bu jarayonda bilimli shaxs fenomeni alohida ahamiyat kasb etadi. Bilimli shaxs, boshqacha aytganda, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga yo’naltirilgan, tabiat in’om qilgan va ijtimoiylashuv jarayonida qo’lga kiritgan hayoti davomida ro’yobga chiqadigan va rivojlanadigan shaxs, madaniyatda, biz uni qaysi ma’nosida ishlatishimizdan qat’i nazar, ishtirok etadigan shaxsdir.

Mustaqillik mamlakatda demokratik jamiyat qurishda bilimli, salohiyatli, demokratik ong va tafakkurga ega bo’lgan yangi mutaxassis kadrlarni trabiylashni taqozo etadi. Ayniqsa, oliy ta’lim tizimida talabalarga ijtimoiy fanlardan dars-ta’lim berish, ularning ushbu fanlarga qiziqishini tobora oshirish, bilim sohasini kengaytirish, fikrlash, mulohaza qilish qobiliyatini chuqurlashtirish borasida amalda bajarish uchun qo’llaniladigan uslubiyati hozirgi davrda muhim ahamiyatga ega bo’lgan muammolardan biridir. Undan kutiladigan asosiy maqsad kelajakda barkamol, vatanga sodiq avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishda, ularda sotsial-siyosiy, ma’naviy-mafkuraviy masala – muammolarni keng va atroflicha chuqurroq o’rganish faoliyatini, bilimli, ilmi va mulohazali bo’lishga qiziqish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir.

Ayniqsa, talabalarga mustaqil fikrlash uchun mustaqil ishlarning samaradorligini oshirish, ilmiy ma’ruzalar, referatlar yozish malakasini berish, o’tiladigan har bir darsni munozarali, muammoviy masalalar asosida, manbalarga tayangan holda, xar bir predmet mavzuini diskussiya, muhokama qilib, fikr xilma-xilligiga keng yo’l berish asosida o’tkazish nihoyatda samaradorlidir, hozirgi kunda muhimdir.

Bugungi kunda “Ta’lim jarayonida kompyuterlarning roli shu qadar kattaki, kelajakda elektron mashinalar o’qituvchilar o’rnini to’liq egallaydi va ularning vazifalarini arzonroq, puxtarroq va samaraliroq bajaradi” [1.33]. Darhaqiqat, zamonaviy axborot resurslari, axborot tizimidagi hujjatlar oqimining tavsif va xususiyatlari tobora o’zgarib bormoqda. Kompyuter texnikasi rivojlanishining bugungi darajasiga ko’ra, qog’oz shakldagi axborot tashuvchilar elektron vositalarga o’tkazilmoqda. Bu holat hujjatlar va ma’lumotnomalargagina emas, balki badiiy matnlar, nazariy, pedagogik va metodik adabiyotlarga ham taalluqlidir. Internet tarmog’idan foydalanish imkoniyati axborotlarni mislsiz tezlikda, Yer yuzining istalgan nuqtasidan turib uzatish va qabul qilish imkonini bermoqda. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda “Albatta, biz Internet va boshqa zamonaviy axborot manbalarining o’rni va ahamiyatini inkor etmaymiz. Bugungi hayotimizni Internetsiz tasavvur qilishning o’zi qiyin. Shuni hisobga olgan holda, O’zbekiston yoshlar ittifoqi Internet tizimi orqali ma’naviy targ’ibot ishlarini, jumladan, elektron kitobxonlikni kuchaytirishi zarur. Nega deganda, biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o’tgan, yuksak ma’naviyat xazinasi bo’lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz [2.529].

Ta’limning yangi texnologiyalari, innovatsion shakllari o’quv jarayoniga chuqurroq kirib bormoqda. Insoniyat tomonidan yaratilayotgan bilimlar zaxirasi ko’paymoqda, ularni o’zlashtirish imkoniyati esa deyarli o’zgarishsiz qolmoqda. Zero, axborotning katta oqimi, u bilan tanishish imkoniyatlarining o’zaro chegaralanganligi natijasida yuzaga keladigan ziddiyat axborot olish madaniyatini egallash orqaligina bartaraf etilishi mumkin. Shuningdek, bugungi kunda kitob nashr qilish ko’lami kengaydi, jurnallar va gazetalar (davriy nashrlar) miqdori kun sayin ortib bormoqda, sifati yaxshilanmoqda. Kompyuter texnikasi tufayli hayotimizga internet kirib keldi, kitoblar ham, matbuot asarlari ham elektron variantda taqdim etila boshlandi. Axborot oqimining ko’pligi u bilan tanishish, qayd qilish, unga ishlov berish, undan foydalanishga bo’lgan munosabatni o’zgartirish, ya’ni axborot olish madaniyatini egallash zaruriyatini keltirib chiqardi. Shu boisdan ham Shavkat Mirziyoyev “Biz mamlakatimizda investitsiyalarni faqatgina iqtisodiyot tarmoqlariga emas, balki ilmiy ishlanmalar “nou-xau”lar sohasiga ham keng jalb qilishimiz kerak” [3.88] degan edi.

Jamiyatning axborotlashuv darajasini anglash deganda: axborotning jamiyatda amal qilishi, yagona axborot makonining yuzaga kelishi, axborot olish imkoniyatlarining ortishi, aniq bir jamiyat, xalqlar, millatlarning axborotlashuvi, muayyan faoliyat sohalarining rivojlanish darajasini ifodalashi nazarda tutiladi. Demak, jamiyatning axborotlashuv darajasini anglash uning jadal axborotlashuvi va yagona axborot makonining yuzaga kelishi, jamiyat a’zolarining axborot oqimidagi o’zgarishlarni anglashlaridan iborat.

Axborot vositalari va manbalarini ishlatish metodlarini egallaganlik: kompyuter savodxonligi; axborot makonida, uni shakllantirish va o’zaro axborot almashishda erkin mo’ljallanish imkonini beradigan bilimlar va ko’nikmalar, turli moddiy axborot tashuvchilar yordamida qayd etilgan subyekt-subyekt va subyekt-obyekt munosabatlarining mohiyati, zamonaviy axborot resurslari, ayrim hujjatlar, axborot tizimidagi

kutubxonalar, arxivlar, jamg'armalar, ma'lumotlar banklari tavsiya va xususiyatlarini tushunish, turli xil axborot tashuvchilardan foydalanish imkoniyatlari, axborotni to'plash, tizimga solish, saqlash va izlashning an'anaviy va elektron vositalari afzalliklari hamda kamchiliklari haqida tasavvurga ega bo'lish; zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana bilish, sun'iy intellekt tizimi bilan muloqot qilish, "ibrid intellekt" odam-mashina tizimida dialogik muloqot yuritish, telematika vositalari, global va lokal axborot-hisoblash tarmoqlaridan foydalanish, olamdagi axborot manzarasini ramzlar va belgilar, bevosita va aks axborot aloqalari tizimi sifatida anglash va o'zlashtirish, axborotlashgan jamiyatda erkin mo'ljal olish, unga moslashish qobiliyati, maktabda informatikani va axborot texnologiyalarini tashkiliy suratda o'qitish va axborot uzatishning zamonaviy elektron vositalarini o'quv-tarbiya jarayoniga olib kirish kabilarda namoyon bo'ladi.

Axborot olish madaniyati – axborotni to'plash, tizimga solish, saqlash va izlashning an'anaviy va elektron vositalari afzalliklari va kamchiliklari haqida tasavvurga ega bo'lish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish faoliyati zamirida qo'lga kiritiladi.

Yuksak ma'naviyatli, ma'rifatlil shaxsni shakllantirishda yosh avlodni mustaqil fikrlashi, hayot voqeeligini to'g'ri tahlil qila olish va baholay olish kabi ko'nikmalar ham asosiy o'rin egallaydi.

Ta'lim va ma'naviy-axloqiy faoliyat taraqqiyotiga intilish yangi ma'nolar kasb qiladigan ijodiy jarayondir. Ta'lim fenomenining noyobligi shundaki, u shaxsning ma'naviy-axloqiy faoliyatini yuksaltirib borishini ta'minlagan holda, shaxsni nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyatning mahsuloti sifatida, balki uning ijodkori bo'lib gaudalanishiga xizmat qiladi.

Ta'lim va innovatsiyalar bir tomondan, inson faoliyatining bir sohasi bo'lib, ular kelajakni aniqlashga ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchi tomondan taraqqiyotning o'ziga xos usuli bo'lib kelajakka yaqinlashtiruvchi harakat hisoblanadi.. Bu ikki boshlang'ich asos taraqqiyot resurslarini rivojlantiruvchi ijtimoiy mexanizmdir. Bunda so'z ta'lim rivojining usuli yoki vositasi sifatidagi ta'lim innovatsiyalari haqida boradi. Har qanday ijtimoiy harakatni jadallashtirish, aynan intellektual mazmuni birlashtirish orqali, yagona jarayonni tashkil qilish shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash va ma'naviy-axloqiy madaniyatni yoshlar ongiga singdirishda mustahkam ta'lim-tarbiya tizimi shakllanadi. Bu jarayonda yoshlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishning chora-tadbirlari quyidagilar bilan belgilanadi:

- barcha oliy ta'lim muassasalarida talabalarning yoshiga mos ravishda g'oyaviy-ma'naviy tarbiyaning differensial pedagogik-psixologik va ilmiy dasturini yaratish;
- kadrlar tayyorlash milliy dasturidan kelib chiqqan holda, talabalar ma'naviy-axloqiy qiyofasini yuksaltirish tizimini uzluksiz tarzda nazorat qilib borish;
- axborotlashuv bilan bog'liq ravishda o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarni milliy mafkura tamoyillariga asoslangan holda yuksaltirishning aniq va izchil tizimini shakllantirish;
- axborotlashgan jamiyatga monand tarzda maktab, litsey, kollej, oliy o'quv yurtlarida mafkuraviy tarbiyada axloqiy va huquqiy madaniyat masalalariga e'tiborni kuchaytirish;
- oliy ta'lim muassasasida axloq va pedagogika sohalari bo'yicha pedagog kadrlarni yetishtirishga ahamiyatni kuchaytirish, yoshlar ma'naviy takomili yo'lida adabiyot va san'at arboblarni muntazam jalb etish.

Globalashuv jarayonida ta'lim tizimining axborotlar bilan ta'minlanish darajasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Biz istaymizmi yo'qmi, madaniy dunyoda "Axborotlashgan jamiyat" shakllanmoqda. "Axborotlashgan jamiyat"da inson bilimi rivojlanishning asosiy manbai bo'lib qoladi. Ishlab chiqarishning yuksak rivojlanishi, zamonaviy makroelektronika va kompyuter texnikasiga asoslanadi. Bular ommaviy axborotlarni vujudga keltiradi, axborotni mujassamlashtiradi va qayta tahlil qiladi. Kommuni-katsiya tizimidagi o'zgarishlar jamiyatning barcha sohalari tizimini tubdan o'zgartirib yuboradi. "Axborotlashgan jamiyat"ning muhim belgisi-axborotlarni tez qabul qilib olish, tahlil qilish, saqlash va iste'molchilarga tez yetkazishdir.

Xulosa. Ta'lim va innovatsiyalar bir tomondan, inson faoliyatining bir sohasi bo'lib, ular kelajakni aniqlashga ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchi tomondan, taraqqiyotning o'ziga xos usuli bo'lib kelajakka yaqinlashtiruvchi harakat hisoblanadi.. Bu ikki boshlang'ich asos taraqqiyot resurslarini rivojlantiruvchi ijtimoiy mexanizmdir. Bunda so'z ta'lim rivojining usuli yoki vositasi sifatidagi ta'lim innovatsiyalari haqida boradi. Har qanday ijtimoiy harakatni jadallashtirish, aynan intellektual mazmuni birlashtirish orqali, yagona jarayonni tashkil qilish shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sultonov M. Ilmning yangi yo'li. "Tafakkur", 1996, 1-son, 33-bet.
2. Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent, "O'zbekiston", 2017, 529-bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent, "O'zbekiston", NMIU, 2019, 88-bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 12-oktabrdagi MDH davlat rahbarlari kengashi majlisidagi nutqi. <http://press-service.uz/ru/lists/view/1132>.
5. Safoyeva S. Globallashuv jarayonining ijtimoiy hayot sohalariga ta'siri. Globallashuv jarayonida jamiyatni demokratlashtirishning siyosiy, falsafiy-huquqiy masalalari. T., "Falsafa va huquq", 2006, 27-bet.
6. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi", 2017-yil 5-avgust.

Fayzullayev Abduazim Kuchkarali o'g'li (GulDU tayanch doktoranti)

PEDAGOGIK KVALIMETRIYA KO'RSATKICHLARI ASOSIDA O'QITUVCHILARNING KASBIY MAHORATINI ANIQLASH

Annotatsiya. Ushbu maqolada umuta'lim muassasalarida kvalimetrik ko'rsatkichlar asosida fan o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligi va kasbiy layoqatini baholashda pedagogik kvalimetriya metodlaridan foydalanish va muammolarni tahlil qilish bo'yicha tavsiyalar bayon qilingan.

Аннотация. В статье изложены рекомендации по использованию педагогических качественных методов и проблемного анализа при оценке профессионально-педагогической подготовки и профессиональных способностей учителей естественных наук на основе качественных показателей в высших учебных заведениях.

Annotation. In this article, recommendations on the use of pedagogical qualitative methods and the analysis of problems in evaluating the professional-pedagogical preparation and professional ability of science teachers based on qualitative indicators in higher education institutions are described.

Kalit so'zlar: pedagogik kvalimetriya, ekspertiza, tahlil, suhbat, bilim, ko'nikma, malaka, layoqat, pedagogik jarayon, metod, so'rovnom.

Ключевые слова: педагогическая квалиметрия, экспертиза, анализ, беседа, знание, умение, компетентность, способность, педагогический процесс, метод, анкета.

Key words: pedagogical qualimetry, expertise, analysis, conversation, knowledge, skills, competence, ability, pedagogical process, method, questionnaire.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrda "Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4939-sonli qaroriga muvofiq, ta'lim sifatini baholashni xalqaro standartlarga moslashtirish, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, mehnat bozori konyunkturasi talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalasi ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilandi.

Xorijiy olimlar tomonidan chop etilgan adabiyotlar tahlili, kvalimetriya metodlaridan iqtisodiyotda, iste'mol buyumlarni indekslash, bunda tahlil, eksperimental va indeksli metodlardan foydalanish usullari bo'yicha G.Agzalov, A.Kostin, A.Omistelar tomonidan chop qilingan tadqiqot ishlari va The ABC of Qualimetry qo'llanmasida o'z ifodasini topganligini ko'rsatdi [1].

Respublikamizda joriy etilgan uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini nazorat qilish va baholash, mazkur tizimda pedagogik faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasini aniqlashda pedagogik kvalimetriya ko'rsatkichlaridan foydalanish muhim o'rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari, shu jumladan, umumta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning pedagogik kvalimetriya ko'rsatkichlari asosida o'qituvchilarning kasbiy mahoratini va pedagogik faoliyatini baholashga qo'llashdagi yondashuvlarning mazmun-mohiyatini anglashi lozim.

Pedagogik kvalimetriya tushunchasi o'qituvchilarning kasbiy mahoratini aniqlashda ham o'rin tutadi. Pedagog kadrlarning o'z kasbiy-pedagogik tayyorgarligi, kasbiy layoqatini baholash va o'z-o'zini baholash uchun pedagogik kvalimetriyaning quyidagi metodlaridan foydalaniladi [3]:

1. Ekspertiza metodi.
2. Tahlil metodi.
3. Pedagogik jarayonni kuzatish va tahlil qilish.

4. So'rovnomaga o'tkazish.
5. Test topshiriqlari.
6. Suhbat metodi.
7. Matematik-statistik tahlil qilish.

Umumlashtirish.

Pedagogik kvalimetriya jarayonini qo'llashda quyidagi mantiqiy yondoshuvlar mavjud:

1. Pedagogik kvalimetrik jarayonni deduktiv mantiqiy yo'nalishda tashkil etish.
2. Pedagogik kvalimetrik jarayonni induktiv mantiqiy yo'nalishda tashkil etish.

Pedagogik kvalimetrik jarayonni deduktiv mantiqiy yo'nalishda tashkil etilishiga oliy ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish, akkreditatsiyalash, oliy ta'lim muassasalarining reytingini aniqlash jarayonlarini misol qilib olish mumkin. Mazkur o'qituvchining pedagogik faoliyatining samaradorligini aniqlash maqsadida namunaviy mashg'ulotlar mutaxassislar va ekspertlar tomonidan tahlil etiladi va samaradorligi haqida xulosa chiqariladi.

Muayyan o'quv kursi bo'yicha talabalarining o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalari va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashda kvalimetriyaning asosiy metodlaridan biri, test topshiriqlaridan foydalanish ham kvalimetrik jarayonni induktiv mantiqiy yo'nalishda tashkil etilishiga misol bo'ladi.

Pedagogik kvalimetriya metodlaridan foydalanish muammolari quyidagilardan iborat:

- ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini tadqiq etishning metodologik va dasturiy ta'minotini yaratish;
- pedagogik kvalimetriya metodlari vositasida o'quvchilarning umuta'lim muassasalarida fanlar bo'yicha DTS bilan me'yorlangan talablar asosida bilim, ko'nikma, malakalar va kompetensiyalarni egallaganlik darajasini diagnostika qilish sohasida fundamental tadqiqotlar o'tkazish;
- uzluksiz ta'lim tizimining umumiy o'rta ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonining sifati monitoringini o'tkazish dasturini ishlab chiqish va amaliyotga qo'llash;
- o'qitiladigan fanlar bo'yicha nazorat-o'lchov materiallarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.
- o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish jarayonida elektron dasturiy vositasida fanlar bo'yicha no-standart adaptiv test topshiriqlarini tuzish va amaliyotga joriy etish.

Umumta'lim muassasalarida tashkil etiladigan o'qitish jarayonining yaxlitligi va tizimliliigi tahlil etilganda, avvalo shu muassasasida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'yiladigan talablar, davlat va ijtimoiy buyurtmalarni aniqlab olish zarur. Umumta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'yiladigan talablar O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida o'z ifodasini topgan. Mazkur talablar asosida umuta'lim muassasalarida tashkil etiladigan o'qitish jarayonining ta'lim mazmuni belgilanadi. Mazkur mazmun huquqiy va me'yoriy hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Umumta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat yuritadigan o'qituvchilar zimmasiga mazkur mazmunning muayyan bir qismi, ya'ni, belgilangan o'quv kursi bo'yicha o'qitish jarayonini tashkil etish vazifasi yuklatilgan.

O'qituvchilar o'z zimmalariga yuklatilgan kurs mazmunini o'quvchilar ongiga yetkazish maqsadida ularning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etadi. O'quvchilarning muayyan bir o'quv fani bo'yicha o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish uchun o'rganiladigan mavzu mazmuniga mos holda o'qitish vositalari, metodlarini maqsadga muvofiq tanlashi, ta'lim mazmuniga mos o'qitish vositalari, o'qitish metodlari o'qitish shakllarida mujassamlashadi. Umumta'lim muassasalarida o'qitish shakllariga: ma'ruza, laboratoriya, amaliy va seminar mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim kiradi. O'qituvchilar mazkur o'qitish shakllarida pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish yo'llarini loyihalashi zarur.

Ta'lim-tarbiya jarayonida teskari aloqani amalga oshirish uchun, ya'ni olingan natijalarni tahlil etish uchun talabalarining o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalari va kompetensiyalarini nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish jarayoni yo'lga qo'yilishi lozim.

O'qituvchilar tomonidan tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini o'rganish va tahlil qilish natijasi o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish yuzaki, ya'ni standart o'quv va test topshiriqlari asosida olib borilayotganligi, umumiy va xususiy kompetensiyalarni nazorat qilish e'tibordan chetda qolayotganligi, talabalarining o'z-o'zini nazorat qilish jarayoni tashkil etilmayotganligini ko'rsatdi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida o'qituvchilar tomonidan o'quv kursi mazmuni bo'yicha test topshiriqlari bankini tuzib, mazkur testlardan kompyuter dasturiy vositasida adaptiv test topshiriqlarini yaratib, o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish jarayoni tashkil etilmoqda va bu jarayon ta'lim samaradorligining ortishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatayotganligi ma'lum bo'ldi.

Shuni qayd etish kerakki, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalari va kompetensiyalarini nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish jarayoni umuta'lim muassasalarida tashkil etiladigan

ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas uzviy qismi bo'lib, mazkur jarayonni maqsadga muvofiq tashkil etishi ta'lim samaradorligini orttirishga zamin tayyorlaydi.

Har bir o'quv kursining ta'lim mazmunini tahlil qilish uchun quyidagi nazariy asosga tayanish lozim.

I. Y. Lerner tomonidan ta'lim mazmunining tarkibiy qismlariga:

1. Bilimlar (ilmiy tushunchalar, g'oyalari, qonunlar, ilmiy nazariyalar).
2. Faoliyat usullari (ko'nikma va malakalar).
3. Ijodiy faoliyat tajribalari.
4. Qadriyatlar tizimi kiritilgan.

Amaldagi nazorat turlarida aksari hollarda bilimlarga urg'u berilib, ta'lim mazmunining keyingi uch-tarkibiy qismlari: faoliyat usullari (ko'nikma va malakalar), ijodiy faoliyat tajribalari, qadriyatlar tizimi e'tibordan chetda qolmoqda.

O'quv kurslari bo'yicha tuzilgan test topshiriqlarining aksari reproduktiv darajadagi test topshiriqlari bo'lib, ishchi dasturda ko'rsatilgan bilim, ko'nikma va malakalarning faqat bilimni aniqlash imkonini beradi. Ko'nikma va malakalarni aniqlash uchun tavsiya etilgan topshiriqlarning aksar qismi bir xil tarzda tuzilgan bo'lib, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish e'tiborda chetda qolayotganligini ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik kvalimetriya metodlaridan foydalanish ta'lim samaradorligini aniqlash, mavjud kamchiliklarga barham berishga zamin tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Garry G. Azgaldov, Alexander V., Kostin Alvaro E., Padilla Omiste. The ABC of Qualimetry. Toolkit for measuring the immeasurable Ridero, 2015, p. 17.
2. Garry G. Azgaldov, Alexander V., Kostin Alvaro E., Padilla Omiste. The ABC of Qualimetry. Toolkit for measuring the immeasurable Ridero 2015, p. 136.
3. Tolipova J. Pedagogik kvalimetriya. Malaka oshirish va qayta tayyorlash kursi tinglovchilari uchun o'quv qo'llanma. T., 2016, 116-bet.
4. Mirzayev Ch.E., Turdiboyev D.X. O'rta ta'lim muassasalarida matematika o'qitish muammolari. Maxsus kurs uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tayyorlangan o'quv-uslubiy qo'llanma, Guliston, 2010, 128-bet.

Yadgarov Baxodir Jumatovich (UrDU "Sport faoliyati" kafedrasida dotsenti) UZUNLIKKA SAKROVCHILAR TEXNIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY USLUB VA SHAKLLARI

Annotatsiya. Maqsad uzunlikka sakrovchilar texnikasini takomillashtirishning zamonaviy uslub va shakllarini jismoniy tarbiya vositalari yordamida tajribalar orqali asoslashdir.

Аннотация. Обоснование современных методов и форм совершенствования техники прыжков в длину путем экспериментов с использованием средств физического воспитания.

Annotation. The aim of the article is to substantiate modern methods and forms of improving the technique of long jumpers through experiments with the help of physical education tools.

Kalit so'zlar: mashg'ulot yuklamalari, jismoniy tayyorgarlikning o'sishi, yuklama hajmi, jismoniy rivojlanish, rejalashtirish, funksional tadqiqotlar, tezkorlik, saralash, mashg'ulotlarni tashkil etish, vositalari va metodlar.

Ключевые слова: тренировочные нагрузки, прирост физической подготовленности, объём нагрузки, физическое развитие, быстрота, отбор, организация занятий, методы и средства.

Key words: training particle, growth of physical training, particle size, physical developing, planning, functional researches, quickness, selection, organizing trainings, methods and means.

Yengil atletika bo'yicha o'tkazilayotgan sport musobaqalarida raqobatning kuchayib borishi sportchilar tayyorlash tizimini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Uzunlikka sakrovchi sportchilarni tayyorlash, sport mashg'ulotlarini yildan yilga takomillashtirib borish murabbiylar tomonidan rejalashtirilgan ishlarni bajarish va unda mavjud vosita va usullarni yangicha qo'llab kelinayotganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu ko'p yillik tayyorgarlik jarayonlarining turli bosqichlarda mashg'ulotlarni tashkil qilish, yuklamalar hajmini to'g'ri rejalashtirish shug'ulanuvchilarni saralash, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi nisbatlarini taqsimlash, texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish sikllari (mikrosikl, mezosikl, makrosikl), musobaqa oldi tayyorgarligi, musobaqa faoliyati, sport formasini ushlab turish va tiklovchi vositalardan foydalanish asosida organizmni tiklash kabi omillar bilan mashg'ulot jarayonini boshqarishni talab etadi.

Mamlakatimizda aholining, ayniqsa, kelajak vorislari bo'lgan yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun amalga oshirilayotgan ishlarning salmog'i va samarasini ko'rish mumkin. "Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog'lig'ini mustahkamlashga ko'maklashadigan aniq dasturlarni amaliyotga joriy etish, yoshlarni sportga keng jalb qilish va ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, sport turlari bo'yicha yuqori natijalarni ta'minlaydigan mahoratli sportchilar bilan milliy terma jamoalarni shakllantirish va murabbiylar uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati mavjud. Mamlakatda yuksak madaniyatga ega bo'lgan har tomonlama yetuk hamda jismonan sog'lom insonni shakllantirish maqsadida, aholining jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka va bilimlarini orttirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarni belgilash, iqtidorli sportchilarni tanlab olish (seleksiya) jarayoniga innovatsion shakllar va usullarni joriy etish kerak".¹ Aynan, bugungi zamon talablariga mos shart-sharoitlarni yaratib berish, sport mashg'ulotlarini yuqori saviyada tashkil etish, mashg'ulot jarayonlarini boshqarish va rejalashtirish, ular orasidan iqtidorli, istiqbolli sportchilarni izlab topish va saralash asosida ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlariga yo'naltirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmog'da. Jismoniy tarbiya va sport sohasini tubdan rivojlantirish sport turlari bo'yicha, xususan, yengil atletkaning uzunlikka sakrash turida sportchilar mashg'ulotlarini yangi zamonaviy texnologiyalar asosida boshqarish va tashkil etishda tiklovchi vositalarni qo'llash orqali yuqori natijaga erishish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi 16–17 yoshli uzunlikka sakrovchilar texnikasini takomillashtirish zamonaviy uslub va shakllarini jismoniy tarbiya vositalari yordamida tajribalar orqali asoslash.

Tadqiqot uslublari tadqiqotlarda qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi uslublardan foydalanildi: nazariy tahlil, adabiyot manbalari va hujjatli materiallarni umumlashtirish, pedagogik kuza-tish, so'rovnoma, pedagogik tajriba, test sinovlarini o'tkazish, antropometriya, matematik statistika.

Tadqiqot vazifalari. Ish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilindi:

- respondentlarning yugurib kelib uzunlikka sakrash texnikasiga o'rgatishda samarali vositalari-dan foydalanishga munosabatini aniqlash;

- yugurib kelib uzunlikka sakrash texnikasini o'rgatishda samarali vositalaridan foydalanish or-qali 16–17 yoshli uzunlikka sakrovchilar jismoniy tayyorgarligini aniqlab, rivojlanish jarayonini kuzatish orqali ma'lum xulosalar chiqarish;

- yugurib kelib uzunlikka sakrash texnikasini o'rgatishda samarali vositalaridan foydalanish or-qali 16–17 yoshli uzunlikka sakrovchilar jismoniy sifatlarni tarbiyalash samarador usullari, shakllari, yo'l-larini aniqlash.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha olib borilgan izlanishlar va adabiyotlar tahlilidan shu narsa ma'lum bo'l-diki, uzunlikka sakrovchilarning jismoniy tayyorgarlik holatlarini aniqlashda an'anaviy bo'lgan mashqlar-dan foydalanish tavsiya etiladi. Ya'ni, tadqiqot davomida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan mashg'ulot vosita va usullarini sportchilarning mashg'ulot jarayonlarida qo'llash orqali ularning jismoniy tayyorgarli-gini oshirishga qaratilgan mashqlar samaradorligiga e'tibor qaratish kerak ekanligi kuzatildi. Sport amali-yotida mashg'ulotlarni qanchalik to'g'ri tashkil etilsa, u, albatta, kelgusida samara beradi, degan nazariy asoslar mavjud. Shu o'rinda mashg'ulotlarda har bir mashq yoki mashg'ulotlardan so'ng sportchilarning organizmini tiklovchi vositalar yordamida tiklab borilsa, bu shunchalik katta natija beradi.²

Biz tomonimizdan Urganch olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi yengil atleti-ka ixtisosligi sportchilari bilan o'tkazilgan tadqiqot natijalari mashg'ulot jarayonini kelgusida ularning jis-moniy tayyorgarlik darjasiga mos ravishda umumiy qilib rejalashtirishni taqozo etdi. Shuning uchun biz, dastlab, sportchilarning umumiy jismoniy rivolanishi va jismoniy tayyorgarlik holatini qabul qilishga erish-dik.

Pedagogik tadqiqotlar–2023-yil fevraldan oyidan iyul oyigacha pedagogik tajriba o'tkazildi. Pedago-gik tajribaga Urganch olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazining yengil atletika ix-tisosligi uzunlikka sakrovchi sportchilaridan 12 nafari, 2 guruhi, ya'ni, nazorat guruhiga sport o'yinlari va yengil atletika bo'yicha ixtisoslashtirilgan sport maktabi tarbiyalanuvchilaridan 12 nafari jalb etilib, ular-ning yoshi, jismoniy tayyorgarlik darajasiga qarab, ikki guruhga–tajriba va nazorat guruhiga ajratilib, ular

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни яна-да такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 2020 йил 24 январдаги ПФ-5924-сон-ли фармони.

² Qudratov R. Yengil atletika. Darslik, T., 2014, 342-bet.

bilan pedagogik tajriba tashkil etidi. Ular bilan o'tkazilgan mashg'ulotlar haftasiga 5 martadan 3 akademik soatda mashg'ulotlar o'tkazildi.

Mashg'ulot siklida turli vazifalar, vositalar usullar va yuklamalari bo'lgan darslar almashinib turadi. Shu sababli mikrosiklni shunday tuzish juda muhimki, bunda siklda turli darslarni to'g'ri taqsimlash hisobiga samaradorlik oshiriladi. Endi texnikani takomillashtirish uchun mashg'ulot darslaridagi ishlarining oldinroq bajarilishi ahamiyatga ega. Agar mashg'ulot chidamlilikni tarbiyalash yoki eng yuqori kuch qo'yib, texnikani takomillashtirishga bag'ishlangan bo'lsa, unda ertasi kuni texnikani yaxshilash, ustida ishlash yaramaydi, chunki bundan foyda yo'q. Shu bilan bir vaqtda, katta bo'lmagan yuklamalarda ketma-ket bir necha kun davomida texnikani takomillashtirish ijobiy natijalar beradi.¹

Mikrosiklni takrorlashda jo'shqin muhit tutgan o'rinni ham hisobga olish kerak. Masalan, ko'p tomoshabinlar to'plangan musobaqalardan yoki mashg'ulotdan so'ng yengil mashg'ulot o'tkazish kerak. Darsga kiritilgan turli mashqlar va mashg'ulot yuklamalari orasidan asosiylarini ajratish kerakki, ular qandaydir harakat sifatini tarbiyalash, texnika yoki taktikani egallash, mashqlarga chidamlilik yoki faol dam olish va boshqalarni ta'minlashda ustunlikdagi yo'nalishni aniqlab berish lozim. Bu yo'nalish asosiy masalani aniqlaydi, undan tashqari, mashg'ulotlarda ko'pgina hollarda boshqa masalalar ham hal qilinadi, lekin sportchining diqqatini, uning imkoniyatlarini qandaydir bilish hamda mashg'ulot yuklamalarini sportchining individual xususiyatlaridan kelib chiqib qo'yish maqsadga muvofiqdir.²

Yengil atletika mashg'ulot jarayonini yaxlit dinamik tizim sifatida qaralishi lozim bo'lib, bunda sport mahoratini rivojlantirishning har bir muayyan bosqichida harakat sifatlarini rivojlantirish, texnik mahoratni shakllantirish, vositalar, usullar va mashg'ulot ta'siri kattaliklari bo'yicha o'ziga xos masalalar yechiladi.³

Tajriba guruhida qiz bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlanish ko'rsatkichlari 16 yoshda yuqori startdan 30 m yugurish bo'yicha, boshlanishida $8,3 \pm 0,3$ s bo'lsa, o'quv yili oxirida $7,6 \pm 0,1$ s tashkil etdi. Nazorat guruhida qiz bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlanish ko'rsatkichlari, yuqori startdan 30 m yugurish bo'yicha, boshlanishida $8,7 \pm 0,3$ s bo'lsa, o'quv yili oxirida $8,4 \pm 0,1$ s tashkil etdi. Bu esa yil davomidagi yuqori startdan 30 m yugurish bo'yicha statistik farqli ravishda o'sganligini, tajriba guruhida $t=2,18$ tashkil etgan bo'lib, statistik farqli ravishda rivojlangan. Tajribaning oxirida tajriba va nazorat guruhi o'rtasidagi farq $t=2,85$ ($p<0,05$).

Tajriba guruhida qiz bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlanish ko'rsatkichlari 17 yoshda yuqori startdan 30 m yugurish bo'yicha, boshlanishida $7,6 \pm 0,2$ s bo'lsa, o'quv yili oxirida $6,9 \pm 0,2$ s tashkil etdi. Nazorat guruhida qiz bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlanish ko'rsatkichlari, yuqori startdan 30 m yugurish bo'yicha, boshlanishida $8,4 \pm 0,2$ s bo'lsa, o'quv yili oxirida $8,2 \pm 0,1$ s tashkil etdi. Bu esa yil davomidagi yuqori startdan 30 m yugurish bo'yicha statistik farqli ravishda o'sganligini, tajriba guruhida $t=2,50$ tashkil etgan bo'lib, statistik farqli ravishda rivojlangan. Tajribaning oxirida tajriba va nazorat guruhi o'rtasidagi farq $t=2,27$ ($p<0,05$).

Tajriba guruhida qiz bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlanish ko'rsatkichlari 16 yoshda 3×10 m mokisimon yugurish bo'yicha, boshlanishida $9,6 \pm 0,2$ s bo'lsa, o'quv yili oxirida $9,0 \pm 0,1$ s tashkil etdi.

Nazorat guruhida qiz bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlanish ko'rsatkichlari, 3×10 m mokisimon yugurish bo'yicha, boshlanishida $9,9 \pm 0,3$ s bo'lsa, o'quv yili oxirida $9,7 \pm 0,1$ s tashkil etdi. Bu esa yil davomidagi 3×10 m mokisimon yugurish bo'yicha statistik farqli ravishda o'sganligini, tajriba guruhida $t=2,72$ tashkil etgan bo'lib, statistik farqli ravishda rivojlangan. Tajribaning ohirida tajriba va nazorat guruhi o'rtasidagi farq $t=2,85$ ($p<0,05$).

Tajriba guruhida qiz bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlanish ko'rsatkichlari 17 yoshda 3×10 m mokisimon yugurish bo'yicha, boshlanishida $9,0 \pm 0,3$ s bo'lsa, o'quv yili oxirida $8,2 \pm 0,2$ s tashkil etdi. Nazorat guruhida qiz bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlanish ko'rsatkichlari, 3×10 m mokisimon yugurish bo'yicha, boshlanishida $9,7 \pm 0,4$ s bo'lsa, o'quv yili oxirida $9,4 \pm 0,1$ s tashkil etdi. Bu esa yil davomidagi 3×10 m mokisimon yugurish bo'yicha statistik farqli ravishda o'sganligini, tajriba guruhida $t=2,22$ tashkil etgan bo'lib, statistik farqli ravishda rivojlangan. Tajribaning ohirida tajriba va nazorat guruhi o'rtasidagi farq $t=2,27$ ($p<0,05$).

¹ To'xtaboyev N.T., Shakirjanova K.T., Soliyev I.R. Qisqa masofalarga yugurish uslubi. O'quv qo'llanma, T., 2017, 186-bet.

² Shakirjanova K.T. Yengil atletikada sport mashg'ulotlari asoslari. O'quv qo'llanma, T., 2008, 72-bet.

³ Olimov M.S., Shakirjanova K.T., Rafiyev H.T., To'xtaboyev N.T., Smuriygina L.V. va boshqalar. Yengil atletika nazariyasi va uslubi. Darslik, T., 2018, 842-bet.

Nazorat va tajriba guruhlar 16 – 17 yoshli qiz bolalarda o‘quv mashg‘ulot boshlanishi va oxirida jismoniy sifatlarini rivojlanish ko‘rsatkichlari

Testlar	Yoshi	Guruhlar								Tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farq	
		Nazorat				Tajriba				t	p
		Boshlanish ida	Oxirida	t	p	Boshlanishida	Oxirida	t	p		
Yuqori startdan 30 metrga yugurish	16	8,7±0,3	8,4±0,1	0,94	>0,05	8,3±0,3	7,6±0,1	2,18	<0,05	2,85	<0,05
	17	8,4±0,2	8,2±0,1	0,90	>0,05	7,6±0,2	6,9±0,2	2,50	<0,05	2,27	<0,05
3x10 metrga mokisimon yugurish	16	9,9±0,3	9,7±0,1	0,62	>0,05	9,6±0,2	9,0±0,1	2,72	<0,05	2,85	<0,05
	17	9,7±0,4	9,4±0,1	0,93	>0,05	9,0±0,3	8,2±0,2	2,22	<0,05	2,27	<0,05
Turgan joydan oldinga uzunlikka sakrash	16	162,6±5,8	173,5±0,6	1,87	>0,05	163,4±4,5	175,9±0,3	2,77	<0,05	2,38	<0,05
	17	173,5±5,2	184,6±0,6	2,12	>0,05	175,9±4,6	189,4±0,9	2,88	<0,05	2,22	<0,05
O‘tirgan holda oldinga egilish	16	11,1±1,2	12,0±0,3	1,54	>0,05	12,0±1,1	16,0±0,4	2,56	<0,05	2,20	<0,05
	17	12,0±1,0	16,1±0,3	2,01	>0,05	16,0±0,9	18,8±0,7	3,33	<0,01	2,23	<0,05
6 daqiqali yugurish	16	852,8±12,1	30,7±10,7	4,83	0,001	870,2±17,2	998,7±19,2	4,98	<0,001	2,30	<0,05
	17	930,7±12,2	1012,2±40,8	1,91	0,05	999,5±20,8	1174,8±16,2	6,66	<0,001	2,14	<0,05

Tajriba guruhida qiz bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlanish ko‘rsatkichlari 16 yoshda turgan joydan uzunlikka sakrash bo‘yicha, boshlanishida 163,4±4,5 sm bo‘lsa, o‘quv yili oxirida 175,9±0,3 sm tashkil etdi. Nazorat guruhida qiz bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlanish ko‘rsatkichlari, turgan joydan uzunlikka sakrash bo‘yicha, boshlanishida 162,6±5,8 sm bo‘lsa, o‘quv yili oxirida 173,5±0,6 sm tashkil etdi. Bu esa yil davomidagi turgan joydan uzunlikka sakrash bo‘yicha statistik farqli ravishda o‘sganligini, tajriba guruhida $t=2,77$ tashkil etgan bo‘lib, statistik farqli ravishda rivojlangan. Tajribaning ohirida tajriba va nazorat guruhi o‘rtasidagi farq $t=2,38$ ($p < 0,05$).

Tajriba guruhida qiz bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlanish ko‘rsatkichlari 17 yoshda turgan joydan uzunlikka sakrash bo‘yicha, boshlanishida 173,9±4,6 sm bo‘lsa, o‘quv yili oxirida 189,4±0,9 sm tashkil etdi. Nazorat guruhida qiz bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlanish ko‘rsatkichlari, turgan joydan uzunlikka sakrash bo‘yicha, boshlanishida 173,5±5,2 sm bo‘lsa, o‘quv yili oxirida 184,6±0,6 sm tashkil etdi. Bu esa yil davomidagi turgan joydan uzunlikka sakrash bo‘yicha statistik farqli ravishda o‘sganligini, tajriba guruhida $t=2,88$ tashkil etgan bo‘lib statistik farqli ravishda rivojlangan. Tajribaning ohirida tajriba va nazorat guruhi o‘rtasidagi farq $t=2,22$ ($p < 0,05$).

Tajriba guruhida qiz bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlanish ko‘rsatkichlari 16 yoshda o‘tirgan holda, oldinga egilish bo‘yicha, boshlanishida 12,0±1,1 sm bo‘lsa, o‘quv yili oxirida 16,0±0,4 sm tashkil etdi. Nazorat guruhida qiz bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlanish ko‘rsatkichlari, o‘tirgan holda oldinga egilish bo‘yicha, boshlanishida 11,1±1,2 sm bo‘lsa, o‘quv yili oxirida 12,0±0,3 sm tashkil etdi. Bu esa yil davomidagi o‘tirgan holda oldinga egilish bo‘yicha statistik farqli ravishda o‘sganligini, tajriba guruhida $t=2,56$ tashkil etgan bo‘lib, statistik farqli ravishda rivojlangan. Tajribaning oxirida tajriba va nazorat guruhi o‘rtasidagi farq $t= 2,20$ ($p < 0,05$).

Tajriba guruhida qiz bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlanish ko‘rsatkichlari 17 yoshda o‘tirgan holda oldinga egilish bo‘yicha, boshlanishida 16,0±0,9 sm bo‘lsa, o‘quv yili oxirida 18,8±0,7 sm tashkil etdi. Nazorat guruhida qiz bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlanish ko‘rsatkichlari, o‘tirgan holda oldinga egilish bo‘yicha, boshlanishida 12,0±1,0 sm bo‘lsa, o‘quv yili oxirida 16,1±0,3 sm tashkil etdi. Bu esa yil davomidagi o‘tirgan holda, oldinga egilish bo‘yicha statistik farqli ravishda o‘sganligini, tajriba guruhida $t= 3,33$ tashkil etgan bo‘lib, statistik farqli ravishda rivojlangan. Tajribaning ohirida tajriba va nazorat guruhi o‘rtasidagi farq $t=2,23$ ($p < 0,05$).

Tajriba guruhida qiz bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlanish ko‘rsatkichlari 16 yoshda 6 daqiqali yugurish bo‘yicha, boshlanishida 870,2±17,2 m bo‘lsa, o‘quv yili oxirida 998,7±19,2 m tashkil etdi. Nazorat guruhida qiz bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlanish ko‘rsatkichlari 11 yoshda 6-daqiqali yugurish

bo'yicha, boshlanishida $852,8 \pm 12,1$ m bo'lsa, o'quv yili oxirida $930,7 \pm 10,7$ m tashkil etdi. Bu esa yil davomidagi 6-daqiqali yugurish bo'yicha statistik farqli ravishda o'sganligini, tajriba guruhida $t=4,98$ tashkil etgan bo'lib, statistik farqli ravishda rivojlangan. Tajribaning ohirida tajriba va nazorat guruhi o'rtasidagi farq $t=2,30$ ($p>0,05$).

Tajriba guruhida qiz bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlanish ko'rsatkichlari 17 yoshda 6-daqiqali yugurish bo'yicha, boshlanishida $999,5 \pm 20,8$ m bo'lsa, o'quv yili oxirida $1174,8 \pm 16,2$ m tashkil etdi. Nazorat guruhida qiz bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlanish ko'rsatkichlari, 6-daqiqali yugurish bo'yicha, boshlanishida $930,7 \pm 12,2$ m bo'lsa, o'quv yili oxirida $1012,2 \pm 40,8$ m tashkil etdi. Bu esa yil davomidagi 6 daqiqali yugurish bo'yicha statistik farqli ravishda o'sganligini, tajriba guruhida $t=6,66$ tashkil etgan bo'lib, statistik farqli ravishda rivojlangan. Tajribaning ohirida tajriba va nazorat guruhi o'rtasidagi farq $t=2,14$ ($p<0,05$).

Olib borilgan tadqiqotlarda sportchilar uchun ishlab chiqilgan mashg'ulot usullari, ishonch bilan aytish mumkinki, biz tomonimizdan ishlab chiqilgan va tadqiqot davomida tatbiq etilgan maxsus pedagogik ta'sir ishonchli tarzda jismoniy tayyorgarlik darajasini oshiradi. Yugurib kelib uzunlikka sakrash asosida ishlab chiqilgan dastur bolalar jismoniy tayyorgarligini oshirishda sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, adabiy manbalari va ilg'or amaliy tajribalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, jismoniy sifatlarini dastlabki o'rgatish bosqichidan tarbiyalab boshlash sport mahoratini samaraliroq shakllanishiga imkoniyat yaratadi.

Pedagogik tajriba davomida yugurib kelib uzunlikka sakrash mashg'ulotlarida tadqiqot guruhida qo'llanilgan maxsus mashqlar o'rganilayotgan jismoniy sifatning samarali rivojlanishi mumkin ekanligini isbotlab berildi.

Tajriba davomida o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligi aniqlandi. Pedagogik tajribada jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligi bo'yicha yuqoriligi aniqlandi ($p < 0,05$).

Yugurib kelib uzunlikka sakrash mashg'ulotlarida turli musobaqalar, sport bayramlari tashkil etilsa, ular vositasi bilan yugurib kelib uzunlikka sakrovchilarni jismoniy sifatlarining muvaffaqiyatli rivojlanishiga yuqori natijaga tez va oson erishish mumkin bo'ladi.

Saliyeva Zarrina Ixomovna (Samarqand davlat Chet tillar instituti dotsenti, f.f.n.;

zarrinasalieva777@gmail.com

GAPIRISH KO'NIKMASINI MUSTAQIL TA'LIMDA BAHOLASH METODOLOGIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqil ta'limda gapirish ko'nikmasini baholash texnikalari, dinamik baholash, ommaviy nutqni baholash, qisqa javoblarni baholash, tengdoshlarni baholash, o'z-o'zini baholash, to'g'ridan to'g'ri, yarim to'g'ridan to'g'ri va bilvosita baholash va raqamli formativ baholash haqida nazariy fikrlar tahlil etilgan.

Аннотация. В статье анализируются теоретические соображения о методах оценки самостоятельных выступлений, динамической оценке, оценке публичных выступлений, оценке коротких ответов, взаимной оценке, самооценке, прямой, полупрямой и косвенной оценке, а также цифровом формативном оценивании.

Annotation. In this article, theoretical considerations about self-study speaking assessment techniques, dynamic assessment, public speaking assessment, short answer assessment, peer assessment, self-assessment, direct, semi-direct and indirect assessment and digital formative assessment are analyzed.

Kalit so'zlar: til ko'nikmalari, zamonaviy o'qitish metodologiyasi, baholash mezonlari, mustaqil ta'lim, baholash vositalari.

Ключевые слова: языковые навыки, современная методика обучения, критерии оценки, заслуги; образовательные, оценочные инструменты.

Key words: language skills, modern teaching methodology, assessment criteria, merit; educational, assessment tools.

Talabalarning og'zaki nutqini bilish darajasini baholash uchun o'qituvchi talabalarning ingliz tilida gapirish ko'nikmasini baholashi kerak. Talabalar kundalik muloqot uchun zarur bo'lgan tushuncha va ko'nikmalarni egallashlari uchun o'quv muhitini yaratish va yaxshilash o'qituvchining mas'uliyatidir. O'quv faoliyatini baholash o'qituvchilar va talabalarning ushbu ko'nikmalarni qanday egallashiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy davr kommunikatorlardan ravon gaplasha olishlarini talab qilganligi sababli, ingliz tilida so'zlashuvchilar yaxshi nutq qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak [2.211]. Sari ta'kidlaganidek, til ijtimoiy hodisa bo'lib, ma'ruzachilar uni shunchaki o'rganish emas, balki suhbat uchun foydalanishni talab

qiladi [9]. Bundan tashqari, ogʻzaki nutqni bilish oʻquvchilarning nutq qobiliyatini ularning samarali qobiliyatlari sifatida ifodalash sifatida qaraladi.

Chet tillarini bilish, odatda, shaxsning asosiy koʻrsatkich sifatida qabul qilingan nutq qobiliyatlari orqali baholanadi. Ikkinchi tilda gapirish qobiliyati (L2) oʻquvchilar, ayniqsa oʻqituvchilar, kelajakda maqsadli tilni oʻrgatmoqchi boʻlganlar uchun muhim mahorat sifatida eʼtirof etilgan. Mustaqil taʼlim talabalar orasida topiladigan asosiy muammo boʻlganligi sababli, dinamik va dam olish rejimidan foydalanish kerak.

Chet til oʻqitish kursining oʻziga xos xususiyati bilimlarni oʻzlashtirishdan tashqari chet til boʻyicha malaka va koʻnikmalarni hosil qilishni ham koʻzda tutishidir. Auditoriya mashgʻulotlarida guruhdagi barcha talabalar baravar faol ishlaydilar. Taʼlim jarayonida setkali rejalashtirish usuli qoʻllanib, ishning individual va kollektiv formalari qoʻshib olib boriladi. Bu usul talabalarni darslik tekstlarini soʻzlab berish va mashqlarini bajarishlarida zarur boʻladigan tayanch soʻzlar bilan taʼminlash, oʻzaro nazorat va oʻqituvchining bir juft talaba bilan ishlashini, guruh talabalarining juft-juft boʻlib ishlashini tashkil etish imkonini beradi.

Auditoriya mashgʻulotlarida frontal, kollektiv va individual kabi ish turlarining qoʻshib olib borilishi mashgʻulotlarga tayyorlanishda va ularni oʻtkazishda oʻqituvchidan oʻz vazifalarini aniq belgilashini talab etadi. Oʻqituvchi har bir mashgʻulotga dasturga binoan tayyorlangan materialni sinchiklab oʻrganib chiqishi, kirish suhbatini tayyorlashi, talabalarning oʻsishdagi individual surʼatni hisobga olishi, dasturlashtirilgan material bilan ishlashdagi qiyinchilik sabablarini analiz qilishi kerak.

Oʻqituvchi til ustida mustaqil ishlashni tashkil etar ekan, u oʻzining maʼlum metodikasiga ega boʻlishi kerak. Ana shunday usul komponentlaridan biri, fikrimizcha, talabaning u yoki bu oʻquv qoʻllanmasidagi tekstga doir mashq materiallari boʻyicha mustaqil ishlarini tashkil qilish va baholash hisoblanadi.

Baholashsiz, insonning koʻnikmalari yoki oʻquv natijalari qanday rivojlanayotganini aniq aniqlash mumkin emas. Taʼlim natijalarini aniqlash uchun sifatni baholash usullari, vositalari yoki rubrikalar talab qilinadi. Baholash usullari yoki baholash rubrikasining sifati gapirish koʻnikmasini va uning natijalarini baholashga taʼsir qiladi.

Fan taraqqiyot ravnaq topishi natijasida bir necha baholash meʼzonlari ishlab chiqildi. Jumladan, intervensionist dinamik baholash (Interventionist dynamic assessment) haqiqiy, ijodiy va dam olish uchun qulay boʻlgan muhitni yaratdi, natijada ularning gapirish koʻnikmasi darajasini pasaytirdi. Toʻgʻridan-toʻgʻri baholash (Direct Assessment) chet tilini oʻrganuvchilarning til sinfi sharoitida gapirish koʻnikmasini baholash uchun ishlatilishi mumkin [1.23]. Bundan tashqari, intervension strategiya talaba-oʻqituvchilarning ogʻzaki nutq koʻnikmalarini qoʻllab-quvvatlashi va yaxshilashi aniqlandi, bu darsni baholash hal qiluvchi komponent hisoblanadi [3].

Koʻpgina muhim tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, dinamik baholash yanada istiqbolli va vositachilik, yordam beruvchi vositalar va texnologiyalardan foydalangan holda, gapirish koʻnikmasini baholashda yanada ijobiy test muhitini yaratdi [6].

Gapirish koʻnikmasi mashgʻulotlarida mustaqil taʼlimni baholashning bir qancha yana boshqa usullari mavjud, quyida ayrimlarini izohlab oʻtamiz:

–toʻgʻridan toʻgʻri, yarim toʻgʻridan toʻgʻri va bilvosita baholash (direct, semi-direct, and indirect assessment), oʻqituvchi talabalarning gapirish koʻnikmalarini uchta turli baholash texnikasidan foydalangan holda baholashi mumkin, ular: bilvosita (masalan, koʻp tanlovli testlar), yarim toʻgʻridan toʻgʻri (oldindan yozib olingan savollar kabi) va toʻgʻridan toʻgʻri, yuzma-yuz test imtihon topshiruvchilarni yanada qiziqtiradi va aniqroq baho berishi mumkin [7.5];

–raqamli formativ baholash (digital formative assessment), raqamli formativ baholashni qoʻllash orqali talabalarning ravon va toʻgʻri gapira olishini yaxshilash mumkin. Ushbu usulda auditoriyada koʻrilganlarni taqlid qiladigan onlayn mashqlardan foydalaniladi. Baholash jarayonida ham oʻqituvchilar, ham talabalarni jalb qiladi va talabalarning gapirish koʻnikmalarini turli yoʻllar bilan oshirishda juda muvaffaqiyatli usullardan biri hisoblanadi [1.31];

–ommaviy nutqni baholash (public speaking assessment); ommaviy nutqni baholash oliy taʼlimda qoʻllaniladigan baholashning odatiy usuli boʻlib, talabaning ishonchli dalillarni shakllantirish va taqdim etish qobiliyatini aniqlash uchun ishlatiladi [8];

–tengdoshlarni baholash (Peer-Assessment) oʻquvchilarga bilim va tushunishdagi boʻshliqlarni toʻldirishda yordam beradi, shuning uchun ular oʻquv jarayonini yanada toʻliqroq tushunishlari mumkin. Bundan tashqari, tengdoshlarni baholash oʻqituvchining baholashidan koʻra samaraliroqdir, chunki u talabalarni fikr almashishda faolroq ishtirok etishga undaydi [11];

–o‘z-o‘zini baholashdan (Self-assessment) foydalanish natijasi o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi aloqani oshirishi mumkin, chunki bu ularga o‘z-o‘zini baholash jarayonida ba’zi tushuntirishlarga ega bo‘lish imkonini beradi. Shuningdek, talabalarning yaxshi natijalarga erishish uchun motivatsiyalari ortadi.

Shuningdek, ushbu baholash metodlarini qo‘llashda o‘qituvchidan ayrim vositalardan foydalanishni talab etadi:

Gapirish ko‘nikmalarini baholash rubriki oliy ta’lim muassasalari talabalarini baholash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan ikki turdagi rubrikalar mavjud: analitik rubrik va yaxlit rubrik. Yaxlit rubrik talabalar nimaga qodir va nimaga ega emasligi haqida umumiy ma’lumotga qaratilgan. Analitik rubrikalarda esa har bir jihat va mezon alohida hisobga olinadi. Og‘zaki imtihon paytida talabalarning grammatika, lug‘atdan foydalanish yoki talaffuz bo‘yicha ishlashi va qobiliyatini har bir test topshirig‘i bilan turli ball bilan aniqlash analitik rubrikga misoldir [7.3].

Kompyuterga asoslangan og‘zaki imtihonlar. Kompyuterga asoslangan og‘zaki imtihonlar TOEFL, IELTS va CEFR kabi malakaga asoslangan ingliz tili imtihonlaridan foydalanish bilan bir qatorda, tobora ommalashib borayotganini ko‘rish mumkin [10.112]. Ushbu imtihonlardan foydalanish tufayli baholash jarayoni ham, til ko‘nikmalarini o‘rgatish usullari ham o‘zgarishiga to‘g‘ri keldi. Til ta’limi strategiyalari va usullari allaqachon grammatika va lug‘atni o‘rgatishdan ko‘ra o‘qitish qobiliyatiga ko‘proq e’tibor beradi.

Mobil qurilma oraqali formativ baholash, ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitish darslarida gapirish ko‘nikmalarini ba’zi mobil qurilma oraqali formativ baholash amaliyotlari boshqa vositalarga qaraganda ma’lum darajada samarali ekanligini ko‘rsatadigan bir nechta tadqiqotlar taqdim etilgan. Ularning askariyati asosiy formativ baholash jarayoni va strategiyalariga amal qiladi.

Ushbu dizayn tamoyillari: talabalar baholash vositasidan erkin foydalanishlari, baholash qisqa bo‘lishi, iloji boricha, kamroq so‘z yoki tasvirlardan foydalanishi, ish tavsiflovchi fikr-mulohazalarni qayta ko‘rib chiqish va o‘zgartirishlar kiritish imkonini beradigan yondashuvda yaratilishi kerak. Mustaqil ta’lim oxirida an’anaviy tayyorgarlik o‘rniga, bu o‘z-o‘zini o‘rganish, o‘z-o‘zini sinab ko‘rish va uzluksiz o‘rganishga yordam beradi, bu esa talabalarga kursning barcha materiallari bo‘yicha chuqurroq tushunchalarini oshirish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K rođlu Z.Ç. (2019). Interventionist dynamic assessment’s effects on speaking skills testing: Case of ELT teacher. *Advances in Language and Literary Studies*, p. 23 – 31.
2. Li-ping Q., Ahmad N. (2023). The impact of assessing tertiary students’ speaking via e-portfolios within blended learning, p. 211 – 221.
3. Magnan S.S. (1986). Assessing speaking proficiency in the undergraduate curriculum: Data from French. In *Foreign Language Annals* (Vol. 19, Issue 5).
4. Magnan S.S. (1986). Assessing speaking proficiency in the undergraduate curriculum: Data from French. In *Foreign Language Annals* (Vol. 19, Issue 5).
5. Matthew E.P. (2005). Poehner M.E. (2005). Dynamic assessment of oral proficiency among advanced L2 learners of French. French: Unpublished Thesis.
6. Matthew E.P. (2005). Poehner M.E. (2005). Dynamic assessment of oral proficiency among advanced L2 learners of French. French: Unpublished Thesis.
7. Musa F.M. (2021). Evaluating ELF students’ speaking skill at tertiary level. *International Journal of Online of Humanities*, 7 (3).
8. Nash G., Crimmins G., Oprescu F. (2016). If first-year students are afraid of public speaking assessments what can teachers do to alleviate such anxiety? *Assessment & Evaluation in Higher Education*, 41(4), p. 586–600.
9. Sari M.E., Zaim M., Refnaldi R. (2019, March). Developing instruments for evaluating the authentic assessment for writing skill at junior high school. In *Seventh International Conference on Languages and Arts (ICLA 2018)*, Atlantis Press, p. 205 – 212.
10. Sayin B.A. (2015). Exploring anxiety in speaking exams and how it affects students’ performance. *International Journal of Education and Social Science*, 2(12), p. 112 – 118.
11. Spiller D. (2012). *Assessment matters: Self-assessment and peer assessment*. The University of Waikato, 13, p. 2 – 18.

Matvopayev Azizbek (Urganch davlat universiteti o'qituvchisi, PhD)
BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISHNING AMALIY VA USLUBIY JIHATLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kommunikativ-pedagogik tajribalarni nazariy va amaliy mashg'ulotlarda hamda pedagogik amaliyot vazifasi bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.*

***Аннотация.** В данной статье даются предложения и рекомендации по задачам будущих учителей физического воспитания, коммуникативно-педагогический опыт теоретической и практической подготовки и педагогической практики.*

***Annotation.** In this article, suggestions and recommendations are given on the task of future physical education teachers, communicative-pedagogical experiences in theoretical and practical training and pedagogical practice.*

***Kalit so'zlar:** jismoniy tarbiya, kompetentlik, metodologik, ta'lim, tarbiya, pedagogika, texnologik yondashuv, kasbiy, talaba, sport.*

***Ключевые слова:** физическое воспитание, компетентность, методическое, образование, обучение, педагогика, технологический подход, профессионал, студент, спорт.*

***Key words:** physical education, competence, methodological, education, training, pedagogy, technological approach, professional, student, sport.*

Ta'lim va tarbiya jarayoni o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablarini o'zida aks etiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlashdan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlar ajdodlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, yoshlarda davr talabidan kelib chiquvchi yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo'ladigan sifatlarni shakllantirish pedagogik faoliyat sohasining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Buning uchun, avvalo, pedagogning o'zida yangicha bilim berish, o'zgarib boruvchi mehnat va hayot sharoitlariga muvofiq ijodiy faoliyat bilan shug'ullana olish ko'nikmalari tarkib topgan bo'lishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz: "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz",¹ deb ta'kidlaydi.

Bugungi globallashuv davrida demokratik nuqtayi nazardan yangilanayotgan, o'zgarayotgan hayot yoshlarimizni o'ziga xos sinovlardan o'tkazmoqda. Zero, jamiyatning kelajagi yoshlar bilan bog'liq ular taraqqiyotning asosiy kuchi hisoblanadi. Mustaqillik yillarida yurtimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. "Bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalarini modernizatsiya qilish va yangilash jarayonlari yangi bosqichda jadal olib borilmoqda. Hayot talablaridan kelib chiqib, yurtimizdagi ko'pgina davlat va nodavlat tashkilotlarining faoliyati yanada takomillashtirilmoqda".²

Bugun mamlakatimizda qurilayotgan qonun ustuvor bo'lgan fuqarolik jamiyati, hayotimizga kirib kelayotgan yangilanishlar jarayoni, islohotlar samarasi, eng avvalo, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning intellektual salohiyatini oshirish, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishga qaratilgan. Zero, yoshlarga doir olib borilayotgan davlat siyosati mavjud qonunchilik, yangi qarorlar qabul qilinishi va islohotlar amalga oshirilishi kuchli tayanch bo'lmoqda.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayoni metodologik, pedagogik, texnologik yondashuv, muayyan pedagogik tizimdagi tegishli pedagogik nazariya, amaliy tadqiqot texnologiyalari tizimini talab qildi. Bularning barchasi ishlab chiqilgan maqsadli-konseptual, tuzilmaviy-mazmundor, tizimli-pedagogik, izchil, axborot tizimlashtirilgan, metodik jihatdan mukammal, pedagogik jihatdan tadrijiy, kasbiy va shaxsiy yo'naltirilgan, maktabda pedagogik nazariyaning amaliyot bilan mustahkam aloqasida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotning metodologik asoslari, bilim va yondashuvlar ilmiy-pedagogik tadqiqotning umummetodologik tamoyillarini (tizimlilik, komplekslilik, obyektivlik, nazariya va amaliyotning birligi) hamda juz'iy-metodologik tamoyillarni (determinizmga oid), faol kommunikativ faoliyatni belgilashga yordam

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Тошкент, "Ўзбекистон", 2017, 1-жилд, 124-бет.

² Shu manba. 507 – 508-бетлар.

beradi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayoni ishlab chiqilgan pedagogik tizim doiralarida, tajriba-sinov dasturiga muvofiq ravishda amalga oshirildi.

Tajriba-sinov jarayonida quyidagi bosqichlarga e'tibor qaratildi:

Dastlabki – motivatsion va tashkiliy-pedagogik.

Asosiy – axborot-anglash, shakllantiruvchi, aks ettiruvchi.

Amaliy – pedagogik muloqot, kommunikativ faoliyat tajribasini egallash.

O'zini-o'zi takomillashtirish.

Yakuniy bosqich – natijalarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish.

Tajriba-sinovning har bir bosqichida erishilayotgan natijalar jadvallarda aks ettirilgan, muammoni yechishning ilmiy asoslangan, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning dinamikasini ko'rsatuvchi jarayondir. Tajriba-sinov ishining birinchi bosqichida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning muhimligi va zarurligiga oid kasbiy-shaxsiy mohiyati, motivatsiyasini anglash lozim.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish uchun mo'ljallangan "Zamonaviy jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy mahorati" nomli auditoriyadan tashqari ilmiy tajribaviy maxsus kurs loyihasini ishlab chiqqanmiz. Tajriba-sinov ishlari jarayonida bitiruvchi talabalarning pedagogik jihatdan mazmundor texnikasi, mavzular va mashg'ulotlar tuzilishini ishlab chiqish, kasbiy kompetentlik asoslari, ularni bilishni talab etadigan turli vaziyatlarga e'tibor qaratamiz.

Pedagogik tadqiqotlar natijalari OTM talabalarining kasbiy kompetentligini keng ko'lamdagi "Zamonaviy jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy mahorati" maxsus kurs dasturini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi. Dastur kirish va asosiy qismlardan tashkil topgan hamda ushbu dasturni jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishlari uchun joriy etildi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari bo'lajak jismoniy madaniyat bakalavr ixtisosligi, jismoniy madaniyat fakulteti talabalar uchun mo'ljallangan "Zamonaviy jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy mahorati" auditoriyadan tashqari ilmiy tajribaviy maxsus kurs, ushbu kursni o'qitish, talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish asoslari va bilim olishga jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishining talabalariga amalga oshirish tavsiya etiladi.

Maxsus kursning maqsadi va vazifalari. Ilmiy-tajribaviy kursini o'qitishdan maqsad bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish va talabalarga pedagogik mahorat asoslari haqida bilim berish.

Asosiy vazifalari:

–pedagogik hodisa sifatida talabalarga kasbiy kompetentlikning nazariy asoslari haqida bilim berish;
–bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining shaxsini shakllantirish, kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik asoslari haqida bilim berish;

–oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligi rivojlanganlik holatini o'rganish;

–oliy ta'lim muassasalarining bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvni joriy qilish;

–OTMda jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning samarali yo'llarini joriy etish.

"Zamonaviy jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy mahorati" ilmiy tajribaviy kurs bo'yicha talabalarga taqdim etilayotgan bilim va ko'nikmalarga qo'yiladigan talablar. Talabalar, "Zamonaviy jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy mahorati" ilmiy tajribaviy kursni o'rganish natijasida quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi kerak. Talabalar yangi pedagogik innovatsion texnologiyalardan foydalanib, nazariy va uslubiy asoslarini o'rganish bo'yicha o'quv va auditoriyadan tashqari jarayonda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha malakalarni egallashi zarur.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida bo'lajak o'qituvchining amaliy-tajribaviy harakatlari, o'zini o'zi faollashtirishi va ijtimoiy-kommunikativ faoliyati, o'zini-o'zi takomillashtirishi hamda o'zini-o'zi baholashiga e'tibor berish zarur. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilari kommunikativ-pedagogik tajribalarni nazariy va amaliy mashg'ulotlarda hamda pedagogik amaliyot vaqtida egallaydilar, bu esa ularning turli ijtimoiy-kommunikativ chiqishlarida takomillashadi. Bunday dars mashg'ulotlari, tadbirlar, birinchi navbatda, bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining o'z kasbiy madaniyati ustida mustaqil ishlashi, pedagogik va jamoatchilik bilan estetik-axloqiy darajadagi muloqotini takomillashtirishi, o'z chiqishlarini sifatli tayyorlashlari (texnologiyasi, mazmuni, texnikasi)ni taqozo qiladi.

Tajriba-sinov ishlarining yakunlovchi (amaliy-faoliyatli) bosqichida quyidagi metodlardan foydala-

nish zarur, ya'ni, muammoli bayon etish, kichik tadqiqotchilik, bahs-munozaralar, kommunikativ-pedagogik vaziyatlarning tahlili, sport-o'yinli metodlari va b. Bunday metodlar bilimlarni faol egallash, mustaqil tafakkur, ijodiy qobiliyatlar va sport hayotiga maksimal yaqinlashgan amaliy faoliyatni talab qiladi. Shuningdek, bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining yuksak madaniy-pedagogik fazilatlarini faollashtiradi. Bunda, asosiysi, talabalarning qiziqishi, o'zaro hamda o'qituvchi bilan hamkorligi, "muammoli jarayonga" ijodiy-o'yin faoliyati elementlarining kiritilishidir. Bunday faol metodlar bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisi shaxsining kreativligi, uning kasbiy rivojlanishi va takomillashishiga yordam beradi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining ishtirokini nazariy-pedagogik va amaliy mashg'ulotlarda; maxsus amaliyotlarda; ijtimoiy-kommunikativ tadbirlarda ko'rib chiqdik.

Nazariy-pedagogik mashg'ulotlar "Zamonaviy jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy mahorati" mavzusidagi dasturning barcha asosiy mavzulari bo'yicha o'tkazildi. Mazkur mavzular bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida jismoniy tarbiya va sport, uning etikasi va estetikasi bo'yicha kasbiy-pedagogik muloqotni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Amaliy mashg'ulotlar turli individual, kasbiy-pedagogik va ijtimoiy-kommunikativ vaziyatlardagi muloqot masalalarining yechimini topish, turli tarbiyaviy vaziyatlarda kasbiy kompetentlikka murojaat qilish, kasbiy-axloqiy tafakkurni rivojlantiruvchi masalalarni yechish, o'quvchilarda pedagogik hamda sport etikasi va estetikasiga qiziqishni faollashtirish, shuningdek, jismoniy tarbiya o'qituvchisi yuksak odobiga doir misollar, yosh sportchilar sinfida, guruhida hissiy-ijobiy muhitni yaratish, milliy mentalitetni saqlash mazmundagi xalq sport o'yinlarini o'tkazish kabilarga bag'ishlandi.

4+2 shaklidagi pedagogik amaliyot davomida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari bilan tashkil etilgan turli tadbirlar, seminarlar, amaliy mashg'ulotlarda turli pedagogik vaziyatlarning yechimi topildi. Bunga o'quvchilarning jismoniy harakatlarini ifodalovchi: nizoli, munozaraviy-asosli, murosaga keltiruvchi, kulgili holatlar kiradi. Bunday tadbirlar, seminarlar, amaliy mashg'ulotlarda barcha bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari katta qiziqish, ishtiyoq, ijodiy ko'tarinkilik bilan ishtirok etdilar.

Pedagogik amaliyot davrida amaliy mashg'ulotlar davomida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari bilan verbal muloqot; nonverbal muloqot (til vositalaridan – nutq va tana harakatlari – imo-ishoralar, xatti-harakatlar va boshqalardan foydalangan holda) olib boriladigan kasbiy-pedagogik muloqot va kommunikativ faoliyat kabilar ko'rib chiqildi. Bularning barchasi bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari tomonidan yaxshi o'zlashtirilishi, chiroyli va ifodali tarzda bajarilishi zarur.

O'qituvchining tashqi qiyofasi – kiyimi, muayyan shaklga kiritilgan soch yoki soch turmagi, odatlari, o'zini tutishi, yurishi – bularning barchasi estetik jihatdan izchil bo'lishi kerak. O'qituvchi bu kabi barcha estetik-axloqiy vositalarni o'quvchilarga ma'lum ta'sir ko'rsatish maqsadida mahorat bilan boshqarishi lozim. Shuning uchun o'qituvchi nafaqat o'zining tashqi – estetik qiyofasi ustida, balki odob-axloqi ustida ham muntazam ishlashi muhimdir. O'zgin yoki to'lishgan o'qituvchi yoqimli bo'lishga harakat qilishi, o'z ustida ishlashi lozim. Bunda libos, did, odatlar, o'zini tutishi, imo-ishoralar uyg'unligi yordam beradi.

O'qituvchining pedagogik texnikasi o'quv-tarbiyaviy jarayonda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida juda ham dolzarb hisoblanadi. Amaliy mashg'ulotlar "Pedagogik muloqot axloqi-kasbiy madaniyatning muhim qismi" shiori ostida tashkil etildi.

Sport tadbirlar va bayramlari bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisining intizomsiz va boshqarish qiyin bo'lgan o'quvchilar bilan axloqiy-namunali va insoniy-etik muloqoti, maktabdagi turli xil nizoli-kommunikativ amaliy vazifa va vaziyatlarning yechimini topish, jismoniy tarbiya darslarida hissiy-ijobiy muhitning yaratilishi kabilarda yordam beradi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilari o'quvchilar bilan muloqotda ishonch, ishonchli munosabatlarni yo'lga qo'yish, ishchanlik, aniq maqsadni belgilash, uyushqoqlik, intizomlilik, mustaqil tashabbuskorlik, sportda o'zining jismoniy kuchi, g'alabaga bo'lgan ishonchni uyg'otish yo'llarini bilib oladilar. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisi o'zi, o'z psixik holatini qanday tuta bilishi, kelib chiqayotgan vaziyatlarning mohiyatiga hissiy va oqilona kirib borishi, maqsadga muvofiq qarorlarni qanday qabul qilish kerakligini bilishi zarur. Ular turli suhbatlar, turli video vositalar – kino va teleeshittirishlar yordamida o'quvchilarga jismoniy madaniyatning mohiyati, sportning foydasi hamda sportdagi yuksak axloqiy-estetik darajadagi chinakam insoniy munosabatlarni ko'rsatib beradilar.

Yuqoridagi mulohazalardan bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilari sport – mashaqqatli jismoniy mehnat; sport hissiy ko'tarinkilikning yuqori darajasi, sportchi tomonidan o'zi, o'z kuchini bilish, ma'naviylik va go'zallik tuyg'usi, vatanparvarlik, sport – kuch va go'zallik ekanligi to'g'risida xulosa chiqardilar.

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining yakuniy ijtimoiy faol kommunikativ faoliyati sifati-

da talabalarning turli tadbirlarni tashkillashtirish, uyushtirish, seminarlar va konferensiyalarda chiqishlar qilish, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda sport va jismoniy tarbiya tarixi va bugungi kundagi holati haqida ma'ruza bilan qatnashishlari kerak.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini bosqichma-bosqich kasbiy kompetentligining muhim sohasida zaruriy nazariy-amaliy bilim, tajriba va amaliyotga ega bo'lib boradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.02.2017. PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.
2. Абдуқодиров А., Пардаев А. Педагогик технологияларга оид атамаларнинг изоҳли луғати. Т., "Фан ва технологиялар", 2012, 44-бет.
3. Абдиназарова З.Х. Педагогик технологияларнинг талабалар ақлий тараққиётига психологик таъсири. Псих.фан.номз...дисс., Тошкент, 2012, 144-бет.
4. Гревцева Г.Я., Циулина М.В., Болодурина Э.А., Банников М.И. Интегративный подход в учебном процессе вуза. Современные проблемы науки и образования. 2017, № 5; УРЛ:хттп://ссиенсе-едусатион.ру/ру/артислс/виев?ид=26857 (мурожаат қилиниши 14.12.2020).

Raximova Farangiz Abduvaliyevna (Samarqand davlat Chet tillari instituti o'qituvchisi) NOFILOLOGIK YO'NALISHDA INGLIZ TILI DARSLARINI TASHKILLASHTIRISHNING EKLEKTIK METODI

Annotatsiya. *Eklektik metodni qo'llashdan asosiy maqsad har bir usul, yondashuv va texnikaning afzalliklaridan foydalangan holda, ingliz tili o'qitish mashg'ulotlariga kiritilgan va mavjud bo'lgan barcha turli usullardan iborat yangi usul yaratishdir. Darhaqiqat, asosiy g'oya barcha mavjud usullar, yondashuvlar va usullarni sinf sharoitlariga qarab o'zgaruvchan nisbatda qo'llashdir. Eklektik yondashuv sinf sharoitlari va o'qituvchilarning qobiliyatlariga qarab, til o'rgatishning barcha usullarini birlashtiradigan yondashuvdir.*

Аннотация. *Основная цель использования эклектического метода – внедрить новый метод преподавания английского языка и все доступные методы, не удаляя ни одного метода, физического или технического. Фактически, основная идея заключается в использовании всех доступных методов, средств и методов в модифицированном соотношении в соответствии с условиями занятий. Эклектическая система подходит для объединения всех методов обучения языку в зависимости от условий занятий и потребностей учащихся.*

Annotation. *The main purpose of using the eclectic method is to introduce a new method of English language teaching activities and all available methods without removing any method, physical or technical. In fact, the main idea is to use all available methods, tools and methods in a modified ratio according to classroom conditions. The eclectic system is suitable for combining all methods of language teaching depending on the classroom conditions and the needs of the students.*

Kalit so'zlar: *zamonaviy metodologiya, chet tili o'qitish, ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitish, eklektik metod, talabaga yo'naltirilgan ta'lim.*

Ключевые слова: *современная методика, преподавание иностранного языка, преподавание английского языка как второго языка, эклектический метод, лично-ориентированное образование.*

Key words: *modern methodology, foreign language teaching, teaching English as a language, student-oriented education.*

Bugungi globallashuv jarayonida texnika inqilobi tufayli butun dunyo bo'ylab har bir kishi boshqa davlatlar, mintaqalar va mamlakatlar bilan muloqot qilish uchun global tilni o'zlashtirishi va o'rganishi kerak. Ingliz tili bu zamonaviy dunyoda global maqomga erishdi, u butun dunyoda keng qo'llaniladi. Bundan tashqari, ingliz tili butun dunyo bo'ylab maktab, kollej va universitetlarda chet tili va ikkinchi til sifatida o'qitiladi. Ingliz tilini ikkinchi chet tili sifatida o'qitishda o'qituvchilar juda ko'p usullar, yondashuvlar va metodlarni o'zlashtirdilar, ammo ular ma'lum darajada talabalarni ingliz tilida muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga o'rgatishdi. Shu nuqtayi nazardan, ingliz tilini o'rganishni turli madaniyatlar va kelib chiqishi bo'lgan talabalar yoki o'qituvchilar uchun yanada moslashuvchan qilish uchun barcha mavjud usullar, yondashuvlar va texnikalarni birlashtira oladigan o'ziga xos yondashuv bo'lishi kerak. Ushbu jihatlari hisobga olgan holda, ingliz tilini o'qitishda eklektik yondashuv qo'llab-quvvatlandi.

Eklektik yondashuv qo'llab-quvvatlanib, metodologiyada qo'llanila boshlangan, chunki deyarli barcha individual usullar o'zlarining kuchli va zaif tomonlariga ega bo'lib, bitta metod ham haqiqiy va dinamik sinf konteksti uchun javobgar emas edi. Turli usullarning kamchiliklarini hisobga olgan holda, Braun eklektizm to'g'ri echim topishini ta'kidlaydi, chunki bu yondashuv o'qituvchiga o'z dinamik kontekstlarida sinfida nima yaxshi ishlayotganini tanlashga imkon beradi [2].

Hatto Gilliland, Jeyms va Boumen [3] eklektik yondashuvni qabul qilish uchun asos yagona usul yoki yondashuvda ekanligini ta'kidladilar, chunki bitta usul yoki yondashuv tor nazariy asosga ega va qat'iy harakatlar to'plamiga ega, shuning uchun u hamma talabaga birdek moslashuvchan emas. Eklektizm – bu bitta paradigma yoki farazlar to'plamiga qat'iylik qilmaydigan konseptual yondashuv, lekin mavzu bo'yicha bir-birini to'ldiruvchi tushunchaga ega bo'lish uchun bir nechta nazariyalar, uslublar yoki g'oyalarga tayanadi yoki alohida holatlarda turli nazariyalarni qo'llaydi. “Eklektizm bitta standart yondashuvga rioya qilish o'rniga turli tillarni o'rganish yondashuvlaridan foydalanadigan metodologiyaning bir turi sifatida tavsiflanadi” [1.22].

Veydmen fikriga ko'ra, “eklektik yondashuv ingliz tili sinflarida keng qabul qilingan, bugungi kunda ko'plab yaxshi o'qituvchilar undan g'urur bilan o'z ta'limotlarini tasvirlash uchun teg sifatida foydalanadilar va uni deyarli faxriy nishon sifatida taqib yurishadi” [9.2]. Kumar eklektik yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi va shunday ta'rif beradi: “Ekletik usulni targ'ib qilishdan maqsad hayot tajribasini tilni o'rganishda taqdim etilgan g'oyalar bilan bog'lashdir. O'qituvchilar tanlagan ta'lim faoliyati turlari, ko'pincha, ularning haqiqiy dunyoda tajribasi bilan bevosita bog'liqdir” [3].

Eklektik yondashuvning ko'p yo'nalishi oqilona tanlash imkoniyatini beradigan va o'qituvchilarga o'z ishlarida yordam beradigan prinsipni o'zida mujassam etgan. Eklektiklar barcha bosqichlarda to'rtta ko'nikmaning muvozanatli rivojlanishiga intiladilar, shu bilan birga, eshitish-og'zaki ko'nikmalarning erta rivojlanishini ta'kidlaydilar.

Tinglash va gapirish ko'nikmalari o'qituvchilar tomonidan eklektik yondashuv yordamida ingliz tili grammatikasini o'rgatishda birlashtiriladi. Tinglash va nutq faoliyatida o'qituvchilar nutq bo'laklari, ovoz, so'zlarning ketma-ketligi, kelishik, gaplarni tushunish va nutqdagi fikrning ketma-ket tartibi kabi muhim grammatik jihatlarni o'rgatish orqali o'quvchilarning nutq qobiliyatiga e'tibor qaratadilar.

O'qish mahoratini o'rgatish o'qituvchilar tomonidan o'zlarining ingliz tilidagi sinflarida eklektik yondashuvni qo'llash orqali samarali amalga oshiriladi. O'qish topshiriqlarida o'quvchilar guruhlariga bo'linadi va har bir guruh berilgan topshiriq bo'yicha umumiy javob olishlari kutiladi. Bunda talabalar kontekst bo'yicha o'z fikrlarini boshqalar bilan almashadilar va jummalarni o'zgartiradilar. Ushbu nutqqa asoslangan yondashuvda talabalar guruhlarida o'qish topshiriqlarini bajarishga undaydilar.

Eklektik yondashuv ingliz tilini chet tili sifatida o'qitishda eng yaxshi yondashuvlardan biri hisoblanadi. O'qituvchilar ushbu metodni ingliz tili auditoriyalarida tatbiq qilsalar, dars berishda muvaffaqiyat qozonadilar. Shu sababli firkrimizni dalillash uchun eklektik metodning asosiy xususiyatlarini tahlil qilsak:

–eklektik yondashuv o'qitishni innovatsion va qiziqarli qiladi. O'quv maqsadlariga osongina erishiladi;

–o'quvchi darsda faol ishtirok etadi, o'qituvchi o'quvchilar bilan muloqotda bo'ladi;

–talabalar o'rtasida qobiliyatlarni yuzaga chiqaradi va individual ehtiyojlarni qondiradi;

–darslarga eklektik yondashuv ingliz tilini o'rgatishni amaliy qiladi, chunki u til o'rganuvchilarda eslab qolish va ishonchni mustahkamlashga yordam beradi;

–ushbu yondashuv o'qituvchilarga o'rganish maqsadlariga osonlik bilan erishish imkonini beradi, chunki o'quvchilar tushunadilar va bilim oladilar, chunki o'rganish qiziqarli va innovatsion bo'ladi;

–bu ingliz tilini samarali o'rganishni yanada kuchaytiradi, chunki bilimlar to'g'risidagi ko'proq ma'lumotlar uzoq vaqt davomida saqlanib qoladi, bu esa o'quvchilarga ravon gapirish va grammatik ishlarni bajarish imkonini beradi;

–darsning maqsad va vazifalari hamda guruhdagi talabalarga qarab, o'qituvchi qanday metodologiya yoki yondashuvdan foydalanishni hal qiladi;

–bu tillarni o'rgatishning muammoli yondashuvi bo'lib, o'quvchilar sinfda duch keladigan muammolarni hal qiladi;

–talabalar nimani o'rganayotganlarini aniq tasavvur qilishlari mumkin;

–bu usulning xususiyatlariga ko'p vazifalar, jonli o'rganish, yuqori o'zaro ta'sir, obyektiv korrelativ va tezkor natijalar kiradi;

–bunday yondashuv hayot tajribasini tilni o'rganishda taqdim etilgan g'oyalar bilan bog'laydi;

–bu yondashuv hozirgi kunda juda mashhur, chunki o‘quvchilar sinfda turlicha va turli darajadagi aqli;

–ushbu yondashuv to‘rtta til ko‘nikmalariga, ya‘ni, tinglash, gapirish, o‘qish va yozishga bir xil darajada ahamiyat beradi;

–mavjud innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda, ingliz tili sinfida turli tadbirlar joriy etiladi;

–o‘qituvchilar uchun sinfda o‘qitish uchun mos keladigan har qanday usul yoki yondashuvni tanlashda moslashuvchanlik mavjud;

–eklektik metod til faoliyati taqdimotida ham vaqtni, ham kuchni tejaydi;

–talabalar shunchaki ma‘lumot oluvchilar emas, faol o‘quvchilar bo‘lishlarini ta‘minlaydi.

Shuningdek, mashqlar va resurslar ingliz tilidan tabiiy sharoitlarda foydalanish uchun imkon qadar moslashtirilishi kerak.

Eklektik yondashuvni o‘qitish shartlariga ko‘ra, individual o‘qituvchi yaratganligi sababli, yondashuvning yana bir xususiyati uning subyektivligi ekanligini ham aytish mumkin. Bu shuni anglatadiki, eklektik deb atash mumkin bo‘lgan narsa, sinfga ta‘sir qiluvchi omillarga qarab, ma‘lum bir o‘qituvchi nimani taklif qilishiga bog‘liq. O‘qituvchilar o‘zlari uchun mos keladigan narsani oqilona tanlash va o‘rganish uchun muayyan vaziyatda qanday va nimani birlashtirish mumkinligini hal qilish erkinligiga ega. Shunday qilib, bu yerda muhokama qilingan subyektivlik turli o‘qituvchilarning eklektik usulni tashkil etadigan narsalarni qanday tasavvur qilishiga ishora qiladi. Biroq, uning umumiy tomoni shundaki, eklektik ta‘limning maqsadi va asosi shundaki, turli xil kelib chiqishi bo‘lgan talabalar o‘rganishga kamroq qiyinchilik bilan kirishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Al-Hamash, I.Khalil &Younis Hamdi. (1985). Principles and Techniques of Teaching English as a Second Language. Baghdad. Al-Shaaab Press, p. 22.

2. Brown H. Douglas. (1994). Teaching by Principles. An Interactive Approach to Language Pedagogy. New Jersey: Prentice Hall, Regents, p. 365.

3. Gilliland B.E., James R.K., Bowman J.T. (1994). Response to the Lazarous and Beutler’s Article “On Technical Eclecticism”. Journal of Counseling and Development, 72, p. 544 – 555.

4. Ismatova Y.N. Kredit-modul tizimiga asoslangan ta‘limning asosiy xususiyatlari va uni baholash mezonlari. Vol. 1, № 15 (2023): prospects of development of science and education, p. 22 – 25.

5. Kumar C.P. (2013). The Eclectic Method: Theory and Its Application to the Learning of English. International Journal of Scientific and Research Publications, 3(6).

6. Rakhimova F.A. Peneral didactic principles of foreign language teaching in higher education. Academic research in educational sciences. 2021, № 10, URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/general-didactic-principles-of-foreign-language-teaching-in-higher-education>.

7. Rakhimova F.A. Theoretical Prerequisites for Teaching English in a Comprehensive School. International Journal on Integrated Education, vol. 4, № 5, 2021, p. 257 – 260.

8. Rakhimova F.A. Use of educational media as a factor in the integration of foreign language teaching methods. Asian Journal of Multidimensional Research. 2021, Volume: 10, Issue: 10, p.1388–1392. Online ISSN: 2278-4853. Article DOI: 10.5958/2278-4853.2021.00774.6.

9. Weidman A. (2001). The Old and the New. Reconsidering Eclecticism in Language Teaching. Linguam, 17(1):1-13. Doi.org/10.5785/17-1-131.

Abdullayev Alibek Qodiraliyevich (QDPI, t.f.n., “Informatika” kafedrasi dotsenti; quqon_alibek@mail.ru) INFORMATIKA O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASH SIFATINI OSHIRISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH

***Annotatsiya.** Barcha mamlakatlarda ta‘lim mazmunini modernizatsiya qilish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda, fan, texnika, madaniyat yutuqlarini aks ettiruvchi yangi kurs va mavzular joriy etilmoqda. Maqolada o‘quvchilar kompyuter savodxonligini shakllantirish, axborotga ishlov berish, uzatish va undan foydalanish jarayonlari haqidagi bilimlar asoslarini mustahkam va ongli o‘zlashtirib olishlarini ta‘minlash maqsadida informatika o‘qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirish masalalari yoritib berilgan.*

***Аннотация.** Во всех странах проводится значительная работа по модернизации содержания образования, внедряются новые курсы и темы, отражающие достижения науки, техники и культуры. В статье освещены вопросы повышения качества подготовки учителей информатики в*

целях обеспечения усвоения учащимися основ знаний о процессах формирования компьютерной грамотности, обработки информации, ее передачи и ее использования.

Annotation. In all countries, significant work is being done to modernize the content of education, and new courses and topics reflecting the achievements of science, technology, and culture are being introduced. The article highlights the issues of improving the quality of training of informatics teachers in order to ensure that students acquire the fundamentals of knowledge about the processes of forming computer literacy, information processing, transfer and its use.

Kalit so'zlar: axborot, fan, texnika, madaniyat, bilim, dastur, darslik, qo'llanma, standart.

Ключевые слова: информация, наука, техника, культура, знания, программа, учебник, пособие, стандарт.

Key words. information, science, technique, culture, knowledge, program, textbook, manual, standard.

Kirish. Bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlashning zamonaviy tashkil etilishi oliy ta'lim muassasalarida ba'zi kamchiliklarni tuzatishni talab qiladi, o'qituvchilarga ta'limni axborotlashtirish, informatika fani va maktab informatika kursini rivojlantirish sharoitida zarur bilim va ko'nikmalarni berish uchun maxsus kurs dasturlarini tuzish zarur bo'ladi.

Informatika o'qituvchilarini tayyorlash, uning rivojlanish tendentsiyalarini tahlil qilish asosida oliy ta'lim tizimi faol ta'lim metodlaridan foydalanadi, talabalarning pedagogik-psixologik va yosh xususiyatlarini hisobga oladi, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning individual tarkibiy qismlaridan foydalanadi; dasturlarni ishlab chiqishda informatika fanining rivojlanishiga, axborotlashtirish jarayoniga alohida e'tibor qaratiladi; o'qituvchi shaxsining o'z-o'zini rivojlantirish jarayonlarini faollashtirishga yordam beradigan ta'lim metodlari qo'llaniladi, o'qituvchilarning kasbiy qiziqishlari inobatga olinadi.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, kadrlar tayyorlash sifatini keskin oshirish, xalqaro standartlar darajasiga mos raqobatbardosh oliy ma'lumotli pedagog kadrlarni tayyorlash maqsadida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish maqsadida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish; ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish" ustuvor vazifa sifatida belgilanayotganligi, bilimlarni egallashning zamonaviy metodikalarini ishlab chiqish, ta'lim olish jarayonini takomillashtirishda web-texnologiyalardan foydalanish bugungi kunning muhim talabiga aylanmoqda. Ta'lim tizimining axborotlashtirilishi kasbiy faoliyatlarida web-texnologiyalardan foydalana oladigan, kasbiy mahoratga ega informatika o'qituvchilarini tayyorlashni taqozo etmoqda [1].

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Xorijiy davlatlarning ta'lim siyosati va uni amalga oshirish uchun pedagog kadrlar tayyorlashning tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi paytlarda dunyoda ta'limni rivojlantirishning asosiy tendentsiyalaridan biri shaxsni rivojlantirish asosida uning sifatini oshirish bo'lib, bu o'qituvchilarni tayyorlash sohasiga yangi talablarni qo'yimoqda.

Pedagog kadrlarni yangi ta'lim siyosatini amalga oshirishga tayyorlash zarurati pedagog kadrlar tayyorlash tizimini qayta qurish bo'yicha qonunlar va me'yoriy hujjatlar qabul qilinishiga olib keldi. Bu hujjatlar tuzilishi, mazmuni, turli komponentlar bilan o'zaro bog'liqligi, pedagogik ta'lim muassasalarini tanlash, malaka oshirish kabi pedagogik ta'limning turli jihatlariga taalluqlidir.

Xorijda o'qituvchilarni tayyorlash alohida turdagi maktablar – gimnaziya, real va kasb-hunar maktablari uchun ham, maktab bosqichlari uchun ham amalga oshiriladi:

1 – 4-sinf – boshlang'ich sinf darajasi (AKT bo'yicha bakalavr);

5 – 10-sinflar – o'rta maktab darajasi (AKT mutaxassisi);

11 – 13-sinflar – yuqori maktab darajasi (AKT magistranti).

Boshlang'ich sinf va o'rta maktab o'qituvchilari, asosan, uch yillik kursga ega oliy pedagogika maktablarida tayyorlanadi. Universitetlar va boshqa ba'zi ta'lim muassasalari, qoida tariqasida, gimnaziyalar, real va kasb-hunar ta'limi maktablari uchun o'qituvchilar tayyorlaydi (o'quv muddati 4 yil). Insonparvar o'qituvchini tayyorlashda o'qitishni individuallashtirishga katta e'tibor beriladi, bunda o'quv dasturlari uning shaxsiy o'sishiga yordam berish tamoyiliga asoslanadi.

O'qituvchilar tayyorlashning yana bir dolzarb muammosi – u maktabda o'qitadigan fanlar bo'yicha ilmiy bilimlarning darajasi va xususiyati. Ko'pgina mamlakatlar o'qituvchini pedagogik ta'limning ikkita asosiy tarkibiy qismi – fan bilimlari va o'qituvchilarning malakasini oshirishning puxta o'ylangan muvozanatiga tayyorlashga intilmoqda.

Barcha mamlakatlarda ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda, fan, texnika, madaniyat yutuqlarini aks ettiruvchi yangi kurs va mavzular joriy etilmoqda, fanlararo aloqadorlikka, gumanitar va tabiiy fanlar bo'yicha fundamental bilimlarga asoslanish va yo'naltirishga asoslangan yangi dasturlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar ishlab chiqilmoqda, o'qituvchilar tayyorlashning yangi standartlari ishlab chiqilmoqda. O'qituvchilar uchun davlat standartlarining xususiyatlari, birinchidan, ularning o'quvchilar uchun maktab standartlariga muvofiqligi, ikkinchidan, ortiqcha yuklanishning oldini oladigan vaqtni oqilona taqsimlash, uchinchidan, mutaxassislarni va keng jamoatchilikni jalb qilishni o'z ichiga oladi.

Xulosa. Ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biri bo'lgan informatikaning fan sifatida o'ziga xosligi, uning zamonaviy fanlar tizimida tutgan o'rni va ahamiyatidan, hozirgi jamiyat hayotidagi ahamiyatidan kelib chiqqan holda, "Informatika" fanini o'qitishning maqsadlarini quyidagicha belgilash mumkin:

–o'quvchilarda kompyuter savodxonligini shakllantirish;

–o'quvchilarda axborotga ishlov berish, uzatish va undan foydalanish jarayonlari haqidagi bilimlar asoslarini mustahkam va ongli o'zlashtirib olishlarini ta'minlash;

–o'quvchilarga dunyoning zamonaviy ilmiy ko'rinishini shakllantirishda axborot jarayonlarining ahamiyatini, jamiyatning rivojida yangi axborot va kommunikatsion texnologiyalarning ahamiyatini ochib berish;

–kompyuterlardan ongli va ratsional foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.

«Informatika» fanining pedagogik vazifalari insonning umumiy ta'lim olishidagi asosiy vazifalarini hal etishda qo'shadigan o'ziga xos hissi bilan aniqlanadi.

1. O'quvchilarda informatika haqidagi bilimni shakllantirish va ular tafakkurini rivojlantirish.

2. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. Bu muhim vazifani hal etishda butun pedagogik jamoa barcha o'quv predmetlarini o'qitish jarayonida ishtirok etadi.

3. Milliy mafkura ruhida tarbiyalash.

4. O'quvchilarni amaliy faoliyatga, mehnatga, ta'lim olishni davom ettirishga tayyorlash.

Yuqoridagi masalalardan hech biri boshqalaridan ajratilgan holda, alohida hal etilmasligi lozim. Ular bir butunlikda bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshirilishi lozim. o'quvchilar informatika asoslarini mustahkam egallashlari asosidagina ularning tafakkurini tarbiyalash va ilmiy dunyoqarashni yaratish mumkin [2].

Mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, tarixiy, ilmiy va boshqa xususiyatlari va an'alarini hisobga olib, aytish mumkinki, o'quvchilar bilan ishlovchi kasbga yo'naltirish tashkilotchilari, informatika fani o'qituvchilarini tayyorlash tizimini rivojlantirish uchun o'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish standartlari va dasturlarini ishlab chiquvchilar informatika o'qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirish bo'yicha xorijiy tajribadan foydalanishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. PF-4947-sonli, 1-ilova. 07.02.2017-yil.

2. Yuldashev U.Y., Boqiyev R.R., Zokirova F.M. Informatika o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma, T., "Talqin", 2004, 187-bet.

3. A.A.Abduqodirov, A.X.Pardayev. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya, T., "Fan", 2009, 145-bet.

4. Rokhataliyeva A.N. (2022). Teaching of mathematics on the basis of advanced international experiences. Web of Scientist. International Scientific Research Journal, 3(7), p. 50 – 55.

5. Rokhataliyeva A.N., Kadraliyevich A.A. (2022). Didactic foundations of improving the creative activity of future mathematics teachers by means of information and communication technologies. Emergent. Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning, 3 (7), p. 1 – 5.

6. Абдуллаева Н.П. Математикани ўқитишда ўқувчиларни креатив фаолиятини ривожлантиришнинг дидактик тамойиллари. "Journal of innovations in scientific and educational research", Volume 1, Issue 6, 119.

Sodiqova Yulduz Furqatovna (Samarqand davlat Chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi) TALABALARNI XORIJIY TIL KO'NIKMALARIGA O'RGATISHDA BAHOLASH MEZONLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarni xorijiy til ko'nikmalariga o'rgatishda baholash mezonlarining ahamiyati yoritilgan. Oliy ta'limning mazmun-mohiyatini tubdan takomillashtirish o'sib kelayotgan yosh avlodni xalqaro standartlarga mos kadrlar bo'lib yetishishiga ko'maklashuvchi jarayondir. Tala-

balar bilimini baholashda o'rganilayotgan tilning o'zlashtirilishi va nutq ravonligining xususiyatlari ham inobatga olinadi.

Аннотация. В данной статье освещается важность критериев оценки при обучении студентов иностранного языка. Коренное совершенствование содержания высшего образования-это процесс, способствующий воспитанию подрастающего поколения как кадров, соответствующих международным стандартам. При оценке знаний, студенты учитываются также особенности речи и овладения изучаемым языком.

Annotation. This article covers the importance of assessment criteria when teaching students to foreign language skills. The radical improvement of the essence of the content of higher education is a process that promotes the growing younger generation to become personnel in accordance with international standards. When assessing the knowledge of students, the features of the acquisition of the studied language and speech fluency are also taken into account.

Kalit so'zlar: baholash mezonlari, innovatsion ta'lim, interaktiv yondashuv, kreativlik, kompetensiya.

Ключевые слова: критерии оценки, инновационное обучение, интерактивный подход, креативность, компетентность.

Key words: evaluation criteria, innovative education, interactive approach, creativity, competence.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim sohasi, xususan, oliy ta'limda olib borilayotgan islohotlar ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, talabalarni o'qitishni zamonaviy bosqichga olib chiqish, qolaversa, innovatsion ta'limni shakllantirish orqali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga qaratilgan. Bu borada bir qator farmon va qarorlar ham qabul qilingan bo'lib, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon va qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 11-avgustdagi 610-sonli "Ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 19-maydagi 312-sonli "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qaroriga muvofiq, 2018-yil 26-sentabrda ro'yxatdan o'tkazilib, qabul qilingan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi nizom shular jumlasidandir [1]. Mazkur qaror va nizomlarning bosh maqsadi vatanimiz ravnaqi uchun xizmat qiladigan zamonaviy pedagogik kadrlarni tayyorlash, yurtimiz tayanchi bo'lgan yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs bo'lib tarbiyalanishiga ko'maklashishi, qolaversa, obod va farovon davlat barpo etishdan iboratdir.

Ta'lim tizimini isloh qilish yurtimizda kadrlar tayyorlashning davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi, ta'lim sohasining barcha bo'g'inlari davlat nazoratida ekanligidan dalolatdir. Mamlakatimizdagi barcha mavjud ijtimoiy sohalar bo'yicha yetuk mutaxassislarni tayyorlash, ularning kasbiy mahoratini oshirish borasida olib borilayotgan barcha ijobiy ishlarning zamirida xalqaro reyting talablariga javob bera oladigan, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan, xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirgan kadrlarni yetkazib berishga qaratilgan. Ta'lim tizimi, xususan, oliy ta'limning mazmun mohiyatini tubdan takomillashtirish, uni zamonaviy, innovatsion natijalar bilan boyitib borish, o'sib kelayotgan yosh avlodni xalqaro standartlarga mos kadrlar bo'lib yetishishiga ko'maklashuvchi jarayondir. Zero, bu borada amalga oshirilayotgan davlat siyosati darajasidagi islohotlarning ham asl mohiyati har bir mutaxassis kadrlarni jahonning yetakchi universitetlarida belgilangan ta'limi standartlariga mos raviishda tarbiyalashdan iboratdir.

Bugungi ta'lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar va interaktiv metodlar asosida uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etish, qolaversa, baholash tizimiga alohida e'tibor qaratish hozirgi pedagogik amaliyotda o'ziga xos qobiliyat va yuksak mahorat talab etadi.

Ta'lim jarayoni bugungi rivojlangan jamiyatning dolzarb muammolariga yechim topa oladigan kadrlarni tayyorlashni o'ziga maqsad qilib olgan ekan, talabalarining o'z sohasiga qiziqtirish, ularni yuksak qobiliyatli shaxs bo'lib tarbiyalanishida munosib rag'batlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Jumladan, har bir sohada bo'lgani kabi har bir shaxsni o'z kompetensiyasidan kelib chiqib, to'g'ri sohaga yo'naltira olish hamda uni munosib baholash pedagogik amaliyotning muhim qoidalaridan biridir.

Inson aql-idrokining samarasi bo'lgan zamonaviy texnologiyalar bugungi ta'lim sifatini tubdan boyitishga va uni zamon talablariga javob bera oladigan o'quv standartlariga moslashtirishga harakat qilmoqda [2.128].

Ta'lim sohasining muayyan davr nuqtai nazaridan o'zgarib borishi bevosita zamonaviy yondashuvlar va qarashlarga mos bo'lgan ta'lim tizimini ijtimoiy hayotga tatbiq etish bilan bog'liq bo'lib, uning talablari jamiyat ehtiyoji bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ta'lim nazariyasi va amaliyotining o'ziga xos rivojlanish tendensiyalarini shakllantirdi. Asosiy maqsad esa talaba-yoshlarda zamonga mos fikrlash va innovatsion pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Sir emaski, mustaqillikdan so'ng mamlakatimizda ham yangi ta'lim tizimining joriy qilinishi hamda kadrlar tayyorlashning bosqichma-bosqich shakllanib borishi faqatgina inson kapitali uchun xizmat qiladigan jarayon bo'lib, natijada ta'lim tizimining tubdan isloh qilinishi va milliy kadrlar tayyorlash tamoyiliga imkon yaratildi. Ta'lim tizimi shaxs, davlat va jamiyat uchun xizmat qilishiga monand bo'lgan yo'nalishda rivojlantirilib, uning sifati va samaradorligini baholash mezonlari asosida shakllantirib borish hamda amaliyotga tatbiq etish borasida islohotlar olib borildi va real natijalarga erishildi.

Jahonda xorijiy tillarni o'qitish metodikasida nutqiy kompetensiyani o'stirish, olagan bilimlarni baholash, baholash usullar va vositalari borasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, ta'lim tizimidagi pedagogik metodlarga muvofiq ingliz tilida talabalar egallashi lozim bo'lgan eng muhim kompetensiyalar bo'lgan nutqiy va lingvistik kompetensiyalarning nazariy asoslari ishlab chiqilgach, asosiy e'tibor baholash masalasiga qaratilgan.

Bugungi rivojlangan ta'limning asosiy maqsadi talabalarga faqat nazariy bilimlarni berish emas, balki ularning qobiliyati qolaversa, bo'lajak pedagog sifatidagi talabalarning pedagogik mahoratini shakllantirishdan iborat. Mantiqan o'yab qaralganda, ma'lum vaqt evaziga sifatli natijaga erishish tamoyillari ilgari surilayotgan bugungi davrda ta'lim tizimida doim a'lo bahoalarni talab qilish bilan birga olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish tajribasini ham sinovdan o'tkazish o'z kasbining mutaxassislarining yetishib chiqishiga hamda har bir ishga ijodiy yondasha oladigan kadrlarni tarbiyalashga zamin yaratadi. Shuning uchun ham bugungi ta'lim tizimi isloh qilinarkan, uning maqsadi konkretlashtirilib o'qitiladigan fanlar va mavzular o'zaro moslashtirilmoqda. Har bir fanning ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, talabalarning o'zlashtirish qobiliyatlari asosida o'ziga xos "milliy o'quv dasturlari"ni ishlab chiqish yo'lga qo'yilmoqda. Biroq har qanday ta'limning sifat ko'rsatkichlarini belgilaydigan jarayon baholash mezonlaridir.

Bugungi kun, ta'lim sohasining asosiy tamoyillaridan biri bu talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni muntazam xolisona va to'g'ri baholab borish mexanizimidir. Pedagogik jarayonning tarkibiy qisimlaridan asosiy bo'limlari bu ta'lim berish, o'qitish va tarbiyalash hamda nazorat natijalarini tekshirish ya'ni baholashdir. Zero, baholash tizimi pedagogik nazoratning asosiy qismi bo'lib, muayyan fanda erishilgan yutuqlar va kamchiliklarni aniqlashga imkonini beruvchi jarayondir [3.132].

Oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonining samarali tashkil etilganligi va natijadorligi ham talabalarning bilim, malaka va ko'nikmalarini muntazam baholab borish bilan bog'liqdir. Shuningdek, mamlakatimizda chet tillarni o'qitish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib bu borada qator farmon va qarorlar ham qabul qilingan. Oliy ta'lim muassasalarining yo'nalish va ixtisosliklaridan qat'i nazar, chet tillarni o'qitish hamda talabalarda muayyan til bo'yicha kompetentlikni shakllantirish hamda muayyan yo'nalishning lisoniy tomonlarini o'zlashtirish va rivojlantirish pedagogik jarayonlarning amaliy ifodasiga aylangan. Shuning barobarida, talabalarda bilim, ko'nikma va malakalar tekshirilib, chet tili bo'yicha maxsus bilim tekshirilmaydi, chunki u ko'nikma tarkibida o'rganiladi, shuning uchun va ko'nikmalar tekshiriladi. Tabiiyki, talabalarda til o'rganish bo'yicha ko'nikmalar tekshirilarkan, unda talabalarning leksik, grammatik, talaffuzni o'zlashtirish saviyasi, nutqiy faoliyati hamda ularni amaliyotda qo'llay olish darajasi baholanib boriladi.

Talabalar bilimi va malakasi nazorat qilinar ekan, bunda asosiy e'tibor talabaning o'z nutqiy faoliyatini amalda ya'ni, muloqot jarayonida qo'llay olishiga e'tibor berilib, aynan o'sha jarayonning me'yoriy ko'rsatkichlari maxsus baholash mezonlari orqali o'lchanib baholanadi. Oliy ta'lim tizimida talabalar bilimni baholash xususida so'z borarkan, bunda asosiy e'tiborni nazorat (baholash)ning turlari, mohiyati va vazifalariga ham qaratish lozim.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshirilib, oraliq nazoratlar semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli bo'limi tugagandan keyin, talabaning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida muayyan fan xususiyatidan kelib chiqqan holda, o'quv mashg'ulotlari davomida ikki marotabagacha o'tkazilishi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, oraliq nazorat turi, o'tkazish shakli va muddati fanning xususiyati va fanga ajratilgan sotlardan kelib chiqqan holda, tegishli kafedralar tomonidan belgilab beriladi. Shuni ham alohida qayd etish

kerakki, talabalarni oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, ularning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari ham inobatga olinadi.

Xorijiy tillarni o'qitishga ixtisoslashgan yoki muayyan chet tili bo'yicha olib boriladigan nazoratlar mohiyatan ma'lum fanning metodikasiga muvofiq turli shakl, usul, metod, test, reyting yoki baho kabi tushunchalarni o'zida qamrab olib, albatta, ko'nikmalarni tekshirishda leksik va grammatik talaffuz hamda nutq namunalari bilish va nutqda qo'llash bilan o'lchanadi va baholanadi. Shuningdek, malakalarni tekshirishda esa asosiy e'tibor nutq faoliyatning ravonligi va amaliyotda qo'llay olish bilan bog'liq so'z boyligiga ham qaratiladi. Masalan, gapirish jarayonini leksik jihatdan nazorat qila olish, ravon nutqda turli namunalar tuzish, til qoidalariga, ya'ni, bir-biriga monand so'zlarni tanlab, so'z birikmalarini yasash shular jumlasidandir [4.147].

Talabalar bilimni nazorat qilish yoki baholash mezonlari turli xil bo'lib, ayrim xorijiy tadqiqotlarda bu jarayon baholashning usullarini qoidalari sifatida keltirilgan. Test tizimini baholash qoidalari talabalarining chet tilidagi malakasi va kompetentligini oshirishda yordam beradigan vositadir. Chunki ko'p tanlovli test jarayoni to'g'ri yoki noto'g'ri qisqa javob yoki tinglab tushunish, ya'ni, o'qish ko'nikmalarini baholashda qo'llaniladigan qisqa javoblar, bo'sh qolgan joylarni to'ldirish kabi boshqa nazorat usullarida ishlash orqali talabalar bilimni nazorat qilish va baholashni yo'lga qo'yadigan vositadir [5.75–82]. Shuni ham alohida qayd etish kerakki, talabalar bilimni baholashda barcha nazorat usullari nazorat obyektiga mos tushishi, nazorat olib boriladigan muayyan fan yoki o'rganilayotgan tilning o'zlashtirilishi va nutq ravonligining xususiyatlari ham inobatga olinishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'limda nazorat turlarining o'rta maxsus ta'lim tizimidagi nazorat turlaridan farqli ravishda mukammalroq tuzilganligi bugungi kun talabalarining kompetensiyaviy yondashuvlarini rivojlantirib, ularni teranroq fikrlashga undaydi. Chunki bugungi kunda oliy ta'lim tizimida chet tilini tizimli ravishda o'qitilishiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, nazorat va baholash turlari ham an'anaviy usuldan keskin farq qilib, turli mashqlardan foydalanish va ular orqali nutqiy tajribani oshirish amaliyotlari joriy etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирининг 2018 йил 9 августдаги 19-2018-сонли буйруғига мувофиқ олий таълим муассасаларида талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолаш тизими тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида низом. 26.09.2018. <https://lex.uz/docs/3916793>.
2. М.Камолдинов, Б.Вахобжонов. Инновацион педагогик технология асослари, саволлар, жавоблар. Ўқув кўлланма, Т., “Talqin”, 2010.
3. З.Н.Матякубова. Ўқувчилар билимини баҳолашда кўп танлов жавобли тест топшириқларидан фойдаланиш методи (умумий биология мисолида). Пед. фан. ном. дисс. автореферати, Т., 2000.
4. Ж.Ж.Жалолов. Чет тил ўқитиш методикаси. Чет тиллар олий ўқув юртлари (факультетлари) талабалари учун дарслик, Т., “Ўқитувчи”, 2012.
5. Arthur H. Testing for language teachers. Second edition. Cambridge University Press, 2003.

Ziyayev Adxamjon Nisolmuxammatovich (Qo'qon DPI “Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrasida dotsenti) PEDAGOGIK KONFLIKTLAR VA ONGLI INTIZOM TARBIYASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ongli intizomni tarbiyalash o'quvchi, o'quvchilar, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan pedagogik nizolarni oldini olishning muhim muhim jihati sifatida yoritilgan.

Аннотация. В данной статье воспитание сознательной дисциплины у учащихся младших классов выделено как важный аспект предотвращения педагогических конфликтов, которые могут возникнуть между учащимися, учениками, учителями и учениками.

Annotation. In this article the development of conscious discipline in primary school students is highlighted as an important aspect of preventing pedagogical conflicts that may arise between pupils, teachers and pupils.

Kalit so'zlar: konflikt, pedagogik konflikt, konfliktologiya, intizom, ongli intizom, yo'l, usul, yechim, tojaro, muammo.

Ключевые слова: конфликт, педагогический конфликт, конфликтология, дисциплина, сознательная дисциплина, путь, метод, решение, главное, проблема.

Key words: conflict, pedagogical conflict, conflictology, discipline, conscious discipline, way, method, solution, major, problem.

Bugungi murakkab, tahlilkali va manfaatlar ustuvor bo'lib borayotgan bir davrda, o'zaro nizolar avj olishi yanada yangi mazmun va ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda. Konflikt – har birimizning turmushimiz va tirikligimizga xos va hayotimizga tegishli bo'lgan ijtimoiy hodisa sifatida ko'pchilik insonlar ongida an'anaviy mavjud bo'lgan fikrga kora, u oddiy hol emas, u ziddiyatli hol hisoblanadi. Konflikt tushunchasi ilmiy adabiyotda bir xil ma'noda qo'llanilmaydi. «Konflikt» atamasining juda ko'p ta'riflari mavjud. «Konflikt» tushunchasiga nisbatan eng umumiy yondashuvga ko'ra, u ziddiyatga umumiy tushuncha sifatida, eng avvalo, ijtimoiy ziddiyat sifatida qaraladigan tushunchadir. Har qanday ziddiyatning rivojlanishi murakkab jarayon bo'lib, u obyektiv ziddiyatlarning yuzaga kelishi, avj olishi va hal etilishi asosida ro'y beradi [1].

Mazkur maqolamizning maqsadi pedagogik konfliktlar va ularning oldini olishda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ongli intizom tarbiyasining o'rni va ahamiyatini tadqiq etishdan iboratdir.

Pedagogik konflikt bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ziddiyatlarni, kelishmovchiliklar tortishuvlar mojarolar hisoblanadi. Shuningdek, o'qituvchi bu muammolarning oldini olishi va yechimini topishi uchun o'z mutaxassisligini puxta o'rgangan, muloqot sirlaridan habardor bo'lishi hamda muloqot jarayonida bir-birlarini tushunishlari, bir-birini idrok qilishlarini o'rgangan bo'lishi lozim.

Pedagogik konfliktologiya – konfliktologiyaning o'ziga xos sohasi bo'lib, uning maqsadi ta'limdagi konfliktlarning paydo bo'lish, rivojlanish va yakun topishini o'rganish hamda ularni konstruktiv boshqaruvi prinsiplari, usul va metodlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishdan iboratdir [1].

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ziddiyat turli sabablarga ko'ra, yuzaga kelishi mumkin. Umuman olganda, bu sabablar har qanday shaxslararo nizolar uchun o'xshashdir:

- ijtimoiy rol pozitsiyalari,
- maqsadlari, manfaatlariga qarama-qarshilik;
- psixologik mos kelmaslik;
- ichki nizolarning mavjudligi;
- kommunikativ madaniyatning yo'qligi va boshqalar.

Biroq, amalda, maktabda ziddiyatli vaziyatlarni hal qilishning samarali usullarini izlash jarayonida ushbu sabablarni ko'rsatish va ularni o'quv faoliyati kontekstida ko'rib chiqish mantiqiy holat hisoblanadi. Mojaroning asl sabablarini tushunish ularni hal qilish uchun yo'l ochadi. Shuning uchun ham maktab konfliktlarining haqiqiy sabablarini izlash va ochish pedagogik konfliktologiyaning eng muhim vazifalaridan biridir.

Pedagogik konfliktlarning vujudga kelishining quyidagi obyektiv va subyektiv sabablarini bilish uning yechilarini topishda to'g'ri pedagogik yo'l tutish imkonini beradi.

Pedagogik konfliktlarning obyektiv sabablari:

- Bolaning asosiy ehtiyojlarini qondirish darajasining yetarli emasligi.
- O'qituvchi va o'quvchining funktsional-rol pozitsiyalarini qarama-qarshi qo'yish.
- O'quvchining o'qituvchiga bog'liqligi.
- O'qituvchining o'quvchilarni baholash zarurati.
- Rasmiylashtirilgan ta'lim tizimlarida o'quvchilarning shaxsiy muammolariga e'tibor bermaslik.
- Boshlang'ich sinf o'quvchisi ta'lim muassasasida, ota-onalar, va boshqa muhim odamlar tomonidan unga qo'yiladigan turli xil, ba'zan qarama-qarshi talablar tufayli o'ynashga majbur bo'lgan rollarning ko'pligi.

•O'quv materialining real hayot hodisalari, obyektlari o'rtasidagi farq.

•Ijtimoiy beqarorlik va boshqalar.

Subyektiv sabablarga quyidagilar kiradi:

- O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi psixologik nomuvofiqlik.
- O'qituvchi yoki o'quvchida “mojaroli shaxs” deb ataladigan xususiyatlarning mavjudligi (tajovuzkorlik, asabiylashish, xushmuomalalik, yovuzlik, o'ziga ishonch, qo'pollik, qattiqqo'llik, sinchkovlik, skeptitsizm va boshqalar).

•O'qituvchi yoki o'quvchida muloqot madaniyatining yo'qligi.

•Bu fanni barcha talabalar tomonidan o'rganish zarurati va ma'lum bir o'quvchi uchun unga qiziqish yo'qligi.

•Berilgan talabning intellektual va jismoniy imkoniyatlari va unga qo'yiladigan talablar o'rtasidagi nomuvofiqlik kabilar.

O'qituvchining pedagogik nizolar sabablarini anglab etishi va ularda adolatli, to'g'ri munosabatlarni topishida olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlaning o'rni va ahamiyati alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchiligidan ongli intizomga o'rgatib borish maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy jamiyat hayotining tartibli kechishini ta'minlash maqsadida axloqiy hamda huquqiy me'yorlar qabul qilingan. Jamiyat ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutuvchi ijtimoiy-huquqiy me'yorlar esa davlat tomonidan qabul qilinib, tegishli qonun aktlari asosida tartibga solinadi [7].

Intizom ijtimoiy-axloqiy va huquqiy me'yorlarga nisbatan ongli yondashuv, ularga to'la amal qilish demakdir. Ongli intizom tushunchasi shaxs faoliyatining ijtimoiy-axloqiy hamda ijtimoiy-huquqiy me'yorlar talablari asosida aqliy quvvatga tayangan holda tashkil etilish ko'rsatkichidir.

Ongli intizom tarbiyasi boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan intizomning mohiyati, uning ijtimoiy jamiyat hamda shaxs hayotida tutgan o'rini to'ri baholash, shuningdek, ijtimoiy-axloqiy va ijtimoiy-huquqiy me'yorlar talablariga ongli munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogic jarayondir [9]. boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida ongli intizom tarbiyasini tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

–ijtimoiy-axloqiy va ijtimoiy-huquqiy me'yorlar mohiyatini o'quvchilar ongiga singdirish, ongli intizom tushunchasini qaror toptirish;

–o'quvchilar tomonidan ijtimoiy burch mohiyatining o'zlashtirilishiga erishish;

– o'quvchilarda ijtimoiy burchni ado etish jarayonida ongli va ixtiyoriy faoliyatini tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

–o'quvchilarda kundalik hayotiy rejim asosida faoliyatni tashkil etish ko'nikmasini hosil qilish;

–o'quvchilarda mehnatni ilmiy asosda tashkil etish (mehnat va dam olish faoliyati, aqliy va jismoniy mehnat faoliyati o'rtasida o'zaro mutanosiblikning qaror topishiga erishish) asoslarini hosil qilishga erishish;

–o'quvchilarda ta'lim muassasasi ichki tartib-qoidalariga bo'ysunish hissini shakllantirish;

–intizomsizlikning oldini olgan holda, intizomsizlikka qarshi kurashishga yo'naltirilgan faoliyatini yo'lga qo'yish va boshqalar.

Ongli intizom axloqning tarkibiy qismi hisoblanadi. Intizom deganda burchni bajarish – shaxsiy va ijtimoiy, davlat, shaxsiy va jamoatchilik majburiyatlarini kam-ko'stsiz bajarish hamda ijtimoiy hayotda kishilarga, mehnatga va jamoat mulkiga jamiyat qabul qilgan xatti-harakat meyorlarida amal qilish tushiniladi. Axloqiy tarbiya tizimida axloqiy odatlar alohida o'rinni egallaydi. Chuqur o'zlashtirilgan axloqiy me'yorlar bilan belgilanuvchi xatti-harakat odatning ma'naviy sababiyatining barqaror ko'rsatkichidir.

Axloqiy tarbiyaning muhim vazifasi xatti-harakatlarni odatga aylanishidir.

Ko'rinib turibdiki, har bir o'qituvchi axloqiy tarbiyaning muhim tarkibi bo'lgan ongli intizomga o'quvchilarni o'rgatib borilishi, avvalo, jamiyatdagi umumjamiyat tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalariga hurmatda bo'lish, qonunlarga bo'ysunish ko'nikmalarini shakllanishi orqali yuzaga keladigan har qanday nizolar oldini olish imkoniyatlarini barqarorlashishiga erishadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'qituvchi mahorati, uning chuqur pedagogik tafakkur egasi bo'lishi pedagogik nizolarni to'g'ri hal etishida katta o'rin egallaydi. Ongli intizomni tarbiyalash esa o'quvchilarda har qanday nizolarni oqilona hal etish, tadbirli bo'lish, ijtimoiy, barqaror qarashlarga ega, faol shaxsga aylanish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizoin va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil is-tiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. «Xalq so'zi», 2017, 16-yanvar.

2. M.T.Axmedova. Pedagogik konfliktologiya. T., “Donishmand ziyosi” MCHJ, 2020.

3. Ziyaev A.I., and Z.J.Aliyeva. “Integration internet technologies in the educational process of teaching foreign languages”. Вестник магистратуры, 5 – 4 (128), 2022, p. 140 – 142.

4. Ziyayev A.N. Primary education and aesthetic sense training. International journal of research in commerce, it, engineering and social sciences. Impact Factor: 6.876 16.06, 2022, p. 62 – 64.

5. Ziyayev A.N. Primary education and aesthetic sense training. International journal of research in commerce, it, engineering and social sciences. Impact Factor: 6.876 16.06, 2022, p. 62 – 64.

6. Зияев Адхам Нисолмухамматович. Педагогические аспекты использования мыслей мыслителей в эстетическом воспитании учащихся. E Conference Zone. 2023.

7. Зияев Адхам Нисолмухамматович. Роль национальных ценностей в воспитании гражданина. Ученый XXI века. 2017, p. 78.

8. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. "Iqtisod-moliya", 2011.

9. O'.Yo'ldashev, A.Ziyayev, M.Yusupov va b. Umumiy pedagogika. T., "Fan va texnologiya", 2018.

Rahimova Shoira Adilbekovna (Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi)
KAYKOVUSNING PEDAGOGIK TA'LIMOTI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHI SHAXSINI
TARBIYALASH MUAMMOLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada "Unsur ul-Ma'oliy" Kaykovusning pedagogik ta'limoti asosida bo'lajak o'qituvchi shaxsini tarbiyalash muammolari haqida fikr yuritilgan bo'lib, turli masalalar yuzasidan keng mulohaza yuritilgan, Kaykovusning pedagogik ta'limotiga bo'lgan qarashlari mushohadasi tahlil qilib berilgan. Kaykovusning "Unsur ul-Ma'oliy" hamda "Qobusnoma" asaridagi pedagogik g'oyalari-dan foydalanish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются проблемы воспитания личности будущего учителя на основе педагогического учения "Унсур ул-маоли" Кайкавуса. "Унсур ул-маоли" Кайковус, также уделяется особое внимание вопросу использования своих педагогических идей в "Кабусноме".

Annotation. In this article, based on the pedagogical teaching of "Unsur ul-Maoliy" Kaikavus, the problems of educating the future teacher were discussed, a wide range of issues were discussed, and the observation of Kaikavus' views on the pedagogical teaching was analyzed. Unsurul-Maoliy Kaikavus also paid special attention to the issue of using his pedagogical ideas in the work "Nightmare".

Kalit so'zlar: pedagogika, pedagogik faoliyat, pedagogik ta'limot, qobiliyat, faoliyat,

Ключевые слова: педагогика, педагогическая деятельность, педагогическое учение, способность, деятельность.

Key word: pedagogy, pedagogical activity, pedagogical teaching, ability, activity.

Pedagogik faoliyatning metod va usullarini o'zlashtirish pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari va maqsadlarini chuqur bilish va tushunishga asoslanganligi barcha tadqiqotlarda isbotlangan. Kadrlar tayyorlash esa pedagogika oliy o'quv yurtlarining ruhiy islohoti bilan bir qatorda, ushbu faoliyatning muhim maqsad va natijalaridan biri sifatida qaraladi. Lekin bularning barchasi biz maqsad qilgan pedagogik tayyorgarlikning mazmunini to'liq ochib bera olmaydi. Shubhasiz, pedagogik tayyorgarlikning tarkibiy qismi shaxs va ma'naviyat tuyg'usi bilan bog'liq mexanizmga ega bo'lishi kerak. Binobarin, o'quvchining kasbiy yaroqliligining asosini tashkil etuvchi, pedagogik faoliyat uchun zarur bo'lgan shaxsning axloqiy fazilatlarini, o'qitish jarayonida egallagan bilim va ko'nikmalarini o'rganish bo'lajak pedagog kadrlar tayyorlash muammosini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda buyuk soha olimlarining pedagogik g'oyalaridan foydalanish, bu tadqiqotlarning qaysi biri bo'lishidan qat'i nazar:

– o'z milliy o'ziga xosligining asosi sifatida shakllantiradi;

– bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoniga mutafakkirlarning pedagogik g'oyalarini joriy etish ishlari ularning talab, qiziqish va qobiliyatini o'rganishga asoslanishi lozimligi haqida ogohlantiradi;

– maxsus ta'lim jarayoni va o'yinlar, sayrlar, darsdan tashqari mashg'ulotlarda mutafakkirlarning didaktik va axloqiy g'oyalarini qo'llash e'tiborga olinadi, ularning bola hayotiga yaxlit kirib borishiga e'tibor beriladi.

Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda o'rta asr mutafakkirlarining pedagogik g'oyalarini ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash zarurati vujudga keldi. Shu bois tadqiqot ishimizda bo'lajak o'qituvchining ma'naviy-axloqiy va kasbiy sifatini oshirish, tarixiy-madaniy merosga hurmatni shakllantirishda o'rta asr mutafakkiri "Unsur ul-Ma'oliy" Kaykovusning pedagogik g'oyalaridan foydalanish masalasini ko'rib chiqdik. "Unsur ul-Ma'oliy" Kaykovusning pedagogik g'oyalarini qo'llash o'quvchilarni bo'lajak bolalar bilan o'quv ishlariga tayyorlash uchun zarurdir. Chunki o'rta asr tarixiy merosi bo'lajak o'qituvchi va farzandining har tomonlama barkamol, fazilatli shaxsini shakllantirishning eng samarali vositalaridan biridir.

"Unsur ul-Ma'oliy" Kaykovus pedagogik g'oyalarining tarbiyaviy roli esa uning tarbiyaviy ta'limotlarining ijtimoiy ahamiyatini, ijtimoiy ta'sirga yo'naltirilganligini va ma'naviy qadriyatlar tizimidagi o'rni belgilab beruvchi muhim mezondir. Binobarin, "Unsur ul-Ma'oliy" Kaykovus g'oyalarining hayotiyliigi shaxsning ma'naviy-axloqiy sifatleri va mas'uliyat tuyg'ularini shakllantirishga ta'sir ko'rsatish qobiliyati bilan bog'liq. Chunki "Unsur ul-Ma'oliy" Kaykovusning g'oyalari ravshanlik xarakteriga ega bo'lib, uni tarbiyaviy xususiyat imkoniyatlaridan kelib chiqib, bola shaxsini rivojlantirishda bolalar bilan ishlaydigan

bo'lajak o'qituvchi tan olishi kerak. Bo'lajak o'qituvchi o'yin faoliyati yordamida bolalarning xalq merosiga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish tashkilotchisidir. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchi "Unsur ul-Ma'oliy" Kaykovus g'oyalarning shaxs tarbiyasidagi ahamiyatini yaxshi bilishi kerak. "Unsur ul-Ma'oliy" Kaykovus bolaning yoshiga qarab fikrlarning ta'sirchanligini farqlay olishi va ularning tarbiyaviy ahamiyatini tushunib, hayotiy ehtiyojlariga tatbiq eta olishi zarur.

Ulug' soha mutafakkirlarining xalq pedagogikasi vositalaridan biri bo'lgan pedagogik ta'limotlar asosida o'qituvchini tarbiyalash va tayyorlash tizimini ishlab chiqish muammosini ko'rib chiqqan yuqoridagi ishlar va uslubiy takliflar bo'lajak o'qituvchilarni axloqiy g'oyalardan foydalangan holda tayyorlash imkonini beradi. Binobarin, bo'lajak o'qituvchida tarixiy merosga bo'lgan qiziqishi va hurmati ortib, o'z ehtiyojlari uchun ijod qilish qobiliyatidan kelib chiqqan holda, o'z shaxsiyatini shakllantirish qobiliyatiga ega bo'ladi, deb o'ylaymiz.

– bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy-shaxsiy fazilatlarini va bilish, dunyoqarashi va mustaqil harakat qobiliyatlarini rivojlantirish;

– bo'lajak o'qituvchilarda milliy qadriyatlar va tarixiy-madaniy merosga qiziqishni shakllantirish;

– bo'lajak o'qituvchilarning milliy qadriyatlar va tarixiy-madaniy meros, urf-odat va an'analar haqidagi tushunchalari va tafakkurini kengaytirish;

– bo'lajak o'qituvchilarning o'quv-tarbiyaviy ish darslarida egallagan malaka va ko'nikmalarini tutatish va mustahkamlash. Ilmiy izlanishlar natijasi "Unsur ul-Ma'oliy" Kaykovusning pedagogik g'oyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash faoliyati mazmunini oydinlashtirish va bo'lajak o'qituvchi shaxsini rivojlantirish xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirish imkonini beradi. "Unsur ul-Ma'oliy" Kaykovusning pedagogik g'oyalari dars jarayonida o'quvchi bilimining mazmunini chuqurlashtiradi va ularni kelajakdagi tanlagan kasbi bo'yicha bilimlari bilan bog'lashga yordam beradi. "Unsur ul-Ma'oliy" Kaykovusning pedagogik g'oyalari o'qituvchilik kasbining xususiyatlarini nazariy jihatdan o'rganish, olingan bilimlarni amaliyotda sinab ko'rish imkoniyatini yaratadi. Bu esa uning o'qituvchi-pedagog mutaxassis bo'lishga bo'lgan ichki tayyorgarligi haqida fikr yuritishi, tayyorgarligini amalda sinab ko'rish uchun sharoit yaratadi.

O'rta asrlar merosi esa tadqiqot obyekti emas, balki uni boyitib, kundalik hayotning bir qismi bo'lishi mumkin. Ammo kelajakdagi o'qituvchi bola bilan ishlashni boshlashdan oldin, u uchun o'zbek madaniyati nima ekanligini va u o'zini uning tashuvchisi sifatida his qiladimi yoki yo'qligini aniqlashi kerak. Ya'ni S. Balashovanning hozirgi jahon amaliyotida o'qituvchilar malakasini oshirish (talaba stolida ham, uning kasbiy rivojlanishining turli shakllarida ham): antropologiya, ijtimoiy fanlar, axloq, adabiyot, san'at va aloqa fanlariga jalb qilish orqali talabalar bilimini kengaytirish (Germaniya), uni ustoz, pedagogika tarixi, axloqshunosligi, pedagogik antropologiya, etnografiya (AQSH) bilimdoni sifatida tarbiyalash vazifasi ham bejiz emas. U o'qituvchining etnopedagogik tayyorgarligi bolalarni xalq pedagogikasiga, uning sinkretik asosini buzmaganda ijodiy faoliyat sifatida qamrab olish zarur,¹ deb hisoblaydi.

Ilmiy izlanishlar tahlili va o'qituvchi-pedagog faoliyatini har qanday boshqa kasbiy va ta'lim faoliyati bilan taqqoslash asosida pedagogik faoliyatni kasbiy-pedagogik rivojlanishning ma'lum darajasini aks ettiruvchi dinamik ta'lim deb ta'riflash mumkin. Uning asosini xalq pedagogikasi vositalari orqali bo'lajak o'qituvchining shaxsiy va motivatsion darajasini tarbiyalash va tayyorlashning quyidagi tabiati tashkil etadi: pedagogik faoliyatga xalq pedagogikasi vositalarini joriy etish asosida shaxsni tarbiyalash va axloqiy tarbiyadagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish zarurligi; shaxsiy va kasbiy fazilatlarini tarbiyalashda xalq ijodi, jumladan, Sharq pedagogik g'oyalari bo'lgan ehtiyoj. Aytish mumkinki, bo'lajak o'qituvchi shaxsini "Unsur ul-Ma'oliy" Kaykovusning tarbiyaviy g'oyalari asosida tarbiyalash samaradorligi o'qituvchining pedagogik faoliyatini, maqsadiga erishish uchun amaliy ko'nikmalar majmuini, samarali usul va vositalarni o'zlashtirib olgan taqdirda mumkin bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchi shaxsini rivojlantirishning butun pedagogik jarayonini turli faoliyatda "Qobusnoma"dagi pedagogik g'oyalar va tarbiya va tarbiya yo'llari asosida tashkil etish quyidagi ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan:

– "Unsur ul-Ma'oliy" Kaykovus ta'limotini tizimli tahlil qilish va ularning xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ta'lim yo'nalishlariga ko'ra mosini tanlay olish;

– «Qobusnoma»dan "Unsur ul-Ma'oliy" Kaykovus g'oyalari va tarbiya vositalarini shaxs kamolotida amalga oshirishning eng samarali yo'llarini belgilash;

– talabalarning shaxsiy ta'lim darajasini baholash;

¹ Балашова С.С. Из истории обращения к фольклору в педагогике. Спутник учителя музыки, сост. Т.В.Челышева. М., "Молодая гвардия", 1993, с. 154 – 174.

–“Unsur ul-Ma’oliy” Kaykovusning shaxsni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim vositalarini (mustaqil faoliyat, dars va boshqalar) amalga oshirishning samarali usullarini aniqlash;

– ta’lim natijalarini olishning istalgan darajasini rejalashtirish;

–“Unsur ul-Ma’oliy” Kaykovusning pedagogik g’oyalari shaxsni har tomonlama rivojlantirish yo’nalishi sifatida qo’llash orqali pedagogik jarayonni tashkil etish;

– o’quvchilarning shaxsiy fazilatlarini va axloqiy rivojlanishining birinchi darajasini taqqoslash natijalarini tahlil qilish va baholash.

–“Unsur ul-Ma’oliy” Kaykovusning pedagogik ta’limoti asosida bo’lajak o’qituvchi shaxsini tarbiyalash muammolarini hal etishda talabalarni kasbiy tayyorlash muvaffaqiyati o’z-o’zini takomillashtirish, o’z kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashishni shakllantirish jarayonidir. Bu ish tajribasida qo’llashga qaratilgan harakatlarni o’zlashtirish uchun pedagogik «ko’rsatmalar» yaratishni anglatadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytamizki, bo’lajak pedagog shaxsini oliy ta’lim muassasasi sharoitida Unsurul-Ma’oliy Kaykovusning pedagogik g’oyalari orqali tarbiyalash quyidagi tuzilmani tashkil etadi:

–“Unsur ul-Ma’oliy” Kaykovusning pedagogik g’oyalari ta’lim jarayoniga kiritish bo’yicha yo’riqnoma yoki maqsadlarni shakllantirish;

– nazariy tayyorgarlik;

– uslubiy tayyorgarlik;

– amaliy mashg’ulotlar.

Bo’lajak o’qituvchilar bilan ishlash jarayonida “Unsur ul-Ma’oliy” Kaykovus g’oyalari qo’llash tajribasini o’rganib, “Unsur ul-Ma’oliy” Kaykovusning pedagogik g’oyalari asosida ularni tayyorlashning metodik asoslarini hozirgi asoslar bilan uyg’unlik nuqtayi nazaridan ko’rib chiqish masalasiga o’tamiz. “Unsur ul-Ma’oliy” Kaykovusning pedagogik ta’limoti xalq pedagogikasi vositalaridan biri sanaladi. Xalq ta’limi amaliyotini ijobiy baholagan va undan o’z faoliyatida muvaffaqiyatli foydalangan pedagogik nazariya klassiklari esa xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish zaruriyatini Y.Komenskiy,¹ I. Pestolozzi,² A.Makarenko,³ S.Shatskiy,⁴ V.Suxomlinskiy,⁵ K.Ushinskiy⁶ va boshqalar ta’kidlagan.

Xullas, bo’lajak o’qituvchilarni “Unsur ul-Ma’oliy” Kaykovusning pedagogik g’oyalari asosida tayyorlash masalasini ana shunday hodisalardan biri, uning bo’lajak pedagog kadrlarni tayyorlashda yagona pedagogik jarayoni deb hisoblaymiz. Biz bu muammoni empirik amaliy fan nuqtai nazaridan ko’rib chiqishga pedagogik nazariy bilimlar nuqtayi nazaridan o’tishga o’z hissamizni qo’shamiz. Har qanday obyekt yoki hodisani tizimli tavsiflash va har qanday tartib tizimini besh xil ko’rsatkichdan foydalangan holda tavsiflash zarurati: maqsad, xizmatlar, kompozitsiya (obyektni tashkil etuvchi elementlar), tuzilish (elementlar o’rtasidagi munosabatlar), tashqi sharoitlar. Shu munosabat bilan, “Unsurul-Ma’oliy” Kaykovusning pedagogik g’oyalari qo’llash har qanday ijtimoiy hodisa kabi o’ziga xos tuzilishga, tashkiliy shakllarga, faoliyat yuritish usullariga ega. Ajratilgan belgilar “Unsur ul-Ma’oliy” Kaykovusning pedagogik g’oyalari qo’llash hodisasini to’liq tavsiflaydi.

Rozimova Yorqinoy Yuldashvna (O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi “Gumanitar fanlar” kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodi, mayor)

CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida o‘quvchi-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanidan ta’lim berishga ixtisoslashgan o‘quv jarayonlarini yanada takomillashtirish, shuningdek, bugungi kundagi chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikning dolzarb muammolari bayon etilgan.*

***Аннотация.** В данной статье рассматривается система воспитания учащихся в духе военного патриотизма в средних и средних специальных учебных заведениях на новый качественный*

¹ Коменский Я.А. О культуре природных дарований. Избр. пед. соч., М., Учпедгиз, 1955, с. 449.

² Песталоцци И.Г. Избранные педагогические соч. В 2 т., М., “Педагогика”, 1981, 400 с.

³ Макаренко А.С. Соч.: в 7 т., М., 1958, т. 5, 179 с.

⁴ Шацкий С.Т. Избранные педагогические соч. В 2 т., под ред. Н.П.Кузина, М.Н.Скаткина, М., “Педагогика”, 1980, т. 2, 416 с.

⁵ Сухомлинский В.А. Сердце отдаю детям. Избр. педагог. соч.: в 3 т., М., 1979–1981, т. 3, 48 с.

⁶ Ушинский К.Д. Избранные педагогические сочинения. М., “Педагогика”, 1980, 357 с.

уровень, дальнейшее совершенствование образовательного процесса по специальности «Обучение по предмету начальной подготовки до призыва», а также описаны современные проблемы начальной подготовки до призыва.

Annotation. In this article, the system of raising students in the spirit of military patriotism in secondary and secondary special educational institutions to a new level in terms of quality, further improvement of educational processes specializing in education in the subject of primary training before the draft, as well as the current problems of the primary training before the draft are described.

Kalit so'zlar: o'rta maxsus, ta'lim, muammo, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik, qaror, Qurolli Kuchlar, tizim, me'yoriy hujjat, moddiy texnik baza, islohot.

Ключевые слова: среднее специальное, подготовка, проблема, первоначальная подготовка перед призывом, решение, Вооруженные Силы, система, нормативный документ, материально-техническая база, реформы.

Key words: secondary special, training, problem, initial training before the call, decision, armed forces, system, regulatory document, material and technical base, reforms.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq ma'naviyat, yoshlar tarbiyasi, barkamol avlod, komil insonni shakllantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari qilib belgilandi. Chunki har qanday davlatning, har qanday jamiyatning kelajagi, uning taraqqiyoti, jahonda o'z o'rniga ega bo'lishi masalalari uning yoshlarining bilimi, salohiyati, dunyoqarashi, ona-Vatanga sadoqati, ma'naviyatiga to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir.

Keyingi yillarda ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'quv jarayonlarini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, shuningdek, kadrlar bilan ta'minlash masalalari bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashining 2018-yil 28-noyabr kuni o'tkazilgan kengaytirilgan tarkibdagi yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilab berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi qaror qabul qildi.

Mazkur qarorda quyidagi ilovalarga muvofiq, me'yoriy hujjatlar tasdiqlandi:

–umumiy o'rta va maxsus ta'lim maktablari o'quvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qitilishining samaradorligini yanada oshirish bo'yicha hamkorlik dasturi;

–hududlardagi harbiy qismlar harbiy xizmatchilari bilan yangi asarlar va kitoblarning taqdimoti, kitobxonlik kechalari hamda tarix fani bo'yicha mashg'ulotlarni tizimli ravishda tashkil etishga mas'ul etib belgilangan umumta'lim maktablarining ro'yxati;

–umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalarining chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'quv xonalarini jihozlash konsepsiyasi;

–Mudofaa vazirligining malakali va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan ofitserlari tomonidan umumta'lim maktablarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani mashg'ulotlarining o'tilishi bo'yicha to'lov-shartnomasining namunasi.¹

Harbiy ta'lim fakultetining umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalari bilan hamkorlik ishlari natijalarini tahlillarga ko'ra, ilm-fan taraqqiyoti va Qurolli Kuchlarimizda olib borilayotgan islohotlar bilan hamohangligini ta'minlash yo'lida qator ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb topildi. Bunday xulosa qilishga muayyan sabablar mavjud bo'lib, ularni quyidagicha izohlash o'rinli bo'ladi:

▪chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikka doir barcha huquqiy-me'yoriy hujjatlarni o'zaro uyg'unligini to'liq ta'minlash;

▪Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari, tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlarida CHQBT bo'yicha (koordinatsion markaz) bo'lim boshlig'i (mutaxassis) shtatini kiritish (hozirgi kunda fan mutaxassisiga birlashtirilgan).

Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 18-dekabrda 348-son qaroriga ilova, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni amalga oshirish tartibi to'g'risida nizom talablari va Mudofaa, Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari qo'shma qarorining 1-ilovasida ko'zda tutilgan tadbirlarining o'zaro nomutanosib joylarini muvofiqlashtirish.

¹ O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligining qarori. 2018-yil 28-noyabr.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi, Moliya, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirliklarining “Namunaviy shtatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaror loyihasining 4 bandida kichik maktablarda CHQBT rahbari lavozimini faqat 10–11-sinflar sonidan kelib chiqib rejalashtirilgan.

Qo‘shma qarorda kiritilgan yangi shtat birligining “O‘quvchi-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari” lavozim vazifalari va majburiyatlarini aks ettirish. Bundan tashqari, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘quv fani dasturining yangi davr talablariga mos ravishda takomillashtirish. Dastur talablarini bajarilishida muhim omil bo‘lib hisoblanadigan tabel buyumlari ro‘yxati va ular davlatning qaysi tashkilotlari tomonidan ta‘minlanishini ko‘rsatuvchi jadval ilovalari kiritish ham e‘tiborga molikdir.

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani metodik ta‘minotini didaktik vositalar bilan boyitish, dastur, darslik, o‘quv qo‘llanma va metodik qo‘llanmalarni yangi adabiyotlar yaratish konsepsiyasining so‘nggi talablariga ko‘ra ta‘minlash ham masalalardan biridir.

Yuqorida qayd etilgan masalalarni mantiqiy tizimlashtirish, qo‘shma qaror ijrosini to‘laqonli bajarilishiga zamin bo‘ladi.

Ma‘lumki, yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tabiiylashda umumta‘lim maktablari va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanining samarali o‘qitilishi, yoshlarimizning Mudofaa vazirligining oliy harbiy o‘quv yurtlariga kirib ta‘lim olishlarida va Qurolli Kuchlarimizda mavjud barcha harbiy xizmat turlarida harbiy xizmat qilishga hozirlik ko‘rishlarida muhim zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich ta‘lim jarayoni harbiy kasbga e‘tiqodli va qobiliyatli yoshlarimizni saralashimiz va ularga o‘z vaqtida kerakli ta‘lim-tarbiya berishimiz, shuningdek, to‘g‘ri ko‘rsatma va yo‘nalishlar berishimiz uchun katta imkon deb qarash kerak.

Bugungi kunda barcha yoshlarimizning xavfsizlik va barqarorlik yo‘lida paydo bo‘layotgan tahdidlarga u yoki bu ma‘noda fikr bildirishlarining o‘zi kifoya qilmaydi. Yoshlarimizni mamlakatimiz hududida yuz berishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning turli ko‘rinishlari sodir bo‘lganda oqilona to‘g‘ri yo‘l tuta olishlarini, o‘zini va atrofida qilish chora-tadbirlarini ko‘ra bilishlari talab etiladi.

Bu borada soha vakillari mas‘uliyatni his qilishimiz chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligini o‘qitish samaradorligini oshirishning optimal yo‘l-yo‘riqlarini izlash va uning echimini topish muammosini doimiy kun tartibiga qo‘yishimiz va bunga katta mas‘uliyat bilan qarashimiz kerak bo‘ladi. Biz o‘g‘il bolalarimizni aql-farosatli, g‘ururli, botir, shuningdek, kuchli qilib ta‘lim-tarbiya berishimiz uchun chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni eng yaxshi fursatlardan deb qarashimiz va bu vaqtni samarali o‘tkazishimiz lozim bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bizlar yoshlarni chaqiruvga qadar tayyorgarligini mavsumiy ishlar sarasiga kiritmasligimiz va bu borada o‘z mas‘uliyatimizni chuqur anglashimiz shart bo‘ladi. Oliy harbiy ta‘lim muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasining yana bir muhim yo‘nalishlaridan biri – bu harbiy xizmatchilarni O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosati, iqtisodiyot, fan, madaniyat, ijtimoiy sohada bo‘layotgan o‘zgarishlar bilan tanishtirib borish va shu asnoda tinglovchi va kursantlarda Vatanga muhabbat, iftixor, milliy g‘urur, shu Vatanning munosib farzandi bo‘lib yetishiga intilish hissini shakllantirishdan iboratdir.

Yoshlarimiz Vatanimizning, millatimizning kelajagidir. Vatanimiz taqdirini ularga ishonib topshiramyiz. Buning uchun ular zimmlariga yuklatilayotgan eng murakkab va mas‘uliyatli vazifani butun mohiyati ila chuqur anglashlari, vatanga, xalqqa xizmat qilish oliy saodat ekanligini his qilib yashash, mustaqilligimizni yanada mustahkamlashga o‘zlarining hissalarini qo‘shishlari lozim.

Abdullaeva Ma‘rifatxon (Qo‘qon davlat Pedagogika instituti 2-bosqich tayanch doktoranti;

e-mail: abdullaevamarifatxon5@gmail.com)

DARSLARNI LOYIHALASHDA MUAMMOLI MASALALARDAN FOYDALANISH

***Annotatsiya.** Ushbu maqola oliy ta‘limda matematika darslarini loyihalashda muammoga asoslangan ta‘lim usulidan foydalanish haqida bo‘lib, muammoga asoslangan ta‘limning talabalar bilim darajasini oshirishdagi afzalliklari, muammoli masalalar orqali darslarni loyihalash haqida ma‘lumotlar berilgan va antik davr yunon muammoli masalalari misol tariqasida keltirib o‘tilgan.*

***Аннотация.** В статье речь идет об использовании проблемного обучения при разработке уроков математики в высшем образовании, преимуществах проблемного обучения в улучшении*

знаний учащихся, разработке уроков с помощью проблемных задач и древнегреческих проблемных задач в качестве примера.

Annotation. *This article is about the use of problem-based learning in the design of mathematics lessons in higher education, the benefits of problem-based learning in improving student knowledge, the design of lessons through problem-based problems, and ancient Greek problem-based problems as an example.*

Kalit so‘zlar: *muammoga asoslangan ta’lim, muammoli masalalar, doira, kub, aylana to‘g‘ri chiziq, burchak triseksiyasi.*

Ключевые слова: *проблемное обучение, проблемные задачи, круг, куб, окружность, прямая, трисекция угла.*

Key words: *problem-based learning, problematic issues, circle, cube, round, straight line, angle trisection.*

Kirish. Tibbiyot xodimlari, psixologlar va pedagoglarning izlanishlari shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quvchilar tomonidan ma‘lumotlarni o‘zlashtirish sifati, bilim olish va ko‘nikma hosil qilish darajasi motivatsiya darajasi bilan aniqlanuvchi shaxsiy faolligiga sezilarli bog‘liq ekan. Oliy ma‘lumot olishga bo‘lgan ehtiyojning ommaviylashuvi va shaxsiy kompyuterlarning talabalar orasida keng tarqalishi oliy o‘quv yurtlarida matematikani o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarning pasayishiga olib keluvchi sezilarli faktorlardan biri bo‘lib qolmoqda. Bunday sharoitda talabalarning matematik bilimlarni o‘zlashtirishi, malaka hosil qilishi va ko‘nikmaga ega bo‘lishi, fanga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantirish va matematik madaniyatini shakllantirishda mustaqil fikrlash qobiliyatini faollashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu masalarni hal qilishda esa muammoli ta’lim muhim vositalardan biridir.

Muammoli ta’lim – bu o‘qitish usuli bo‘lib, unda ma‘lumotlar va tushunchalarni to‘g‘ridan to‘g‘ri taqdim etishdan farqli o‘laroq, o‘quvchilarning tushuncha va tamoyillarni o‘rganishiga yordam beradigan vosita sifatida murakkab real muammolar qo‘llaniladi.

Bugungi kunda oliy ta’lim sohasida talabalar dars jarayonini tashkillashda turli ta’lim usullaridan foydalanilib, muammoli ta’lim ular orasida eng smaralisi hisoblanadi. Har qanday fan sohasini muammoga asoslangan ta’limga ozgina ijodkorlik bilan moslashtirish mumkin. Muammoga asoslangan ta’limning ba’zi xususiyatlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, bizning fikrimizcha, muammo – talabalarni tushunchalarni chuqurroq tushunishga undashi kerak;

- muammo – mazmun maqsadlarini oldingi bilimlar bilan bog‘lay olish kerak;
- muammo – talabalardan asosli qarorlar qabul qilishni va ularni himoya qilishni talab qilishi kerak;
- agar guruh loyihasi uchun ishlansa talabalar muammo ustida birgalikda ishlay olishlari kerak.

Muammoga asoslangan ta’limda asosiy e‘tibor tafakkurni rivojlantirishga qaratiladi. Shuni hisobga olgan holda, o‘quvchilar bilim darajasini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish maqsadida bugungi kunda maktab, litsey, oliy ta’lim darsliklari tubdan isloh qilinib matematika darsliklari misol, masalalarining askariyati muammoli masalalar, mantiqiy va tanqidiy fikrlashga doir mashqlardan tuzilgan. Bu ko‘rinishdagi masalalar fanga yangilik bo‘lmay, asrlar davomida o‘z zamonasining yetuk olimlari turli ko‘rinishdagi muammoli masalalar haqida bahslashib kelishgan.

Bunday masalalarni yechish talabadan ijodiy tafakkur va iqtidor talab qilib, maktab yoshidanoq o‘quvchilarda muammoli masalarni yechishga bilim va ko‘nikma paydo bo‘lishi kerak.

Antik davrning yunon muammolari geometrik muammolar to‘plami bo‘lib, ularning yechimi faqat kompas [1] va to‘g‘ri chiziq yordamida izlangan:

1. Doira kvadrati.
2. Kublarni takrorlash.
3. Burchak triseksiyasi.

Faqat zamonaviy davrda, ular tuzilganidan keyin bir necha yil o‘tgach, uchta qadimiy muammoning barchasi faqat kompas va to‘g‘ri chiziq yordamida yechilishi mumkin emasligi isbotlangan.

1997-yilgacha imkonsiz bo‘lmagan yana bir qadimiy geometrik muammo–bu Alxazenning bilyard muammosi. Ogilvi (1990) ta’kidlaganidek, umumiy muntazam ko‘pburchakni qurish, haqiqatan ham, antik davrning hal qilinmagan “to‘rtinchi” muammosi edi [2].

Doira kvadrati. Faqat to‘g‘ri chiziq va kompasdan foydalanib, maydonni aylanaga teng kvadrat quring. Bu antik davrning uchta geometrik muammolaridan biri bo‘lib, ehtimol, birinchi marta Anaksagor tomonidan sinab ko‘rilgan. Nihoyat, 1882-yilda Lindemann tomonidan pi transsendental [3] ekanligi isbotlanganida, bu imkonsiz muammo ekanligi isbotlandi [4]. Biroq, aylana kvadratiga yaqinlashishga yaqin

uzunliklarni qurish orqali beriladi. Ramanujan (1913–1914), Olds (1963), Gardner (1966) va (Bold 1982) uchun geometrik konstruksiyalar berilgan.

Kubni takrorlash. Kublarni ko‘paytirish, shuningdek, Delian muammosi deb ataladi, antik davrning geometrik muammolaridan biri bo‘lib, kub [5] qirrasining uzunligini hisobga olgan holda, birinchisining hajmi [6], [7], [8] ikki barobar katta bo‘lgan ikkinchi kubni qurishni so‘raydi. Qurilish uchun ruxsat etilgan yagona vositalar klassik (belgilanmagan) to‘g‘ri chiziq va kompasdir [3].

Muammo yunon afsonasida ko‘rinadi, unda o‘latdan azob chekayotgan afinaliklar Delosdagi Oracle-dan xudolarni qanday tinchlantirish va vaboni tugatish bo‘yicha yo‘l-yo‘riq so‘rashganligi haqida hikoya qilinadi. Oracle Apollon xudosi qurbongohning hajmini ikki baravar oshirishni maslahat berdi. Shuning uchun afinaliklar har bir yo‘nalishda asl nusxasidan ikki baravar kattaroq yangi bino qurdilar va u asl nusxa kabi kub shaklida (Wells, 1986) edi. Biroq, Oracle chiziqli o‘lchamni (ya‘ni, masshtabni) emas, balki hajmini ikki baravar oshirishni maslahat berganidek, yangi qurbongoh aslida eskisidan sakkiz baravar katta edi. Natijada xudolar tinchlanmadi va vabo to‘xtovsiz tarqalishda davom etdi. Bunday sharoitlarda xudolarning noroziligi sabablari to‘liq aniq emas, ayniqsa, asl qurbongohning sakkiz baravar hajmi, aslida, so‘raganidan to‘rt baravar ko‘p edi.

Ushbu usulda muammoni hal qilib bo‘lmaydi, chunki Delian doimiysi [9] (kub va tuziladigan tomonlarning kerakli nisbati Evklid soni emas. Biroq, qurilishning mumkin emasligi deyarli 2000 yilni talab qildi, birinchi dalil 1637-yilda Dekart tomonidan qurilgan. Biroq, muammoni Neusis konstruksiyasi yordamida hal qilish mumkin.

Burchak triseksiyasi. Burchak triseksiyasi – ixtiyoriy burchakning [10] uchta teng burchakka bo‘linishi bu antik davrning uchta geometrik muammolaridan biri bo‘lib, uning yechimlari faqat kompas va to‘g‘ri chiziq yordamida qidirilgan. Muammo Wantzel (1836) tomonidan algebraik jihatdan mumkin emasligini isbotladi.

O‘rta asrlar matematikasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak “Liber mahameleth” O‘rta asrlarda matematikaga oid eng yirik kitoblardan biri edi. U 12-asrda Al-Andalusda yashovchi nasroniy seviliyalik Jon tomonidan yaratilgan. U 23 bobni lotin tilida yozgan, lekin uning ko‘p qismi arabcha matematik bilimlarga asoslangan edi. Arifmetikaning turli nazariyalarini, masalan, kasrlarni qanday bo‘lish yoki butun sonlarni ko‘paytirishni yoritgandan so‘ng, kundalik hayot va biznes bilan bog‘liq matematik muammolarni hal qilishga o‘tadi: foydani qanday taqsimlash, ishchilarni yollash, tovarlarni sotib olish va sotish. Mana berilgan matematik masalardan biri va keltirilgan yechimlari:

1. Bir shaharga xabarchi yuboriladi va har kuni yigirma mil oldinga boradi. Besh kundan keyin yuborilgan va har kuni o‘ttiz chaqirim oldinga siljigan boshqa bir xabarchi uni necha kundan keyin quvib yetadi?

Siz quyidagilarni bajarasiz. Yigirma va o‘ttiz orasidagi farqni topamiz, ya‘ni o‘n. Keyinchalik, beshni yigirmaga ko‘paytirib va natijani, birinchidan chiqqan 10 ga bo‘ling. Bu o‘n kun bo‘ladi va ikkinchi xabarchi shuncha kun yurdi. Birinchisi ko‘proq kun yo‘lda bo‘lib, ya‘ni besh qo‘shilib, o‘n beshga teng edi, ikkinchi xabarchi uni kutib oldi.

2. Kema uch yuz mil masofada bir joydan ikkinchi joyga o‘tadi. U har kuni yigirma mil suzib yuradi, lekin shamol tomonidan har kuni besh mil orqaga suriladi. Bu yerga necha kunda yetib boradi?

Yechim. Siz quyidagilarni bajarasiz. Yigirmaga beshdan qo‘shing; bu yigirma beshni tashkil qiladi. Keyin, uch yuzdan beshni ayiring; bu ikki yuz to‘qson besh qoladi. Uni orqaga qaytadigan beshga va suzib yuradigan yigirmaga, ya‘ni o‘n beshga bo‘ling, bu o‘n to‘qqiz va qolgan o‘nni beradi. Buni o‘ndan besh milya qo‘shing, shuning uchun o‘n besh milya qiling. Uni yigirma beshdan belgilang, bu kunning beshdan uch qismini beradi. Bir kunning beshdan uch qismini o‘n to‘qqizga qo‘shsa, o‘n to‘qqiz va beshdan uch bo‘ladi va shuncha kundan keyin mo‘ljallangan joyga yetib boradi.

O‘rta asrlar va ilk zamonaviy matematika tarixida o‘rganilishi kerak bo‘lgan juda ko‘p qiziqarli materiallar mavjud bo‘lib, bu ro‘yxatni juda uzoq davom ettirish mumkin. Keling hozirgi kunda boshlang‘ich sinf matematika darsliklarida keltirilgan “uch miqdor” yoki “besh miqdor” masalalarini ko‘rib chiqaylik. Al-Beruniy taklif qilgan bu masala “besh miqdor qoidasi” yordamida hal qilinadi: “Agar 10 dirham 2 oyda 5 dirham daromad keltirsa, 8 dirham 3 oyda qancha daromad keltiradi?” Ushbu muammoni hal qilish uchun miqdorlar sxema bo‘yicha joylashtiriladi.

10	8
2	3
5	x

Beruniy “besh miqdor qoidasi”ni quyidagicha izohlaydi: “Noma‘lumni aniqlash uchun besh bo‘sh joyga o‘tkaziladi, 3 ga ko‘paytiriladi, so‘ngra ko‘paytma 8 ga ko‘paytiriladi; 120 ni beradi; eslab qola-

di. Keyin, 2 ni 10 ga ko'paytiring, yigirmaning beradi. Esda qolgan narsa 20 ga bo'linadi, bo'lakda u 6 bo'ladi. Bu 3 oyda 8 dirham daromaddir», dedi. "Beshlik qoidasi" formulasi quyidagicha:

$$x=(5*3*8)/(2*10)=6$$

Jamshid al-Koshiyning uchlik qoidasini qo'llash bo'yicha muammosi mavjud: "Xodimning oylik maoshi (30 kun) 10 dinor va kiyim-kechak. U 3 kun ishlab ko'ylak topdi. Ko'ylakning narxi qancha? Uni yechish uchun Al-Xorazmiy bo'yicha nisbat tuzing.

30 kun - x

10 kun + x - 3.

Ko'ylakning narxi qayerda va Al-Xorazmiy tomonidan ishlab chiqilgan qoidani qo'llagan holda, biz bitta noma'lum tenglamani olamiz:

$$(10+x*3)/30=x$$

Tenglamani yeching va ko'ylakning narxi (1+1/9) dinor bo'lgan natijani oling.

Bunday turdagi hanzugacha yechimini topmagan muammoli masalalar ustida dunyo olimlari turli usul va tajribalar orqali javob izlashmoqda. Yangi bilimlar, yangi loyihalar ustida bosh qotirib fan va texnika taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shmoqda. Bunday turdagi muammoli masalalardan oliy ta'limda matematika darslarini loyihalashda foydalanish talabalarining darsga bo'lgan qiziqishlarini yanada kuchaytiradi va dunyoqarashini shakllantiradi. Hodisalarni shundayligicha yodlab olmasdan, ularni solishtirish, tahlil qilish va umumlashtirishga majbur qiladi.

Xulosa. Shunday qilib, muammoga asoslangan ta'lim usulida talaba ko'proq o'z ustida mustaqil ishlaydi. Mustaqil ravishda qarorlar qabul qilib, o'zini-o'zi rivojlantiradi. L.D.Kudryavsev yangi bilimlarni o'zi mustaqil o'zlashtirishga tayyor bo'lmagan talaba professional hayotga tayyorgarligini rivojlantira olmasligiga to'htalgan. Qanday qilib talabalarni oliy o'quv yurtida bu jarayonga tayyorlash yo'llari o'rganilgan. Buning uchun talabani yuqori darajadagi bilim, ko'nikma va malakaga ega qilibgina qolmasdan, balki o'zini-o'zi takomillashtirib boradigan va mustaqil ta'lim olishga tayyor ijodiy fikrlovchi shaxs, mutaxassisni shakllantirish zarurligi aytib o'tilgan. O.V.Zadarojnaya va V.K.Kochetkovlarning izlanishlarida talaba matematiklarni tayyorlashda loyihalash faoliyati alohida o'rin tutishiga to'xtalib, uni yangi bilimlarni o'zlashtirishning yana bir usuli sifatida qaraydi. Talabalar tomonidan amalga oshirilgan o'quv loyihalaridan matematik bilimlarni o'qitishda foydalanish, nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash ilmiy tadqiqot ishlari yuzasidan birinchi tajribalarni olishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dikson R. Kompas chizmalari. Ch.Matografiya bo'yicha I. Nyu-York, Dover. 1991, 1 – 78-betlar.
2. Jons A., Morris S., va Pearson K. Abstrakt algebra va mashhur imkonsizlar. Nyu-York, Springer-Verlag, 1991.
3. Vaysshteyn Erik V. Transendental raqam.
4. Beyker A. Ayrim ratsional sonlarning logarifmiga yaqinlashishlar. Acta-Arit, 10, 1964, 315 – 323-betlar.
5. Kern V.F. va Bland J.R. "Kub" Dalillar bilan qattiq mensuratsiyada. 2-nashr. Nyu-york, Willey, 1948, 19–20-betlar.
6. Beyer W.H. CRC standart matematik jadvallar. 28-nashr. Boca Raton, FL, CRC Press, 1987, 120–132-betlar.
7. Dorff M. va Holl L. O'z hududida hajmning hosilasi bo'lgan qattiq moddalar. Kollej matematika. J 34. 350-358 betlar, 2003; 8. Fiyelstad P va Ginchey, I Hajm, sirt maydoni va garmonik o'rtacha. Matematika Mag. 76, 2003, 126–129-betlar.
8. Konvey J.H. va Gey R.K. Uchta yunon muammosi. Raqamlar kitobida. Nyu-York, Springer-Verlag, 192–194-betlar, 1996.
9. Xarris J.V. va Stoker H. "Burchak". Matematika va hissoylash fanlari bo'yicha qo'llanma. Nyu-York, Springer-Verlag, 62 – 64-betlar, 1998.

Mirzayev Mutalib Jo'rayevich (Denov Tadbirkorlik va pedagogika institutining yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

e-mail: mutalib.mirzayev@mail.ru

MA'NAVIY TAFAKKUR JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSIY HAMKORLIK MEZONI SIFATIDA

Annatsiya. Ma'naviyat bu insonning, xalqning va jamiyatning kuch-qudratidir. Qayerda ma'naviy, madaniy va mafkuraviy ishlar davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lsa, o'sha mamlakatda tinchlik, barqarorlik vujudga keladi, ilm-fan, ma'rifat rivojlanadi. Shu munosabat bilan, yoshlarda ma'naviy tafak-

kurni shakllantirishda o'zaro hamkorlik mezonlari muhim ahamiyatga egadir. Hozirgi kunda bu masalalarga birinchi darajali ahamiyat berishimiz yoshlar uchun imon-e'tiqodli va axloqiy-ruhiyatli xulq-atvorli bo'lish me'yorlari, kelajakda axloq-adob qoidalari bilan bevosita shakllangan inson bo'lishi bilan ajralib turadi. Ma'naviy tafakkurni tarbiyalashda bir necha metodlardan foydalanish orqali maktab, oila va mahalla hamkorligi samarali ekanligi asoslangan.

Аннотация. В данной статье рассматривается понятие духовности, которая является силой человека, народа и общества. Там, где духовные, культурные и идеологические дела возведены в ранг государственной политики, в стране установится мир и стабильность, будут развиваться наука и просвещение. В связи с этим важны критерии взаимного сотрудничества в формировании духовного мышления молодежи. Сегодня мы придаем этим вопросам первостепенное значение, которое отличается тем, что молодежь будет непосредственно формироваться нормами веры и нравственного поведения, а в дальнейшем и правилами этики. Доказано, что сотрудничество школы, семьи и соседей с использованием нескольких методов в воспитании духовного мышления является эффективным.

Annotation. In this article, spirituality is the strength of a person, people and society. Where spiritual, cultural and ideological affairs are elevated to the rank of state policy, peace and stability will be established in the country, science and education will develop. In this regard, the criteria for mutual cooperation in the formation of the spiritual thinking of young people are important. Today we attach paramount importance to these issues, which differs in that youth will be directly shaped by the norms of faith and moral behavior, and in the future by the rules of ethics. It has been proven that the cooperation of the school, family and neighbors using several methods in cultivating spiritual thinking is effective.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, tafakkur, hamkorlik, umuminsoniy qadriyatlar, vatanparvarlik, ma'naviy ongli inson, aqliy rivojlanish, axloqiy poklik.

Ключевые слова: духовность, мышление, сотрудничество, общечеловеческие ценности, патриотизм, духовно сознательная личность, интеллектуальное развитие, нравственная чистота.

Key words: spirituality, thinking, cooperation, universal values, patriotism, spiritually conscious personality, intellectual development, moral purity.

Kirish. Jamiyat ma'naviyatsiz bo'lmasligi, har qanday yuksak jamiyat taraqqiyoti ma'naviy tafakkurning va inson ongining yuksakligi orqali vujudga kelishi barchaga ma'lum. Ma'naviyat-inson, xalq, jamiyatning kuch-qudrati. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi, deydi xalqimiz. Ma'naviy-madaniy taraqqiyotida davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatning roli nihoyatda katta. Qaysi mamlakatda ma'naviy, madaniy va mafkuraviy ishlarda g'amxo'rlik qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lsa, o'sha mamlakatda tinchlik, barqarorlik vujudga keladi, ilm-fan, ma'rifat rivojlanadi. Bu, o'z navbatida, mamlakat oldida turgan turli eng murakkab muammolarni hal etish imkonini yaratadi. Bu jarayon ta'lim-tarbiya sohasidagi davlat siyosatining huquqiy asoslarini islohotlar yaratib berishdan boshlanadi. Ta'lim va tarbiyani istiqbol g'oyalari asosida o'quvchilar ma'naviy tafakkurini yuqori pog'onaga ko'tarish, kelajagimiz bo'lgan yoshlar ma'naviy tafakkurini rivojlantirish, unda maktab, oila va mahalla hamkorligini shakllantirish davrning qat'iy talabi, jamiyatning ijtimoiy topshirig'i hisoblanadi.

Tahlil va natija. Inson qanday jamiyatda yashamasin, ular doimiy ma'naviy tafakkurning rivojlanishi orqali jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonini hamkorliklikda yaratadilar.

Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, ta'lim muassasalari, mahallalarning hamkorlikdagi ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarish imkonini beradi. Shu munosabat bilan, yoshlarda ma'naviy tafakkurni shakllantirishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli qarori qabul qilindi. Uning asosiy maqsadi – yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish, uchun quyidagi bir qator vazifalarni amalga oshirish belgilab qo'yildi: "Ma'naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish, ma'naviy tarbiyani shakllantirishda oila, mahalla va ta'lim muassasalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish"[3] lozimligi ko'rsatilgan. Ushbu vazifalar doirasida oila, ta'lim-tarbiya maskani va mahalla hamkorligi sohasida pedagoglarning moddiy-ma'naviy sharoiti tubdan yaxshilanib, ta'lim sifatini oshirish dolzarb masallardan hisoblanadi.

Ma'naviy tafakkurni tarbiyalashda barcha insoniy faoliyat davlatimiz olib borayotgan bugungi siyosatini ifoda etadi. Ma'naviy tafakkurni rivojlantirishda davlat tomonidan olib boriladigan siyosatning roli

nihoyatda kattadir. Qaysi mamlakatda ma'naviy tafakkurni rivojlantirish va ma'rifatni ko'tarish, u haqida g'amxo'rlik qilish davlat siyosati darajasida ko'tarilgan bo'lsa, o'sha mamlakatda tinchlik, barqarorlik vujudga keladi, ilm-fan, ma'rifat va madaniyat rivojlanadi. Ayniqsa, O'zbekistonning xalqaro maydonda obro'-e'tibori tobora oshib bormoqda. U tanlangan yo'l esa jahondagi mamlakatlar tomonidan tan olinmoqda. Ayniqsa, yosh avlodga bo'lgan e'tibor, iqtidorli yoshlar bilan ishlash, "Prezident maktablari"ning tashkil etilishi, maktabgacha ta'lim, umumta'lim maktablaridagi islohotlar bunga misol bo'la oladi.

Ma'naviy tafakkur va yuksak ong egasi bo'lgan barkamol inson tushunchasining o'zining keng qamrovli, serqirra tushuncha ma'naviy barkamol inson – komil inson tushunchasi bilan hamkor. Ayni vaqtda ma'naviy barkamol inson tushunchasi sog'lom avlod tushunchasi bilan hamkor. Hozirgi kunda bu masalalarga birinchi darajali ahamiyat berishimizning balki imon-e'tiqodi va axloqiy-ruhiyati xulq-atvori me'yorlari, axloq-adob qoidalari bilan bevosita aloqadorligi bilan ajralib turadi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada butundunyo o'qituvchilar tayyorlash tizimida mikroo'qitishning rivojlanishi va ahamiyati tahlil qiladi. Unda mikroo'qitishning asosiy tamoyillari va prinsiplari, o'qitish ko'nikmasini rivojlantirishda uning roli va muhimligi tahlil qilinadi. Maqola ingliz tilini o'rganayotgan tala-

balar uchun mikroo'qitishning ahamiyati, hayotiy amaliyot o'tash, obyektiv taqriz olish va o'zlariga ishonchni oshirish imkoniyatini ko'rsatadi.

Аннотация. Данная статья рассматривает эволюцию и значимость микрообучения в мировом образовании учителей. В ней подчеркиваются корни и принципы этого метода, акцентируя его роль в совершенствовании учительских навыков в контролируемой среде. Основное внимание уделяется воздействию микрообучения на студентов, специализирующихся на английском языке, предоставляя им структурированную платформу для практики, получения обратной связи и наращивания уверенности.

Annotation. This article discusses the evolution and significance of microteaching in teacher education globally. This emphasizes the method's roots and principles, highlighting its role and importance in refining teaching skills within a controlled environment. The focus is on its impact on English language specialization students, providing them with a structured platform to practice in real life, receive objective feedback, and build confidence.

Kalit so'zlar: mikrota'lim, tengdoshlarni kuzatish, fikr-mulohaza, mulohaza, iterativ jarayon.

Ключевые слова: микрообучение, структурированная платформа, обратная связь, рефлексия, итеративный процесс.

Keywords: Microteaching, peer observing, feedback, reflection, iterative process.

1. Introduction. Microteaching is a teacher training technique that was developed in the 1960s. It was invented by Dr. Dwight W. Allen, a professor at Stanford University, and his colleagues. Microteaching was initially created as a method to improve teacher education and help aspiring teachers develop their teaching skills in a controlled and supportive environment. The sessions are recorded and reviewed, allowing the aspiring teachers to receive feedback and make improvements in a controlled setting. This technique is designed to help educators refine their teaching techniques, experiment with different strategies, and gain confidence in their abilities before they enter a real classroom.[2]

Microteaching has since become a widely adopted and essential part of teacher education and training programs around the world. It remains a valuable tool for developing and improving teaching skills, ensuring that educators are well-prepared for their roles in the classroom.

2. Implementing microteaching. 2.1. Key components of microteaching. Microteaching is a structured technique used for teacher training and professional development, involving the breakdown of teaching into manageable units for focused practice, feedback, and improvement. Its goal is to enhance teaching skills and effectiveness, preparing teacher candidates for real classroom experiences (Brent & Thomson. 1996).

Wilkinson (1996) highlights that microteaching enables teacher candidates to gain practical teaching experience and a grasp of teaching principles. It provides a platform for teachers to explore and reflect upon their own teaching styles and learn about innovative teaching methods (Wahba. 1999).

Pre-service teachers can derive significant benefits from microteaching applications. Initially, they uncover fundamental aspects of teaching and the teacher's role (Amobi. 2005; Hawkey. 1995; Kpanja. 2001; Wilkinson. 1996). It also emphasizes the importance of planning and decision-making and helps them enhance their teaching skills (Benton-Kupper. 2001) [1]

Here are the key components of microteaching:

- **Micro Lesson.** In microteaching, a teacher delivers a short, focused lesson to a small group of students. The lesson usually lasts for about 5-15 minutes, covering a specific topic or skill.

- **Video Recording.** Microteaching sessions are often recorded on video, which lets both the teacher and observers to review and analyze the teaching performance later. Video recordings provide pre-service teachers with the chance of evaluating themselves by engaging them in more experiences and configurations (Jensen et al., 1994) Sherin (2000) indicates that video recordings affect the perspectives of teachers in education process. Cunningham & Benedetto (2002) emphasize that video tools support the reflective learning, and Spurgeon & Bowen (2002) stress that by the help of these tools, the problems that may occur in education process can be observed and defined.

- **Peer Observers.** Other teachers or peers act as observers during the microteaching session. They provide constructive feedback and critique the teacher's teaching methods, communication, and classroom management.

- **Feedback and Reflection.** After the micro lesson, there is a feedback session where the teacher and observers discuss what went well and what could be improved. This feedback is based on specific teaching criteria, such as lesson planning, classroom management, communication, and engagement.

Feedback in microteaching is critical for teacher-trainee improvement. It is the information that a student receives concerning their attempts to imitate certain patterns of teaching. The built-in feedback mechanism in micro-teaching acquaints the trainee with the success of their performance and enables them to evaluate and to improve teaching.

- **Repetition or Iterative Process.** Microteaching often involves multiple sessions. The teacher may make adjustments based on feedback and then deliver another micro lesson to continue refining their teaching skills.

2.2. Preparation steps. Preparing English language specialization students for teaching through microteaching involves several steps. Here's a breakdown of the process:

1. **Designing Teaching Objectives.** Define the specific teaching objectives and content areas that the students will be teaching. Ensure that the objectives align with the goals of the English language specialization program.

2. **Developing Short Teaching Modules.** Create short teaching modules or lessons (approximately 5-10 minutes each) based on the defined objectives. These modules should cover different language skills, such as listening, speaking, reading, and writing.

3. **External Observation.** Have experienced teachers or mentors observe and provide feedback on the teaching modules. Their input can be invaluable in refining the teaching methods and materials.

4. **Practicing Teaching.** Encourage students to practice teaching the modules before presenting them to their peers. This can be done individually or in small groups. It allows them to gain confidence and refine their presentation.

5. **Conducting Microteaching Sessions.** Organize microteaching sessions where students take turns teaching their short modules to a small group of their peers. The microteaching sessions should be recorded for later review.

6. **Feedback and Self-Reflection.** After each microteaching session, facilitate a feedback session where both the students who taught and their peers provide constructive feedback. Encourage self-reflection on their teaching performance.

7. **Peer Review and Evaluation.** Have students review and evaluate the microteaching sessions of their peers. This provides a valuable opportunity to learn from each other and identify effective teaching techniques.

8. **Incorporate Feedback.** Encourage students to use the feedback they receive to improve their teaching skills, whether it's related to lesson content, instructional techniques, or classroom management.

9. **Progressive Complexity.** As students become more confident and proficient in their teaching, gradually increase the complexity of the teaching modules and the expectations for lesson planning.

10. **Real Classroom Experience.** Eventually, students should have opportunities to apply what they have learned in actual classroom settings. These real-world teaching experiences can further enhance their skills.

11. **Continuous Improvement.** Emphasize the importance of ongoing professional development and the need for continuous improvement in their teaching skills.

Microteaching for philology students is a crucial part of enhancing teaching skills and effectiveness. Through this method, they can learn to teach independently, with effectiveness, and improve their teaching practice as they go along.

3. Experiment. In the experiment, the microteaching method was applied to three distinct groups. (The experiment participants are students of groups №213, №214, №215 English philology faculty, Mamun university, Uzbekistan). Notably, all three groups displayed active participation and engaged effectively in the process of microteaching. This approach facilitated their understanding of pedagogical concepts and techniques, equipping them with the skills required to effectively convey knowledge. Furthermore, the participants gained proficiency in employing a variety of teaching activities, contributing to a comprehensive understanding of teaching methodology.

A pivotal aspect of this experiment was the development of the participants' capacity to observe teachers during microteaching sessions and subsequently provide constructive feedback. This proved instrumental in fostering a culture of peer-driven learning and continuous improvement. The ability to critically assess teaching methodologies and offer constructive insights emerged as a significant outcome of the experiment.

In the Micro Lesson, I assigned a task where they had to conduct the lesson in pairs to make themselves feel more comfortable. They conducted the lesson, each taking on the role of the teacher, for a duration ranging from 10 to 30 minutes.

During the Video Recording step, they recorded their lessons to analyze their successes and mistakes in detail.

In the Peer Observers and Feedback step, peers observed the lessons and provided both positive and negative feedback, along with suggestions concerning the teacher's behavior, interaction with students, voice modulation, classroom management, organization, lesson planning, and student engagement. During the Repetition step, they eagerly conducted the lesson for a second time. Having taught once already, they felt more self-confident and were better at organizing their lessons, thus minimizing mistakes.

Conclusion. In conclusion, the implementation of the microteaching method in these three groups resulted in active participation and comprehensive learning experiences. Participants not only learned how to teach effectively and employ diverse teaching activities but also acquired the valuable skills of observation and feedback provision. This experiment underscores the importance of microteaching in equipping future educators with the competencies necessary for effective teaching and collaborative learning environments.

Used literature:

1. Abendroth Mark., Golzy John B., O'Connor Eileen A. (1 December 2011). "Self-Created Youtube Recordings of Microteachings: Their Effects upon Candidates' Readiness for Teaching and Instructors' Assessment". *Journal of Educational Technology Systems*. 40 (2), 141–159. [doi:10.2190/ET.40.2.e](https://doi.org/10.2190/ET.40.2.e). [S2CID 56612007](https://eric.ed.gov/?id=S2CID_56612007).
2. Brent R., Wheatley E.A. and Thomson, W.S. (1996) Videotaped Microteaching: Bridging the Gap from the University to the Classroom. *The Teacher Educator*, 31, 238-247. <https://doi.org/10.1080/08878739609555115>
3. Benton-Kupper. Jodi. The microteaching experience: student perspectives. *Education*, vol. 121, № 4, summer 2001, p. 830. Gale Academic.
4. "Glossary of Hattie's influences on student achievement". *Visible Learning* https://visible-learning.org/glossary/#6_Micro-teaching.

Sapayev G'ulomjon Baxtiyarovich (Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi Xorazm hududiy bo'linmasi rahbari, f.f.f.d. (PhD); e-mail: g.sapaev@dba.uz)

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIGA HALOL VA PROFESSIONAL KADRLARNI TANLASHDA MERITOKRATIYA TAMOYILINING AHAMIYATI

***Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmatiga halol, professional va malakali kadrlarni saralash hamda tanlashning zamonaviy mexanizmlari yoritiladi. Xususan, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga nomzodlar tanlashda meritokratiya prinsipining mazmuni va ahamiyati, bu tizimning mexanizmlari, maqsadlari va samaradorligi, shuningdek, meritokratiyaning demokratik davlat boshqaruvidagi va jamiyat ravnaqidagi o'rni tahlil qilingan.*

***Аннотация.** В статье освещены современные механизмы подбора профессиональных и квалифицированных кадров на государственную гражданскую службу в Республике Узбекистан. В частности, были проанализированы содержание и значение принципа меритократии при отборе кандидатов в органы государственной власти и управления, механизмы, цели и эффективность этой системы, а также роль меритократии в демократическом государственном управлении.*

***Annotation.** The article describes the modern mechanisms of selection and appointment of honest, professional and qualified personnel to the state civil service in the Republic of Uzbekistan. In particular, the content and importance of the principle of meritocracy in the selection of candidates for state power and management bodies, the mechanisms, goals and effectiveness of this system, as well as the role of meritocracy in democratic state management and the development of society were analyzed.*

***Kalit so'zlar:** meritokratiya, davlat xizmati, kadrlar, nomzod, munosib, qobiliyatli, malakali, lavozim, agentlik, korrupsiya, lavozim, ochiq tanlov, suhbat.*

***Ключевые слова:** меритократия, государственная служба, кадры, кандидат, достойный, способный, квалифицированный, должность, коррупция, должность, открытый конкурс, беседа.*

***Key words.** meritocracy, civil service, personnel, candidate, worthy, capable, qualified, position, agency, corruption, position, open competition, interview*

Davlat xizmatida yuqori malakali kadrlar tarkibini shakllantirish har qanday davlatning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Chunki davlatning ishonchli boshqaruvi va taraqqiyoti, jamiyat rivoji va xalq farovonligi, eng avvalo, davlat xizmati tizimining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, davlat hokimiyati boshqaruvidagi rahbar kadrlar va davlat fuqarolik xizmatchilarining samarali faoliyatiga bog'liq. Zero, olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatida malakali kadrlar muhim rol o'ynab, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi avvalambor yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bevosita bog'liq».¹

Ilmiy adabiyotlarda aytilganidek, «davlat xizmatchisi» davlat tashkilotida ishlayotgan, uning ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, tashkiliy funksiyalarini bajaruvchi lavozim egasi, shuningdek, xalqqa xizmat qiluvchi vakolatli vakildir.² Shu nuqtayi nazardan, davlat xizmatining quyidagi muhim belgilarini sanab o'tish o'rinlidir:

- davlat xizmatining davlat tashkilotlarida amalga oshirilishi;
- davlat tashkilotidagi birlamchi professional faoliyat;
- davlat xizmatining davlat organlarida muayyan vakolat va javogarlikka ega bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan amalga oshirilishi;
- davlat xizmatchilarining hokimiyat vakolatlariga ega bo'lishi.³

O'zbekiston Respublikasi «Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida»gi qonunida bunday lavozimdagi shaxsga alohida ta'rif berilgan. Unga ko'ra, «davlat fuqarolik xizmati – O'zbekiston Respublikasi fuqarola-

¹ Ш.М.Мирзиёев. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баходир. 2-жилд, Т., 2018, «Ўзбекистон», 24-бет.

² Бехрах Д.Н. Государственная служба в Российской Федерации. Учебник, Екатеринбург, Издательство Государственной юридической академии, 2004, с. 234; Граждан В.Д. Государственная гражданская служба. Учебное пособие, М., «Юркнига», 2005, с. 24–25.

³ Ҳоҷиев Э.Т., Исмаилова Г.С., Раҳимова М.А. Давлат хизмати. Ўқув қўлланма, Т., «Ўзбекистон», 2014, 248-бет.

rining davlat fuqarolik xizmati lavozimlaridagi davlat organlari vakolatlari amalga oshirilishini ta'minlashga doir haq to'lanadigan kasbiy faoliyatini ifodalaydi".¹

Demak, bugungi zamonaviy rahbar, davlat xizmatchisi, eng avvalo, davlat siyosatini joylarda ijrosini ta'minlovchi xalq xizmatkori, davlat hokimiyati nomidan ish yuritadigan fuqarolar huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi, ularga ko'maklashuvchi mansabdor shaxsdir. Shunday ekan, eng avvalo, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga bilimli va malakali mutaxassislarni, mas'uliyatli, xalqparvar va vijdonli, eng asosiysi, davlat fuqarolik xizmatiga eng munosib kadrlarni tanlash, ular zaxirasini shakllantirish kadrlar siyosatidagi asosiy vazifalardandir.

Mazkur xizmatga munosib kadrlarni izlab topish va tanlash juda muhim bo'lib, bu jarayonda meritokratiya ("*munosiblar boshqaruvi*", lotin. *meritus* "*loyiq*" + yunon. *κράτος* "*kuch, boshqaruv*") tamoyilini qo'llash davlat fuqarolik xizmatini rivolantirishda yuqori samara berishi shubhasizdir. Meritokratiya tamoyili – bu rahbarlik lavozimlariga ijtimoiy kelib chiqishi va moliyaviy ahvolidan qat'i nazar, eng munosib, yuqori intellektual va salohiyatli shaxslarning tayinlanish tizimidir.²

Meritokratiyaga asoslangan boshqaruv prinsipi – eng qobiliyatli va intellektual rivojlangan insonlar ijtimoiy kelib chiqishi, qarindoshlik va moliyaviy holati, jinsi, irqi yoki yoshidan qat'i nazar, yetakchilik mavqeyini egallaydi. Ushbu prinsip, asosan, nomzodning kompetentligiga asoslangan bo'lib, lavozim martaba zinapoyasidan ko'tarilishiga garovdir.

Meritokratiyaning zamonaviy jihatlarini quyidagilarni anglatadi:

–shaxsning jismoniy, intellektual qobiliyatlari bilan belgilanadigan tizim;

–bu davlat xizmatchilarining kadrlar zaxirasini to'ldirish uchun ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar eng iste'dodli va istiqbolli shaxslarni davlat boshqaruviga tanlash va joy-joyiga qo'yish tizimidir.

Hozirda ko'plab olimlar meritokratiya kelajakda davlat va jamiyatni boshqarishning yorqin namunasini ekanligini ta'kidlaydilar. Eng qobiliyatli insonlar eng yaxshi natijalarga erishishlari mumkin va shunga ko'ra, barcha fuqarolarning ijtimoiy farovonligi oshadi. Shunday qilib, meritokratiya – nafakat davlat boshqaruvida, balki inson va jamiyat uchun ham eng yaxshi natijalarga erishishda adolatli tizim sifatida taklif etilmoqda.

Meritokratiya prinsipi davlat va jamiyat uchun, eng avvalo, qobiliyatli va o'z sohasining bilimli mutaxassislari yuzaga chiqishiga imkon bersa, ikkinchidan, fidoyi, vatanparvar va mehnatsevar kadrlar jamoasini shakllantiradi. Uchinchidan esa boshqaruvda korrupsiya muammosi va byurokriatiyaning oldini olishga yordam beradi. "Osiyo yo'lbarisi" deb nom olgan Singapur tajribasi bunga yaqqol misodir. Singapur dunyoda birinchi bo'lib davlat boshqaruvinii "siyosiy meritokratiya" deb e'lon qilgan yagona mamlakatdir.³ Buning o'ziga xosligi shundaki, tabiiy ravishda, siyosiy va iqtisodiy sohada ishlash uchun iqtidorli kadrlar ishga taklif etildi.

Singapurning rivojlanishida yuqori malakali va axloqiy fazilatlariga ega davlat xizmatchilarining roli katta bo'lgan. Bu haqda Singapurni qoloqlikdan dunyoning rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqqan, 25 yil Bosh vazir bo'lgan Li Kuan Yu shunday deydi: "Hukumatga layoqatli vazirlar va ularga yordam bergan yuqori axloqiy fazilatlariga ega davlat xizmatchilarining borligi Singapurning muvaffaqiyatli taraqqiyotini ta'minlashda asosiy, hal qiluvchi omilga aylandi".⁴

Bugungi kunda O'zbekistonning davlat boshqaruvi sohasida davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq maqsadli kadrlar siyosat olib borilmoqda, ya'ni meritokratiya prinsipi bo'yicha davlat xizmatiga tayinlash tizimi yo'lga qo'yilgan. Kadrlar siyosati – bu sifati va soni bo'yicha ishchi kuchiga bo'lgan talab bilan aniqlanib, ishga jalb qilish va ish joylarini to'ldirish hamda ulardan foydalanishni yaxshilash tadbirlarini ishlab chiqishdir. Shunday ekan, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatida davlat organlari xizmatchilarining xalqqa adolat va sadoqat bilan xizmat qilishi muhimdir.⁵

Mamlakatimizda keyingi yillarda kadrlar siyosatida meritokratiya tamoyilini bosqichma yo'lga qo'yish maqsadida muhim islohotlar amalga oshirildi. Xususan, "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islo-

¹ Ўзбекистон Республикаси «Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида»ги қонуни. 4-модда. 2022 йил 8 август.

² Фалсафа: қомусий луғат. Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров. Т., "Шарқ", 257-бет.

³ О.Ҳайитов, Ф.Абдуллаев, Ш.Исмаилова, Ғ.Сапаев. Бошқарув маҳорати: асосий тушунча, жараён ва механизмлар. Т., «Академия», 2023, 26-бет.

⁴ Ли Куан Ю. Истедодоли инсонлар мамлакатнинг бебаҳо бойлигидир. М.А.Рахматов ва Б.А.Зариповлар таржимаси. Т., 2019, 65-бет.

⁵ Бошқарув маҳорати: асосий тушунча, жараён ва механизмлар. 7-бет.

hotlar konsepsiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va “O‘zbekiston Respublikasida ma‘muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlarida davlat boshqaruvini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish, inson resurslarini rivojlantirish va malakali kadrlar zaxirasini boyitish vazifasi belgilangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning¹ 10-maqsadi ham aynan davlat fuqarolik xizmati tizimini zamonaviy standartlar asosida tashkil etishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni asosida davlat fuqarolik xizmati samaradorligini oshirish, davlat organlari va tashkilotlarining malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (DXRA) tashkil qilindi.

Mazkur Agentlik davlat kadrlar siyosati sohasida davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtirish, mustaqil ochiq tanlovlarni tashkil qilish, davlat fuqarolik xizmat tizimida meritokratik tamoyillarni qo‘llash bilan shug‘ullanadi, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarida xodimlarni boshqarish va inson resurslarini rivojlantirish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish uchun mas‘ul organ etib belgilandi.

Bugungi kunda davlat hokimiyati va tashkilotlari rahbarlik lavozimlariga meritokratiya tamoyillari asosida ochiq tanlovlar o‘tkazib borish, bo‘sh lavozimlar, kadrlar siyosatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa yangiliklar ni berib borish maqsadida, Agentlikning rasmiy <https://argos.uz> veb-sayti tashkil qilindi. Shuningdek, ochiq va mustaqil tanlov orqali davlat fuqarolik xizmatidagi bo‘sh lavozimlar munosib nomzodlar tomonidan egallanishi uchun “Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portali” (<https://vacancy.argos.uz>) ishlab chiqilgan. Ushbu portalda davlat fuqarolik xizmatidagi bo‘sh lavozimlarga qiziqish bildirgan har bir jismoniy shaxs o‘zi istagan lavozim bo‘yicha tanlovda ishtirok etishi mumkin. Bu esa yurtimizdagi ko‘plab yosh va malakali mutaxassislarining, ma‘lum bir subyektiv yoki boshqa korrupsiyon omillar sabab o‘zlarini ko‘rsata olmagan kadrlar uchun o‘z bilim va qobiliyatlarini namoyon qilishlari, o‘z imkoniyatlarini rahbarlik lavozimlarida sinab ko‘rishlari uchun juda yaxshi imkoniyat yaratdi.

Albatta, davlat boshqaruvi kadrlar tizimini meritokratik tamoyillar asosida amalga oshirishning o‘ziga xos mexanizmi va talablariga ega. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida bo‘sh vakant lavozimlari uchun ochiq tanlovlar o‘tkazish va nomzodlarni saralab olishning o‘ziga xos bosqichlari mavjud. Xususan:

- malaka talablarining mos kelishi va nomzodlarning rezyumelari tahlili;
- test sinovlari (kasbga oid, mantiqiy fikrlash, soha bo‘yicha qonunchilikni va xorijiy tillarni bilish darajasi);

- nomzodning axloqiy qadriyatlari, professional va liderlik kompetensiyalari bo‘yicha suhbat;

Muhim shundaki, ushbu jarayonlarning barchasi ochiq, shaffof tarzda amalga oshirilib, suhbat jarayonlari ham jonli efir orqali uzatiladi.

Sohani meritokratiya prinsiplari asosida yanada rivojlantirish zarur yuqoridagi tartiblardan tashqari, davlat boshqaruvi sohasida samarali kadr siyosatini amalga oshirish uchun quyidagilar tavsiya qilinadi:

– davlat xizmatiga tanlov asosida saralab olingan kadrlarni, shaxsiy va kasbiy fazilatlarini asosida ularni lavozimga tayinlash, “karyera” modeli asosida xizmat mansabini oshirishning shaffof tizimini joriy etish zarur;

- korrupsiya holatlari to‘g‘risidagi xabarlarini e‘lon qilish amaliyotini kengaytirish;
- qonunda mansabdor shaxslarning daromadlari, mol-mulkulari, majburiyatlari, xarajatlarini va manfaatlarini majburiy tartibda deklaratsiya qilishni joriy etish;

– siyosiy mansabdor shaxslar faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish to‘g‘risidagi me‘yorlarni amaliyotga ishonchli qo‘llash.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, boshqaruv organlarini iqtidorli, bilimli, ma‘naviyatli va eng munosib kadrlar bilan to‘ldirish davlat taraqqiyoti va jamiyat ravnaqini belgilab beradi. Hozirgi sharoitda samarali davlat boshqaruvida va korrupsiyaga qarshi kurashishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bois davlat fuqarolik xizmatiga malakali kadrlarni izlash, saralash va eng munosibini tanlashda meritokratiya prinsipini qo‘llash bugungi davr talabidir. Kadrlarni bunday tanlash tizimi shaxsning kasbga oid sifatleri va alohida

¹ “Халқ сўзи”, 2022 йил 1 февраль, 23-сон.

xizmatlarini odilona baholash asosida eng munosib hamda qobiliyatlarini davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilishga imkon yaratadi. Qolaversa, davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatiga xolis baho berilishiga hamda xalqning davlat hokimiyatiga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

**Munavvarova Musfira (NavDPI “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi”
kafedrası dotsenti, f.f.n.)**

TURKIY XALQLAR MA'NAVIYATI TARIXIDA O'RXUN-ENASOY YODGORLIKLARINING AHAMIYATI

Аннотация. Мақоллада О'rxun-Enasoy yodgorliklari turkiy xalqlarning ma'naviy ildizlari sifatida tadqiq etilgan. Bitigtoshlar misolida turkiy xalqlarda ijtimoiy fikr qadim ildizlarga ega ekanligi asoslab berilgan.

Аннотация. В статье памятники Орхун-Енисей изучаются как духовные корни тюркских народов. На примере Битигташа доказывается, что общественная мысль имеет древние корни у тюркских народов.

Annotation. In the article, the monuments of Orhun-Enisey are studied as the spiritual roots of Turkic peoples. On the example of Bitigtash, it is proved that social thought has ancient roots in Turkic peoples.

Kalit so'zalar: Vatan, milliy jipslik, erk, umuminsoniy qadriyatlar, mustaqillik, g'oya, ma'naviy ildizlar, or, g'urur, tinchlik, adolat, zulm, ezgulik, haqiqat, bag'rikenglik, tarixiy xotira, farovonlik, bunyodkorlik.

Ключевые слова: Родина, национальное единство, свобода, общечеловеческие ценности, независимость, идея, духовные корни, честь, гордость, мир, справедливость, угнетение, добро, правда, толерантность, историческая память, процветание, творчество.

Key words: Motherland, national cohesion, freedom, universal values, independence, idea, spiritual roots, honor, pride, peace, justice, oppression, goodness, truth, tolerance, historical memory, prosperity, creativity.

Qadimgi turkiy bitigtoshlarning o'rxun yozuvida bizgacha yetib kelgan yirik namunalari «Kultegin bitigtoshi», «Bilgaxoqon bitigtoshi», «To'nyuquq bitigtoshi», «Kulichur bitigtoshi», «Moyunchur bitigtoshi», «Ungin bitigtoshi»dir. Albatta, bu kabi va boshqa bitigtoshlarni o'rganish, to'g'rirog'i, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish amaliy ahamiyatga ega. Biz ma'naviy ildizlarimizni aniqlayotgan bir paytda, tabiiyki, mazkur yodnomalarda bugun ham biz uchun ahamiyatini zarracha yo'qotmagan, ajdodlarimiz uchun eng ardoqli bo'lgan g'oyalarga e'tibor qaratamiz. O'z da'vatlarini toshga o'yib yozayotganlarida bobolarimiz kelajak avlod ularni o'rganishiga, ulardan zarur saboq va xulosalar chiqarib olishlariga jiddiy umid bog'laganlar.

E'tirof etish kerakki, yodnomalar ma'lum shaxslar xotirasiga bag'ishlangan bo'lsa-da, matnlar mualliflari o'z qahramonlarining asosiy fikr va iztiroblarini el, xalq, yurt taqdiri bilan chambarchas bog'liq holda ifodalaganlar.

Yodnomalarning barchasi ota-bobolarning vatanparvarlik xizmatlarini yodga olish odati sifatida quyidagi o'xshash satrlar bilan boshlanadi: «Ota-bobomiz Bo'min xoqon to'rt tarafdin xalqni ushlab turgan, birlashtirgan, tebratib, tinchitib turgan» («Ungin bitigtoshi»).¹ Toshbitiklarning ilk satrlaridayoq, birlik, tinchlik, jipslik kabi tushunchalarning e'tirof etilishi bejiz emas. Ajdodlar dunyoqarashi va davlat tutimida birlik, tinchlik yetakchi ahamiyatga ega bo'lgan. Xuddi shuningdek, mazkur satrlardan ota bobolarimiz qadriyatlarga munosabatda ularni mistiklashtirish kayfiyatidan yiroq bo'lganlarini ham kuzatish mumkin. Ular o'z ota-bobolari shon-shuhratini xalq birligi va tinchligini qay tariqa saqlab turganlari bilan bog'liq holda rasmana baholaganlar. Insonning erk va ozodlik bilan bog'liq qarashlari el, yurt, vatan, millat kabi tushunchalar bilan chuqur bog'lanmas ekan, u jo'n istak doirasida qolib ketishi muqarrar. «To'nyuquq» bitigtoshida ajdodlarimiz erk xususida ta'sirchan va ibratli munosabatlarini ifodalaganlar: «Erkinlik tilagan bilan uning o'zi kelmaydi. Erkinlik tangrining marhamati emas. U xalqning shunday farzandidirki, kurash suronlarida, o'lim mashaqqatlarida tug'iladi, qon bilan yuviladi. U erkinlikni haqiqat deb biladi» («To'nyuquq» bitigtoshi).

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, O'rxun bitigtoshlari yurt xoqonlari sharafiga o'rnatilgan. Yodnomalarda tasvirlangan xoqonlarning asosiy fikr va iztiroblari Vatan va xalq taqdiri bilan chambarchas bog'-

¹ Иктибос Насимхон Рахмоннинг Турк хоқонлиги (Тошкент, “Халқ мероси”, 1993) рисоласи бўйича келтирилмоқда. Кейинги ўринларда ҳам ушбу манба бўйича келтирилади ва қавс ичида битиктош номи кўрсатилади.

lanadi. El tinchligi, birligi, ozodligi, farovonligi yo'lida fidoyilik mamlakat xoqonlarining shaxs sifatidagi qiyofasini ochib beradigan yetakchi ijtimoiy g'oyalardir. Mamlakatning gullab-yashnashi, xalqning jipsligi xoqonning bilim va zakovatiga ham bog'liq. Johillik, bilimsizlik bilan boshqarilgan mamlakat xalqi oxiri qul bo'ladi, o'zligini tamoman unutadi, deb qarashgan ajdodlarimiz. Shuning uchun ham bitigtoshlarda:

- har qanday yovuzlikka barham berish;
- xalqni parokanda bo'lib ketishdan saqlab qolish;
- mamlakatni birlashtirish;
- vatan mustaqilligini qo'ldan bermaslik;
- turk xalqi vatani abadiy bo'lib qolishi uchun kurashda jonni ayamasklik;

– mustaqil mamlakatni adolatli qonun-qoida bilan tutish kabi muhim ijtimoiy g'oyalar aks ettirilgan va avlodlarga vasiyat qilingan. El va «budun» taqdiridan doimiy xavotirda bo'lish bitigtosh qahramonlarining barchasi uchun xosdir. «Turk xalqi yo'q bo'lmasin, xalq bo'lsin» da'vati har bir xoqon tomonidan zikr etiladi. «Mol yilqilik xalqqa xoqon bo'lib o'rnamadim. Ichi oshsiz, tashi kiyimsiz, och-yolong'och xalq uzra o'rnamadim. Inim Kultegin bilan maslahatlashdik: otamiz, amakimiz qozongan xalqning oti, dong'i yo'q bo'lmasin, deb tunlari uxlamadim, kunduzi o'tirmadim. Inim Kultegin ikki shad bilan o'layita muvaffaqiyat qozondim. Shu xilda qozonib birlashgan xalqni o't-suv qilmadim» («Kultegin» bitigtoshi). Ayni paytda mazkur g'oyalar xalqning o'tmishi va bugunini tutashtiruvchi ma'naviy ko'priksifatida namoyon bo'lmoqda.

Qadim yodnomalarning ma'naviy ildizlarimiz bilan bog'lanadigan yana bir muhim jihati ularda insonparvarlik, adolatparvarlik, mustaqillik tushunchalarining chuqur mohiyat kasb etishidir. «Aybdor, nomdor yo'l boshchilarni tangri mening qo'limga berdi. Qora oddiy xalqni yo'q qilmadim, uyini, binolarini, yilqisini tortib olmadim. Siz mening xalqimsiz dedim» («To'nyuquq» bitigtoshi). O'z asirlariga nisbatan ham adolatsizlik qilishdan o'zini tiygan To'nyuquq adolatparvarlik, insonparvarlik namunasi sifatida baholanadi. Mazkur bitigtosh muallifining hikoya qilishicha dushmanlari ham To'nyuquqqa faqat muxolif sifatida qaramaganlar, chunki uning «haqligiga» ishonganlar. O'z davrida bobolarimizning ezgu amallariga, uzoqni ko'zlab mulohaza yuritishlariga ularning muxoliflari ham tan berishgan. Shu kabi jihatlarga ko'ra, bitigtoshlardagi yetakchi fikrlarni milliy tafakkurimiz ma'naviy ildizi sifatida o'rganamiz. O'zligimizni anglashda ularga tayanamiz.

Qadimgi yodnomalarni o'rganar ekanmiz, yana bir muhim masala xususida to'xtalishni joiz topdik. Bu ajdodlarimiz g'oyalarining ta'sirchanligidir. «To'nyuquq bitigtoshi»da keltirilgan «G'am o'z uyingda» maqolini olaylik. Sodda ravon ifodalangan bu maqolda yurt mustaqilligi uchun har bir fuqaroning mas'ulligi nazarda tutilmoqda. Erkinlik tilagan bilan uning o'zi kelmaganidek, mustaqillikni asrab qolish uchun mas'uliyat his etish har bir fuqaroning burchi. Vatan, yurt mustaqilligi boy berilgach, bosqinchilar istagan vaqtida suluv qizlarini cho'ri qilib, bek bo'ladigan o'g'lonlarini qul qilib olib ketaveradilar. Qaram xalqning holi shunday ayanchli bo'ladi. Shunday ahvolda uying g'amga to'lmaydi-mi? Beparvolik, loqaydlik, ma'uliyatsizlikka yo'l qo'yilsa, uying-vataning g'am-u kulfatdan chiqmasligi muqarrar, deb uqdiradilar.

Xullas, bobolarimiz mustaqillik tushunchasini shakllantirishda soxta balandparvozlik, ko'r-ko'rona muta-assiblik kayfiyatidan yiroq bo'lishgan. Shaxs va jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirishda oqilona nuq-tayi nazarga ega bo'lganlar. O'z erkini, el-yurt tinchligi va osoyishtaligini saqlab qolish uchun ichki va tashqi xavf-xatardan ogoh bo'lishga chorlaganlar. Bu munosabatni Vatan mudofaasi bilan bog'liq quyidagi misolda ham kuzatamiz: «Dushmanlarimiz atrofqa qanotini yetkazdi (jangchilarini yubordi). Biz shay edik, shunday turar yashaguchi erk ahli» («To'nyuquq» bitigtoshi). Xavf-xatarni bartaraf etishga shay bo'lish, shay bo'lish uchun esa ahil, jips bo'lish, jasurlik va fidoyilik ko'rsatish g'oyasi bitigtoshlarda qayta-qayta uqdiriladi.

Bitigtoshlardan misol sifatida keltirilgan iqtiboslar bir paytlar kimlardir tomonidan sokin hujralarda xayol surib, shunchaki esdalik uchun yozilgan emas. Parokandalik, viloyat hokimlarining manfaatparastligi, xoqonlikning parchalanishi xalqning orzularini amalga oshirishga yo'l bermas edi. 630-yildan 682-yilgacha Sharqiy turk xoqonligi Tan imperiyasiga qaram bo'lib yashadi. N.Y.Bichurinning yozishicha «Qabilalar o'rtasida muttasil kurash turk xoqonligini holdan toydirdi. Iqtisodiy tanazzulga yuz tuta boshlagan mamlakatda odamlar non o'rniga suyakni qirib iste'mol qila boshlaganlar».¹ Qaramlikning shunday ayanchli saboqlari yagona maqsad tevaragida birlashish va hamjihatlikning, erk va mustaqillikning qancha-

¹ Н.Я.Бичурин. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. М.–Л, 1950, Т.2, 204 с.

lik muhim ekanligini, uni asrash qanchalik zarurligini anglatmasligi mumkin emas edi. Bitigtoshlar shu kabi tarixiy haqiqat mahsuli o'laroq, xalqning xalq, millatning millat sifatidagi ulug' ma'naviy ijtimoiy burchi nimadan iboratligidan saboq beruvchi ma'naviy merosdir. Quyidagi satrlar ham vatan va xalq qaramligining ayanchli oqibatlarini xususida nadomatlar bilan bitilgan: «Ey, turk xalqi, turk-o'g'uz beklari eshiting! Tepadan osmon bosmagan bo'lsa, ey turk xalqi, davlatingni, hukumatini kim buzdi? O'kun ko'rguliging uchun, tarbiya qilgan dono xoqoniga, yemirilgan, qo'ldan ketgan ezgu davlatinga. O'zing adashding, oraga yomonlik kirgizding. Qurolli qaydan kelib tarqatib yubordi, nayzali qaydan kelib surib ketdi? Muqaddas O'tukan yishga bording, g'arbga borguncha bording. Borgan yerda yaxshilik shu bo'lsa kerak: qoning suvday oqdi, suyaging tog'day uyulib yotdi, bek bo'ladigan o'g'il bolang qul bo'ldi, suluv qiz bolang cho'ri bo'ldi» («Kultegin» bitigtoshi).

Demak, Vatani qaram inson va xalq nihoyasiz xo'rlik va xaqoratlarga mahkumdur. Shuning uchun ham bobolarimiz erk va mustaqillikni jondan afzal bilib, bu kabi musibatlardan o'z avlodlarini ogoh etib, qalb da'vatlarini toshlarda bitib qoldirganlar. Erk va mustaqillik da'vati shunchaki esdalik uchun bitilganidek, u shunchaki loqayd o'qilmaydi. Bobolarimiz topib ta'kidlaganlaridek, mustaqillik va ozodlik biz uchun ham haqiqat yo'lidir, bu yo'lning boshida ota-bobolarimizning saboq va da'vatlari bor, bir uchida esa biz turibmiz.

Xulosa qiladigan bo'lsak, yodnomalarning deyarli har bir satrida vatanparvar bobolarimizning ijtimoiy tajribasi, hayot saboqlari, avlodlarga o'g'itlari, da'vatlari aks etgan. Ularda mardlik va fidoyilik, do'stlik, muhabbat va sadoqat, haqiqat va adolat, har qanday holatda ham burchiga, imon-e'tiqodiga, Vatanga xiyonat qilmaslik, kuchsizlarni himoya qilish, o'z qavmi, xalqi manfaatlarini, xavfsizligi va tinchligi, jipsligi va yuksalishi uchun xizmat qilish, zarur bo'lsa, zahmat chekib, jonini ham ayamalik g'oyalari olg'a suriladi-ki, ushbu saboqlar turkiy xalqlar ma'naviyati ildizlari qanchalik baquvvat ekanligiga munosib dalillardir.

**Nurjonov Oybek (Berdaq nomidagi QQDU "O'zbek tilshunosligi" kafedrasida dotsenti v.b.)
SOHALARARO XOSLANGAN ETNOGRAFIK NOMLARNING SEMANTIK QAMROVI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalari tarkibidagi etnografizmlarning sohalararo bog'liqligi, rang-barangligi, etimologik-semantik tabiati, derivativ asoslari nuqtayi nazaridan o'rganish borasida bayon qilingan. Xususan, kasb-hunar bilan bog'liq marosim nomlari, turli xil bazm va bayramlarni ifodalovchi atamalar, marosim nomlari bilan bog'liq xalq iboralari va maqollari, irim-sirimlar asosida o'tkaziladigan marosim nomlari, eskirgan, ya'ni tarixiy nomlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Аннотация. В статье описывается межотраслевая взаимозависимость, разнообразие, этимологическая и семантическая природа узбекских диалектов в Каракалпакстане с точки зрения их производных основ. В частности, особое внимание уделяется названиям церемоний, связанных с профессией, терминам, используемым для описания различных торжеств и праздников, народным поговоркам и пословицам, связанным с названиями церемоний, церемониальным названиям, основанным на мифах, устаревшим, т.е. историческим названиям.

Annotation. This article describes the inter-sectoral interdependence, diversity, etymological and semantic nature of the Uzbek dialects in Karakalpakstan in terms of their derivative bases. In particular, special attention is paid to the names of ceremonies associated with the profession, the terms used to describe various celebrations and holidays, folk sayings and proverbs associated with the names of ceremonies, ceremonial names based on myths, obsolete, ie historical names.

Калит so'zlar: lison, leksika, sheva, semantik, elat, marosim, dialekt, etnik, arxaizm, etimologiya.

Ключевые слова: язык, лексика, диалект, семантика, этничность, ритуал, диалект, этничность, архаизм, этимология.

Key words: language, vocabulary, dialect, semantics, ethnicity, ritual, dialect, ethnicity, archaism, etymology.

Quyida Amudaryo vohasida yashovchi xalqlarning tarixi, madaniyati, tili, urf-odatlarini, san'ati va amaliy san'ati ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shuning uchun ham mana shu yuqorida sanab o'tilgan xalq turmushining qirralari ilmiy va amaliy jihatdan chuqur o'rganishni talab etadi. Buning asosiy sababi bu mintaqada aholisining etnografik xususiyatining o'zgachaligidir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bu yerda mavjud shevalar boshqa o'zbek xalq shevalaridan tubdan farq qiladi. Qadimdan hozirgacha qadar olimlar bu vohaning etnotarixiy va lisoniy xususiyatlariga alohida e'tibor berib kelganlar. Hudud shevalarini alohi-

da semantik guruhlarga ajratib o'rganish, etnografik leksikasi qamrovini, ularning keyingi tarixiy jarayonda o'zgarishlarini aniqlash tadqiqotchilar uchun keng imkoniyatlarni ochib berdi.

Barchamizga ma'lumki, Qoraqalpog'iston o'zbeklari hududda turkiy xalqlar – qoraqalpoq, qozoq, turkman xalqlari vakillari bilan yondash yashaydi. Bu esa mazkur hududdagi tiliga turkiy elat va xalqlar tillarining ta'siri katta bo'lishiga olib keladi. Shuningdek, tarixiy manbalarda etnik nomlarni anglatuvchi so'zlar uchraydi. Mazkur so'zlarning ba'zilar o'zbek tilida saqlanib qolgan bo'lsa, boshqa birlari qoraqalpoq, qozoq, turkman tillarida saqlanib qolgan bo'lishi mumkin. Bu holat esa mazkur tillar materiallari va ularning ta'siri vositasida til tarixidagi eng qadimgi leksemalarni o'rganishga yordam beradi. Bu, bir tomondan, o'zbek tili lug'at tarkibining unitilayozgan til elementlarini, til tarixidagi noaniq leksik-grammatik hodisalarni o'rganish imkonini beradi.¹Quyida biz xalq shevalarida keng qo'llaniladigan marosim nomlari, ularga bog'liq xalq maqollari va iboralar, irim-sirimga oid atamalar, eskirgan, tarixiy nomlar borasida alohida to'xtalib o'tmoqchimiz.

1. Kasb-hunar bilan bog'liq marosim nomlari. Kasb-hunar bilan bog'liq marosim nomlari ham shevalarda keng uchraydi. Qaysi kasb egasi bo'lmasin, qandaydir niyatda shu kasbni e'zozlab, nimadir qiladi. Masalan, dehqonchilik kasbi bilan shug'ullanuvchi shaxslar **акишә чүштә, хасыл тойы/хирман тойы, долды палав** kabi marosimlarni o'tkazish bilan o'z tilidagi marosim leksikasi tarkibiga anchagina dialektizmlarni kiritadi. Bundan tashqari, keyingi davrlarda davlatimiz tomonidan belgilangan kasb bayramlari ham shu kasb egalari orasida marosim sifatida shakllanib, adabiy dialektal xarakterdagi marosim nomlarining shakllanishiga zamin yaratdi.

2. Turli xil bazm va bayramlarni ifodalovchi atamalar. Bunday dialektizmlar ham shevalar leksikasi tarkibida mavjud bo'lib, yerli aholi shevasida mustahkam o'mashib qolgan. **Зийәпәт** – ziyofat, qarluq shevalari leksikasida **гән** deb yuritiladi. Navro'z, hayit, yangi yil, mustaqillik bayramlari ham xalq shevalari leksikasida keng qo'llanilib, ularga alohida tayyorgarlik ko'rib, keng miqyosda o'tkaziladi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, ijtimoiy-siyosiy muhitning ta'sirida paydo bo'lgan 1-may, 7-noyabr, 5-dekabr kabi o'sha davr talabiga mos bayram sifatida o'tkaziluvchi marosimlar xalq shevalari leksikasidan batamom o'chib, tarixiy leksik birliklar guruhiga o'tib qoldi.

3. Marosim nomlari bilan bog'liq xalq iboralari va maqollari. Shevalar leksikasi juda rang-barang va boy bo'lib, turli xil marosimlarni ifodalovchi so'zlarni o'z ichiga oladi. So'z ustalari, gapga chechan kishilar – xalq notiqolari tomonidan turli xil marosim ifodalovchi so'zlar, iboralar va xalq maqollari tarkibida ham uchraydi. Masalan, **тойа борсаң, той доңыңны гийип бар** – to'yga borsang, to'yib bor ma'nosida. **Нәпси йаман әйтәдә өләр** – баднафс odamga nisbatan ishlatiladi. **Азаға барған өз дәрдәни айтәп йеғлар** – motam marosimini bildiruvchi ibora, **айтилмаған йера барынча, базара бар** – aytilmagan yerga borma ma'nosida, **садақадан сатын ал** – sadaqa borish shartligi ma'nosida, **Тойдан кейин хи:нани кейниңә йап** – to'ydan keyin to'y uchun qilinadigan ish befoyda ekanligi ma'nosida, **тойдан әлдин сыннай чәртма** – to'ydan oldin behuda to'y haqida gapirma ma'nosida, **итән болған қурванлықа йарамас** – nasl-nasabi betayin, tarbiyasiz odamga nisbatan ishlatiladi. Bu iboralarda to'y, sadaqa, sifatdosh bilan turdosh otning birikuvidan paydo bo'lgan aytilmagan ner, aza, eyit, qurvanliq kabi so'z va so'z birikmalari bevosita marosim nomini ifodalab kelgan.

4. Irim-sirimlar asosida o'tkaziladigan marosim nomlari. Insoniyat ibtidosidan boshlab to hozirgi kungacha nimaningdir yechimini topa olmasa yoki shu narsa oldida o'zining ojizligini sezsa, albatta, unda turli xil irim-sirimlarga nisbatan mayl paydo bo'ladi. O'zi o'yab topgan irimlardan o'zi taskin topadi. Bu holatni shevalar leksikasida ham ko'rish mumkin: qurbonlik qilish, iftorlik berish, sadaqa berish, nazr qilish kabilar bevosita irim-sirimlarga asoslangan marosimlardir. Qadimdan hozirgacha yetib kelgan **дәрвишана, дөрт йолны бәндиргасында борсақ пишырыш** kabilar ham ana shular jumlasidandir. **И:с чықарыш** marosimi haqida A.Beruniy o'zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida ham aytib o'tgan. Beruniyning guvohlik berishicha, bu odat qadimgi xorazimliklardan qolgan bo'lib, to bizning hozirgi kunimizgacha iste'moldadir.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, etnografizmlar hudud shevalari tarkibida salmoqli o'rin egallaydi. Et-nik leksikasiga oid so'zlar inson hayotining deyarli hamma davriga oid leksemalardan tashkil topgan. Ularning ko'pchiligi hozirgi paytda leksik arxaizmlar guruhiga kiradi.

Marosim leksikasi, ko'pincha, o'zida davr ruhini aks ettiradi. Shuning uchun ham bu leksikaga kiruvchi so'zlar guruhi tarkibida o'zining sintaktik xususiyatiga ko'ra, neologizmlik xususiyatini ko'rsatuvchi leksik birliklar uchraydi.

¹ Abdullayev F. Xorazm shevalari. Toshkent, 1961.

Etnografizmlar keng tadqiq qilinmaganligi sababli alohida obyekt vazifasini bajarishga zarurat sezadi. Bu leksik qatlamga oid soʻzlar inson hayotining barcha davrlaridan tashqari, uning kasb-hunari, madaniy-maishiy turmush tarzi bilan ham aloqador. Baʼzi oʻrinlarda marosim leksikasida ijtimoiy-siyosiy buhronlar taʼsiri koʻzga tashlanadi. Etnik ruhni ifodalovchi leksika tarkibiga marosimni oʻtkazuvchi yoki boshqaruvchi shaxslar nomini ham shartli ravishda kiritish lozim. Bular sirasiga **пейкал, бакавул, тойвашь, катхуда, элатком, шўра, куда, молла, халпа** kabi alohida vazifa bajaruvchilarni kiritish mumkin. **Пейкал** – toʻy, maʼrakaga aytuvchi shaxs, **бакавул** – bevosita toʻyning maʼlum bir tomoniga javob beruvchi shaxs, **тойвашь** – toʻyni boshqaruvchi shaxs, **катхуда** – toʻy va maʼrakalarda maslahat beruvchi va ish buyuruvchi shaxs, **элатком** – mahalla faollarining boshligʻi yoki aʼzosi, **шўра** – fuqarolar yigʻini raisi, **куда** – nikoh toʻylarida oldi-berdining oʻrtasida turib, boshqaruvchi shaxs, **мулла** – toʻy, maʼrakalarda fo-tiha oʻquvchi diniy ulamo, **халпа** – motam marosimlarida ayollarga pand-nasihah qiluvchi ayol.

Bu nomlarni etnografik-leksik xususiyatiga koʻra, etnografik dialektizmlar guruhiga ham kiritish mumkin.

Marosim nomlari leksikasini tarixiy-sinxronik belgilariga koʻra, quyidagi guruhlarga ham ajratish mumkin:

1. Turgʻun, yaʼni tarixiy-anʼanaviy nomlar. Tarixiy-anʼanaviy nomlarni ifodalovchi leksika tarkibiga qadimdan shakllanib, toʻhozirgi kungacha shevalar leksikasida faol istifoda etilib kelayotgan birliklar mansub: **той** – biror xursandchilik sababli oʻtkaziladigan marosim nomi, **аза** – biror kishining vafoti munosabati bilan oʻtkaziladigan marosim nomi, **бешьк той** – insonning yoshi bilan bogʻliq toʻy marosimi nomi, **Наврўз** – umumxalq sayli nomi, **ис чиқарыш** – ins-jinlarni quvish uchun oʻtkaziladigan marosim.

5. Eskirgan, yaʼni tarixiy nomlar. **Қурванлык** – qurbon hayiti kunlarida jonlik soʻyib oʻtkaziladigan marosim. Bu marosim hozirgi kungacha faol isteʼmolda boʻlib, ayni paytda kam qoʻllanib, nofaol leksika tarkibiga oʻtib qolgan. **Пейшанбалик** – hozirgi paytda bu marosim ham nofaol leksika guruhiga kiradi. Lekin ayrim hududlarda hozir ham har haftaning payshanba kuni oʻtkaziladi.

6. Zamonaviy nomlar. Bular tarkibiga insonning ijtimoiy-siyosiy va maʼnaviy hayotida yuz bergan tarixiy voqealar natijasida paydo boʻlgan tadbirlarni ifodalovchi leksik birliklar kiradi: *Mustaqillik bayrami*, **хирман тойы, долды палав, акишя чўштъ, лай койдь** kabi. Bu nomlar shevalar leksikasida neologizm sifatida keyingi paytlarda paydo boʻlgan hodisalardir.

Umuman, marosim leksikasi maʼlum bir maʼnoda etnografik leksika bilan chambarchas bogʻliq boʻlsa-da, obyekt jihatdan undan doirasi tordir. Etnografik leksika qay darajada boshqa sohalar bilan bogʻliq boʻlsa, marosim leksikasi ham maʼlum maʼnoda shu sohalarga aloqador boʻladi.

Xorazmda imorat qurilishi bilan bogʻliq soʻzlar tarkibida ancha miqdorda etnografik dialektizmlar uchraydi. Shu oʻrinda, professor S.P.Tolstov yozadi: "...devorni zaxdan saqlab qolish uchun qamishdan unumli foydalanilgan boʻlib, Jetiosor xarobalari va VII–XVIII asrlarga mansub Jonchiqqalʼa materiallari bu usulning binokorlikda qadimdan mavjudligini toʻla tasdiqlaydi [2.140].

Xorazm vohasida imorat qurilishini boshlashdan oldin qoʻni-qoʻshni, qarindosh-urugʻlar hasharga aytilib, bu odat marosim sifatida alohida taom pishirilib nishonlanadi, xalq shevalarida u **жайнўмак** deb yuritiladi. Paxsa devorning maʼlum qismi bitgan kuni yana kichik marosim uyushtirilib, shevalar leksikasida **qor bitti** deb nomlanadi. Imorat maʼlum balandlikka yetgan kuni yogʻochdan deraza va eshiklar tepasiga ustun qoʻyilishi munosabati bilan kichik marosim oʻtkaziladi va xalq tilida **чархавик койдь** deb ataladi. Xalqning koʻpgina marosimlari haqida Abu Rayhon Beruniy ham ancha-muncha maʼlumotlarni yozib qoldirgan. Beruniyning yozishicha, xorazimliklar hayit kunlarida bugʻlanadigan hamda tutatiladigan dorilar ishlatadilar, jinlar va arvohlarni daf etish uchun is chiqarib, ovqatlar pishiradilar [3.281]. Bu odat hozir ham saqlangan boʻlib, hayit marosimi kunlaridan boshqa, yaʼni, yangi uyga koʻchib oʻtishda ham qoʻni-qoʻshnilarni chaqirib, ijro qilinadi, pishirilgan taom, yaʼni boʻgʻirsoq boshqa qoʻshnilarga tarqatiladi. Xalq shevalarida bu marosim **ис чиқариш, ис чықардь** deb yuritiladi.

Umuman, Qoraqalpogʻistondagi oʻzbek shevalari tarkibidagi etnografizmlar oʻzining sohalararo bogʻliqligi, rang-barangligi, etimologik-semantik tabiati, derivativ asoslari nuqtayi nazaridan maxsus oʻrganishni talab etadi. Bu hol xalq tarixi va etnografiyasi uchun ham qimmatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev F. Xorazm shevalari. Toshkent, 1961.
2. Абу Райхон Беруни. Избранные произведения. Т. III, Ташкент, 1972, с. 95.
3. Beruniy A. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. T., "Fan", 1968, 281-bet.
4. Ishayev A. Qoraqalpogʻistondagi oʻzbek shevalari. T., "Fan", 1977.

5. O.Madrahimov. O'zbek tilining o'g'uz lahjasi leksikasi. T., 1973.
6. Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. T., "Fan", 1964.
7. Фрейман А.А. Хорезмский язык. М., 1950.

**Saparbayeva Gulandam Masharipovna (UrDU "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasida dotsenti,
filoogiya fanlari bo'yicha falsafa doktori),
Ortiqbayeva Sabohat Qudratovna (UrDU Xorijiy til va adabiyot ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi)
OG'ZAKI MULOQOT AKTI LEKSIK SIFAT ASPEKTINI TA'MINLOVCHI TAMOYILLAR,
MA'NO MUNOSABATLARI VA TIL BIRLIKLARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqola leksik sifatini ta'minlovchi aniqlik, ravonlik, o'zaro munosabat, bog'liqlik tamoyilining og'zaki muloqot aktining yaralishi va ifodasidagi ahamiyati muhokamaga tortilgan. Og'zaki muloqot nutqiy faoliyatining leksik o'ziga xos jihatlari borasidagi tadqiqotlar o'rganilgan. Shuningdek, semantik ma'no munosabatlarining muloqot jarayonidagi ifoda imkoniyatlari va muloqot tadqiqotida e'tibor berilishi zarur bo'lgan masalalar muhokamaga tortilgan.*

***Аннотация.** В данной статье рассматривается значение принципов ясности, беглости, взаимосвязи и зависимости, обеспечивающих качество словарного запаса, в создании и выражении акта устного общения. Изучены исследования лексических особенностей речевой деятельности устного общения. Также обсуждаются возможности выражения семантических смыслов отношения в процессе общения и вопросов, на которые необходимо обратить внимание при коммуникативных языковых исследованиях.*

***Annotation.** This article discusses the importance of the principle of clarity, fluency, interrelationship, and dependence, which ensure the quality of vocabulary, in the creation and expression of the oral communication act. Researches on lexical specific aspects of speech activity of oral communication have been studied. Also, the possibilities of expression of semantic meaning relations in the process of communication and the issues that need to be paid attention to in communicative language research, are discussed.*

***Kalit so'zlar:** tamoyil, semantik munosabat, muloqot, strategiya, nutq, akt.*

***Ключевые слова:** принцип, семантическая связь, коммуникация, стратегия, речь, акт.*

***Key words:** principle, semantic relationship, communication, strategy, speech, act.*

Insonlar kundalik ijtimoiy hayotda o'zaro muloqotda foydalanadigan til, nafaqat tovush va ovozdan iborat, balki vaziyatga bog'liq holda muloqot mavzusini shakllantirib, nutq faoliyatida xabar almashadilar, ma'lumot beradi, ogohlantiradi, so'raydi yoki o'z fikr-mulohazalari, xayollari, hissiy kechinmalarini bayon qiladi. Og'zaki muloqotda so'zlovchi savol yoki biron xabar bilan murojaat qilgan ekan, o'z navbatida, tinglovchidan bunga javob yoki taklif kutadi, so'raydi, talab qiladi va hokazo. Shu kungacha tilshunoslikda amalga oshirilgan tadqiqotlar yozma nutq matni va uning leksik-grammatik xususiyatlari, tamoyil va strategiyalari haqida yetarlicha ma'lumot bergan. Ammo insonlar o'z hayotida yozma nutqdan ko'ra og'zaki nutqdan ko'proq foydalanadilar. Shunday ekan, og'zaki nutq matni va aktining struktural va strategik jihatdan tashkil topishi borasida bilimlarga ega bo'lish ham muhim sanaladi. Barcha tillarda o'zaro muloqotdagi og'zaki nutq faoliyati tadqiqi deyarli bir xilda izohlanishi mumkin. Og'zaki muloqot nutqiy faoliyatining leksik o'ziga xos jihatlari borasidagi tadqiqotlar, avvalambor, ingliz tilshunosi R.Kuerk va G.Svartvik tomonidan amalga oshirilgan. Ular e'tibor bergan jihatlar, asosan, so'zlarning fonetik tahlili bo'lib, og'zaki nutqning fonologik jihatlarini ochib berishga katta hissa qo'shgan. Ushbu tilshunoslar o'z tadqiqotlarini diskurs tilshunosligi doirasida amalga oshirgan va so'z ma'nosining og'zaki muloqot aktida urg'u ta'sirida o'zgarish turlarini izohlab bergan.

Og'zaki muloqot akti inson ijtimoiy munosabatining bir ko'rinishi bo'lib, bunda muloqot ishtirokchilari nutq ketma-ketligi va o'zaro hamfikrlik yoki hamkorlik asosida suhbat quradilar. Nutq akti muayyan mazmun va leksik-grammatik uyg'unlik hosil qiladi. Shu o'rinda og'zaki muloqotda nutq aktining leksik jihatlari deganda nimalar nazarga olinishi borasidagi fikrlarga izoh berish o'rinlidir.

Tadqiqotning birinchi bobida har bir og'zaki muloqot akti tiplarini belgilovchi so'zlar, so'z birikmalari va leksik munosabatning struktur jihatlariga ta'rif berildi. Shuni ta'kidlash o'rinliki, muloqot akti hosil bo'lishi uchun so'zlar, so'z birikmalari va jumlar, nafaqat grammatik, balki leksik jihatdan ham og'zaki muloqot aktiga fonetik, leksik va grammatik jihatdan moslashishi kerak. Ko'pchilik qo'llanmalarda takror-takror aytilganidek, og'zaki muloqotda foydalaniladigan so'zlar ko'lami yozma nutqdagi leksik birliklarga nisbatan erkinroq, kengroq va stilistik jihatdan ta'sirliroq sanaladi. Shuningdek, og'zaki muloqot aktida de-

yarli barcha ijtimoiy qatlamga mansub leksik birliklarni uchratish mumkin. Hozirgi kunda tilning foydalani-sh sohasiga qarab tilshunoslik doirasida tadqiqotlar olib borish, tilni sotsiologik qatlam nuqtayi nazaridan tahlil qilish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Bunga misol qilib tilni dialektologik, etimologik, sotsial, psixolingvistik, pragmatik jihatdan tahlil qilgan ilmiy tadqiqotlarni sanab o'tish mumkin.

Og'zaki muloqot akti tiplarining leksik jihatlari, xususan, ya'ni, uni yozma nutqdan ajratib turuvchi belgilar borasidagi fikrlar bayoni haqida diskurs tilshunosligida ko'plab nazariyalar mavjud. Ushbu nazariyalarga asoslanib, zamonaviy kommunikativ lingvistikada "og'zaki muloqot matni"ga nisbatan "og'zaki diskurs", uning o'ziga xos leksik birliklariga nisbatan "diskurs belgi" terminini qo'llashni taklif qilamiz. Og'zaki diskurs, o'z navbatida, suhbat, muloqot, majlis, muhokama, taqdimot, internet muloqotlar, ommaviy nutq, tele va videokonferensiya, intervyu kabi turlarga ajratilgan. Shu o'rinda, og'zaki muloqot aktining kvalitatif, ya'ni, sifat aspektini tashkil qiluvchi tamoyillar va tarkibiy qismlari haqida ma'lumot berish ushbu tadqiqot ishining vazifalaridan biridir. Og'zaki muloqot aktining leksik sifatini ta'minlovchi tarkib, aniqlik, ravonlik, o'zaro munosabat, bog'liqlik tamoyillari mavjudligini ta'kidlash kerak.

Og'zaki muloqot aktining tarkib tamoyili muloqot jarayonida leksik birliklarning aniq, o'ziga xos ma'no ottenkalarini yetkazish, ayrim so'z yoki jumlagacha alohida urg'u berish, uni boshqa o'xshash so'zdan farqlash va muloqot aktidagi tushunmovchilikni bartaraf qilish uchun eng maqbul variantni taqdim qilish, idiomatik iboralar va muloqot mavzusi, maqsadi, makoni, subyekt, obyekt va uslubiga xos so'zlarni tahlil qilish, shuningdek, jumla va matnda tartibli joylashtirilishini ta'minlaydi.¹

Og'zaki muloqot aktining aniqlik tamoyili suhbatdoshlar muloqotidagi murakkab tilning grammatik nazoratini ta'minlashdan iborat bo'lib, so'zlovchining diqqati tinglovchining reaksiyasiga hamda u fikrini bildirgandan keyin beradigan javobini oldindan rejalashtirayotgan bo'lishi ham inobatga olinadi. Ushbu tamoyil til va tafakkur uyg'unligiga asoslanib, bunda so'zlovchi o'z nutqiy faoliyati natijasida tinglovchi javobi presuppozitsiyasini amalga oshiradi. Natijada muloqot akti aniq ketma-ketlik sharoitida amalga oshiriladi.

Og'zaki muloqot aktining ravonlik tamoyili so'zlovchining tabiiy ravishda so'zlashuv oqimi bilan hamohang ravishda o'z fikrini nutq faoliyatida erkin, ravon ifodalash, shunchaki muloqot jarayonida yuzaga keladigan tasodifiy to'siqlardan chekinmasdan, ortiqcha ikkilanish yoki to'xtamlarsiz fikr ifodasini ta'minlaydi. Og'zaki muloqot aktida o'zaro munosabat tamoyili verbal yoki noverbal, shuningdek, intonatsion usullardan, o'zaro ta'sir usullaridan oson va mahorat bilan foydalangan holda, to'liq tabiiy fikr almashinish, havola qilish, alluziya qilish va boshqalar bilan o'zaro muloqotda o'z fikrini aytish hamda muloqotda suhbatdoshni qo'llab-quvvatlash yoki unga javob berishda axloq normalariga rioya qilishni ta'minlaydi.

Og'zaki muloqot aktining bog'liqlik tamoyili nutqiy faoliyatning turli tashkiliy birliklari va turli xil bog'lamalar, boshqa hamkor moslamalardan to'liq va maqsadli foydalangan holda muloqot uchun izchil va tushunarli akt yaratilishini ta'minlaydi. Bunda so'zlovchi jumlasini muloqot mavzusi, mazmuni, murojaat shakliga hamda oldingi aytilgan fikrlarining davomi yoki isboti sifatida ifoda qilinadi. Bog'liqlik tamoyili asosida muayyan muloqot akti uzviy mazmuniy davomiylikka erishadi.

Ushbu tamoyillar muloqot aktining sifat belgisini ta'minlovchi omillar bo'lib, ular muloqotdagi nutqni boshqaradi. Og'zaki muloqot aktida so'zlarning o'zaro leksik munosabatlari haqida umumiy leksikologiyada ko'plab ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, bunda, asosan, nutq faoliyati jarayonida qo'llaniladigan leksik-semantik birliklar deb qaralgan.

Og'zaki muloqot akti leksik birliklarining ma'no munosabatlari, ya'ni, so'zlarning sinonim, antonim, giponim, presuppozitsiya va leksik tagma'no borasidagi bir qancha fikrlarni inobatga olish zarur bo'ladi.

Og'zaki muloqot aktining sotsiolingvistik masalalari sifatida tilning suhbatdagi tahlili, til va gender masalalari, noverbal muloqot birliklari tadqiq qilingan. Ammo aynan og'zaki muloqot tiliga xos bo'lgan so'zlar, so'z birikmalari, iboralar va so'zlashuv uslubiga xos so'zlar, sleng va idiomalar, taqdimot nutqi kirish qismida, notiqqa so'z navbati berilganda, fikrni jamlash uchun vaqtdan foydalanganda qo'llaniladigan maxsus so'z birikmalari va jumlar, tinglovchining diqqatini bo'lmasdan ekvivalentlardan samarali foydalanish, muloqot aktida sinonim, antonim, omonim va boshqa leksik-semantik munosabatlarning ifodalani-shi, mavzuga oid so'zlar, turg'un birikmalar, dialekt va sohaga oid til ko'rinishlari hamda soha tilidagi o'zgarishlar, qisqartmalar, birikmalarining leksik tahlili, professional va akademik terminologiya masalalari og'zaki muloqot tilining asosiy masalalari sanaladi. Shu bilan birga, muloqot strategiyalari, xususan, lu-

¹ Сапарбаева Г.М. Оғзаки мулоқот акти ва унинг лексик-грамматик хусусиятлари. Док. диссерт., Урганч, УрДУ ноширлик бўлими, 2021, 63 – 64-бетлар.

gʻatlar va elektron maʼlumot resurslari, bir tili va koʻp tili lugʻatlar, elektron va onlayn lugʻatlar hamda soʻzlashgichlar, kontekstdan maʼnoni anglash, suhbatni maqsadga yoʻnaltirish yoki bogʻlash, shuningdek, mnemonika (xotirani yaxshilash va rivojlantirish tizimi) tahlili ogʻzaki muloqotdagi til xususiyati borasidagi bilimlarni kengaytiradi.

**Jumaniyozov Atabay Jumaniyozovich (Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti “Roman-german filologiyasi” kafedrası professori),
Allaberganova Furuza Ibraximovna (Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti “Roman-german filologiyasi” kafedrası tayanch doktoranti)**

SOʻZ BIRIKMALARINING QOʻSHMA SOʻZLARGA AYLANISH TENDENSIYALARI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada oʻzbek tilida soʻz birikmalari va qoʻshma soʻzlar tabiati va mohiyati haqida fikr mulohazalar keltirilib oʻtiladi. Birikma atamasi kengroq tahlil qilinadi. Oʻzbek tilida soʻz boʻyish tendensiyalari koʻrsatib beriladi.*

***Аннотация.** В данной статье рассматривается природа и сущность словосочетаний и сложных слов в узбекском языке. Термин словосочетание более широко анализируется. Показаны тенденции обогащения слов в узбекском языке.*

***Annotation.** This article analyses about thoughts and discussions of the nature of word combinations and compound words in the Uzbek language. The term “combination” analyzed widely and deeply. It shows the tendency of enriching new words in the Uzbek language.*

***Kalit soʻzlar:** soʻz birikmasi, qoʻshma soʻz, til birligi, taʼrif.*

***Ключевые слова:** словосочетания, сложные слова, лингвистическая единица, определение.*

***Key words:** word combination, compound word, linguistic unit, definition.*

Ushbu maqolada milliy tilimizdagi soʻz birikmalari va qoʻshma soʻzlarning oʻrganilishi va taʼrifi haqida ayrim (shaxsiy va bahsli) fikr-mulohazalar bildiriladi.

Bilamizki, oʻzbek tilida soʻz birikmalari va qoʻshma soʻzlar keng va har taraflama oʻrganilgan. Biroq mazkur masalaning oʻrganilishiga tanqidiyroq yondashiladigan boʻlinsa, ularning nomlanishi, taʼrifi, oʻzaro bogʻliqligi borasidagi maʼlumotlarda ayrim eʼtirozli holatlar, hossatan va mantiqan qusurli fikrlar bildirilayotganligi kuzatiladi. Chunonchi, birikmagan til birliklarining – *birikma* deb nomlanishi, qoʻshma soʻzlarga esa ular ham ajratib ham qoʻshilib yoziladi, deb taʼrif berilishi muayyan maʼnoda bildirilgan fikr-mulohazalarning masalaga xosligi yoki fikrning mantiqligini anglatmaydi.

Fikrimizni aniqroq bildirish uchun, dastavval, soʻz birikmalari tahliliga toʻxtalamiz. Buning uchun birikma soʻzini uchta: a) “bir” oʻzak morfema; b) “-ik” infiksial morfema; d) “-ma” postfiksial morfemalarga boʻlamiz. Tabiiyki, har bir morfemani oʻz mustaqil maʼnosi bor. “Bir” yakka yagonalikni bildirsa, “-ik” morfemasi ikkinchi bir yagona narsani inobatda turgan narsaga kelib qoʻshilishga chorlovchi, ikki yagona narsani oʻzaro birikishiga undash maʼnosini yuklaydi. “-Ma” morfemasi “bir” va “-ik” morfemalari orqali chorlanilgan yoxud undalgan faoliyatni allaqachon tasdiqlanilganini mantiqan bildiradi. Nainki “bir” (yagona) boʻlishlik yoxud boʻlganlik maʼnan (ruhan) qayta-qayta taʼkidlaniladi. Biroq “soʻz birikmasi” deb atalgan til birligiga moddiy va maʼnan hamda amalda qaraladigan boʻlsa, birikma tarkibidagi soʻzlar “birikmaganligi” koʻramiz, imlo va talaffuzda birikma komponentlarining alohida aytilishi yoki yozilishini guvohi boʻlamiz. Demak, tilshunoslikda “soʻz birikmasi” atamasi ostida na imlo, na talaffuz va na maʼno jihatdan birikmagan ikki yoki undan ortiq soʻz tushuniladi, atamaning fiktiv ekanligi koʻrinib qoladi. Xoʻp boʻlmasa nima uchun tildagi bu (fenomenal) hodisa “birikma” deb ataladi? Hayotda (tilda ham) hech bir narsaga beizm nom berilmaydi-ku! Quyida qilingan “izm” sababini axtarib koʻrishga harakat qilamiz. Sabab tahlili uchun umumiy asnoda “qizil olma” soʻz birikmasini tanlaymiz va mazkur birikma orqali ishora qili-nayotgan “qizil olma”ni koʻz oldimizga keltiramiz yoki bevosita qoʻlimizga olamiz.

Koʻramizki, narsa sifatini bildirayotgan *qizil* rang ham, narsaning oʻzi *olma* ham yakka, yagona meva sifatida mujassamlashib, alohida, tanho bir narsa hosil qilgan yagona narsa sifatida turibdi. Qizil (rang)ni va olma(meva)ni mavjudligini mushohada qilamiz va har biriga alohida eʼtibor beramiz. Koʻramizki, narsaning rangi (qizil), mazmuni esa olma (meva). Lekin har ikkalasi ham yagona narsada aks etayapti. Ularning birikuvi shu darajada mukammal amalga oshganki, ularni bir-biridan (qizilni olmadan, olmani qizildan) ajratib boʻlmaydi. Oʻzaro bogʻliqlik, daxldorlik, birikkanlik moddiy va maʼnan va amalan mushtaraklashib ketgan, natijada bir (yaxlit) narsa koʻrinishida mujassamlilik mavjud. Yoxud ikki (soʻz birikmasi) yonmayon kelib, aynan bir narsani atayapti, bir narsani koʻrsatayapti va bir narsa haqida maʼlumot beryapti. Shu maʼnoda “qizil olma” birikmasini kashf qilgan va qalban his qilgan xalqimiz, rang va meva turini aynan bir

narsada namoyon bo'layotganligini sezib, ularni tabiatan ajratib bo'lmashligini tarjibada ko'rib turgan bo'lsa-da, ularning til ifodasida ikki so'z (qizil va olma) qatnashishi sababli har birini alohida-alohida, biriktirmay yozilishini zarur deb topgan bo'lsa, ajab emas. Narsa (olma)ning nomlanishda asosiy diqqat-e'tibor so'zlarning ajratib yoki qo'shib yozilishiga emas, balki so'zlar orqali anglashilayotgan ma'no, axborot va ma'lumot pirovard natijada bir (birikkan narsaga) qaratilganiga guvoh bo'lamiz. Lo'nda qilib aytganda, birikma tarkibidagi so'zlar ikki, ular orqali ishora qilinayotgan narsa yoki hodisa esa bir. E'tiborlisi shundaki, birikma komponentlari ajralib yozilsada ular orqali anglashilayotgan narsani tabiatan va mohiyatan ajratib bo'lmaydi. So'zlar o'zlarining nomlash, ko'rsatish va ma'no xususiyatlari jihatidan bir-birisi ichiga jipslashib, singib ketishgan bo'ladi, mutlaq yaxlit narsa ifodasiga aylanishadi. Birikmalarning shu xususiyatlaridan kelib chiqib so'z birikmasi talqini yoxud ta'rifiga ayrim o'zgartirish yoki qo'shimchalar qo'shish mumkin deb o'ylaymiz va quyidagi ta'rifni tavsiya qilamiz. "Leksik va grammatik ma'nolari jihatidan o'zaro bog'lanib, mushtaraklashib va bir narsa yoki hodisani ifodalab kelgan ikki (yoki undan ortiq) mustaqil so'zlar so'z birikmasi deyiladi". So'z birikmasi komponentlarining biri-biriga aloqador, biri-biriga daxldor, birisiz ikkinchisi bo'lmashligi (olma bo'lmasa qizil yo'q) va o'zaro mushtarakligi nuqtai nazardan bunday til birliklarini *mushtarak so'zlar* deb nomlash ham mantiqan to'g'ri keladi. Binobarin, arabcha "mushtarak" so'zi orqali, avvalo, so'zlarning birdan ko'pligi (birikkanligi) anglashilsa, qolaversa, ularning fonetik, grammatik, leksik jihatdan o'zaro aloqadorlik va daxldorligi qo'shib tushuniladi.

Endi qo'shma so'zlar haqida ayrim fikr va mulohazalar bildiramiz. Inson o'z nutqi mobaynida tabiiy ravishda qo'shma so'zlardan faol foydalanadi. O'zbek tilshunosligida tilning bu fenomenal hodisasining o'rganilishiga kelsak, bu mavzuga bag'ishlangan maxsus ilmiy ishlarda komponentlarning leksik-grammatik xarakteristikasi nuqtayi nazaridan hamda struktura jihatidan qo'shma so'zlar ancha chuqur o'rganilgan, ayrim hollarda komponentlarning o'zaro aloqalari ham ochib berilgan, biroq ularning barchasida avvalo mazkur til birliklariga berilgan ta'riflarda, qolaversa, masala mohiyatini tushunib olish va ifodalashda anchagina kamchilik va qusurlar bor. Atoqli tilshunoslarimiz A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev, B.Madaliyev va A.Madvaliyevlar ham bu borada fikrimizni tasdiqlashadi¹ "...qo'shma so'zlarni o'rganish hali nihoyasiga yetmagan, bu jarayonda chalkashlik va nuqsonlarga yo'l qo'yilmoqda. Qo'shma so'zlarga bag'ishlangan ishlarda ularning sodda so'zlardan va so'z birikmalaridan farqi hali yetarlicha ochib berilmagan – bu masalada turli mualliflarning qarashlari turlichadir. Bunday har xilliklar, chalkashliklar ayni "qo'shma so'z" terminini turlicha tushunish natijasida kelib chiqqan bo'lishi ham mumkin". Mazkur fikrni yanada soddaroq, yanada oddiyroq va xalq tiliga yaqin ifodalamoqchi bo'linsa, mashhur o'zbek shoiri E.Vohidovdan afzalroq ifodalash qiyin. Shu ma'noda shoirning fikrini aynan keltiramiz:² "Biz o'z tilimizdagi soddalik va aniqlik qadriga yetishimiz kerak. Boshqa tillarga taqlid qilib so'z yasash qoidasini ilmiy tahrirdan o'tkazishga hojat yo'q. **Non do'koni, qo'l soati, qor odami, ko'z yoshi** – yasama so'zlar. Oddiy xalq – **qo'l soat, non do'kon, qor odam, ko'z yosh** deydi va o'zbek tili qoidasiga rioya qiladi. Qoida yaratuvchilardan ko'ra to'g'riroq aytdi. Axir **bilak uzugi, qo'l qopi, yer yong'og'i** demaymiz-ku. Hamma birday **bilaguzuk, qo'lqop, yeryong'oq** deydi".³

Misollardan ko'rinib turibdiki, shoir "non do'koni, qo'l soati" so'z birikmalarini yasama so'zlar va ularni xalqimiz "non do'kon, qo'l soat" deb nomlanishini oddiy o'zbek tili qoidasi deb ta'riflaydi, bizning fikrimizcha bu bilan mazkur leksemalarni "nondo'kon, qo'lsoat" deb qo'shma so'z imlo hamda talaffuziga ishora etadi va juda to'g'ri qiladi. Ayrim tilshunoslarimizning bu boradagi fikr mulohazalarida esa bir yoq-lamalilik yaqqol ko'rinadi, misollar keltiramiz: "Qo'shma so'zlar ikki yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topib, bitta so'roqqa javob bo'ladi. *Otquloq, yurtboshi, tinchliksevar, xushxat, shirin zabon, kungaboqar*. Qo'shma so'zlar tilning tarixiy taraqqiyoti davomida ikki va undan ortiq so'zlarning birikuvidan tashkil topgan, lekin hozirgi o'zbek adabiy tili nuqtayi nazaridan bu birikuv o'z kuchini yo'qotib, bir so'zga aylanib qolgan bo'ladi. Shuning uchun qo'shma so'z tarkibida alohida so'z bo'lib ko'ringan qismlar (*kunga-boqar, beshik-tervatar, namoz-shom-gul*) hozirgi o'zbek tilida so'zlik xususiyatini yo'qotgan, bir so'z tarkibidagi ma'noli qism (morfemalar) sanaladi". Mazkur mulohazalardagi "qo'shma so'zlar birikuvi o'z kuchini yo'qotishi, ularning bir so'zga aylanishi, komponentlarning so'zlik xususiyatini yo'qotishi, morfemalarga aylanishi" kabi fikrlar isbotlanilmagan. Ular bu masalaga qiziquvchilarda muayyan savollar uyg'otadi. Nima uchun ikki so'z birikib o'z kuchini yo'qotar ekan? Axir keltirilgan misollarda birikuv so'z kuchini oshiryp-

¹ A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev va A.Madvaliyev. "O'zbek terminologiyasi va leksikologiyasi masalalari". Toshkent, 2017, 57-bet.

² E.Vohidov "So'z latofati". Toshkent, 2018, 56-bet.

³ N.Erkaboyeva. "O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami". Toshkent, Akademnashr, 2015.

tiku, hatto ular birikuvidan uchinchi bir soʻz tugʻilyapti-ku. Ikkinchi savol: soʻz ham oʻz kuchini yoʻqotishi mumkinmi? Axir ular tilning ifoda qudrati (kuchi)ni oshirish uchun yaratilgan-ku! Morfema soʻzga aylanishi mumkin, lekin soʻz morfemaga aylanganligi qayerda bor? Yuqorida bu savollarga javob yoʻq.¹ Boz ustiga, qoʻshma soʻzlarning ikkiga boʻlinishi va ularning:

1. Qoʻshib yoziladigan qoʻshma soʻzlar.

2. Ajratib yoziladigan qoʻshma soʻzlar deb tasniflanishiga nima deyish mumkin? Zero, bu differentsiya ham qusurdan xoli emas, mantiq yoʻq. Oʻzi qoʻshma soʻz boʻlsa va shunday nomlanilsa, nimaga ajratib yoziladi? “Axir qoʻshma soʻz tom maʼnoda soʻzlarning qoʻshilib yozilishini nomlash uchun yaratilgan-ku! Unda ismi jismiga monandlik qayerda qoladi?” Bu savollarga javob yoʻq.

Javob tariqasidagi tavsiflar esa shu darajada koʻpki, faqat soʻzlarning qoʻshib yozilishi uchun 12 ta shart, ajratib yozilishi uchun esa 10 ta shart qoʻyilgan va ular soʻzlarning qoʻshib yoki ajratib yozilishida asosiy meʼzon deb belgilangan. Shartlarning bu darajada koʻpligi nafaqat imlo qoidalarini murakkablashtiradi, balki mavzu mohiyatini toʻgʻri tushunilishiga monelik qiladi. Chunonchi, til egalari yoki tilimizni oʻrganayotgan chet elliklar yuqoridagi 22 ta shartni hamda qoʻshimcha ravishda bir qancha istisno holatlarni ham yoddan bilishlari amalda toʻgʻri qoʻllay bilishlari shart. Bundan koʻrishimiz mumkinki, qoʻshma soʻzlarni imlosi boʻyicha qoʻyilgan shart va istisno holatlarni hisobga olsak, til egalari salkam 30 ta qoidani esda tutishlari lozim boʻladi, aks holda, imlo xatolariga yoʻl qoʻyishlari, tabiiy. Bu esa masalani yanada chigallashtiradi. Bizning fikrimizcha, milliy tilimizda soʻz birikmalari va qoʻshma soʻzlar chuqur va astoydil tahlil qilinmagan. Aslida, bu masala unchalik murakkab emas. Bunda soʻz birikmasi va qoʻshma soʻzlarning tub mohiyatidan kelib chiqilsa, ularni farqlash oson boʻladi. Masalan, soʻz birikmasining mohiyati shundaki, u orqali yoxud ikki soʻz birikuvini natijasida hissiy aʼzolarimiz orqali mushohada qilinayotgan narsa va hodisa boshqa (bir xil, oʻxshash) narsa va hodisalardan ajratib koʻrsatiladi, muayyan farqiga ishora qilinadi.

Masalan, **qora non** soʻz birikmasini olamiz. Mazkur soʻz birikmasi orqali nonning turi koʻp ekanligi bois uning boshqa nonlardan rangi bilan farqlanishi koʻrsatilyapti. Masalan, “–*Bu safargi non qora chiqibdi. Qora nonni mehmonlarga qanday tortamiz? – keltirgan uningiz qora edi, non qora chiqdi*”. Keyingi paytlarda mazkur soʻz birikmasi qoʻshilib (qoranon) yozilayotgani va aytilayotganini uchratayapmiz. Endi bu qoʻshma soʻz orqali **nonning rangi emas, uning turi** nomlanilayotganligini sezamiz. Misol keltiramiz: “*Bu doʻkonda qoranon ham sotila boshladi. Lekin bahosi oqnonndan qimmatroq, chunki qoranonning sogʻliqqa foydaliligi tan olinmoqda*”.

Misollardan koʻrinib turibdiki, soʻz birikmasida “non” rangi nuqtayi nazaridan farqlansa, qoʻshma soʻzlarda (albatta, rang ham inobatga olingan holda) nonning turi (sorti) nomlaniladi yoxud ikki soʻz anglatgan maʼnodan kelib chiqib uchinchi bir narsa anglashilayapti, natijada xalqimiz kashf etgan nonning ikkinchi bir turi ifodalanilayapti. Bunday misollar tilimizda koʻplab uchraydi: *issiq xona – issiqxona* (teplitsa), *oq suyak – oqsuyak* (aslzoda), *ogʻir oyoq – ogʻiroyoq* (homilador), *yengil oyoq – yengiloyoq* (fohisha), *qizil ishton – qizilishon* (qush turi), *qizil olma – qizilolma* (olmaning navi), *temir yoʻl – temiryoʻl* (poyezd yoʻli), *oq yogʻ – oqyogʻ* (yogʻning turi), *yangi yoʻl – Yangiyoʻl* (shahar nomi), *oq soch – oqsoch* (xizmatkor), *oq soqol – oqsoqol* (qariya). Bizning taklifimiz shuki, soʻzlar birikuvini mohiyatan narsa va hodisalarni farqlasa, soʻz birikmasi deb qaralishi va ajratib yozilishi maʼqul, agar soʻzlar birikuvini mohiyatan mushtaraklashib, uchinchi bir narsani nomlasa, qoʻshma soʻz deb qaralishi va qoʻshib yozilishi maqsadga muvofiq boʻladi. Soʻz birikmalarini qoʻshma soʻzlardan ajratib yozishni, bizning fikrimizcha, bir yoʻl bilan (30 shart bilan emas) yechsa boʻladi. Bunda muayyan bir soʻz birikmasi (*qizil olma*) olinadi va undan sodda (*olma qizildir*) gap tuziladi. Ikkalasida ham umumiy maʼno (olma qizilligi) saqlanib qolsa, bunday til birliklarini soʻz birikmalari deb atash joiz. Endi “qizilolma” til birligidan komponentlar ajratilib (olma qizildir deb) gap tuzilsa, va bu gap ostida qoʻshma soʻz bildirib kelayotgan “olma navi” tushunilmasa, uni qoʻshma soʻzlar tarkibiga kiritish lozim. Bu tavsiya qoʻshma soʻzlarning ajratib va qoʻshib yozilishi boʻyicha qoʻyilgan shartlarni inkor qiladi va mazkur masala yechimiga aniqlik kiritadi, shu paytgacha murakkab deb qaralayotgan jarayon oʻta soddalashadi.

Endi milliy tilimiz rivoji va lugʻat tarkibini boyishida asosiy rollardan birini oʻynayotgan til hodisasi – soʻz birikmalarining qoʻshma soʻzlarga aylanish xususiyatlariga muxtasar toʻxtalamiz. Yuqorida aytilgan soʻz birikmalari va qoʻshma soʻzlar haqidagi fikr mulohazalardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, soʻz birikmalari maʼnan va moddiy mushtaraklashib bir (yagona) narsa va hodisaning xususiyatlarini, ularning sifatlarini bildirib kelishsa, qoʻshma soʻzlarning morfologik, sintaktik, semantik birikuvini natijasida ikkinchi bir narsa va hodisa nomlanishi, tushunilishi taʼkidlanildi. Binobarin, narsa va hodisalarning nomlanishi (suv, havo) va ularning sifati (tiniq va tozaligini) bildirish uchun nazddagi narsa va hodisa nomiga

biriktirilishi (tiniq suv, toza havo) bilan soʻz birikmasi yasaladi. Narsa va hodisalar tabiatan va mohiyatan aralashgan, qoʻshilishgan yoki ishtirokda hamjihat (qumtosh, temirbeton, belbogʻ) boʻlishsa, nomlar qoʻshib yoziladi, qoʻshma soʻzlar yasaladi. Endi mazkur masalanining uchinchi bir tomoni ham borki, bu holatda soʻz birikmalari asta-sekin qoʻshma soʻzlarga aylanib, ikkinchi bir narsa hodisani atay boshlashadi. Bu hodisa tilning rivojlanish tendensiyalaridan biri boʻlib, kundalik hayotda, muloqotda koʻp uchraydi. Tilning lugʻat tarkibida mavjud soʻz birikmasi saqlanib qolish bilan bir qatorda, uning komponentlaridan yasalgan ikkinchi bir yangi til birligi—qoʻshma soʻz vujudga keladi. Tillar rivojiga xos boʻlgan mazkur jarayon bizni koʻpdan buyon qiziqtirib keldi va biz milliy tilimizda koʻplagan soʻz birikmalarini qoʻshma soʻzlarga aylanish xususiyatlari bilan tanishdik. Bularni lugʻat va qomuslarimizda qayd qilinganligi va qayd qilinmaganligiga qarab uch guruhga boʻldik:

1) kodifikatsiyalangan soʻz birikmalari va qoʻshma soʻzlar (*oq soch – oqsoch, issiq xona – issiqxona*);

2) kodifikatsiyalanmagan soʻz birikmalari va qoʻshma soʻzlar (*oq terak – oqterak, tosh yoʻl – toshyoʻl*);

3) kodifikatsiyalashish soʻz birikmalari va qoʻshma soʻzlarning biriga xos, yo soʻz birikmasi yoki qoʻshma soʻz lugʻatlarda uchraydi. *Oybolta* – qoʻshma soʻz sifatida bor, birikma *oy bolta* sifatida esa qayd qilinmagan. *Keksa qari* birikmasi bor, *keksaqari* qoʻshma soʻzi yoʻq.

Yuqorida nomlangan tasniflarga monand soʻz birikmalari va qoʻshma soʻzlar boʻyicha inventarimizda mingdan oshiq misollar bor. Mazkur maqolada ularning barchasini nomlab, tasniflab va tematik guruhlarga boʻlib koʻrsatish imkoni “makon va zamon” nuqtai nazardan yoʻqligi bois, umumiy tahlilni “oq” komponentli soʻz birikmalari va qoʻshma soʻzlarning “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”dagi qaydiga asosan qilamiz. Lugʻatda *oq doka, oq qogʻoz, oq non, oq qor, oq sut, oq paxta, oq badan, oq tan, oq yuz, oq bilak, oq aroq, oq amaldor, oq gvardiya, oq suvoq, oq tuk, oq moʻy, oq soch, oq soqol, oq yoʻl, oq koʻngil, oq oltin, oq fotiha, oq choy, oq tish* kabi 24 ta soʻz birikmasi izohlanilgan. Endi “oq” komponentli qoʻshma soʻzlarning mazkur lugʻatda izohlanishiga toʻxtalaniladigan boʻlinsa, *oqbosh* (*oʻsimlik turi*), *oqizogʻ* (*bolalar oʻyini*), *oqkiyar* (*motam, aʻza jarayoni*), *oqsolar* (*motam muddati bir yilga choʻziladigan marosim*), *oqsoy* (*toponomik soʻz*), *oqpalak* (*poliz ekinlari kasalligi*), *oqmiya* (*yovvoyi oʻt*), *oqpadar* (*laʼnatlangan farzand*), *oqkaltak* (*choʻqmor*), *oqpar* (*oq aralashgan*), *oqsichqon* (*suvsar*), *oqsoch* (*choʻri, farrosh*), *oqsoqol* (*moʻy-safid, mahalliy amaldor, mahalla qoʻmitasi raisi, izzat-eʼtiborga loyiq keksa*), *oqsuv* (*muzlik suvi*), *oqsuyak* (*zodagan, aristokrat, kibor, zotioliy*), *oqurugʻ* (*qovun turi*), *oqchechak* (*guli oq zarang daraxti*), *oqchorloq* (*baliqchi qush*), *oqshom* (*quyosh botishi bilan tun boshlanishi oʻrtasidagi gʻira-shira yorugʻ payt*), *oqshomgul* (*namozshomgul*), *oqshuvoq* (*yovvoyi oʻt turi*), *oqqanot* (*mayda hashoratlar turi*), *oqqovun* (*serhosil qovun turi*), *oqquv* (*oqqushning sheva – Xorazm, Buhorodagi nomi*), *oqqush* (*qush turi*) kabi 26 ta til birligiga sharh berilgan.

Keltirilgan misollardan koʻrinib turibdiki, ular ichida *oq soch* va *oq soqol* soʻz birikmalari, qoʻshma soʻz *oqsoch* va *oqsoqol* boʻlib ulgurishganligi qayd qilingan. Bu esa maʼlum maʼnoda ushbu til birliklari tilimizda kodifikatsiyalanib boʻlganligi va milliy til normalariga mos kelishlariga ishoradir. Endi yuqorida soʻz birikmalari sifatida keltirilgan misollarga sinchiklab qaralsa, ularning kundalik hayotimizda, ayniqsa soʻzlashuv tilida qoʻshma soʻzlar sifatida uchrayotganligini taʼkidlash mumkin. Bular sirasiga *oqqogʻoz* (*maxsus bosma yozuv (mashinka qogʻozi) yoki chizmalar (vatman qogʻozi)*), *oqnon* (*non turi*), *oqbadan* (*odamzodi turi*), *oqtan* (*irq*), *oqbilak* (*qoʻlini sovuq suvga urmaydigan*), *oqsuvoq* (*suvoq, taʼmirlash turi*), *oqoltin* (*paxta*), *oqchoy* (*qozoqcha, qoraqalpoqcha choy damlash usuli*) kabi til birliklarini keltirish mumkin, zero, ular qoʻshma soʻzlar sifatida muloqotda uchrayapti.

Analog misol sifatida eʼtiborimizni soʻz birikmalarida va qoʻshma soʻzlarda aniqlanmish (*hokim soʻz*) vazifasini oʻtayotgan (*avvalgi tahlil aniqlovchi–tobe soʻz asosida kechgan edi*) komponentga qaratamiz va “yoʻl” soʻzini asos qilib olamiz. Muloqotda mazkur soʻzning *toʻgʻri yoʻl, egri yoʻl, keng yoʻl, tor yoʻl, baland yoʻl, past yoʻl, yaxshi yoʻl, yomon yoʻl, mos yoʻl, xos yoʻl, ochiq yoʻl, yopiq yoʻl, katta yoʻl, kichik yoʻl, tosh yoʻl, temir yoʻl, asfalt yoʻl, suv yoʻl, havo yoʻl, tuproq yoʻl* kabi toʻgʻri maʼnoli, *ogʻir yoʻl, yengil yoʻl, oddiy yoʻl, murakkab yoʻl, xatarli yoʻl, xatarsiz yoʻl, xavfli yoʻl, xavfsiz yoʻl* kabi koʻchma maʼnoli muqobil (variant)lari bor. Yoʻlning ijtimoiy hayotda, asosan, kishilik jamiyatining bordi-keldi ishlari-da oʻta muhim ekanligi inobatida, oddiy tuproq yoʻllarining ustiga tosh toʻshalishi, asfaltlanishi yoki temir yoʻl yotqizilishi “yoʻl”larni turini koʻpaytirdi va *tosh yoʻl, temir yoʻl* birikmalarini qoʻshilib *toshyoʻl, temiryoʻl* qoʻshma soʻzlari yasalishiga olib kelyapti.

Bunday misollarni tilimizning boyish tendensiyalarining yangi koʻrinishlaridan biri deyish mumkin. Binobarin tilshunoslikda tillar uch asosiy yoʻl (yangi soʻzlar yasalishi, chet soʻzlar qabul qilinishi va soʻz-

larning yangi ma'no olishi) asosida boyiydi deb kelinar edi. So'z birikmasini qo'shma so'zga aylanib uchinchi bir narsa va hodisani nomlashi natijasida yangi so'z, yangi nom, yangi narsa, yangi hodisa kashf qilina-yotganligi tilshunoslar nazaridan chetda qolib kelayotgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Jumaniyozov, Sh.Rahimova. "O'zbek tilidagi aniqlovchili qo'shma so'zlar, yoxud bahurihilar". Toshkent, 2018.
2. "O'zbek tilining izohli lug'ati". A.Madvaliyev tahriri ostida, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 1-jild, Toshkent, 2006 – 2008.
3. A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev, B.Madaliyev va A.Madvaliyev. "O'zbek terminologiyasi va leksikologiyasi masalalari". Toshkent, 2017, 57-bet.
4. H.Jamolxonov. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent, "Talqin", 2005.
5. N.Erkaboyeva. "O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami". Toshkent, "Akademnashr", 2015.
6. Sharipov M.Q. "Hozirgi o'zbek tilida so'z birikmalari sintaksisi masalalari". Toshkent, «Fan», 1978.
7. G'ulomov A.G., Asqarova M.A. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (sintaksis). T., "O'qituvchi", 1965.
8. G'ulomov A.G. "O'zbek tilida so'z yasash yo'llari haqida". Birinchi kitob, Toshkent, 1949.
9. G'.Abdurahmonov, S.Mamajonov. "O'zbek tili va adabiyoti", Toshkent, "O'zbekiston", 2002.
10. M.Hamroyev. "Ona tili". Toshkent, 2012.

Djumaniyazova Zilola (Toshkent Amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi, Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi; e-mail: ziloladjumaniyazova@gmail.com)

INGLIZ TILIDAGI ANTROPOTSENTRIK MAQOLLARDA GENDER STEREOTIPLARINING NAMOYON BO'LISHI

***Annotatsiya.** Xalq og'zaki ijodining qadimiy namunalaridan biri hisoblangan maqol boshqa janrlardan o'zining qisqa, lo'nda, obrazli va chuqur mazmunga egaligi bilan alohida ajralib turadi. Maqollar orqali har bir xalqning o'ziga xos qadimiy va boy ma'naviyati namoyon bo'ladi. Maqollar mavzu jihatidan nihoyatda boy va xilma-xil bo'lib, mazmun jihatdan o'z ma'nosida yoki ko'chma ma'noda qo'llanilishi mumkin. Maqollar uchun obyekt sifatida shaxslar, narsa-buyumlar, hayvonlar ham olinadi. Mazkur maqolada ingliz tilidagi antropotsentrik maqollarda gender stereotiplari lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinadi.*

***Аннотация.** Пословица, считающаяся одним из древних образцов фольклора, отличается от других жанров кратким, сжатым, образным и глубоким смыслом. Древняя и богатая духовность каждого народа раскрывается через пословицы. Пословицы чрезвычайно богаты и разнообразны по тематике и могут употребляться как в прямом, так и в переносном смысле. В качестве объектов для пословиц взяты люди, предметы и животные. В данной статье с лингвокультурологической точки зрения анализируются гендерные стереотипы в английских антропоцентрических пословицах.*

***Annotation.** The proverb, which is considered one of the ancient examples of folklore, is distinguished from other genres by its short, concise, figurative and deep meaning. The ancient and rich spirituality of each nation is revealed through proverbs. Proverbs are extremely rich and diverse in terms of subject matter, and can be used in a literal or figurative sense. People, objects, and animals are taken as objects for proverbs. This article analyzes gender stereotypes in English anthropocentric proverbs from a linguistic and cultural point of view.*

***Kalit so'zlar:** xalq og'zaki ijodi, maqol, obraz, mazmun, ko'chma ma'no, folklor, milliy paremiologiya, gender stereotiplari, antropotsentrik maqol, g'arb madaniyati.*

***Ключевые слова:** фольклор, пословица, образ, содержание, переносное значение, фольклор, национальная паремология, гендерные стереотипы, антропоцентрическая пословица, западная культура.*

***Key words:** folklore, proverb, image, content, figurative meaning, folklore, national paremiology, gender stereotypes, anthropocentric proverb, western culture.*

Lingvokulturologiya – tilshunoslik va madaniyatshunoslikning o'zaro bog'liqliklaridan paydo bo'lgan fan bo'lib, u xalq madaniyatining paydo bo'lishini tilda ifodalanishi va mujassamlanishini tadqiq etadi. Bu ikki yo'nalish, ya'ni, tilshunoslik va madaniyatshunoslikni o'zaro bog'lanishi oddiy bog'lanish emas, balki bu yangi ilmiy asoslangan yo'nalishning vujudga kelishidir. Shuning uchun bu hodisa tilshunoslik va

madaniyatshunoslikning vaqtincha bog‘lanishi bo‘lmasdan, u fanning sistemalashgan tarmog‘i bo‘lib, o‘zining mustaqil maqsad, vazifa, metod va tadqiqot obyektiga ega bo‘lgan fandır.

Shunday qilib, lingvokulturologiyaning fanning maxsus tarmog‘i sifatida shakllanishi XX asrning 90-yillariga to‘g‘ri keladi. Lingvokulturologiyaning rivojlanish davri ikki turga bo‘linadi: V.fon Gumboldt, A.A.Potebnya, E.Sepir va boshqa olimlar ishlarning rivojlanish davri va lingvokulturologiyani mustaqil o‘rganish tarmog‘i sifatida shakllanishidir. Fanning rivojlanish dinamikasi yana bir davr, ya‘ni, uchinchi davrni kuzatishni taqozo etadi, bu lingvokulturologiyaning fundamental fan sifatida paydo bo‘lishidir.

Barcha tillarda bo‘lgani kabi, ingliz tilida ham millat madaniyati til birikmalari va frazeologizmlarda o‘z aksini topadi. Misol sifatida ushbu tilda ishlatiladigan murojaat so‘zlarni keltirish mumkin. Inglizlar suhbatida *sir, mister, gentleman, lady, miss, misses* kabi so‘zlar yoki kishining yoshidan qat‘i nazar, uning ismi bilan chaqirilishi mumkin.

Ma‘lumki, madaniyat tildagi frazeologizmlarda so‘zlardagidan ko‘ra, yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Misol sifatida ingliz tilidagi hudud va kishi nomlari ishtirok etgan frazeologik birliklarni keltirish mumkin. Masalan, foydasiz ishga nisbatan *Carry coals to Newcastle* [4] (Nyukasl – Angliya ko‘mir sanoati markazi), ayyorlikni ifodalashda *Cokel Yorkshire over* (Yorkshir aholisi ayyorligi bilan Angliyada mashhur) frazeologik birliklari hudud nomi bilan bog‘liq bo‘lsa, juda ilgari paytda bo‘lgan voqeaga nisbatan *When queen Anne was alive* [4] ilojisiz tanlovga nisbatan *Hobson’s choise* [4] kabi iboralar kishi nomlari bilan bog‘liq bo‘lib, ingliz madaniyatini o‘zida aks ettiradi.

Demak, har bir millat o‘z tili va madaniyatiga ega bo‘lib, madaniyat tilda turli til birliklari (leksemalar, frazeologik birliklar)da o‘z aksini topishi til va madaniyatning bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ekanligini tasdiqlaydi.

Maqollarni chuqurroq tahlil etish va ularning turli tillardagi milliy-ma‘daniy hamda umumbashariy qadriyatlarini aks etishi orqali o‘rganish hozirgi zamon tilshunosligining dolzarb muammosi bo‘lib kelmoqda. Qiyoslab o‘rganadigan bo‘lsak, dunyodagi barcha tillar o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin va aynan shu fenomen turli tillarni bir-biridan ajratadi. Lekin shu narsa ma‘lumki, til o‘rganuvchilar o‘ziga begona bo‘lgan tilni ona tili va shu til o‘rtasida ma‘lum bir bog‘liqlik asosida o‘zlashtiradi. Bu tillar ma‘lum bir kategoriyalar ostida birlashadi. Bu kategoriyalarda grammatik kategoriyalar, leksik-semantik kategoriyalar, funksional kategoriyalarga o‘xshagan lisoniy belgilar kiradi.

Demak, umumlashtiruvchi kategoriyalar tillardagi universallikni ta‘minlaydi. Shu asnoda, maqollar har bir tilda uchraydigan o‘ziga xos til birligi ekan, ularda ham umumiylik mavjud. Shu haqda G.L.Pernyakov quyidagicha fikr yuritadi: “Holatlarni umumiyashtirish xususiyati, ya‘ni, bir xil yoki o‘xshash holatlarni birlashtirish turli xalqlar maqollarida uchraydi. Maqollardagi shu bir xillik universallikni ta‘minlaydi va ko‘p holatlarda alohida mantiqiy ma‘noga ega bo‘ladi. Bundan kelib chiqadiki, maqol dunyosi jahon sivilizatsiyasi bilan bog‘liqdir, uni faqat bir millatga tegishli deyish mutlaqo noto‘g‘ri. Maqollardagi universallik paremiologiyaning asosiy qirrasini bolib, u maqollardagi o‘xshash va bir xil holatlarni umumlashtiradi, hatto qarindosh bo‘lmagan tillarda, ularning tarixiga, etnosiga qaramay uchraydi” [11].

Shuni aytib o‘tish kerakki, ko‘plab maqollarning har xil tillardagi shakllarida ham shaklan, ham ma‘no jihatdan yoki umumiy bajarayotgan funksiyalaridan o‘xshashlik topsa bo‘ladi. O‘zbek tilidagi ayrim maqollar ingliz maqollariga funksional jihatdan mos keladi. Masalan, *First think, then speak* [5] maqolini o‘zbek tilidagi muqobil varianti *Avval o‘yla – keyin so‘yla* [1] maqoliga to‘g‘ri keladi, chunki bu maqol har ikkala tilda aynan bir xil ma‘noga ega hamda uning grammatik tizimi ham ancha yaqin.

Shu bilan birga, ma‘lum bir tildan ikkinchi tilga berilgan o‘girishlarda maqollarning aynan o‘xshashini topish qiyin bo‘ladi. Shunda izohlarga yoki ikkinchi bir adekvat variantga murojaat qilinadi. O‘zbek tilidagi maqollarning ingliz tilida yoki ingliz tilidagi maqollarning o‘zbek tilidagi muqobil variantini topish ancha mushkul, bu borada maqollarga o‘rni kelganda izoh berib o‘tish tarjimaga putur yetkazmaydi, balki uni to‘ldiradi va boyitadi.

So‘zlaguvchi nodon bo‘lsa, eshitguvchi dono bo‘lsin [1] maqolinining aynan nusxasi inglizchada yo‘q bo‘lgani uchun bu maqolni uning yaqinroq ekvivalenti bilan berish mumkin. Lekin uni *If speaker is fool listener should be wise* [5] deb tarjima qilsa, uning o‘zbekcha koloriti saqlanib qoladi va bu hammaga tushunarli bo‘ladi. Xuddi shu so‘zlarni *Qassob moy qayg‘usida, echki – jon qayg‘usida* [1] maqoliga ham qo‘llab uni *The butcher grieves for bacon, and the goat – for its life* [5] qabilida berilsa ma‘qul bo‘ladi.

K.Y.Alibekova shuni ta‘kidlaydiki, hozirgi kunda maqollar faqatgina xalq og‘zaki ijodi namunasi sifatida emas, balki lingvomadaniyatning birligi sifatida o‘rganilmoqda. U “sog‘liq” va “gigiyena” konseptlarini rus, o‘zbek va qozoq tillarida qiyoslab o‘rganib, shunday xulosaga keladiki, rus madaniyatida “sog‘lik” va “gigiyena” konseptlari qimmatbaho zaruratni kasb etsa, o‘zbek va qozoq tillarida bu konseptlar boy-

lik bilan tenglashadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, uch xalqning milliy madaniyatida mazkur konsept bir-biriga deyarli yaqin ma‘nolarni anglatadi [8].

K.Tumanishvili maqollar – bu millatning tarixiy o‘y-fikrlari natijasi bo‘lib, ularni ma‘lum bir guruhning “avtobiografik” xotirasi deb nomlaydi. Maqollar milliy shakl namunalari bo‘lib, millat ongida uyg‘unlikda va milliy fikrlash tizimi asosida joylashgandir. Bu esa etnik guruhning qirralarini tabiiy ravishda namoyon etadi va genetik axborot natijasida quriladi [6].

Maqollar hushyor bo‘lishga, do‘stni dushmanidan farq qilishga, insonparvar, xushfe‘l, shirin so‘z, sadoqatli bo‘lishga, ota-ona, qarindosh-urug‘ va do‘stlarni qadrlashga, kattalarni hurmat qilishga, kichiklarga nisbatan shafqatli bo‘lishga o‘rgatadi: *Yaxshi bilan yursang, etarsan murodga, yomon bilan yursang, qo-larsan uyatga, Hurmat qilsang –hurmat ko‘rasan* [1].

Hozirgi vaqtda ijtimoiy stereotiplarning quyidagi turlari ajratiladi: jins, yosh, etnik yoki milliy, kasbiy, sinfiy va boshqalar. Ijobiy, salbiy, neytral; guruh va individual stereotiplar ham mavjud [13.106].

Ehtimol, eng katta guruh gender stereotiplari namoyon bo‘lgan maqollardan iborat (tahlil qilingan barcha maqollarning 49%). Ehtimol, bu mavzuning o‘zi muhimligi bilan izohlanadi: erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlar, oilaviy munosabatlar insoniyatning davom etishi uchun alohida ahamiyatga ega. O‘z navbatida, jins komponentli maqollar guruhida ayollarga oid maqollar ustunlik qiladi. Uning shaxsiy fazilatlarini, jamiyatdagi o‘rni, turmush o‘rtog‘iga, bolalariga bo‘lgan munosabati, uy vazifalari va boshqalar tasvirlangan [7.89]. Ammo shuni ta‘kidlash kerakki, bu guruhda salbiy ma‘noga ega maqollar ustunlik qiladi, bu esa azaldan erkaklar hukmronlik qilgan, ayollarga quyi tashkilot sifatida qaralgan jamiyatda gender stereotiplarining paydo bo‘lishi bilan izohlanadi. Bu erkaklarning fikriga ko‘ra:

– ayollar og‘zini tiya olmaydigan g‘iybatchilardir: *The only secret a woman can keep is her age* [3]. Ayolning oshkor etmaydigan yagona sir – uning yoshi; *Whenever there is a woman, there is gossip* [3]. Ayol bor joyda har doim g‘iybat bor; *Silence is a fine jewel for a woman, but it's little worn* [3]. Sukunat ayol uchun ajoyib marvariddir, lekin uni kamdan kam taqib yuradi;

– ayollarga beqarorlik, o‘zgaruvchan kayfiyat xosdir: *A woman'ind and winter wind change often* [3]. Ayolning kayfiyati va qishki shamol tez-tez o‘zgaradi; *Women are as fickle as April weather* [3]. Ayollar aprel oyidagi ob-havo kabi o‘zgaruvchan; *It's a woman's privilege to change her mind* [3]. Fikrini o‘zgartirish – ayollarning imtiyozi;

– ayollar qasoskor va yovuz: *A woman's vengeance knows no bounds* [3]. Ayol qasosi chegara bilmas; *Women are like wasps in their anger* [3]. G‘azablangan ayollar ari kabi; *Hell hath no fury like a woman scorned* [3]. Do‘zaxdagi g‘azab rad etilgan ayol bilan taqqoslana olmaydi;

– ayollar yolg‘onchi, ularga ishonib bo‘lmaydi: *Trust not a woman when she weeps* [3]. Yig‘laganda ayolga ishonmang; *Women laugh when they can, and weep when they will* [3]. Ayol qo‘lidan kelganda kuladi va xohlaganida yig‘laydi; *A woman's in pain, a woman's in woe, a woman is ill when she likes to be so* [3]. Ayol o‘ziga yarashganda azob chekadi, qayg‘uradi va kasal bo‘ladi;

– ayollar savdogar va isrofgar: *It is cheaper to find a wife than to feed a wife* [3]. Xotinni boqishdan ko‘ra uni topish osonroq; *Wine and wenches empty men's purses* [3]. Vino va ayollar erkaklar hamyonlarini bo‘shatadi; *Mills and wives are ever wanting* [3]. Tegirmonlar va ayollar doimo bir narsaga muhtoj;

– ayollar ahmoqroq, hatto mutlaqo ahmoqdir: *Women have long hair and short brains* [3]. Ayollar-ning sochlari uzun va aqli qisqa; *When an ass climbs a ladder, we may find wisdom in a woman* [3]. Eshak narvonga ko‘tarilsagina ayol dono bo‘lishi mumkin; *Women's wisdom arrives after the event* [3]. Ayol o‘tgan sana bilan aqli bo‘ladi;

– aql-zakovati yo‘qligiga qaramay, ular erkaklarni manipulatsiya qilishda zo‘r va har doim o‘z maqsadiga erishadilar: *An obedient wife commands her husband* [3]. Itoatkor xotin eriga buyuradi; *He that has a wife has a master* [3]. Xotini borning xo‘jayini bor; *A woman resists in order to be conquered* [3]. Ayol faqat mag‘lub bo‘lish uchun qarshilik qiladi;

– ayolning hayotidagi asosiy maqsad muvaffaqiyatli turmush qurishdir: *Woman's whole life is a history of affection* [3]. Ayolning butun hayoti – uning sevgi muhabbatlari tarixi; *All meats to be eaten, and all maids to be wed* [3]. Hamma go‘sh t yeyiladi, qizlarning hammasi turmushga chiqadi; *Maids want nothing but husbands, and when they have them they want everything* [3]. Qizlarga erdan boshqa hech narsa kerak emas, lekin eri bo‘lsa, ular hamma narsani xohlashadi;

– xotin eriga itoat qilishi kerak: *A young wife should be but a shadow and echo in the house* [3]. Yosh xotin uyda soya va aks sado bo‘lishi kerak; *Maidens must be mild and meek, swift to hear and slow to speak* [3]. Qizlar yumshoq, tinglashga va jim turishga tayyor bo‘lishi kerak. Aqlli xotin shunday qiladi: *A wise woman never outsmarts her husband* [3]. Aqlli ayol hech qachon eridan aqlli bo‘lmaydi;

– oshxonada ayolning o‘rni: *A woman's place is in the home* [3]. Ayolning o‘rni uyda; *A good wife and a good cat are best at home* [3]. Yaxshi xotin va yaxshi mushuk uyda bo‘lgani yaxshi;

– ayol uchun uning tashqi ko‘rinishi juda muhim: *Every woman would rather be beautiful than good* [3]. Har bir ayol mehribondan ko‘ra chiroyli bo‘lishni afzal ko‘radi; *Women are vain: they'd rather be pretty than have a good brain* [3]. Ayollar miyaga ega bo‘lishdan ko‘ra chiroyli bo‘lishni afzal ko‘rishadi. Biroq, chiroyli xotin oilaviy hayot uchun afzallikdan ko‘ra ko‘proq zarar keltiradi: *The more women look in their glass, the less they look to their house* [3]. Ayol ko‘zguga qanchalik ko‘p qarasa, uy ishlarini kamroq qiladi; *The wife that loves the looking-glass hates the saucepan* [3]. Oynani yaxshi ko‘rgan xotin tovani yomon ko‘radi.

Ayollar haqidagi ijobiy yoki neytral stereotiplarga asoslangan maqollar kamroq. Masalan, ayolning ona, uy bekasi va erkakning hayot sherigi sifatidagi ijobiy roli haqida bir nechta maqollar:

– *The mother's breath is always sweet* [3] / Ona nafasi doimo shirin; *A mother's love is best of all* [3] / Ona mehri eng kuchli; *A mother's love never ages* [3]. Ona mehri hech qachon zaiflashmaydi;

– *A house well-furnished makes a good house-wife* [3]. Yaxshi jihozlangan uy yaxshi uy bekasi haqida gapiradi; *You know a good housekeeper by her windows* [3]. Siz yaxshi uy bekasini toza derazadan tanisiz; *Where there is no wife, there is no home* [3]. Ayol yo‘q joyda uy yo‘q;

– *A man's greatest treasure is his wife – she is a gift from the Lord* [3]. Erkakning hayotidagi eng katta boylik – uning xotini, u Xudoning sovg‘asi; *A good wife makes a good husband* [3]. Yaxshi xotinning yaxshi eri bor; *A good and virtuous wife is the most precious jewel of one's life* [3]. Yaxshi va fazilatli xotin erkakning hayotidagi eng katta gavhardir.

Maqollarda aks ettirilgan erkaklarga nisbatan stereotiplar orasida neytral yoki ijobiy baholar ustunlik qiladi:

– erkak ayoldan kuchli va aqlli: *A man of straw is worth a woman of gold* [3]. Somondan yasalgan erkak oltindan yasalgan ayolga arziydi; *Man without ambition is like a woman without beauty* [3]. Ambitsiyasiz erkak xunuk ayolga o‘xshaydi; *A man doesn't want a woman smarter than he is* [3]. Erkak xotining undan aqlliroq bo‘lishini xohlamaydi;

– erkak oilada boquvchi, u o‘z ayolini boqishga majburdir: *Man pays – woman spends* [3]. Erkak to‘laydi – ayol sarflaydi; *Man without money is no man at all* [3]. Pulsiz odam umuman erkak emas;

– erkak albatta turmush qurishi kerak: *A man without a woman is like a ship without a sail* [3]. Xotinsiz erkak yelkansiz kemadek; *Where there is no wife, there is no home* [3]. Xotin yo‘q joyda uy yo‘q; *Wives must be had, be they good or bad* [3]. Har kimning yaxshi yoki yomon bo‘lishiga qaramasdan xotini bo‘lishi kerak.

Demak, yuqoridagi maqollar haqiqatda ayol kishini quyi tabaqa, erkak esa hayot xo‘jayini hisoblangan jamiyatning ahvolini aks ettiradi. Zamonaviy sivilizatsiyalashgan jamiyat eskirgan gender stereotiplaridan xalos bo‘lishga harakat qilmoqda, ammo hozirgi kunga qadar ayollarning ijtimoiy roli haqida eskirgan qarashlarga ega bo‘lgan odamlar ko‘p uchraydi va ularni aks ettiruvchi maqollar bugungi kunda ham o‘z faoliyatini davom ettirmoqda [12.15].

Turli xalqlar madaniyatida mavjud yuqorida keltirilgan o‘ziga xosliklarning tilda aks ettirilishini o‘rganish lingvokulturologiyaning asosiy vazifalaridan biridir.

Lingvokulturologiya tilshunoslikning yosh, yangi sohasi bo‘lsa-da, biroq unda frazeologik, konseptologik, leksikografik va lingvodidaktik yo‘nalishlar shakllanib ulgurgan.

Mazkur fanning asosiy vazifasi – til bilan madaniyatning bog‘liq tomonini, ya’ni, madaniyatga oid tushunchalarning tilda va uning turli vositalarida ifodalanish usullarini o‘rganish, til va xalq mentaliteti o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni tavsiflashdan iborat.

Lingvokulturologiya – madaniyat va tilning qo‘llanish jarayoni maqomidagi o‘zaro ta’sirlashuvlarni o‘rganuvchi fandır [10]. Lingvokulturologik tadqiqotlar sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, lingvomamlakatshunoslik, madaniyatshunoslik va boshqa shunga yaqin sohalararo miqyosda olib boriladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, XIX asrda V.fon Gumboldtning til va tafakkur munosabatlarini o‘rganishda millat madaniyatiga asosiy e’tibor berilishi lozimligi haqidagi mulohazalari XX asrning 90-yillarida qator tilshunoslar tomonidan yangi fan yuzaga kelishiga sabab bo‘lib, ushbu fan hozirgi zamon tilshunosligida o‘ta tez sur’atlarda rivojlanib, umumiy tilshunoslikdan alohida o‘rin egalladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev T. O‘zbek xalq maqollari. Toshkent, “Sharq”, 2012.
2. Manser Martin H. The Facts on File Dictionary of Proverbs. 2007, 499 p.

3. Oxford Dictionary of Proverbs.
4. Simpson J.A. The Concise Oxford Dictionary of Proverbs. Oxford, 2003.
5. Smith W.G. The Oxford dictionary of English proverbs. Oxford, 2008.
6. Tumanishvili K. The specific and the Universal in the Proverb Genre. Rustaveli Institute of Georgian Literature. Volume 1, 2007.
7. Алексеева Т.Е., Федосеева Л.Н. Образ женщины в англоязычных пословицах: семантический анализ. Вестник Воронежского государственного университета, 2021, № 3, с. 89 – 94.
8. Алибекова К.Е. Обучение тюркоязычных студентов медицинской лексике и пословицам русского языка с базовыми концептами «здоровье», «гигиена». Ташкент, 2006.
9. Бочина Т.Г., Сян Цюнь. Аксиология возраста в русской паремике. “Филология и культура”, 2013, № 3 (33), с. 44 – 48.
10. Жеребило Т.В. Термины и понятия лингвистики. Лексика. Лексикология. Фразеология. Лексикография. Словарь-справочник, Назрань, 2011.
11. Пермяков Г.Л. Основы структурной паремологии. Москва, 1988.
12. Сташкова М.А. Функционирование пословиц и антипословиц с гендерным компонентом в современном английском языке. Автореф. дис. ...канд. филол. наук, Москва, 2015, 22 с.
13. Шестопалова О.Н. Типология социальных стереотипов. Известия Уральского государственного университета. 2007, № 3, с. 106 – 110.

Abdulboqiyeva Oydina Abdurashit qizi (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti)

SHAXSNI BILDIRUVCHI AXBOROT TEXNOLOGIYA TERMINLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqola axborot texnologiya sohasiga oid bo‘lgan shaxsni bildiruvchi terminlar haqida ma’lumot berilgan hamda terminlar leksik-semantik jihatdan tahlil qilingan.*

***Аннотация.** В данной статье представлена информация о терминах, обозначающих человека, относящихся к сфере информационных технологий, и проанализированы термины лексико-семантически.*

***Annotation.** This article provides information about the terms denoting a person related to the field of information technology and analyzes the terms lexically-semantically.*

***Kalit so‘zlar:** sema, struktur, leksema, broker, dasturchi, agent, operator, kreker, semantik tarkib, dinamika, iyerarxik.*

***Ключевые слова:** сема, структура, лексема, брокер, разработчик, агент, оператор, взломщик, семантическое наполнение, динамическое, иерархическое.*

***Key words:** sema, structure, lexeme, broker, developer, agent, operator, cracker, semantic content, dynamic, hierarchical.*

Kirish. Tildagi o‘zgarishlar va yangilanishlar individlar nutqida aks etib, turli vaziyat, holatlarga bog‘liq ravishda shaxs nutqida voqelanadi. Tillar taraqqiyotining o‘zgarish dinamikasi bu, albatta, leksik qatlamda sezilarli darajada aks etadi, leksemalar kishilar nutqi orqali ijtimoiy munosabatlarda voqelanadi. Leksemalarning o‘zlashishi, ayniqsa, ma’lum bir sohalar va yo‘nalishlar terminosistemasida yuz berib, mazkur sohadagi muayyan tushunchani ifodalash uchun xizmat qiladi hamda jamiyat hayotida shu tushunchani anglashga xizmat qiluvchi vosita sifatida nutqda voqelanadi, kishilar ongida shu kategoriya bilan o‘r-nashadi. Shu bilan birga, taraqqiyotda bo‘lgan tilning leksik qatlamida mavjud bo‘lgan leksik birliklarning semantik tarkibida ham sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berib, uning kengayishi yuz berishi mumkin. Bu esa ma’-lum bir leksemaning yana bir ma’no ifodalashi va vazifa bajarishiga imkon yaratadi. Umuman olganda, har qanday tilning leksik qatlamidagi leksemalar jamiyat munosabatlariga bog‘liq ravishda o‘z semantik doi-rasini kengaytirishi yoki qisqartirishi mumkin.

Muayyan soha terminologiyasi tekshirilganda terminlarning mavzuviy guruhlarini aniqlash muhim vazifa hisoblanadi. Shunga ko‘ra, bu sohaga bag‘ishlangan tadqiqotlarning ko‘pchiligida terminlarning mavzuviy guruhlarini keltirilgan.

Terminlarni tasniflash muammosi to‘g‘risida ilmiy izlanishlar ichida B.N.Golovin va R.Y.Kobrinlar tomonidan amalga oshirilgan “Terminlar haqidagi ta’limotning lingvistik asoslari” asari alohida e’tiborga molik.¹ Tadqiqotchilar unda terminologiyaning semantik tasnifini keltirgan. Ularning so‘zlariga ko‘ra, terminlar to‘rtta katta guruhga bo‘linadi: ilm-fan terminlari, texnika va ishlab chiqarish terminlari, boshqaruv terminlari, madaniyat va sport terminlari. Olimlarning ta’kidlashicha, ilmiy terminlarning o‘ziga xos xusu-

¹ Головин. Б.Н., Кобрин, Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах. М., “Высшая школа”, 1987, с.104.

siyati ularning konsepsiya bilan bog'liqligi (o'zaro bog'liqligi)dadir. V.M.Leychik terminologik tizimga quyidagi ta'rifni beradi: "Terminologik tizim (terminosistema) – bu ma'lum bir bilim yoki faoliyat sohasi muayyan nazariyasining ramziy modelidir".¹

Tilshunoslikda axborot texnologiya terminlarini ham alohida semantik maydon sifatida o'rganish mumkin. Bu semantik maydon quyidagi xususiyatlarga ega: a) ochiqlik belgisiga ega, chunki zamona zayli bilan unda yangi terminlar paydo bo'lib, iste'molga yaroqsizlari chetga chiqib turadi; b) bo'linuvchanlik xususiyatiga ega; d) ierarxik munosabatda bo'ladi; e) butun-bo'lak va jins-tur munosabatlari mavjud bo'ladi; f) substansionallikka ega, ya'ni, axborot texnologiya terminlari semantik maydoni ham o'zida narsa va hodisalar, voqealar, shaxslar va ularga xos bo'lgan belgi-xususiyatlarni qamrab oladi va bevosita kuzatishda terminlar orqali reallashadi.

Axborot-texnologiya terminlariga oid mavzuviy guruhni bir-biri bilan bog'liq bo'lgan to'rt guruhga ajratishni ma'qul ko'rdik: a) shaxs nomlari bilan bog'liq bo'lgan terminlar: *Abonent* – (ingl: *subscriber* rus: *абонент*), *operator* – (ingl: *operator* rus: *оператор*), *menejer* – (ingl: *manager* rus: *менеджер*), *axborot egasi* – (ingl: *information holder* rus: *владелец информации*), *g'arazgo 'y shaxs* – (ingl: *intruder* rus: *злоумышленник*), *qoidabuzar* – (ingl: *infringer* rus: *нарушитель*), *elektron hujjat jo'natuvchisi* – (ingl: *sender of the electronic document* rus: *отправитель электронного документа*), *broker* – (ingl: *broker* rus: *брокер*), *kreker* – (ingl: *cracker* rus: *крякер*), *xaker* – (ingl: *hacker* rus: *хакер*), *agent* – (ingl: *agent* rus: *агент*), *bloger* – (ingl: *bloger*, rus – *блогер*), *ti'joz* – (ingl: *client* rus: *клиент*), *dasturchi* – (ingl: *programmer* rus: *программист*);

b) narsa-qurol nomini bildiruvchi axborot-texnologiya terminlari: *Adapter* – (ingl: *adapter* rus: *адаптер*), *banner* – (ingl: *banner* rus: *баннер*), *bo'lgich* – (ingl: *divider* rus: *делитель*), *vinchester* – (ingl: *winchester* rus: *винчестер*), *disk* – (ingl: *disk* rus: *диск*), *kabel* – (ingl: *cable* rus: *кабель*), *kalkulator* – (ingl: *calculator* rus: *калькулятор*), *kamera* – (ingl: *camera* rus: *камера*), *kartrij* – (ingl: *cartridge* rus: *картридж*), *klaviatura* – (ingl: *keyboard* rus: *клавиатура*);

d) faoliyat-jarayon nomini anglatuvchi axborot-texnologiya terminlari: *Kommutatsiya* – (ingl: *switching* rus: *коммутация*), *konvergensiya* – (ingl: *convergence* rus: *конвергенция*), *ma'lumotlarni siqish* – (ingl: *data compression* rus: *сжатие данных*), *mahalliyashtirish* – (ingl: *localization* rus: *локализация*), *mikrodasturlash* – (ingl: *microprogramming* rus: *микрпрограммирование*), *chat* – (ingl: *chat* rus: *чат*), *xaktivizm* – (ingl: *hacktivism* rus: *хактивизм*), *formatlash* – (ingl: *formatting* rus: *форматирование*), *fazalash* – (ingl: *phasing* rus: *фазирование*).

Quyida tanlab olingan terminlarni tahlil qilamiz:

1. Abonent – fransuzcha so'z bo'lib, yozilmoq, obuna bo'lmoq ma'nolarini anglatadi. Abonentga ega bo'lgan shaxs yoki tashkilot (izohli lug'at. 27-bet). Abonent – xizmat ko'rsatuvchi axborot obyekt (tizim, tarmoq, majmua) bilan o'zaro ishlash huquqiga ega qurilma, yuridik yoki jismoniy shaxs (AKT izohli lug'ati. 2010, 7-bet). Abonent termini bu sohadan tashqari moliya va iqtisodiyot sohalarida ham qo'llaniladi. Abonent terminini semantik jihatdan kengroq tahlil qiladigan bo'lsak, bu termin o'zbek tiliga fransuz tilidan o'zlashgan. Abonent terminining umumiste'moldagi ma'nosi biror-bir aloqa kompaniyasiga obuna bo'lgan yoki ulangan shaxs nazarda tutiladi. Masalan, ucell abonenti, beeline abonenti, uzmobil abonenti va h.k. Xos ma'nosida esa xizmat ko'rsatuvchi axborot yoki aloqa tizimi, tarmog'i bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'lgan shaxs (bundan tashqari, biror qurilma yoki tashkilot) nazarda tutiladi. Hozirgi axborot-kommunikatsiya rivojlangan bir paytda bu termin nafaqat shu soha vakillariga, balki sohaga aloqasi bo'lmagan xalq vakillariga ham ma'lum va tushunarli bo'lgan termin sanaladi. Izohli lug'atda terminning aynan ma'nosi ochib berilgan. Maxsus lug'atda termini ma'nosini izohlashda ko'proq axborot-texnologiya sohasidagi vazifasiga bog'langan.

2. Operator – lotincha so'z bo'lib, ishlovchi, ishlab turgan ma'nolarni anglatadi. Murakkab mexanizmlarni pult yordamida boshqarib turadigan mutaxassis. Kino, tele- hamda videofilmlarni suratga oluvchi. Kompyuterlarda axborotlarni qayta ishlashda ma'lum maqsadda dastur tuzish ko'rsatmasining o'zaro mos kelishini ifodalaydigan matematik tushuncha.²

Axborot-texnologiyalarida, kino sanoatida, matematika sohalarida qo'llaniladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiya terminlarining izohli lug'atida elektr va pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish huquqiga

¹ Лейчик. В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. М., изд-во ЛКИ, 2007, с. 256.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд, А.Мадвалиев таҳрири остида. Тошкент, "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2006, 61-бет.

ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs.¹ Operator termini o'zlashma hisoblanadi, umumiste'moldagi ma'nosi biror-bir qurilma yoki mexanizmni boshqaruvchi shaxs. Xos ma'nosi esa kompyuterlarda axborotlarni qayta ishlashda ma'lum maqsadda dastur tuzish ko'rsatmasining o'zaro mos kelishini ifodalaydigan matematik tushuncha. Kundalik hayotda operatorning kino va videofilmlarni suratga oluvchi shaxs sifatidagi ma'nosi ko'proq qo'llaniladi.

Broker – turli ko'rinishdagi amallarda vositachi. Broker – inson bilan bir qatorda, elektron brokerlar ham faoliyat ko'rsatadilar. Informatikada broker amaliy dastur bo'lib, boshqa guruh dasturlarining o'zaro aloqasini ta'minlaydi. Buning misoli sifatida obyekt so'rovlari brokerini keltirish mumkin.²

Broker – (ingl. Broker – o'rtada turib vositachilik qiluvchi, dallol, makler) Tovar, valyuta, savdo birjalarida oldi-sotdi bitimlari tuzishda vositachilik (dallollik) qiladigan ayrim shaxs yoki firma.³

Broker terminini umumiste'mol ma'nosi ikki kishi o'rtasida vositachilik qiluvchi shaxs, xos ma'nosi esa turli xil dasturlar o'rtasidagi vositachi, dasturlarning o'zaro aloqasini ta'minlaydigan qurilma yoki shaxs. Tilimizga ingliz tilidan o'zlashgan bo'lib, bir necha sohalar (marketing, iqtisod)da qo'llaniladi.

Dasturchi–kompyuter ta'minotini yozuvchi kishi. Kompyuter dasturchisi deb kompyuter dasturlash bo'yicha mutaxassis yoki turli xil dasturiy ta'minot uchun kodlar yozuvchi mutaxassislarni atashadi. Amaliyotda dasturlashni formal tarzda o'qitadigan insonlarni ham dasturiy tahlilchi deb nomlash mumkin. Dasturchining asosiy ishlov tilini (Lisp, Java, Delphi, C++, h.k.) nomiga qo'shib xuddi veb muhitida ishlovchilarni veb nomlari bilan ishlatganday nomlashadi. Dasturchi atamasi ta'minot yozuvchisiga, ta'minot muhandisiga, kompyuter olimi yoki ta'minot tahlilchisiga nisbatan ishlatilishi mumkin.⁴ Dasturchi termini izohli lug'atga kiritilmagan, uning dastur⁵ shakli izohlangan ekan.

Kreker – xakerning internetda qabul qilingan nomlanishi. Tarmoqda haqorat so'zi hisoblanmaydigan xaker so'zidan farqli, aynan qo'poruvchi (sindiruvchi – “yomon odam”).⁶ Kreker termini xaker terminiga nisbatan so'zlashuvda deyarli faol emas. Izohli lug'atga ham kiritilmagan. Ingliz tilidan o'zlashgan, tuzilishiga ko'ra sodda.

Elektron hujjat jo'natuvchisi – rekvizitlarida nomi ko'rsatilgan hamda qabul qiluvchiga elektron hujjat jo'natuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs. Bu hujjatlarga nisbatan axborot vositachisi sifatida harakat qiluvchi shaxslar bundan istisno.⁷ Bu termin kompozitsiya usulida yasalgan bo'lib, birdan ortiq mustaqil ma'noli o'zak morfemalarning tobelashgan holda qo'shiluvi, birikuvchi orqali yangi so'z hosil qilingan. Bunday yasama so'zlar ikki yoki undan ortiq mustaqil ma'noli o'zak morfemalar ishtirokida hosil bo'lsa ham, yaxlitligicha bitta lug'aviy ma'no ifodalashga xizmat qiladi. Izohli lug'atda “elektron” termini izohlangan, lekin aynan yuqoridagi birikma shakli keltirilmagan.

Xulosa. Terminlarni tahlil qilish natijasida shaxsni bildiruvchi terminlarning miqdor jihatdan narsa-predmetni bildiruvchi terminlardan farq qilishini aniqladik. Shaxsni bildiruvchi axborot texnologiya terminlarining aksariyati o'zlashmaligi, tuzilish jihatdan esa sodda terminlar, birikma shaklidagi terminlar kabi shakllarini uchratdik va tahlil qildik.

Tursunbayev Baxtiyar Turabayevich (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti assistent o'qituvchisi; e-mail: bakhti_981@mail.ru)

RAMZIY VOSITALAR TARJIMALARINING PRAGMATIK VA KOGNITIV-LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada ramziy vositalar tarjimalarining pragmatika va kognitiv lingvistik xususiyatlarini ingliz va o'zbek tillaridagi tavsifi, tasnifi va qiyosiy-tipologik tahlili, shuningdek, muammo-ni nazariy hamda amaliy ahamiyati o'rganiladi.*

***Аннотация.** В данной статье рассматривается описание, классификация и сравнительно-типологический анализ прагматики и когнитивно-лингвистических особенностей переводов симво-*

¹ Axborot-komminkatsiya texnologiya terminlari izohli lug'ati. Toshkent, 2010. Qayta to'ldirilgan nashri.

² Shu manba.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд, А.Мадвалиев таҳрири остида. Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006, 357-бет

⁴ Axborot-komminkatsiya texnologiya terminlari izohli lug'ati. Toshkent, 2010. Qayta to'ldirilgan nashri.

⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд, А.Мадвалиев таҳрири остида. Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006, 573-бет.

⁶ Axborot-komminkatsiya texnologiya terminlari izohli lug'ati. Toshkent, 2010. Qayta to'ldirilgan nashri.

⁷ Шу манба.

лических средств на английский и узбекский языки, а также теоретическая и практическая значимость проблемы.

Annotation. In this article, the description, classification and comparative-typological analysis of pragmatics and cognitive linguistic features of translations of symbolic means in English and Uzbek languages, as well as the theoretical and practical significance of the problem are studied.

Kalit so'zlar: pragmatika, kognitiv lingvistika, konsept, obraz, ramz, antropotsentriklik, vaziyatlilik, protsessuallik, adreslilik, modallik, konseptuallik, interpretatsiyalanuvchanlik.

Ключевые слова: прагматика, когнитивная лингвистика, концепт, образ, символ, антропоцентричность, ситуативность, процедурность, адресуемость, модальность, концептуальность, интерпретируемость.

Key words: pragmatics, cognitive linguistics, concept, image, symbol, anthropocentricity, situationality, procedurality, addressability, modality, conceptuality, interpretability.

Ma'lumki, tilshunoslik doirasida pragmatika bilan bir qatorda, keyingi vaqtlarda kognitiv lingvistika ham shakllandi va uning asosiy vazifasi inson ongida kehadigan mental jarayonlarni lisoniy faoliyat bilan bog'liq holda o'rganish masalasi tadqiqotlarda o'z ifodasini namoyon qilmoqda.

Kognitiv lingvistika tildagi muloqot jarayonida dunyo haqidagi bizning bilimlarimiz qanday saqlanishi va tuzilishi tadqiqoti bilan shug'ullanadi hamda uning obyektini simvol bo'lmay, aksincha konsept kategoriyasi hisoblanadi. V.A.Maslovaning fikriga ko'ra, konseptlar – tilda o'z nomiga ega va insonning dunyo haqidagi madaniy-milliy tasavvurini aks ettiruvchi mental mohiyatlar hisoblanadi [3.79].

Albatta, bunday ta'riflar ko'pchilikni tashkil etadi, jumladan, bu borada O'.Q.Yusupov shunday deydi: "Konsept – bu tashqi yoki ichki dunyodagi biror narsa yoki hodisa haqidagi ongimizdagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo'lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya'ni baholashlardir" [1.5]. Olimning fikriga tayangan holda, quyidagilarni aytish mumkin, ya'ni, konsept tarkibidagi obrazlilik asosida simvol mavjud bo'ladi, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, konsept butun bilimlar majmuyi bo'lib, ramz uning bir tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi, misol uchun, kabutar konsepti obrazi tarkibida tinchlik, ayol, suyakli yor, barcha qushlar kabi sevgi ramziy ma'nolar mavjud bo'lib, unga deyarli barcha xalqlarda ijobiy munosabat bildiriladi.

Demak, ramz, dastlab, konsept tarkibida shakllanadi, uning obrazlilik konseptning bir tarkibiy qismi hisoblanadi va inson tafakkurini obrazlarsiz, ya'ni ramzlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Kognitiv lingvistikada konsept masalasi hozirgi kunga kelib, bir qator xorijiy olimlar, jumladan, N.A.Krasavskiy, E.V.Babayeva, S.L.Fesenko, N.A.Krasilnikova tadqiqotlarida atroflicha o'rganilgan.

Ingliz tilidagi badiiy asarlarning o'zbekcha tarjimalari poetik matn ifodasi masalasini tadqiq etgan Quadrat Musayev an'anaviy-magik raqamlar va frazeologizmlarning tarjimadagi talqini muammolariga asosiy e'tiborni qaratgan. Poetik timsollarning tarjimada tutgan o'rni va lisoniy ifodasini chuqur o'rgangan olim timsollarni ikki turga, ya'ni umumiy va juz'iy ramzlarga ajratadi: "Umumiy ramzlar – bu ikki tilda ham bir xil ko'rinishga ega bo'lgan timsollardir, **oq** rang deyarli hamma xalqlarda **rostgo'ylik**, **soflik** ramzi sifatida, **qora** – g'am-g'ussa, o'lim timsoli sifatida, **gul** go'zallik va ma'shuqa ramzi sifatida, bo'ri – vahshiylik va yovuzlik ramzi sifatida, tulki – ayyorlik va mug'ombirlik timsoli sifatida, ilon va chayon – zararkunandalik va yomonlik ramzi sifatida qabul qilingan". Muallifning ta'kidlashicha, semizlikka nisbatan, inglizlarda ham, o'zbeklarda ham salbiy munosabat mavjud bo'lganligi sababli, semiz odamni cho'chqaga o'xshatiladi: *as fat as a pig – cho'chqaday semiz*. Q.Musayev ingliz va o'zbek tillaridagi matnlarni qiyosiy o'rganishda, yuqoridagilarga qo'shimcha qilib, shunday yozadi: «Ijobiy ta'riflanayotgan qizning yuzi inglizlar nazarida, **qizil gilosga** yoki atirgulga o'xshab ketsa, o'zbeklar nazarida **qizil olmaga** o'xshab ketadi: *as red as a cherry (rose), olmaday qizil*. Ingliz tilida beozorlik timsoli sifatida kabutar qabul qilingan bo'lsa, o'zbek tilida musicha qabul qilingan: *as harmless as a dove, musichaday beozor*. Engillik ramzi ingliz tilida par bo'lsa, o'zbek tilida qushdir: *as light as a feather, qushday engil*. Jismoniy baquvvat odamlarni inglizlar otga muqoyasa qilishsa, o'zbeklar filga o'xshatadilar: *as strong as a horse, filday baquvvat* [4.56].

Shu o'rinda Q.Musayev yana bir muhim jihatga e'tiborni qaratadi: "Obrazli asoslari o'zlari taalluqli bo'lgan xalqlar tomonidan ma'lum harakat yoki xislat ramzi sifatida qabul qilingan predmetlarning nomlaridan tashkil topgan frazeologizmlarni to'g'ri tarjima qilish nihoyatda murakkab. Shoshma-shosharlik yoki e'tiborsizlik natijasida ko'pgina iboralar harfxo'rlik qurboni bo'lib qolishlari mumkin, ya'ni, aslyatda aks etgan ma'no va stilistik funktsiya tarjimada qayta yaratilmay qolishi mumkin. Inglizcha **as strong as a horse** iborasi o'zbek tiliga, uning obrazli asosini aynan saqlagan holda, **otday baquvvat** deb tarjima qilish aslyatda aks etgan stilistik effektning tarjimada yaratilmay qolishiga olib keladi, chunki shu o'rinda o'zbek tilida **filday baquvvat** birikmasi qo'llaniladi, ya'ni, yuqoridagi inglizcha lisoniy konstruksiya o'zbek tiliga

filday baquvvat iborasi orqali tarjima qilinishigina o'girmaning adekvatligini ta'minlaydi" [4.73]. Demak, asliyatga xos bo'lgan umumlisoniy va milliy jihatlarining tarjimada aks ettirilishini o'rganish tarjimashunoslik, qiyosiy uslubshunoslik va pragmatikat-shunoslikning dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Ramz muammosi kognitiv lingvistika doirasida maxsus tadqiq qilingan. N.M.Djusupovning dissertatsiyasida ramzning kognitiv-semantik va lingvostilistik xususiyatlari aniqlangan. Ishda tadqiqot materiali sifatida Muxtor Avezovning "Ko'kserak" qissasi, Chingiz Aytmatovning "Kunda" va Jek Londonning "Oq so'yloq" (White Fang) asarlari xizmat qilgan. Mazkur asarlarda bo'ri va itning ko'pgina xalqlarning madaniy an'alarida ambivalent xarakteri, ya'ni salbiy va ijobiy ma'nolarga egaligi o'rganib chiqilgan. Shuningdek, tadqiqotchi bo'ri ramzning mifologik xarakterga egaligi va turkiy xalqlarning ajdodlari ekanligi degan xulosaga keladi [6.26].

Tarjimaning pragmatik xususiyatlari tadqiqida fondagi (qo'shimcha, yashirin, ma'noviy) bilimlar, bilimlar fondi (zahirasi), vertikal kontekst, makrokontekst, vaziyatli kontekst, muloqot sharoiti singari tushunchalar keng qo'llanilgan. Badiiy matnni keng tarixiy va sotsiomadaniy kontekstni hisobga olmasdan tarjima qilish imkonsizligi tarjimashunoslikda allaqachon ta'kidlab o'tilgan (R.Yakobson, V.V.Vinogradov, Y.Lotman, I.R.Galperin). Shunga qaramay, tarjimaning yuqorida keltirilgan ta'riflarini hisobga olib, tarjimada pragmatik xususiyatlarni qayta yaratish tushunchasi ancha ma'qul ekanligini tan olish kerak. Zero, u bir tomondan tarjimon, ikkinchi tomondan esa o'quvchi faoliyatining ikki tomonlama xarakterini qayd qiladi. Shunday qilib, tarjimada pragmatik xususiyatlar "matn yaratilishi hamda qabul qilinishining umumiy lingvokreativ jarayoni" sifatida ko'rib chiqish mumkin. Tarjimaning pragmatik xususiyatlarida, kommunikativ-pragmatik, kognitiv va estetik-madaniy darajalarni o'z ichiga oluvchi murakkab, ko'p o'lchamli, ko'p pog'onali hosilani namoyon etuvchi makrokontekst asosida ma'no va funksiyalari aniqlanadigan til birlikmalarining tarjimasini haqida ba'zi fikr va mulohazalarni ko'rib chiqamiz.

Ramziy vositalarning ingliz va o'zbek tillaridagi tavsifi, tasnifi va qiyosiy-tipologik tahlili hozirgacha kam o'rganilgan muammo hisoblanib, xorijiy va o'zbek filologiyasida bu masalaga doir qiziqarli ilmiy ishlar ilgari surilgan. Xususan, chex olimasi G.Vanechkova ramziy vositalarni o'rganib, shunday xulosaga kelgan: "She'riy ramzlarni turli usullar orqali tasniflash mumkin. Ularga tematik, funksional tavsif berish, poetik ramzning shakllanish usullarini, uning ramziy strukturasi tadqiq qilish mumkin; poetik ramzlarning shoir ijodida qo'llanishini kuzatish va boshqa troplar bilan aloqasini belgilash mumkin" [2.138]. Albatta, bu borada E.V.Guliga va E.I.Shendels tomonidan taklif qilingan tasnif faqat ramziy vositalargagina tegishli bo'lmasdan, barcha tematik leksika uchun umumiy hisoblanadi va ular obyektiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1. Real borliq: I. Jonlilik (jonli tabiat), jonlilikning bilvosita ifodalovchilari. II. Jonsizlik: jonsiz tabiat: a) landshaft; b) yer, osmon; d) ob-havo, tabiat hodisalari. III. Inson ta'siri ostida paydo bo'lgan jonsiz borliqning predmet va hodisalari: a) insonning hayotiy faoliyati; b) hayvonot dunyosining hayotiy faoliyati.

2. Real mavjud bo'lmagan borliq. Bu tasnif orqali ifodalangan leksik birliklarning qo'llanilish ko'lamini inson faoliyatining barcha sohalarini, ya'ni, uning tevarak-atrofidagi narsa-hodisalarni ham o'z ichiga qamrab olganligini ko'rishimiz mumkin.

T.A.Shkuratova ingliz she'riyatida mavjud bo'lgan ramzlarni tasniflar ekan, ularni uch guruhga ajratadi:

1. 1) tabiat hodisalari, o'simlik nomlari; 2) landshaftning alohida elementlari; 3) hayvon nomlari; 4) tosh nomlari; 5) dunyo tomonlarining nomlari; 6) rang nomlari.

2. 1) inson tomonidan yaratilgan me'morchilik yodgorliklari; 2) inshootlar, inson faoliyatiga tegishli predmet va mahsulotlar; 3) qurollar; 4) musiqa asboblari; 5) maishiy predmetlar; 6) insonni bezaydigan predmetlar; 7) kiyimlar; 8) qishloq xo'jaligi asboblari; 9) mebel jihozlari.

3. She'riy subyektlardan tashkil topgan bo'lib, obyektiv voqelikda mavjud jismoniy shaxslar, ularning tasvirlanishi orqali romantik qahramon – gadoy, to'fonda suzuvchi, o'roqchi, musofirning olamni qay tarzda tasavvur etishi tasvirlanadi [5.146].

Ingliz tilida quyidagi ramzik guruhlar tasnifi tavsifiya etilgan: 1) samoviy kuchlar (yulduzlar, tabiiy hodisalar, landshaft, fazo, vaqt); 2) o'simliklar; 3) hayvonlar; 4) insoniyat, yosh, jins, tana a'zolari, imoishora, ko'ngil; 5) harakat, hodisa (bayram, qurbonlik, o'yin, raqs, teatr, marhumlarning diniy marosimlari); 6) predmetlar (kema, asbob, belgilar (podsho hokimiyatining ramzi bo'lgan predmetlar: toj, taxt, saltanat hassasi va b.), kiyim, bezak, qurollar va b.); 7) oziq-ovqat va iste'mol mahsulotlari, hid; 8) inshootlar; 9) til, yozuv, ohang, musiqa; 10) sonlar; 11) belgilar, geometrik figuralar, naqsh; 12) ranglar.

"Herder-leksikon ramzlari"da ham ramzlar shunday tasniflangan: 1) hayvonlar va mifologik hayvonlar (malasan, burgut, bir shoxli ot, qo'zichoq, sher, qaqnus, ilon); 2) o'simliklar (mehrigiyoh, liliya, ledvya-

nets, mimoza); 3) predmetlar (kamar/belbog‘, bolg‘a, pichoq, plug, qum soat, chalg‘i); 4) tabiat (quyosh, oy, tog‘, vodiy, nur, soya, olov, suv); 5) meditatsiya belgilari (Yin va Yang (Yin und Yang), yantra (Yantra); 6) ranglar.

Musiqaqa oid ramzlar o‘ziga xos tasnif qilingan: “vizual ramzlar (notalar), akustik ramzlar, tilning ramzik doirasi, allegorik tip (sonlar, harakat), sinestetika, affekt ramzikasi, his-tuyg‘u ramzikasi, sozlash ramzikasi va, nihoyat, assotsiativ ramzika”.

Ramzlarning tasnifi internet materiallarida ham mavjudligi kuzatildi: 1) mantiqiy ramzlar; 2) harakat, belgi, ranglar; 3) ramzik harakatlar yoki imo-ishoralari; 4) tovush ramzikasi; 5) ramzik nomlar; 6) she‘riy ramzlar; 7) umumiy-madaniy o‘ziga xos ramzlar [www.symbolanalyse.de].

Yuqoridagi tasniflar shuni ko‘rsatdiki, til sathida mavjud bo‘lgan ramziy vositalar inson faoliyatining deyarli barcha sohalarini o‘z ichiga olganligi bilan xarakterlanadi. Garchi ramzlar turli fan sohalarini vakillari tomonidan va turlicha nuqtai nazardan tasniflangan bo‘lsa-da, ushbu dissertatsiya uchun muhim hisoblana- di. Shu bois biz shunday tasniflarga tayangan holda, ramziy vositalarni tavsiflab, ularni guruhlarga ajratgan holda o‘rganamiz. Ramziy vositalarning qiyosiy o‘rganilishi natijasida ularning polisemantik, omonimik, sinonimik va antonimik xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Tadqiqotda muayyan ramz tarkibida bir ne- cha ma‘no ifodalanishi aniqlandi. Misol uchun, *momaqaldiroq* yomon xabar, g‘azab, jahl, tajovuzkor tuy- g‘uni ifodalovchi ramziy obraz hisoblansa, obnusus daraxti husnurat, ajoyiblik va go‘zal qaddi-qomat timsoli vazifasida keladi.

Ramziy vositalarning o‘ziga xosligini bildiruvchi yana bir jihati – bu sinonimiyaga moyilligidir. Ularning nemis tilida sinonimik uyaga ega bo‘lgan 60 ta qatori vujudga keldi. Ikki ma‘noli ramziy vosita- lar:

Qo‘rquv: quyon, ansol (osina).

A‘lo: gullash, toj.

Bir xillik: provinsiya, andoza.

Mustahkamlik: qoya, devor.

Parvoz qilish: bug‘, qanot.

Sabr-toqatlik: qo‘zichoq, sovliv.

Qorishma: salat, germafrodit.

Tovlanish: oltin, yulduz.

Kattalik: xoda, mamont.

Xunuklik: boyqush, tun.

Uzunlik: solityor, loviya uchun tiragich (Bohnenstange).

Kichiklik: igna, nol.

ramz	Ma‘nosi
<i>Uydagi hukmronlik</i> :	shippak, kalit.
<i>Jasurlik</i> :	burgut, sher.
<i>Hukmdorlik</i> :	to‘q qizil, taxt.
<i>Rahbarlik</i> :	rul, ota.
<i>Kuch</i> :	qo‘l, bo‘g‘ silindri.
<i>Aldamchi yorug‘lik</i> :	niqob, ko‘pik.
<i>Og‘riq</i> :	tishlash (chaqish), tosh.
<i>Og‘irlik</i> :	qo‘rg‘oshin, tosh.
<i>Himoya qilish</i> :	qo‘l, qalqon.
<i>G‘alaba</i> :	dafna, palma.
<i>Ko‘tarilish</i> :	parvoz, qanot.
<i>Qaysarlik</i> :	taka, eshak.
<i>Bepushtlik</i> :	tikan, tosh.
<i>Itoatkorlik</i> :	bo‘yinturuq, chang/hok.
<i>Ifloslik</i> :	cho‘chqa, astragal/dukkaklilar oilasiga mansub o‘simlik.
<i>Begunohlik</i> :	qo‘zichoq, kabutar.
<i>Tobelik</i> :	qo‘g‘irchoq, koptok.
<i>Yumshoqlik</i> :	par, tvorog.
<i>Donolik</i> :	ilon, boyqush.

<i>Qimmatlik:</i>	ko'z olmasi, gavhar.
<i>Qimmatsizlik:</i>	nol, kepak.
<i>Yovvoyilik:</i>	yo'lbars, bo'ri.
<i>Oqlik:</i>	marmar, qor.
<i>Jahldorlik:</i>	ho'kiz, safro.
<i>Sinuvchanlik:</i>	oyna, chinni.
<i>Uziluvchanlik:</i>	ip, pishiq ip.
<i>Xarobalik:</i>	zahar, mash'al.
<i>Boshpana:</i>	qal'a, sichqon kavagi.

3-jadval

Uch ma'noli ramziy vositalar

ramz	Ma'nosi
<i>Tirishqoqlik:</i>	chumoli, asalari, boyqush.
<i>Harakatchanlik:</i>	toychoq, tog' kiyigi, latcha.
<i>Tinchlik:</i>	tun, zaytun shoxi, kabutar.
<i>Sovuq his-tuyg'u:</i>	balig, marmar, treska.
<i>Baxillik:</i>	kalxat, akula, sirtlon.
<i>Iztirob:</i>	tikan, tikanli chambar, salib/xoch.
<i>Notavonlik:</i>	tuman, sovun pufagi, chuvalchang.
<i>O'kinch:</i>	boyqush, mops, safro.
<i>O'sish:</i>	daraxt, o't, o'simlik.

To'rt ma'noli ramziy vositalar:

1. *Ingichkalik/xipchalik:* loviya tiragichi, ip, soch, igna, pishiq ip.
2. *Qattqlik/mustahkamlik:* olmos, temir, qoya, po'lat, tosh.
3. *Hayot:* daraxt, g'uncha, puls urushi, sharbat.
4. *Go'zallik:* gul, toj, nilufar, oqqush, obnus daraxti.

Besh ma'noli ramziy vositalar:

1. *Nodonlik:* maymun, eshak, buzoqcha, qo'y, g'oz.
2. *Baxtlilik:* qo'ng'iz, uzuk, yetti, yuz, ming.
3. *Ish:* teri, tog', barshchina, ter, qodoq.
4. *Tezlik:* chaqmoq, parvoz, tog' kiyigi, elish, g'ildirak o'qi, o'q.

Olti ma'noli ramziy vositalar:

1. Sevgi: guldasta, yurak, atirgul, qizil olma, gul, ko'z.
2. *Tozalik:* gul, bokira qiz, nilufar, quduq, qo'zichoq, suv.

To'qqiz ma'noli ramziy vositalar: *Kuch:* burgut, xoda, ayiq, chaqmoq, ko'krak, bug', eman daraxti, sharbat, ho'kiz.

O'n bir ma'noli ramziy vositalar: 1. *O'lim:* bo'ron, ustuxon, tosh, boyqush, kuz, qarg'a, chayon, sfinks, qora, tun, qish.

Har bir tilda pragmatik xususiyatlarni, ya'ni, qarindoshlik, birodarlik, o'zaro yaqinlik munosabatlarini ifoda etadigan so'zlar borki, tarjimada ularni qanday berish ba'zan chigal muammolarni keltirib chiqaradi. Jumladan, zohiran qaraganda, inglizcha *mother* so'zini ruschaga *мать*, o'zbekchaga *oyi*, tojikcha "do-dar"ni, o'zbekchaga *aka*, ruscha «зять» *кучов* so'zlari bilan juda oson almashtiraverish mumkinday tuyuladi. Aslida, bu so'zlarning har biri bir necha ma'nolarda keladiki, u yoki bu tekstda ular anglatgan ma'no jilolari kengroq kontekst yordamida oydinlashadi. Masalan, ruscha *моя братья* birikmasi o'zbekchaga "akalarim" deb ham, "ukalarim" deb ham, va nihoyat "aka-ukalarim" tarzida ham o'g'irilishi mumkin.

Tarjimada pragmatik xususiyatlarni ifoda etuvchi nomlar tarjimasi muammosi ham tarjimashunos olimlar oldida turgan fazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Mazkur masala yuzasidan tadqiqotlar olib borilganiga qaramasdan, haligacha tadqiqotchilar e'tiboridan yana bir kichkina masala chetda qolmoqda. Bu ham bo'lsa, ma'lum so'zlarning aziz-avliyo payg'ambarlar nomlari hamda ularning kishi nomlarini ona tiliga qanday tarjima qilish muammosidir.


Inglizcha nomlar haqida gap ketganda, ular ham, asosan, transliteratsiya va transkripsiya yo'llari bilan o'g'irilishi kerak, toki ularni eshitgan, o'qiganda kitobxonning ko'z oldida ingliz kishisining timsoli

namoyon bo'lsin. Chunonchi, ruschaga John ismini "Ivan", Nicolas – "Nikolay", Michael – "Mixail" deb tarjima qilib bo'lmaydi. Shu sababdan aytaylik, Charlz Dikkens qalamiga mansub "Nicholas Nickelby" romaning nomi rus va o'zbek tillariga transliteratsiya yo'li bilan "Nikolas Nickelbi" tarzida o'giriladi. Bino-barin, Piter Abrahamsning "Qabrdagi gulchambar" asari personajining nomi "Michael" tarjimada transkripsiya yo'li bilan "Maykl" (bu vaziyatda transliteratsiya usulidan foydalanish asar personaji nomini ruslashtirib, "Mixail" bo'lishiga olib kelgan bo'lardi) tarzida o'girilgani ayni muddao.

<i>Help, Michael! Your woman is froten stiff</i> (Peter Abrahams. A Wreath for Udomo, London, R. 109)	<i>Maykl, yordam ber! Jufti haloling sovuqdan qotib qolibdi</i> (Piter Abrahams. Qabrdagi gulchambar, T., 1970, 113-bet)	<i>Майкл, на помощь! Твоя благоверная окоченела.</i> (Питер Абрахам. Венок Майклу Удомо, М., 1965, с. 101)
---	--	--

Ammo diniy kitoblarda zikr etiltan avliyolar, maloika va payg'ambarlarning nomlarini tarjima qilishda butunlay o'zgacha yo'l tutiladi.

Har bir darajani batafsil ta'riflashga berilmagan holda, ularning asosiy xarakteristikalarini qayd etamiz. Verbal-semantik daraja struktur-semantik butunlik, bog'liqlik, leksik, grammatik rasmiylashtirilganlik, stilistik markirlanganlik (obrazlilik, emotivlik, baholanganlik), implitsitlik va amabivalentlilik singari parametrlarni o'z ichiga oladi. Kommunikativ-pragmatik daraja antroposentriklik, vaziyatlilik, protsessuallik va adreslilik kabi tamoyillarga asoslanadi. Kognitiv daraja modallik, konseptuallik, interpretatsiyalanuvchanlik va intertekstual (intermatnli)lik singari parametrlarning ko'rib chiqilishini nazarda tutadi. Tarjimada pragmatik vazifalar estetik-madaniy darajasi madaniy ahamiyati, milliy o'ziga xosligi, aksiologikligi va lingvokreativligi bilan xarakterlanadi. Biz tomonimizdan taklif qilinayotgan tarjimada pragmatik xususiyatlarning darajaviy modeli quyidagi tasvirda aks etgan:



Tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqadigan bo‘lsak, tarjimada pragmatik xususiyatlarni qayta ifodalanishi, bevosita sitilistika va leksikologiya fanlari bilan bog‘liq bo‘lib, unda asliyat tarjimasining pragmatik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish tarjimonlardan chuqur stilistik bilim talab qiladi.

Tarjimonlar matnni pragmatik xususiyatlarini tashkil etishga qarab turli xil taktika va strategiyalardan foydalanadilar. Tarjimonning asosiy vazifasi nafaqat matnning ma’nosini aniq to‘liq ifodalash, balki muallifning stilistik uslubini, tilning va matnning ko‘chma ma’nodagi so‘z iboralarining pragmatik xususiyatlari tizimida yaratilgan assotsiativ shaklni uzatishdir. Buning uchun turli xil tarjima taktikasi va strategiyalari qo‘llaniladi.

Pragmatik xususiyatlarni teng ravishda tarjima qilish taktik vazifasi, til tizimining pragmatik manbalarini izlash, tarjimoni o‘quvchiga muallifning ona tilida so‘zlovchilar tomonidan asl matnni idrok etishiga mos keladigan shunday idrokka yaqinlashtirish, taktik vazifa matnning pragmatik ma’nosini maksimal darajada saqlash strategiyasi bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusupov O‘.Q. Konsept va linvokulturema xususida. Qiyosiy-chog‘ishtirma, tipologik va umumiy tilshunoslikning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, Andijon, 2010, 9-bet.
2. Ванечкова Г. Поэзия, символ, перевод. Прага, 1990, 274 с.
3. Маслова В.А. Введение в лингвокультурологию. М., 1997, 329 с.
4. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. Дарслик, Тошкент, “Фан”, 2005, 352-бет.
5. Шкуратова Т.А. Семантические особенности поэтических символов. Дис. ...канд. филол. наук, Ростов на-Дону, 2000, с. 176.
6. Джусупов Н.М. Лингвокогнитивный аспект исследования символа в художественном тексте. Автореф.дис. ... канд.филол. наук, Т., 2006, 26 с.

Xabibulloyeva Gulchehra Komiljonovna (Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti “Xorijiy til va adabiyoti quyi kurslar” kafedrasida o‘qituvchisi),

Xo‘shboqova Nasiba Nurqobil qizi (Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti, “Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar” kafedrasida o‘qituvchisi),

Murodova Sevara Zoir qizi (Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti “Xorijiy til va adabiyoti quyi kurslar kafedrasida” o‘qituvchisi; e-mail: gulchehrahabilloyeva@gmail.com)

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA GEOGRAFIK ATAMALAR VA TOPONIMLARNING TARJIMASI

***Annotatsiya.** Ingliz tilida geografik atamalar juda xilma-xil bo‘lib, ularning aksariyatining kelib chiqish vaqti, asosan, geografik kashfiyotlar va bundan keyingi davrga to‘g‘ri keladi. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi geografik toponim va atamalarining qanday tarjima qilinishi va ayrimlarining kelib chiqishi haqida ma‘lumot berilgan. Geografik toponimlar juda ko‘p o‘zbek olimlari tomonidan o‘rganilgan bo‘lishiga qaramay, hali ham sohada qilinadigan ishlar va qiyosiy usulida qilingan tarjimalar juda kam.*

***Аннотация.** Географические термины в английском языке весьма разнообразны, а время возникновения большинства из них в основном соответствует периоду географических открытий и далее. В данной статье представлена информация о том, как перевести географические топонимы и термины на узбекский и английский языки, а также о происхождении некоторых из них. Несмотря на то, что географические топонимы изучаются многими узбекскими учеными, работ в этой области и переводов, выполненных методом контрастирования, пока очень мало.*

***Annotation.** Geographical terms in the English language are very diverse, and the time of origin of most of them mainly corresponds to the period of geographical discoveries and beyond. This article provides information on how to translate geographical toponyms and terms in Uzbek and English and the origin of some of them. Despite the fact that geographical toponyms have been studied by many Uzbek scientists, there are still very few works in the field and translations made by the method of contrasting.*

***Kalit so‘zlar:** geografiya, iqlim, krater, kanyon, anhor, termin, lug‘at, sheva, umumiy nom, mahalliy.*

***Ключевые слова:** география, климат, кратер, каньон, канал, термин, лексика, диалект, общее название, местный.*

***Key words:** geography, climate, crater, canyon, channel, term, vocabulary, dialect, common name, local.*

Kirish. Ko'pgina adabiy asarlarda geografik iboralar va atamalar nima ekanligi haqida turli xil urg'ular beriladi. Ular ba'zida atama va terminni aralashirib yuborishadi. Haqiqatda atama muayyan hodisa, belgi yoki faoliyat uchun, so'z esa umumiy nomdir. So'z birikmasi ham atama, ham joy nomidan tuzilgan. Masalan, momaqaldiroq, chaqmoq, sharshara yoki girdob, olma, ko'lmak yoki buloq, tutun yoki barg, Jumabozor yoki Qumqo'rg'on va hokazo. Termin lotincha so'zdan olingan ibora so'z yoki so'z turkumiga ishora qiladi. U texnologiya yoki kasbning ma'lum bir sohasida muayyan bir fikrni aniq va izchil ifodalovchi o'ziga xos ot, ism yoki nisbiy ot bo'lishi mumkin.

Har ikkisi ham atama. Ba'zi so'zlar yoki iboralar vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. Masalan, fan nomini ko'rib chiqing: uni geografiya deb atash afzalmi yoki shunchaki jo'g'rofiya deb atash afzalmi? Geografiya atamasini tashkil etuvchi "geo"-yer va "grafo"-tavsiflash so'zlari yunon tilidan kelib chiqqan.

Jo'g'rofiya – bu inglizlar va turklar tomonidan bizga kirib kelgan geografiyaning buzilgan shaklidir. Geo-yer atamasi geografiya, geologiya, geomorfologiya, geofizika, geotektonika va boshqa so'zlarni o'z ichiga olgan bir qator akademik sohalarga tegishli so'z hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan akademik so'zlarining hammasi ham o'zgarmagan. Agar biz geografiya so'zini o'zgartirsak, etimologiya va ilm-fan nuqtai nazaridan xato qilamiz. Chunki jo'g'rofiyaning asosiy ma'nosi o'zgargan. Atamalar keng qamrovli tushunchaga ega bo'lishi va aniq, qisqa va to'liq ma'noga ega bo'lishi kerak. Keyinchalik muvoziy, mador, bahr va jo'g'rofiyun kabi arab tilida paydo bo'lgan atamalardan foydalanilmaydi, chunki ularni ko'pchilik tushunishi qiyin. Shuning uchun ulardan foydalanish tavsiya etilmaydi. Ularning o'rnini parallel, tropik, dengiz (okean) va geograf degan mashhur atamalar egalladi. Ular o'zbek tilining grammatik qoidalariga va til normalariga mos bo'lishi kerak.

Turli xalqlardan keltirilgan iboralar har bir davlatning so'z boyligini boyitadi. Shu jumladan geografik atamalar ham kirib keladi. Masalan: siklon, antisiklon, ekvator, plyaj, garmsel, tornado, tsunami va boshqalar. Chet ellar va turli xalqlar bilan aloqaning kuchayishi – ko'plab iboralar, atamalar, tushunchalarining kirib kelishiga sharoit yaratadi.

Biroq, buning uchun bizda mavjud bo'lmagan va tarjima qilib bo'lmaydigan so'zlarni ishlatishimiz kerak. Biz allaqachon bilgan yoki tarjima qila oladigan atamalardan foydalanishdan qochish muhimdir. Ilm-fan, texnologiya va ishlab chiqarish rivojlanishi bilan yangi atamalar doimiy ravishda paydo bo'ladi, eskirganlari esa bosqichma-bosqich qo'llanilmaydi. Geografik tushunchalarni shartli turkumlashda ilmiy, ommabop (mahalliy), xalqaro, toponimik va tarjima terminlariga bo'lish mumkin. Milliy terminlar – xalq vakillarining ko'pchiligi tushunadigan, uning adabiy va ilmiy adabiyotida mustahkam o'rin egallagan atamalardir. Tog', tekislik, dara, ko'l, soy, vodi, jar, cho'qqi, g'or, toshqin, bulut, yomg'ir, qor, qor ko'chki, dovon va hokazolar bunga misol bo'la oladi.

Mahalliy so'zlar – bu ma'lum bir hudud yoki tilda qo'llaniladigan va u boshqa mintaqa yoki tilda so'zlashuvchilar tomonidan tushunilmasligi mumkin bo'lgan iboralar. Jumladan, tog'li Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida g'azo, adok, xovar kabi iboralar, Xorazm shevasida yap, arna, zayq, xariq, solma, yorma kabi atamalar mavjud. Aksariyat mamlakatlar xalqaro – baynalmilal terminologiyadan bir xil tarzda foydalanadilar, chunki ular boshqa tillardan kelib chiqqan. Geografiya, lyoss, geyzerlar, karstlar, del-talar, artezian suvlari, siklonlar, antisiklonlar, feonlar, kondensatsiya yadrolari, kristallar va boshqalar shu tavsifga mos keladigan ilmiy nomlarga misol bo'la oladi. Suv iste'moli, bosh suv havzalari, suv havzalari, qirg'oqlar va havzalar tarjima qilingan terminologiyaning bir nechta misolidir.

Metodologiya. Joy nomlarining kelib chiqishiga oid nazariyalar qanchalik taxminiy bo'lsa, ularning soni ham shunchalik ko'p. Har qanday xalq tilida geografik nomlar mavjud bo'lib, ulardan ba'zilari tushunarli, boshqalari esa murakkab va tushunish qiyin. Oddiy ko'rinishiga qaramay, ba'zi ismlarning ma'nolari aslida ancha murakkab. Qora, oq, ko'k, sariq kabi o'zbekcha rang ko'rsatkichlari toponimlarda bu rang ma'nosi bilan kam qo'llaniladi. Masalan, qora rang dahshatli yer, sharpa, past, shimol yoki qor yo'qligini anglatishi mumkin. Joy nomiga kiritilganda, u ham xuddi shunday talqin qilinishi mumkin.

Evropaning eng shimoliy dengizi bo'lgan Qora dengizni olaylik. Past tog' Qoratog', Qorasuv daryosi (Farg'ona va Surxondaryo vodiylarida), buloq suvi. Toponimlarda oq so'zi ham boshqa ma'noga ega. Masalan, Oqtapa boyonlar tepaligini, oqlar tepaligi qorlar tepaligini yoki yorqin tepalikni bildirsa, Oqtog', Oqtapa va Oqqum o'simliklar tomonidan mustahkamlanmagan harakatlanuvchi qumni anglatadi. Stol, xotin, oy, ayron kabi so'zlar ham turli mazmunda qo'llanib, o'xshash toponimdir. Jumladan, Taxtabozor – tekis qavatli bozor, Xatinko'prik – tosh ko'prik, Oydinko'l – ochiqko'l, tiniq suvli, Ayronko'l – loyqa suvli ko'l. Toponimist olimlar joy nomlarini tadqiq qilib, ularning kelib chiqishi, ma'nosi va o'zgarishini ko'plab xalqlarda qayd etgan bo'lsalar ham, ularning kelib chiqishi, ma'nosi va hatto qaysi tilda paydo bo'lgani hozirgacha noma'lum. Bunday geografik nomlar juda ko'p. Shularni hisobga olib, H.H.Hasanov geografik

nomlarni ikki turkumga ajratadi: ayon nomlar (til va ma'nosi o'z-o'zidan ma'lum) va noayon (til, ma'no va kelib chiqishi noaniq) nomlar. Ayirtov, Bog'ishamol, Jarariq, Chukursoy, Yakkasoroy, Avstraliya, Volgograd, Amerika, Kolumbiya, Bog'ishamol, Kumushkon, Oltintopgan, Yangiobod, Tinch Okean, Issiqko'l kabilar yaqqol ko'rinib turibdi. Ayrim joy nomlarining geografik joylashuvi, ayrim belgilari nomning o'zidan anglashiladi; Kavkazorti, Janubiy Olamushuk, O'rta Chirchiq, Rostov-Don, Janubiy Xitoy dengizi, Zadaryo, Unguzorti tog'lari va boshqalar. Ammo Ladoga, Farg'ona, Romiton, G'iduvon, Taymir, Kolima va boshqa nomlarning ma'nosi unchalik aniq emas. Ba'zan sodda va tushunarli bo'lib ko'rinsa-da, Uchquduq, Beshqo'rg'on, Qo'shtut, Yettiterak kabi toponimlar orasida Beshariq, Oltiariq, Peshariq, O'rtariq kabi muqobil ma'noli nomlar ham uchraydi. Yong'oq, Ko'kterak, Toshkent, Toldiqo'rg'on, Olmaliq, Belgrad kabi toponimlarda noaniqlik mavjud. Toshkent shahri ilk paydo bo'lganida u yerda yong'oqzor yoki daraxt o'sganmidi? Hamma binolar toshdan qurilganmi? Toshdan yasalgan istehkom bormi? Shahar tosh devor bilan o'ralganmi? Bular aniq emas.

Bizning geografik lug'atimiz va terminologiyamiz 1937-yildan beri ko'plab salbiy o'zgarishlarga uchradi. Ma'lum ma'noda tilimiz milliy tarovatini yo'qotib, yevropalashgan. Yasama so'zlar o'ylab topilgan. Darhaqiqat, rus tili yoki boshqa tillar orqali kirib kelgan xorijiy terminlar asosan arab, fors-tojik va turkiy atamalarni o'rini egalladi. Bundan tashqari, bir nechta terminologiya bo'yicha turli fikrlar bildirilgan. Tabiiyki, ularning har biriga qo'shila olmaymiz. Ekvator o'rniga xattiistvo, tropik o'rniga mador, orbita, okean o'rniga ummon, parallel o'rniga muvoziy, qit'a emas, balki qarrat kabi arxaik va eskirgan atamalardan foydalanish ham taklif qilingan. Ilm-fan rivojlanishi bilan yangi terminologiya paydo bo'ladi, boshqalari esa eskiradi. Shu sababli ba'zi bir arxaik terminologiyani xalq tiliga majburan qaytadan kiritish noto'g'ri. Bunday so'zlarni adabiy tilda qabul qilingan taqdirda ham qo'llash dargumon. Tavsiya etilgan atamalar – karta o'rniga xarita, zapovednik o'rniga rezerv, kanal o'rniga ariq kabilar lug'atga kiritilishi o'rinli deb hisoblanigan. Biroq, ularning hech biri bu so'zlar kabi mashhurlikka erisha olmaydi.

Muhokama va natija. Turli xil internet manbalarda ushbu atamalarning inglizcha ekvivalentini qidirganimizda, ba'zi geografik atamalar va atamalar turli xil tarjimalarga ega. Masalan, "kanyon" so'zi o'zbek tilida ba'zan tarjima qilinmasdan qo'llaniladi, lekin biz uni qidirsak, "Collins" elektron lug'atida bu so'z daraga yoki jarlikka, ayniqsa Shimoliy Amerikada, odatda, quruq muhitda, yog'ingarchilik yetarli darajada bo'lmagan jar, quruq hudud sifatida ta'riflanadi. Biroq, Vikipediya manbasidagi kanyonning ta'rifi cho'qqilar orasidagi chuqur yoriq yoki ikki tog' cho'qqisi orasidagi yoriq bo'lib, daryoning eroziv faolligi va ob-havoning ta'siri natijasida uzoq geologik vaqt davomida yaratilgan yoriq tarzida uchratishimiz mumkin. Delta so'zi Vikipediya keltirilgan ta'rifgaga ko'ra, daryoning deltasi dengiz yoki ko'lga oqib tushadigan yo'nalishdir. Collins deltani asosiy oqim bir nechta taqsimotlarga bo'linganda, ba'zi daryolar terminalidagi tekis allyuvial (tuproq) maydoni suv qo'shilish joyida yaratilgan tekislik deb ta'riflagan bo'lsa, Vikipediya manbasida esa daryoning dengiz yoki ko'lga quyilish joyidasuvda oqib kelgan jinslardan hosil bo'lgan tekislik deb ta'riflagan. Delta nomi yunon alfavitidagi D (delta)ning bosh harfidan olingan deb keltirilgan.

Xulosa. Ba'zan esa geografik atamalar tarjimasiz ham tilimizda yaxshi o'rnatilgan qolganini sezishimiz mumkin. Masalan, "crater" so'zi, aslida, lotin tilidan kelib chiqqan bo'lib, ingliz tili va o'zbek tilida ham krator ya'ni vulqonning tepasida yoki yon tomonidagi yoki geyzer tepasida lava va gazlar chiqadigan kosa shaklidagi teshik ekanligini oson tushunib olamiz. Biroq tilda tarjima qilinadigan so'zlar ba'zida so'z birikma tarkibida kelganda tarjimasiz ham keng qo'llaniladi. Misol qilib, "Arid" so'zi jazirama ma'nosida tarjima qilinadi, lekin "Arid climate" so'z birikmasini "jazirama iqlim" deb emas "arid iqlim" deb tarjima qilinadi. Qolaversa, ba'zi so'zlar arab tili ta'sirida tilimizda ayrim kichik xatoliklar sabab o'rnatilgan qolgan. Masalan, "Anhor" arabcha "nahr" – daryo so'zining ko'plik shakli. Toshkentdagi ariqlar umumiy nom bilan anhor deyilgan. Bu arablar istilosi davridan qolgan nom. Hozirgi vaqtda Toshkentni suv bilan ta'minlaydigan ariqlardan eng kattasi Anhor (ariqlar – vaholanki bitta bo'lsa ham til muomalasida birlik emas, ko'plik shakli saqlanib qolgan) nomi bilan ataladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Hasanov H. Geografik terminlar lug'ati. T., "Fan", 1964
2. G'ulomov P. Jo'g'rofiya atamaları va tushunchalari izohli lug'ati. T., "O'qituvchi", 1994.
3. P.G'ulomov, M.Mirakmalov. Toponimika va geografik terminshunoslik. Toshkent, 2005.
4. Alijonova G.A. O'zbek geografik terminlarining leksikografik talqini. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-geografik-terminlarining-leksikografik-talqini/viewer>
5. Glossary of geographic terms Wikipedia.com.
6. Geography terms and features, word lists. Collins dictionary.

7. Geographical terms and translation. Academia.edu.com.
8. Ortiq Mo'minov. "Jo'g'rofiy atamalar lug'ati", 1992.

**Berdiyeva Nazira Uralovna (Termiz davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lim" kafedrası o'qituvchisi;
naziraberdiyeva@mail.ru)**

"LOLAZOR" ROMANIDA BADIY TASVIR VA PSIXOLOGIK TALQIN TERANLASHUVI

Annotatsiya. Har bir davrning o'z muammolari bo'ladi. Badiiy asarlarda ana shu muammolar adabiy qahramonlar hayoti orqali aks ettiriladi. Xalqlar va odamlar o'rtasida nizolar ro'y bergan paytlarda, urush davrida Hotam sho'ro singari tanti, bag'rikeng insonlarning vatanparvarligi, matonatini madh etuvchi asarlar yaratilgani ham shundan dalolat beradi.

Аннотация. В каждом времени есть свои проблемы. В произведениях искусства эти проблемы отражены через жизнь литературных героев. Об этом свидетельствует создание произведений, восхваляющих патриотизм и силу духа толерантных людей, таких как «Хотам Шура», во времена конфликтов между народами и народами.

Annotation. Every period has its own problems. In works of art, these problems are reflected through the lives of literary heroes. This is evidenced by the creation of works praising the patriotism and fortitude of tolerant people, such as Hotam Shura, in times of conflict between nations and people.

Kalit so'zlar: badiiy tasvir, inson ruhiyati, talqin, romantik idrok, falsafiylik, psixologizm.

Ключевые слова: художественный образ, психика человека, интерпретация, романтическое восприятие, философский, психологизм.

Key words: artistic image, human psyche, interpretation, romantic perception, philosophy, psychologism.

Kirish. Badiiy asar kitobxon qalbi, ruhiyatiga qanchalar ta'sir o'tkaza olganligi, fikr-tafakkurini qay darajada o'zgartirganligi, yangi his-tuyg'ularni uyg'otganligi bilan o'lchanadi. Har bir davrning o'z muammolari bo'ladi. Badiiy asarlarda ana shu muammolar adabiy qahramonlar hayoti orqali aks ettiriladi. Xalqlar va odamlar o'rtasida nizolar ro'y bergan paytlarda, urush davrida Hotam sho'ro singari tanti, bag'rikeng insonlarning vatanparvarligi, matonatini madh etuvchi asarlar yaratilgani ham shundan dalolat beradi.

Tahlil va natijalar. "Har holda, dilning daxlsiz ekani juda soz narsa, ichimizga hech kirolmaydi, hatto Oshno ham kirolmaydi, agar odamlar bir-birining dilini tugal bilsa bormi, er xotinini, xotin erni, ma'shuqa ma'shuqni, ma'shuq ma'shuqani... bo'g'ib o'ldirardi! Axir, dunyo faqat o'shalardan iborat emasmi? Er-u xotin, do'st-u yor – hammasi ma'shuqlar! Ma'shuqlar dunyosi! Yashasin, dunyo ma'shuqlari!

– Ma'shuqlar o'z yo'liga, xonim, – dedi u salmoqlab, – lekin bolalarga daxl qilmaslik kerak.¹

Yozuvchi Nazar Yaxshiboyev tilidan hayotiy haqiqatlarni bayon etadi. Qahramonlar xarakterini ko'rsatishda hazrati insonni mezon sifatida tanlaydi, inson botinidagi haqiqatlarni ochish bilan hayotni butun ziddiyatlari bilan ifodalaydi. Ibn Sino buni: "Obrazli qilib aytilgan so'z kishi ruhini o'ziga bo'ysundiradigan bir holat kasb etadi. Bu shundayki, ma'lum bir ishlar kishiga ko'rinmasdan, ular haqida biror fikr yuritilmasidan va u e'tirof etilmasdan turib, ular kishiga xush keladi, ba'zilaridan esa kishi o'zini tiyadi. Bir so'z bilan aytganda, bunday narsadan odam bezovtalanadi, lekin bu bezovtalik ongli ravishda bo'lmay, balki nafsoniy-psixologik ta'sirlanganlik natijasida bo'ladi", deb uqdiradi.² Allomaning ma'naviy-psixologik ta'sirlanish bilan bog'liq qarashlari retseptiv jarayonning mohiyatini ochib beradi.

Yaxshiboyev "sun'iy egizaklar" deb atagan kasalxonadagi ikki kishi: qalam ahlidan, biri – baqalog' u xumkallasi ocherklar yozib yuradi, unisi – daroz-u jimitkallasi esa ocherklarni tanqid qiladiganlarni nazariya ilmaydi, ularni jamiyat uchun yaratuvchi emas, "iste'molchi, xolos" (F.Dostoevskiy) deb hisoblaydi. Ularni ko'rishi bilan oradagi chegarani saqlab qolish uchun yuziga jiddiyroq tus beradi. Buning sababi "... ikkovining ham rangi qizilgina, kasal-pasalga o'xshamaydi... Bir tur odamlarki, o'z kasali bilan emas, nuqul kattalarning kasali bilan og'rishadi. Misoli quzg'un o'laksani poylaganday... poylab turishadi-da, kimdir nufuzliroq odamning tobi qochsa, bas, ertasi kuniyoq kelib, o'shaning yonidan joy olishadi".³ Yaxshiboyev ularni o'zi istagancha masxara qiladi, ulardan bezor bo'lgach, pashshani haydagandek haydab yuboradi. Hatto yuzidagi ifodasi ham o'ziniki bo'lmagan, har doim soxta, yasama, birovdan o'rganib olingandek ko'rinadigan bu ikki sun'iy yo'ldosh uning nafratini qo'zg'atadi.

¹ M.M.Дўст. Лолозор. Т., "Янги аср авлоди", 2021, 173-бет.

² Абу Али ибн Сино. Шеър санъати. <http://www.e-adabiyot.uz/adabiyotshunoslik/392.html>

³ M.M.Дўст. Shu manba. 125-бет.

“Lolazor”da Oshning kuch-qudrati, dushmanga qahr-u g‘azabi, do‘stiga sadoqati, mardligi ko‘rsatilgan. U o‘zining kuch-qudrati bilan atrofda qilgan shu darajada qo‘rqitib qo‘yganki, hech kim unga qarshi chiqmaydi. Nazar Yaxshiboyev ham shu darajada kuchli, qudratliki, u istalgan dushmanidan ustun keladi.

Hayotda zulm va adolatsizlik mavjudligi, kishilarning og‘ir qismati, ularning mavjud turmush tartibini o‘zgartirish yo‘lidagi intilishlari, kurashlari zamonlar o‘tishi bilan adabiyotda oddiy odamlar hayotini ham bosh mavzuga aylantirgan. Adabiyot oddiy odamlardan tortib, amaldor, rahbarlar singari asarlarning asosiy adabiy qahramoni sifatida tasvirlaydi. Umuman, inson dunyosini, hayot hodisalarini ko‘rsatishda barcha xalqlar adabiyoti bu jihatdan bir-biriga o‘xshash tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Ya‘ni, barcha xalqlar adabiyotida, dastlab, ma‘budlar, hukmdorlar, keyinchalik esa oddiy odamlar asosiy adabiy qahramon sifatida ko‘rsatilgan. Jumladan, xalq dostonlari, Navoiy “Xamsa”sining qahramonlari Farhod ham, Bahrom ham, Iskandar ham – shoh. Majnun, Laylilar ham oddiy fuqaro emas. Ular qabila boshliqlarining farzandlari – hukmdorlar tabaqasidan. “Lolazor”da esa qahramonlar oddiy oiladan chiqib, jamiyatning yuqori toifasi, yuqori qatlamiga ko‘tarilgan kishilar.

Badiiy adabiyotda obrazning tutgan o‘rni juda muhim hisoblanadi. Obrazga yuklangan missiyasiga qarab, san‘at asarining salmog‘ini chamalash mumkin.

Rus adabiyoti inson dunyosini badiiy gavdalantirishda daho yozuvchilar asarlari orqali yangi bosqichga erishgan. Rus ijodkorlari Yevropa, ayniqsa, fransuz adabiyotining hayot hodisalari va inson dunyosini badiiy aks ettirishdagi eng ilg‘or jihatlarini ijodiy o‘zlashtirishgan hamda xo‘rlangan, haqoratlangan oddiy odamlarni asarlarining asosiy qahramoni qilib ko‘rsatishgan. Tan olish kerakki, yozuvchilarimiz uchun, jumladan, Murod Muhammad Do‘st uchun ham, birinchi galda, rus adabiyoti tajriba maktabi vazifasini o‘tagan. Yozuvchi asarlaridagi oddiy odamlar obrazi har qanday davr kishisi qalbini hayajonga soladi, achintiradi. Oddiy odamlarning alam, iztiroblarini ko‘rsatishda, ayniqsa, Murod Muhammad Do‘st adabiy qahramonlari nafaqat oddiy odamlar dunyosini gavdalantirishi, balki inson qalbidagi murakkab jarayonlar to‘g‘risidagi tasavvurlarni teranlashtirishi jihatidan ham jahon adabiyotidagi o‘ziga xos hodisa bo‘ldi. Hayot hodisalari va inson dunyosi murakkabliklarini badiiy aks ettirish borasida Murod Muhammad Do‘st asarlari ibratga aylandi. XX asrda bu adib asarlari ijodkorlar badiiy mahoratini baholashning o‘ziga xos mezoni bo‘lib qoldi. “Lolazor”, “Galatepaga qaytish yoxud saodatmand G‘aybarov rivoyati”, “Mustafo” kabi asarlarida adabiy qahramonlar ruhiyati, portreti, xatti-harakatlari yorqin badiiy aks ettirilib, inson dunyosi va hayot hodisalari murakkabliklari g‘oyat ta‘sirchan ko‘rsatilgan.

Roman odam va olamni miqyosli anglash, anglanmalarni badiiy ifodaga ko‘chirish ehtiyoji tufayli yuzaga keladi. Bu janr tobora globallashtayotgan, intensivlashayotgan hayot shiddati va zamondoshimiz kayfiyat-hollarini aks ettiradi. Binobarin, roman “kichraytirilgan koinot” (Saltikov-Shchedrin) va “miniaturadagi olam”ga (V.G.Belinskiy) aylandi. Uning uchun hajm kattaligi emas, balki mazmun qamrovining kengligi va teranligi muhimdir. Nazarimizda, ayni hodisaning mohiyatida, birinchi navbatda, XX asr o‘zbek romanchiligida Asqad Muxtor, Murod Muhammad Do‘st, Tog‘ay Murodlar boshlab bergan xayrli an‘analari, mustaqillik davrida faol muomalaga kiritilgan diniy-ilohiy manbalar hamda e‘tiqodiy asoslarda yaratilgan milliy folklor, mumtoz adabiyot, qolaversa, salkam bir asrlik o‘zbek romanchiligi tajribalarining o‘zlashtirilishi turadi. Ikkinchidan, ayni jarayonlar yuzaga kelishida jahon mifologiyasi va dunyo realistlik romanchiligi an‘analari ijodiy o‘zlashtirilishi muhim omil bo‘lmoqda.

Binobarin, norealistik izlanishlarning ta‘siriga uchinchi o‘rinni berish adolatli va xolis yondashuv bo‘lar edi. Zotan, sanalgan asarlarni, birinchi, Qur‘oni karim hikmatlari, xalq og‘zaki ijodi noyob durdonalari, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek, Attor, Rumi, Navoiy, Bobur, Mashrab, Gulxaniy meroslaridan tashqarida baholab bo‘lmaydi. Ikkinchi, A.Pushkin, L.Tolstoy, F.Dostoevskiy kabi ko‘plab rus adiblari hamda A.Qodiriy, Adib, A.Qahhor, Oybek an‘analari va A.Muxtor, Murod Muhammad Do‘st, T.Murodlar ijodidan ayricha tasavvur etib bo‘lmaydi. Binobarin, bu xalqning uchinchi bandida qadim turkiy folklor va yozma yodgorliklar, qolaversa, yunon mifologiyasi hamda A.Kamyu, M.Prust, J.Joyslar tayangan falsafiy ta‘limotlar, ifoda uslublari ijodiy o‘zlashtirilishini ko‘rish mumkin. Albatta, yuqoridagi mislsiz ulkan ilmiy, tarixiy-adabiy, badiiy-estetik meros zamonaviy romanchilikda to‘la milliylashyapti, taassub qilish hol-lari sodir bo‘lmayapti, deyish ham o‘zimizni aldashdan bo‘lak ish emas.

Global dunyo voqeligi shiddatini his qilib, azal kotibi sharaflagan inson va uning uchun bunyod etilgan olam (sayyoralar, oy, quyosh, yulduzlar, nihoyat, ona zaminning dala-dashtlari, tog‘- Toshlari, daryo-dengizlari va ularda yashayotgan hayvonot, nabotot va jamodot) qismati haqida qayg‘urayotgan odamni tasvirlayotgan zamonaviy o‘zbek romannavislari tajribasida Sharq va G‘arb adabiyoti ilg‘or an‘analari sin-

tezlashmoqda.¹ Murod Muhammad Do'st ayni o'tish davrida romanchilik va qissachilikda badiiy psixologizm va majoz takomili bo'yicha muvafaqqiyatli tajribalarni amalga oshirdi.

Milliy roman janriy belgilari, kompozitsiyasi, sujeti, obrazlar olami, turfa motivlarga murojaat etish yo'sinlari, uslubi tinimsiz tozarish va yangilanish og'ushida ekani yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Ammo kanonlashuv mexanizmining ishga tushganiga ham ancha bo'ldi. Jumladan, roman o'ziga nisbatan kichikroq janrlar va boshqa badiiy birliklarni bemalol "hazm" qilish orqali sintetik mohiyat kasb etmoqda. Milliy roman ko'plab janrlarga xos xususiyatlarni o'z tarkibiga singdirib olayotgan ekan, bunday sinkretik jarayon uning sintetik bosqichda ekani va ichki tabiatida poetik tarmoqlanish paydo bo'lishi tabiiylikini ko'rsatadi.

Xulosa. Mustaqillik davri romanlarida mistika, romantik idrok, falsafiylik, psixologizm, intellektuallik, ong oqimi va ongosti ifoda unsurlarini qo'llashga intilish kuchaydi. O'zbek adiblari modernizm, post-modernizm, surrealizm, ekzistentsializm, irratsionalizmga xos belgi-xususiyatlarni milliy negizda o'zlash-tirishmoqda. Zamonaviy milliy romanchilikda harakatdagi zamon – tugallanmagan voqelik tasviri ustuvor o'rin tutadi. Mustaqillik yillarida tarix va hozirgi zamon o'rtasidagi chegaralar nisbati o'zgardi. Bu hol milliy romanlarning til va uslubi ko'p qatlamli hamda serqirra bo'lishiga olib kelmoqda. Zamonaviy o'zbek romanlarida insonning fikr-o'ylarini bezovta qilayotgan muammolar, e'tiqodiy qarashlar mohiyatini ang-lash jarayoni tasviriga e'tibor kuchaydi.

Kurbanova Saida (UrDU dotsenti)

SHUKRULLO LIRIKASIDA TABIAT POETIKASI VA LIRIK QAHRAMON TASVIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shukrullo lirikasida tabiat poetikasi va shoirning peyzaj-manzara yaratish mahorati masalasi tahlil etiladi. Shukrulloning peyzaj lirikasiga bag'ishlangan she'rlarida ko'ngil kechinmalarini konkret tabiiy holat va vaziyatda aks ettirish ustuvorlik qiladi, shu orqali lirik qahramonning psixologik olami ochib beriladi.

Аннотация. В данной статье анализируется поэтика природы в лирике Шукрулло и умение поэта создавать пейзаж. В стихотворениях Шукрулло, посвященных пейзажной лирике, приоритетным является отражение эмоциональных переживаний в конкретном природном состоянии и ситуации, раскрывая тем самым психологический мир лирического героя.

Annotation. This article analyzes the poetics of nature in Shukrullo's lyrics and the poet's ability to create landscapes. In Shukrullo's poems dedicated to landscape lyrics, the priority is the reflection of emotional experiences in a specific natural state and situation, thereby revealing the psychological world of the lyrical hero.

Kalit so'zlar: lirika, poetika, tabiat, obraz, peyzaj, ruhiy holat, lirik qahramon.

Ключевые слова: лирика, поэтика, природа, образ, пейзаж, душевное состояние, лирический герой.

Key words: lyrics, poetics, nature, image, landscape, state of mind, lyrical hero.

Zamonaviy o'zbek she'riyati taraqqiyotida O'zbekiston xalq shoiri Shukrullo ijodining ahamiyati, o'rni beqiyosdir. Adabiyotshunos N.Rahimjonov "Shoir va davr. Shukrullo ijodi haqida o'ylar" risolasida shunday yozadi: "Shukrullo lirikasida tabiat obrazlari lirik kechinmalar zamiriga singishib ketadi. Ana shu hayot go'zalliklari zamiriga yashiringan ma'no, uning o'ziga ta'sir kuchi, ahamiyati falsafiy-poetik umumlashmalarning ham ta'sir kuchini oshiradi.

Shukrullo lirikasida she'r obyekt doirasiga tortilgan hayot xossalari, tabiat ko'rinishlari qanchalik o'rin almashib va ba'zan takrorlanib kelmasin, u baribir, yangi hayajon, yangi tuyg'ularga yo'g'rilgan holda yangicha ma'no kasb etadi; lirik "men"ning asosi sifatida yuraklarni titroq hayajonga, his-tuyg'ularni junbushga solaveradi, fikr-mushohada uyg'otaveradi; butkul borliqqa, hayot go'zalliklariga nisbatan chuqur hurmat va e'tiqod maylini yuzaga keltiraveradi".²

¹ Йўлдошев Қ. Янгилашишлар мунтазамлиги. "Ўзбекистон адабиёти ва санъати", 2007 йил 19 апрель; Содиқов С. Романми ёки рисола? "Ўзбекистон адабиёти ва санъати", 2004 йил 30 январь; Ёкубов И. Рух ва фикр эркинлиги. "Илм сарчашмалари", 2002, 4-сон, 54–56-бетлар; Шу муаллиф. "Ишк ахли" романининг адабий-фалсафий концепцияси. "Ўзбек тили ва адабиёти", 2005, 6-сон, 41–47-бетлар; Шу муаллиф. Ижод психологияси ва қалб диалектикаси. Буюк шоир ва мутафаккир. Т., 2011, 75–80-бетлар; Куронов Д. Адабий жараёнда "Мом синдроми". Т., Академнашр, 2010; Ҳамракулова Х. Адабиётда ҳаёт-мамот муаммоси. Т., Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009, 22-бет.

²Раҳимжонов Н. Шоир ва давр. Шукрулло ижоди ҳақида ўйлар. Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983, 96-бет.

Darhaqiqat, Shukrullo lirikasida tabiat manzaralari, fasllar (bahor, yoz, kuz, qish) tasviri; tabiat hodisalari (jala, yomg'ir, qor, shamol, momoqaldiroq); dov-daraxtlar (majnuntol, chinor, terak, archa, olcha, gilos, shaftoli, tol, uzum, olma); tun va kun; tong, quyosh, oy, yulduz, bulut, tog', suv, havo, anhor; gullar (lolaqizg'aldoq, chuchmoma, binafsha); qushlar (turna, bedana, burgut, chumchuq) kabi poetik obrazlar uchraydiki, ular vositasida shoir hayot falsafasini, inson hamda uning ruhiyatini, jamiyat panoramasini obrazli aks ettiradi. Shoirning ulkan mahorat bilan yaratilgan peyzaj-manzara she'riyati namunalari ijodkorning o'ziga xos badiiy tafakkuri, olam va odam hamda ijtimoiy muammolarga munosabati, sharqona badiiy falsafasi bo'y ko'rsatadi. Masalan:

*Kecha oqshom kutdim, kelmading,
Zulmat ichra qoldim bir o'zim.
Umrin bo'yi bu zulmatga teng
Bir zulmatni ko'rmagan ko'zim.*

*Erkam, bugun kelding oqshomda,
Hali ko'kka ko'tirilmay oy.
Bilmagandim, yorug' olamda
Borligini shuncha nur, chiroy.¹*

Shoir lirikasida sevgi-muhabbat, sadoqat mavzusi alohida bir yo'nalishni tashkil etadi. Mazkur she'rda shoir go'zal yor va oy obrazlarini kontrast keltirish orqali she'rda ma'shuqa go'zalligini bo'rttirib ko'rsatishga erishgan. Zulmat – tun bag'rini osmondagi oy shamchiroq bo'lib, yoritib turadi. Shoir ana shu peyzaj manzarani yodda tutgani holda yor go'zalligini tasvirlar ekan, oydan ham “nurli”, oydan ham “chiroyli” ma'shuqa borligiga obrazli ishora orqali o'z badiiy niyatiga erishadi. Hali osmonga oy chiqmagan paytda yorning kelishi lirik qahramonga oydek balqib chiqib kelish hissiyotini beradi. She'rda peyzaj tasviri yor go'zalligiga qarshilantirilar ekan, lirik-romantik hissiy kechinmali tasvirga yo'l ochadi.

Shukrullo peyzaj-manzara, lirik miniaturalar, voqeaband lirika namunalari bag'rida tabiat lavhalarini chizar ekan, bu vosita orqali inson ruhiyati qatlamlariga teranroq kirishga urinadi. Ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, falsafiy xulosalarni obrazli, romantik, baquvvat yaratib berishga erishadi. Shoir peyzaj yaratish mahoratini o'zidan oldin adabiyot maydoniga kirib kelgan U.Nosir, G'.G'ulom, Oybek, Uyg'un, M. Shayxzodalarning, shuningdek, rus va qardosh xalqlar shoirlari A.S.Pushkin, S.Yesenin, Q.Quliyev, R. Hamzatovlarning ijodiy tajribalaridan jiddiy o'rgandi. Zero, shoir “Javohirlar sandig'i” asarida ustozlari va zamondoshlarining ijodiy tajribalari haqida ham ma'lumotlarni keltirgan. Shuningdek, peyzaj tasvirni berishdagi chizgilar, ohanglar, bag'ishlov-marsiya she'rlar Shukrulloning Pushkin, U.Nosir, G'.G'ulom, Oybek, Uyg'un ijodidan qattiq ta'sirlanganini ko'rsatadi. Jumladan, Shukrullo “sog'inch” hissini berishda ham peyzajga murojaat qiladi:

*Sen meni sog'insang, daraxtlarga boq,
Yelpigan har yaproq mening xatlarim.
Quloq sol, yaproqlar shitiri emas,
Mening sog'inchlarim, mening dardlarim.²*

Daraxt shoxlaridagi yaproqlar lirik qahramonning yorga yozgan maktubiga, yaproqlarning shitirlashi esa lirik qahramonning sog'inchlari hamda dardlariga o'xshatiladi. Mazkur “Bog'dan eshitildi qizlar kulgisi” she'rining to'liq matni o'qilganida, anglaymizki, peyzaj ustasi bo'lgan Shukrulloning kuz manzaralari, hayotiy lavha, lirik kechinma, umr sarhisobi, sog'inchning poetik obrazli tasvirini peyzaj vositasida naqadar mahorat bilan badiiy aks ettira olganini his etish mumkin.

Peyzaj tasviri jo'g'rofiy hudud, milliy kolorit, milliy xarakter va milliy dunyoqarashni ham konkretlashtiradi. Shu ma'noda, Shukrullo lirikasida peyzaj tipologiyasi, peyzaj turlari, peyzaj atributi, peyzaj detali, peyzaj motivi kabi masalalarning alohida nazariy masala sifatida tadqiq etilishi lozimligi ko'zga tashlanadi. Shoir she'riyatida O'zbekiston tabiati, uning tog'lari, dalalari, bog'lari, dov-daraxtlari, osmoni, quyoshi, qushlari-yu qurt-qumursqalarigacha obrazli tasvirlanadi. Zero, inson ana shu tabiat qo'ynida yashaydi. Tabiatsiz inson inson bo'la olmaydi. Inson tabiatning erka mavjudotidir.

She'riyatdagi tabiat tuyg'usi vatan tuyg'usi bilan azaldan qo'shilib ketgan. Shukrulloning tabiat tasviriga bag'ishlangan she'riyati esa, avvalo, shoirning butun fikr va tuyg'ular olamini ochib beradi, uning ona yurti bilan qondoshlik aloqasini ifodalaydi. Shoir she'riyatining ma'naviy kuchi ham u o'z Vatanining,

¹Шукрулло. Танланган асарлар. III жилд. Шеърлар. Достонлар. Тошкент, “Шарқ”, 2009, 34-бет.

²Шукрулло. Шафақ. Рассвет. Тошкент, Академнашр, 2021, 13-бет.

ona-tabiatiining farzandi ekanligidadir. G.D.Gachevning fikrlariga ko'ra, "Xalqning qiyofasini belgilaydigan birinchi narsa – u o'sib-ulg'aygan va tarix yaratadigan tabiatdir. Tabiat – doimiy harakatdagi omil. Badiiy adabiyotning majoziy arsenali ham, odatda, tabiatda ildiz otadi".¹ Shu ma'noda, Shukrullo she'riyatining majoziy arsenali, O'zbekiston tabiatining ajoyib olamidir.

Shukrullo "Kuylaganim o'zingsan" she'rida o'z ijodining asosiy kredosini, o'zak motivini ochiqlaydi. Bu she'rda ham shoir dengiz, tog'lar, sahro, toshlar, cho'qqi, ufq, qum, oy go'zalligini obrazli tasvirlar ekan, undagi so'nggi bandning misrasida "Dunyo suyanchig'i – Hazrati inson" ekanini urg'ulaydi. Masalan:

*Dengiz to 'lqinlari ayting, kim sevmas,
Tog'lar, keng sahroni sevmas qay odam.
Qayerda bo'lmayin, sendan bir nafas
Xoli qolsam bormi, bilmayman orom.*

*Ba'zan tog' boshiga ko'tarilaman,
Ohudek sakrayman toshlardan toshga.
Shalolaga xursand quloq solaman,
Sensiz hatto uning kuyi ham g'ashga
Tekkan kabi mendan ketadi orom.²*

Shukrullo she'riyatida *tabiat – jamiyat – inson* uchligi talqini orqali hayotni, go'zallikni ulug'lash ustuvor mavqeda turadi. Shoir ana shu uchlik badiiy formula orqali ijtimoiy-maishiy hayotdagi kamchiliklar, salbiy illatlarni bartaraf etishga mudom chorlab turadi.

"Xazon fasli" she'rida esa shoir Chinor obrazini o'z hayotidan, umridan mamnun inson obrazi sifatida yaratadi. Chinor obrazi she'rda metaforik ramziy obraz sanaladi. Masalan:

*Chinorning to'kildi so'nggi yaprog'i,
Qissaning yopildi go'yo varag'i.
Chinor mag'rur boqar umridan mamnun,
Xuddi men o'ylagan xazon fasli bu.³*

Shukrullo lirikasida "Chinor" poetik obrazi serqatlam, ko'p ma'noli. Jumladan, "Chinor" she'rida Chinor ramziy ma'noda dardlarini ichiga yutib, zabonsiz yashayotgan odamga timsolli ramziy ishoradir. Ya'ni:

*Chinor yashar yuz yildan ortiq,
Umr ko'rar hatto asrlab.
Unga havas qilmayman, yo'q, yo'q,
Yashamayman umrini tilab!*

*Silkinadi keksa qomati,
Afsus chekkan mo'ysafidsimon.
To'lib-toshgan, balki, hasrati,
Ne choraki unda yo'q, zamon.⁴*

Demak, "Xazon fasli" she'rida "Chinor" poetik obrazi, ijobiy ma'noda o'z hayotidan mamnun, umridan rozi bo'lib yashayotgan odamga ishora qilsa, ikkinchi she'rda esa dard-u izzatdan qalbi to'lib ketgan odam obraziga ramziy ishoradir.

Peyzaj tasviri, peyzaj motivi Shukrulloning falsafiy-intellektual she'riyatini shakllanishiga muhim asos bo'lgan, desak yanglishmaymiz. Shukrullo ba'zi she'rlarida jamiyatga va inson hayotiga kinoya bilan qaraydi. Natijada bunday she'rlardagi kechinma va fikr bayonida ironik badiiy uslub ustuvorlik qiladi. Misol uchun, "Keksalik" she'rida shu uslubni kuzatishimiz mumkin:

*Daraxt tepa shoxdan, odam oyoqdan
Qariydi deydilar, bu ham bir hikmat.
Bunday o'ylab ko'rsam, butun narsani*

¹ Гачев Г.Д. Национальные образы мира. М., "Наука", 1988.

²Шукрулло. Куйлаганим ўзингсан. Танланган асарлар. III жилд. Шеърлар. Достонлар. Т., "Шарк", 2009, 166-бет.

³Шукрулло. Хазон фасли. Танланган асарлар. III жилд. Шеърлар. Достонлар. Тошкент, "Шарк", 2009, 114-бет.

⁴Шукрулло. Чинор. Танланган асарлар. III жилд. Шеърлар. Достонлар. Тошкент, "Шарк", 2009, 91-бет.

Hisobli yaratgan dono tabiat.

*Yaxshiki, odamning kuch-quvvatini
Bel-u oyog'idan avval oladi.
Bo'lmasa, bu oyog' keksayganingda
Seni qay yo'llarga sudrab qolardi.¹*

Xulosa qilib aytganda, Shukrullo tabiatni sevadi, uni o'ziga sirdosh deb biladi, shuning uchun uning falsafiy-intellektual lirikasida peyzaj tasvirlari, tabiat detallari keng planda aks ettiriladi. Shukrullo she'rlari va dostonlarida tabiat manzaralarini mahorat bilan yaratar ekan, peyzaj shoir uchun psixologik tasvirni teranlashtiruvchi muhim badiiy vosita sifatida maydonga chiqib, shartli timsolli obrazlar, an'anaviy motivlar uning she'riyatining asosiy atributiga aylanadi.

**Naimova Aziza Muxammadovna (Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi; e-mail:
aziza.naimova2020@mail.ru)**

HIKOYA QILISH TEXNIKASINING TARIXIY INVERSIYA MOHIYATINI TUSHUNISHDAGI ROLI

Аннотация. *Ushbu maqolada tarixiy inversiya xususiyatlari va usullari, hikoya qilish texnikasi turlari hamda ularning vaqt inversiyasiga ta'siri va bog'liqligi, asar poetikasi, yozuvchining parallel davr chiziqlari mohiyatini kitobxonga yetkazib berish uslub-mahorati mavzulariga bag'ishlangan.*

Аннотация. *В данной статье затрагиваются темы особенностей и методов исторической инверсии, типов повествовательных приемов, их влияния и зависимости от инверсии времени, поэтики произведения, стиля и умения писателя донести до читателя суть инверсии времени.*

Annotation. *This article is dedicated to the topics of historical inversion properties and methods, types of storytelling techniques and their influence and dependence on time inversion, the poetics of the work, the style-skill of giving the essence of the writer's parallel period to the reader.*

Калит so'zlar: *tarixiy inversiya, parallellik, retrospeksiya, prospeksiya, fleshbek, oldinga qaytish, kelajak, o'tmish, hozir.*

Ключевые слова: *историческая инверсия, параллелизм, ретроспектива, перспектива, воспоминание, возврат вперед, будущее, прошлое, сейчас.*

Key words: *historical inversion, parallelism, retrospection, prospectus, flashback, flash forward, Future, Past, now.*

Hikoya texnikasi (adabiy badiiy hikoyalar orasida adabiy texnika, adabiy vosita yoki badiiy vosita sifatida tanilgan) hikoya yaratuvchisi o'zi xohlagan narsani yetkazish uchun foydalanadigan bir necha o'ziga xos usullardan biri bo'lib, hikoya qilishda qo'llaniladigan strategiya. Tinglovchilarga ma'lumot yetkazish, ayniqsa, hikoyani rivojlantirish uchun, odatda, uni yanada to'liq, murakkab yoki qiziqarli qilish uchun hikoya tuzilmasini rejalashtirish va yaratish usulidir. Ba'zi olimlar ushbu uslubni hikoya qilish usuli deb ham atashadi, ammo bu atama tor ma'noda hikoyani aytib berish uchun sharhdan foydalanishning o'ziga xos uslubiga ham tegishli bo'lishi mumkin. Hikoya texnikasi barcha hikoya asarlarida mavjud bo'lgan hikoya elementlaridan ajralib turadi. Hikoya texnikasi badiiy asar qismlarini tashkil etuvchi komponentlarini tahlil qilishni anglatadi: voqea, xarakter, nuqtayi nazar, kayfiyat yoki atmosfera kabi hikoya elementlari, ramziylik, uslub, mavzu va boshqalar. Boshqacha qilib aytganda, bu adabiy asarda mujassamlangan mavzularni muallif tomonidan kitobxonga yetkazib berish imkonini beradigan tarzda taqdim etilgan voqealarning mantiqiy ketma-ketligidir. Shuningdek, ijodkor qalbi tubidagi hech kimga ayta olmaydigan muammolarni qay tarzda hal qilish usuli desak, adashmaymiz.

Shu o'rinda ta'kidlash mumkinki, avtor kitobxonga o'z asari bilan birga uning shaxsiyatiga xos o'z-gacha bir uslub, qobiliyat va mahoratni namoyon qila oladi. Chunki muallif yaratilish davrida ma'lum bir texnikani qo'llashdan maqsad hamda undan kutilgan natija juda puxta rejalashtiriladi. Shu sababli adabiy makondagi barcha asarlarda ham ushbu texnikalar uchramaydi. Xuddi shunday qalami o'tkir yozuvchilardan biri bu Salman Rushdi bo'lib, uning "Midnight's children" romani adabiy texnikalar va stilistik vositalarga boyligi, ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-sotsiologik fakt bog'liqliklari, muammolar hamda ularga yechimlarning sabab-oqibat, chiziqli bo'lmagan hikoya tuzilishlari orqali kitobxonga yetkaza olishi bilan alohida o'rin egallaydi. Shu o'rinda, romandagi diniy yondashuvlar: islom, xristian va hind dinlariga doir ko'plab

¹Шукрулло. Кексалик. Танланган асарлар. III жилд. Шеърлар. Достонлар. Тошкент, "Шарк", 2009, 94-бет.

hikoya, qissa, mif, hadislarining qo‘shimcha ma’lumot sifatida keltirilishi muallifning nafaqat dunyoviy balki diniy bilimlarining yetukligidan dalolat beradi.

Dastavval, roman sarlavhasiga e’tibor beradigan bo‘lsak, “Midnight’s children”, ya’ni, Yarim tun bolalari deb nomlanishining o‘zi ham asar markazidagi g‘oyaning qaysidir ma’noda tor tushunchasi sifatida namoyon qilinishi, yarim kechasi bizga ma’lum bir vaqt g‘oyasi haqida o‘ylashga imkon berishi, bu alohida lahza, teskari mayatnik kabi beqaror muvozanat, ya’ni, bosh qahramon aynan yarim tun soat roppa-rosa 12:00da dunyoga kelganligi, unga hamroh bo‘lib, bir qancha bolalarning ham shu vaqt oralig‘ida tug‘ilganliklari va ularning barchasi o‘ziga xos Olloh tomonidan in’om etilgan g‘ayrioddiy sehr kuchiga egaligining o‘zi ham hikoya texnikasining muallif tomonidan juda mohirona foydalanilganligidan dalolatdir. Bolalarning noodatiy kuchga egaligi bu romanda sexrli realizmning ayni markaziy g‘oya ekanligi va roman sarlavhasi ham shu texnika timsoli kabi nomlanishi asar salohiyatiga yanada ta’sir ko‘rsatdi.

Muallifning har tomonlama dunyoqarashi kuchliligi, uning asar davomida nafaqat sehrli realizm, balki fleshbek-fleshforvard, ya’ni, oldinga yoki orqaga siljish, ong oqimi, chiziqli bo‘lmagan hikoya tuzilishlari, hikoyadagi uzilishlar, ishonchsiz hikoyachilar, parallel vaqt jadvallari kabi texnikalarning asar mohiyatini yanada chuqur namoyon etish uchun xizmat qilayotganligini anglash kifoya. Butun roman parallel vaqt jadvallari strukturasi asosida yaratilgan, asar qahramoni Salim Sinay bo‘lib, barcha voqealar tafsiloti uning tug‘ilishi, hayoti, oilasi, do‘stlari, yartim tunda u bilan birga tug‘ilgan hamroh o‘rtoqlari, uning qiyinchiliklari, muammolari, erishgan yutuqlari, kamchiliklari, xatolari, undan keyingi kelajagi sanalmish avlod uning farzandi haqidagina emas, balki uning o‘tmishi hisoblanmish bobosi Adam Aziz bilan bog‘liq ko‘plab hodisalar ham bayon qilinadi. Asardagi parallel vaqt strukturasi Rushdi ikki xarakter Salim Sinay hamda Adam Aziz atrofida birlashtirgan. Asar protagonist Salimning dunyoga kelishi bilan boshlanib, shu kun tasviri, o‘sha kunning aniq sana, vaqt va makon ko‘rsatkichlari, shuningdek, bu kun juda noodatiy Hindistonning mustaqillikka erishgan kuni sifatida nishonlanilayotganligini Salimning o‘z nutqidan sezish mumkin.

I was born in the city of Bombay ...once upon a time. No, that won’t do, there’s no getting away from the date: I was born in Doctor Narlikar’s Nursing Home on August 15th, 1947. And the time? The time matters, too. Well then: at night. No, it’s important to be more ... On the stroke of midnight, as a matter of fact. Clock-hands joined palms in respectful greeting as I came. Oh, spell it out, spell it out: at the precise instant of India’s arrival at independence, I tumbled forth into the world. There were gasps. And, outside the window, fireworks and crowds. A few seconds later, my father broke his big toe; but Ms accident was a mere trifle when set beside what had befallen me in that benighted moment, because thanks to the occult tyrannies of those blandly saluting clocks I had been mysteriously handcuffed to history, my destinies indissolubly chained to those of my country. For the next three decades, there was to be no escape. Soothsayers had prophesied me, newspapers celebrated my arrival, politicians ratified my authenticity. I was left entirely without a say in the matter. I, Saleem Sinai, later variously called Snotnose, Stainface, Baldy, Sniffer, Buddha and even Piece-of-the-Moon, had become heavily embroiled in Fate – at the best of times a dangerous sort of involvement. And I couldn’t even wipe my own nose at the time.¹

Ushbu hikoyada Salim Sinayning tug‘ilishi hamda mustaqillik kuni xursandchiliklari xotira-eslash yordamida retrospeksiya usulini kuzatish mumkin. Ya’ni, hikoyachi ma’lum bir yoshga kirgandan so‘ng barcha voqealarni so‘zlab bermoqda (boshqa shaxs fikri orqali bo‘lsa-da), aynan uning tug‘ilgan kuniga qaytishi retrospeksiyadir. Qahramon eslash orqali o‘tmishga qaytmoqda. Hikoya qiluvchi Salim Sinay shu paytda chaqaloq bulsada adibning o‘ziga xos uslubi aynan uning tilidan tasvirni kitobxonga yetkazmoqda, garchi u bu holat va tasvirlardan boxabar bo‘lishga tabiatan ega bulmasa-da, barcha his-hayajonlar orqali tug‘ilgan kuni va mustaqillik shodiyonasi tasviri ko‘rsatilmog‘da. Akademik Lixachovning fikriga ko‘ra, agar asarda muallif muhim rol o‘ynasa, agar muallif xayoliy muallifning obrazini, hikoyachining obrazini, hikoyachining obrazini badiiy rejaning o‘ziga xos “tarjimoni” sifatida yaratsa, u holda sujet vaqtining tasviriga muallifning vaqt tasviri, ijrochining vaqt tasviri qo‘shiladi (turli xil kombinatsiyalarda).² Professor fikrining tasdig‘i asosida Rushdi romanda hikoyachi obrazi, aniqrog‘i, shu obrazni bosh qahramon Salim orqali yaratdi. Aynan uning vaqt tasviri turli tezliklarda: ba’zan sekin, ba’zan juda shiddat bilan namoyon bo‘ldi.

Muallif 1947-yil 15-avgust voqealarini o‘zgacha bir ruhda tasvirlar ekan, asar voqealari birdaniga oldinga, ya’ni, 1915-yil sanalariga sakraydi va muallif shu o‘rinda ustalik bilan fleshbek texnikasi orqali Salimning tug‘ilganligi, mustaqillik shukuhi, maydonlardagi olomon va ularning mushakbozliklari, gazeta

¹ Rushdie Salman. *Midnight’s children*. L., “Penguin books”, 1991, p. 2.

² Лихачев Д.С. Поэтика древнерусской литературы. М., “Наука”, 1979, с. 209.

reportyorlarining, bashoratchi va siyosatchilarning bashorat hamda tasdiqlashlariga qaramasdan, sodir bo'layotgan xush-xursandchilik lahzalari Kashmirdagi bomdod namoz vaqtiga o'zgartirildi. Muallif tomondan fleshbek texnikasini qo'llanishi voqealar sujetini 32 yil oldinga siljitdi va xotirlash orqali retrospektiya usulidan foydalanildi. Shu o'rinda aytish joizki, Rushdi romanning boshdan oxir parallel vaqt strukturasi qo'llaganligini anglash mumkin, ya'ni, ushbu struktura orqali muallif barcha voqealar, muammo hamda yechimlar ikki shaxs-ikki avlod, bobo va nevara artofida aylanayotganligi va yechim topayotganligini kuzatish mumkin. Mixail Baxtin ta'kidlaganidek, tarixiy inversiyaning yuzakiroq ta'rifiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu nimaiki o'tmishda bo'lib o'tgan deya tasvirlansa, aslida, kelajakda ro'y berishi mumkin yoki kelajakda ro'y beradi. Mohiyatan, u o'tmish voqeligi emas, kelajakning maqsadi, burchi o'laroq, namoyon bo'ladi... Shu tariqa, kelajak hisobidan bugun, xususan, o'tmish boyib boradi. Reallik quvvati va ishonchliligi, haqqoniyliги faqat hozirgi hamda o'tgan zamonga tegishli bo'ladi: "bor" va "bo'lgan"...¹ Avtor ham o'z ijodi mahsulini yaratar ekan, asar qahramoni Salim Sinayning o'tmishi bu uning ildiziga taaluqli shaxslar Bobosi–Adam Aziz, onasi–Amina hamda otasi–Ahmad Sinaylar bilan bog'liq o'tmish zamon esdaliklarini turli adabiy badiiy hikoyalar yordamida (mifologik va badiiy tafakkur) kelajak voqeligining to'lishganligi, ya'ni, kamolot davriga yetgan o'smirning o'tmishni eslashi bu uning bugunini qo'shimcha ravishda to'ldiradi. Tarixiy inversion bosqichlarni ushbu roman doirasida evolyutsiyalasak, butun roman voqealar silsilasi quyidagicha davrlanadi: o'tmish zamon Adam Aziz, bugun davrida Amina va Ahmad Sinaylar; kelajak davrlanishuvida Salim Sinayni joylashtirish mumkin. Aynan o'tmish va hozirgi davrda sodir bo'lgan va sodir bo'layotgan voqealar fikrimizning ayni markazi bo'lmish kelajak uchun, uning rivojlanishi mukammallashishi va izchillashishi pirovardida xizmat qiladi. Shu sababli muallif qahramonimizning bobosi hamda ota-onasi o'tmishini uning kelajagi boyishi hisobiga davrlar inversiyasini qo'llaydi. Kelajakning to'kisligi maqsadida o'tmish va hozir vertikal ko'rishni afzal ko'radi. Salman Rushdi bosh qahramonning endigina dunyoga kelganligiga qaramasdan sujet rivojini o'tmishga, ya'ni, 32 yil orqaga siljitib, bobosining yoshligidan to'zining kamolotga yetgulik davrigacha bo'lgan voqelar oyna kabi tasvirlanadi. Ushbu tasvirning haqqoniy, ko'rimdor, jozibali, mantiqan bir-biriga bog'liq va mos kelishi uchun tarixiy inversiya, shuningdek, parallel vaqt platformasi katta rol o'ynaydi. Chunki faqatgina inversiyalashuv hisobidan davr almashinishi mumkin.

(The sheet, incidentally, is stained too, with three drops of old, faded redness. As the Quran tells us: Recite, in the name of the Lord thy Creator, who created Man from clots of blood.)

One Kashmiri morning in the early spring of 1915, my grandfather Aadam Aziz hit his nose against a frost-hardened tussock of earth while attempting to pray. Three drops of blood plopped out of his left nostril, hardened instantly in the brittle air and lay before his eyes on the prayer-mat, transformed into rubies. Lurching back until he knelt with his head once more upright, he found that the tears which had sprung to his eyes had solidified, too; and at that moment, as he brushed diamonds contemptuously from his lashes, he resolved never again to kiss earth for any god or man. This decision, however, made a hole in him, a vacancy in a vital inner chamber, leaving him vulnerable to women and history.²

Professor Lixachovning vaqt poetikasiga doir fikrlariga tayangan holda, shu narsa ma'lumki, vaqt tasvirlanadi. U tasvir obyekt. U "cho'zilishi" va "yugurishi" mumkin. Bir lahza "to'xtashi" va uzoq vaqt "porlashi", ya'ni davom etishi mumkin.³ Demak, olimning tasdiqlashiga ko'ra, ma'lum bir badiiy asarda tasvirlanayotgan vaqt, ya'ni voqea muallifning xohishiga ko'ra to'xtatilishi mumkin. Aynan vaqtning shu xususiyati Rushdining ushbu ijodida ham ko'zga ko'rinadi. Aniqrog'i, Salimning tug'ilgan kuni holatidan – bobosining ibodatiga o'tish lahzasida, ijodkor birinchi ish-harakatni to'xtatib, fleshbek yordamida ikkinchi holat – ibodat tasvirini ko'rsata oldi. Voqealar bayoni uning bobosiga ulanib ketadi toki ijodkor qaysi muddatgacha o'sha kun tasvirini bayon etishni istagunicha.

Badiiy adabiyotda vaqt voqea sabab-oqibat yoki psixologik, assotsiativ bog'lanish orqali idrok qilinadi. Badiiy asardagi vaqt nafaqat taqvim, balki voqealar o'zaro bog'liqligidir. Adabiyotning o'ziga xos nisbiylik tamoyili bor. Sujetdagi voqealar bir-biridan oldin va bir-birining ortidan kelib, murakkab ketma-ketlikda birikadi va shu tufayli o'quvchi vaqt haqida maxsus hech narsa aytilmagan bo'lsa ham, badiiy asardagi vaqtni payqab oladi. Badiiy vaqtni o'rganishdagi eng murakkab masalalardan biri bir necha hikoyali asardagi vaqt oqimining birligi masalasidir. Vaqt oqimining, tarixiy zamon oqimining birligini anglash xalq og'zaki ijodi va adabiyotga darrov kelib qolmaydi.

¹ Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. T., Akademiya, 2015, 121 – 122-betlar.

² Rushdie Salman. *Midnight's children*. L., Penguin books, 1991, p. 3.

³ Лихачев Д.С. Поэтика древнерусской литературы. М., "Наука", 1979, с. 210.

Xalq og‘zaki ijodida va adabiyot taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida turli sujetli voqealar har biri o‘ziga xos vaqt qatorida, bir-biridan mustaqil ravishda kechishi mumkin. Vaqt birligining ongi hukmronlik qila boshlagach, bu birlikning buzilishi, turli sujetlarning vaqt farqlari g‘ayritabiiy, mo‘jizaviy narsa sifatida qabul qilina boshlaydi. Bir tomondan, asar vaqti yopiq, o‘z-o‘zidan bo‘lishi mumkin, faqat sujet doirasida sodir bo‘ladi, asardan tashqarida sodir bo‘lgan voqealar bilan, tarixiy vaqt bilan bog‘liq emas. Boshqa tomondan, asarning vaqti aniq belgilangan tarixiy davr fonida rivojlanib, kengroq vaqt oqimiga ki-ritilishi mumkin. Asarning ochiq vaqti, uni voqelikdan ajratib turadigan aniq ramkani istisno qilmaydi, uning sujeti ishidan tashqarida bir vaqtning o‘zida sodir bo‘ladigan boshqa hodisalarning mavjudligini ham nazarda tutadi.¹ Aynan, ushbu holatda vaqt poetikasining o‘ziga xos va betakror, g‘ayrioddiy yana bir xususiyatiga yuzlanish mumkin. Ya‘ni, Salimning tug‘ilish kuni vaqti to‘xtatilib, ushbu holatda vaqt gorizontal shaklda hozirdan kelajakka sari ildamlamasdan, uning vertikal (yuqori, quyi) pozitsiyada yo‘nalishni burishi va 1 kunlik chaqaloqning bir soniya ham o‘smasligini ta‘minlab, uning bobosi, yoshlik davri, doktorlik bilan shug‘ullangani, uylanishi, buvisining ana‘na va udumlarga sodiqligi, ularning 5 farzandlarining o‘sib-ulg‘ayishi va ta‘lim olishlari, onasi – Mumtoz, uning o‘smirlik davrida Nodirxon bilan bog‘liq boshdan kechirgan qiyinchiliklari, Xolasi zumradning zulfiqor bilan turmushga chiqishi, onasining Ahmad ismli savdogar bilan topishishi va turmushga chiqib Agraga ko‘chishi, ismini Aminaga o‘zgartirishi va homilador bo‘lishi, juda boy ingliz Metvolddan uy sotib olishlari va tug‘ish kunigacha ushbu voqealar sodir bo‘ladi. Aynan 15 avgust kuni esa to‘xtagan voqealar davom etishni boshlaydi, va yagona vaqt birligining ongi asosida birlashib, davom etishni boshlaydi. Lekin shu vaqtgacha bo‘lib o‘tgan voqealar turli sujet foni asosida hikoyalar sodir bo‘ldi. Umumiy voqea vaqti yopilib, turli sujetlararo voqealar davomiyligi saqlandi, xolos.

The exordium, spoken with hands joined before him like a book, comforted a part of him, made another, larger part feel uneasy – “...Praise be to Allah, Lord of the Creation...” –but now Heidelberg invaded his head; here was Ingrid, briefly his Ingrid, her face scorning him for this Mecca-turned parroting; here, their friends Oskar and Ilse Lubin the anarchists, mocking his prayer with their anti-ideologies - ‘... The Compassionate, the Merciful, King of the Last Judgment!...’ – Heidelberg, in which, along with medicine and politics, he learned that India - like radium – had been ‘discovered’ by the Europeans; even Oskar was filled with admiration for Vasco da Gama, and this was what finally separated Aadam Aziz from his friends, this belief of theirs that he was somehow the invention of their ancestors – “... You alone we worship, and to You alone we pray for help...” –so here he was, despite their presence in his head, attempting to re-unite himself with an earlier self which ignored their influence but knew everything it ought to have known, about submission for example, about what he was doing now, as his hands, guided by old memories, fluttered upwards, thumbs pressed to ears, fingers spread, as he sank to his knees – ...²

Ushbu parchada tarixiy inversiyaning ong oqimini hikoya qilish texnikasi ichki monolog va shaxsiy fikrlari orqali tasvirlangan bo‘lib, bunda Adam Aziz ibodat vaqtida o‘zining Germaniyadagi do‘stlarini xotirlashi orqali ularning fikrlari hamda uning ibodati qismlari chiziqli vaqt hissining buzilishi holatini keltirib chiqaradi va bu orqali yozuvchi vaqtinchalik parchalangan fragmentlarning hosil bo‘lishiga erishadi. Shu o‘rinda, muallif xarakterning bir vaqt oralig‘ida ham Hindistonda, ham Germaniyada bo‘la olishini ta‘minlay oldi. Uning jussasi hind zaminida turib ibodat qilsa-da, aqlan Germaniyadagi bir necha muddat oldingi vaqt zonasida turib voqelarni boshdan kechira olishi haqiqiy retrospeksiya usulining qo‘llanilishiga misol bo‘la oladi. Ya‘ni, kitobxon ayni vaziyatda Adamning xudoga sig‘inishini, shuningdek, uning miyasi do‘stlari Hidelberg, Ingrid, Oskar, Lyubinlarning bemani masxarabozliklari hamda Hindistonning ularning otabobolari tomonidan kashf qilinishligi fikrlaridan voqif bo‘lishini kuzatishimiz mumkin.

**Shamiyeva Oybahor Ravshanovna (Navoiy davlat Konchilik va texnologiyalar universiteti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi;
e-mail:oshamiyeva@gmail.com)**

SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA RAHBARLIK VA BOSHQARUV MUAMMOLARINING TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada hayotning muhim va zarur o‘chog‘i bo‘lmish rahbarlik muammolariga Sharq mutafakkirlarining ilmiy risolalari va qimmatli asarlarida katta e‘tibor berilganligi tahlil etilgan va bu manbalarni o‘rganish hozirgi zamon ilm-fanida va rahbar kadrlarni tayyorlashda tarbiyaviy va amaliy ahamiyati ochib berilgan.

¹ Лихачев Д.С. Поэтика древнерусской литературы. М., “Наука”, 1979, с. 214.

² Rushdie Salman. Midnight’s children. L., “Penguin books”, 1991, p. 4.

Аннотация. В данной статье анализируются важные и необходимые жизненные проблемы руководства в научных трактатах и ценных трудах восточных мыслителей, а также раскрывается образовательная и практическая значимость изучения этих источников в современной науке и при подготовке руководящих кадров.

Annotation. This article analyzes the important and necessary life problems of leadership in scientific treatises and valuable works of Eastern thinkers, and also reveals the educational and practical significance of studying these sources in modern science and in the training of leadership personnel.

Kalit soʻzlar: rahbarlik, boshqaruv, boshqaruv usullari.

Ключевые слова: руководство, управление, стили управления.

Key words: leadership, management, management styles.

Kirish. Oʻzbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki yillardanoq Respublikamiz hukumati tomonidan rahbarlik va boshqaruv masalalariga alohida eʼtibor qilinmoqda. Prezidentimiz bugungi kun talablariga javob bera oladigan rahbarlarni tayyorlash masalasiga katta eʼtibor berayotganligi bunga misol boʻla oladi. Yurtboshimiz nutqlarida rahbarlik va boshqaruv masalalariga toʻxtalib, tanqidiy tahlil, qatʼiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarni – bu Bosh vazir yoki uning oʻrinbosarlari boʻladimi, hukumat aʼzosi yoki hududlar hokimi boʻladimi, ular faoliyatining kundalik qoidasi boʻlib qolishi kerak. Endi har birimiz, eng avvalo, davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining vazifasi – oʻzimiz masʼul boʻlgan soha va tarmoqda ishlarning ahvolini tanqidiy baholash asosida zimmamizga yuklatilgan vazifalarni masʼuliyat bilan bajarishni taʼminlashdan iborat boʻlishi kerakligini takidlaydilar [1.235].

Huquqiy demokratik jamiyatda rahbarlik qila oladigan xodimlarni tayyorlash, ularda milliy jipslik gʻoyasini ifoda etuvchi dunyoqarashni shakllantirish hozirgi davrning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Insoniyat jamiyatda taraqqiy etib fan-texnika, ishlab chiqarish texnologiyalari va munosabatlari takomillashib borar ekan, bu jarayonlarni hal qiluvchi rahbarlik va boshqaruv muammosining dolzarbligi va unga nisbatan eʼtibor tobora ortib boraveradi. Chunki bu muammolarning har tomonlama jiddiy oʻrganilishi har qanday jamiyat va davlat taraqqiyotini taminlovchi asosiy omil hisoblanadi.

Sharq mutafakkirlari asarlarida rahbarlik va boshqaruv muammolarining talqini. Boshqaruv muammosi XXI asrga kelib dolzarb muammolardan biriga aylandi. Bu esa insonning barcha ijtimoiy jarayonlardagi roli bilan izohlanadi. Bundan tashqari, insonning oʻzida ham ilk yoshlikdan liderlikka ishtiyoq, xizmat lavozimlarida muvaffaqiyatga intilishga moyillik kabi shaxsiy sifatlar ham namoyon boʻla boshlaydi. Bunday ijtimoiy-psixologik hodisalar, eng avvalo, boshqaruv sohasini yanada takomillashtirib uning samaradorligini oshirish mehnat maxsuldorligi va insoniy munosabatlarini yaxshilash kabi masalalarda ushbu omilning taʼsirchan rolini oshirishni kun tartibiga dolzarb qilib qoʻydi.

Odamlar jamoasi boshqaruvni talab qiluvchi ijtimoiy voqelikdir. Ushbu talab rahbarlik va boshqaruvning uslubi, hamda samarali vositalarini tadqiq qilish zaruratini vujudga keltiradi. Insoniyat taraqqiyotining har bir davri, har qanday jamiyatda oʻzining ichki mohiyati va maqsadidan kelib chiqqan holda ana shu zaruratni u yoki bu holda qondirish bilan xarakterlanadi. Ushbu maʼnoda SHARQ mutafakkirlarining asarlari, nasihat va maslaxatlari bundan mustasno emas. Biz buyuk ajdodlarimiz Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ahmad Donish kabilarning asarlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Sharq mutafakkirlaridan biri Abu Ali ibn Sino shunday yozadi: “Oliyjanoblik qilish shunday bir ajoyib fazilat va shon-sharafni oshiradigan hislatki, xatto bunga erishgan odam undan ham yukori darajadagi shon - shuhrat maromiga erishishga intiladi, bunday intilish undaylarda cheklanmagan boʻladi. Inson toki oʻzini maydakashlik, kek saqlash, gina saqlash, janjal, jinoyat, norozilik oh-vohlardan ozod qilmaguncha, u iflos va tubanlik tabiatidan ozod boʻla olmaydi” [2.134–136]. Abu Nasr Forobiy shahar aholisining stratometrik turlanishini ishlab chiqadi. Bunda jamiyat aʼzolarining oʻzlarini boshqarishlari jamiyatning oʻzini-oʻzi boshqarishiga olib kelishi lozim, lekin bu bilan bir vaqtning oʻzida har bir aʼzoning ruhiy-maʼnaviy kamoloti, usul hamda yoʻnalishiga koʻra individual holda mavjud boʻladi. “Shularning hammasini, deb yozadi Forobiy, ikki yoʻl bilan olish mumkin. Birinchidan, yuqoridagi hodisalar aslida kanday mavjud boʻlsa, inson qalbiga, koʻngliga oʻshanday oʻrnashib qolsa, boshqalarning koʻnglida bu bilimlar qiyosiy yoxud taqlid asosida vujudga keladi. Baʼzi odamlar oʻsha narsalarni oʻzlari his etishlari tufayli koʻngillarida shu bilimlar vujudga keladi”.

Ikkinchidan, ushbu sifatlarga ega boʻlmagan odamlar birikmasi esa adashgan shaharning va jaholatdagi aholisini tashkil qiladi. Fikrlashlari gʻazab, hasad, nafratga asoslangan bunday shahar aholisi doimo bir-birlariga qarshi kurashib, bir-birlariga dushmanlik qiladilar [3.167].

Oʻpta asrlarning yana bir buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniy (973–1048) ham boshqaruvchi va boshqaruv xususida oʻzining qator mulohazalarini yozib qoldirgan. Beruniy “Har bir odamning bahosi

o‘z ishini ajoyib bajarishidir”, deb shaxsning sifat va xislatlarining baholash mezonini ko‘rsatadi [4.8]. Shuningdek, u o‘zining “Hindiston” asarida qo‘yidagi fikrlarni ilgari suradi: “Tabiati jihatdan boshkarish va siyosat ishlariga qiziquvchi, boshliq bo‘lishga fazilat va kuchi bilan haqli, fikr va maqsadda sabotli, davlatni o‘zidan keyingilarga qoldirib, ularning o‘z ota-bobolariga qarshi bo‘lmasliklarini maqsad qilib olgan kishi tomonidan berilgan har bir bo‘yruq, buyurilgan kishi oldida turg‘un tog‘lar singari mustahkam bo‘lib, bunday bo‘yruqqa keyingilar ham ko‘p va uzoq zamonlar o‘tsa-da, bo‘ysunadilar” [5.88–125].

Amir Temur davlatni boshkarish vositalari hakida to‘xtalib shunday yozadi. “Saltanat ishlarida to‘rt narsaga amal kilish lozim: 1. Kengash. 2. Mashvaratu-maslahat. 3. Qat‘iy karor, tadbirkorlik hushyorlik. 4. Ehtiyotkorlik”. “Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat‘iy, tadbirkor va hushyor bir kishi ming - minglab tadbirsiz, lokayd kishilardan yaxshidir”.

Bundan tashqari, Amir Temurning birovni lavozimga ko‘tarishdan oldin uni sinab ko‘rish lozim, ya‘ni o‘rganish lozim, degan g‘oyalari bugungi kunda ham juda dolzarbdir. Uning o‘git va nasihatlari hokimlarga qaratilgan bo‘lib, boshqaruvchi, rahbar tevaragida tabiatan yaxshi niyatli, yuksak ahloq sohibi bo‘lgan kishilar bo‘lgandagina, u to‘g‘ri ishlar qilishi, to‘g‘ri farmonlar chiqarishi mumkin, shundagina mamlakat farovon bo‘lib ravnaq topadi [6.74].

Ahmad Yassaviy (1041–1166) o‘zining “Devoni hikmat” asarida jamiyatni boshqarishning to‘g‘ri yo‘llari, hamda boshqaruvchining odobi, xulqi, halolligi, madaniyatiga tegishli bo‘lgan qator o‘git – nasihatlarni bayon qilgan [7.103–135].

O‘zbek klassik adabiyotining yirik namoyandasi mutafakkir davlat arbobi Alisher Navoiy (1441–1501) vazirlik lavozimida – adolat yo‘lida sabot va matonat, xalq bilan hamdam va hamnafas bo‘lish, xalqchillik, halollik va poklik, vatan dardi bilan yashash, xalq osoyishtaligi uchun fidoiylik kabi sifatlar mujasmlanishi zarur, deb hisoblaydi.

Shuningdek, “Saddi Iskandariy” dostonidagi Iskandar obrazida komil insonga xos xususiyatlar tasvirlanadi u dili, niyati pok xayr-saxovatli, kamtarin va muloyim shaxs, dono podsho va dunyo sirlarini bilishga qiziquvchi aql-zakovat egasi. Bu bilan Alisher Navoiy o‘zining ezgu maqsadi – jamiyat hikmat, adolat va insonparvarlik asosida boshqarilishi kerak degan fikrni ilgari suradi [8].

A.Donish (1827–1897) fikricha, davlatni boshqaruvchi odil va donishmand bo‘lsa, xalqni qashshoqlikdan qutqarish mumkin. A.Donish davlat bir kishiga xos bo‘lmay, balki xalk manfaatlariga xizmat qilishi kerak, degan g‘oyani ilgari suradi. Buning uchun hukmdor bilimdon, odil, donishmand bo‘lmog‘i shart. O‘z fuqarolariga oid masalalarni hal qilishda o‘zini ular o‘rnida, ularni esa o‘z o‘rnida tasavvur qilishi kerak, mamlakatni idora qilishda hukmdor muhim davlat arboblari bilan maslahatlashishi lozim. Hukmdor ularning maslaxatlari bilan hisoblashishi kerak, chunki ko‘pchilikning aqli bir kishining aqliga qaraganda ko‘proqdir. Uningcha, bu hislatlar davlat boshlig‘igagina emas, uning atrofidagi barcha davlat amaldorlariga ham xos bo‘lmog‘i shart [9.74].

Bugungi kun rahbar shaxsining ijtimoiy-psixologik portreti quyidagi fazilatlar asosida shakllanadi:

- ishlab chiqarish sohasidagi kompetensiya;
- tashkilotchilik intuisiyasi kasbiy bilim va tajriba birikmasi sifatida;
- faoliyatni tashkil etish qobiliyati;
- pedagogik qobiliyatlar;
- hissiy va irodaliy faoliyat [11.141–147].

Demak, bugungi kun rahbarining ijtimoiy-psixologik portreti sanab o‘tilgan fazilatlardan tashqari, quyidagilarni o‘z ichiga oladi: yuqori darajadagi aql va yangi bilimlarni egallashga intilish; ijodkorlik va rivojlangan tasavvur; energiya va irodaviy o‘zini o‘zi boshqarish [11.141–147].

Yuqorida qayd etilgan jihatlardan tashqari, boshqaruv faoliyatida muomala ham muhim ahamiyatga ega. Rahbar – yetakchi, boshqaruvchi sifatida muomala madaniyatini ham joyiga qo‘ya olishi shartdir. Boshqaruv jarayonida yoqimli va samimiy muomalada bo‘lish ish unumi va samaradorligiga olib keladi. Bu esa e‘tibor berilishi lozim bo‘lgan bir qancha qoidalarni talab etadi:

- muloqotda rahbarga nisbatan salbiy his-tuyg‘u bildirilsa ham, u o‘zini aqlli deb bilishi, o‘rinsiz xat-taharatlardan o‘zini nazorat qilishi lozim;
- rahbar sifatida suhbatdosh sherigini tushunishi zarur;
- suhbatdosh bilan samimiy muloqotda bo‘lishi;
- muloqotda aytilgan ma‘lumot yetarli asoslarga ega bo‘lishi kerak;
- muloqotda samimiy, do‘stona va ochiq bo‘lish zarur;
- ortiqcha gapirib vaqtni bekorga o‘tkazmaslik lozim;
- suhbatdosh bilan kelishuv natijalari axloqiy me‘yorlarga mos bo‘lishi shart.

– ba’zi bir o‘rinlarda esa suhbatdoshni tanqid qilishi ham lozim [10.143–146].

Shunday qilib, rahbar faoliyatini o‘rganishga bag‘ishlangan adabiyotlarni o‘rganish rahbar faoliyati murakkab, ko‘p qirrali va ko‘p komponentli jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Shuni aytib o‘tish o‘rinliki, bizning mamlakatimizdagi o‘quv maskanlarida maxsus bilimlar beriladi-yu, ammo yaxshi tashkilotchilar, odamlar bilan ishlay oladigan rahbarlar tayyorlanmaydi. Bu yosh mutaxassislarni ancha vaqtgacha rahbarlik vazifalarini bajarishda qator qiyinchiliklarga duch kelishlariga sabab bo‘ladi. Har bir mehnat jamoasidagi mavjud bo‘lgan imkoniyatlardan foydalanib, ma’naviy-ma’rifiy jihatdan yuksak axloqli rahbarlarni tarbiyalash davr taqozosidir. Ma’naviy jihatdan kamol topgan insongina rahbarlik qilishdek yuksak huquqqa ega bo‘ladi.

Buyuk allomalarimizning rahbarlik va rahbar uchun zarur bo‘lgan fazilatlar borasidagi, hamda davlatni idora qilish uslubi, el bilan go‘zal muomalada bo‘lish va xilma-xil muloqot vositalaridan foydalanish, rahbarlik odobi talablari kabi masalalar yuzasidan bildirgan fikrlari juda katta pedagogik va psixologik ahamiyatga ega bo‘lib, ularni o‘qish va ularga rioya qilish faoliyatimizning ravnaqi va istikboliga ta’sir ko‘rsatadi.

Shunday ekan, o‘quv maskanlarida boshqaruv psixologiyasi bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni berish zarur. Maktab va talabalik yillaridan boshlab ularda boshqaruvchilik qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Xulosa. O‘rganib chiqilgan ilmiy manbalarda rahbarlik mavzusiga juda katta e’tibor berilgan. Barcha manbalarda va o‘tkazilgan tadqiqotlarda rahbarlik tarixan doimo jamiyatning eng ilg‘or vakillari diqqat markazida bo‘lganligi, ularda ijtimoiy, tarixiy, madaniy, milliy omillar rahbarlik atrofida qilingan. Bugungi bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tish jarayonida ro‘y berayotgan voqealarning barchasi rahbarlik boshqaruv borasida munosabatlarni o‘zgartirmoqda, ya’ni, jamoada endilikda rahbarning mas’uliyati, o‘rni va ahamiyati oshib bormoqda. Rahbarlik muammolari faqatgina hozirgi zamon olimlarning o‘rganish obyektlari, predmeti bo‘lib qolmay, balki hayotning bu muhim va zarur uchog‘iga e’tibor Sharq mutafakkirlarining ham ilmiy risolalari va qimmatli asarlarida o‘rganilgan. Bu manbalarni o‘rganish hozirgi zamon ilmunfanida va rahbar kadrlarni tayyorlashda tarbiyaviy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, ularni o‘qish, ularga rioya qilish, ish faoliyatimizning ravnaqiga va kelgusi istiqboliga ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2019, 592-bet; 234 – 235-betlar.
2. O‘zbekiston pedagogikasi antologiyasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1995.
3. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri (tanlangan asarlar). Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti, 1993, 124-bet.
4. Beruniy A. Определение границ состояний между населёнными пунктами (геодезия). Исслед. рперс. араб.и примеч. Н.Г.Булгакова, 1996.
5. Beruniy A. Tanlangan asarlar. 2-jild, Toshkent, 1965, 182-bet; 88–125-betlar.
6. Temur tuzuklari. Toshkent, “G‘afur G‘ulom”, 1991.
7. Yassaviy Ahmad. Devoni hikmat. Toshkent, “G‘afur G‘ulom”, 103–135-betlar.
8. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. Mukammal asarlar to‘plami. T., “Fan”, 1991.
9. A.Donish. Navodir ul-vaqoe’. Dushanbe, “Donish”, 1989, 339-bet.
10. Shamiyeva O.R., G.P.Ermatova. Rahbarlik etiketi va muomala madaniyati. “Muallim hem uzliksiz bilimlendiriu”, ilmiy-metodologik jurnal. 2021, № 1–2, 43 – 46-betlar.
11. O.R.Shamiyeva. Rahbarning ijtimoiy-psixologik portreti. “Muallim hem uzliksiz bilimlendiriu”, ilmiy-metodologik jurnal, 2023, № 5\1, 41– 47-betlar.

Ismoilova Dilfuza Abduljalilovna (Navoiy davlat Konchilik va texnologiyalar universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodi),

Berdiev Nor Orziyevich (Navoiy davlat Konchilik va texnologiyalar universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrasida katta o‘qituvchisi),

Saparbayeva Erkinoy Davlatbayevna (Navoiy davlat Konchilik va texnologiyalar universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrasida assistenti)

JADID MAKTABLARIDA CHET TILLAR TARG‘IBOTI

***Annotatsiya.** Maqolada e’tibor XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ma’rifatparvar jadidlarlarining asarlaridagi xorijiy tillar o‘rganishga bo‘lgan zaruriyatiga qaratiladi va tahlil qilinadi. Ayrim ma’rifatparvarlarning o‘zlari ham rivojlangan davlatlarda ta’lim oldilar. O‘lkani rivojlantirish va mustaqillikka*

erishish yo'lini yoshlarni til o'rganib, chet ellarda zamonaviy ta'lim olib kelishi katta ahamiyatga ega ekanligini targ'ib qildilar.

Аннотация. В статье рассматривается необходимость изучения иностранных языков в конце 19-начале 20 века современными интеллектуалами и их творчеством. Некоторые интеллектуалы сами также получили образование в развитых странах. Они высказали мнение, что для молодежи очень важно изучать иностранные языки и привнести современное образование в развитие и независимость страны.

Annotation. The article is focused on the need to learn foreign languages in the late 19th and early 20th centuries of modern intellectuals and their works. Some intellectuals themselves also received education in developed countries. They advocated that it is of great importance for young people to learn foreign languages and bring modern education to the country's development and independence.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, metallga ishlov berish, chilangar, ohangar, cho'yan quyish, foydali qazilmalar, eritish usullari va texnologiyalari, degrezlik, pozagari, taqa.

Ключевые слова: Бухарский эмират, металлообработка, кузнец, кузнец, чугуун, минеральные ресурсы, способы и технологии плавки, обезжиривание, позагари, подкова.

Key words: Emirate of Bukhara, metalworking, blacksmith, blacksmith, cast iron, mineral resources, smelting methods and technologies, degreasing, pozagari, horseshoe.

Insoniyat hayotining tamadduni rivojiga nazar tashlasak, ular doimo tabiat va jamiyatni bilish istagi bilan yashagan. Nafaqat bilish, balki olingan bilim va tajriba asosida uni o'zgartirishga intilish – jamiyat hayotidagi ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga zamin yaratishini ta'kidlash o'rinli. Tarixning shunday ulkan bir davrlari borki, o'sha davr inqiloblari yoki kashfiyotlari o'ziga xos tarzda muhrlangan. Ana shunday ulkan o'zgarishlar va rivojlanishlarga zamin yaratgan ajdodlarimiz XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surgan va targ'ib etgan jadidchilik maktabi vakillaridir. Aytish joizki, bu davrlarda Turkistonda hukm surgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy vaziyat hosilasi sifatida jadid maktabi va uning targ'ibotchilik harakati vujudga kelgan. Bir tomondan, Chor Rossiyasi bosqini, ikkinchi tarafdin, mahalliy amaldorlarning zulmi mamlakatda iqtisodiy tanglik, ma'rifiy qashshoqlik va milliy nifoqni keltirib chiqardi. Bu ziddiyatli davrda o'lkani g'aflat va ma'rifatsizlik botqog'idan olib chiqish yo'llarini izlagan peshqadam ma'rifatparvar ziyolilar – Mahmudxo'ja Behbudiy, Cho'lpon, Fitrat, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Is'hoqxon Ibrat va ularning boshqa safdoshlari edilar. Bu borada jadidchilik harakati namoyandalari serqirra faoliyatni amalga oshirgan. Biroq, biz tadqiq etayotgan jihat bu jadid ma'rifatparvarlari va ularning asarlaridagi xorijiy tillar o'rganishga bo'lgan zaruriyatga qaratiladi. Birgina misol, Is'hoqxon Ibrat ilmiy asar va maqolalarida zamondoshlariga Sharq tillari bilan bir qatorda, G'arb tillarini o'rganishni targ'ib etdi. Adibning o'zi ham Sharq mamlakatlaridan tashqari, Istanbul, Sofiya, Afina, Rim kabi Yevropaning markaziy shaharlarida istiqomat qildi. Makka shahridan Qizil dengiz va Hind okeani orqali Hindistonga kelgan. 1892–1896-yillarda Hindistonning eng katta port shaharlaridan Bombay va Kalkuttada yashab, bu yerda ko'p ishlatiladigan arbailisonni, ya'ni to'rt tilni: arab, fors, hind-urdu va ingliz tillarini mukammal o'rganadi.

XX asr boshlarida podsho hukumatining mustamlakachilik siyosati, tabiiyki, mahalliy aholi o'rtasida rus tiliga bo'lgan ehtiyojni oshirdi. Rus-tuzem maktablari o'lkaning yirik shaharlaridagina emas, balki qishloqlarda ham ochila boshladi. Bunday maktablarda dunyoviy fanlar, ona tili bilan bir qatorda, rus tili ham o'qitilgan. Lekin o'quvchilar, rus va xorijiy tillarni mustaqil o'rganuvchilar uchun darslik va qo'llanmalar yetishmas yoki yo'q edi. Rus tili bilan bir qatorda, o'nga yaqin Sharq va G'arb tillarini ancha mukammal bilgan Is'hoqxon Ibrat bu muhim masalada ham o'z xalqiga yordam qo'lini cho'zdi. U olti tildagi: arabcha, forsha, hindcha, turkcha, sartcha (o'zbekcha) va ruscha so'zlarni o'z ichiga olgan «Lug'ati sitta al-sina (Olti tilli lug'at)»[1] nomli lug'at kitobini yaratgan. Is'hoqxon to'ra chet ellarda xalq hayoti, ularning madaniyati, san'ati bilan yaqindan tanishdi, o'rgandi, ilmiy asarlari uchun qimmatli ma'lumotlar to'playdi. Ibrat Arabistonda fransuz tilini, Hindistonda ingliz tilini, shu bilan birga, eng qadimiy finikiya, yahudiy, suriya, yunon yozuvlarini o'rgandi. Uning Sharq va G'arb xalqlari tillarini ancha mukammal bilganligini e'tirof etib, zamondoshi Ibrohim Davron: «...Fazoili insoniyadin maoda qozi to'ra (Is'hoqxon) janoblari turkcha, forsha, hindcha, ruscha lison bilib, yana ruscha, fransuzcha, armanicha va boshqa xatlar yozmoqqa mohirdurlar» deb yozadi. Is'hoqxon Ibrat bu mamlakatlarda qurilgan Yevropa usulidagi shaharlar, ularning madaniy hayot va texnika yangiliklari bilan tanishar ekan, yuksak texnika, zamonaviy bilimlarni tushunish uchun G'arb tillarini bilish zarur ekanligini yaxshi angladi. Biroq bu madaniy hayotdan bahramand bo'la olmayotgan, mustamlaka zulmi ostida azob chekayotgan xalqlar hayoti uni iztirobga solardi. Adib chet ellarda olim va fozil kishilar bilan, ular qaysi dinga yoki millatga mansub bo'lishidan qat'i nazar, yaqin

aloqada bo'ldi. «Har bir lison safar ahlini yuz oltun barobarinda» ishlatilganligini tushingan ma'rifatparvar chet tillarni o'rganishga katta e'tibor bergan. Jadidlar ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat keng bilim egallashi, ayni paytda, chet mamlakatlardagi tengdoshlari bilan faol muloqot qilish, dunyoda ro'y berayotgan barcha voqea-hodisalar, yangilik va o'zgarishlardan atroflicha xabardor bo'lish, jahondagi ulkan intellektual boylikni egallashning eng muhim sharti hisoblangan xorijiy tillarni ham chuqur o'rganish masalasini alohida vazifa sifatida qayd etdi. Shu kabi masalalar boshqa jadid namoyandalari faoliyatida ham kuzatilishi milliy taraqqiyot va milliy davlatchilik rivoji masalalari bugungi kunda ham izchil davom etayotganidan dalolatdir.

Bundan yuz yillar oldin ma'rifatparvar vatandoshlarimizdan Mahmudjo'ja Behbudiy bildirgan fikrlari, ayniqsa, qimmatli, uning aytishicha, millatning taraqqiysi uchun bir-necha tillarni bilish shartdir. Behbudiy o'zi asos solgan va muharrirlik qilgan «Oyna» jurnalining 1913-yil 13-avgust 1-sonida «Ikki emas, to'rt til lozim» maqolasi bilan chiqish qiladi. Shuningdek, faoliyati davomida jurnalni to'rt tilda nomlagani ham chet tillarni bilish va egallash favqulodda zarurligidan dalolat beradi. M.Behbudiy bu masalada shaxsan o'zi ibrat bo'lib, bir qiz va uchta o'g'il bo'lgan farzandlarini barchasini to'rtta (arabiy, rusiy, turkiy, forsiy) xorijiy tillarni mukammal biladigan darajada tarbiyalab voyaga yetkazgan.

Yana bir jadid namoyandasi Munavvar qori Abdurashidxonov o'zbek xalqining milliy ozodlikka erishish yo'lida faoliyat ko'rsatgan pedagog, jurnalist, jamoat arbobidir. XX asr boshlarida o'lkada yuz berayotgan voqealar tufayli, xalqning ruhi tushib ketganini, ziyolilarning esa ma'naviy tanazzul tomon yuz o'girganini ko'rgan Munavvar qori bu holatlarning ijtimoiy ildizini tekshirishga urinadi. Ushbu urinish uning maktab va madrasa faoliyatini tamoman isloh qilish zarur, degan xulosaga kelishiga turtki bo'ldi. U madrasalarda diniy saboqlar bilan birga ijtimoiy fanlarni o'qitish masalasini ko'targan. Sababi, ongda, fikrlashda, maorifda o'zgarish qilmay turib, siyosatda yangilanish mumkin emas.

Munavvar qori maktab-maorif islohoti, tom ma'nodagi milliy maktab yaratish niyatidan sira qaytmagan. Maktabda rus tilini o'qitish masalasini ijobiy hal qildi, bu haqda Sirdaryo viloyat 1-tuman xalq o'quv yurtlari inspektori 1914-yil 30-yanvarda yozgan raportida [2]. «Faqat Munavvar qorida rus tilini o'rgatish uchun ruxsat bor. Bu rus tili o'qitiladigan yagona maktabdir», deydi. M.Abdurashidxonovning shaxsan o'zi o'quv dasturlarini takomillashtirishga harakat qildi. 1914–1916-yillarga kelib Turkistondagi ko'pgina maktablar Munavvar qori tuzgan dastur asosida ishlagan. Dasturga ko'ra, maktablarda o'qish olti yillik bo'lib, «Usuli jadid» maktablarining 4-sinfidan boshlab rus tili o'qitish ko'zda tutilgan. Munavvar qori «milliy maktab» asoschisi bo'lib qolish bilan birga, chet elga bolalarni o'qishga yuborish masalasini ko'tardi. Bu haqda Abdurahmon Akbarov quyidagicha yozadi: 1916-yil oxirlari edi. Toshkentda Kattaxo'ja Xo'jayevning uyida bo'lib o'tgan yig'ilishda Munavvar qori: «O'zbek ziyoli bolalarini Germaniyaga yuborib o'qitishga juda muhtojmiz. Bolalar o'qib, ilm tahsil qilib kelsalar, millatga katta xizmat qila oladilar», deb ma'ruza qilgan. Bu kabi yig'ilishlar tez-tez o'tib turgan va munozaralar davom etgan. O'z faoliyatida Munavvar qori bu bilan kifoyalanmay, «Nashri maorif» uyushmasi tomonidan ham talabalarga yordam ko'rsatadi. Mustamlakachilar qanday hunar ko'rsatmasinlar, adib va murabbiy mahalliy boylarning boshini qovushtirib, ma'rifatga xizmat qildiradi. Shuning uchun ham u bir necha bor hibsga olingan edi.

Jadidlarning mashhur vakillaridan biri Abdulhamid Cho'lpon, avval, eski maktabda o'qib xat-savodini chiqargach, Andijon va Toshkent madrasalarida arab, fors, turk tillarini mukammal egallaydi. Ammo davrning shiddati zo'r edi, hayot tez sur'atlar bilan o'zgarib bormoqda edi. Yangi paydo bo'layotgan ijtimoiy muhitda samarali faoliyat ko'rsatmoq uchun an'anaviy bilim bilan chegaralanib qolish mumkin emas edi. Zamonaning zaylini chuqur his etgan Cho'lpon Andijonda yangi ochilgan rus-tuzem maktabiga ham kirib o'qiydi, u yerda bir qancha dunyoviy ilmlarni, ayniqsa, rus tilini mukammal o'rganadi [3]. Rus tili orqali Cho'lpon nafaqat Rossiya, balki butun Yevropa tarixi va madaniyatining darchalarini keng ochib berdi.

Jadidlar, birinchi navbatda, xalqning savodini chiqarish va jahon andozasi darajasida bilimini oshirishga kirishdilar. Ular yoshlarni o'qitish uchun Germaniya, Fransiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlarga yuborishni hukumatdan talab etdilar. Bu haqida Cho'lpon: «Biz rus tili bilan emas, hatto Ovropani madaniyati millatlarining tili va bilimi bilan javob bersak, odam qatori yashamoqqa, albatta, haq qozonarmiz» deb ta'kidlaydi [4]. Bunday takliflarni Cho'lponning «Do'xtir Muhammaddiyor», M.Behbudiyning «Ehtiyoj millat», Hamzaning «Muallif afandilarga ulug' rijomiz» singari maqolalarida bayon etilgan.

Abdulla Avloniy Turkiston milliy uyg'onish adabiyotining e'tiborli vakillaridan, shoir, dramaturg, jurnalist. Ayni paytda, murabbiy, ilk darsliklar muallifi. «Maktab», «Nashriyot» shirkatlari muassisi. O'zbek teatrining asoschilaridan – Toshkentdagi «Turon» teatr havaskorlari guruhi tuzuvchisi. Nihoyat, Afg'oniston va Turkiston o'rtasidagi o'zaro qo'shnichilik munosabatlarini o'rnatishga uringan yangi davr diplomatlaridan edi. Abdulla Avloniy fors, rus, ozarbayjon, arab tillarini yaxshi bilgan [5] sharq va g'arb mada-

niyati bilan yaxshi tanish bo'lgan Avloniy bu yo'nalishda 20-yillarda samarali ilmiy ishlar ham olib bordi. 1930-yilda SAGU Pedagogika fakultetining til bilimi kafedrasi bo'yicha professor bo'lib tasdiqlangani bejjiz emas. U o'z xalqi g'amiga hamdardgina bo'lib qolmay, uning istiqboli uchun qayg'urdi, ozodlik, baxt va muqaddas g'oyalar uchun kurashga da'vat qilgan. Maktablar ochib, keng xalqni ma'rifatli qilishga, yoshlarni davrning ilg'or ruhida tarbiyalashga urindi. Ta'limiy-axloqiy asarlar, darsliklar yozib, o'zbek pedagogikasi taraqqiyotida sezilarli iz qoldirdi. Shuningdek, jadidchilik harakati, ya'ni milliy ongning maydonga kelishi taraqqiyotida katta rol o'ynagan. Hozirda ustoz pedagog Abdulla Avloniy nomida qator maktablar faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bolalar adabiyoti bo'yicha uning nomida mukofot ta'sis etgan. Toshkent shahridagi ikki mahalla, uch maktab va ko'cha hamda Respublika o'qituvchilar malakasini oshirish markaziy instituti ham uning nomi bilan ataladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, chet tilini o'rganish insonni nafaqat barkamol bo'lishida o'rin tutadi, balki inson tafakkuri rivoji orqali mamlakat ravnaqiga ham hissa qo'shadi. Demak, ulug' ajdodlarimiz ma'rifat targ'ibotchilari jadidlar faoliyatida xorijiy tillarni o'rganish va targ'ib qilishni asosiy maqsad deb, shu orqali millatni rivojlantirishda faol bo'lgan. Mazkur faoliyat zamonaviylashib borayotgan mamlakatimiz taqdiri uchun ham muhim masalalardan bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Исҳоқхон Ибрат. Луғати ситта ал-сина. Тошкент, Ильин типографияси, 1901.
2. Мунаввар қори Абдурашидхонов. Танланган асарлар (Таҳрир ҳайъати: О.Шарафиддинов, Н.Аминов, Н.Каримов ва бошқ. Масъул муҳаррир Н.Каримов). Тошкент, “Маънавият”, 2003, 304-бет; Исмоилова Д.А., Бердиев Н.О. (2020). Изучение места и роли ислама в общественно-политической и духовной жизни Туркестана в конце XIX – начале XX веков. Наука, образование и культура, 2 (46), с. 35 – 37.
3. Чўлпон. Яна олдим созимни. Н.Каримов, Ш.Турдиев (тўпл.). Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991, 576-бет.
4. Жади́дчилик: ислохот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш (Туркистон ва Бухоро жади́дчилиги тарихига янги чизгилар). Даврий тўплам, 1-сон, Тошкент, “Университет”, 1999, 220-бет.
5. Абдулла, Авлоний. Танланган асарлар. 2 жилдлик. Таҳрир ҳайъати: О.Шарафиддинов, Н.Аминов, Н.Каримов ва бошқ. Тўпловчи Б.Қосимов; изох ва луғат О.Тўлабоевники). 1-ж, шеърлар, ибратлар, Тошкент, “Маънавият”, 2006, 272 бет (Истиклол қаҳрамонлари).

Sultanova Nargiza (Toshkent davlat Pedagogika universiteti “Aniq va tabiiy yo'nalishlarda xorijiy tillar” kafedrasi dotsenti v.b.)

TALABALARNING INGLIZ TILIDAGI YOZISH KO'NIKMALARINI OSHIRISH USULLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilida yozish ko'nikmalarini oshirishning talabalar uchun ahamiyatli jihatlari va qanday zamonaviy usullar yordamida ularning yozish mahoratlarini shakllantirish mumkinligi xususida so'z boradi. Universitetda tahsil olayotgan talabalarning yozish ko'nikmalarini oshirish ularning ilmiy ishlarida ham muhim ahamiyatga ega ekanligiga alohida urg'u beriladi. Bundan tashqari, yozish mahoratini oshirish uchun foydali bo'lgan kitoblar, o'quv qo'llanmalar va ilovalar haqida ham ma'lumotlar berilgan.

Аннотация. Эта статья фокусируется на актуальных аспектах улучшения навыков письма на английском языке для студентов и на современных методах, которые могут быть использованы для формирования их писательских навыков. Особое внимание уделяется тому, что улучшение навыков письма студентов, изучающих в университете, также важно для их научной работы. Кроме того, предоставлена информация о книгах, учебниках и приложениях, которые полезны для улучшения навыков письма.

Annotation. This article focuses on the relevant aspects of improving writing skills in English for students and what modern methods can be used to shape their writing skills. Special emphasis is placed on the fact that improving the writing skills of students studying at the university is also important in their scientific work. In addition, there is also information about the book, tutorials and applications that are useful for improving writing skills.

Kalit so'zlar: yozish mahorati, ingliz tili, axborot texnologiyalari, foydali ilovalar, zamonaviy metodika, innovativ usullar, interaktiv darslar.

Ключевые слова: навыки письма, английский язык, информационные технологии, полезные приложения, современная методология, инновационные методы, интерактивные уроки.

Keywords: *writing skills, English, information technology, useful applications, modern methodology, innovative methods, interactive lessons.*

Ingliz tilida yozish ko'nikmalarini yaxshilash yozma ingliz tilida samarali muloqot qilish qobiliyatini oshirishni o'z ichiga oladi. Bu grammatika, lug'at va sintaksisni chuqur o'zlashtirishni, shuningdek, yozishni aniq va izchil tarzda qanday tuzishni o'rganishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, yozish ko'nikmalarini takomillashtirish turli formatlarda malakali bo'lish uchun insholar, hisobotlar, ijodiy yozish va professional yozishmalar kabi turli xil yozish turlarini mashq qilishni o'z ichiga oladi. Ingliz tilida keng ko'lamli o'qish va yozganingiz haqida fikr-mulohazalarni olish ham yaxshilanish uchun juda muhimdir.

Chet tilini o'qitishga bo'lgan talab kundan kunga va bosqichma-bosqich ortib bormoqda. Yuqorida aytib o'tilganidek, chet tili to'rt komponentga (o'qish, o'qishni tushunish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linadi, ularning har biri alohida tushuncha va ko'nikmalarni o'rgatadi. Ta'lim jarayonida ta'lim texnologiyasi hozirgi axborot texnologiyalarining ajoyib qurolidir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga ilg'or texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga intiladi. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'rganishda bunday axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning turli afzalliklari bor.

Talabalarning yozish mahoratlarini oshirish uchun bir qancha zamonaviy va an'anaviy usullardan foydalanish mumkin.

Kitob mutoaalasi. Turli xil materiallarni o'qish talaba yoshlarni turli yozish uslublari, so'z boyligi va jumla tuzilmalari bilan tanishtiradi. Bu g'oyalar va ma'lumotlarni yozma shaklda qanday qilib samarali yetkazishni tushunishga yordam beradi. O'qish ularni grammatikadan to'g'ri foydalanish bilan tanishtiradi va umumiy tilni tushunishlarini oshiradi [1.45–62].

Doimiy ravishda yozish. Ingliz tilida yozishni muntazam mashq qilish orqali ularning yozishida ravonlik, ijodkorlik va izchillikni rivojlantirishingiz mumkin. Jurnal yozish, hikoya qilish yoki professional tarzda yozish orqali bo'ladimi, izchil amaliyot ularning mahoratini oshiradi va o'ziga xos uslubini topishga yordam beradi.

Grammatikani va lug'atni o'rganish. Grammatika qoidalarini tushunish va lug'at boyligini kengaytirish talabalarga o'z fikrlarini yanada aniqroq va ta'sirchan ifodalash imkonini beradi. Buni grammatika kitoblari, lug'atni rivojlantirish mashqlari va til o'rganish ilovalari orqali amalga oshirish mumkin.

Fikr-mulohazalarni izlash. Talabalar o'z ishlarini o'qituvchilar, tengdoshlar yoki yozish guruhlari kabi boshqalar bilan baham ko'rish orqali yaxshilash kerak bo'lgan joylarni aniqlashga yordam beradi. Konstruktiv fikr-mulohaza yozish uslubini va yondashuvini takomillashtirish imkonini beradi.

Tahrirlash va qayta ko'rib chiqish. Yozilgan matnlarni tahrirlash va qayta ko'rib chiqishni o'rganish, yozish mahoratining oshishi va yozilgan matnlarning uyg'unligini oshirish uchun zarur. Bu esa talabalarga g'oyalarini takomillashtirish, yozilgan essay yoki maqolaning izchilligini ta'minlash va xatolarni qayta ko'rib chiqib, tartibga solishga imkon yaratadi. Ushbu usullarni izchillik bilan qo'llash vaqt o'tishi bilan ingliz tilida yozish qobiliyatlarini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Har bir yondashuv ularning yozish mahoratini har tomonlama rivojlantirishga yordam beradi.

Yozish amaliyoti, grammatikani to'g'rilash va so'z boyligini kengaytirish imkonini beruvchi texnologiya vositalari va platformalaridan foydalaning. Masalan, interaktiv onlayn yozish platformalari tezkor fikr-mulohaza va tuzatishlarni taqdim etishi mumkin. Yozish amaliyoti, grammatikani to'g'rilash va so'z boyligini kengaytirish imkonini beruvchi texnologiya vositalari va platformalaridan foydalanish kerak bo'ladi. Masalan, interaktiv onlayn yozish platformalari tezkor fikr-mulohaza va tuzatishlarni taqdim etishi mumkin.

Talabalar uchun ingliz tilidagi yozish mahoratini oshirish ular uchun ko'plab imkoniyat eshiklarini ochadi. Masalan, ulardan biri bu muloqot. Kuchli yozish ko'nikmalari o'quvchilarga o'z g'oyalari, fikrlari va istiqbollarni samarali yetkazish imkonini beradi. Bu malaka ham akademik, ham professional sharoitlarda juda muhim. Shuningdek, ingliz tilida yozishni bilish akademik muvaffaqiyat uchun zarurdir. Talabalar mavzular bo'yicha o'z tushunchalarini ifodalay olishi, izchil dalillar keltirishi va turli baholash topshiriqlarida, masalan, insho, hisobot va tadqiqot ishlarida samarali muloqot qila olishi kerak. Ayniqsa, karyerada o'sish uchun ham tobora globallashtirib borayotgan dunyoda ingliz tili xalqaro muloqot, savdo va biznesning asosiy tiliga aylandi. "Ingliz tilini yozish qobiliyatlari kasbiy hujjatlar, hisobotlar va ishbilarmonlik aloqalarini yaratish uchun juda muhim bo'lganligi sababli keng ko'lamli martaba imkoniyatlarini ochib beradi" [2.112–128].

Axborot texnologiyalari va zamonaviy o'qitish usullarini integratsiyalash qobiliyati yangi ma'lumotlarni tez o'zlashtirishga yordam beradi. O'qituvchi turli strategiyalarni birlashtirib, ma'lum kurslarni hal qilishi mumkin. Buning samarasida o'qituvchi va talabalar xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy usullari

bilan yaqindan tanishdilar. Natijada siz o'z maqsadlaringizga erishish uchun eng samarali usulni tanlashingiz mumkin bo'ladi. Bir qator o'qitish va o'rganish usullaridan foydalanish foydali bo'lishi mumkin [3.18–19]. O'qitishda kichik qadamlar qo'yiladi va u o'quvchining mavjud bilim tizimiga asoslanadi. Boshida talaffuzga urg'u beriladi. Harmerning fikricha, ona tilida so'zlashuvchining birinchi sharti talaffuzdir. O'qituvchi mashg'ulotning boshida talabaning talaffuziga e'tibor qaratishi kerak. Grammatika va lug'at qimmatli, ammo ma'ruzachi ularni noto'g'ri talaffuz qilsa, ular foydasiz. Agar ma'ruzachi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilsa, ona tilida so'zlashuvchilar grammatik xatolar bilan muloqotni tushunishlari mumkin. Natijada talaf-fuzga sinflarda eng ko'p e'tibor beriladi [4.78–94].

Shu jumladan, yozish tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, o'quvchilarga axborotni tahlil qilish, sintez qilish va baholash imkonini beradi. Fikrlarni tuzilgan yozma shaklda tashkil etish jarayoni o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga va o'z fikrlarini aniq ifodalashga undaydi. Eng asosiysi, samarali yozish o'quvchilarga o'z ijodkorligi, tasavvurlari va o'ziga xos istiqbollarni ifoda etish imkoniyatini beradi. Bu ularning individual ovozi rivojlantirishga va o'z fikrlari va his-tuyg'ularini aniq tarzda yetkazishga yordam beradi. Shuningdek, yozish orqali talabalar turli madaniyatlar, jamiyatlar va istiqbollarni o'rganishlari mumkin. Bu ularga turli global qarashlarni tushunish va qadrlash imkonini beradi, empatiya va madaniyatlararo tushunishni rivojlantiradi.

Zamonaviy til o'qitish yangi ma'lumotlarni o'z-o'zini tahlil qilish va tartibga solish qobiliyatiga ega bo'lgan madaniyatli shaxsni rivojlantirishga qaratilgan. Umumiy tizimni modernizatsiya qilish innovatsion usullardan foydalanishni taqozo etadi. Shuni yodda tutgan holda, o'qituvchilar eng ilg'or g'oyalar bilan tanishishlari mumkin, keyin ularni aralashirib, ta'lim tizimini sezilarli darajada kengaytirishga yordam berish uchun o'z ishlarida qo'llashlari mumkin [5.66–68]. Ko'pgina korxonalar axborotni uzatish va qabul qilish uchun multimedia imkoniyatlarini yangi bosqichga ko'tarmoqda.

Yana bir muhim tomoni shundaki, yozish o'quvchilarga o'z tajribalari haqida fikr yuritish, his-tuyg'ularini qayta ishlash va o'zini chuqurroq anglash uchun vosita beradi. U o'zini namoyon qilish va shaxsiy rivojlanish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Umuman olganda, ingliz tilini yozish ko'nikmalari talabalar uchun ajralmas hisoblanadi, chunki ular nafaqat samarali muloqot va akademik muvaffaqiyatga yordam beradi, balki tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va shaxsiy rivojlanishni ham rivojlantiradi. Ushbu ko'nikmalar zamonaviy dunyoning murakkabliklarida harakat qilish va akademik va professional ishlarda muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilida talabalarni yozish qobiliyatlarini oshirish uchun kitob o'qish, amaliyot, fikr-mulohaza yuritish kabilar juda muhim ahamiyatga ega. Jarayonni qabul qiling, yozish tartibingizga sodiq qoling va turli uslub va janrlarni o'rganishga ochiq qoling. Esda tutingki, siz yozgan har bir asar qisqa yoki keng bo'lsin, yozuvchi sifatida o'sishingizga hissa qo'shadi. Yozma so'z orqali o'zingizni aniqlik va ijodkorlik bilan ifoda etishning rivojlanayotgan sarguzashtlaridan zavqlaning.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Smith J. (2022). Effective Writing Strategies: A Comprehensive Guide. *Journal of Writing Excellence*, 15 (2), p. 45–62.
2. Brown A., & Johnson M. (2021). The Impact of Reading Habits on Writing Proficiency. *International Journal of Language Studies*, 8(4), p. 112–128.
3. Gulnoza S. (2022). Professional auditory ability of students. *Confrencea*, 6 (6), p. 18–19.
4. Gonzalez R., et al. (2020). Utilizing Technology for Writing Enhancement: A Comparative Analysis of Writing Apps. *Journal of Educational Technology*, 25 (3), p. 78–94.
5. Rahmatillaevna S.G. (2021). Using Educational Information Resources to Develop Students' Professional Listening Skills. *European Scholar Journal*, 2 (1), p. 66–68.
6. Rakhmatillaevna S.G. (2021). THE CURRENT STATE OF SPEECH IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' PROFESSIONAL AUDITORY ABILITY (COLLOQUIAL SPEECH) AND WRITTEN ("WRITING") SPEECH. *Open Access Repository*, 1 (02), p. 60–67.
7. Rakhmatillaevna S.G. (2019). Theoretical concept of text and literary text. *Проблемы педагогики* (1. 40), p. 38–39.
8. Gonzalez R. et al. (2020). Utilizing Technology for Writing Enhancement: A Comparative Analysis of Writing Apps. *Journal of Educational Technology*, 25(3), p. 78–94.

Кучкарова Гулноз Рахмоновна (ассистент Бухарского Инженерно-технологического института;
gulimkuchkarova@mail.ru)

АРХИТЕКТУРА И ДИЗАЙН МАВЗОЛЕЯ АБУ ХАФСА КАБИРА

Annotsiya. Abu Hafis Kabir ziyoratgohi alohida ajralib turadi, uning gullab-yashnashi tarixi bizning yaqin o'tmishimiz bilan bog'liq. Hazrat maqbarasi o'ziga xos tarzda imomlik maqomini oldi. Masjid qurilish tarixi, tarixiy va zamonaviy qurilishni o'z ichiga oladi.

Аннотация. Святилище Абу Хафс Кабир стоит особняком, история его процветания естественным образом связана с нашим недавним прошлым. Мавзолей Хазрата получил статус имама уникальным образом. История строительства мечети включает в себя историческое и современное строительство.

Annotation. The sanctuary of Abu Hafis Kabir stands out, the history of its prosperity is naturally connected with our recent past. The mausoleum of Hazrat achieved the status of imam in a unique way. The history of the construction of the mosque includes historical and modern construction.

Kalit so'zlar: zina, maqbara, masjid, me'mor, ark, muqarnas.

Ключевые слова: ступень, мавзолей, мечеть, зодчий, арка, мукарнас.

Key words: step, mausoleum, mosque, architect, arch, mukarnas.

Введение. В архитектуре наряду с требованиями комфорта, красоты и другими эстетическими требованиями предусмотрены требования к ее целесообразности и экономичности. Девиз “удобный, желанный, прочный и красивый” существует с древних времен. Этот девиз прочно объединил в себе материальный и художественный основной закон в архитектуре. Здания Средней Азии строятся в основном из кирпича – высушенного на Солнце (сырого) или обожженного кирпича. В качестве строительного материала камень применялся нечасто. Если дать возможность определить нынешнее состояние наших знаний о зданиях Средней Азии, то самые древние сооружения строились из глины, еще в IX–X веках в качестве строительного материала стали использовать обожженный кирпич. Это было результатом огромного развития экономической жизни страны. Раньше обожженный кирпич использовался лишь частично в зданиях из сырцового кирпича, например, при строительстве сводчатых потолков.

Анализ и результаты. Среди святынь Бухары выделяется мавзолей Абу Хафса Кабира, история процветания которого естественно связана с нашим недавним прошлым. Мавзолей Хазрата, который возвысился до статуса имама, длиной 16 метров. Он окружен открытой верандой. Купол мавзолея типичен для архитектуры 9 века. Коридор был расширен до главных ворот. В святилище имама хазрата была отремонтирована старая мечеть, построенная в 16 веке, и старинный хавуз (бассейн). При мавзолее была построена новая мечеть. История строительства мечети включает в себя как историческое, так и современное строительство. Одной из его особенностей является то, что он построен полукупольным способом, высота которого составляет 12 метров. Вторая секция купола, представляющая руку, открывающуюся для молитвы, освещает второй этаж мечети. Мечеть рассчитана на 1000 мест, мастера использовали архитектурный стиль 16 века при строительстве михраба




мечети. Доказательством того, насколько глубокой историей обладает мавзолей Абу Хафса Кабира и этот мавзолей, являются соответствующие отрывки из текста “Истории Бухары”: в одном из них говорится: “Могилы Афрасиаба находится в Бухаре, у ворот Мабида, рядом с могилой великого Ходжи Абу Хафса, над большой крепостью”. Поскольку и гробница Абу Хафса, и холм легендарного царя Афрасиаба сохранились под одними и теми же именами, локализовать ворота мавзолея несложно: они лежат на дороге, проходящей через ворота имама. (Хазрат имам) этот Мазар (святыня), сохранился до

